

DAVLAT VA HUQUQ
NAZARIYASI

DARSLIK

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI

DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI

Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik
mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan
talabalari uchun

2005
Namangan
Davlat
Universitetining
Oliy kutubxonasi

**NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI**
Ahborot-resurs markazi

Toshkent - 2005

*O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, yuridik fanlar doktori, professor X.B.Boboyev
va yuridik fanlar doktori, professor X.T.Odilqoriyevlarning umumiy tahriri ostida*

Mualliflar tarkibi:

O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, yu.f.d. prof. **H.B.Boboyev** - Kirish,
II bob, y.u.f.d., prof. **Z.M.Islomov** - I, III, IV, V boblar, yu.f.d. prof. **X.T.Odilqoriyev** -
Kirish, X, XIII, XVIII boblar, yu.f.d. prof.

H.T.Odilqoriyev, yu.f.n. **E.M. Abzalov** bilan hammualliflikda -
VIII bob, yu.f.d., prof. **A.X.Saidov** - XX bob f.f.d., prof. **N.T.Shodiyev**,
yu.f.d. prof. **Z.M.Islomov** bilan hammualliflikda - XXI bobning 1-755,
yu.f.n., dots. **Q.T.Xolmo'minov** - XVI, XIX boblar, yu.f.n., dots. **X.Nazarov** -
VII bob, yu.f.n., dots. **G.M.Tansiqboyeva** va o'qituvchi **M.M.Inoqova** - IX bob,
yu.f.n., dots. **A.R.Boltayev**, o'qituvchi **F.P.Xayitboyev** bilan hammualliflikda - VI
bob, yu.f.n., dots. **M.A.Ahmadshoyeva** - XII. XIV boblar, yu.f.n., **M.A.Hamidova**

XXI bobning 8-11 §§., katta o'qituvchi **O.O.Xusanboyev** - XI bob, yu.f.n.dots.
M.K.Najimov - XV bob, yu.f.n.dots. **N.Saburov** - XVII bob.

Mas'ul muharrirlar: *O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, yuridik fanlar doktori,
professor H.B.Boboyev va yuridik fanlar doktori. prof. X-T.Odilqoriyev.*

Taqrizchilar: Akademik X.R.Rahmonqulov, yu.f.d., prof. M.M.Fayziev

Davlat va huquq nazariyasi: Oliy o'quv yurtlarining
huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalari
uchun \Boboyev H.B., Islomov Z.M.; //Mas'ul muharrirlar:
H.B.Boboyev, H.T.Odilqoriyev \.-T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi"
nashriyat uyi, 2000. Sarf. oldida.: O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi, Toshkent Davlat yuridik instituti. Qayta ishlangan va
to'ldirilgan 2005.

I. Boboyev H.B. va boshq.

Darslik davlat va huquq sohasidagi hozirgi zamon ilmiy konsepsiyalarini inobatga
olgan holda tayyorlandi. U davlat va huquqni talqin etishdagi an'anaviy yondashuvlar bilan
bir qatorda yangi muammolar hamda nuqtai nazarlarni ham qamrab olgan. Shuningdek,
unda O'zbekistonda shakllanayotgan demokratik davlatchilik va huquqiy tizim
xususiyatlariga oid nazariy xulosalar o'z ifodasini topgan. Davlat va huquqning mohiyati,
mexanizmi, funksiyalari va islohotlar davridagi roli jonli tarzda bayon etildi.

Darslik talabalarga, magistrant, aspirant va yuridik oliy ilmgohlar o'qituvchilariga,
mutaxassislariga, shuningdek, davlat va huquq masalalariga qiziquvchi barcha
kitobxonlarga mo'ljallanadi.

Kirish

Yuridik bilim yurtlarida davlat va huquq masalalari an'anaviy tarzda alohida nazariy fan va o'quv predmeti - "Davlat va huquq nazariyasi" doirasida o'rganib kelinadi. U huquqshunoslik fanlari orasida yaqqol nufuzli mavqega ega. Mazkur fan o'zining metodologik va nazariy asos sifatidagi xususiyatlari bilan butun yurisprudensiya sohasida ajralib turadi.

Davlat va huquq nazariyasi huquqshunoslikning nihoyatda boy, serqirra, shu bilan birga murakkab, sirli olamiga kirishning kaliti bo'lib xizmat qiladi. Huquqiy tafakkur, siyosiy va huquqiy dunyoqarash, ong hamda yuridik madaniyatni shakllantirish, jamiyatdagi davlat-huquqiy voqeliklar xususida muntazam tizimli bilimlar hosil qilish - bu fanning (o'quv kursining) asosiy vazifasidir. O'rganish hamda tadqiqot doirasiga "davlat", "huquq", "qonun", "demokratiya", "hokimiyat", "siyosat" kabi jozibali, murakkab hodisalarni qamrab oluvchi ushbu fan huquqshunoslikning o'ziga g'oya qomusi sifatida maydonga chiqadi. Qolaversa, u talabalar talqini uchun huquq falsafasi, davlat va huquq sotsiologiyasidek qiziqarli yo'nalishlarni o'zida mujassam etadi. Bir so'z bilan aytganda, huquqshunoslik ilmining umumnazariy zaminini tashkil qiladi.

Insoniyat qadim zamonlardan buyon davlat va huquq masalalariga katta qiziqish bilan munosabatda bo'lib keladi. Davlat hokimiyati hamda huquqiy hayot hodisalari hamma zamonlarda alohida dolzarbiik kasb etib kelganligi barchaga ayon. Bu voqeliklar mustaqil O'zbekiston Respublikasi uchun ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Zero, yangi demokratik davlatchilik binosini barpo etayotgan jamiyatimiz davlat, demokratiya, huquq, qonunchilik, xalq hokimiyatchiligi, inson huquqlari kabi qator kategoriyalar mazmun-mohiyatini qayta mushohada etishga muhtoj. Davlat va huquq nazariyasi davlat hamda huquqning vujudga kelishi, rivojlanishi va namoyon bo'lishining eng umumiy qonuniyatlarini ochadi, ularni ilmiy talqin etadi, ilmiy ta'rif va tavsifini yaratadi. Fanning bu funksiyasi biz uchun juda zarurdir.

Biz yaqin o'tmishimizda sinfiy hukmronlikning quroli sifatida davlat haqidagi markscha g'oyani shior qilib olib, bu nazariyani dogmaga, davlat va huquqni esa sinfiy kurash, sinfiy raqiblarni

yengish vositasiga aylantirgan edik. Mustaqillik tafakkurining mahsuli sifatida bu borada ham yangicha nazariy qarashlar qaror topdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov talqinida davlat va huquq yangicha tavsifga ega bo'ldi. "Demokratiya sharoitida, - deb ta'kidlaydi yurtboshimiz, - davlat ijtimoiy qarama-qarshiliklarni zo'rlik va bostirish yo'li bilan emas, balki ijtimoiy kelishuv, xalq ta'biri bilan aytganda, murosai madora bilan bartaraf etish vositasiga aylanadi.

Huquqning o'ziga esa ijtimoiy hamjihatlik va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga keltirish vositasi sifatida yondashiladi"¹.

Bugungi o'zbek jamiyati o'zi uchun huquqiy davlat, inson huquqlari va shaxs erkinligi, demokratik fuqarolik jamiyati, siyosiy hurfikrlilik (plyuralizm), hokimiyatlar taqsimlanishi, qonun ustuvorligi, mustaqil sud hokimiyati kabi fundamental tushunchalarni qayta kashf etmoqda. Tan olish lozimki, jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotini zamonaviy ma'rifiy tamoyillar asosida isloh etishda davlat va huquq benihoya katta rol o'ynaydi. Shu bois davlat tuzilishi, demokratik siyosiy tuzilishning mavjud bo'lishi, huquqiy munosabatlar oqilona tizimining tashkil etilishi ko'p jihatdan mamlakatimizdagi davlat-huquqiy institutlarning faoliyatiga bog'liqdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy islohotlar mustahkam huquqiy zaminga tayangan va qat'iy davlat-siyosiy ta'minlanish mexanizmlariga ega bo'lgan taqdir-dagina samarali bo'lishi isbot talab etmaydigan aksiomadir. "Mustahkam huquqiy negiz bo'lgandagina, - deydi I.A.Karimov, - o'zini oqlamagan eski tizimni to'la ishonch bilan qayta qurish, madaniy bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan yangi jamiyat qurish mumkin"². Ayni vaqtda, davlatning faol tashkilotchilik va ijobiy bunyodkorlik roliga ham alohida urg'u beriladi. "Davlat butun xalqning manfaatlarini ko'zlab, islohotlar jarayonining tashabbuskori bo'lishi, iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi yo'nalishlarini belgilashi, iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada va suveren davlatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlarni amalga oshirish siyosatini ishlab chiqishi va izchil ro'yobga chiqarishi kerak"³.

Mustaqillik yillari mobaynida yurtimizda demokratik huquqiy

¹ I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. T. "O'zbekiston" 1996. 20-bet.

² I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. T., 1996, 192-bet.

³ I.A.Karimov. O'sha asarda, 178-bet

davlat va bozor iqtisodiyotini qaror toptirish yo'lida huquqiy jihatdan ko'pgina ishlar qilindi. Respublikada davlat idoralarining, shu jumladan, huquqiy muassasalarning izchil tizimi shakllantirilmoqda. Demokratik institutlari hayotimizga olib kiruvchi va bozor munosabatlarini ma'rifiy shaklda joriy etishga imkon beruvchi qonunlar majmui yaratilmoqda. Hozirgi vaqtda yangi iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi, demokratik siyosiy tizim tarkibiy tuzilmalarini hamda fuqarolik jamiyati bo'g'inlarini vujudga keltiruvchi, inson huquqlari kafolatlari tizimini qaror toptiruvchi, bir so'z bilan aytganda, butun ijtimoiy-siyosiy hayotimizning huquqiy negizini barpo etadigan 300 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilindi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganligi o'tgan mustaqil rivojlanish davrimizdagi qonun chiqarish faoliyatining gultoji bo'ldi. Konstitutsiya yosh davlatimiz chinakam mustaqilligining buyuk ramzi, yangi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar dunyoga kelishining mustahkam poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.

Davlat va huquq nazariyasi jamiyatimiz hozirgi hayotida (sodir bo'layotgan siyosiy, ijtimoiy, huquqiy jarayonlarni izohlashga, ularning ilmiy talqinini berishga, taraqqiyot qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda bu voqealarning ijobiy va salbiy xususiyatlarini aniqlashga safarbar etilgan. Fanning yana bir muhim vazifasi ro'y berayotgan jarayonlarni chuqur tadqiq va tahlil qilib, davlatchilik hamda huquqiy rivojlanishimizning kelgusidagi yo'llarini ilmiy bashoratlashdan iboratdir.

Mazkur darslikni yaratishda mualliflar jamoasi nafaqat mustaqillik yillarida to'plangan davlat-huquqiy tajribamizga, konstitutsiyaviy tamoyillar va nazariy bilimlarga, balki umuminsoniy hamda milliy ma'naviy qadriyatlarga, hozirgi zamonda dunyoda mavjud davlatchilik va huquqshunoslik konsepsiyalariga, shuningdek xalqimizning asrlar osha shakllanib kelayotgan boy huquqiy merosiga ham izchil tayandi. O'zbek davlatchiligi tarixi o'z ildizlari bilan asrlar qa'riga borib taqaladi va uch ming yildan ko'proq davrni o'z ichiga oladi. Qadimiy Turon, Movarounnahr, Turkiston hududida ravnaq topgan davlatlar jahon madaniyatini rivojlantirishda yorqin iz qoldirgan. Biz o'ta noyob huquq yodgorliklariga, benazir ilmiy yuridik merosga egamiz. Bular - "Avesto", Burhoniddin Marg'noniyning "Al-Hidoya", Abu Iso at-Termiziyning "Dastur-al muluk", Abu Nasr

Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Alisher Navoiyning "Tarixi muluki Ajam", Amir Temur "Tuzuklari", Nizomu-Imulkning "Siyosatnoma", Xo'ja Ahmad Yassaviyning "Hikmat", A. Xalofning "Usulul fiqh" asarlari va boshqalardir. Milliy tariximiz, davlatchiligimiz ravnaqi va umumbashariy taraqqiyot rivojiga bebaho hissa qo'shgan alloma ajdodlarimizning huquq va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati xususida qoldirgan ilmiy merosi, siyosiy-huquqiy qarashlari har tomonlama o'rganishga munosibdir. Ushbu huquqiy qadriyatlarni bugungi avlod huquqiy tafakkuriga, ongu shuuriga singdirish, sharqona demokratiya tamoyillari mazmunini tavsiflash va ilmiy asoslashda fanimiz muhim rol o'ynashi lozim.

Davlat va huquq nazariyasi milliy istiqlol mafkurasi mohiyatidan kelib chiqqan holda aholining huquqiy ongini va yuksak huquqiy madaniyatini shakllantirishga, ular faoliyatida qonun ustuvorligi, qonunga hurmat va unga itoatgo'ylik ko'nikmalarini hosil qilishga xizmat qiladi.

Darslik yuridik oliy o'quv yurtlari talabalari va huquq asoslarini o'rganayotganlar uchun mo'ljallab yozilgan bo'lib, undan shuningdek sud, prokuratura, milliy xavfsizlik, advokatura, bojxona, soliq, ichki ishlar idoralarining xodimlari va boshqa yurist mutaxassislar foydalanishlari mumkin.

Talabchan kitobxonlar ushbu darslikning sifatini yaxshilash borasida o'z mulohazalarini bildirib, uning keyingi nashrlari yanada mukammal bo'lib chiqishiga yordam beradilar degan umiddamiz.

***Professor H.B.Boboyev
yuridik fanlar doktori.proffessor. H.T.Odilqoriyev***

I bob. DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI - UMUMNAZARIY FAN SIFATIDA

1-§. Davlat va huquq nazariyasining o'ziga xos xususiyatlari

Bugun ro'y berayotgan o'zgarishlar bizni ko'pchilik tushunchalar, atamalarni qaytadan idrok etish va hatto qadriyatlarini qayta baholash bilan shug'ullanishga undaydi. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emas. Zero, davlat va huquq nazariyasi sobiq Ittifoq sharoitida ma'muriy-buyruqbozlik tizimining g'oyaviy asosi va oqlovchisi vazifasini bajarganligi sababli u albatta, qayta idrok etilishga muhtoj. Bundan tashqari, bugungi jamiyatimiz taraqqiyotiga xos yangiliklar, davlat va huquq tushunchasi, ularning mohiyati, tasnifi, vazifalarini yangicha talqinda tubdan qayta ko'rib chiqishni zamon taqozo etmoqda. Bu - tabiiy hoi.

Davlat va huquq nazariyasi faniga bolsheviklarcha yondashuv, kommunistik mafkura talablari asosida munosabatda bo'lish shunisi bilan farq qilardiki, bilimning bu sohasida insoniyat to'plagan boyliklarning ko'p qismi hamda respublikamizda, xorijiy mamlakatlarda saqlanib, yig'ilib kelgan davlat-huquq tafakkuri durdonalari marksizm-leninizm qoidalariga mos kelmagan taqdirda, e'tibordan batamom chetda qolib ketardi.

Shuni ta'kidlash joizki, huquq sohasida, ayniqsa uning «yuridik texnologiyasi» haqida gap ketganda, uning ko'pgina nazariy qoidalarini bugun ham ma'lum jihatdan qo'llanish mumkin bo'lsada, ammo davlatshunoslik fani sohasida ahvol anchagina achinarlidir. Prezidentimiz Islom Karimov haqqoniy ta'riflab berganidek, O'zbekiston (sobiq Ittifoqning boshqa respublikalari qatori) amalda o'z davlatchiligiga ega bo'lmasada, hamma yerda «kapitalizmning mashaqqatli bosqichini chetlab, sotsializmga o'tganimiz» haqida jar solingan bir sharoitda boshqacha bo'lmasdi ham. Amalda esa, jamiyatimiz uning dahshatli bir ko'rinishidan iborat edi... Boz ustiga nokapitalistik taraqqiyot yo'liga o'tgan mamlakatlarni taklif etib, bizning tajribamiz asosida ularni ham kapitalizmdan «sakrab» o'tishga o'rgatmoqchi bo'lishardi.

Halokatga eltuvchi, oldingisidan kelib chiqadigan yoki hech bo'lmaganda, u bilan bog'liq yana bir illat shundan iborat ediki,

markscha-lenincha davlat va huquq nazariyasi insonni huquqdan ajratib qo'yg'an, shaxs manfaatlarini jamiyat manfaatlariga to'liq bo'ysundirgan, inson, fuqaro va shaxsning o'zini esa, mutlaqo e'tibordan chetda qoldirgandi.

Hozirgi vaqtda davlat va huquq nazariyasining evolyutsiyasi - uning markscha-lenincha mazmun va shaklidan voz kechish jarayoni kechmoqda. Ayniqsa, so'z davlat haqida borganida bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi.

Birinchi chaqiriq Oliy Majlisning birinchi sessiyasidayoq Prezidentimiz davlat va huquq nazariyasi hamda amaliyotini yangicha tushunish zaruratini asoslabgina qolmay, balki uning mohiyatini ham ta'riflab berdi: «Biz yaqin o'tmishimizda sinfiy hukmronlikning quroli sifatida davlat haqidagi markscha g'oyani shior qilib olib, bu nazariyani dogmaga, davlat va huquqni esa sinfiy kurash, sinfiy raqiblarni yengish vositasiga aylantirgan edik. Demokratiya sharoitlarida esa davlat ijtimoiy qarama-qarshiliklarni zo'rlik va bostirish yo'li bilan emas, balki ijtimoiy keiishuv, xalq ta'biri bilan aytganda, murosai madora bilan bartaraf etish vositasiga aylanadi.

Huquqning o'ziga esa ijtimoiy hamjihatlik va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga keltirish vositasi sifatida yondashiladi»¹.

Davlat va huquq nazariyasini asl holicha qayta tiklash jarayoni endigina boshlanmoqda. Shu munosabat bilan, bu xildagi yondashuv sabablarini sub'yektiv emas, balki ob'yektiv xarakterga ega deb hisoblovchi A.B.Vengerov da'vosiga qo'shilmaslikning iloji yo'q. U o'z fikrini quyidagicha ifodalaydi: «Davlat va huquq nazariyasi davlat va huquqning kelib chiqishi, davlat va huquq mohiyatida sinfiylik va umuminsoniylikning birga qo'shilib ketishi to'g'risidagi yangi bilimlar bilan boyidi. Sotsialistik davlatlarning faoliyat yuritishi va evolyutsiyasi haqidagi yangi bilimlar paydo bo'ldi. Burjuaziya davlatlari tushunchasi ham yangicha idrok etila boshlandi. Hozirgi zamon davlatchiligi taraqqiyotida insonparvarlik va demokratik qadriyatlar to'g'risida ham yangi bilimlar yuzaga keldi. Zo'ravonlik, totalitarizmga qarshi kurashda konstitutsiyaviy qonunchilikka asoslanishdek demokratik qadriyat hamda qonunlar ustuvorligi tushunarli bo'lib qoldi. Davlatchilikni rivojlantirishning

¹ I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdirl. 3-tom. T., 1996, 19-20-betlar.

istiqboli va progressiv maqsadlardan biri sifatida ijtimoiy huquqiy davlat to'g'risidagi masala yangichasiga ko'ndalang bo'ldi. Inson huquqlari va erkinliklarining butun muammolar majmui, alohida individ, shaxs huquqlarining davlat, millat, xalq jamoa tuzilmalari huquqlari oldidagi ustuvorligi yangicha namoyon bo'lmoqda»².

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yuridik oliy o'quv yurtlari talabarlari bugungi kunda foydalanayotgan ko'pgina darsliklar, adabiyotlar umuman eskirganligi va endilikda jahonda va respublikamizda ro'y bergan va berayotgan shiddatli o'zgarishlar bilan bog'liq talablarga javob bera olmasligini isbotlab o'tirishning hojati yo'q. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisning to'rtinchi sessiyasida quyidagilarni alohida ta'kidladi:

«Milliy tiklanish mafkurasiga va umumbashariy qadriyatlarni o'rganishga asoslanishi zarur bo'lgan ta'lim-tarbiya, uning yangicha mazmuni to'g'risida besh yildan beri gapiramiz. Biroq ko'pgina o'quv yurtlarida, ayniqsa, ijtimoiy, jamiyatshunoslikka oid fanlar bo'yicha hamon eski o'quv qo'llanmalari, o'quv dasturlaridan foydalanilmoqda.

Bunday ahvolni mustaqil mamlakatimizning bolalariga, yosh avlodiga qarshi jinoyat deb baholash kerak»³.

Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, yangi qonunlarimizga asoslangan hamda jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa jarayonlarni hisobga oluvchi yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza to'plamlari, uslubiy ishlanmalarni chop etish zarurati allaqachon yetildi. Biroq, eng muhimi - davlat va huquq umumiy nazariyasining yangi konsepsiyasi zarur. Mazkur bo'shliqni to'ldirish - respublikamiz huquqshunos olimlarining asosly maqsadlaridan biridir, deyish mumkin.

2-§. Hozirgi zamon hamda davlat va huquq nazariyasi fani

So'zni fan taraqqiyotining har bir bosqichi hamisha uning predmetini qarab chiqish zaruratini taqozo yetishini ta'kidlashdan boshlaymiz. Qadim zamonlardan (eramizning I asri o'rtalaridan) bizgacha yetib kelgan «Buyuklik to'g'risida» deb ataluvchi asarda

² Vengerov A.B. Teoriya gosudarstva i prava. -M.: "Yurist", 1995, 17-bet.

³ I.A.Karimov. Bunyodkorlik yo'lidan. 4 tom, 1., "O'zbekiston", 1998, 181-182-betlar.

shunday jumlar bor: «Har bir ilmiy qo'llanma oldiga ikki talab: **birinchidan**, tadqiqot predmetini aniqlab olish; **ikkinchidan**, ushbu predmetni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi usul - vositalarni topish va ko'rsatib berish talabi qo'yiladi. Bu o'rinda ikkinchi talab o'z ahamiyatiga ko'ra muhimroq bo'lsada, tartibga ko'ra keyingi o'rinda turadi»⁴.

Darhaqiqat, har qanday fan o'z predmetiga va uni egallash usuliga ega bo'lishi kerak.

Har bir fan (yoki o'quv fani)ning predmeti - u o'rganadigan masalalardan iborat bo'ladi.

Ma'lumki, davlat va huquq nazariyasining predmeti davlat va huquqning kelib chiqishi, rivojlanishi va harakatda bo'lishining eng umumiy qonuniyatlaridan iborat. «... Davlat va huquq nazariyasi davlat va huquqning ayrim jihatlariga tegishli bo'lgan qandaydir alohida ijtimoiy qonuniyatlarni emas, balki aynan uyg'un birlikda olingan shu qonuniyatlar butun tazimini eng umumiy va mavhum ko'rinishda o'z doirasiga kiritadi, ya'ni o'rganadi. Shunday qilib, u barcha davlat-huquq hodisalari va jarayonlari uchun umumiy qonuniyatlarni o'rganadi, davlat va huquqni yahli t ijtimoiy institut sifatida qarab chiqadi»⁵.

Davlat va huquq nazariyasi predmeti doirasiga faqat amaldagi davlat-huquq munosabatlari, jarayonlari, hodisalarining eng umumiy belgilarigina emas, balki odamlarning ular haqidagi tasavvurlari ham kiradi. Demak, davlat va huquq nazariyasi predmeti doirasiga ijtimoiy ongning huquq bilan bog'liq va uning vositasida o'rganiladigan qismi, ya'ni huquqiy ong ham kiradi.

Davlat va huquq nazariyasi o'zining mustaqil predmet yo'nalishiga ega bo'lib, ijtimoiy, shuningdek, yuridik fanlar tizimida muayyan o'rin tutadi. Uning bu xususiyatini Prezident I.Karimov O'zbekiston Fanlar akademiyasining umumiy yig'ilishidagi nutqida shunday ta'kidladi: «...olimlarimiz, birinchi navbatda, ijtimoiy fan vakillari oldida turgan ulkan vazifalar haqida to'xtalib o'tmoqchiman. Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, milliy davlatchilikni shakllantirish, huquqiy demokratik davlatni barpo etish va fuqarolar jamiyatini qaror toptirishdek ulug' orzu-umidlar bilan yashar

⁴ O vazvi shennom. -M., 1966, 5-bet.

⁵ Vengerov A.B. Teoriya gosudarstva i prava. -M.: "Yurist" 1995, 9-bet.

ekanmiz, ijtimoiy fanlar sohasidagi ilmiy izlanishlar va ularning natijalariga alohida e'tibor bermaslik mumkin emas»⁶.

Zero, bizning hayotimizda shunday ob'yektiv davlat-huquq qonuniyatlari hukm suradiki, ularni tushunmay turib, sohaviy yoki maxsus yuridik fanlarni o'rganish xom xayoldir.

Davlat va huquq nazariyasini turli xil ijtimoiy fanlar bilan taqqoslash ularning o'zaro mustahkam bog'liqligini va hatto bir-birlariga singib ketganligini ko'rsatadi. Davlat va huquq nazariyasining yuridik fanlar tizimidagi o'rni haqida so'z ketganda esa, mazkur da'vo yanada haqqoniyroq yangraydi.

Binobarin, davlat va huquq umumiy nazariyasi maxsus va tarmoq yuridik fanlariga nisbatan umumlashtiruvchi, dasturiy, yo'naltiruvchi hamda uslubiy ahamiyatga molik fan sifatida maydonga chiqadi.

3-§. Davlat va huquq nazariyasi fani predmetini o'rganish metodlari

Har qanday fan nafaqat o'z predmeti doirasiga, balki o'z metodlariga ham ega bo'lishi lozim. «Metodologiya» so'zi yunoncha «metodos» so'zidan olingan bo'lib, aynan ma'nosi «biron narsani o'rganish yo'li» demakdir. Metod bu - umumiy ma'noda maqsadga erishish usuli, muayyan tarzda izga solingan faoliyatdir. Metod bu - maxsus ma'noda bilish vositasi, o'rganiladigan mavzuni tafakkurda hosil qilish yo'lidir⁷.

Bu yerda shuni ta'kidlash joizki, davlat va huquq nazariyasi metodologiyasi to'g'risidagi masala bir qator jiddiy muammolarni hal etish bilan bog'liqdir. Bu holat yaqin-yaqingacha fanda barcha metodlar umumiy-universal va shuning uchun barcha fanlar, bilim sohalari, o'quv darsliklariga xos hamda umumiy bo'lmagan - alohida metodlar bo'lib kelgani bilan izohlanadi.

Kommunistik mafkura hukmronlik qilgan davrlarda dialektik-materialistik metodlar umumiy va ayni paytda eng to'g'ri metod deb hisoblab kelindi. Hozirgi vaqtda ko'pchilik jamiyatshunos olimlarning marksizm-leninizmning o'ziga ham, uning davlat-huquqiy hodisalar va jarayonlarni tasvirlash, tushuntirish va istiqbolni aytib berishdagi

⁶ I.A.Karimov. *Bizdan ozod va abod Vatan qolsin. 2-tom, T., "O'zbekiston", 1996, 260-bet.*

⁷ *Filosofiya lug'ati. T., "O'zbekiston" 1976, 305-bet.*

qobiliyatiga ham qarashlari tubdan o'zgardi. Mazkur o'zgarishlar ko'pqirrali xarakterga ega. Ularning ayrimlari butun jamiyatshunoslikning umumiy metodologik inqirozi bilan bog'liq. Ba'zilari butun ilmiy bilimlar sohasidagi chinakam tub o'zgarishlarni aks ettiradi. Bunda davlat va huquq nazariyasi dialektik-materialistik tushunchalar o'rniga asta-sekin sinergetikadan, g'ayriixtiyoriy, o'z-o'zidan tashkil topadigan, tasodifiy jarayonlar to'g'risida shakllanayotgan yangi fandan kelib chiqadigan metodologiyani o'ziga singdirib yuborishi ko'zda tutiladi. Bunda mazkur o'zgarishlar tobora ko'proq muxislarni o'ziga tortayotganinigina emas, balki jamiyatshunoslarning hech mubolag'asiz bir ondayoq o'z nazariy qarashlarini o'zgartirishga majbur qilayotgan hujumkor xarakterini ham qayd etmaslik mumkin emas.

Misol tariqasida A.B.Vengerov kabi mashhur huquqshunosni olib ko'raylik. O'zining 1995 yilda yozgan darsligida materialistik dialektika to'g'risida gapirarkan, u: «agar ushbu metod yordamchi, juz'iy, ikkinchi darajali deb qaralgan boshqa barcha metodlarga zid bo'lmasa» - undan bimalol foydalanish mumkin, deb hisoblaydi. 1996 yilda chop etilgan o'zining shu nomdagi darsligida u shunday yozadi: «Sinergetika hozirdayoq dunyoning o'z tuzilishi asoslaridagi zaruriy (qonuniy) va tasodifiy hodisalarni tushunishni tubdan o'zgartiruvchi, dunyoni yangicha ko'rish, yangicha idrok etish metodi sifatida maydonga chiqmoqda. Jonsiz materiya hamda inson faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va boshqa sohalaridagi tarixiy jarayonlar rivojining sabablari va shakllari yangicha talqin etila boshlandi. Hodisalarni biologik va ijtimoiy evolyutsiyaning mustaqil omili sifatida yangicha tushunish, o'zidan o'zi tashkil bo'luvchi jarayonlarda uning rolini e'tirof etish yuzaga kelmoqda»⁸.

U yana shunday davom etadi: «Xullas, aftidan, so'z oz emas-ko'p emas - ijtimoiy fanlar paradigmasi (namunasi)ni yangilash, determinizm (tabiat va jamiyat barcha hodisalarining ob'yektiv qonuniyligi va sababiy bog'liqligini tan oluvchi falsafiy konsepsiya)ni avvalgicha tushunish va e'tirof etishdan voz kechish va ehtimolki, determinizmning yangi ko'rinishlarini kashf qilish, mamlakat fanida esa, borliqni ilmiy asosda bilishning asosiy metodi sifatidagi

⁸ Vengerov A.B. *Teoriya gosudarstva i prava. -M.: "Yurist"1996,18-bet.*

materialistik dialektikani qayta mushohada etish haqida boryapti»⁹.

Boz ustiga u, ijtimoiy fanlar metodologiyasida yangi paradigma «...yo sinergetikaning alohida metodi sifatida dialektikani o'z ichiga oladi - shunda ham faqat ayrim sohalar uchun qo'llaydi yoxud uni borliqqa tamoman yangicha yondashuviar bilan umuman almashtiradi», deb hisoblaydi. Bunda ikkinchisi afzal.

Olim, ilmiy huquqiy bilimlarda ushbu yangiliklarning yoyilishi moda ketidan quvish emas, «eski, odatiy qoidalarni yangi «sinergetik jomalar»ga kiyintirish emas», deya ta'kidlasada, uning nuqtai nazariga, mulohaza yuritishdagi ayrim qat'iy fikrlariga qo'shilish qiyin. Zero, bilish - g'oyat murakkab jarayon bo'lib, shu yo'ldagi biron-bir metodga ustuvorlik berishga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Buni biz bir bor boshimizdan kechirib ko'rdik.

Bizning fikrimizcha, materialistik dialektika metodi davlat va huquq nazariyasida metod sifatida o'z umrini butunlay yashab bo'lgani yo'q. Misol uchun, shu nuqtai nazardan, davlat va huquq:

birinchidan, inson tabiati bilan, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa shart-sharoitlar bilan belgilanadi;

ikkiichidan, ularni boshqa ijtimoiy hodisalar bilan qiyoslash asosida jamiyatdagi o'rni va rolini aniqlash mumkin;

uchinchidan, davlat va huquq muttasil rivoj topib boradi. Jamiyat taraqqiyotining har bir muhim bosqichi ular rivojining yangi pog'onasidir.

Muntazamlilik tamoyili. Bu ham davlat va huquq nazariyasi mohiyat-mazmunini ifodalovchi muhim tamoyillardan biridir. Bu, eng avvalo, ancha murakkab bo'lgan davlat va huquqning ichki tuzilishiga aloqadordir. Davlat va huquq tarkibiy bo'linmalarini atroficha, muntazam o'rganish - davlat va huquq nazariyasi uchun majburiy metodologik talabdir.

Muntazamlilik tamoyili qonunchilik ishining ham zaruriy sharti bo'lib qolishi kerak. Jumladan, O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni ta'minlovchi qonunlar, uning siyosiy tuzilishi va mahalliy o'zini o'zi boshqarishga doir qonunlar, umuman butun qonunchiligimiz to'laligicha muntazamlilik metodiga qat'iy asoslanishi kerak. Respublikamizda olib borilayotgan huquqiy islohotlar ham muntazamlilik asosidagina muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin.

⁹ O'sha yerda, 18-bet.

Shunday qilib, muntazamlilik tamoyili davlat va huquq nazariyasi metodologik bazasiga chuqur singib ketishi hamda ilmiy tadqiqotlarning mushtarakligini belgilab berishi, davlat va huquq nazariyasini o'rganish va o'qitishda ro'yobga chiqishi kerak.

Ob'yektivlik tamoyili. Ob'yektivizm nomi bilan atalgan ushbu tamoyil sho'rolar davrida burjuaziya fani tamoyili sifatida davlat va huquq nazariyasidan chiqarib tashlangan va partiyaviylik tamoyili bilan almashtirilgandi. Unga ko'ra ijtimoiy fanlar ishchilar sinfi manfaatlarini ta'minlashi, kommunistik istiqbol maqsadlari uchun kurashib, kommunistik g'oyalarni himoya qilishi kerak edi.

Hozirgi vaqtda davlat tuzilishi tamoyillarida, boshqaruv va davlat qurilishi shakllarida chuqur o'zgarishlar ro'y bermogda. Ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda qonun hujjatlarida o'z ifodasini topgan. Bu davrda jamiyat davlat va huquq nazariyasi sifatida maydonga chiquvchi metodologiyaga juda muhtoj bo'ladi. Biroq bu yerda har qanday metodologiya ham to'g'ri kelavermaydi. Nazariyotchi olimlar oldida ob'yektiv ravishda ilmiy asosga ega bo'lgan, haddan ziyod g'oyaviylashtirish va sinfiy yondashuvlardan xoli metodlarni yaratish vazifasi ko'ndalang bo'ladi.

Sho'ro tuzumi davrida uzoq vaqt mobaynida davlat va huquqqa oid tadqiqotlarda mutlaq sinfiy yondashuv, haddan tashqari mafkuralashtirib, mutlaqlashtirilib yuborilgan nuqtai nazarlar hukmron bo'ldi. Bu esa, tarixning o'nqir-cho'nqir, notekis yo'lini o'tmish madaniy-ma'naviy merosiga bog'lab o'rganish imkonini bermasdi. Monopolizm tahlil vositalarining bir o'lchovliligi, faqat bir yo'nalishda ishlatilishi davlat va huquqning ziddiyatli, qarama-qarshi mohiyatini hisobga ololmasdi. Sinfiy yondashuv asta-sekin mafkuraviy murosasizlik, biquqlikka olib keldi. Sinfiy yondashuv muqarrar ravishda, Marksgacha bo'lgan tafakkur, davlat va huquq hamda uning roli haqidagi prinsiplial masalalarni nafaqat ochib berish, balki, hatto ularni to'g'ri qo'yishni ham uddalay olmasdi, degan fikrga olib kelardi.

Metodologiyadagi qat'iy biryozlamalik qadriyatlariga munosabatda ham xatolarga olib keldi. Haddan ziyod mafkuraviylik davlat haqidagi tasavvurlarning soxtalashtirilishiga sabab bo'ldi. Davlatning funksiyasi oqibat-natijada faqat ezuvchilarni himoyalashga qaratiladi, deb hisoblanardi. Shu sababdan ham davlatni ta'riflashda

uning sinfiylik jihatiga urg'u berilardi. Huquqqa munosabatda ham xuddi shunday holat yuzaga kelgandi: «hukmron sinfning qonun darajasiga ko'tarilgan irodasi» sifatida uning imperativ - sinfiy jihatlari ta'kidlanardi.

Shu darajada soxtalashtirilgan, noto'g'ri mafkuraviy-lashtirishning sabablari nimada? Bunday sabablar, aftidan, ko'p bo'lib, ularning birini XX asrda soxtalashtirilgan sotsiologizmning rivojidan qidirish kerak. Aynan shu davrda A.Y.A.Vishinskiy o'z izdoshlari yordamida mamlakatni ma'muriy buyruqbozlik asosida boshqarish ehtiyojlariga mutanosib huquq nazariyasini qaror toptirdi.

1938 yili sobiq sovet huquqshunoslik fani xodimlarining Butunittifoq kengashi tomonidan ilgari surilgan quyidagi taklif huquqni yangicha tushunishga asos qilib olindi: «Sovet sotsialistik huquqi sotsialistik davlat tomonidan belgilangan yoki tasdiqlangan hamda ishchilar sinfi va barcha mehnatkashlar irodasini ifodalovchi xulq-atvor qoidalari (normalari) majmui bo'lib, ularning qo'llanilishi sotsialistik davlat tomonidan majburlov kuchi bilan ta'minlanadi»¹⁰.

Hozirgi zamon davlat va huquq nazariyasi uchun ob'yektivlik tamoyili ham katta ahamiyat kasb eta borib, ilmiy xulosalar va takliflarda g'arazgo'ylik, u yoki bu siyosiy tuzilmaga «yaxshi ko'ri-nish» istagi kabi illatlardan fanni xalos qilish jarayoni kechmoqda.

Bu tamoyil ilmiy izlanishlarda mamlakatimiz yutuqlarini xorijiy tajribani o'rganish bilan qo'shib olib borishni metodologik jihatdan uddalashni ko'zda tutadi. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy hayotida yuz berayotgan yangilanish jarayonlari sharoitida inson haq-huquqlari va erkinliklari jahon andozalarini bilish, ularni respublikamizda ijodiy qo'llash zaruriyatga aylanmoqda.

Birinchi chaqiriq Oliy Majlisning oltinchi sessiyasida so'zga chiqar ekan, Prezident I.Karimov quyidagi masalaga e'tiborni qaratdi: «**Navbatdagi muhim masala - respublikaning qonun hujjatlarini inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yorlar va standartlarga muvofiq holga keltirishdir.** Jahonda inson huquqlari sohasida 70 standart qabul qilingan. Bu hujjatlarda hukumatning o'z fuqarolari oldidagi majburiyatlari va ularga nisbatan qilishi shart bo'lmagan ishlar belgilab berilgan. O'zbekiston

¹⁰Osnovniye zadachi sovetского sotsialisticheskogo prava. M., 1938,

hozircha bu standartlardan 15 tasiga qo'shilgan».¹¹

Biroq, bu narsa mutlaqo xorijiy tajribani ko'r-ko'rona o'zlashtirib olishni anglatmaydi. Mazkur ishda xalqimizning madaniy va ma'naviy an'analarini hisobga olish shart. Bu esa, har qanday tajribani o'zlashtirishga jiddiy yondashishni talab qiladi.

Davlat va huquq nazariyasining metodologiya sifatidagi ahamiyati davlat faoliyatining muayyan sohalarida huquqiy tartibga solishning qoida va shartlarini o'rganuvchi maxsus sohaviy yuridik fanlar uning qonuniyatlaridan foydalanishida yorqin namoyon bo'ladi. Biroq, davlat va huquqni bilishning ham maxsus, ham alohida metodlari shunday bilish vositalarini qo'llashdan iboratki, ular faqat davlat-huquqiy reallikning o'ziga xos sohalarini o'rgani-shgagina yaraydi. Alohida metod orasida, bizningcha, aniq-sotsiologik, qiyosiy-huquqiy, rasman-yuridik (qat'iy normativ), huquqiy modellashtirish, shuningdek, matematik, matematik-statistika, kibernetika va boshqa metodlarni aytib o'tish kerak.

Qabul qilingan qarorlar samaradorligini, huquqiy tartibga solish yoki huquqiy muhofazaning o'z vaqtida va ta'sirchan bo'lishini baho-lash chog'ida huquqiy va davlat institutlari faoliyatining turli soha-larini o'rganishda aniq sotsiologik metod ko'pincha yagona to'g'ri yo'l bo'lib chiqadi.

Ushbu metod ijtimoiy amaliyot ehtiyojlarini o'rganish hamda muhim davlat-huquqiy masalalarni hal etishga yondashishga ko'maklashibgina qolmay, balki yaqin kelajakda birinchi navbatda yechilishi zarur bo'ladigan bir qator muammolarni aniqlashga ham yordam beradi. Buni misol yordamida tushuntirishga harakat qilamiz.

Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga shahdam qadamlar bilan kirib bormoqda. Bu juda murakkab va qiyin jarayondir. Binobarin, bu yerda davlat va huquq rivojining umumiy qoida va tamoyillarini, xususiyatlari va yo'nalishlarini aniqlashning o'zi kifoya qilmaydi. Amaldagi munosabatlarda bozor qanday faoliyat ko'rsatadi, yana ham muhimrog'i, butunicha davlat-huquqiy tizimi va uning har bir unsuri doirasida samarali faoliyat ko'rsatishini qanday ta'minlaydi, buni aniq bilish lozim.

Respublikamizda bu masalalarga katta e'tibor berib kelinyapti

¹¹ I.A.Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi - . 5-tom. T., «O'zbekiston», 1996, 119-bet.

va ularning ko'pchiligi muvaffaqiyatli hal etilyapti. Jumladan, Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, bozor infratuzilmasini yaratish va uning faoliyati jarayonlarini muvofiqlashtirib borishni ta'minlovchi qonun hujjatlari faol shakllantirildi. Ularning asosiy qoidalari banklar, bank faoliyati, pul tizimi, tadbirkorlik to'g'risidagi, sug'urta, birjalar faoliyati to'g'risidagi, qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risidagi va boshqa qonunlarda o'z aksini topdi. Mazkur qonunlarning qabul qilinishi bilan bozor mexanizmlarini rivojlantirishning mustahkam poydevori yaratildi¹².

Yuqorida ko'rsatilgan muammolarni muvaffaqiyatli hal etish uchun davlat va huquq nazariyasi anketa so'rovlari, muloqotlar uyushtirish, tajribalar o'tkazish kabi qator metodlardan foydalanadi. Nihoyat, bularning hammasi huquqiy yechimlarning eng maqbul yo'llarini topish, ijtimoiy-huquqiy islohotlarni o'tkazish sohasida, jinoyatchilikka qarshi, uning eng xavfli ko'rinishlari - uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashda ilmiy asoslangan istiqbol rejalarini ishlab chiqish maqsadida olib boriladigan **aniq sotsiologik metod** doirasiga kiradi.

Ushbu metodning asosiy talablari: ilmiy tavsiyalar ko'ngildagidek bo'lishi yoki bo'lmasligi, ijobiy yoxud salbiyligidan qat'i nazar, barcha ijtimoiy omillarni atroflicha o'rganish va hisobga olishga asoslanish kerak; haqiqiy ahvolni aniq va har tomonlama baholagan holda davlat va huquq sohasidagi qarorlarning ijtimoiy ahamiyati va oqibatlarini aniqlash darkor. Juda uzoq vaqt mobaynida ushbu metod sho'ro fanida nazar-pisand qilinmay kelingani, faktlar buzib ko'rsatilib, davlat qurilishi, qonunchilikdagi mavjud buzilishlarni oqlash uchun hiyla-nayranglar ishlatilishi odatiy tusga kirganligini aytib o'tirmasak ham bo'ladi. Endi ushbu metod o'zining haqiqiy o'rnini egallay boshladi va biz uning naqadar samaraliligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Qiyosiy-huquqiy metod davlatshunoslik va huquqshunoslik metodologiyasida aniq-sotsiologik usul bilan bir qatorda muhim ahamiyatga molikdir. Qiyosiy metod tushunchalar, hodisalar va jarayonlarni solishtirish hamda ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashni ko'zda tutadi. Qiyoslash natijasida umuman huquq

¹² Qarang: I.A.Karimov "O'zbekiston davlat muvofiqlashtirishining o'ziga xos yo'li", "O'zbekiston", 1993, 67-69-betlar.



Handwritten text and a signature. The text includes "O'zbekiston", "Davlat", and "1993".

tizimi, davlat qurilishi yoki, masalan, alohida olingan huquqiy institutlar va normalarning sifatli holati aniqlanadi. Biroq, bu yerda muhim bir shartni hisobga olish zarur - ya'ni qiyoslanadigan ob'yektlar haqiqatan taqqoslanadigan bo'lishi kerak. Misollarda tushuntiramiz. Huquqiy tizimlarni, davlat tuzilmalarini, bir xil nomdagi huquqiy institutlar va qoidalarni o'zaro taqqoslash mumkin. Lekin, misol uchun, butun bir huquqiy tizimni ayrim olingan yuridik qoida bilan solishtirish mumkin emas. Mazkur ob'yektlarni o'z darajasi, hajmi, mazmun va belgilari bo'yicha bir-birlariga qiyoslab bo'lmaydi.

Aytaylik, agar o'z tarkibiga ko'ra murakkab bo'lgan yuksak darajadagi ob'yektlar (turli mamlakatlar huquqiy tizimlari) taqqoslansa - bu makroqiyoslashga kiradi. Mo'jaz hajmli, tarkibi jihatidan ancha soha ob'yektlar (huquqiy qoidalar, respublika viloyatlari bo'yicha jinoyatchilik darajasi singarilar)ni solishtiradigan bo'lsak, mikroqiyoslash deyiladi.

Bir vaqtning o'zida yoki o'tmishning turli davrlarida mavjud bo'lgan bilishning o'xshash ob'yektlarini taqqoslamay turib davlat-siyosiy va huquq amaliyotini isloh qilib yoki takomillashtirib bo'lmaydi. Turli tarixiy xildagi, turli mamlakatlar va qit'alarda, bir mamlakatning o'zidagi davlat yoki huquqiy tizimlar solishtirilishi mumkin. Biroq, ular ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlariga oid bo'lsa - bunday qiyoslashlar biron ahamiyatga molik bo'lolmaydi. Muhimi bitta - haqiqatni topish uchun ob'jektning miqdoriy va sifat jihatlarini, uning nazariy va amaliy tavsifini tahlil etish kerak.

Huquqshunoslik, davlatshunoslik va yuridik amaliyotda qiyoslash metodining ahamiyati juda katta. Jumladan, qiyoslash asosi va natijasida davlat va huquq taraqqiyotining har bir keyingi bosqichi oldingisidan ilg'orroq bo'lib chiqqanligi fanga ma'lum bo'ldi.

Faqat huquqiy materiallarni taqqoslash va natijalar olish yo'li bilangina huquqiy tizimni takomillashtirishning, qonunchilik ishlarini yaxshilash, qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlashning aniq yo'llarini belgilash mumkin.

Huquqshunoslikda va yuridik amaliyotda qiyoslash metodining keng qo'llanishi huquqshunoslik fani tarkibida nisbatan mustaqil yo'nalish - **qiyosiy huquqshunoslik (yuridik komparativistika) ning** shakllanishiga olib keldi. Ba'zi olimlar, hatto, uni huquqshunoslik fanining mustaqil tarmog'i deb hisoblaydilar.

Rasman-yuridik (qat'iy normativ) metodni huquqshunoslik faniga xos, uning tabiatidan kelib chiqadigan, tom ma'noda an'anaviy metod deb atash mumkin. Uning mohiyati shundan iboratki, huquq butun borligicha o'rganiladi. U hech narsaga taqqoslanmaydi, iqtisodiyot, siyosat, axloq, boshqa ijtimoiy hodisalar bilan bog'lanmaydi.

Bunda sof ko'rinishdagi huquq - uning toifalari, tavsiflari, belgilari, tarkibi, tuzilishi, yuridik texnikasi ana shu usulning tadqiqot doirasiga kiradi. Mazkur metod ko'pdan ma'lum bo'lib, o'rta asrlardayoq huquqiy qoidalarni talqin etish hamda amaldagi qonunlarni rasmiy tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi butun bir maktab va yo'nalishlar (glossatorlar, postglossatorlar) tarkib topgan.

• Ushbu metodni ulkan asos bilan umumiy bo'lmagan - **alohida metod** deb atash mumkin. Chunki, u faqat huquqni o'rganishdagina qo'llaniladi. Shunisi qiziqki, bu holatda **sof ko'rinishdagi** huquq tadqiqot mavzui bo'lib qoladi. «**Sof**» huquq nazariyasi (huquq normativchiligi maktabi) asoschilaridan biri Gans Kelzenning yozishicha: «Huquq to'g'risidagi ta'limotning «sof» deb atalishining sababi shundaki, u faqat birgina huquq bilan shug'ullanadi va jiddiy ma'noda huquqqa aloqasi bo'lmagan hamma narsadan o'rganilayotgan mavzuni «tozalaydi»¹³.

Shuni ta'kidlash joizki, huquqshunos olimlar bu metodga ancha yuksak baho beradilar, ba'zan baholari shu qadar jonli va ehtirosli bo'ladiki, bu ta'rif-tavsiflarni badiiy nasrdan deyarli farq qilolmaysiz. Mana ulardan biri:

«Bu vositadan foydalanib (rasmiy yuridik metod nazarda tutiladi), huquqiy materiyaning ich-ichiga kirib borish, huquq anatomiyasini ikir-chikirlarigacha bilib olish mumkin. Huquq va uning tarkibiy qismlarini, qonunlarni, ayrim huquqiy tavsiyalarga «ishlov berish», ushbu metodni jarroh pichog'idek qo'llash bilangina yuridik norma qanday qismlardan iborat ekanligini, uning sanksiyasi qanday tuzilishi kerakligini, har bir normativ-huquqiy hujjat uchun majburiy tarkibiy qismlar nimalardan tashkil topishi zarurligini aniqlash mumkin»¹⁴.

Vaholanki, yaqin-yaqinlargacha sho'ro huquqshunoslik fanida

¹³ Кельзен Г. Чистое учение о праве// Чистое учение о праве Ганса Кельзена. М.: 1987, 7-бет.

¹⁴ Бабаев В.К. Предмет и метод теории права//Общая теория права. -Нижний Новгород. 1993, 46-бет.

davlat-huquqiy hodisalarni rasmiy-yuridik jihatdan qarab chiqish ko'pchilikka ma'qul kelmasdi. Bu o'rinda o'sha vaqtlardagi huquq amaliyoti uchun va nafaqat huquq, balki boshqa sohalar uchun ham noyob bo'lmagan bunday yondashuv haqida yaqin o'tmishda keng tarqalgan bir ibora - «...rasman to'g'ri, mohiyatan tahqirning o'zginasi» jumlasini eslash kifoya. Ayni paytda bu metodni nazar-pisand qilmaslik, unga e'tiborsizlik bilan qarashga asos yo'q. Rasmiyatchilik - huquqning ajralmas xususiyatidir. Rasmiy metod huquq va davlatni ilmiy idrok yetishda majburiy, zaruriy bosqichdir. Zero, u olingan bilimni tavsiflash, umumlashtirish, tasniflash, bir tizimga solish, imkon qadar aniq va ravshan yetkazib berishga ko'maklashadi. Rasmiy-yuridik metodning unsurlarini davlat va huquq, ayniqsa, huquqiy modellashtirish, matematik-statistika metodlari kabi o'rganish vositalarida ham uchratish mumkin.

Davlat-huquq ob'yektlari murakkab tizimlardan iborat ekanligi va ular kechayotgan jarayonlarning ziddiyatli va xilma-xilligini hisobga oladigan bo'lsak, metodlarning butun bir majmuini qo'llash zarurati tushunarli bo'lib qoladi. Ular orasida huquqiy **modellash metodini** alohida ko'rib chiqish joiz. Uning asosida o'xshashlik g'oyasi, turli xil ob'yektlar o'rtasida o'zaro bir xil mutanosiblik qaror topishi mumkin, degan taxmin yotadi. Unga ko'ra, bunday mutanosiblik o'sha ob'yektlardan birining tavsifi (modeli)ni bilib olish asosida boshqasi (asli) haqida yetarli aniqlik bilan mulohaza yuritish imkonini beradi.

Bundan tashqari, davlat va huquq nazariyasi mavzuining muttasil kengayib va murakkablashib borish tamoyiliga ega ekanligi uni tadqiqotlarning barcha aniq va jiddiy metodlariga murojaat etishga majbur qiladi. Bularga **matematik, matematik-statistika va shunga o'xshash metodlar** kiradi. Mazkur metodlar davlat va huquqni aniq tadqiq etishda o'z samarasini ko'rsatdi. Lekin ulardan foydalanish kompyuter texnikasining mavjud bo'lishini taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida daliliy, ko'p miqdordagi faktik ma'lumotlarni ishlashni tezlashtirish imkonini beradi.

Shunday qilib, davlat va huquq nazariyasi metodi o'z tuzilishiga ko'ra murakkabdир. Yuqoridagilardan ishonch hosil qilganimizdek, u davlat-huquq hodisalarini bilishning **umumfalsafiy, umumilmiy va alohida metodlari, vositalarning yaxlit tizimidan** iborat.

Yana bir jihatni ta'kidlash va yaxshilab tushunib olish muhimki, u ham bo'lsa - metodologiya hech qachon dastlabki Ko'rinishicha doimiy o'zgarimas holatda qolishi mumkin emas. U muttasil boyib, rivojlanib boradi, bu holat bizga tadqiqot mavzui - doimiy rivojlanishda bo'lgan davlat va huquqni yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

Binobarin, davlat va huquq nazariyasi haqidagi masala -davlat va huquq hodisalarini tadqiq etishning muayyan nashriy tamoyillari, mantiqiy metodlari, maxsus vositalari majmui haqidagi masaladir.

4-§. Davlat va huquq nazariyasining ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni va roli

Davlat va huquq nazariyasi alohida o'z bahs mavzuiga ega bo'lib, huquqshunoslikka oid va oid bo'lmagan boshqa ijtimoiy fanlar tizimida o'ziga xos o'rin tutadi. Biroq bu o'ziga xoslik uning jamiyat haqidagi bilimlarning yaxlit va murakkab tizimida qandaydir imtiyozli, boz ustiga alohida ustuvor mavqega ega bo'lishini anglatmaydi. Moddiy va ma'naviy dunyoning birligi fanlarning ham mushtarakligini taqozo etadi. Aynan shuning uchun ham ijtimoiy, tabiiy va aniq (texnika) fanlar o'rtasida o'zaro mustahkam bog'liqlik mavjud.

Tarixdagi keskin burilishlar davrida ijtimoiy fanlarning mavqei ayniqsa oshib boradi. Biz hozir ana shunday murakkab bir davrda yashamoqdamiz. O'zbekiston Fanlar akademiyasining umumiy majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov olimlarimiz, birinchi navbatda, ijtimoiy fan vakillari oldida turgan ulkan vazifalar haqida to'xtalib: «Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, milliy davlatchilikni shakllantirish, huquqiy demokratik davlatni barpo etish va fuqarolar jamiyatini qaror toptirishdek ulug' orzu-umidlar bilan yashar ekanmiz, ijtimoiy fanlar sohasidagi ilmiy izlanishlar va ularning natijalariga alohida e'tibor bermaslik mumkin emas»¹⁵, - deb ta'kidladi.

Albatta, bugungi ijtimoiy hayotning tub masalasi - davlat haqidagi, huquq to'g'risidagi masaladir. Ijtimoiy fanlarning bunday mavqei, ular ijtimoiy shart-sharoitlarning o'zgarishi qonuniyatlarini o'rganib, ijtimoiy voqelikni qayta qurish yo'nalishlarini asoslash, jumladan, aniq, tabiiy ilmiy bilimlar uchun ham ilmiy asoslangan

¹⁵ I.A.Karimov. Istiqloq va ma'naviyat. -T., «O'zbekiston», 1994, 58-bet.

bashoratlar berishlari bilan bog'liqdir. O'z navbatida, tabiatni bilishdagi, texnika fanlaridagi kashfiyotlar yoxud, aksincha, ulardagi muvaffaqiyatsizliklar va xatoliklar jamiyatshunoslik barcha tarmoqlarining rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, tabiatga vahshiylarcha munosabat natijasi sifatida Orolning fojeali taqdiri hammaning yodida. Endilikda texnokratik yondashuvlardan, tabiat ilmi fanlarining o'z qobig'iga o'ralib qolib ketishidan voz kechish zarurligini ko'pchilik yaxshi tushunadi. Hozir yirik tabiiy-ilmiy muammolar yechimini ishlab chiqishga iqtisodchilar, sotsiologlar, faylasuflar, huquqshunoslar, ruhshunoslar, tarixchilar hamda ijtimoiy fanlar sohalarining boshqa vakillari ham tobora ko'proq jalb etilyapti.

Tabiiyki, ilmiy bilimlar mushtarakligi, fanlar integratsiyasi ularning ma'lum o'zaro farqlarini mutlaqo inkor etmaydi. Har bir fan tabiat yoxud jamiyatdagi hodisalarning muayyan doirasini o'rganadi va shuning o'zi fanlar mavzu doirasini tashkil etadi.

Chunonchi, davlat va huquq nazariyasi o'z bahs mavzuiga ega bo'lib, huquqshunoslikka aloqador bo'lgan va boshqa ijtimoiy fanlar tizimida tegishli o'rinni egallaydi. Shuning uchun davlat va huquq nazariyasini, bir tomondan, yuridik bo'lmagan fanlar va ilmlar (iqtisodiyot, falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, etnografiya) bilan, ikkinchi tomondan - yuridik (davlat va huquq tarixi, siyosiy ta'limotlar tarixi, sohaviy yuridik) fanlar bilan o'zaro munosabatini aniqlash to'la asoslidir. Bu ushbu fan mavzu doirasini aniqroq belgilab olish va, demakki, uni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Davlat va huquq nazariyasining yuridik bo'lmagan ijtimoiy fanlar bilan munosabatini o'rganishni barcha fanlarning «ona»si deb ataladigan falsafadan boshlaymiz. Albatta, bu yerda hech ham mubolag'a yo'q. **Falsafa - tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari to'g'risidagi fan.** Qolaversa, u - mavjudot va bilishning umumiy tamoyillari, insonning atrof muhitga munosabati to'g'risidagi bilimlar tizimidir. Falsafaning umuman hamda, xususan, bizning navqiron davlatimiz uchun ahamiyatini I.A.Karimov juda yaxshi ta'riflab bergan: «Islom dinimizning muqaddas merosi - falsafa ilmini, xususan, Sharq falsafasini teran o'rganish, shu asosda ulug' madaniyatimiz va qadriyatlarimiz ildizlarini jonlantirish, yaqin o'tmishimizdan qolgan mafkuradan xalos bo'lish, o'zimizning asrlar sinovidan o'tgan, ulug' ajdodlarimiz

bizga qoldirgan milliy mafkura va tafakkurimizni tiklash, uni zamonaniy-umumbashariy ruh bilan boyitish hammamizning dolzarb vazifamizdir»¹⁶.

Falsafa davlat va huquq masalasini ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. Albatta, bunda mazkur jarayonlarni tadqiq etuvchi maxsus fanlarning o'rnini bosish ma'nosi tushunilmaydi. U, faqat davlat va huquqning mohiyati, tabiati, ijtimoiy hodisalar tizimidagi vazifalari va o'rnini, ularning jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolotidagi roli va ahamiyatini belgilab beradi.

Davlat va huquq nazariyasiga kelsak, u yuqorida ta'kidlangan muammolarni batafsil, barcha farqlari, nozik jihatlari va ko'rinishlarini, paydo bo'lish va rivojlanish qonuniyatlari, asosiy tamoyillarini chuqur va mukammal holda o'rganadi. Shunday qilib, barcha yuridik va umuman ijtimoiy fanlar uchun falsafa nazariy asos hamda ma'lum darajada metodologik yo'nalish beruvchi ilm sifatida xizmat qiladi. Aynan shuning uchun ham huquqiy hayot hodisalarini falsafiy nuqtai nazardan idrok etish huquqshunoslik fanini ijodiy rivojlantirish, amaldagi qonunlarni yanada takomillashtirish kafolatidir. Falsafa fani yutuqlari davlat va huquqning mohiyatini, ularning ishlash-amal qilish mexanizmini, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va boshqaruvchilik ta'siri shakllarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Buning ustiga **falsafa negizida huquqshunoslik fanlarining asosiy kategoriyalari ishlab chiqiladi.**

Davlat va huquq nazariyasi **sotsiologiya fani bilan ham o'ziga xos munosabatga ega. Sotsiologiya - bus-butun yaxlit tizim sifatida olingan jamiyat to'g'risidagi hamda alohida ijtimoiy tartiblar, jarayonlar, guruhlar to'g'risidagi fan bo'lib, sotsium (jamiyat)ning davlat va huquq singari muhim qismlarini o'rganadi. Demak, davlat va huquq jamiyatshunoslik kategoriyalaridan bo'lib chiqyaptimi? Shubhasiz, shunday. Biroq, davlatning ijtimoiy asoslarini, huquqning ijtimoiy qimmatini ajratib ko'rsatar ekan, masalaning davlat hokimiyatini tashkil etishning huquqiy shakllari yoxud ijtimoiy munosabatlarni yuzaga keltirish va tartibga solish huquqiy usullari kabi yuridik jihatlarni e'tiborsiz chetlab o'tadi.**

¹⁶ I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom, T., "O'zbekiston", 1996, 260-bet.

Davlat va huquq nazariyasi siyosat, siyosiy jarayonlar, siyosiy partiyalar, harakatlar, tizimlarni o'rganishdan iborat bo'lgan siyosatshunoslik fani bilan ham o'xshashdir. Siyosat, albatta, davlat va huquq hayoti bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Biroq, siyosiy hokimiyat siyosiy tuzumlarda ham, ijtimoiy munosabatlarning boshqa shakllarida ham amal qiladi. Ushbu materiallardan foydalanib, davlat va huquq nazariyasi universal umum-huquqiy konsepsiyalar, kategoriyalar, tushunchalarni ishlab chiqadi.

Davlat va huquq nazariyasi tarix fani bilan ham uzviy aloqadordir. Tarix, ma'lumki, jamiyat to'g'risidagi, jamiyatshunoslikka oid fandir. U insoniyat madaniy-ma'naviy taraqqiyotning har xil turlari va davrlari, jamiyatning rivojlanish yo'llari va tiklanish bosqichlarini, insoniyatning o'tmishdan kelajak tomon yuksalib borish sabablari va mohiyatini tadqiq etadi. Muayyan xalqlar, davlatlarning muayyan davrlardagi hayotining aniq shakllari va tajribasini va hatto ayrim huquqiy-tarixiy yodgorliklarni ham o'rganadi. Lekin tarix fani uchun vaqt chegaralari muhimdir. U umumlashma xulosalar chiqarmaydi, qonuniyatlar ketidan quvmaydi, ayni shu jihatlari bilan davlat va huquq nazariyasidan farq qiladi.

Davlat va huquq nazariyasi iqtisod nazariyasi fani bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki, iqtisod nazariyasi jamiyatdagi iqtisodiy-moddiy ishlab chiqarish munosabatlarini, ayirboshlashni, taqsimotni, ishlab chiqarish usullarini, uning tarixiy xillarini o'rganar ekan, bunda davlat va huquqning ahamiyatiga va uning o'rniga alohida e'tibor beradi. Bozor munosabatlarini shakllantirishda, iqtisodiy islohotlarni olib borishda davlat o'zining bosh islohotchilik faoliyatini huquq orqali amalga oshirishini bu fan albatta hisobga oladi.

Shunday qilib, davlat va huquq nazariyasi ilmining falsafa, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro munosabatlari mohiyati va zarurati nimalardan iboratligini umumiy tarzda ko'rib chiqdik. Biroq, shu munosabat bilan bir muhim narsani - hech bir boshqa fan, shu jumladan, falsafa ham, siyosatshunoslik va iqtisodiy nazariya fanlari ham davlat va huquq nazariyasi uchun qandaydir yo'l-yo'riqlar ko'rsatuvchi, uning taraqqiyotini belgilab beruvchi vazifani hech qachon o'tay olmasligini an'glash va yoddan chiqarmaslik lozim. Buni e'tibordan soqit qilmaslik zarur. Zero, yaqin-yaqinlarga qadar ham marksizm-leninizm, ayniqsa, uning

tarixiy materializmdek tarkibiy qismi davlat va huquq nazariyasining asosiy mazmun-mohiyatini belgilab beradi, degan g'ayriilmiy ta'limot hukmronlik qilib kelardi.

Hozirgi vaqtda butun dunyoda bo'lganidek, bizning respublikamizda ham, sobiq Ittifoq o'rnidagi boshqa mamlakatlarda ham barcha ijtimoiy fanlar-iqtisodiy, siyosiy fanlar, ekologik bilimlar, boshqaruv fanlari, ijtimoiy-ilmii yo'nalishlar uchun davlat va huquq nazariyasining roli, uning ahamiyati g'oyat darajada dolzarb va o'ta muhimdir.

Uzoq vaqtlar davomida, Sho'ro tuzumi davrida davlat va huquq nazariyasi faniga o'ta nopisand munosabat hukmron bo'lib kelgani ilmning bu muhim tarmog'iga munosabatni keskin o'zgartirishni qat'iy taqozo etdi. Masalan, iqtisodiy bilimlar yetakchi vakillarining bu fanga bo'lgan munosabatini olaylik. Ularning da'volaricha, go'yo tarkibiga davlat va huquq ham kiradigan ustqurmaga nisbatan «iqtisodiy bazisning belgilovchi roli» Marksning «huquq iqtisodiyotdan yuqori turishi mumkin emas», degan xulosasidan kelib chiqadi.

Afsuski, iqtisodiy bilimning ko'pchilik vakillari huquqning muntazamlilik tamoyiliga asoslangan butun tizimdan iborat ekanligini, shuningdek, ishlab chiqilmagan huquqiy shaklga yoxud boshqa huquqiy yechimlarga zid bo'lgan huquqiy shaklga kiyintirilgan iqtisodiy xulosalar ish bermasligini hisobga olishmasdi, aniqrog'i, nazar-pisand qilishmasdi. Bu esa barcha yaxshi iqtisodiy maqsad va niyatlarni barbod etishini tajriba isbotlamoqda. Misol tariqasida Yegor Gaydar va uning tarafdorlarining 90-yillardagi orzu-umidlarini keltiramiz. Ularda «iqtisodiy determinizm» deb ataluvchi narsa va hodisalarning sababiy bog'lanishlari haqidagi materialistik ta'limot doirasida huquqiy rasmiylashtirilmagan iqtisodiy yechimlarning o'zi yetariligi haqidagi tasavvurlar ustun turardi.

Bozorga xos bo'lgan raqobat har qanday bozor iste'mol mol-lariga to'lib borishi bilan narx-navoning o'z-o'zidan pasayishiga olib keladi, iqtisodiy munosabatlar o'z-o'zidan ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, deb hisoblanardi. Endilikda g'oyat qudratli va serqirra huquqiy ta'minotsiz islohotlar yurishmasligi ravshan bo'ldi. Respublikamizning iqtisodiy faoliyat tajribasi esa iqtisodiy islohotlarni davlatsiz, huquqsiz amalga oshirib bo'lmasligini yana bir bor tasdiqladi.

O'z rivojlanish va taraqqiyot yo'lini tanlagan respublikamizda

iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy omillaridan biri bozor iqtisodiyotining huquqiy poydevorini yaratishdan iborat. Avval boshdan o'tmish xatolaridan muhim xulosa chiqarildi - zarur huquqiy ta'minotsiz va tegishli qonunlar hamda me'yoriy hujjatlarsiz amalda islohotlarni ro'yobga chiqarishning ishonchli kafolatlarini, islohotlar ro'yobga chiqarishining kafolatlarini yaratib bo'lmasligi e'tirof etildi. Ta'kidlanganidek, mustahkam huquqiy negiz bo'lgandagina o'zini oqlamagan eski tizimni to'la ishonch bilan qayta qurish, madaniy bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan yangi jamiyat qurish mumkin.

Shunday qilib, davlat va huquq nazariyasi iqtisodiy islohotlarning itoatkor xizmatkori emas. Respublikamizda hokimiyat tepasida turganlar buni yaxshi tushunadilar.

Buning ustiga respublikamizda inson va fuqaro huquqlarini himoyalash masalasiga naqadar katta e'tibor berib kelinayotgani ma'lum. Oliy Majlisning sessiyasida ta'kidlanganidek, inson va fuqarolar huquqlarini ta'minlash hozirgi vaqtda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Binobarin, inson huquqlari va erkinliklarining ustuvorligi, yuksak ijtimoiy boylik sifatida uning qadr-qimmatini tushunish davlat va huquq nazariyasini amalda respublikamizdagi o'zgarishlarning oldingi jabhalariga olib chiqib qo'ymoqda.

Bundan yana ham keng qamrovli chuqur xulosalar chiqarish mumkin. O'zbekistonda davlatchilikning huquqiy asoslari kuchayib borishi, huquqiy madaniyat, fuqaroning huquq va erkinliklari, huquqiy ta'lim va, shu jumladan, yuridik ta'lim ham rivoj topib borishi bilan davlat va huquq nazariyasining hamda barcha yuridik fanning ijtimoiy fanlar butun tizimidagi ahamiyati ortib boradi. Bu - ijtimoiy taraqqiyotning muhim talabidir.

5-§. Davlat va huquq nazariyasi yuridik fanlar tizimida

Davlat va huquq nazariyasini turli ijtimoiy fanlar bilan qiyoslash ular o'rtasida uzviy aloqa va o'zaro bog'liqlik mavjudligi to'g'risida xulosa chiqarishga olib keldi. Hatto ular g'oyalari, qoida va xulosalarining bir-birlariga singib borishi kabi jarayonlar ma'lum bo'ldi. Gap davlat va huquq nazariyasining yuridik fanlar tizimidagi o'rni haqida borganda, bu holatlar yanada yaqqolroq ko'rinadi. Chunki, yuridik fanlar davlat-huquq mavjudligining u yoki bu

jihatlari, qismlari, xususiyatlarini muayyan nuqtai nazardan turib, muayyan darajada o'rganadi. Davlat va huquq nazariyasi ko'pgina tarkibiy qismlar va kichik tizimlardan iborat bo'lib, ularning qaysilari va qay darajada o'rganilishiga qarab, yuridik fanlar ham bo'linib ketadi.

Fanda tarkib topgan umumiy qoidaga muvofiq barcha **yuridik fanlar uchta katta guruhga** bo'linadi. Bular **fundamental tarixiy-nazariy, sohaviy va amaliy yuridik fanlardir.**

yuridik fanlarning hozirgi vaqtda amalda bo'lgan tasnifi quyidagi bo'limlardan tashkil topgan:

- 1) *tarixiy-nazariy;*
- 2) *xorijiy davlat va huquqni o'rganadigan;*
- 3) *sohaviy;*
- 4) *sohalararo;*
- 5) *amaliy yuridik;*
- 6) *xalqaro huquq fanlari.*

Biroq ushbu tasnifdan boshqacha kengroq tasnif ham mavjud. Chunonchi, yuridik fanlar tizimi mazkur sohaga oid bilimlar hajmiga ko'ra:

- 1) *davlat va huquq nazariyasi va tarixi, siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi;*
- 2) *davlat huquqi va boshqaruv, davlat qurilishi, ma'muriy huquq, moliyaviy huquq;*
- 3) *fuqarolik huquqi, oila huquqi, fuqarolik protsessi, xalqaro xususiy huquq;*
- 4) *xo'jalik huquqi, arbitraj protsessi;*
- 5) *mehnat huquqi, ijtimoiy ta'minot*
- 6) *qishloq xo'jalik huquqi, yer, suv, o'rmon va kon huquqi;*
- 7) *jinoiy huquq va kriminologiya; axloq tuzatish-mehnat huquqi*
- 8) *jinoiyat ish jarayoni va kriminalistika;*
- 9) *halqaro huquq;*
- 10) *sud tuzilishi, prokuror nazorati, advokaturaga* bo'linadi.

Albatta, bulardan boshqacha tasniflar ham mavjud. Bular jadal o'zgarib boruvchi hayot hodisalari yoki bo'lmasa mualliflar sub'yektiv tasavvurlari natijasidir. Chunonchi, ularning ba'zilar tarixiy-yuridik turkumga Rim va musulmon (islom) huquqlarini kiritishsa, xo'jalik-

huquqiy (xo'jalik huquqi, yer huquqi, mehnat huquqi) turkumini fuqarolik-huquqiy turkum (fuqarolik huquqi, oila huquqi va hokazo)dan ajratishadi.

Bizning nazarimizda, mazkur muammo bo'yicha barcha nuqtai nazarlarni keltirib o'tirish va, ayniqsa, ulardan biron-tasiga ustuvorlik berish zarurati yo'q. Buning imkoni ham yo'q.

Har qanday yangi andoza va tuzilmalar hozirgi zamon hayotining o'zgarib boruvchi holatini birdek ifodalab berolmaydi. Fanda yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishi, fan-texnika taraqqiyoti fazoviy, atom, kompyuter kabi huquq bo'lim-paydo bo'lishini taqozo etdi. Siyosiy hayotdagi yangi voqealiklar, bozor munosabatlarining rivoj topishi huquqshunoslarda tijorat, soliq, birja va boshqa huquqlarni yaratish (yoki ular ustida ishlash)ga rag'bat uyg'otdi.

Ma'lumki, sohaviy yoki maxsus yuridik fanlar ko'pincha davlat yoki huquqiy hayotning biron tarmog'i, yo'nalishi yoxud jihatini tadqiq etish bilan shug'ullanadi. **Davlat va huquq nazariyasi ulardan farqli o'laroq, davlat va huquq rivojlanishining umumiy, lekin o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.**

Shu tarzda davlat va huquq nazariyasini o'ziga xos bir hovuz deb tasavvur etsak, ayrim yuridik fanlar uning tagiga "sho'ng'ishi" va yana yuzaga «suzib chiqishi» mumkin. Fikrimizni misollar yordamida tushuntirishga harakat qilamiz. Sho'ro davrida davlat va huquq nazariyasi umumiy qonuniyatlarini bilishning barcha jihatlari (falsafiy, siyosiy hamda sotsiologik jihatlari) yagona bir fanga - davlat va huquq nazariyasi faniga tiqishtirilgandi. Biroq, keyingi paytlarda yetarli darajada asosga ega bo'lgan takliflar, talablar, mulohazalar paydo bo'lmoqda. Ular, jumladan, davlat va huquq nazariyasidan siyosiy fanlar, huquq falsafasi, huquq sotsiologiyasi, huquq etikasi, huquq ensiklopediyasini, huquqiy mafkurani ajratib chiqarishdan iborat.

Biroq, bu yuridik fanlar tizimidagi bilimlarning mustaqil ilmiy tarmog'i sifatida davlat va huquq umumiy nazariyasining ahamiyatini biron-bir darajada kamsitmaydi. Holbuki, hayotimizda davlat-huquq qonuniyatlari ob'yektiv suratda amal qiladi. Ularni bilmay turib, sohaviy yoxud maxsus yuridik fanlar o'rganadigan hodisa va jarayonlar va narsalarni o'zlashtirish mumkin bo'lmay qoladi.

Chindan ham yuridik fanlar huquqning mohiyati, mazmuni va shaklini, huquq sohalari va tartibotlarini, huquq tizimi va tasnifi, huquqiy me'yorlari va huquqiy munosabatlarni ilmiy idrok etmay turib, faqat ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan natijalargagina tayanib, qanday qilib samarali rivojlanish mumkin? Xatti-harakatlarning qonuniyligini, huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik, qonuniylikning umumiy masalalarini, ya'ni huquq umumiy nazariyasi shug'ullandigan masalalarni bilmasdan jinoyatchilikka qarshi, ayniqsa, uning murakkab va uyushgan shaklilariga qarshi samarali kurash olib borish mumkin emas.

Yoki boshqa bir misolni olaylik. Hozir hammamiz mamlakati-mizda huquqiy demokratik davlatni barpo etish zaruriyati haqida gapiryapmiz. Xalqimiz mazkur masalaga ongli ravishda tushunib yondashmoqda. Lekin shunday savolga javob beringa: davlatning mohiyati, mazmuni, shakllari, uning ijtimoiy roli va vazifasi to'g'risidagi fundamental tushunchalarsiz ushbu katta ahamiyatga molik, dolzarb vazifani hal etish mumkinmi?!

Demak, davlat va huquqning umumiy nazariyasi o'zining maxsus va sohaviy yuridik fanlarga bo'lgan munosabatida umumlashtiruvchi, rahbariy, yo'naltiruvchi, metodologik ahamiyatga molik fan bo'lib, u sohaviy va maxsus yuridik fanlarning nazariy asoslariga oid muammolarni ishlab chiqish uchun zarur.

Ammo bir ishtibohdan ogohlantirib qo'yish darkor. Xuddi naturfilosofiya (tabiat falsafasi) aniq tabiiy ilmiy o'rnini bosolmay, u yoki bu fan sohalari oldidagi konkret vazifalarni yechishni uddalay olmasdan o'z tarafdorlarini metafizikaning boshi berk ko'chasiga olib kirib qo'ygandek, huquq nazariyasi ham huquqiy bilimning sohalariga xos muammolarni yechishga urinmasligi kerak, buning uddasidan ham chiqolmaydi. Bu vazifa o'z maxsus nazariyasiga ega bo'lgan sohaviy fanning faoliyat doirasiga kiradi.

Haqiqatan ham, protsessual fanlar dalillar nazariyasini rivojlantiradi, uning asosiy qoidalaridan ayrimlarini huquq nazariyasi ham o'rganadi. Fuqarolik huquqi fani, jumladan, majburiyat huquqi, intellektual mulk, yuridik shaxs, mulkiy javobgarlik nazariyasini ishlab chiqadi. Biroq umumnazariy qoidalardan foydalanilmaganda, mazkur ilmiy bilimlar jo'n pozitivizmga, u yoki bu qonun hujjatlari va ular ayrim moddalarining oddiy bayoniga aylanib bo'lardi. Shunga

qaramay, umuman olganda, huquq umumiy nazariyasining tarmoq fanlari bilan hamkorlikdagi faoliyati o'zaro foydali, ob'yektiv bo'lib, hozirgi zamon huquq nazariyasiga xosdir.

Demak, davlat va huquq umumiy nazariyasi maxsus va sohaviy fanlarga nisbatan dasturiy, yo'naltiruvchi, metodologik ahamiyatga ega bo'lgan umumlashtiruvchi fan sifatida maydonga chiqadi. U sohaviy va maxsus yuridik fanlar shug'ullanuvchi maxsus, tor doiradagi muammolarni ishlab chiqish uchun ham kerak. Boz ustiga davlat va huquq umumiy nazariyasi sohaviy bilimlar tayyorlagan xulosalarni tadqiq qiladi va tartibga soladi, ulardan o'z ilmiy g'oyalarni shakllantirishda foydalanadi. Shu bilan birga bu – uning xulosalari ixtisoslashgan yoki sohaviy yuridik fanlar xulosalarining oddiy yig'indisi yoxud majmuidan iborat, degan ma'noni anglatmaydi. Bu yerda hamma narsa biz o'ylagandan ko'ra ancha murakkabroqdir.

Qadimdan ma'lumki, har qanday fanning nazariya saviyasi qanchalik yuqori, ilmiy zamini mustahkam bo'lsa, uning ilmiy-metodologik ahamiyati ham shunchalik yuksak bo'ladi. Davlat va huquq umumiy nazariyasi haqida gap ketganda, bu fikr o'n chandon, yuz chandon ko'proq kerak va muhimroqdir. Birinchi navbatda bu davlat va huquq nazariyasi amaliyot bilan nafaqat tarmoq yoki ixtisoslashgan fanlar orqaligina emas, balki bevosita bog'liq ekanligi bilan ham izohlanadi. Agar yana sohaviy fanlar o'z tadqiqotlarida faqat hozirgi zamon davlat amaliyotiga, amaldagi huquqqa urg'u berishi, ayni paytda esa, davlat va huquq umumiy nazariyasi ilmiy tekshirishlarida makon va zamonda cheklanmaganligini hisobga oladigan bo'lsak, ularning o'zaro bir-birlarini boyitishi ravshan bo'lib qoladi hamda davlat-huquqiy voqeligi ko'lami yanada to'g'riroq va yaxlitroq bo'ladi.

6-§. Davlat va huquq nazariyasining funksiyalari

Davlat va huquq nazariyasining rivoji faqat uning oldida turgan vazifalar bilan belgilanmay, balki u bajaradigan funksiyalar bilan ham bog'liqdir. Davlat va huquq nazariyasi funksiyalari to'g'risidagi masala mohiyatan yuridik fan, jilla bo'lmasa, uning nazariy qismi jamiyat uchun, huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun, davlat-chilikning huquqiy asoslarini mustahkamlash, inson huquqlari va erkinliklarini barqarorlashtirish uchun nimalar qilayotgani haqidagi

masala hamdir. Chunonchi, evristik funktsiya fan taraqqiyoti bilan bog'liq. Evristika («eurisko» yunoncha - «topaman») - haqiqatni topish, aniqlash san'ati. Davlat va huquq nazariyasi shunday mantiqiy usul va uslubiy qoidalar tizimiga egaki, ular faqat davlat va huquqni rivojlantirishdagi yangi qonuniyatlarni bilibgina qolmay, bu qonuniyatlarni kashf etish imkonini ham beradi. Bu esa, islohotlar va ijtimoiy o'zgarishlar bosqichining murakkab vaqtlarida juda muhimdir.

Davlat va huquq nazariyasi sohaviy va ixtisoslashgan yuridik fanlar uchun fundamental fan sifatida metodologiya xizmatini o'taydi, ya'ni ularga nisbatan metodologik funktsiyani bajaradi. Davlat va huquq umumiy nazariyasi tushunchasi va konsepsiyalari sohaviy va maxsus fanlarning asosi bo'lib maydonga chiqadi.

Davlat va huquq nazariyasi davlat-huquq hodisalarini o'rganish bilangina cheklanmay, huquq, huquqiy va davlat tarmoqlarini qayta qurish tamoyillarini ham ishlab chiqadi. Davlatning o'zi siyosiy kurash markazi sifatida maydonga chiqadi, shuning uchun davlat va huquq nazariyasining bir muhim funktsiyasi - **siyosiy funktsiyadir**. Siyosat (arabcha «siyosatun» - rahbarlik, boshchilik qilish) davlat hokimiyatini amalga oshirish va saqlab qolishga yo'naltirilgan ijtimoiy faoliyatni, mamlakat ichkarisidagi va xorijiy davlatlar bilan munosabatlardagi davlat faoliyatining muayyan yo'nalishi va tarzini ham anglatadi. Mamlakat siyosiy yo'li huquqshunoslik faoliyatida ham, amaldagi qonunchilikda ham o'z ifodasini topadi.

Siyosiy funktsiya bilan mustahkam aloqada bo'lgan **mafkuraviy vazifa** (funktsiya) ham mavjud. Mafkura (arabcha "fakkara" - o'ylamoq, fikr yuritmoq) va fanning mafkuraviy vazifasi siyosatning dunyoqarash bilan bog'liq jihatini aks ettiradi. Bu yerda ham, oldindan ogohlantirib shuni aytish joizki, mafkuraviy funktsiyaga chidashga to'g'ri keladigan yovuzlik sifatida qarash kerak emas. Uni hukmron u yoki bu siyosiy yo'lini oqlash majburiyati sifatida nazariy «asoschilari» fikrlaridan iqtiboslar keltirish, fanning eng so'nggi haqiqatini aytishi, ayniqsa, boshqa fan sohalari vakillariga «o'rgatib qo'yish» huquqi da'vogari sifatida tasavvur etish kerakmas. Albatta, yaqin o'tmishda shunday bo'lgandi. Biroq, biz bunday qoliplardan voz kechishimiz zarur.

Hozirgi zamon mafkurasini va uning mamlakatimiz va xalqimiz taqdiridagi ahamiyatiga kelsak, bu haqda O'zbekiston Prezidenti

Islom Karimov shunday deydi: «**Oldimizda turgan eng muhim masala, bu - milliy istiqloq mafkurasini yaratish va hayotimizda tatbiq etishdir.**

Milliy istiqloq mafkurasi xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim»¹⁷.

Ongli tarzda tushuniladigan va qabul qilinadigan mafkuraviy funksiya, huquq, davlat mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotida, madaniyat sohasida, ijtimoiy ong sohasida salmoqii rol o'ynashini e'tirof etishdan iboratdir.

Davlat va huquq nazariyasining tashkilotchilik yoki amaliy tashkilotchilik funksiyasi har qanday yo'nalishda faoliyat yurituvchi yuristning o'zi qatnashgan u yoki bu nazariy-ma'rifiy modellarni haqiqatda amalga oshirishdan manfaatdorligi bilan bog'liq. Davlat va huquq nazariyasiga yana davlat va huquqiy hayotning turli jarayonlari va hodisalarini isloh qilish vositasi sifatida ham qarash mumkin.

Umumiy nazariyaning amaliy-tashkilotchilik tomoni turli xalqlar, davlatlar duch kelayotgan eng murakkab muammolar yechimlarini izlab topishda namoyon bo'lishi kerak va shunday bo'lmoqda. Bu, ayniqsa, sobiq Ittifoq respublikalari xalqlari uchun dolzarbdir.

Kishilarda, davlat va huquq nazariyasi bir lahzalik o'tkinchi muammolar bilan shug'ullanar ekan-da, degan noto'g'ri fikr tug'ilishi ham mumkin. Lekin bunday fikrga qo'shilib bo'lmaydi, chunki uning yana ham muhim vazifasi - muammolarning paydo bo'lishini aytib berishdan iborat. Bu vazifani davlat va huquq nazariyasining **prognoz - bashorat qilish funksiyasi** bajaradi. «Prognosis» yunonchadan tarjimada «oldindan aytib berish», muayyan ma'lumotlar asosida «oldindan ko'ra bilish», degan ma'nolarni bildiradi.

Davlat va huquq nazariyasida davlat-huquqiy rivojlanishining kashf qilingan qonuniyatlari nazariyasi, uning tomonidan isbotlangan faktlar, to'plangan statistika ma'lumotlari oldindan bashorat qilishga asos bo'ladi. Yuridik fandagi ishlar ahvoli uchun mas'uliyat shu nazariya «zimmasida»dir. Bundan tashqari, u nafaqat yuridik, ijtimoiy balki tibbiyot va texnika fanlarini integratsiyalash

¹⁷ I.A.Karimov. «O'zbekiston": milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura» I-tom., «O'zbekiston" 203-bet.

vazifasini ham bajarishi kerak. Uning tomonidan qilingan bashoratlarning to'g'ri bo'lishi ko'p jihatdan davlat-huquq muhitini bir butun yaxlitlikda ko'ra bilish qobiliyatidan, shu maqsadda barcha fanlar bergan ma'lumotlardan foydalana olishga bog'liq.

Yuqorida so'z borgan barcha funksiyalar haqiqatan ham juda muhimdir, biroq, bunda davlat va huquq to'g'risida fan nazariy fanning muvaffaqiyatli rivojini, albatta barcha vazifalarning o'zaro mustahkam bog'liqligi, mushtarakligini taqozo etadi. Shunga ko'ra, prognozlar faqat amaliyotga asoslanishi mumkin, amaliyot esa, barcha funksiyalarning oshirilishi bilan ta'minlanadi.

Aytilganlardan davlat va huquq nazariyasining kelajagi porloq, degan xulosa kelib chiqadi. Zero, uning ahamiyati muttasil ortib boradi. U bosib o'tgan yo'lning o'zi ham tahsinga loyiq. Davlat va huquq nazariyasining shakllanishi va rivoj topishiga uning muammolari ustida turli mamlakatlarda ish olib borgan ko'plab atoqli olimlar katta hissa qo'shishgan. Bular - Xitoy legistlari-yu Manu qonunlarining noma'lum tuzuvchilari, har birimizga ma'lum Yunonistonning mashhur mutafakkirlari-yu, qadimgi Rimning siyosiy notiqdari, o'rta asr Uyg'onish davri nazariyotchilari, davlat haqida, huquq to'g'risida hozirgi zamon qarashlarining asoschilari, yangi zamon va burjua inqiloblari oralig'i siyosatchilari, nemis klassik faylasuflari, fransuz ma'rifatparvarlari-yu italyan siyosatchilaridir.

Islom yuridik tafakkurining ham bunda hissasi salmoqli.

Rossiyaning Oktyabr inqilobigacha bo'lgan yuridik fani ham muayyan hissa qo'shgan. Sho'ro davri davlat va huquq nazariyotchilari ishlari hozirgacha ma'lum darajada o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Bundan tashqari, respublikamizda yuridik fanning mazkur yo'nalishi rivojida boshdan kechirilayotgan bosqich huquqshunoslik va davlatshunoslikning bir qator fanlari taraqqiyotida g'oyat samarali bo'lishi mumkin.

Davlat va huquq umumiy nazariyasini ishlab chiqishga respublikamiz Prezidenti Islom Karimov mislsiz hissa qo'shdi. Uning ko'plab asarlari shu yo'nalishda ish olib borilayotganlarga metodologiya xizmatini, ilmiy-amaliy qo'llanma vazifasini o'tashi mumkin.

Aytish kerakki, yuridik fanlar bizning respublikamizda hamisha

rivojlanishda bo'lgan. Biroq totalitar tuzum davrida ko'p mavzular taqiqlangan yoki yopiq edi. Chunonchi, islom huquqshunosligi bilan shug'ullanishga deyarli imkon bo'lmagan. Vaholanki, bizning mintaqamiz uchun, butun jahon hamjamiyati uchun ham uning ahamiyati beqiyosdir. Bu ulkan va jiddiy masala bo'lib, alohida suhbatga mavzu bo'lishga loyiq.

7-§. Davlat va huquq nazariyasining o'quv fani sifatidagi tuzilishi

An'anaga ko'ra davlat va huquq nazariyasiga ushbu o'quv fanining umumiy tavsifi masalalari (predmet va metod, ijtimoiy va yuridik fanlar tizimidagi o'rni), davlat va huquqning kelib chiqishi va davriylashtirilishi bilan bog'liq masalalar (davlat va huquqning paydo bo'lishi, huquq va davlat tushunchasi, mohiyati, tipologiyasi, tasnifi) kiradi.

Huquqning umumiy nazariyasiga oid masalalar g'oyat keng qamrovli (huquq ijtimoiy munosabatlarni normativlar orqali boshqarish tizimida; huquq tamoyillari, shakllari manbalari, uning ijtimoiy qadriyat ekanligi; huquq va axloqiylik, huquqiy ong va huquqiy madaniyat; yuristning professional huquqiy ongi; huquq normalari tushunchasi, belgilari, tarkibi va turlari; huquqiy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar - tushunchasi, tamoyillari, tuzilishi turlari; huquq tizimi va qonunchilik tizimi; huquqiy munosabatlar tushunchasi, tarkibi, turlari; huquq ijodkorligi, huquqni tatbiq etish, huquqiy tizimlar). Siyosiy tuzum tushunchasi, davlat hokimiyati, boshqaruv, davlat apparati, shuningdek, davlat shakllari (boshqaruv shakli, davlat tuzilishi shakllari, davlat rejimi), uning funksiyalari va mexanizmlari tavsifi davlat va huquq umumiy nazariyasi masalalarini tashkil etadi. Masalalarning mustaqil guruhiga huquq-tartibot muammolari (huquqiy xulq-atvor, huquqbuzarlik tushunchasi, belgilari, turlari, yuridik mas'uliyat tushunchasi, belgilari, turlari, qonuniylik va huquq-tartibot; xavfsizlik, huquqiy davlat) kiradi.

8-§. Insonparvarlik va umummadaniy qarashlar davlat va huquq nazariyasi asoslari sifatida

Hozirgi zamon bosqichida insonparvarlik, umummadaniy qarashlar davlat va huquqning dunyoqarash, falsafiy asoslari

hisoblanadi. Faqat ular oddiy bayonotlardangina iborat bo'lib qolmay, insonlar hayotida faol, ijobiy kuchga aylanishi shart. Bunga erishish oson emas. Buning uchun:

birinchidan, insonparvarlik tafakkuri shiorlar, chaqiriqlar yaxshi istaklardan iborat bo'lmay, balki aniq, umumahamiyatga sazovor tamoyillar va institutlarda o'z tatbig'ini topishi kerak. Urush va inqiloblar, totalitarizm dahshatlarini boshidan kechirgan zamonamiz insonlari uchun tabiiy huquqlar kategoriyalari va ularning o'zagi bo'lmish insonning tug'ma ajralmas huquqlari - uning sha'ni va qadr-qimmatini alohida ahamiyatli va qimmatli;

ikkinchidan, «insonparvarlik ...yetarli darajada chuqur falsafiy zaminga ega bo'lishi, jamiyatning yashashi va rivoj topishini, uning bosqichlari, fazalarini belgilab beruvchi asosiy ijtimoiy kuchlar mohiyati tushunchasi bilan bog'liq bo'lishi zarur»¹⁸;

uchinchidan, insonparvarlik asoslari huquq mohiyatining o'zida aks etishi juda muhimdir. Zero, so'z qog'ozga bitilgan huquqlarning o'zlarining ko'p qirrali ma'naviy-axloqiy mazmunlariga bo'lgan murakkab ziddiyat nisbatlari haqida ketmoqda. O'z navbatida, bu nisbatlar muayyan davr yoxud muayyan mamlakat sharoitlariga bog'liqdir.

Insonparvarlik dunyodagi barcha xalqlar, millatlarga xos bo'lgan umumiy xislat va fazilatlardan biri hisoblanadi. Bu umuminsoniy qadriyat eng qadimiy turkiy xalqlardan sanalgan o'zbeklarga ham to'la taalluqlidir. Respublikamiz Prezidentining «O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li» asarida bu haqda ajoyib fikrlar bayon etilgan: «Insonparvarlik - bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Shafqatsizlik va zo'ravonlik uning tabiatiga yotdir. Bizning xalqimiz o'zining voqealarga boy ko'p ming yillik tarixi davomida ko'p narsalarni boshidan kechirdi - madaniyat, ilmfan, o'z davlatchiligi yutuqlari nashidasini surdi, o'zaro nizolar, begonalar asorati azobini tortdi, eng yaxshi o'gil-q'izlaridan judo bo'ldi. Lekin tarixning o'yini ham, omomsiz jangu jadallar ham, tabiiy ofatlar va ochlik ham xalqimizning insoniylik tabiatiga dog' tushirolmadi. O'zbek oilasida bugungi kunda yaxshilik va yorug'lik, bolalarga mehr, kattalarga hurmat, yaqinlarga va boshqalarning qayg'usiga hamdardlik mujassamlashgandir»¹⁹.

¹⁸ Алексеев С. С. Теория права - М.: Издательство «Бек». 1993, 23-бет.

Dastlab, jamiyat nimadan iboratligiga va uni «boshqarayotgan» kuchlarga aloqador bir nechta eng umumiy qoidalarni ko'rib chiqaylik. S.S.Alekseyevning ta'kidlashicha, «Kishilik jamiyati shafqatsiz va chorasiz tabiat tobeligidan ajralib chiqqan hamda o'z-o'zini qo'llay oladigan, entropiya²⁰ga qarshi tura oladigan ongli mavjudotlarning o'z-o'zidan rivojlanuvchi tizimidan iborat. Jamiyat tizimlar sifatida o'z-o'zini rivojlantirish uchun zaminga ega bo'lishi **insoniyat sivilizatsiyasi**ning boshlang'ich nuqtasi bo'ldi»²¹.

Sivilizatsiya sharoitlarida jamiyatning bosh xususiyati **ozodlik** bo'lib, u asta-sekin yuzaga keladigan serma'no, ziddiyatli, ham ijobiy, ham salbiy xislatlarga ega bo'lgan hodisadir. «Ozodlikning ijobiy tomoni, - deb ta'kidlaydi olim, - aql-idrok asosida rivojlanishning mislsiz imkoniyatlaridan iborat, - mohiyatan u oliy maqsadlar, orzu-umidlar, hayot zavqlarining paydo bo'lishi bilan bog'liq koinotdagi yangi davrni bildiradi».

Salbiy tomoni - jamiyatning tobora kuchayib borayotgan tabiatdan uzilish xavfidir (bunda yaqin o'tmishda keng tarqalgan «biz tabiatdan in'om-ehson kutib o'tirolmaymiz, undan undirib olamiz», degan shiorni eslaylik). Bu esa, jiddiy falokatlarga, hatto insoniyatning ommaviy halokatiga olib kelishi mumkin.

Sivilizatsiya sharoitlarida jamiyatni «boshqaruvchi», uning o'z-o'zini rivojlantiruvchi kuchlariga kelsak, ular - **hokimiyat, mulk, g'oyadir**.

Hokimiyat - odamlarni bo'ysundirish va ular ustidan hukmronlik qilish munosabatlaridir. Biroq, uning bo'lishi ob'yektiv zaruriyatdir, shuning uchun ham ko'pincha ijobiy tusga ega bo'ladi. Chunki, jamiyatni barqarorlashtirish, uning tashkiliy uyushqoqligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlis sessiyasida hokimiyat to'g'risida aytgan gaplarni eslaylik U: «Eski, qotib qolgan tizim bilan yangi tizim o'rtasidagi kurash keskin tus olgan hozirgi o'tish davrida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ijroiya hokimiyati zarur. Buni hayotning o'zi har qadamda taqozo etmoqda»²², deb uqtiradi.

¹⁹ I.A.Karimov. «O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura» I-tom., ««O'zbekiston» 77-bet.

²⁰ Entropiya - tizimning ichki tartibsizligi darajasi.

²¹ Алексеев С.С. Теория права. - М.: Издательство «Бек», 1995, 24-бет.

Ayni paytda, hokimiyat salbiy xususiyatlarni ham o'zida mujassamlashtirishi mumkin. Zero, uning tabiatida o'z-o'zini o'stirib borish, qat'iy markazlasha borish va hatto zo'ravonlikka intilish mayllari bo'ladi. Sho'ro totalitar tuzumi boshqargan yillar buning yorqin dalili bo'lib xizmat qiladi. O'sha tuzum davrida hokimiyat faqat partiya-davlat rahbariyati manfaatlariga, Markaz manfaatlariga xizmat qilgandi. Buni «bir necha o'n yillar mobaynida iqtisodiyot Markazdan boshqariladigan yagona xalq xo'jaligi majmuining tarkibiy qismi» bo'lib kelgan O'zbekiston misolida yaqqol kuzatish mumkin. «Markaz qabul qiladigan qarorlarni O'zbekistonning manfaatlaridan yiroq edi. Xullas, chor imperiyasi davridagidek, respublika arzon xom ashyo va strategik mineral resurslar yetkazib beruvchi, tayyor mahsulot sotiladigan qulay bozorga aylanib qolaverdi, ya'ni respublika xom ashyo bazasi bo'lib keldi»²³.

Qariyb bir yarim asr davom etgan og'ir mustamlakachilik sharoitida O'zbekiston siyosiy, harbiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy qashshoqlik va qaramlikning barcha shakllarini o'z boshidan kechirdi. Mustamlakachi ma'murlari o'lkamizning sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishga ataylab yo'l bermadi, texnika va texnologiyaning, ilm-fan, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatning o'sishiga tish-tirnog'i bilan qarshilik ko'rsatdi, xalqimizning peshona teri, aql-idrok va tafakkuri bilan yetishtirgan moddiy va ma'naviy boyliklarini zo'ravonlik yo'li bilan talon-taroj qildi.

Islom Karimov O'zbekistonning davlat mustaqilligidan oldingi og'ir qismatini Oliy Majlisning o'n to'rtinchi sessiyasidagi ma'ruzasida zo'r achinish bilan ushbu so'zlar orqali bayon etdi: «Mamlakatimizdan katta miqdordagi yetishtirilgan paxta hosilining aksariyat hajmi - moddiy boylik suvtekinga tashib ketilar edi. Oltin, qimmatbaho va rangli metallar, strategik ahamiyatga ega materiallar, jahon bozorida o'ta xaridorgir bo'lgan boshqa qimmatbaho mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishdan keladigan foyda O'zbekiston xazinasiga tushmas edi.

Bunday vaziyat respublikada o'tkir ijtimoiy, ekologik muammolar hal etilmayotgan, nufuzi jadal suratda o'sib borayotgan, aholi

²² I.A. Karimov. *Vatan saydagoh kabi muqaddasdir. T.*, «O'zbekiston», 1996, 11-bet.

²³ I.A. Karimov «O'zbekiston»: milliy istiqbol, iqtisod, siyosat maftura: I-tom, «O'zbekiston» 282-bet.

turmush darajasi jihatidan sobiq SSSRda eng oxirgi o'rinlardan birida turgan paytda ro'y berayotgani ayniqsa achinarli edi»²⁴.

Mulk - narsalarga bo'lgan munosabat, narsalar ustidan hukmronlikdir. Biroq, mulk xususiy bo'lgandagina jamiyat uchun birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Afsuski, respublikamiz 75 yil mobaynida tanho davlat mulkchiligi sharoitida yashab keldi. Vaholanki, bu xalqimizning asriy an'analari va mentalitetiga mutlaqo zid edi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek biz sharq odamlarimiz. Xususiy mulk, shaxsiy mulk odamlarda qiziqish, rag'bat uyg'otishini yaxshi bilamiz. Mulk egalari bo'lsa, mehnat unumdorligi yuz marta, ming marta oshadi. Biroq mulk ham hokimiyat singari salbiy xislatlardan xoli emas. Muayyan vaziyatlarda u odamlar ustidan hukmini o'tkazadi, kishilarni bir-birlaridan begonalashtiradi. Axloq, qonunlarning toptalishiga, jinoyatlarga olib keladi.

Nihoyat, g'oyalar. Ularni S.S.Alekseyev juda yaxshi ta'riflagan: «g'oyalar deganda, eng yuksak va ahamiyatga molik butun koinot olami, aql-idrok... uchun xarakterli hodisalar mahsuli tushuniladi. G'oyalar aql-idrok va ishonch-e'tiqodning tabiat va narsalar olamiga yorib kirishini ifodalaydi. Bu qattiq, vahshiy qonuniyatlar va ko'r-ko'rona tasodiflar saltanatidagi yorqin nurdir. G'oyalar fan mazmunini tashkil etadi, kutilmagan yangiliklar... dunyoqarashlarning tarqatuvchilari bo'ladilar. Lekin muayyan tarixiy shart-sharoitlarda g'oyalar mafkura - hokimiyat bilan bog'liq buyruq ohangidagi qarashlar to'plamiga aylanadi.

G'oyalar, hokimiyat va mulk singari jamiyat hayotida birdek bo'lmagan ziddiyatli ahamiyatga ega»²⁵.

Jamiyatda fikrlar xilma-xilligi bo'lmagan, bir mafkura suradigan hollar ayniqsa xavflidir. Masalan, sobiq Ittifoqda markscha-lenincha mafkura hukmronligi xuddi shunday davr bo'lgandi. «yAgona mafkura hukmron bo'lgan joyda tenglik va adolat bo'lmaydi. Biz buni o'tmishdagi achchiq tajribamizdan juda yaxshi bilamiz»²⁶, deganida Prezidentimiz Islom Karimov ming bora haq. Bizning mamlakatimizda mazkur qoida qonuniy mustahkamlab qo'yilgan - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida shunday deyilgan: «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar,

²⁴ I.A.Karimov. «O'zbekiston" XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston», 1999, 4-5-betnap.

²⁵ Алексеев С. С. Теория права. - М.: Издательство «Бек», 1995, 26-bet.

²⁶ I.A.Karimov. «O'zbekiston": milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura» 1-tom., «O'zbekiston" 16-bet.

mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasini sifatida o'rnatilishi mumkin emas»²⁷.

Biroq, umumxalqiy tamoyillar, diniy vahiylar va fatvolar, tabiiy huquqshunoslik, insonning asosiy huquqlari va erkinliklari tushunchalariga chuqur singib ketgan insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan yuksak g'oyalar - inson hayotining mazmunini tashkil etadi. G'oyalarsiz, mafkurasiz inson ijtimoiy hayotining mavjud bo'lishi mumkin emas. Xuddi shuning uchun ham Islom Karimov: «**Oldimizda turgan eng muhim masala, bu - milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizda tatbiq yetishdir.**

Milliy istiqlol mafkurasini xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim»²⁸, -deb hisoblaydi.

Davlat va huquq nazariyasining yangi konsepsiyasi haqida gapirilganda, shubhasiz, **jamiyat taraqqiyoti asosiy fazalarini** aniqlashga bo'lgan yangicha yondashuvga albatta e'tiborni qaratish joiz. Marksizm jamiyat rivojini formatsiyalar - mulk shakliga qarab farqlanadigan jamoat tuzilmalariga qarab belgilaydi. Bunday formatsiyalar beshta bo'lib, ular ibtidoiy jamoa tuzumi, quldorlik jamiyati, feodalizm, kapitalizm, sotsializm (kommunizm)dan iborat, degan fikr mavjud edi.

Mulk haqiqatan ham jamiyat rivojini belgilovchi salmoqli omil bo'lishiga qaramay, ushbu nazariya ilmiy-tavsifiy xususiyatga ega, xolos. Biroq, jamiyat rivojining asosi, uning bazisi sifatida mazkur nazariya faqat bir omil-mulkni tan oladi. Qolgan ikki omil - hokimiyat va g'oya - bu nazariyaga ko'ra ikkinchi darajali, ustqurma vazifasini bajaradi. Endilikda jamiyat hayotida, uning tarixida yuqorida ko'rsatilgan barcha omillar ham, ularning qay biri ayni vaqtda hukmron sifatida maydonga chiqishiga qarab, birlamchi bo'lishi mumkinligi ko'pchilikka ravshan bo'lib qoldi.

Aynan shuning uchun ham S.S.Alekseyevning quyidagi fikriga qo'shilmaslik mumkin emas: «...Kishilik jamiyati tarixini (albatta formatsiya ko'rinishidagi qat'iy hosilalar sifatida emas, to'g'rirog'i, yetakchi yo'nalishlar, umumiy konstruksiya sifatida) aniq uch davr,

²⁷ O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T., «Adolat», 1998.

²⁸ I.A.Karimov. «O'zbekiston»: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura I-tom., ««O'zbekiston» 16-bet.

uch tarixiy sahifa: hokimiyat davri, mulkchilik davri, insonparvarlik g'oyalari davriga bo'lish mumkin. An'anaviy jamiyatlar asosi bo'lmish hokimiyat davri ayniqsa uzoq cho'zilib, mashaqqatli, eng turg'un davr bo'lib chiqdi»²⁹.

Agar istiqbol haqida gapiradigan bo'lsak, g'oyalar, boz ustiga insonparvarlik g'oyalari ijtimoiy hayot asosi bo'lib qolishi mumkin. Va bu hech ham xomxayol emas.

Ma'lumki, jamiyatimiz taraqqiyotining asosiy maqsadi fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iborat. Rivojimizning ushbu bosqichi odamlarimiz hayotida endigina ko'zga tashlanmoqda. Bir vaqtning o'zida u ham mo'tadil hokimiyatning, ham kapitalizmning ijobiy jihati o'ziga singdirib bormoqda. Albatta, bularning hammasi kishilik jamiyati mohiyatini, uning tabiati, ozodlik sari harakatini ifodalovchi insonparvarlik g'oyalari asosida ro'y bermoqda. Ana shu g'oya Islom Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li» kitobida chiroyli tasvirlangan. Unda ta'kidlanishicha, «Mustaqil davlatda, tinchlik va osoyishtalikda, g'oyaviy chalkashliklar va «temir parda» dan xalos bo'lib, biz umumbashariy qadriyatlarning eng birinchi asosi bo'lgan xalq insonparvarligi chashmalaridan qadam-baqadam bahramand bo'lmoqdamiz. Ayni shu hol taraqqiyot yo'lidan dadil borishimiz va butun Insoniyat bilan birligimizning eng mustahkam kafolatidir»³⁰.

9-§. O'zbekiston fuqarolik jamiyati huquqini yaratish yo'lida

Respublikamizda huquqiy demokratik jamiyat asoslari faol barpo etilmoqda. Avvalgi totalitar tuzum qusurlariga keskin barham berilmoqda. Ko'ppartiyaviylik amalda ro'yobga chiqdi, tanho mafkura hukmronligiga chek qo'yildi. Respublikada umuminsoniy qadriyatlari, chinakam demokratiya, inson huquqlari va erkinliklarining jahon e'tirof etgan qoidalari ustuvorligi qaror topmoqda. O'zbekistonda hokimiyatning bo'linish tamoyillari tobora - izchil amalga oshirilyapti. Respublika yangi parlamenti – Oliy Majlisning qonun chiqaruvchilik faoliyati yosh mustaqil davlatning dadil qaror topishi va rivojini har tomonlama yuridik ta'minlashga yo'naltirilgan. Davlat boshqaruvi yangi, yanada samaraliroq tizimi shakllanmoqda. Prezidentlik boshqaruvi shakli bu tizimning o'zagidir. Joylarda boshqaruv tizimi

²⁹ Алексеев С.С. Теория права. -М., Издательство «Бек», 1995.

³⁰ I.A.Karimov. «O'zbekiston": milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura» 1-tom., «O'zbekiston" 80-bet.

gayta tashkil etilmoqda - viloyatlar, shaharlar, tumanlarda hokimlar instituti ta'sis etilgan. Qonunlar ustuvorligi, barcha fuqarolarning sud oldida teng huquqliligini ta'minlashga da'vat etilgan sud hokimiyati isloh qilinyapti.

Demak, hozirgi vaqtda O'zbekistonda huquqiy islohotlar respublikada demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish - demokratiya, bozor xo'jaligining huquqiy asoslarini yaratish va oqibat natijada huquqiy davlatni barpo etishning tub vazifalarini bajarishga qaratilmoqda. Bular, shubhasiz, huquqiy islohotlarning asosiy, birinchi darajali masalalaridir.

Shu bilan birga, albatta, strategik maqsadni ham ko'ra bilish kerak. Oliy Majlis sessiyasida Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, **«Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurmoqchimiz»**. O'z fikriga aniqlik kiritib, u davom etadi: **«Ana shunday davlat va jamiyatni qurish, haqiqiy demokratik qadriyatlarni vujudga keltirish - bizning bosh konsepsiyamiz va milliy ravnaqimiz asosidir»**³¹. Ayni paytda fuqarolik jamiyati albatta huquqning oliy darajadagi rivojini taqozo etadi. O'z navbatida bunday, hozirgi zamon fuqarolik jamiyati huquqiy jamiyat bo'ladi, degan xulosa kelib chiqadi. Lekin respublikamizdagi katta huquqiy o'zgarishlar, huquqiy islohotlardagi yutuqlarni qayd etgan holda huquqiy tizimni takomillashtirishning keyingi istiqbollarini belgilash hamda uning ustuvor yo'nalishini aniqlash ham muhimdir.

Ana shu ustuvorlik huquqni insonga «yaqinlashtirish»dan iborat bo'lishi kerak. Qonun darajasiga ko'tarilgan davlat irodasidan huquq inson irodasi va manfaatlari ustuvor bo'lgan huquqiy tizimga aylanmogi darkor. Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi yangi Konstitutsiyasining muhim afzalliklaridan biri sifatida quyidagilarni bejiz ta'kidlamagan: «Unda: «Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat hamda fuqarolar oldida mas'uldirlar», deyilgan, ya'ni, fuqarolar manfaatining ustunligi qonuniy ravishda mustahkamlangan va kafolatlangan»³².

Hozirgi zamon ozod, demokratik fuqarolik jamiyati uchun g'oyat zarur bo'lgan huquqni chinakam madaniy taraqqiyot

³¹ I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom, T. "O'zbekiston" 1996. 10, 12-betlar.

³² I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom, T., "«O'zbekiston»", 1996, 94-bet.

namunasi qiyofasiga qaytarish yo'llari qanday? Bu yerda masalaning uch jihati muhim ahamiyatga molik.

Birinchi jihat - xususiy huquqni tiklash, uning huquqiy tizimda yuksak va munosib o'rin egallashini ta'minlash. Xususiy (yoki fuqarolik) huquq sho'ro tuzumida ham shaklan, ham mazmunan buzilgandi: fuqarolik qonunchiligi davlatlashtirildi. Aslida xususiy huquq xususiy shaxslar yuridik ustunligining oliy darajada o'ziga xos huquqiy sohasidir. Shaxsiylashtirilgan xususiy mulksiz bozor xo'jaligi mavjud bo'lmaganidek, xususiy (fuqarolik) huquqsiz huquqiy mulkning o'zi, tadbirkorlik, iqtisodiy erkinlik va umuman erkinlikning bo'lishi mumkin emas. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining amalga kiritilishi muhim tarixiy voqea bo'lganligini alohida ta'kidlash joiz.

Ikkinchi jihat - u umume'tirofga sazovor inson huquqlari va erkinliklariga asosiy belgilovchi bo'g'in ahamiyatini berishdan iborat.

Uchinchi jihat - jamiyatimiz hayotida sudlarning rolini oshirish. Parlamentimiz sessiyasida bu masala ko'tarildi. «**Sud islohotini chuqurlashtirish**, hokimiyatning uchinchi mustaqil va qaram bo'lmagan tarmog'i sifatida **butun odil sudlov tizimini demokratlashtirish - huquqiy davlatni mustahkamlashning yana bir muhim yo'nalishidir**. Ijtimoiy turmushimizning demokratik instituti tariqasida sudning ahamiyati jiddiy oshirilishi zarur»³³, deb hisoblaydi Prezidentimiz Islom Karimov. O'ylaymizki, davlat va huquq nazariyasini rivojlantirish sari bunday yo'naltirilganlik davlat huquqi fani va amaliyoti rivojining jahon tamoyillariga mos keladi va insoniyat shu vaqtgacha to'plagan davlat va huquq nazariyasi asosiy boyliklarini tiklash hamda taraqqiy ettirishga xizmat qiladi. Forobiyning ijtimoiy-axloqiy asari, Amir Temur tuzuklari, Burhoniddin Marg'iloniyning «Hidoya»si, islom qadriyatlari bebaho boyliklarimizdir. «Agar biz adolatli davlat, erkin jamiyat qurmoqchi bo'lsak, bu olijanob maqsadni amalga oshirish yo'llari ming yillik diniy aqidalar bilan mushtarak ekanligini yodda tutishimiz lozim. Bu muqaddas maqsad yo'lida, kerak bo'lsa, jon fido qilish zarur deganimizda, aynan adolatli davlat va dinning ildizlari mushtarak ekanligini unutmaylik»³⁴.

³³ I.A.Karimov. Yangicha fikrlash – davr talabi. 5-tom, T., 126-127-betlar.

³⁴ I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. T. "O'zbekiston" 1996. 41-bet.

II bob. JAMIYAT, DAVLAT VA HUQUQ

1-§. Jamiyat haqidagi g'oyalar va tushunchalar

Jamiyat, jamiyat va inson, jamiyat va davlat masalalari qadim zamonlardan ilm ahli tomonidan o'rganib kelinayotgan masalalardir. Arastu (Aristotel), Forobiy kabi mutafakkirlar asarlarida inson, davlat va jamiyatning bir-biriga bo'lgan munosabati bayon qilingan. Ularning hammasi to'g'risida to'xtalib o'tishning zaruriyati yo'q, deb o'ylaymiz. Biz ham, ta'bir joiz bo'lsa, o'zimizning ana shu o'ta murakkab masalalar xususida xulosalarimizni, tushunchalarimizni keltiramiz.

Birinchidan, jamiyat - odamlar o'rtasida sodir bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Ikkinchidan, odamlarni jamoaga birlashtirgan bir butun organizm bo'lib, uning mohiyati iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy kabi ijtimoiy aloqalar va munosabatlarda namoyon bo'ladi. Uchinchidan, insonlarni birlashtirgan jamiyat murakkab, tobora takomillashib boradigan oilaviy, milliy, sinfiy, ayrim guruhlar o'rtasidagi munosabatlar, manfaatlar asosida quriladi. Jamiyat tabiiy qonunlar va inson tomonidan qabul qilingan qonunlar asosida tashkil topadi va idora qilinadi.

Jamiyat ilmiy adabiyotlarda ko'p jihatdan ijtimoiy munosabatlar tizimi nuqtai nazaridan o'rganiladi, uning negizini iqtisodiy munosabatlar tashkil etishi va uning asosida turli ustqurmalar, masalan, siyosat, davlat, huquq, san'at, adabiyot va boshqalar qurilishi e'tirof etiladi. Jamiyat tarixiy nuqtai nazardan o'rganilganda ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarga: quldorchilik, feodal, kapitalistik va kommunistik bosqichlarga bo'lib o'rganiladi. Bizning fikrimizcha, tarixiy jihatdan jamiyatni o'rganishda qadimiy dunyo, o'rta asrlar, yangi tarix kabi davrlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jamiyat insonsiz bo'lishi mumkin emas. Inson jamiyatning tuzilishida va uning rivojlanishida asosiy rol ni o'ynaydi. Jamiyat insonlarning bir-birlari bilan jamo'a bo'lib yashashga tabiiy ehtiyojlari asosida paydo bo'lgan.

Jamiyat paydo bo'lganidan boshlab bugungi kunga qadar rivojlanishda murakkab, turli shakllar va tarixiy bosqichlardan o'tdi. Masalan, ilk bor jamiyatning paydo bo'lishini oladigan bo'lsak, uni adabiyotlarda **ibtidoiy jamoa tuzumi** deb yuritadilar. Ibtidoiy

jamoat tuzumi uzoq yillar davomida murakkab bo'lmagan, ya'ni tabaqa, sinflarga bo'linmagan oddiy shaklda amal qildi. Bugungi kundagi jamiyat o'ta murakkab ko'rinishda bo'lib, ularning ko'pchiligi bir millat asosida boshqa millatlar vakillarini birlashtirgan, masalan, Xitoy, Yaponiya, Hindiston, Fransiya, Olmoniya, O'zbekiston kabi mamlakatlarda. AQShni oladigan bo'lsak, bunday jamiyatlar turli-tuman millatlar ittifoqidan tashkil topganini ko'ramiz.

Ijtimoiy-siyosiy institutlar. Jamiyat turli ijtimoiy-siyosiy institutlarga bo'linadi. Boshqacha qilib aytganda, jamiyatda turli ijtimoiy yoki siyosiy vazifani bajaruvchi tashkilotlar, organlar, muassasalar, birlashmalar mavjud bo'ladi. Arastu, Forobiylar aytganlaridek, insonlar ijtimoiy mavjudot bo'lganligi sababli kundalik turmushida, ya'ni mehnat qilish, o'qish, yashashda o'ziga o'xshagan boshqa insonlar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishib, turli ittifoq va tashkilotlarni ob'yektiv ravishda tashkil qiladilar.

Jamiyatning birinchi tabiiy bo'g'inini tashkil etgan institut - *oiladir*. Oila tabiiy qonunga ko'ra tashkil topadi, qon-qarindoshchilik munosabatlari asosida amal qiladi. Urug' bir nechta oilaning qon-qarindoshchilik asosida birlashishi va mulkni idora qilishi, umumiy, qarindoshchilik qoidalari asosida tashkil topishi bilan xarakterlanadi. Jamiyat taraqqiyotida bir necha urug'larning qo'shilishi bilan qabila, keyinchalik umumiy til, urf-odat kabi birlik asosida millat kelib chiqdi.

Siyosiy institutlarning eng dastlabkisi - davlat bo'ldi. Sharqda, masalan, Navoiy asarlarida mulk («mulki Ajam») tushunchasi asosida davlat instituti tushunilgan. Davlat bilan bir vaqtda huquq instituti paydo bo'ldi. Jamiyat taraqqiyoti natijasida davlat bilan birga bugun ko'plab nodavlat tashkilotlar: kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, turli-tuman ijtimoiy tashkilotlar yuzaga keldi.

Jamiyat va hokimiyat. Inson tabiatan shunday xislatlarga egaki, bular undagi xulq-atvor va xatti-harakatlarga sabab bo'ladi. Forobiy aytganidek, sohibi qonun bu xislatlarni nazarda tutishi, ularni tuzatishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, jamiyatga birlashgan fuqarolarni boshqarishi kerak. Jamiyatni boshqarish o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Uni hokimiyat boshqaradi. Hokimiyat jamiyatni tartibga soladi. Unga qalb baxsh etadi. Hokimiyat izidan chiqqan jamiyatlarda barqarorlik va tartib yo'qoladi. Shu nuqtai nazardan

hokimiyat masalasi jamiyatning yashashida muhim o'rinni egallaydi. Hokimiyat tufayli jamiyat hayotida sodir bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi va ular ma'lum maqsad va vazifalarning bajarilishiga yo'naltirilgan bo'ladi. Hokimiyat turli shakl va xarakterda bo'lishi mumkin, masalan, nodavlat va davlat hokimiyatlari mavjuddir. Ularning har ikkisi ham jamiyatni boshqarish uchun tashkil etiladi.

Sotsial hokimiyat yoki ijtimoiy hokimiyat va siyosiy hokimiyat tushunchalariga kelganda shuni aytish kerakki, ijtimoiy hokimiyat urug', qabila, guruh, sinf, xalq tomonidan tashkil etilgan kuch bo'lib, odamlarni o'ziga bo'ysundirgan holda ishon tirish va majburlash usullari orqali umumiy manfaatni ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Hokimiyatni tashkil etish va uning aniq amal qilishi ko'p omillarga bog'liq bo'ladi. Birinchidan, aniq tarixiy sharoitdan kelib chiqish kerak, ikkinchidan, iqtisodiyotniig darajasiga, uchinchidan, insonlarning, ayniqsa, hukmron doiralarning erkiga bog'liq bo'ladi. Hokimiyat to'g'risidagi ta'limotlarda «hukmronlik qilayotgan sub'yekt» degan tushunchaga katta e'tibor beriladi. Buning ma'nosi shuki, hokimiyat egasiz bo'lmaydi. Eng muhimi, hokimiyat kimga tegishli: xalq hokimiyatimi yoki ayrim sinf, guruhlariniki ekanligini aniqlash muhimdir. Erk ana shu hokimiyat va uning egasini hokimiyat sub'yekti bilan bog'laydi, mustahkamlaydi. Rahbarlar va ularga bo'ysunuvchi, itoat etuvchilar, hukmronlik qiluvchilar va tobe-lar kabi tushunchalar mavjuddir. Hokimiyat egasi - sub'yekti rahbar-lar bo'lsa, uning ob'yekti esa unga tobe shaxslardir. Hokimiyat ma-salasini ko'rayotganda uning muhim unsurlaridan bo'lmish erkdan tashqari boshqa unsurlari ham muhimdir. Masalan, hokimiyat kuchli bo'lsa, tartib bo'ladi, va aksincha, u kuchsiz bo'lsa, hokimiyatni odamlar mensimay qo'yishadi. Natijada qonunlar buziladi, ijtimoiy tartiblar izidan chiqadi. Hokimiyat xalqqa tayansa, uning ishonchiga sazovor bo'lsa kuchli bo'ladi. Buning uchun hokimiyat vakillari mafkura orqali hamda turli-tum'an odamlarga va'dalar berish yo'llari va usullari bilan ularning ishonchini qozonishga harakat qiladi. N.Makiavellining so'zlari bilan aytganda, hokimiyatni mustahkamlash va markazlashtirish uchun turli usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Hokimiyat hamma vaqt jamiyat taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qiladi. Turli siyosiy partiyalar, jamoat

tashkilotlari, sinflar, tabaqalar, millatlar vakillari hokimiyatga egalik qilish uchun kurashadilar. Shu sababdan ham hokimiyat uchun kurash ba'zan qonli to'qnashuvlar, fuqarolik urushlarini keltirib chiqarishini biz tarixdan yaxshi bilamiz.

Xulosa qilib aytganda, hokimiyat bevosita jamiyat bilan bog'liq bo'lib, u jamiyatning paydo bo'lishi bilan tashkil topadi. Hokimiyat turli ko'rinishlar va shakllarda rivojlangan murakkab ijtimoiy voqelikdir. Odatda, ilmiy kitoblarda uning ikki xil ko'rinishda mavjud bo'lishi e'tirof etiladi: siyosiy bo'lmagan va siyosiy hokimiyat. Ularning har ikkalasi umumiy sotsial hokimiyat tushunchasi bilan ta'riflanadi. Sotsial hokimiyat jamiyatga tartib, shakl beradi, rahbarlik qiladi. Odamlarning qonun va qonunlarga binoan yashashlarini ta'minlaydi. Shu sababdan ham hokimiyatning to'g'ri tashkil etilishi, uning omma bilan aloqadorligi, kuchliligi kabi sifatlari jamiyatning umumiy manfaatlarini, farovon hayotini, tinchligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kitoblarda ko'p jihatdan hokimiyat iqtisod asosida tashkil topgan ustqurma sifatida ta'riflanadi. Uning rivojlanishi, ko'rinishi, shakli va mazmuni iqtisodiy munosabatlar bilan belgilanadi. Ammo shuni yodda saqlash kerakki, hokimiyat jamiyatda rahbarlik qilayotgan kuchlar, sinflar, partiyalar va tabaqalar, ayniqsa ayrim shaxslarning erklariga, ularning g'oyalari va maqsadlariga bog'liq bo'lib, jamiyatning rivojlanishida ijobiy yoki salbiy rol o'ynaydi. Agar g'oyalari, maqsadlar ilg'or, insoniy va ko'pchilik manfaatiga qaratilgan bo'lsa, so'zsiz, ijobiydir, va aksincha, faqat alohida guruh, partiya, tabaqaning manfaatiga qaratilgan bo'lsa, bunday hokimiyat totalitar, avtoritar, diktatorlik rejimlariga olib keladi.

Hokimiyatning to'g'ri, demokratiya tamoyillari asosida tashkil etilishi - ulug' ishdir. Masalan, Yaponiya, Olmoniya kabi mamlakatlar xalqlari baxt-saodatlarini, ularning tinchliklari boisi tartib va qonunchilikning chinakam o'rnatilganligidadir. Rossiya, Afg'oniston kabi mamlakatlarda, afsuski, to'qnashuvlar, urushlar bu hokimiyatning, tartib, qoidalarning yaxshi shakllanmaganidan, kuchsizligidan, adashayotganidan dalolat beradi. O'zbekistonda esa, bugun shunday hokimiyat tashkil topdiki, u o'tish davrining qiyinchiliklari va injiqliklariga qaramasdan, mamlakatda tinchlikni ta'minladi. Jinoyatchilik, ayniqsa, o'ta xavfli uyushgan jinoyatchilikka qarshi o'z kuchini qarshi

qo'yishga muvaffaq bo'ldi. Mamlakatda kuchli davlatchilikdan kuchli jamiyat sari rivojlanishni ta'minladi.

Hokimiyat masalasi, eng avvalo, qonun-qoidalar bilan bog'liq bo'ladi. Hokimiyat o'z-o'zicha ishlay olmaydi. Uning o'zi, ichki tuzilishlari ham qonunlar va qoidalarga asoslangan bo'lishi kerak. Jamiyat a'zolarining yurish-turishlari ham qonunlar va qoidalar bilan belgilangan bo'lishi shart. Adabiyotlarda qonunlar va qoidalar (normalar) bir so'z bilan sotsial normalar deb yuritiladi. Ular ikki asosiy turga: majburiy xarakterda bo'lmagan (odob-axloq normalari) va hamma uchun majburiy (qonunlar)ga bo'linadi.

Jamiyatda sotsial normalar yaxshi ishlangan va hayotiy bo'lsa, ularning amaliyotda qo'llanilishi yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, bunday jamiyatda adolat, tinchlik, farovonlik mavjud bo'ladi. Jamiyatda sotsial normalar amal qilmasa, ular buzilsa, ayniqsa sohibi qonunlar tomonidan e'tiborsizlik bilan qaralsa, bunday jamiyatlarda parokandalik, tartibsizliklar bo'lishi muqarrardir.

Jamiyat a'zolarining kundalik turmushlarida, ularning o'zaro munosabatlarida hukmronlik qiladigan va ularning dunyoqarashlarida ko'nikmalarga aylanib qolgan qoidalar - ularning ota-bobolari tomonidan o'rnatilgan, joriy etilgan qonunlar muqaddasligidir. Jamiyatda umumiy tinchlik, barqarorlik saqlashda hokimiyat ana shu qonuniyatlarga qat'iy rioya qilishi kerak.

Ijtimoiy tartibni o'rnatishda, muayyan tizimga solishda, boshqarishda, birinchi navbatda, odamlarning xatti-harakatlarini, yurish-turishlari, ularning jamoalari, tashkilotlari, organlarining faoliyatlari qoida va qonunlar asosida quriladi. Jamiyatdagi ijtimoiy tartib quyidagi qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi.

Birinchidan, muayyan tarixiy shart-sharoitni e'tiborga olish kerak. Jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy dunyoqarashning rivojlanish darajasi, ochiqroq qilib aytganda, iqtisodiy munosabatlar va iqtisodiy kuchlarning bir-birlari bilan munosabat darajasi, sinfiy ziddiyatlar, hur fikrlilik kabilarni e'tiborga olgan holda rivojlanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ikkinchidan, odamlarning dunyoqarashlari, ruhiyati kabi omillar jamiyat taraqqiyotini tartibga solishda katta rol o'ynaydi. Masalan, jamiyat hayotida ro'y berayotgan, amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy islohotlar aholi tomonidan qanday tushunilayapti va

qay darajada qabul qilinayapti kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish ahamiyatlidir. Jamiyatda odamlar orasida, sinf va tabaqalar, millatlar o'rtasida kelishtiruv, tinchlik va o'zaro yordam berish g'oyalarini targ'ib etish ahamiyatlidir.

Uchinchidan, ijtimoiy tartib o'rnatish, odamlar, tashkilotlar, muassasalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish uchun qonunlarni joriy etish lozim. Odatda ularni adabiyotlarda ikki turga bo'ladilar. Oddiy bir shaxsga taalluqli yoki bir marotaba amal qiladigan normalar va murakkab, ya'ni hamma uchun barobar bo'lgan, doimiy amal qiladigan normalar.

Normalar bilan jamiyat hayotini tartibga solish insoniyat hayotida eng muhim yutuqlardan biri hisoblanadi. Hamma uchun qat'iy qilib o'rnatilganligi va unga amal qilish davlat tomonidan ta'minlanishi jamiyatni tartibga keltiradi. Qonun-qoidalar qanchalik hayotiy, adolatli bo'lsa va ularni sohibi qonunlar amalga oshirishni ta'minlasalar, bunday jamiyatda ijtimoiy tartib yuksak bo'ladi. Aksincha, qoidalarga rioya etilmasa, qonunlar buzilsa, jamiyat hayotida tartibsizlik yuz beradi. Tartibsizlik jamiyatni oxir-oqibatda halokatga olib kelishi mumkin. Jamiyatda tartibsizlikni keltirib chiqaradigan kuchlar mavjud bo'ladi. Jinoyatchi guruhlar, turli-tuman siyosiy, diniy aqidaparastlarni misol qilib keltirish mumkin. Sohibi qonun hamma vaqt ana shu xavf va xatarlardan ogoh bo'lgan holda ularni bostirish uchun ijtimoiy tartibni mustahkamlashi kerak. Masalan, bugungi O'zbekiston, Yaponiya kabi davlatlarda ijtimoiy tartib jamiyatning rivojlanishiga olib kelganligini ko'ramiz. Afg'oniston, Rossiya va yana boshqa bir qator mamlakatlarda, aksincha, ijtimoiy tartibsizlikka olib keluvchi kuchlarning ustunligini kuzatamiz.

Jamiyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi masalasini o'rganadigan bo'lsak, birinchidan, uzoq yillar davomida adabiyotlarda ushbu masala birlamchi manba sifatida marksizm-leninizm ta'limoti asoschilaridan biri F.Engelsning «Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi» asari asosida o'rganildi.

F.Engelsning asari esa o'z navbatida mashhur amerikalik tarixchi olim L.Morganning «Qadimgi jamiyat» (1877 yil) degan asari asosida yozilgan edi.

Ikkinchidan, jamiyatning paydo bo'lishi, rivojlanishi masalasi

asosan evrotsentrik ta'limotlar, g'oyalarga tayandi.

Uchinchidan, eng achinarlisi shundaki, inson «hayvonot dunyosidan» ajralib chiqqandan keyin jamiyatning dastlabki bosqichiga asos soldi yoki inson maymunlar oilasidan ajralib chiqib, o'z jamiyatiga asos soldi, degan qarashlar va ta'limotlar hozircha adabiyotlarda hukmronlik qilib kelmoqda. Bizning fikrimizcha, bunday qarashlar ilmiy dalillarga asoslanmagan ta'limotlardir. Inson tabiatan inson bo'lib yaratilgani boshqa gap. Uning hayoti, madaniyati, tafakkuri turli tarixiy davrlarda turli bosqichlarni bosib o'tib, sivilizatsiyaning yuqori rivojlanish bosqichiga erishgan.

Bugun biz jamiyatni tarixiy jihatdan o'rganishda yuqorida sanab o'tilgan qarashlar, ta'limotlarga ergashmasdan, ularga asoslanmasdan ilmiy nuqtai nazardan yondashish imkoniyatiga egamiz. Bizning fikrimizcha, ilk bor jamiyatning tashkil topishida oilaga e'tiborni qaratishimiz zarur. Chunki odam tabiat qonunlariga ko'ra o'zi yakka yashamasdan, o'z naslini davom ettirish uchun barcha boshqa mavjudotlar kabi oila quradi. Oilada ona, ota va bolalar o'rtasida ijtimoiy munosabatlar vujudga keladi. Tabiiyki, oilani ham jamoa sifatida boshqarish zarur bo'ladi. Shu boisdan ham oilaning paydo bo'lishi ijtimoiy tartib va qoidalarning o'rnatilishiga olib keladi. Kitoblarda avval Ona boshqaruvi, ya'ni matriarxat o'rnatilgan va keyinchalik Ota hokimiyati - patriarxatning o'rnatilishiga olib kelgan, degan mulohazalar mavjuddir. Eng muhimi, bizning fikrimizcha, oilalarning shakllari turli zamonlarda turlicha bo'lishi va turli xalqlar va elatlarda ham oilaning turlicha sharhlanishiga qaramasdan, bugungi kunga qadar oilaning saqlanishi va rivojlanishini e'tiborga olish kerak. Uni jamiyat va davlatning ilk bor paydo bo'lgan bo'gini sifatida o'rganish davlat va huquq nazariyasi fanining vazifasiga kiradi. Arastu va Forobiylar ta'kidlaganlaridek, oilalardan urug'lar, qabilalar, butun bir mahalla va shahar (polis) davlatlarining tashkil topganini e'tirof etmoqchimiz. Ona (matriarxat) yoki ota (patriarxat) boshqaruvi masalasiga kelganda, albatta, shunday tarixiy davrlar bo'lganki, qon-qarindoshchilik ona tomonidan belgilangan, ayniqsa, ko'p nikohlilik yoki ko'p xotinlilik va aksincha ko'p erlilik hollarida Ona yoki Otaning oilani, urug'ni boshqarishdagi roli o'zgarib turgan desak xato bo'lmaydi.

Urug'larning ittifoqi natijasida butun bir mahallalar va

mahallalarning yagona shaharga birlashishi oqibatida ijtimoiy hokimiyat, oila, urug' rahbarlarining o'zaro to'planib, maslahat, kengash orqali shaharlarni boshqarishi amalga oshiriladi. Ilmiy adabiyotlarda ko'p jihatdan davlat va huquq paydo bo'lishiga qadar davrda ibtidoiy jamoa tuzumining tashkil topganligi haqida yozilgan.

Ibtidoiy jamoada hokimiyat urug', qabila boshliqlarining obro'-e'tiborlariga tayangan. Oliy organi barcha urug' a'zolarining yig'ini, majlisi bo'lgan. Bu davrlarda hokimiyat ham jamiyatda shakllanib, undan ajralmagan holda amal qilgan. Hokimiyat to'g'ridan-to'g'ri barcha a'zolarining birga yashash, ishlash va harakat qilishlari asosida olib borilgan. Hokimiyat uchun maxsus tayyorlangan mutaxassislar yoki qurollangan kuchlar bo'lmagan. Hamma mehnat qiladi va zarur bo'lganda hamma bir bo'lib urug'ni tashqi dushmanlardan himoya qiladi.

Urug' rahbari - oqsoqolning urug'ga rahbarlik qilishi imkoniyatlari cheksiz bo'lgan. U zarur bo'lganda urug' a'zolarining umumiy yig'ilishlarida muhim masalalarni hal qilgan. Ayrim qoida va odat normalarini buzganlarga nisbatan chora ko'rgan. Bu yerda shuni aytish kerakki, jinoyatchiga nisbatan ko'rilgan chora-tadbirlar qat'iy bo'lib, ular o'z vaqtida oshkora amalga oshirilgan. Zarur bo'lganda eng oliy jazo - hayotdan mahrum etish yoki urug'dan badarg'a qilish choralari ham qo'llanilgan. Urug' a'zolari teng bo'lganlar. Ular orasida hech bir shaxs imtiyozlarga ega bo'lmagan, shu boisdan ham qoida buzuvchilar javobgarlikdan chetda qolishi mumkin bo'lmagan.

Davlatli jamiyatlarga xos bo'lgan illatlar, masalan tanish-bilishchilik, qarindoshchilik, poraxo'rlik, o'g'irlik, sansalorlik, firibgarlik kabi nuqsonlarga o'rin bo'lmagan. Ibtidoiy jamoa a'zolarining xatti-harakatlari, turmush t'arzlari tajriba asosida vujudga kelgan odat, axloq qoidalari (normalari) asosida amalga oshirilgan. Keyinchalik ko'p yillar davomida takrorlangan va hamma uchun ma'qul va zarur bo'lgan odat qoidalari ibtidoiy maktablarda o'rgatilgan. Masalan, bizning O'zbekiston hududida ana shunday insoniyat tarixiga mansub bo'lgan qadimiy ibtidoiy maktabga misol tariqasida hozirgi Surxondaryo viloyatida saqlangan Zarautsoy suratlarini keltirish mumkin. Zarautsoy Ko'hitang tog'i etaklarida joylashgan Xo'ja Anqo va Qizilolma qishloqlari orasidadir. Zarautsoyda 270 taga yaqin rang-bo'yoq bilan toshga o'yib ishlangan rasmlar saqlangan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davlat va huquq paydo bo'lgunga qadar insoniyat tarixida uzoq asrlar davomida mavjud bo'lgan o'ziga xos xususiyatlar va sifatlarga ega tuzum edi. U davlat va huquq paydo bo'lgunga qadar insonlarni birlashtirgan, ularning turmush tarzlarini belgilab bergan, ko'p jihatdan tabiiy qonunlarga mos holda barchaning ijtimoiy tengligini ta'minlagan jamiyat edi. Shu sababdan ham qadimgi shoirlar, mutafakkirlar bu davrni «oltin» davr deb ham ta'riflagan.

Urug'larning ko'payishi, hayotning rivojlanishi insoniyat tomonidan kashf etilgan jamiyatning yangi tarixiy bosqichga o'sib o'tishiga olib keldi. Yangi bosqich, davr sifat va mazmun jihatidan avvalgi ibtidoiy tuzumdan farq qildi. Yangi ijtimoiy tuzumning o'ziga xos xususiyati davlat va huquqning paydo bo'lishidir. Bu jarayon bir kunda ro'y bermasdan, balki, uzoq asrlar davomida amalga oshgan.

Davlat jamiyatda ilk bor paydo bo'lgan siyosiy institutdir. Davlat, F.Engels aytganidek, maxsus, faqat idora ishlari bilan shugullanuvchi ijtimoiy hokimiyatning jamiyatning ichidan ajralib chiqishi va shu jamiyatni boshqarish jilovini o'z qo'lida saqlashi bilan xarakterlanadi. Davlatli jamiyatda urug'lar, xalqlar, millatlar, sinflar o'rtasida ijtimoiy tengsizlik mavjud bo'ladi. Davlat ana shu kuchlarni murosaga keltirish, jamiyatni yagona tuzum sifatida saqlab, idora qilish uchun xizmat qiladi. Davlat jamiyatni idora qilishda o'zining apparatiga va asosan o'zi tomonidan ishlangan qonunlarga asoslanadi.

2-§. Diniy, siyosiy va huquqiy qarashlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi

Insoniyat tarixida ilk bor jamiyat, davlat, qonunlar to'g'risidagi qarashlar Turon, Misr, Babil, Hindiston va Xitoy kabi mamlakatlarda mifologiya shaklidagi ilohiyat bilan bog'liq holda paydo bo'lgan va rivojlangan. Masalan, qadimgi Turon va Eron, ya'ni Ajam davlatida «Avesto» - zardushtiylarning diniy kutobida yerdagi hokimiyat va tartib, qonun-qoidalar ko'rinot qonun-qoidalarining davomi, ajralmas qismi sifatida o'rganiladi. Kuch, qudrat, adolat, haqiqatning barchasi Xudoning sifati, shu jumladan davlat va qonunlar ham uning irodasi bilan paydo bo'lgan deb uqtiriladi va hokazo.

Xuddi shu tarzda barcha kitobiy dinlarda davlat va huquqning kelib chiqishi va mohiyati o'rganiladi. Bu yerda shuni aytish kerakki,

har bir mamlakatdagi siyosiy-huquqiy qarashlarning o'ziga xos tomonlari ham mavjud bo'lgan. Masalan, qadimgi Xitoy manbalarida yozilishicha: imperator yerda osmon tomonidan tayinlangan va u xudo bilan munosabatda. Uning hokimiyati mutlaq. Davlat xizmatidagi boshqa mansabdor shaxslar va barcha fuqarolar faqat uning irodasini, farmonlarini amalga oshiruvchilardir. Misr, Bobil, Hind xalqlari hayotida esa Olloh bir vaqtning o'zida butun koinotni va yerdagi jamiyatni, davlatni boshqaruvchi kuch sifatida o'rganilgan. Qadimgi yahudiylar diniy kitobi - Muso qonunlari to'g'ridan to'g'ri Ollohdan olingan, aniqrog'i Musoga nozil bo'lgan. Shu sababdan ham Olloh butun yahudiy xalqi bilan alohida shartnoma asosida, zarur bo'lganda uning o'zi jamiyatni to'g'ridan-to'g'ri idora qiladi. U Oliy sohibi qonun, boshqaruvchi va qozidir. Islomda ham muqaddas Qur'on oyatlari payg'ambar Muhammad alayhu vassallamga nozil bo'lgan. Demak, Oliy sohibi qonun Ollohning o'zi. Uning talablari, qoidalariga payg'ambar orqali odamlarga yetkaziladi. Payg'ambar va muqaddas qonunlar orqali davlat boshqariladi.

Xammurapi qonunlari (er.av. XVIII asr, Bobil), Manu qonunlari (Hindiston, taxminan er.av. II asr) va ko'plab boshqa qonunlar majmuasi ana shu qadimgi diniar asosida vujudga kelgan edi.

Eramizning boshida paydo bo'lgan xristianlik dini, uning manbalari - Injil kitobi hamda yirik diniy arboblarning kitoblarida ham davlat va huquq masalalari o'ziga xos tarzda ilohiylashtirilgan. Masalan, Avreliy Avgustinning (354-430, Shimoliy afrikalik) «yaratuvchi tayanchimizdir» degan kitobida uning qarashlari bayon etilgan. Uning fikricha, ikki dunyo, ikki davlat va ikki qonun mavjud. Birinchisi Ollohning nomi bilan bog'liq, ikkinchisi esa insonga bog'liqdir. Inson o'zining azim xatosi, jinoyati tufali Olloh tomonidan jannatdan chiqarilib, u gunohkor va kunini yashab bo'lganligi uchun umrining so'ngida o'limga hukm qilingandir. Inson Olloh yo'lida, unga itoat qilib yashasa, u yaxshidir, va aksincha, u inson sifatida o'z ta'biricha yashasa, u yomon, gunohkordir. U odamlarni ikki toifaga bo'ladi: birinchi toifadagilar Ollohning marhamati bilan faqat uning qonun-qoidalariga muvofiq yashovchilar hamda ikkinchilari inson sifatida o'z qonun-qoidalariga binoan yashovchilar. Birinchilar abadiy Olloh bilan birga bo'lsalar, ikkinchilari abadiy adashishda, azobdadir. Shu yo'nalishda u qonunlarni ham ikki toifaga bo'ladi: «ilohiy» va

«insoniy» qonunlar. Birinchisi ikkinchisi uchun asos hisoblanadi, ya'ni davlat tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar avvalo ilohiy qonunlarga binoan qabul qilinishi kerak degan ta'limotni ilgari surdi.

Bunday qarashlar keyinchalik Foma Akvinskiy (1225-1274 yy.) asarlarida rivojlantirildi. Uning «Hukmdorlarning hukmronligi to'g'risida» (1265-1266 yy.), «Ilohiyot majmui» (1266-1274 yy.) asarlarida siyosat, davlat, qonunlar masalasi to'g'risida fikr va mulohazalar bildirilgan. U ilohiy ta'limotlar nuqtai nazaridan davlatning vazifasi umumiy farovonlikka erishishdir, deb hisoblaydi.

Davlat hokimiyatining uch unsuri: 1) mohiyati, 2) paydo bo'lish shakli, 3) amalga oshirilishini farqlaydi va ularni sharhlab beradi. Masalan, davlatning mohiyati Olloh tomonidan boshqaruvchilar va ularga itoat etuvchilar o'rtasidagi munosabatdan iborat. Yuqori tabaqadagilarning eklari quyi tabaqadagilarni boshqaradi. Bu qoida abadiy, qat'iy, Olloh tomonidan o'rnatilgandir. Uning shakli turlicha, ba'zan yomon bo'lishi mumkin. Davlat hokimiyatining amalga oshirishida ham mansabni suiste'mol qilishlar uchrashi mumkin. Bunday hollarda, odamlar xristian dini ta'limotlariga, uning Cherkoviga ergashishlari kerak, kabi mulohazalarni ilgari surgan.

Bizning mamlakatimizda diniy ta'limotlardan islom, islomga qadar zardushtiylik (Avesto) ko'p asrlar davomida odamlarning ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashlarini shakllantirgan dinlardir. Qadimgi Turon va Eron zaminida (arablar ularning har ikkalasini Ajam davlati deb hisoblaganlar, ya'ni arabdan tashqari degan ma'noda) eng qadimgi yirik din zardushtiylik dini bo'ldi. Uning ta'limotlari «Avesto» kitobida bayon etilgan. Uning asoschisi Zardusht taxminan miloddan avvalgi 630-553 yillarda yashagan. U turkiy tilda gapiruvchi xalqlar vakili bo'lgan, masalan, Beruniy uni ozarbayjonlik deb hisoblagan. Zardushtiylik qonunlarida haqiqat, adolatlilik uch axloqiy-huquqiy tayanchga asoslanadi: ezgu fikr (g'oya), ezgu kalom (so'z), ezgu amal (ish). «Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman. Men yaxshilikdan iborat Ahura Mazda qonuniga shon-shavkat baxsh etaman» («yasna», 14). «Inson qalbi chirog'ini yoqishda ikki qarama-qarshi kuch: Voxu Mana («Ezgu fikr») va Ako Mana («yovuz fikr») ta'sir ko'rsatadi. Barcha fikr, g'oya, va so'zlar zaminida ezgulik va yovuzlik yotadi» («yasna», 30). Ezgulikka asoslangan so'z, g'oya, harakat - tinchlik, g'amxo'rlik kabilardir. Va,

aksincha hasadgo'ylik, yomonlik, urush va janjallar yovuzlikdan darak beradi.

«Avesto»da tinchlik, do'stlik, yaxshilik, adolat g'oyalari bilan birga jinoyat va jazo, tabiatni muhofaza qilishga tegishli ko'pdan-ko'p, bugun ham ibratli qoida (norma)lar mavjuddir.

Islom masalasiga kelganda shuni aytish kerakki, bu din o'zidan avvalgi eng yirik dinlar orasida yosh din bo'lganligi sababli uning qonun va qoidalari (Qur'on, Hadis) falsafiy, huquqiy fikrlar ilohiy ta'limotlar asosida inson hayotining turli sohalari va qirralarini tartibga soladi. Insonning paydo bo'lishi va uning yashash, turmush qoidalari; inson va Oloh, inson va payg'ambar, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar; inson bilan inson o'rtasidagi munosabat ibratli tarzda izohlanadi. Jamiyat hayotida davlat tartibining o'rnatilishi, ayniqsa qonunchilikka rioya qilish to'g'risidagi juda ko'p fikr va mulohazalar bitilgan. Ularni bilish bugun ham ahamiyatlidir.

3-5. Davlat va huquqning paydo bo'lishi haqidagi dunyoviy ta'limot

Davlat va huquqning paydo bo'lishi to'g'risida dunyoda juda ko'p qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar borki, ularning hammasi to'g'risida so'z yuritish imkoniyati yo'q. Shu sababdan biz ularni asosan uch guruhga bo'ldik. Birinchisi, *dunyoviy bilimlar*, ikkinchisi esa *diniy* va uchinchisi, yaqin o'tmishda sobiq SSSRda asosiy, yagona ta'limot hisoblangan *marksizm-leninizm ta'limotidir*.

Dunyoviy bilimlar haqida so'z yuritadigan bo'lsak, eng avvalo shuni esda saqlash kerakki, bu yo'nalishdagi g'oyalar, qarashlar ilmiy asosga ega va hayotiydir.

Dunyoviy huquqiy bilimlarning o'zi ham turli-tuman maktablar, yo'nalishlarga bo'linadi. Masalan, patriarxal nazariya (Arastu, Forobiy), shartnoma nazariyasi (Jan Jak Russo, Gugo Grotsiy, Spinoza, Lokk va Gobbs), tabiiy huquq nazariyasi (D.Lokk, T.Gobbs, G.Grotsiy, B.Spinoza) va boshqalar. Sobiq ittifoq davrida yozilgan o'quv qo'llanmalarida marksizm-leninizm ta'limotidan tashqari davlat va huquq to'g'risidagi maktablar, qarashlar «burjuacha», «feodallarcha» dunyoqarashga asoslangan va ular to'g'ri emas deya tanqid qilingan. Bugun Mustaqillik sharofati bilan faqat millat, respublika ozod bo'lib qolmasdan, balki davlat va huquq to'g'risidagi

fan ham marksizm-leninizm dogmasidan ozod bo'ldi. Endilikda uni barcha boshqa ilg'or mamlakatlar universitetlarida o'rganilayotganidek, biz ham cheklamasdan, turli tomonlarini turli nuqtai nazardan o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik.

Kishilik jamiyati taraqqiyoti turli davrlar va bosqichlarni bosib o'tgan. Forobiy esa insoniyat jamoalarini kichik, o'rta va buyuk jamoalarga bo'ladi. Va davlat, qonun masalalarini ana shu bo'linishda o'rganadi. Forobiy kichik, ya'ni bir shahar markazini tashkil etgan odamlar baxtli hayot kechiradigan jamoa, davlatning ideal ma'rifatli jamoa va davlat ekanligi to'g'risida yozadi.

Davlat va huquqning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalar orasida yetakchi o'rinni egallaydigan nazariya *tabiiy huquq, nazariyasidir*. Uning tarafdorlari g'arbiy Ovrupo olimlari D.Lokk, T.Gobbs, G.Grotsiy, B.Spinoza va boshqalardir. Bizning fikrimizcha, tabiiy huquq nazariyasi tarafdorlari qatoriga patriarxal nazariya asoschilari - Arastu, Forobiylar; shartnoma nazariyasi asoschilari - J.J. Russo va boshqalar ham kiradilar. Chunki shartnoma asosida yoki oilalarning rivojlanishi va ittifoqi asosida davlatning, huquqning kelib chiqishining e'tirof etilishi tabiiy qonunlarning birlamchiligini tan olishdan boshqa narsa emasdir.

Tabiiy huquq nazariyasi tarafdorlari ikki huquqning mavjudligini: tabiiy huquq va insoniy yoki kitoblarda pozitiv huquq deb yuritiladigan huquqning mavjudligini e'tirof etadilar. Tabiiy huquq asos, boshqacha qilib aytganda, birlamchi hisoblanadi. U inson tafakkuridan tashqarida abadiy mavjud bo'ladi. Inson huquqlari, ya'ni davlatlarda o'rnatilgan huquqlar ana shu tabiiy huquqlardan kelib chiqqan bo'lishi kerak deb hisoblanadi.

Tabiiy huquqning o'zi qanday huquq? Birinchidan, abadiy; ikkinchidan, inson huquqidan ustun turadi va uchinchidan, inson hayotida, barcha mavjudotlar hayotida hal qiluvchi kuchga egadir. Bizning fikrimizcha, teologik, ya'ni diniy ta'limotlarda barcha olamning egasi Olloh deyilganidek, tabiiy huquq ham tabiat va jamiyat taraqqiyotini belgilab berishda tanhodir. Shu ma'noda ular bir-biriga yaqin tushunchalardir.

Tabiiy huquqlarga, masalan, insonning dunyoga kelishi va uning yashash huquqi, oila qurish huquqi, ota va onalik huquqi, bolalarning huquqi, mehnat qilish huquqi va hokazolar kiradi. Bu

huquqlar tabiatdan insonga ato etilgan bo'lib, uni biror hukmdor yoki qonun bekor qilish huquqiga ega emas.

G.Grotsiy, B.Spinoza, J.Lokk, Sh.Monteske, T.Jefferson va ko'plab boshqa olimlar, siyosiy arboblardan har bir inson yashash, erkin bo'lish va mulkdor bo'lish huquqiga egadir, deb hisoblaydilar. Ular o'zlarining asarlarida yangi davlatlarning tuzilishini belgilab, unda inson va uning huquqlarini aniq ko'rsatib berishga muvaffaq bo'ldilar. Fuqarolarning davlat bilan bo'ladigan munosabatlari yig'indisi sifatida «Fuqarolik huquqi» fani vujudga keldi. «Fuqarolar huquqi», «fuqaroviy huquqlar», «inson huquqi» kabi tushunchalar paydo bo'ldi.

Tabiiy huquq nazariyasi ta'limotlari asosida Erkinlikning buyuk xartiyasi (1215 y.), Huquq to'g'risidagi petitsiya (1628 y.), Huquq to'g'risidagi bill (1689 y.), Amerika Qo'shma Shtatlarining Mustaqillik deklaratsiyasi (1789 y.), O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik deklaratsiyasi (1990 yil 20 iyun) yaratilgan. Ana shu deklaratsiyalar asosida esa bugun amaldagi AQSh Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va yana ko'plab jahondagi ilg'or dunyoviy davlatlar konstitutsiyalari qabul qilingan. Fransiya deklaratsiyasi inson huquqlari qatoriga erkinlik, mulk, xavfsizlik haqida, zulm va zo'rovonlikning har qanday ko'rinishiga qarshi kurash huquqlarini kiritgan bo'lsa, O'zbekiston Mustaqillik deklaratsiyasi esa mustaqillik, o'z taqdirini o'zi belgilash, har bir kishining farovon hayot kechirish va xavfsizlik huquqlarini belgiladi.

Tabiiy huquq nazariyasi bugun dunyoviy demokratik huquqiy davlatlarning Konstitutsiyasi va qonunlariga asos qilinib olingan. U o'zining hayotiyiligi, to'g'riligi bilan barcha boshqa nazariyalardan farq qiladi. O'zbekiston Respublikasi qonunlari va davlat qurilishi ana shu tabiiy huquq ta'limotlari asosida rivojlantirilishi jamiyat va davlatning istiqbolini belgilab bermoqda.

Demak, tabiiy huquq nazariyasi, birinchidan, inson huquqidan ustun va mustaqil bo'lgan abadiy amal qiluvchi huquq; ikkinchidan, inson huquqi, ya'ni har bir davlatda mavjud, amal qilayotgan huquq; uchinchidan, dunyoviy davlatlarda inson tomonidan qabul qilingan huquqlar yoki pozitiv, ya'ni davlatda tabiiy huquqqa asosan va unga mos ravishda qabul qilingan qonunlarni o'z ichiga oladi.

4-§. Davlat va huquqning paydo bo'lishi haqidagi markscha-lenincha ta'limot

XIX asrning ikkinchi yarmida g'arbiy Ovrupoda xayoliy sotsializm ta'limotining yakuni sifatida yangi siyosiy-huquqiy dunyoqarash, ya'ni markscha-lenincha ta'limot vujudga keldi. Uning asoschilari K.Marks va F.Engelslar edi. Keyinchalik bu ta'limotning targ'ib etilishi Rossiya va barcha boshqa ittifoqdosh respublikalarda asosan mafkura tariqasida amalga oshirildi. O'zbekistonda ham bu dunyoqarash 1990 yillarga qadar asosiy dunyoqarash bo'lib xizmat qildi. Shu boisdan ham biz ushbu masalaga qisqacha to'xtalishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Uni tanqidiy o'rganib, to'g'ri, ilmiy xulosalar chiqarish bugungi kunda uchraydigan o'tmishdan saqlanib qolgan illatlar, kamchiliklarni bartaraf qilishda ko'maklashadi.

Davlat va huquq nazariyasi K.Marks, F.Engels va V.I. Lenin asarlarida bosh masala hisoblanadi. «Kommunistik partiya manifesti», «Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi», «Fransiyada sinfiy kurash», «Fransiyada grajdanlar urushi», «Davlat va revolyutsiya», «Davlat to'g'risida», «Sovet hokimiyatining navbatdagi vazifalari» kabi asarlarda ana shu ta'limot bayon qilingan. Ana shu asarlar asosida juda ko'plab huquqshunos olimlarning kitoblari yozildi, ularning hammasi to'g'risida fikr yuritish mushkuldir. Xulosa shundan iboratki, markscha-lenincha ta'limot davlat paydo bo'lishi va rivojlanishini xususiy mulkning paydo bo'lishi, jamiyatni qaramaqarshi kurashuvchi sinflarga bo'linishi mahsuli sifatida o'rganadi.

Davlat jamiyatdagi sinflar, tabaqalar o'rtasida tinchlikni ta'minlovchi, ularni murosaga keltiruvchi kuch sifatida emas, balki jamiyatdagi eng boy hukmronlik qiluvchi sinfning qo'lidagi qurol deb o'rgatiladi. Xususiy mulk hukmronlik qilgan mamlakatlarda davlat ezuvchi sinf manfaatlarini himoya qilsa, sotsialistik tuzumdagi jamiyatlarda bu prolyetariat diktaturasidir, degan g'oyalar ilgari surildi.

Huquq masalasiga ham sinfiy nuqtai nazardan qarab, masalan, «Kommunistik partiya manifesti»da unga burjua sinfining qonun darajasiga ko'tarilgan erki, bu erkning asosini shu sinfning moddiy shart-sharoiti tashkil qiladi, degan ma'noda ta'rif berilgan. Davlat va huquq bir zamonlarda paydo bo'lgan bo'lsa, kelajakda, ya'ni kommunistik jamiyatda ular barham topadi. Prolyetar diktaturasi davlatining o'zi sinflarni tugatadi, xususiy mulkni barham toptiradi,

hammani ijtimoiy hayotda teng va baxtli qilib, natijada o'zi ham barham topadi, degan ko'pdan-ko'p fikrlar asosida markscha-lenincha ta'limot rivojlandi.

Oqibat natijada sotsialistik mamlakatlarda totalitar tizim yuzaga kelib, davlat apparatida ko'p jihatdan, jazolovchi, zo'rlikka tayangan mexanizmlar rivojlandi. Bu hol esa ko'plab begunoh odamlarning huquqlari poymol qilinishiga, mamlakat siyosiy hayotida butun bir millatlarga nisbatan repressiyalar o'tkazilishiga sabab bo'ldi.

Ushbu ta'limotning eng katta kamchiligi uning xayoliy, afsonaviy tenglar jamiyatiga chiqish to'g'risidagi qarashlari tabiat qonunlariga qarama-qarshiligida edi.

Nazariyada hammaning tengligi e'tirof etilsada, amalda yagona kommunistik partiyaning hukmronligi, millatlar ustidan esa bir millat vakillarining ustunligi o'rnatildi.

Davlat va huquq inson huquqini himoyalovchi, ta'minlovchi; sinflar va millatlarni tinchlikka, murosaga keltiruvchi kuch bo'lish o'rniga, aksincha, ular o'rtasida qarama-qarshilikni keskinlashtiruvchi kuchga aylangan edi. Shu sababdan ham markscha-lenincha davlat va huquq nazariyasi va uning asosida tashkil etilgan sotsialistik davlat va huquqning umri uzoq bo'lmadi. 1990 yillarga kelib parchalanib, tarqab ketdi.

III bob. DAVLAT TUSHUNCHASI, MOHIYATI, BELGILARI VA TIPLARI

1-§. Davlat tushunchasi va mohiyati

Davlat haqidagi fan tarixi murakkab, serqirra jarayondir. Ushbu fan doirasida davlatchilik tabiati, tuzilishi va funksiyalari haqidagi, davlatning paydo bo'lishi va evolyutsiyasi to'g'risidagi bilimlar to'planib, boyib boradi. Davlat tushunchasi va mohiyatini ko'rib chiqishga kirishishdan oldin, ularning talqini turlicha bo'lib kelganiga e'tiborni qaratish joiz. Davlat mohiyatini o'rganishga turlicha metodologik yondashuvlarning mavjudligi buning asosiy sababidir. Chunonchi, sho'rolar davridagi adabiyotlarda davlat yagona sinfiy nuqtai nazardan tushuntirilgan, ya'ni unga hukmron sinfnings cheklanmagan hokimiyati, diktatura quroli sifatida qaralgan.

Davlat mohiyatini ta'riflashga aynan shunday yondashuv Aflotun va Arastudan tortib, to ularning g'arbiy Ovrupadagi bugungi izdoshlarigacha bo'lgan nomarksistik ta'limotlarni asossiz ravishda idealistik, noilmiy qarash sifatida rad etib keldi. O'zaro farqlariga qaramay, ularning aksariyati davlatni ijtimoiy murosa va umumiy ezigulik yutug'i sifatida tushunishlari bunga sabab bo'lgan.

Davlatchilik tarixida uni qanday tushunish lozimligini aniqlashni Aflotun va Arastudan boshlash maqsadga muvofiqdir. Ular tasavvuriga ko'ra, davlat siyosiy aloqalar vositasida muayyan bir tarzda birlashgan va o'zaro bog'liq odamlar jamoasidir. «Insonning o'ziga o'xshagan va ozod kishilar ustidan hukmronligini o'rnatuvchi hokimiyat»¹ shu aloqalar asosini tashkil etadi, deb hisoblardi ular.

Davlat umumiy qiyofasini yagona fuqarolik jamoasi, siyosiy uyushma sifatida tushunish Ovrupa huquqshunoslik fanida uzoq vaqt mustahkam o'rin egallab keldi. Umuman, bu borada Aflotun va Arastu izdoshlari ko'pchilikni tashkil etadi.

Ular orasidan eng buyuklari - G.Grotsiy, J.Lokk va I.Kantlar nomini keltiramiz.

«Urush va tinchlik huquqi to'g'risida»gi asarida G.Grotsiy davlatni «huquqqa rioya etish va umum manfaati yo'lida tuzilgan erkin kishilarning mukammal ittifoqi»² sifatida ta'riflaydi.

¹ Аристотель. Политика. 2-том (С.А.Жебелев таржимаси).

² Гроций Г. «О праве войны и мира», М., 1956, 74-бет.

J.Lokk ham davlatni qariyb xuddi shunday tushunadi. «Hukmdorlik to'g'risida ikki risola» asarida u o'z nuqtai nazarini shunday ifoda etadi: «Davlat deganda men hamisha demokratiya yoki boshqaruvning u yoki bu shaklini emas, balki lotincha «civitas» so'zi bilan ifodalagan har qanday mustaqil uyushmani nazarda tutaman, bizning tilimizda ushbu so'zga «davlat» «commuwealth» so'zi mos keladi, u kishilarning shunday uyushmasini anglatadigan tushunchani yanada aniqroq ifodalaydi»³.

I.Kant ham davlatga bo'lgan o'z qarashlarida shundek fikr yuritadi. «Abadiy tinchlik sari» asarida u shunday yozadi: «Davlat o'zi joylashgan yerning o'ziday mulk emas. Davlat - kishilarning o'zi xo'jayinlik qilib, o'zi boshqaradigan jamiyatidir»⁴. «Huquq haqidagi ta'limotning metafizik asoslari»da ham davlat to'g'risidagi shunga o'xshash ta'rifni uchratamiz: «Huquqiy qonunlar himoyasida bo'lgan ko'pchilik odamlarning birlashmasidir»⁵.

Albatta, davlatni hamisha va hamma aynan shundek tushungan ekan, deb o'ylash mumkin emas. Jumladan, qadimgi hind siyosiy ongida davlat (podsholik) tushunchasi davlat-panohining, hukmdorning «jismi»ni bildirgan. XVI-XVIII asrlardagi g'arbiy Ovrupoga qaytadigan bo'lsak, bu yerda davlatchilikni tushunish keskin ravishda o'zgargan. Davlat deganda tobora ko'proq hukmdor va uning yaqinlari, xalq hokimiyati organlari, amaldorlar, mansabdor shaxslar qatlamlari va shu kabilar birgalikda tushuniladigan bo'ldi. Davlat mohiyatini tushunishdagi bunday o'zgarishlarning, albatta, o'z sababi, o'z targ'ibotchilari bor edi.

Ular orasida J.Boden o'zining «Davlat to'g'risida olti kitob» asarida davlatni «suveren hokimiyat vositasida ko'plab oilalar va ularga tegishli narsalar»⁶ ustidan adolatli hukmdorlik sifatida tushunishni taklif etgandi. Atoqli fransuz davlatshunosi, Arastu singari, davlat deganda odamlarning muayyan birligini qayd etsada, bu birlik endi davlatning asosiy, tizimlar tashkil etuvchi qismi sifatida maydonga chiqmaydi. U faqat davlat tomonidan harakat ob'yekti sifatidagina namoyon bo'ladi. Davlat esa, uning ta'kidlashicha, suveren hokimiyatning odamlar jamoasi ustidan amalga

³ Локк Дж. Соч. 3-томник. М., 3-том, 388-бет.

⁴ Kant I. *Schriften zur Rechtsphilosophie*. Berlin, 1988, S. 290.

⁵ *Ibid* S. 127.

⁶ "LL persiero politico dalle oruginial nostri Giorni" Roma, 1966, P. 356.

oshiradigan rahbarligidir. J.Bodengacha hech kim davlatni shunday tushunmaganini qayd etish joiz.

«Suverenitet», «suveren hokimiyat» uning nazariyasidagi muhim soʻzlardir. Uning fikricha, suverenitet «davlatning doimiy va mutlaq hokimiyatidir». Ayni paytda uning bu nazariyasining oʻziga xos tomoni shundaki, odamlarning butun jamoasi suveren hokimiyatning eng yaqin va bevosita amalga oshiruvchisi boʻlolmaydi, bu vazifani hammaning ustidan hukmron boʻlgan davlatpanoh (yoki oliy organ) bajarishi mumkin. Shu tariqa u xalq suverenitetini keyingi oʻringa surib, uni davlatpanoh suverenitetiga almashtiradi.

J.Boden davlatning shubhasiz muhim belgisini alohida ajratib, munosib baholay olganligini taʼkidlash kerak. Lekin mazkur tamoyil, muallifning bunday talqini baʼzi eʼtirozlarga sabab boʻlmasligi mumkin emas. Zero, bu suverenitet egasini ijtimoiy yaxlitlikni tashkil etuvchi odamlar jamoasidan keskin ajratib qoʻyish degan gap edi. Chunki davlatning oʻzi ham, unga suverenlik huquqini baxsh etuvchi ham ana shu yaxlitlikning qismlaridir. Shu nuqtai nazarni T.Gobbs ham qoʻllab-quvvatlab rivojlantiradi. Darvoqe, buning uchun u birmuncha boshqacha dalillardan foydalanadi.

Odamlarni qoʻrquvda ushlab, ular harakatini ezgulikka yoʻnaltirishga, deydi T.Gobbs, faqat barcha alohida imtiyoz va kuchlarni bir odam qoʻlida yoki bir qancha kishilik jamoat qoʻlida jamlash orqaligina erishish mumkin. Agar shu tariqa koʻpchilik odamlarning birlashuvi roʻy bersa, bu davlat deb ataladi. Monarx (yaʼni, podsho) davlat timsolidan namoyon boʻladi. Davlat mohiyati faqat ana shu odamda (yoki tegishli shaxslar yigʻinida)gina mujassamlashgan boʻladi, deb hisoblaydi T.Gobbs. Suverenitet sohibi aynan shu davlatning oʻzidir, uning zimmasiga «qoʻl ostidagilarga tinchlik-osoyishtalikni baxsh etish, ular xavfsizligini taʼminlash yuklatiladi»⁷.

Bunday qarashlar dunyo miqyosida ancha keng tarqalgan. Anarxistlar ham, sotsialistlar ham, liberallar ham ularni qoʻllab-quvvatlashgan. Chunonchi, misol uchun rus anarxisti M.Bakunin, davlatni jamiyatga hech qanday aloqasi boʻlmagan tashkilot deb hisoblaydi. Uning fikricha, davlat «uch yaramas narsaga -

⁷ Гоббс Т. Соч. В 2-х томах. М., 1992, 2-том. 133-бет.

burokratiya, politsiya va armiyaga tayanadi.-...bu imtiyozli sinflar ezuvchi va aqidaparast idrokining ko'zga tashlanib turuvchi tana jismidir»⁸.

Shunday qilib, biz davlat mohiyatining marksizm asoschilari tomonidan talqini masalasiga yetib keldik. Uni alohida izohlamoqchimiz. Zero, davlatchilik nazariyasi va amaliyoti taraqqiyotida ular alohida salbiy ahamiyat kasb etgan.

K.Marks va F.Engels uchun davlat, birinchi navbatda, «bir sinfnig ikkinchi sinf tomonidan bostirilish mashinasidan boshqa narsa emas». Marks va Engels, burjua jamiyatidagi davlat «faqat butun burjuaziya sinfi umumiy ishlarini boshqaruvchi qo'mitadir, xolos», deb uqtirishgan («Kommunistik partiya manifesti»), Lenin ham davlat timsolida «bir sinfnig boshqasi ustidan hukmronligini saqlab turuvchi» mashinani ko'rgan. «Davlat - muayyan sinfnig hukmronlik organidir, - deydi u. - U o'z muxoliflari bilan (o'ziga qarama-qarshi sinf bilan) murosaga kelishi mumkin emas».

Bunday yondashuv davlat to'g'risidagi tasavvurlarni qashshoqlashtirar va hatto buzib ko'rsatardi, uning mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini jo'n va bir tomonlama tushunishga olib kelar, mazkur hodisaning majburlovchi, zo'rvonlik tomonlari ustuvorligini tan olishga da'vat etardi.

Biroq, shuni ham ogohlantirish joizki, har qanday yondashuvni, shu jumladan, sinfiy yondashuvni ham bir yo'la rad etib bo'lmaydi. Davlat rivojida shunday paytlar bo'ladiki, unda mazkur yondashuv ham (barcha nuqsonlariga qaramay) ish berishi mumkin. Masalaning mohiyatini oydinlashtirishga harakat qilamiz.

Ma'lumki, iqtisodiyotning rivojlanishi muayyan darajaga yetib, ijtimoiy ne'matlarni teng taqsimlashning avvalgi tizimi yashay olmay qolgan hamda jamiyatning bundan keyingi rivoji uchun Sharq jamiyatida bo'lganidek, siyosiy sohada yoxud Ovrupodagidek siyosiy va iqtisodiy sohada boshqaruv bilan shugullanadigan elitar qatlamni ajratish zaruratga aylanganda davlat dunyoga keladi. Bu - jamiyatni tabaqalanishga olib keldi va shunda dastlab (ibtidoiy jamoa tuzumida) jamiyatning barcha a'zolariga tegishli bo'lgan hokimiyat siyosiy mazmun kasb etdi, ya'ni u eng avvalo imtiyozli ijtimoiy guruhlar, sinflar manfaatiga xizmat qila boshladi. Binobarin, davlatning paydo

⁸ Бакунин М. Избр. соч. М., 1992, 2-том. 262-бет.

bo'lishi hamisha **ommaviy hokimiyatning mazmuni o'zgarib, siyosiy hokimiyatga aylanishi bilan bog'liq.** Bu nimani anglatadi? Ibtidoiy jamoa tuzumi hokimiyatidan farqli o'laroq, bu hokimiyat eng avvalo jamiyatning, sinfning imtiyozli qismi manfaatlarini o'ylab amalga oshiriladi. Ushbu holatda sinfiy yondashuv bunday hokimiyatni tavsiflash, bunday davlat mohiyatini ochib berishda keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Biroq davlat hokimiyatining mazmuni hamisha bir xil bo'lavermaydi. Chunonchi, Qadimgi Afina va Rimda sinfiylik yaqqol ko'zga tashlanib turadi va shubhaga o'rin qoldirmaydi. U yerlarda hokimiyat quldorlar qo'lida bo'lib, ular asosiy ishlab chiqarish vositalari (yer)ga ham, ishlab chiqaruvchilar - qullarning o'ziga ham egalik qilardilar. Qullar davlat hokimiyatini amalga oshirish u yoqda tursin, umuman har qanday huquqlardan mahrum etilgandi.

Yirik yer egaligiga asoslangan feodal jamiyatda ham ahvol shunday edi. Hokimiyat feodallar - yirik yer egalari qo'lida bo'lgan. Dehqonlar hokimiyat ishiga aralasha olmas, feodallarning to'la yoki qisman mulki hisoblanib, barcha yuridik huquqlardan qariyb mahrum edi. Shunday qilib, quldorlik jamiyatida ham, feodal jamiyatda ham biz oshkora ijtimoiy tengsizlikka, davlat hokimiyatining sinfiy (tabaqaviy) mazmun - xarakteriga duch kelamiz.

Biroq, burjua jamiyatida davlat hokimiyati xarakterini baholashga birdek yondashib bo'lmaydi. Zero, bunday jamiyatda qonun oldida rasman hamma teng, bir xil huquqqa ega va bular, odatda, deklaratsiya va konstitutsiyalarda yuridik jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. Lekin ilk burjua jamiyatida qonun tomonidan belgilab qo'yiladigan mulkiy, ma'lumotga oid va boshqa kamsitishlar aholi kambag'al qatlamlarining saylov huquqlarini ham cheklashi hammaga ma'lum. Shu yo'l bilan hokimiyatning iqtisodiy hukmron sinf - burjuaziyaga mansubligi ta'minlanadi.

Endi hokimiyat byurokratik amaldorlar mahkamasi (to'g'rirog'i uning rahbariyati) qo'lida bo'lgan Sharq davlatlariga murojaat qilamiz. Shu o'rinda, amaldorlarning sinfiyligi haqida gapirish mumkinmi, degan savol tug'ilishi mumkin. Buning ustiga mazkur mamlakatlarda ishlab chiqarish vositalari (yer)ga mulk egaligi yo'q bo'lib, ishlab chiqaruvchilar esa, rasman ozod edilar. Lekin bu yerda shuni nazarda tutish kerakki, ushbu mamlakatlarda hokimiyat

ko'proq butun jamiyatning emas, balki hokimiyat tepasida turgan muayyan ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalardi. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, bu ijtimoiy guruhlar ijtimoiy ne'matlarni taqsimlash tizimidagi alohida o'rinlari hamda uning anchagina qismini o'zlashtirib olishlari bilan, ishlab chiqarish vositalariga alohida munosabatlari bilan, ya'ni amalda ularning egalariga aylanib, ishlab chiqaruvchilarning o'zlarini ham asoratga solib, «qullar jamoasi» darajasiga tushirib qo'yishlari bilan ajralib turadilar va amalda sinflarga aylanadilar.

Umuman olganda, davlat (ba'zan esa, davlat-partiya) mahkamasining bunday cheklanmagan hukmronligi ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilik hukm surgan jamiyatda ham vujudga kelishi mumkin. Davlat mahkamasi favqulodda mustaqillikka ega bo'lib, jamiyatga qariyb bo'ysunmay qo'ygan vaziyatda bunday holat yuzaga keladi. Jumladan, sinflarni bir-biriga teng qo'yish, ularni bir-birlariga gij-gijlash yo'li bilan bunga erishish mumkin. Bonapartistlik hukmronligi davrida Fransiyada xuddi shunday holat yuz bergandi. Har qanday o'zgacha fikrlashni, hukmron doiralarda ra'yiga qarshi har qanday harakatlarni ayovsiz bostirish yo'li bilan ham shunday holatga erishish mumkin. Olmoniya va Italiyadagi fashistik rejimlar, Lotin Amerikasidagi totalitar yoki avtoritar rejimlar sharoitida shunday vaziyatlar kuzatilgan.

Shunday qilib, keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, sinfiy yondashuv davlatning muhim xususiyatlarini aniqlash, undagi mavjud ijtimoiy ziddiyatlarni ilg'ab olish imkonini beradi. Bundan tashqari, ma'lumki, barcha tarixiy bosqichlarda jamiyat eziluvchi sinflari va qatlamlarining davlat hokimiyatini egallab olgan ezuvchilarga qarshi chiqishlari kuzatilgan. Bularga Rimdagi qullar qo'zg'olonini, Angliya, Fransiya, Olmoniya, Xitoydagi dehqonlar isyonlari va urushlarini, ishchilarning ish tashlashlari hamda inqilobiy chiqishlari va shu kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Shunga qaramay, yana bir bor ta'kidlashni istar edikki, davlat hokimiyatining sinfiy, «tabaqaviy» xususiyatini aniqlash bilangina davlat mohiyatini to'la namoyon etib bo'lmaydi. Mazkur muammoni faqat sinfiy yondashuv yordamida o'rganish davlat va siyosiy hokimiyatni ilmiy bilish imkoniyatlarini ancha cheklab qo'yadi.

Birinchidan, hokimiyat davlatdan anchayin kichik ijtimoiy

guruhlar qo'lida bo'lib, bu guruhlar u yoki bu sinf manfaatlarini to'la ifoda etmasligi, balki o'zlarining tor guruhiy manfaatlari yo'lida (bonapartizm, totalitar byurokratik rejimlaridagidek) harakat qilishlari mumkin.

Ikkinchidan, mustamlakachilik qaramligidan ozod bo'lgan ba'zi mamlakatlarda ko'pincha biron-bir sinf hokimiyatini qo'lga olish uchun yetarli kuch va uyushqoqlikka ega bo'lmagan holatlar yuzaga keladi. Basharti, bu mamlakatda umummilliy manfaatlar (mustaqillikka erishish, milliy iqtisodiyot va madaniyatni rivojlantirish) ko'ndalang bo'lgan taqdirda turli sinflar va sinf bo'lmagan ijtimoiy guruhlar bloki tashkil topib, ko'p hollarda ular tarkibiga milliy burjuaziya, ishchilar sinfi, dehqonlar, ziyolilar, hunarmandlar, mayda savdogarlar ham kiradilar.

Uchinchidan, muayyan sharoitlarda butun xalqqa tegishli bo'lgan davlat yuzaga kelishi mumkin. Bunda umumxalq manfaatlari sinfiy yoki guruhiy manfaatlardan g'olib keladi.

To'rtinchidan, (bu juda muhim) ijtimoiy ziddiyatlarning mavjudligiga qaramay, **jamiyat hamisha bir butun yaxlitdir.** Zero, qullarsiz quldorlarning, dehqonlarsiz yirik yer egalarning, ishchilarsiz kapitalistlarning bo'lishi mumkin emas. Sharq mamlakatida jamoa mehnati amaldorlar mahkamasi mavjudligining zarur shartidir. Shu bois hokimiyat tepasida turgan sinf yoki ijtimoiy guruh hamisha (hatto o'z manfaatini o'ylab ham) eziluvchi sinf haqida bir qadar g'amxo'rlik qilishga majbur.

Shuning uchun ham har qanday davlat **umumijtimoiy funksiyani bajarishi, butun jamiyat manfaatlari yo'lida harakat qilishi** shart bo'ladi. Shu jihatdan olib qaralganda har qanday davlat faqat bostirish quroli bo'libgina qolmay (qadim ajdodlarimiz aytib ketganlaridek), birlashtirish vositasi, integratsiyalash (yaxlit holatga keltirish) yo'sini sifatida jamiyat timsoli hamdir. Shunday qilib, **davlatning umumijtimoiy funksiyasi** uning muhim xususiyati bo'lib, sinfiylik xususiyati bilan bir qatorda davlat umumiy mohiyatining eng ahamiyatli jihatini tashkil etadi. Shuni yodda tutish kerakki, davlatda hukmron doiralarning tor sinfiy yoxud guruhiy manfaatlari hamisha butun jamiyat manfaatlari bilan qo'shilib ketadi. Lekin davlat mohiyatining yuqorida tilga olingan jihatlari turli davrlarda va turli tarixiy sharoitlarda birdek bo'lmagan

va bir tomonning kuchayishi ikkinchi tomonning zaiflashuviga olib keladi. Buni inobatga olish juda muhim. Chunonchi, quldorlik jamiyatida davlatning sinfiylik jihati eng ko'p darajada ustuvor bo'ladi. Butun hokimiyat, yuridik huquqlar, o'z manfaatlarini amalga oshirish imkoniyatlari to'liq hukmron sinf qo'lida bo'ladi. Shunga qaramay, bu jamiyat to'g'risidagi bilimlarimizning hammasini ham to'g'ri deb bo'lmaydi. Butunlay haq-huquqsiz zot sifatida qullar to'g'risidagi tasavvurimizda birmuncha mubolag'a ham bor. Birgina mamlakatdagi qullar soni ozod fuqarolar sonidan ancha ko'p bo'lganligidan kelib chiqqan taqdirimizda ham qullarga hech narsa bog'liq bo'lmagan, deya olmaymiz. Masalan, Rimda ozod kishilar umumiy aholining atigi uch foizini tashkil etgan. Shuning uchun qullar bilan hisoblashmaslikning iloji ham yo'q, xavfli ham edi. Har qanday biron qimmatga ega bo'lgan mulk qatori qullar ham ma'lum darajada yuridik jihatdan himoyalangan. Bularning hammasi **quldorlik davlatining umumijtimoiy roli** biz o'ylaganimizdan ancha kattaroq ekanligidan dalolat beradi.

Jamiyatning quldorlik tuzumidan feodalizmga, feodalizmdan kapitalizmga tomon harakati davomida davlat faoliyati umumijtimoiy jihatining ahamiyati ham oshib borgan. Xususan, uning hozirgi g'arb jamiyatidagi maqomi katta. Tadbirkorlar foydasidan undiriladigan katta soliqlar, mehnat sharoitlarining davlat tomonidan muvofiqlashtirib borilishi, turli xildagi ijtimoiy dasturlarning keng rivoj topganligi va boshqa tadbirlar shunga olib keldiki, natijada mavjud ijtimoiy ziddiyatlar salmoqli tarzda yumshab bormoqda, sinfiy raqiblar tobora kamayib borayotganligi tufayli ularni bostirish choralariga zarurat ham kamaymoqda, jamiyatning siyosiy barqarorligi oshmoqda. Shunday qilib, davlat faoliyatidagi ijtimoiy jihatlarining o'sib borishi bilan bir vaqtda uning sinfiylik mazmunini belgilovchi ulushi ham kamayib boryapti.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, davlat tushunchasi va mohiyatini har taraflama to'liq hamda ob'yektiv bilish uchun faqat sinfiy yondashuvning o'zi mutlaqo kifoya qilmaydi. Binobarin, bu o'rinda davlat to'g'risidagi boshqa nazariyalar - elitar, texnokratik, plyuralistik demokratiya, «umumiy farovonlik» davlati va boshqa nazariyalar qoidalaridan foydalanish kerak bo'ladi. Bu haqda keyingi boblarda batafsil to'xtalamiz.

2-§. Davlatning asosiy belgilari

Davlat jamiyatning siyosiy tizimiga kiruvchi boshqa tashkilotlardan bir qator o'ziga xos belgilari bilan farq qiladi. Davlatning belgilari to'g'risidagi masala hamisha huquqshunoslar e'tiborini tortib kelgan va bu haqda ularning turli talqinlari mavjud.

F.Engels o'zining «Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi» degan asarida davlatning asosiy belgilari sifatida aholining hududiy bo'linishi, ommaviy hokimiyat hamda soliqlar tizimining tashkil etilishini ko'rsatib o'tgandi. G.F.Shershenevich ham shunga o'xshash uch belgi: «a) odamlarning birlashuvi; b) ular ustidan hukmronlik qiluvchi hokimiyat; v) shu hokimiyat ta'sir doirasidagi hudud...»⁹ ni sanab o'tadi.

Hozirgi vaqtda davlatning umumiy e'tirof etilgan quyidagi asosiy belgilarini ko'rsatish mumkin:

* davlat o'z davlat chegaralari doirasida fuqarolik belgisi bo'yicha birlashgan butun jamiyatning, butun aholining yagona vakili sifatida maydonga chiqadi;

* davlat - suveren hokimiyatning yagona sohibidir;

* davlat yuridik kuchga ega bo'lgan va huquq normalarini aks ettirgan qonunlar va ularga asosanib chiqariladigan hujjatlarni qabul qiladi;

* davlat o'z vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan davlat organlari hamda tegishli moddiy vositalar tizimidan iborat murakkab mexanizm (mahkama)dir;

* davlat - qonuniylik va huquq-tartibot posboni bo'lishga maxsus da'vat etilgan huquqni muhofaza qilish (jazolash) organlari (sud, prokuratura, militsiya, politsiya va hokazo)ga ega bo'lgan yagona tashkilot;

* faqat davlatgina o'z mudofaasi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlovchi qurolli kuchlar hamda xavfsizlik organlariga ega bo'la oladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan birgalikda olingan davlat belgilarining jami jamiyat siyosiy tizimida davlatning alohida o'rni va yetakchi rolini to'la izohlaydi. Albatta, bunda, har bir tarixiy davrda, turlicha ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda davlatning bu belgilari ham

⁹ Шершеневич Г. Ф. Общая теория права. М.1995, 172-бет.

ichki mazmuni, ham tashqi ko'rinishi bilan farq qilishini hisobga olish zarur.

Hozirgi sharoitlarda demokratiya va erkinliklarni, barqarorlik, tinch-totuvlikni, respublika xalqlari hamjihatligi va hamkorligini qaror toptirishda, islohotlar va ularni amalga oshirishdagi tashabbuskorlikda, madaniyati yuksak rivoj topgan jamiyatga o'tishda O'zbekiston davlati yetakchi rol o'ynamoqda.

Ushbu maqsadlarni hayotga muvaffaqiyatli tatbiq-etish davlatni mustahkamlash vazifalarini bajarish, O'zbekistonda davlat hokimiyati barcha bo'ginlarining samarali ishlashini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq.

3-§. Davlat mohiyati va belgilarini tushunishda yondashuvlar xilma-xilligi

Ma'lumki, davlatning kelib chiqishi, davlat hokimiyatining tabiati, uning maqsad va vazifalarini, davlatning taraqqiyot yo'llari va shu kabilarni turlicha izohlovchi ko'plab xilma-xil nazariyalar mavjud. Bu holat ijtimoiy hodisa sifatida davlatning murakkabligi, ko'pqirraliligi bilan, o'tmishdagi va hozirgi vaqtdagi uning shakllarining xilma-xilligi, shuningdek, davlatning siyosiy hokimiyatni amalga oshirishi, uning faoliyatining turli ijtimoiy sinflar va guruhlar manfaatlariga bevosita daxldorligi bilan bog'liq. Bular ob'yektiv omillardir.

Agar ushbu muammoga sub'yektiv jihatdan yondashadigan bo'lsak, mazkur holat turli mualliflarning turli mafkuraviy va falsafiy nuqtai nazarlari bilan ham bog'liqligini ko'ramiz.

Davlat to'g'risidagi nazariyalarni shartli ravishda **to'rt guruhga:**

- davlatning mohiyati to'g'risidagi;
- davlatning maqsad va vazifalari haqidagi;
- davlatning faoliyat vositalari va metodlari to'g'risidagi;
- davlatning keyingi taraqqiyoti istiqbollari va yo'llari haqidagi

nazariyalarga ajratish mumkin.

Modomiki, turli mualliflar o'z asarlarida davlat bilan bog'liq muammolarni tushuntirish maqsadida yuqorida qayd etilgan masalalarga u yoki bu tarzda murojaat qilar ekanlar, xilma-xil guruhlarga mansub nazariyalar turli birikmalar tashkil etib, o'zaro ta'sir etmay qolmaydi.

Quyidagilarni **davlat mohiyatiga** bog'liq nazariyalar qatoriga kiritish mumkin:

Elita nazariyasi. Ushbu nazariya XX asr boshlarida vujudga keldi (V.Pareto va G.Moski asarlari) hamda asrimiz o'rtalarida yangidan rivojlantirildi (X.Lassuel, D.Sartori, T.Day va boshqalar tomonidan). Mazkur nazariyaning bosh g'oyasi, go'yo xalq ommasi davlatni idora etishga qodir emasligi, shuning uchun boshqarish jamiyatning hukmron doirasi - elitasi tomonidan amalga oshirilishi kerakligini isbotlashdan iborat. Elitalar turli belgilari (kelib chiqishi, ma'lumoti, tajribasi, qobiliyati kabilar)ga qarab aniqlanadi. Darvoqe, bunda elita saflari xalq ommasi hisobiga, ularning eng qobiliyatli vakillari bilan to'ldirib borilishi mumkinligi ham nazarda tutiladi.

Buning ustiga, mazkur nazariyaning hozirgi tarafdorlari bir qancha elitalar mavjud bo'lib, ular o'rtasida hokimiyat uchun kurash borishi, biroq, xalq o'z saylov huquqidan foydalanib, ular faoliyatini nazorat qilishi mumkin, deb ta'kidlaydilar.

Shubhasiz, ushbu nazariyaning nuqsonlari ham mavjud. Chunonchi, aholini hokimiyat ishlaridan chetlashtirishni targ'ib qiladi, hokimiyatning sinfiy tabiati butunlay inkor etiladi. Lekin ushbu nazariyaning ijobiy tomonlari ham yo'q emas. Haqiqatan ham, hokimiyat ishlarini olib borish amalda kishilarning g'oyat cheklangan doirasi - deputatlar, davlat mahkamasi xodimlari tomonidan bajariladi. Muhimi - mazkur kishilar chindan ham xalq, turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlar manfaatlarini ifoda etishlari kerak. Shu jihatdan xalq saylagan va o'z nomidan vakil qilgan kishilarning elita xarakterini, ular faoliyati ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash zaruratini tushunish mumkin.

Texnokratik nazariya. Mazkur nazariya asrimizning 20-yillarida vujudga kelib, 60-70-yillarda ancha keng tarqaldi. Uning tarafdorlari orasida T.Veblen, D.Barnxeym, G.Saymon, D.Bell va boshqalar bor edi. Umuman olganda ushbu nazariya elitalar nazariyasiga juda o'xshab ketsada, zamonaviy voqelikni hisobga olishi bilan ajralib turadi.

Bu nazariyaga ko'ra, jamiyatni mutaxassis-boshqaruvchilar, menenjerlar idora etishlari lozim (ko'pincha amalda ham shular boshqarishadi). Aynan ularning o'zlari jamiyatning haqiqiy ehtiyojlarini, uning eng matlub rivojlanish yo'llarini, buning uchun zarur

vositalarni aniqlashga qodir.

Bu boshqarishni ilmiy asosda olib borish imkonini beradi hamda jamiyatning o'sib boruvchi rivojini ta'minlaydi.

Mazkur ta'limot g'oyalaridan nafaqat davlatning mohiyatiga, balki uning boshqa jihatlariga ham tegishli bo'lgan boshqa nazariyalarda ham faol foydalanilmoqda.

Plyuralistik demokratiya nazariyasi. Mazkur nazariya ham XX asrda paydo bo'lgan. G.Laski, M.Dyuverje, R.Darendorf, R.Dal va boshqalar ana shu nazariya vakillaridir. Ushbu nazariya sotsial-demokratlarning ham, liberallarning ham qarashlarini ifodalaydi. Uning g'oyasi hozirgi jamiyatda mohiyat-e'tiboriga ko'ra sinflar amalda yo'qolib ketdi va hokimiyat shu tariqa o'z sinfiy tabiatidan xalos bo'ldi, degan ma'noni bildiradi. Jamiyat turli belgilariga - yoshi, kasbkori, istiqomat joyi, manfaatlar doirasi va boshqalarga ko'ra yuzaga keladigan odamlar ijtimoiy birlashmalari (stratalar) yig'indisidan iborat.

Shunday qilib, keksalar va yoshlarning, sportchilar va pivoxo'rlarning stratalari mavjud bo'lishi mumkin va hokazo. Har bir odam ko'pchilik stratalarga kira oladi. Ular asosida davlat idoralariga «tazyiq» o'tkazuvchi hamda shu yo'l bilan davlat siyosatini yo'naltiruvchi turli siyosiy va jamoatchilik tashkilotlari tuziladi. Binobarin, har qanday odam, har bir birlashma davlat hokimiyatida o'z «ulu-shi»ga ega bo'ladi, davlatni boshqarishda ishtirok etadi. Davlat shu tariqa umum irodasining, butun jamiyat manfaatlarining ifodachisiga aylanadi.

Ushbu nazariyaning ijobiy jihatlari uning chinakam demokratik xarakterida, davlatni boshqarish ishlarida barcha fuqarolar ishtiroki zarurligini asoslashida namoyon bo'ladi.

Davlatning maqsadlari to'g'risidagi masala yuzasidan bahs yurituvchi nazariyalar orasida ***«umumiy farovonlik davlati» nazariyasini*** qayd etib o'tish kerak. U ikkinchi jahon urushidan keyin vujudga kelgan bo'lib, davlatning ijtimoiy hayotga aralashmasligiga oid oldindan mavjud ta'limotga qarshi chiqadi. Bunda nafaqat huquqbuzarlik holatlari mustasno etiladi («Tungi qorovul davlati» nazariyasi). Uning mohiyati 30-yillarda D.Keyns tomonidan ta'riflab berilgandi. D.Myurdal, A.TSigu, K.Boulding, V.Mund va boshqalarning asarlarida bu nazariya yanada rivojlantirilgan.

Mazkur nazariyaning bosh g'oyasi shundan iboratki, barcha sinflardan ustun turarkan, davlat aholi barcha qatlamlari manfaatlarini ifodalay boshlaydi, umumfarovonlikni ta'minlaydi. Rivojlangan mamlakatlarning aholi turmushining yuksak darajasini ta'minlashdagi, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalarida yirik davlat dasturlarini amalga oshirishdagi ulkan muvaffaqiyatlari ushbu nazariyaning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Mazkur nazariya inson manfaatlarini davlat faoliyatining asosiga qo'yish bilan har bir shaxs qadrdiqimmatiga e'tiborni jalb etadi.

Bizning nazarimizda, ushbu nazariyaning ijobiy jihatlari umuminsoniy qadriyatlar, inson manfaatlari va huquqlari ustuvorligi uning asosiga qo'yilganligi bilan belgilanadi. Uning kamchiligi esa, nimalar va kimlar evaziga bunga erishish mumkinligini ko'rsatib bera olmaganidadir. Mabodo, ekspluatatsiya markazini yarim mustamlaka va rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirish nazarda tutiladigan bo'lsa - bunday «farovonlik» e'tiborni tortishi amri mahol.

Huquqiy davlat nazariyasi. Bundan oldingisiga qaramaqarshi o'laroq, bu nazariya ijtimoiy hayotning barcha sohalarida huquqning ustuvorligini ta'minlashdan iborat davlat faoliyati maqsadini ham, davlatning ish yuritish vositalari, yo'sinlariga oid muammolarni ham yoritadi. Bu nazariya mualliflari haqli suratda, davlatning butun faoliyati huquqiy maqsadlarda, huquq asosida va huquqiy vositalar ila amalga oshirilishi kerak, deb ta'kidlaydilar. U bizning zamonamizda eng ommaviylashgan va eng dolzarb hamda ilg'or nazariyadir. Uning ijobiy jihatlari qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, eng avvalo, uning jamiyatni demokratlashtirishga, davlat organlari ishlaridan o'zboshimchalik, zo'rvonlik va qonunsizlikni butunlay mustasno etishga yo'naltirilganligini ta'kidlash zarur. Kamchiligi - jamiyat ijtimoiy va iqtisodiy hayotidagi ahvoldan kelib chiqib, ba'zi tamoyillarni amalga oshirishning imkoni bo'lmagan hollarda ularning bir qadar quruq bayonotga aylanishidadir.

Davlat faoliyati nazariyalari va vositalari qatoriga «**texnokratik davlat**» nazariyasini ham kiritish kerak. Uning paydo bo'lishi aksariyat mamlakatlarning texnika vositalari, shu jumladan, radioelektronikani o'zlashtirish va ulardan foydalanishdagi yirik muvaffaqiyatlar bilan bog'liq. Mazkur nazariyaga ko'ra, texnikaning bundan keyingi taraqqiyoti davlat boshqaruvining ko'pgina masa-

lalarini boshqacha hal etish imkonini beradi. Masalan, radiotelevizion texnikadan foydalangan holda fuqarolardan sotsiologik so'rovlar va hatto ovoz berish (radiotelevizion) o'tkazish mumkin. Kompyuterlar alohida shaxslar irodasiga bog'liq bo'lmagan adolatli va eng maqbul yechimlarni topish imkoniyatini beradi.

Davlatning istiqboldagi rivojini bashorat qiluvchi nazariyalardan biri - **konvergensiya nazariyasi** XX asrning 50-60-yillarida paydo bo'lgan (D.Gelbreyt, R.Aron, P.Sorokin asarlari). Uning mohiyati shundan iboratki, insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ikki tizim: g'arbda - AQSh, Angliya va boshqalar bilan sobiq Sovet Ittifoqi va sotsialistik lagerning boshqa mamlakatlarining bir-birlariga o'zaro ta'siri ro'y beradi. Natijada yuqoridagi mamlakatlarning har bir guruhi eng yaxshi tomonlarni o'zlashtiradi va shu tariqa o'z mohiyati, tashkiliy uyushishi, faoliyat shakllari va shu kabilar bo'yi-cha davlatlarning yaqinlashuvi sodir bo'ladi. Nazariya mualliflarining fikricha, bu shunday holatga olib kelishi kerakki, unga ko'ra ma'lum vaqtdan keyin o'zaro farqlar yo'qola borib, yagona tipdagi «postindustrial davlatlar» - «umumiy farovonlik» davlatlari yuzaga keladi.

Mazkur nazariya mualliflarining oldindan ko'ra bilish zakovatlariga tan berish kerak. Zero, ushbu nazariya g'oyalarning hammasi bo'lmasada, ko'pchiligi hozirgi hayotimizda o'z tasdig'ini topmoqda.

Davlat to'g'risidagi nazariyalar orasida **tarixiy-materialistik nazariya** alohida o'rin egallaydi. U davlatning mavjudligi va taraqqiyotining ko'pgina jihatlarini tahlil etadi. Bu nazariyaning asosida tarixiy materializm va sinfiy kurash g'oyalari yotadi. Davlatga iqtisodiy hukmron sinf hokimiyatining quroli sifatida qaraladi. Uning xususiyatlari eng avvalo jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi uning iqtisodiyoti bilan belgilanadi. Maqsad - sotsialistik, so'ng esa, kommunistik jamiyatni ham qurish, davlatning oxir-oqibat taqdiri esa, kommunistik jamiyat barpo etila borishi bilan barham topishiga erishishdan iborat. Mazkur nazariyaga yuqorida to'xtalgandik, keyinroq u haqda yana batafsilroq to'xtalamiz.

Shuni ham aytish kerakki, siyosiy-huquqiy tafakkurda mavjud yondashuvlarning xilma-xilligi to'g'risida gapirarkanmiz, davlatning jamiyat siyosiy tizimidagi o'rnini belgilashdagi turlicha yondashuvlar muammosini chetlab o'tishning iloji yo'q. Qo'yilgan muammo

tahliliga kirishishdan oldin bir narsaga to'xtalish, to'g'rirog'i, jamiyat «siyosiy tizimi» tushunchasiga nimalar kiradi, degan savolga javob berish foydadan xoli bo'lmas.

Avvalo, jamiyat siyosiy tizimi to'g'risidagi asosiy g'oyalar davlat nazariyasida asrimizning 60-70-yillarida bayon etilgandi. Shunga qaramay, keyingi vaqtlarda siyosiy tizim nazariyasini rivojlantirish hamda uning amaliyoti tahlilida fan sezilarli yutuqlarga erishdi. Biroq, baribir, adabiyotlarda siyosiy tizim tushunchasi to'g'risida yagona fikr yo'q. Masalan, ba'zi bir mualliflar (V.E.Chirkin, yu.A.Tixomirov, M.N.Marchenko) **siyosiy tizim tushunchasi jamiyatning siyosiy uyushmasi tushunchasiga aynan mos keladi** deyishsa, boshqalar (chunonchi - N.N.Razumovskiy) unga **jamiyat siyosiy uyushmasining tarkibiy qismi** sifatida qaraydi. Shundaylar ham borki, ular **siyosiy tizimni siyosiy soha bilan aynan o'xshatishadi. Hatto, siyosiy tizim tushunchasini siyosiy ustqurmaga yaqin tushuncha**, deydiganlar ham bor.

Biz barcha nuqtai nazarlarni batafsil qarab chiqishni, ayniqsa, ularning qay biri ustuvorligini aniqlashni maqsad qilib qo'ymaganmiz. Bu alohida suhbat mavzuidir. Umuman turli nuqtai nazarlar mualliflari qarashlarini hurmat qilgan holda, ayni paytda **siyosiy tizimni tom ma'noda tushunadigan, ya'ni unga, jamiyat siyosiy tashkiloti (siyosiy tuzilmalar, uyushmalar va ularning o'zaro bog'liqligi)ni ham, siyosiy hayotning barcha boshqa ko'rinishlarini ham o'z ichiga oladigan kategoriya** sifatida qaraydiganlar safiga qo'shilish kerak deb hisoblaymiz.

Jamiyat siyosiy tizimi haqida zikr etilganlardan kelib chiqib, unga quyidagi ta'rifni berish mumkin. YA'ni, **jamiyatning siyosiy tizimi shaxslarning siyosiy hokimiyatni amalga oshirish jarayonida ularning tashkiliy mustaqilligi va siyosiy faolligini oshirishga da'vat etilgan o'zaro bir-biriga chambar-chas bog'liq davlat, jamoat va boshqa tashkilotlarning yig'indisidir.**

Biz mazkur ta'rif vositasida jamiyat va davlat siyosiy tizimining munosabatdorligini aniqlash, uning jamiyat siyosiy tizimidagi o'рни va mavqeini belgilaydigan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy omillar-ni keltirishga harakat qilamiz.

Oldindanoq aytish kerakki, **davlatning ichki tuzilishi va**

faoliyatining turli jihatlariga aloqador masalalarni tadqiq etishga yetarli e'tibor berib kelinadi. Davlat turli yo'nalishlar bo'yicha, ya'ni tarkibiy va funksional jihatlar, rivojlanishdagi turg'unlik va dinamika nuqtai nazaridan, shakl, mazmun, mohiyat falsafiy kategoriyalari qarashlaridan kelib chiqib chuqur o'rganilyapti. Biroq, ayni paytda, ko'pincha **siyosiy tizimning tarkibiy qismi** sifatida davlatning amal qilishi bilan bog'liq masalalar e'tibordan chetda qolib ketadi. Shu jihatdan davlatni tahlil etish, shubhasiz, katta qiziqish uyg'otishiga qaramay, yuqoridagi holat ro'y bermoqda. Vaholanki, u davlat mexanizmini siyosiy munosabatlar orqali tavsiflash va shu yo'l bilan davlatning jamiyat siyosiy tizimidagi o'rni va rolini aniq belgilash imkonini beradi.

Dastavval, jamiyat siyosiy tizimi tarkibida davlat **alohida bo'g'in** sifatida maydonga chiqishiga e'tiboringizni qaratamiz va buni yodda tutish kerak. Uning o'rni va rolini na hukmron partiyaning, na siyosiy tizim boshqa bo'g'inlarining o'rni va roli bilan tenglashtirib bo'lmaydi.

Jamiyat siyosiy tizimida nega davlat **asosiy yoki bosh** emas, balki faqat **alohida bo'g'in** hisoblanadi? Zero, bu ta'riflar ko'pincha ma'no jihatidan bir-biriga yaqinday tuyuladi.

Boz ustiga yuridik adabiyotlarda davlatni **siyosiy tizimning asosi** sifatida tushunish uchrab turadi. Bu yerda biz M.N.Marchenkoning fikriga qo'shilamiz. Unga ko'ra davlat **siyosiy tizimning asosiy yoki bosh tarkibiy qismi** sifatida maydonga chiqa olmaydi va chiqishi ham mumkin emas, zero, siyosiy tizimning iqtisodiy, ijtimoiy va mafkuraviy asoslari shu maqomga ega bo'lishi mumkin.

Davlatning siyosiy tizimdagi o'rni va roli quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

- * davlat jamiyatni takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi, hamma va har bir odam manfaatlarini yo'lida uni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi;

- * davlat barcha fuqarolarning tashkiloti sifatida maydonga chiqadi;

- * davlat boshqaruv va majburlovning maxsus mahkamalariga ega;

- * davlat turli ishontiruv va majburlov uslublaridan foydalanish

imkonini beradigan keng tarmoqli yuridik vositalar tizimiga ega;

* davlat suverenitetga ega;

* davlat butun mamlakat miqyosida yagona to'laqonli hokimiyat tashkilotidir.

Nodavlat tashkilotlarning birontasi bunday xususiyat va vazifalarga ega emas.

Shunday qilib, biz jamiyat siyosiy tizimidagi ***alohida bo'g'in*** sifatida davlatni boshqa barcha birlashmalarga qarshi qo'ymaymiz, lekin, ayni paytda uning boshqa demokratik tashkilotlar tizimidagi rolini ham kamsitmoqchi emasmiz. Baribir, yana bir bor shuni ta'kidlash lozimki, ***siyosiy tizim tarkibidagi bosh va asosiy bo'ginlar tushunchalari bir xil ma'noni anglatmaydi. Bosh bo'gin vazifasini shaxs bajaradi, shu bilan birga, asosiy bo'gin davlatdir.***

Davlat siyosiy tashkilotlar qatoriga kirmasligi mumkin emas. Zero, maxsus majburlov va bostirish mahkamalariga hamda turma va boshqa majburlovchi muassasalar ko'rinishidagi tegishli «moddiy qismlarga» ega bo'lgan davlat hokimiyat tepasida turgan siyosiy kuchlar qo'lidagi bosh kuch sifatida, ular irodasi va manfaatlarining bosh tatbiqchisi sifatida, siyosiy hokimiyatni amalga oshirishning muhim vositasi sifatida maydonga chiqadi. Albatta, bu yerda siyosiy hokimiyatni kim amalga oshirishi, uning manfaatlari butun xalq manfaatlariga qay darajada mos kelishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

4-§. Davlat tipologiyasi

Tipologiya - juda turli xil belgilarga ega bo'lgan favqulodda murakkab va serqirra hodisadir. Bu holat uni tasniflashning turli tizimlarini yaratish imkonini beradi. ***Tarixiy yondashuv qadimgi, o'rta asr va hozirgi zamon davlatlarini*** ajratib ko'rsatishni taqozo etadi. Tarixiy va madaniy rivojlanish tarixiga qarab esa, ular ***dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi va sanoat bilan shug'ullanuvchi davlatlar*** (yoki hindutrial taraqqiyotgacha, hindutrial va posthindutrial davlatlar)ga bo'linishi mumkin.

Sivilizatsiya xarakteriga ko'ra, davlatlar ***sharqiy, g'arbiy va aralash (oraliq)*** davlatlarga, iqtisodiy taraqqiyot darajasi bo'yicha esa, ***yuksak rivojlangan, o'rtacha rivojlangan hamda «kambag'al» davlatlarga*** ajratiladi.

Mazkur tasniflarning aksariyati davlatdan ko'ra ko'proq jamiyatni tavsiflaydi. Buning ajablanadigan joyi yo'q. Chunki mazkur tasniflarning birortasi ham davlatni boshqa hodisalardan ajratib turgan bosh omil - siyosiy hokimiyatni amalga oshirishni inobatga olmaydi. Shu bois, tasniflashning hokimiyat munosabatlari, ya'ni hokimiyatning mohiyati, uning sinfiy (ijtimoiy) taalluqliligini tavsiflashga asoslangan turlari ham muhim ahamiyatga molikdir.

Tasniflashga ayni shunday yondashuv hozirgi zamon faniga xosdir, boz ustiga bunday yondashuv davlatning tarixiy tiplari tushunchasiga asoslanadi.

Davlatni tasniflashning yana ko'plab turli xil tizimlarini keltirish mumkin. Biroq, shuni ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda davlatni tiplarga ajratishda asosan ikkita - **formatsiyaviy va madaniy (sivilizatsion)** yondashuv mavjud. Yaqin vaqtlargacha formatsiyaviy yondashuv mumkin bo'lgan yagona va ilmiy yondashuv sifatida e'tirof etib kelinardi. Zero, u davlat tipi to'g'risidagi masalaga bo'lgan marksistik munosabatni ifodalardi. Uning mohiyati shundaki, davlat xilini belgilashda tarix ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar almashinuvining tabiiy-tarixiy jarayoni sifatida tushuniladi. Bu formatsiyalarning har biriga mos o'z davlat tipi bo'ladi. Bularga **quldorlik, feodal, burjua va sotsialistik davlat tiplari kiradi**, deb uqtirilardi.

Formatsiyaviy (yoki uni **sinfiy** deb ham atashadi) yondashuvga muvofiq ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning almashinuvi ijtimoiy inqiloblar natijasida sodir bo'ladi va bu davlatning tarixiy bir tipidan boshqa, undan yuqoriroq tipiga o'tishni taqozo etadi.

Bir yo'la shuni ham qayd etish joizki, mazkur tipologiya **judator ma'nodagi sinfiy yondashuvga** asoslangan. Biroq, fikrimizcha, biron-bir nuqtai nazarga bepisand qarash mumkin emas. Chunki, quldorlik va feodal davlat tiplarining paydo bo'lishi va rivoj topishini ilmiy asosda tushuntirishda ushbu masalalarning markscha talqini muayyan rol o'ynagan. Bu yondashuv, shuningdek, XIX asr o'rtalariga to'g'ri keluvchi davlatning burjua tipini ham to'g'ri tavsiflab berdi. Shu vaqtga kelib, sanoat kapitalizmining shakllanishi nihoyasiga yetgan va unga xos bo'lgan burjuaziya bilan prolyetariat o'rtasidagi ziddiyatlar kuchayib, sinfiy kurashning keskinlashuvi yuz berdi. Lekin davlat va uning tipologiyasiga marksistik yondashuv-

ning bunday muvofiqligi 1917 yil Oktyabr to'ntarishigacha davom etgan edi. «Klassiklar»ning kapitalizmning chirib borishi va halokati to'g'risidagi bashoratlariga kelsak - ular o'zini oqlamadi. Kapitalistik tuzum Rossiyadagi inqilob bergan siyosiy zarbaga bardosh beribgina qolmay, 20-yillar oxiri va 30-yillarning boshlaridagi chuqur iqtisodiy inqiroz sharoitlari mashaqqatlaridan ham muvaffaqiyatli o'tdi.

Shunga qaramay, bunday tor doiradagi sinfiy yondashuv izsiz ketmadi. Avval boshdanoq hamma davlatlar ham marksistik tipologiya chizmasiga silliq joylashib ketavermadi. Bunda biz, eng avvalo, sharqiy tipdagi davlatlar tipologiyasi masalasini ko'zda tutaymiz. Shunisi qiziqki, huquqshunoslar yo umuman bu davlatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan ko'z yumardilar yo ularni quldorlik yoki feodal davlat tipining «sharqona turi»ga mansub qilib ko'rsatardilar. Holbuki, Sharq davlatlari ***G'arb davlatlaridan prinsipial va tubdan farq qiladi.*** Keling, mulohaza qilib ko'raylik. G'arb davlatlarida siyosiy hokimiyat iqtisodiy jihatdan hukmron sinf qo'lida edi, ya'ni ***davlat hokimiyati iqtisodiy bazaga asosiy ishlab chiqarish vositalariga mulkiy egalik tabiatiga bevosita bog'liq edi.***

Sharq davlatlarida esa, butunlay boshqacha ho'lat kuzatiladi. ***U yerlarda aynan davlat hokimiyati birlamchi bo'lib,*** ishlab chiqarish vositalari, mehnat natijalariga egalik qilish imkoniyati siyosiy hukmronlikka bog'liq (bu mamlakatlarda xususiy mulkning bo'lmaganligi, davlat mulki esa rahbar doiralarda qo'lida bo'lganligini eslatib o'tamiz). Binobarin, Sharq davlatlarini klassik (ovrupocha) tiplarga mansub deyish yoki ularni "kapitalizmga" bo'lgan tipga (quldorlik bilan feodal) qo'shib yuborish noto'g'ri bo'lur edi.

Boz ustiga Sharq davlatlari faqat g'arb davlatlaridagina farq qilib qolmay, balki o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-birlaridan jiddiy ajralib turardilar. Jumladan, Xitoyda hech qanday quldorlikning alomati ham bo'lmagan, Misr va Osuriyada esa, uning jiddiy roli bor edi. Davlat hokimiyati tizimida ruhoniylar mavqei ham turlicha bo'lgan, ularning huquqiy tizimlari jiddiy farqlanardi. Demak, davlat tipologiyalari va huquqiy tizimlarning g'arbiy va sharqiy yo'nalishlari mavjudligi haqida gapirish to'g'riroq bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, davlat hokimiyati hamisha ham sinfiy tabiatga ega bo'lavermaydi. U ko'pincha ozmi-ko'pmi tor doiradagi ijtimoiy guruh (davlat mahkamasi rahbariyati, partiya-davlat elitasi

singari) qo'lida bo'ladi. Lekin uni ijtimoiy sinf sifatida qabul qilish mumkin emas. Albatta, bunday guruh biron-bir sinf manfaatini ifodalashi mumkin va amalda ko'pincha shunday ham bo'lib chiqadi. U holatda hokimiyatning sinfiy mazmuni, davlat tipi yaqqol ko'zga tashlanib qoladi. Biroq, bunday guruhlar aksariyat hollarda faqat o'z manfaatlarinigina ifodalashi ham ma'lum.

Ko'p hollarda yuqoridagi guruhlar o'z tayanchiga ega bo'lish maqsadida (ba'zi Sharq mamlakatlaridagidek) dinga murojaat qiladi, sobiq Ittifoqda Stalin davrida bo'lginiday ham jismoniy, hama g'oyaviy yalpi tazyiqqa duchor qilishi mumkin. Endi shunday savol tug'iladi: hech qanday sinf manfaatlarini ifodalamaydigan yoki uni arziyas darajada ifodalovchi davlatni qaysi tipga kiritish mumkin?

Shu munosabat bilan mustamlakachilik kishanlaridan ozod bo'lgan mamlakatlar davlatlarini tahlil etish muayyan qiziqish uyg'otadi. Ularda ko'pincha shunday vaziyat vujudga keladiki, bironta sinf hokimiyatni yakka o'zi qo'lga olish va uni ushlab turish uchun yetarli kuch va uyushqoqlikka ega bo'lmaydi. Bunday mamlakatlarda umummilliy manfaatlarini birlashtiruvchi turli ijtimoiy kuchlar bloklari yuzaga keladi. Biroq, bunday birlashmalar ko'pincha muvaqqat xarakterga ega bo'lib, umummilliy vazifalar hal etib borilishi bilan sinfiy manfaatlar ham paydo bo'lishi mumkin. Shuning uchun davlatning bunday tipi (asosli ravishda) ***o'tish davri davlati*** nomini olgan.

Bundan tashqari, an'anaviy sinfiy yondashuv bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaga mansub davlatlar o'rtasidagi jiddiy tafovutlarni izohlab berolmaydi. Chunonchi, hozirgi Janubiy Afrika Respublikasi bilan shu mamlakatning aparteid davridagi davlati o'rtasida shubhasiz katta farq bor. Yoki stalinizm davridagi va «qayta qurish» davridagi Sovet Ittifoqini oling. Davlat mohiyatining ***ikkinchi jihati - uning umumijtimoiy rolikdan*** kelib chiqilgandagina ularni tushunishga yo'l ochiladi. Shunga qaramay, davlat mohiyatining umumijtimoiy jihati, tabiiyki, sinfiy jihat singari hokimiyat munosabatlarida namoyon bo'ladi. Bu yerda gap davlatning kimga tegishli ekanligi to'g'risida emas, balki jamiyatning amalda davlat hokimiyati o'z qo'lida bo'lgan qismi bilan qolgan aholi, ya'ni shu jamiyat a'zolarining katta qismi o'rtasidagi munosabatlar haqida ketyapti.

Bunday holatlarda hozirgi zamonda fanda keng foydalanilayotgan davlat tasnifi qo'llanishi mumkin: ular ***totalitar, avtoritar,***

liberal va demokratik davlatlarga bo'linadi (bu yerda, albatta, ko'pgina oraliq shakllar bo'lishi mumkin).

Liberal davlatda fuqarolarning huquq va erkinliklari jamiyat hayotining barcha sohalarida rasman amal qiladi, davlat ishlarida fuqarolarning rasman ishtiroklariga yo'l qo'yiladi. Man etilmagan hamma narsaga ruxsat etiladi. Lekin mavjud davlat va ijtimoiy tuzumni o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Totalitar davlatda hamma narsa bir g'oyaga - «davlat - bu hamma narsa, inson esa - hech nima» degan g'oyaga bo'ysundirilgan. Butun hokimiyat hukmron elita qo'lida bo'lib, boshqalar davlatni boshqarishdan chetlatilgan.

Avtoritar davlatda ham haqiqiy hokimiyat tor elitar doira qo'lida bo'lib, shaxsiy manfaatlar davlat manfaatlari yo'lida qurbon qilinadi. Siyosiy jabhada ruxsat etilganidan tashqari hamma narsa man etilishi tamoyili amal qiladi.

Demokratik davlat fuqarolarning davlat va jamoat ishlarini boshqarishdagi huquqlarini amalda ta'minlaydi, shunday ishtirokka yordam beradi. Shaxsning huquq va erkinliklari doirasi juda keng bo'lib, ularni amalga oshirish ta'minlangan bo'ladi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qonun bilan to'g'ridan-to'g'ri taqiqlanmagan hamma narsaga yo'l qo'yiladi.

Totalitar, avtoritar davlatlar yo'qolib ketgandan keyin tarix sahnasida tarixiy zaruriyat, ob'yektiv qonuniyat asosida paydo bo'lgan demokratik davlat o'zining mazmun-mohiyati, asosiy tamoyillari, maqsad-vazifalariga ko'ra davlatlarning o'tmishdagi xillaridan keskin ravishda farq qiladi.

Demokratik davlat - davlatning tamomila yangi tarixiy tipidir. Bunday davlat o'tmishda bo'lgan emas. U ijtimoiy adolat tamoyillariga, huquqqa, qonunga, qonunchilikka asoslanadigan davlatdir. O'tmish jamiyatlarda xalq davlatga qul kabi xizmat qilgan, unga batamom qaram bo'lgan, inson davlat mashinasining bir murvati deb hisoblangan bo'lsa, demokratik davlat esa, aksincha xalq uchun xizmat qiladigan, uning manfaatlarini, haq-huquqlarini himoyaladigan davlatdir. «Davlat tushunchasi, uning ma'no-mohiyati tubdan o'zgardi. U islohotlarning bosh tashabbuskori hamda ularni muvofiq-lashtiruvchi asosiy kuchga aylandi. Davlat bozor iqtisodiy munosabatlariga vazminlik bilan, puxta o'ylangan holda, bosqichma-bosqich

o'tishni amalga oshirmoqda»¹⁰, deydi mamlakatimiz yo'l boshchisi birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining oltinchi sessiyasida so'zlagan nutqida.

Jahonda inson faoliyatining barcha sohalarida ro'y bergan va sodir bo'layotgan o'zgarishlar davlatga ham ta'sir etmay qolmaganligi tabiiy. AQSh, Angliya, Fransiya, Shvetsiya va g'arbning boshqa rivojlangan mamlakatlari tajribasi ko'rsatib turganidek, davlat endilikda faqat «tungi qorovul» roli bilan kifoyalana olmaydi. Keyingi yillarda u tobora ijtimoiy ziddiyatlarni zo'ravonlik va bostirish yo'li bilan emas, balki ijtimoiy murosaga erishish vositasida hal etish quroliga aylanib bormoqda. Ayni paytda bu da'voimiz faqat demokratik rivojlanishning uzoq tarixiga ega bo'lgan g'arb davlatlariga nisbatan emas, balki SSSRning tarqalib ketishi va mustaqillikni qo'lga kiritish natijasida tashkil topgan hozirgi yosh suveren davlatlarga nisbatan ham g'oyat haqqoniydir. Demokratik taraqqiyot yo'lga, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lga kirgan O'zbekiston Respublikasi bunga yorqin dalil bo'la oladi. Tabiiyki, bizning davlatimizda ko'p narsa, shu jumladan, davlatga qarashlar ham o'zgardi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov bu haqda shunday deydi: «Biz yaqin o'tmishimizda sinfiy hukmronlikning quroli sifatida davlat haqidagi markscha g'oyani shior qilib olib, bu nazariyani dogmaga, davlat va huquqni esa sinfiy kurash, sinfiy raqiblarni yengish vositasiga aylantirgan edik. Demokratiya sharoitlarida esa, davlat ijtimoiy qarama-qarshiliklarni zo'rlik bilan bostirish yo'li bilan emas, balki ijtimoiy kelishuv, xalq ta'biri bilan aytganda, murosai madora bilan bartaraf etish vositasiga aylanadi»¹¹.

Shu tariqa ***siivilizatsiyaviy yondashuv*** davlat tipologiyasiga tobora keng e'tiborga loyiq, zamonaviy yondashuv bo'lib bormoqda. Hozirgi vaqtda unda «texnologik» deb nom olgan yo'nalish ustunlik qilmoqda. Texnologik yo'nalishga muvofiq davlat tipi shu davlatga xos bo'lgan fan-texnika taraqqiyoti bosqichiga, aholi turmush darajasiga bog'liq ravishda belgilanadi.

Misol tariqasida ***«iqtisodiy o'sish bosqichi nazariyasi»***ni keltirish mumkin. Taniqli Amerika sotsiologi va siyosatdoni Uolt

¹⁰ I.A.Karimov. Yangicha fikrlash – davr talabi. 5-tom, T., 107-bet.

¹¹ I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. T. "O'zbekiston" 1996. 19-20-betnap.

Rostou uning muallifidir. Ushbu nazariya, muallif fikriga ko'ra, marksizmga jang e'lon qilishi hamda hozirgi zamon tarixini o'rganish metodi sifatida uni siqib chiqarishi kerak. Unga binoan iqtisodiy rivoji bo'yicha barcha jamiyatlarni **besh bosqich**dan biriga - ya'ni an'anaviy jamiyat; islohotlarga asos solinadigan o'tish jamiyati; siljish jarayonini boshdan kechirayotgan jamiyat, pishib yetilayotgan jamiyat va xalq iste'molining yuksak darajasiga erishgan jamiyatga kiritish mumkin.

Mazkur ta'limotga ko'ra, aynan beshinchi bosqichda «umum-farvonlik davlati» deb atash mumkin bo'lgan jamiyat yuzaga keladi. Biz yuqorida tilga olgan «yagona hindutrial jamiyat», «posthindutrial jamiyat» nazariyalari ham oldingi nazariyaga g'oyat yaqindir.

Ingliz tarixchisi A.Toynbi davlat tiplari to'g'risidagi masalaga tsivilizatsiyaviy yondashuvning boshqa bir yo'nalishi vakilidir. U sivilizatsiyani diniy, ruhiy, madaniy va boshqa belgilariga ko'ra birligini ko'rsatuvchi jamiyatning yopiq, lokal holati, deb tushuntiruvchi ta'limot mualliflaridan hisoblanadi. Shu belgilarga ko'ra, u jahon tarixida 20 dan ortiq tsivilizatsiyalarni ajratib ko'rsatadi. Toynbi jamiyat va davlat haqidagi tushunchalarni aralashtirib yuborishi e'tiborni tortadi. Binobarin, uning nazariyasi qiziqish uyg'otsa-da, biroq u davlatdan ko'ra ko'proq jamiyat tipologiyasiga mansubdir.

Davlat tipologiyasiga boshqacha yondashuvlar ham mavjud. Ular asosida boshqacha mezonlar yotadi-yu, lekin ular, odatda, sub'yektiv xarakterga ega. Shuning uchun biz e'tiboringizni faqat ikki asosiy yondashuvga qaratdik. Yana davlat tipologiyasi to'g'risidagi masalani o'rganishda bir-biriga qarama-qarshi qo'ymagan holda har ikkalasidan kerakligini ta'kidlash zarur deb hisoblaymiz.

5-§. Davlatning asosiy tiplari

Huquqshunoslik fanida asosan **to'rt tipdagi davlat – quldorlik, feodal, kapitalistik va sotsialistik davlatlar** tahlil etilgan. Avval qayd etib o'tganimizdek, tom ma'nodagi quldorlik va feodal davlatlar faqat Ovrupoda bo'lgan. Jahonning qolgan qismida – Osiyo, Afrika, Amerika qit'alaridagi davlatlar ulardan jiddiy farq qilardi. Bunday holat g'arbnning (klassik) davlatlaridan farqlanuvchi «sharq» tipiga mansub davlatlar mavjudligi haqida gapirish imkonini beradi.

O'ylaymizki, bahsimizni shu tipni ta'riflashdan boshlash maqbuldir. Bunda, loaqal, bu davlatlar insoniyat tamadduni tarzida birinchi bo'lib paydo bo'lganligi e'tiborga olingan bo'lardi.

Shunday qilib, eng dastlabki davlatlar sug'oriladigan dehqonchilik hududlari (Misr, Elam, Hindiston va Xitoy)da bundan besh ming yillar muqaddam vujudga keldi. Sug'orish shahobchalarini bunyod etish bilan mehnat unumdorligining keskin oshishi ularning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining bunday tabiati jamoalarning saqlanib qolishini taqozo etardi: bir oilaning o'zi suv inshootlarini qurish va ulardan foydalanishning udasidan chiqolmasdi. Shuning uchun u yerlarda xususiy mulk paydo bo'lmadi, sinflar - ishlab chiqarish vositalariga egalik qiluvchi mulkdorlar yuzaga kelmadi.

Davlatning tashkil topish jarayonida piramida shaklida bunyod etilgan jamiyat paydo bo'ldi: eng yuqorida yagona hukmdor (podshoh, fir'avn, shoh, xon va hokazo), quyiroqda - uning eng yaqin safdoshlari, maslahatchilari davrasi (vazirlar, amirlar) turardi. Ulardan keyin quyi martabali amaldorlar, piramidaning asosini esa, qishloq xo'jalik jamoalari tashkil etardi. Ana shu jamoalar ijtimoiy mahsulotning katta qismini davlat mahkamalariga soliq tarzida to'lab, ekspluatatsiya ob'yektiga aylangandi.

Albatta, sharqiy jamiyatda xususiy mulk mutlaqo bo'lmagan deyish mumkin emas. yo'q, bunday mulk bo'lgan va u podshohlarning saroylari, qullari, javohirotlari tarzida mavjud edi. Sarmoya va moddiy boyliklar savdogarlar hamda hunarmandlarning bir qismida ham bor edi. Biroq, shunga qaramay, sharq jamiyatida ***xususiy mulk ijtimoiy ishlab chiqarishda muhim rol' o'ynamagan.*** Ijtimoiy boylikning asosiy hissasi erkin jamoachilar yoki davlat va ibodatxonalar mulki bo'lgan qullar mehnati bilan bunyod etilardi. **E'tibor bering-a,** qullar faqat davlat va ibodatxonalar mulki bo'lgan. Shu tariqa yagona davlat mulki bo'lgan - davlat oliy hukmdor timsolida "jonli-jonsiz hamma narsa"ga, shu jumladan, o'zining eng yaqin kishilarigacha barcha fuqarolarning ham hayoti, ham mulkiga egalik qilardi. Ayni paytda Sharq jamiyati barqaror tabiatga ega bo'lib, tub o'zgarishlarga uchramasdi.

Chunonchi, Qadimgi Misr davlati eramizdan avvalgi IV-III ming yilliklarda paydo bo'lib, o'ttiz asrdan ko'proq yashadi. Qariyb ellik asr

davomida yashab kelgan Xitoy davlati deyarli XIX asr oxirlarigacha jiddiy o'zgarishlarga duch kelmagan.

Ilgari ta'kidlaganimizdek, g'arb mamlakatlari (g'arb jamiyatlari ham) Sharq davlatlaridan ancha keyin paydo bo'lgan, biroq ular ancha tez rivojlangan. Aynan Ovrupada ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar (va davlat tiplari) almashinuvi ancha tez berdi: quldorlik feodalizm bilan, u esa, o'z navbatida kapitalizm bilan almashdi.

Shunday qilib, bu davlat tiplarini batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Quldorlik davlati. Evropada ilk quldorlik davlatlari eramizdan oldingi IX-VII asrlarda, ya'ni Misrdagidan 20 asr keyin paydo bo'ldi. Bu davrga kelib, Shimoliy O'rta yer dengiz bo'yi sharoitlarida qishloq xo'jalik jamoalari barham topib, yerga oilaviy, ya'ni xususiy mulkchilik munosabatlari yuzaga keldi. Shu tarzda jamiyatning antagonistik (murosasiz) sinflarga bo'linib ketishi ro'y berdi. Boz ustiga ular (Sharqda bo'lganidek) hokimiyat tizimidagi turlicha mavqelari bilan emas, balki ishlab chiqarish vositalariga turli munosabatlari bilan bir-birlaridan farqlanardi. Bir sinf yer va mehnat qurollarining, shuningdek, ishlab chiqaruvchining o'zi - qulga ham mulk egasi bo'lib qoldi. Faqat ana shu ishlab chiqarish vositalarining egasi bo'lgan sinf ommaviy hokimiyatni noqonuniy egallab oladi va uni ekspluatatsiya qiluvchi ko'pchilik qarshiligini bostirish, sinfiy ezish quroliga aylantiradi.

Aytish lozimki, turli mamlakatlardagi qullarning ahvoli birdek emasdi. Jumladan, Afinada qulni kaltaklash va o'ldirishni qonun taqiqlardi. Rimda bu man etilmagandi. Shunga qaramay, yana bir bor qulning mutlaqo haq-huquqsiz maxluq - gapiruvchi qurol ekanligi haqidagi tasavvurlar mubolag'adan xoli emasligini takrorlashni istardik. Ular mutlaq ko'pchilikni tashkil etganligining o'ziyoq ma'lum darajada ular bilan hisoblashishga majbur etardi. Bundan tashqari, quldorlik davlatining turli davrlarida qullarning ahvoli yaxshilanib borgan. Qullarning hatto tabiblik va o'qituvchilik vazifalarini ado etgan holatlari tarixdan ma'lum. Ularning aksariyati hunarmandchilik bilan shug'ullanib, boylik orttirishgan.

Bularning hammasiga qaramay, quldorlik tuzumida huquqsizlik hukmron bo'lganini aytish kerak. Barcha quldorlik davlatlarida hokimiyat mutlaq hukmron sinf qo'lida bo'lib, qullar jamiyatda arzimagan vazifalarni egallashlari mumkin edi. Bu yerda hokimiyatning

sinfii tabiati yaqqol ko'zga tashlanib turardi.

Davlatning vazifalari faqat quldorlar manfaatlari yo'lida, uning umumijtimoiy funksiyalari esa, hukmron sinf manfaatlariga muvofiq keladigan darajada amalga oshirilardi. Shu bois, quldorlik davlatlarida qullarning qarshilik harakatlari tez-tez sodir bo'lib turganligi, ularning quldorlar hokimiyatiga qarshi yirik isyonlarga aylanib ketgan hollar tasodif emasdi (Sitsiliyada, Kichik Osiyoda qullarning eramizdan oldingi II asrdagi g'alayonlari, eramizdan oldingi I asrdagi Spartak qo'zg'oloni shular jumlasiga kiradi).

Yana bir xususiyatga e'tiboringizni tortmoqchimiz. Ovrupodagi quldorlik davlatlarining ko'pchiligi shahar-respublika sifatida paydo bo'ldi va yashadi. Shu yo'l bilan ishlab chiqarish vositalariga egalik qiluvchi mulkdorlarning umumsinfii irodalarini aniqlash yengilroq bo'lardi. Xususiy mulk, yagona davlat mulkiga asoslangan Sharq davlatlaridan farqli o'laroq, ma'lum darajada demokratik islohotlarni o'tkazib turishni taqozo etardi. Mulka nisbatan teng huquqli kishilar ommasi manfaatlarini muvofiqlashtirib borish ehtiyoji ancha murakkab va puxta o'ylangan huquqiy tizimlarning paydo bo'lishiga yordam berdi. Bu tizimlarda davlat organlari tomonidan ishlab chiqiladigan qonunlar huquqning asosiy manbalariga aylanardi.

Ko'rib turganimizdek, Sharq jamiyatlariga nisbatan quldorlik davlatlari ancha tadbirkorroq bo'lib, ularda keyingi taraqqiyot uchun kerakli zamin yaratilgandi. Shuning uchun ham keyinchalik uning asosida feodal jamiyat va unga mos keladigan davlat ham paydo bo'ladi.

Feodal davlati. Bu tipdagi davlat Ovrupada eramizning VI-IX asrlarida vujudga kelgan hamda qator mamlakatlarda hozirgacha feodal munosabatlar sarqitlari mavjud.

Feodallarning yerga xususiy mulkchiligi feodal davlatining *iqtisodiy asosini* tashkil etadi. Dehqonlar feodal yerlarida mayda yakka xo'jalikka ega bo'lib, yerdan foydalanganliklari uchun hosilning bir qismini berishlari hamda unga tekin ishlab berishlari kerak edi (obrok va barshchina). Feodal jamiyati rivojlanib borishi bilan dehqonlarning feodallarga qaramligi davlatning majburiy choralarini bilan yanada ortdi: dehqonlar yerga «biriktirib qo'yilar» va o'z xo'jaliklarini tashlab ketolmasdilar.

Ijtimoiy tengsizlik qonun yo'li bilan mustahkamlab qo'yilardi.

Dehqonlar, odatda, davlatni boshqarishda hech qanaqasiga ishtirok etishmasdi. Davlat hokimiyati shak-shubhasiz sinfiy bo'lib, to'la-to'kis feodallar ixtiyorida edi. Davlat hukmron sinfning diktatura (zo'raonlik) quoli bo'lib, uning mulkdor sifatidagi manfaatlarini himoya qilardi.

Davlat umumijtimoiy funksiyalar jihatidan ham to'la mustaqillikni qo'lga kiritgan.

Biroq, shuni ham aytish kerakki, bunday tarqoqlik davlatni zaiflashtirardi. Natijada o'zidan kuchliroq qo'shnilarga yengil o'lja bo'lishi mumkin edi (ko'pincha shunday bo'lardi ham). Bu holatlar yerlarning yangidan birlashtirilishiga sabab bo'lib, tabaqaviy-vakillik va mutlaq monarxiyalar paydo bo'lardi. Lekin feodal jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida davlatning mohiyati o'zgarmay qoldi, u hamisha katta yer egalari sinfi manfaatlariga xizmat qildi.

Umuman olganda, feodal jamiyat ma'lum darajada sharq jamiyatini eslatayotganday tuyuladi. Bu taxminlarda asos ham bor. Haqiqatan, bu yerda ham yerga egalik mulk hokimiyatining ba'zi xususiyatlarini o'zlashtira borib, muayyan tarzda davlatga aylanadi. Biroq, baribir, farqlar yana saqlanib qolaveradi. Sharq davlatidan u hokimiyat manbai -mulk ekanligi, teskarisining esa bo'lmasligi bilan, yer mansabdor shaxslarga emas, balki qarindosh-urug'chilik asosida meros qoldirilishi bilan, vassal olgan yer uning mulkiga aylanishi va nasldan-naslga meros bo'lib o'tishi bilan, qishloq xo'jalik jamoalari umuman saqlanib qolmaganligi yoxud ular Sharqdagi mavqega ega bo'lmaganligi bilan, sharq davlatidagidek qudratli va ko'psonli amaldorlar mahkamasi mavjud emasligi bilan farq qiladi. Shunga qaramay, baribir, yerga asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida egalik qilishning feodal tabiati feodal davlati monarxiya (yakka podsholik) sifatida paydo bo'lishi va yashashini taqozo etadi. Va, aksincha, savdogarlar ko'pchilikni tashkil etgan va mulk xususiy bo'lgan mustaqil shaharlarda ko'pincha boshqaruvning respublika shakli (Genuya, Dansig, Novgorod, Pskov shahar-respublikalari) ko'zga tashlanadi. Feodal huquqning asosiy manbai taomillar bo'lib, feodal tarqoqlik sharoitlarida ular bir-birlaridan farq qiladi. Biroq, shunga qaramay, yagona huquqiy tizimning yaratilishi feodal tarqoqlikni barham toptirishda katta ahamiyatga molik bo'ldi. Bunga umum-davlat qonunchiligini yaratish vositasi bilan sud pretsedenti

(umumiy huquqiy tizimi)ga umumiy kuch bag'ishlash orqali erishildi.

Burjua davlati. Dastlabki burjua (kapitalistik) davlatlar bundan 200-300 yil muqaddam Ovrupo va Shimoliy Amerikada vujudga kelgan. Xususan, ular Buyuk fransuz inqilobidan keyin keng tarqaldi.

Burjua jamiyatini loaqal bir xususiyati - rasman mustahkamlangan sinfiy tengsizlikka asoslangan o'zidan oldingi ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalardan farqli o'laroq, kapitalistik ishlab chiqarish usuli o'z mehnatini erkin sotuvchi ishchilarga ega bo'lganligi uchun ham ancha ilg'or (progressiv)roq deyish mumkin. Umuman esa, burjuaziya «Ozodlik, tenglik, qardoshlik» kabi maftunkor shiorlardan foydalanib, hokimiyatni qo'lga kiritardi. AQShning Mustaqillik deklaratsiyasida, Fransiyaning Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi va boshqa xuddi shunday hujjatlarda barcha odamlarning teng bo'lib tug'ilishi va teng huquqlarga ega ekanligi, ular shunday holatda qolishlari kerakligi e'lon qilinardi. Biroq, afsuski, bunday va'dalarning ko'pchiligi hayotga tatbiq etilmay qolib ketardi. Nihoyat, burjua davlati tabaqaviy tengsizlikni barham toptirgan bo'lsa-da, uning o'rniga ijtimoiy tengsizlik keldi. Birovlar ishlab chiqarish vositalariga egalik qilsa, ulardan mahrum boshqalar esa, o'z ishchi kuchlarini sotishga majbur edilar. Shuni ham e'tiborga olish muhimki, burjua jamiyati o'z taraqqiyoti davomida qator bosqichlardan o'tadi, u bilan birga davlat ham o'zgarib boradi.

Birinchi bosqich (sarmoyaning ilk jamg'arilishi va erkin raqobat davri)da burjuaziya sinfi juda ko'psonli bo'lib, ozmi-ko'pmi teng hajmdagi mulkka ega bo'ladi. Ana shuning o'zi ularning umumiy manfaatlarini belgilaydi. Burjua davlati ushbu manfaatlarning ifodachisi va himoyachisi sifatida maydonga chiqadi. Uning faoliyati yaqqol ko'zga tashlanadigan sinfiy tusga ega bo'ladi: ishchilarning birlashishlari man etiladi, mulkiy ma'lumot olish, o'troqlik va, shu kabi tsenzlar deb ataladigan turli to'siqlar joriy etilib, ishchilarning davlatni boshqarishdagi ishtiroklarini cheklashga erishiladi. Shu tariqa yalpi teng huquqlilik tantanali shiorligicha qolib ketib, amalda siyosiy tengsizlik qonuniy jihatdan mustahkamlanib bordi. Davlat ham, huquq ham hukmron sinf manfaatlarini himoya qilar, ya'ni o'z funksiyasini astoydil bajarardi. Davlatning umumijtimoiy funksiyalari chetga surib qo'yilgan edi.

Burjua jamiyati rivojining **ikkinchi bosqichi** XIX asr oxiri - XX asr boshlariga to'g'ri kelib, **monopolistik kapitalizm** nomi bilan mashhur. Uning boshqalardan farq qiluvchi asosiy xususiyati shundaki, ko'pchilik mayda korxonalar raqobatga bardosh berish maqsadida trestlar, sindikatlar, korporatsiya va boshqalarga birlashadilar. Sanoat, savdo va moliya sarmoyalarining birlashuvi sodir bo'ladi va shu tariqa ishlab chiqarish hamda taqsimot turli xillarining monopoliylashuvi kuzatiladi. Natijada boylikning katta qismi burjuaziyaning nisbatan kamchillikni tashkil etuvchi vakillari qo'lida to'planadi.

Bundan tashqari, ularning qo'llarida siyosiy hokimiyat ham jamlana boradi. Demokratik tuzilmalarga ehtiyoj barham topadi. Ba'zi hollarda bu monopolistlar manfaatlarini ifodalovchi antidemokratik tartiblarning paydo bo'lishiga olib keladi (masalan, Olmoniya va Italiyadagi fashistik tartiblar, Lotin Amerikasi va Janubiy Afrikadagi harbiy-politsiya davlati va boshqalar). Buning ustiga ko'pincha bunga o'xshash tartiblar hokimiyat tepasida turuvchi davlat yoxud partiya-davlat mahkamasi rahbar doiralari manfaatlarini himoya qiladi. Mazkur holatlarda demokratik tuzilmalarni saqlab qolish g'oyat zarur bo'lib, buning uddasidan chiqish tobora qiyinlashib boradi.

Shunga qaramay, har qalay, ko'pchilik mamlakatlarda demokratiya tamoyillari hatto rivojlanadi ham: tsenzlar (turli cheklashlar) bekor qilinadi, umumiy saylovlar huquqi joriy etiladi. Ayni paytda, hokimiyat hamon monopolistik burjuaziya qo'lida qolayotganiga qaramay, V.V.Lazarev ta'kidlaganidek, boshqaruvning demokratik shakllari rivojlanib borishi bilan bir vaqtda hukmdorlar nufuzini saqlab qolish uchun umumijtimoiy vazifalarga tobora ko'proq e'tibor berish talabi kuchayib boradi.

Ko'rinib turibdiki, burjuaziya davlati paydo bo'lishi bilan jamiyat o'z taraqqiyotida sifat o'zgarishiga molik sakrashni boshdan kechirganligi shak-shubhasiz. O'z navbatida bu qonuniyatdir. Bunday sharoitlarda mehnat unumdorligini oshirish zarurati o'sib boradi, bu esa, fan va texnikadagi jiddiy kashfiyotlar bilan bog'liqdir.

Vaqt o'tishi bilan monopolistik kapitalizmning davlat-monopolistik kapitalizmga o'sib o'tishi sodir bo'ladi, bu esa, davlatning o'zi ham monopolist bo'lib qolganligini bildiradi. U, S.A.Komarov ta'biri bilan aytganda, **birlashgan kapitalizmga** aylanadi.

Asrimizning 30-yillarida burjua jamiyati o'z

taraqqiyotining yangi, hozirgi zamon bosqichiga kiradi. Bu davr burjua davlatidagi tub o'zgarishlar bilan ajralib turadi. Sodir bo'lgan o'zgarishlarning sabablari, eng avvalo, asr boshidagi inqilobiy harakatning o'sishi bilan bog'liqdir. Jumladan, Rossiyadagi 1917 yil oktyabr voqealari butun dunyo hamjamiyatidagi burjua davlatining o'zgarishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Burjua davlatining o'zgarishiga fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari ham ta'sir etmay qolmadi. Zero, savodxon, yuksak malakali kishilargina yaxshi ishchi bo'lishi mumkinligi ravshan bo'lib qolgandi. Umuuman olganda, insoniyat - ekspluatatorlar ham, ekspluatatsiya qiluvchilar ham aqlliroq bo'lib boraverishlari sezilgan. Ekspluatatorlar, jumladan, ishchilar sinfini o'z «qora to'ni»da saqlab qolaverish qimmatga tushayotganini, bu narsa xavf-xatardan xoli emasligini tushunib qolishdi. Ekspluatatsiya qiluvchilar ham qurol yordamidagina murosa yo'lini topish birdan-bir chora emas, degan xulosaga keldilar. Bu mehnat unumdorligining ancha o'sishiga va oqibat natijada aholi turmush darajasining oshishiga olib keldi.

Bundan tashqari, hozirgi zamon burjua jamiyatida davlat ham ishtirok etayotgan aksiyalashtirishning kuchayib borish jarayonida asta-sekin xususiy mulk ulushi qisqarib bormoqda, bu esa, jamiyatning iqtisodiy asoslari o'zgarayotganini bildiradi. Ayni paytda, yo'qsullar (proletariat) sinfi tugab ketmoqda. Zero, yo'qsullar kamayib, aksiyadorlar soni ortib bormoqda. Ishchilarning aksariyati aholining boshqa qatlamlari bilan birgalikda «o'rta» sinfni vujudga keltirmoqda. Endilikda ilgorigidek burjuaziya qo'lida qolayotganligiga qaramay, jamiyat qolgan qismining unga ta'siri kuchaymoqda. Bunda demokratik saylov tizimi qo'l kelmoqda. Chunki mazkur jarayonda hukmron rahbar doiralari ko'pchilik vakillari butun jamiyatning sergak va jiddiy nazorati ostida bo'ladi. Huquq va qonunchilik tobora ko'proq ahamiyat kasb eta boradi: ijtimoiy, huquqiy davlatni chinakamiga shakllantirish sari muayyan olg'a siljishlar ro'y bermoqda.

Davlatning funksiyalari sezilarli darajada o'zgardi. U rejalashtirish, davlat buyurtmalarini joylashtirish, kreditlash yo'llari bilan iqtisodiyotga faol aralashmoqda. Xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlarini davlat ixtiyoriga o'tkazish amalga oshirilmoqda. Lekin, bu yerda so'z ushbu tadbirni zo'rvonlik bilan bajarish haqida borayot-

gani yo'q. Aksincha, davlat xususiy tadbirkorlar uchun samarasiz, ammo aholi ehtiyoji mavjud bo'lgan buyumlar ishlab chiqarishni hamda xizmat ko'rsatishni o'z zimmasiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamon g'arb burjua davlati klassik ma'nodagi burjua davlatidan jiddiy farq qiladi. Zero, uning mohiyatini tushunish uchun sinfiy yondashuvning o'zi mutlaqo yetarli emas. Shuning uchun ham davlatning faqat sinfiy mohiyatiga emas, balki uning hozirgi vaqtda tobora ko'proq ahamiyat kasb etib borayotgan ijtimoiy jihatini ham hisobga oluvchi davlat tahliliga boshqacha yondashuvlardan ham foydalanish kerak.

Sotsialistik davlat. Mazkur g'oya dastlab nazariya sifatida K.Marks, F.Engels va V. Lenin asarlarida paydo bo'ldi. Marksizm-leninizm klassiklari o'z asarlarida sotsialistik davlatni boshqa har qanday turdagi davlatlarga qarshi qo'yдилar hamda ulardan asosiy farqi bu davlatlarda hokimiyat ekspluatatsiya qiluvchi ozchilik qo'lida bo'lib, ekspluatatsiya qilinuvchi ko'pchilik qarshiligini bostirishda undan foydalanishida, deb bildilar. Sotsialistik davlat, «klassiklar» fikricha, **sotsialistik inqilob** natijasida vujudga kelishi kerak edi, ya'ni hokimiyatni qo'lga kiritish zo'ravonlik yo'li bilan amalga oshirilishi shart edi. Eski davlat mashinasini sindirib, **prolyetariat diktaturasini** o'rnatish zarurati bunga sabab qilib ko'rsatildirdi. Shu bilan birga inqilob g'alabasidan so'ng hokimiyat ishchilar sinfi qo'lga o'tishi rejalashtirildi. Ishchilar sinfi esa, butun xalq manfaatlarini yo'lida ag'darib tashlangan ekspluatator sinflar qarshiligini bostirib borishi, shuningdek, «yangi yorqin kelajak»ni bunyod etish yo'lida xalqni o'z orqasidan ergashtirishi kerak edi. Pomeschchiklar va kapitalistlar hukmronligidan ozod bo'lgan xalq ishlab chiqarish vositalarining umumiy lashtirilishi sharoitlarida mehnat unumdorligini oshirishda mislsiz sakrashni sodir etadi, fan va texnikani rivojlantirishda buyuk yutuqlarga erishiladi, barcha mehnatkashlar yangi hayotning faol bunyodkorlariga aylanadilar va ularning barchasi davlat ishlarini boshqarishga jalb etiladi, deb taxmin qilingandi («oshpaz ayol ham davlatni boshqarishi mumkin», degan mashhur iborani eslang).

Umuman, davlat to'g'risida gapiradigan bo'lsak, marksistlar unga unchalik katta ahamiyat berishmagandi. Boz ustiga, ular davlat o'z qiyofasidan mahrum bo'ladi va dastavval «yarim

davlat»ga aylanib, keyinroq (zarurat bo'lmaganligi bois) umuman barham topadi, deb hisoblashardi. Ana shunday «nazariy qoida»lar Leninning «Davlat va revolyutsiya» asarida bayon etilgan.

Endilikda biz ushbu farazlarning aksariyati tagi puch uydirmalardan boshqa narsa emasligini aniq tushunib oldik. Hatto, SSSRda 70 yil mobaynida sotsialistik davlatning yashaganligining o'zi mazkur nazariyalarning utopiyadan iborat ekanligini rad etolmaydigina emas, balki ularning bema'niligi, hatto halokatligini butun kuch bilan isbotlab turibdi.

1917 yil Oktyabr to'ntarishidan keyin Rossiyada barcha ishlab chiqarish vositalari va yer davlat ixtiyoriga o'tkazilganidan so'ng mamlakat o'zining haqiqiy xo'jayinlaridan mahrum bo'ldi, mehnatga haq to'lashdagi tekischilik unumli mehnatni besamar qilib qo'ydi. Natijada mehnat majburiy yukka aylandi. Davlatda hokimiyat so'zdragina vakillikka asoslangan bo'lib, xalq nomidan ish yuritayotgandek ko'rinsada, amalda bir to'da fitnatchilar qo'lida edi. Ular shafqatsiz terror - «proletariat diktaturasi» yordamidagina hokimiyatni qo'llarida ushlab tura olardilar.

Lekin, ma'lumki, hokimiyatni egallab olishning o'zi kifoya qilmaydi, uni ushlab qolish yana ham qiyin va muhimroqdir. Davlat hokimiyatining butun keyingi tarixi - jinoyatlarning qonli zanjiridan iborat. 30-50-yillar «sotsializmi»ning modeli, S.A.Komarov to'g'ri ta'kidlaganidek, asosiy ishlab chiqarish vositalarini to'liq davlatlash-tirish, ijtimoiy hayotning barcha sohalariga davlatning aralashuvi, ijtimoiy manfaatlarining shaxs manfaatlaridan ustuvorligi va fuqarolarning qator huquq va erkinliklarini inkor etish asosiga qurilgandi.

Shu munosabat bilan V.V.Lazarevning: «Oqibat-natijada amalda yagona davlat mulkchiligiga asoslangan jamiyat va davlat shakllandi. Shuning uchun ham ular ko'p jihatdan sharq tipidagi jamiyat va davlatlarga o'xshab ketardi. Partiya-davlat mahkamasi, to'g'rirog'i, uning rahbar doiralari ishlab chiqarish vositalarining haqiqiy egalariga aylandi. Natijada ular cheklanmagan hokimiyatga ega bo'ldilar»¹², - degan fikriga qo'shilmay bo'lmaydi. "Sotsializm" qurishga kirishgan boshqa mamlakatlarda ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, yuqoridagiga o'xshash jarayonlar sodir bo'layotgandi.

¹² Lazarev V.V. *Общая теория государства и права. М., «Юрист», 1994, 254-бет*

Shunday qilib, sotsialistik davlat g'oyasi amalda yuzaga chiqmay qoldi - utopiyaligicha qolib ketdi. Biroq, bu sotsializm g'oyalarini butunlay inkor etish degan gap emas. Darvoqe, urushdan keyingi ko'pgina burjua davlatlari ilmiy sotsializmning ba'zi qoida va g'oyalardan foydalandilar hamda kommunistlardan farqli o'laroq ularni hayotga tatbiq ham etdilar. Bular - umumiy teng huquqlilik to'g'risidagi, mehnatkashlarni ijtimoiy himoyalash haqidagi, aholining yuksak turmush darajasini ta'minlash maqsadida davlat nazoratini yo'lga qo'yish to'g'risidagi g'oyalar edi. Qolaversa, bu g'oyalarni zo'r-bazo'rgina sof «sotsialistik g'oyalar» deb atash mumkin. Masalan, Qur'on K.Marksdan 1100 yil oldinroq tenglik, qardoshlik va ijtimoiy adolat g'oyalari e'lon qilgan.

6-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlarida davlat masalalari

O'z mustaqil rivojlanish yo'liga qadam qo'ygan respublikamiz uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning serqirra faoliyati bilan birga, uning nutqlari, maqolalari, nashriy asarlarining ham ahamiyati beqiyos ekanligini alohida ta'kidlash kerak. Mamlakatimizning har bir fuqarosi bu asarlarda o'zini qiziqtirgan har qanday savolga javob topishi mumkin. Yurtboshimiz o'z asarlarida hech qachon eng murakkab va qiyin muammolarni chetlab o'tmaydi, e'tiborsiz qoldirmaydi. Ular qatorida davlat to'g'risidagi, uning roli va vazifalari haqidagi masalalar oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Ular Prezidentimizning ko'pgina asarlari va nutqlarida keng yoritilgan. Bu esa, ushbu masalalarni u g'oyat dolzarb deb bilishidan dalolat beradi. Bahs mavzuimizga kirishishdan oldin uning mulohazalari, xulosalarining ilmiy asoslanganligini, aniq dalillarga egaligini, metodologik va uslubiy yo'naltirilganligini ta'kidlash lozim.

Islom Karimov o'zining ilk asarlaridan biri - «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida shunday tavsifni keltiradi: **«O'zbekiston - keiajagi buyuk daviat. Bu - mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu - insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir»¹³.**

¹³ I.A.Karimov. «O'zbekiston»: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura» I-tom., «O'zbekiston» 44-bet..

Xuddi shu asarida u: «Xalq davlat hokimiyatining manbaidir., Uning xohish-irodasi davlat siyosatini belgilab beradi. Bu siyosat inson va jamiyatning farovonligini, O'zbekiston barcha fuqarolarining munosib turmushini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak»¹⁴, deb ta'kidlaydi.

Bu esa, siyosiy va davlat tuzilishi insonga: «... uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishini kafolatlashi kerak»¹⁵ligini anglatadi.

Gapni bir boshdan boshlaymiz. **Siyosiy sohaga** nisbatan bu qoidalar haqiqiy demokratiya prinsiplarini qaror toptirish; hokimiyatning bo'linishi asosida milliy davlatchilikni barpo etish; barcha fuqarolarning qonun oldidagi huquqiy tengligini kafolatlovchi huquqiy davlatni shakllantirish; ozchilikdan iborat millatlarning manfaatlari va huquqlarini himoya qilish; bir mafkuraning yakkahokimligidan qat'iyon voz kechish; ko'ppartiyaviylikni amalda shakllantirishdan iborat.

Iqtisodiy soha xususida gapiradigan bo'lsak, Prezidentimizning fikricha, bu quyidagilarni anglatadi: qudratli va barqaror rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etish; mulk egalari huquqlarining davlat yo'li bilan himoya qilinishini va mulkchilik shakllarining huquqiy tengligini ta'minlash; iqtisodiyotni o'ta markazlashtirmaslik hamda yakka hokimlikka barham berish; mehnat qilish, dam olish va har yilgi haqi to'lanadigan ta'tilga chiqish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; ishsiz bo'lib qolgan taqdirda muhofaza qilish; tabiatga vahshiyona munosabatda bo'lish, ekologiyaga zarar yetkazilishiga yo'l qo'ymaslik.

Ijtimoiy va ma'naviy sohada bu - insonparvarlik g'oyalariga sodiqlik; ma'naviyat va axloqiylikni qayta tiklash, qadimgi va zamonaviy madaniy boyliklarni bilish va ko'paytirish; vijdon va din erkinligi qoidalarini qaror toptirish; ijtimoiy adolat qoidalarini ro'yobga chiqarish; malakali tibbiy xizmatni ta'minlash; umumiy ta'lim olish, kasbni va tegishli maxsus tayyorgarlikni o'tishni erkin tanlashda barchaga baravar huquq berish; ijodning barcha turlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Islom Karimov oilani davlat va jamiyatning asosi, deb

¹⁴ O'sha yerda.

¹⁵ O'sha yerda.

hisoblaydi. Shu munosabat bilan u quyidagilarni yozadi: «**Oila - jamiyatning negizi**. Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunishimiz mumkin va lozim. Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O'zbeklarning aksariyati o'zining ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlarni amalga oshirish siyosatini ishlab chiqishi va izchil ro'yobga chiqarishi kerak»¹⁶. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat to'g'risidagi eng asosiy xulosalaridan biri shudir.

Shu munosabat bilan bozor munosabatlarini rivojlantirishning davlat tomonidan muvofiqlashtirib borilishi tizimida qonun hujjatlarining qabul qilinishi ulkan ahamiyatga ega bo'ldi. Bular iqtisodiy erkin korxonalar va fuqarolarning o'zaro munosabatlari mexanizmini soliqlar tizimi, monopolistik faoliyatni cheklash, garov huquqini joriy etish va korxonalar bankrotligini qonuniy yo'l bilan tan olish orqali belgilab berildi.

Islohotchi-davlat mamlakat siyosiy hayotining rang-barang bo'lishiga ko'maklashadi. Respublikada ko'ppartiyaviylik joriy etilmoqda. Bu qoida respublika Asosiy Qonunida mustahkamlangan bo'lib, uning asosida mamlakatimizda ilk bor hokimiyatning oliy organi - Oliy Majlisga saylovlar bo'lib o'tdi.

Prezidentimiz aytganidek, o'z islohotchi-davlatiga ishonch-hurmat O'zbekiston aholisi mentalitetidan mustahkam o'rin egalagan. Islohotlarning har bir odimi, yangi qonun va hukumat qarorlarining har bir loyihasi bizda insoniylik nuqtai, odamlarga naf keltirishi nuqtai nazaridan idrok etiladi. Bizning xalqimiz g'ayriodatiy, ammo taraqqiyot uchun zarur narsalarga ishonch bilan qaraydi.

Respublikamizning besh yilligi arafasida bo'lib o'tgan Oliy Majlis sessiyasida so'zga chiqar ekan, Prezident Islom Karimov qoniqish bilan quyidagilarni qayd etdi: «Ana shu yillar mobaynida davlatning o'zi ham anchagina o'zgardi - davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimi va tuzilmasi butunlay yangilandi, ularning ish

¹⁶ I.A. Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. T. "O'zbekiston" 1996. 178-bet.

uslubi va shakli o'zgarib bormoqda, totalitar tizimning qoldiqlari jadal bartaraf etilmoqda. Davlatning o'tish bosqichidagi, milliy davlatchilikni qaror toptirish davridagi bunday roli, bugun ko'rinib turganidek, o'zini to'la oqladi»¹⁷.

Davlat masalasi bo'yicha Prezident Islom Karimov asarlarida ilmiy asoslab berilgan nazariy qoida va xulosalar qayd etib o'tilganlardangina iborat emas. Ular mazmun-mohiyatan nihoyatda chuqur, qamrovi jihatidan esa g'oyat darajada keng va xilma-xildir.

Yurtboshimiz asarlarida, nutqlari va ma'ruzalarida, savollarga bergan javoblarida davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi, davlatning asosiy organlari saylanishi va ularning saylovchilar oldida hisob berishi, tayinlanadigan davlat organlarining tashkilotlar oldidagi javobgarligi kabi o'ta murakkab, juda katta amaliy, siyosiy va ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan nazariy masalalar ham o'z ifodasini topgan.

Islom Karimov asarlarida nazariy jihatdan asoslab berilganidek, O'zbekiston mustaqil bo'lganidan keyin davlat tushunchasi, uning mazmun-mohiyati tubdan o'zgardi. Bizda barpo etilayotgan mustaqil, demokratik, huquqiy davlat o'zining shakl-shamoyili, sifat-mazmuni, insonparvarlik qoidalarga asoslanganligi, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni o'zi uchun bosh maqsad qilib olganligi va boshqa xislat-fazilatlar bilan sobiq sovet davlatidan yer bilan osmonchalik farq qiladi.

Islom Karimov birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi majlisidagi ma'ruzasida dunyoda bir-biriga aynan o'xshagan ikkita inson bo'lmaganidek, bir-biriga aynan o'xshaydigan davlat ham yo'qligini, bunday bo'lishi mumkin ham emasligini uqtirib shunday deydi: «Har bir davlat - betakror ijtimoiy hodisadir. U har qaysi xalq tarixiy va ma'naviy taraqqiyotining hosilidir, uning o'ziga xos, o'ziga mos madaniyati rivojining natijasidir»¹⁸.

Mamlakatimiz Oliy rahbari o'sha ma'ruzasida sobiq sovet davlatining zo'rvonlikka, totalitarizmga, diktaturaga asoslanganligini, oddiy insonlar manfaatlariga zid bo'lganligini o'zining quyidagi chuqur ma'noli so'zlari bilan bayon etadi: «Biz hozir o'zgartirayotgan sovet sotsialistik daviati xalqimiz hayotiga chetdan zo'rvonlik bilan

¹⁷ I.A.Karimov. *Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi*. 5-tom. T., «O'zbekiston», 1997, 129-bet.

¹⁸ I.A.Karimov. *Vatan sajdagohi kabi muqaddasdir*. 3-tom. T. "O'zbekiston" 1996. 6-bet.

joriy etilgan edi. Bu davlatning shakli va mohiyati xalqimlarning axloqiy, ma'naviy va ruhiy qadriyatlariga to'g'ri kelmaydigan, mos kelmaydigan tizimga asoslangan edi.

Xo'sh, bunday tuzum avvalambor kimga suyanar edi? Bu tuzum o'z xalqining tarixini, uning ruhi va urf-odatlarini, o'z avlod-ajdodlarini bilmaydigan manqurtlarga tayanar edi. Shuning uchun ham eski sovet tuzumining bayroqlarida va shiorlarida bayon qilingan g'oyalar amaldagi ishlaridan nihoyatda uzoq edi. Xuddi shu bois bu davlatning ijtimoiy tizimi bilan xalq ehtiyojlari o'rtasida jarlik paydo bo'ldi. Ya'ni inson, uning moddiy, ma'naviy, shu jumladan, milliy qadriyatlari bu tizimda orqa o'rinda turar edi. Binobarin, bunday davlatning avvalboshdanoq istiqboli yo'q edi. Sobiq Ittifoq hududining goh u, goh bu yerida ro'y berayotgan bugungi keskin ijtimoiy etnik mojarolar buning yaqqol misolidir»¹⁹.

Yurtboshimiz asarlarida mustaqillikka erishganimizdan keyin biz qanday davlat quryapmiz, uning siyosiy-huquqiy va ijtimoiy negizi, qiyofasi qanday bo'lishi kerak, yangi demokratik jamiyat shakllanishidagi ta'siri qanday bo'ladi, degan o'ta murakkab nazariy masalalarga atroflicha javob berilgan.

Islom Karimov asarlarini sinchiklab o'qish va ulardagi nazariy qoida va xulosalarni chuqur mulohaza qilish, qalbdan, yurakdan o'tkazish jarayonida bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan, erkin, ochiq, demokratik davlat qurayotganligimizni, qurayotgan davlatimizning shaklini, qiyofasini, insonparvarlik mohiyatini yaqqol tasavvur qilamiz.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda Prezident asarlarida belgilab qo'yilganidek, bizning davlatimiz o'zining quyidagi xususiyatlariga ega:

* Bizning davlatimiz xalq irodasini ifoda etadi, uning manfaatlari uchun xizmat qiladi.

* Davlat organlari va jamiki mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar. «Sobiq totalitar tuzum sharoitida, - deydi Prezident, - bunday fikrni hech kim xayoliga ham keltira olmas edi. Bugun esa inson, uning hayoti, erki, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa huquq hamda erkinliklari muqaddas bo'lib, davlat

¹⁹ O'sha asar, 7-bet.

himoyasidadir»²⁰.

* Asosiy Qonunimizning 7-moddasida belgilab qo'yilishicha, «O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomondangina amalga oshiriladi».

Bizning davlatimiz eng avvalo, umumjahon sivilizatsiyasiga, davlat qurilishi sohasida boshqa xalqlar erishgan tajribalarga, ijtimoiy qadriyatlarga asoslanadi. «Vatanimiz azaldan bashariyat tafakkuri xazinasiga unutilmas hissa qo'shib kelgan. Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyat, adolatparvarlik, ma'rifatsevarlik kabi ezgu fazilatlarini Sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlandi. Va o'z navbatida bu falsafiy-axloqiy ta'limotlar ham xalqimiz dahosidan bahra olib boyib bordi.

Bizning kelajagi buyuk davlatimiz ana shu falsafaga uyg'un holda, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir ajdodlarimizning dono fikrlariga uyg'un holda shakllanishi lozim»²¹.

Prezident asarlarida ilmiy asoslab berilganidek, yangilangan jamiyat davlatining rivojlanish yo'liga asos qilib olingan yetakchi tamoyillardan biri: «Ijtimoiy adolat qoidalarini ro'yobga chiqarish, aholining eng nochor qatlamlari - keksalar, nogironlar, yetim-yesirlar, ko'p bolali oilalar, o'quvchi-yoshlarning davlat tomonidan ijtimoiy muhofazaga bo'lgan kafolatli huquqlarini ta'minlash. Eng taraqqiy etgan mamlakatlarda insonni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi keng qo'llaniladi, bunga nihoyatda ko'p ahamiyat beriladi, bizning sharoitimizda esa bu-fuqarolar totuvligini saqlab qolish kafolatidir»²².

Islom Karimov ijtimoiy himoyalashning jamiyat taraqqiyoti uchun nechog'li katta ahamiyatga ega ekanligini, u fuqarolar tinchligi - osoyishtaligi va millatlararo totuvlikni ta'minlash, qonuniylik va huquqiy tartibotni qaror toptirish, siyosiy, davlat va konstitutsiyaviy tuzumni mustahkamlash kaliti ekanini o'z asarlarida qayta-qayta uqtirib kelmoqda. Bu haqda u shunday deydi: «Bozor munosabatlari o'tishning ilk davrida biz oldindan butun aholini ijtimoiy

²⁰ I.A.Karimov. *Bizdan ozod va abod Vatan qolsin*. 2-tom. «O'zbekiston», 1996, 94-95-betnap.

²¹ O'sha asar, 7-8-betnap.

²² I.A.Karimov. «O'zbekiston»: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura» 1-tom., «O'zbekiston» 48-bet.

himoyalash yo'lidan bordik. Bu chora-tadbirlar odamlarning turmush darajasi keskin pasayib ketishining oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Respublikada osoyishtalik va barqarorlikni saqlab qolish omili bo'ldi»²³.

Qudratli, erkin, demokratik davlat qurish va mustahkamlashning, davlatchilik negizlarini belgilashning eng muhim omillardan biri - ijtimoiy hayotning barcha sohalarida adolat va haqiqatni qaror toptirishdir. Ana shu nazariy masalalar ham Islom Karimov asarlarida o'zining chuqur ilmiy ifodasini topgan.

Prezidentning «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» asarida nazariy asoslab berilganidek, «bugun jamiyatda ijtimoiy mulkiy jarayonlarning ob'yektiv o'zgarishi yuz berayotgan bir paytda adolat g'oyasini ixcham bir xulosa bilan ifodalash mumkin. Ya'ni **davlat jamiyatning keskin tabaqalanishiga - oshib-toshib ketgan boylaru kambag'al-qashshoqlarga bo'linib ketishiga yo'l qo'ymasligi kerak**».

Odamlarning o'z qobiliyat va ehtiyojlarini to'la namoyon qilishlari va amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan teng imkoniyatlarni va shu jarayonni vujudga keltiradigan huquqiy mexanizmini yaratib berish davlatning Prezident asarlarida ilmiy asoslab berilgan asosiy vazifalaridan bo'lib hisoblanadi. Insonning jamiyatda tutadigan o'rnini, obro'-e'tibori, taraqqiyotimizga ijobiy ta'sir ko'rsatishi davlat tomonidan ana shu masalaning tez va ijobiy hal etilishiga bevosita bog'liqdir.

Prezident asarlarida ilmiy asoslab berilganidek, jamiyatimizda halol mehnat qilayotgan har bir kishiga o'z oilasini boqish, bilim olish, tibbiy xizmatdan foydalanish, o'zining va qarindosh-urug'larining qadr-qimmatini himoya qilish uchun baravar imkoniyatlarni vujudga keltirish va amalga oshirish davlatimizning yana bir muhim vazifasidir.

Islom Karimovning davlat haqidagi nazariy ta'limotida sud islohotini chuqurlashtirish, hokimiyatning uchinchi - mustaqil va qaram bo'lmagan tarmog'i sifatida butun odil sudlov tizimini demokratlashtirish - huquqiy davlatni mustahkamlashning muhim yo'nalishlaridan biri tariqasida alohida ahamiyat kasb etadi.

²³ Каримов И.А. «O'zbekiston" XXI asr bo'sag'asida: xafvsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1997, 218-bet.

Ijtimoiy taraqqiyotimizning hozirgi tarixiy bosqichida fuqarolarning haq-huquqlarini, erkiniiklarini, sha'ni, qadr-qimmati, milliy g'ururini himoya qilish asosida ijtimoiy adolatni qaror toptirish sudlarning va huquq tartibotni muhofaza qilish organlarining faoliyatida asosiy mezonga aylanmog'i lozim.

Odamlarning sudlarga bo'lgan eskicha qarash, tasavvur va tushunchalarini batamom o'zgartirish zarurligini hayot taqozo etmoqda. Odamlar hozirgacha ham ko'pincha, sud bo'ldi, desa kimdir jazo oldi, kimningdir taqdiri hal bo'ldi, deb tushunishadi. Holbuki, sud bo'ldi, deganda, odamlar himoya qilindi, haq joyida qaror topdi, degan tushuncha odamlar ongiga mustahkam singishi kerak. Buning uchun, - deydi Prezident, - sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi organga, ijtimoiy adolat posboniga aylanishi, xalqning ishonch qal'asiga aylanishi, hukm chiqaruvchi sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlashi lozim.

Islom Karimov bu xususda birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyasidagi ma'ruzasida quyidagilarni alohida ta'kidladi: «Faqat shunday qilganda hozir sudni jazolovchi organ deb biladigan odam sudga o'z huquqlari va erkinliklarini, manfaatlarini himoya qilishi lozim bo'lgan organ sifatida murojaat qiladigan bo'ladi. Ana shundagina sud hokimiyatning haqiqiy mustaqil uchinchi tarmog'iga aylanadi»²⁴.

Prezident sud qarorlarini ijro etish tizimini qayta tashkil etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarurligini birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining oltinchi sessiyasida (1996 yil 29 avgust) so'zlagan nutqida ta'kidlagandi. O'sha nutqida Islom Karimov bugungi kunda ayrim sud qarorlari o'z vaqtida ijro etilmayapti deydi. Har bir sud qarori so'zsiz bajarilishini ta'minlashga imkon beradigan puxta mexanizm barpo etilmaganini, qolaversa, xo'jalik sudlari tizimida bunday tuzilma umuman yo'qligini bunga sabab qilib ko'rsatdi. Sud qarorlari ijrosini tartibga solib turuvchi qonun qabul qilish zaruriyati tug'ilganligini qayd etdi: sudlarning ijro etuvchi hokimiyat va eng avvalo joylardagi hokimlar va prokuratura organlari bilan o'zaro munosabatlarini tubdan qayta ko'rib chiqish fursati yetdi. Hokimlar sudlarni kamsitishga, har

²⁴ I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston», 1999, 29-30-betnap.

qanday usullar bilan ularga o'z ta'sirini o'tkazishga urinayotgan hollar ham ma'lum. Bunday faktlarning qat'iyat bilan payi qirqilishi kerak.

Islom Karimov asarlarida advokatlar tizimining mavqei va ahamiyatini keskin ko'tarish, ular birinchi navbatda sudlov amaliyotida huquqiy me'yorlarga qat'iy rioya etilishini ta'minlashlari, o'z himoyalardagi fuqarolarning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishlari lozimligi qayta-qayta tilga olib kelinayotganligini zo'r mamnuniyat bilan aytmasdan o'tib bo'lmaydi.

Mamlakatimiz rahbari advokatlar mavqei va ahamiyatini keskin ko'tarish zarurligi haqidagi nazariy qoidasini ijodiy rivojlantirib va boyitib, Respublika Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyasidagi ma'ruzasi (1999 yil 14 aprel)da shunday deydi: «Biz **advokatura tizimini kuchaytirish va uning chinakam mustaqilligini ta'minlash**, ularning vakolatlari va maqomini prokuratura maqomiga tenglashtirish uchun qonunchilik sohasida ham, amaliy ishlar sohasida ham ko'pgina chora-tadbirlar ko'rmoqdamiz.

Har qanday sud jarayonida, jinoiy ish ko'rilayotgan bo'lsa ham, bir tomonda ayblovchi, ikkinchi tomonda teng huquq bilan himoyachi so'zga chiqadi.

Faqat qonunga bo'ysunuvchi sud, sudyalalar esa qonuniy huquqlarga, o'z vijdoniga amal qilib, ayblovchi va himoya qiluvchi tomonlarning fikrlarini xolisona hisobga olish asosida mustaqil ravishda adolatli qonuniy hukm chiqaradi»²⁵.

Prezidentning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz», «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», «O'zbekiston buyuk kelajak sari», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli va boshqa ko'pchilik asarlari, ma'ruzalari, nutqlari, savollarga bergan javoblarida oldimizda fuqarolik jamiyatini qurishdek nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiluvchi vazifa turganligi ta'kidlangan. Bu sohada dastlabki, ammo muhim qadamlar qo'yildi. **«Biz fuqarolik jamiyatini qurishga intilmoqdamiz.** Buning ma'nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini o'zi boshqarish

²⁵ I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston», 1999, 29-bet

organlarini yanada rivojlantirish demakdir»²⁶.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida bugungi o'tmish davri uchun muhim va zarur bo'lgan davlatimiz funksiyalari va alomatlari bora-bora tadrijiy ravishda markazdan joylarga, davlat hokimiyati organlaridan jamoat birlashmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga o'ta boradi. Buni hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Prezident asarlarida ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilganidek, fuqarolik jamiyatida davlat hokimiyatli va boshqaruv organlari umummilliy manfaatlariga daxldor eng muhim vazifalarni amalga oshiradi.

Islom Karimov davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladigan eng muhim umummilliy vazifalar nimalardan iboratligini o'z asarlarida aniq va ravshan bayon etdi. «... **Shunday davlat va ijtimoiy tuzilma yaratish kerakki**, - deydi bu haqda u, - **unda kuchii markaziy hokimiyat o'z sa'y harakatlarini mudofaa, davlat xavfsizligi va fuqarolarning xavfsizligi, tartib-intizom, tashqi siyosat, vaiyuta-moliya, soliq tizimini shakllantirish, qonunlar qabul qilish va jamiyatning boshqa strategik vazifalarini amalga oshirish singari asosiy umummilliy vazifalarga qaratmog'i zarur**»²⁷.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining huquqiy shart-sharoitlarini yaratish, ekologiya masalalari, umumrespublika transport va muhandislik kommunikatsiyalarini rivojlantirish, yangi tarmoqlarni vujudga keltiradigan ishlab chiqarishni barpo etish va boshqa shunga o'xshash strategik ahamiyatga molik masalalar ham davlat miqyosida hal etiladi.

Islom Karimovning «yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda», «O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz» asarlarida aniq belgilab berilganidek, bozor islohotlarini amalga oshirish, tadbirkorlikni rag'batlantirish, xususiy mulkni rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash, iste'mol bozorini to'ldirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, odamlarning moddiy farovonligini oshirish va aholini kuchli ijtimoiy muhofaza qilish singari qolgan barcha masalalar mahalliy hokimiyat idoralari hamda

²⁶ I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. T., «O'zbekiston», 1996, 11-bet.

²⁷ I.A.Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. 5-tom. T., «O'zbekiston», 1997, 129-130-bet.

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan hal etilishi kerak.

Islom Karimov asarlarida fuqarolik jamiyatini qurishda bir qancha vakolatli vazifalarni davlatdan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, birinchi navbatda mahallalar ixtiyoriga bosqichma-bosqich topshirish ko'zda tutilganligi belgilab berilgan.

Mahalla - o'zini o'zi boshqarishning noyob, asrlar sinovidan o'tgan samarali bo'g'inidir. Mahalla jamoa a'zolarini uyushtirish, boshini-boshiga qovushtirish, do'stlik, qon-qardoshlik, hamkorlik, hamjihatlikni shakllantirish va mustahkamlashning, milliy qadriyatlar qaror topishi va rivojlanishining, milliy urf-odatlar va an'analarni saqlab turish, tiklash, rivojlantirish va hayotga joriy etishning, o'sib kelayotgan yosh avlodni milliylik, milliy g'urur va iftixor, xalqparvarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning tarix sinovidan o'tgan, hayotda o'zini oqlagan va oqlab kelayotgan eng muhim omillaridan bo'lib hisoblanadi.

Mahalla ahli bir-birining ahvolidan, issiq-sovug'idan boxabar bo'lib turishadi, yaxshi-yomon kunida hamkor-hamdard bo'lishadi. Xonadonlardan birida biron-bir korhol, g'am-tashvish ro'y bergudek bo'lsa, birinchi bo'lib qo'ni-qo'shnilar, mahalladoshlar xabar topib, ko'mak berishga, dardkashning dardiga malham bo'lishga, moddiy-ma'naviy, ruhiy ko'mak berishga oshiqadilar. To'y-ma'arakalar ham, hayitu bayramlar ham, hasharlar ham mahallada o'zaro hamkorliksiz o'tmaydi.

Mahallalarda madaniy, axloqiy, siyosiy-huquqiy, iqtisodiy va boshqa masalalarga doir jamoatchilik fikri shakllanadi.

Ozodagarchilik, tartib-intizom, ekologiya masalalari, tabiatni e'zozlash, gaz, suv, elektrdan tejab-tergab oqilona foydalanish, bolalar tarbiyasi, isrofgarchilikka qarshi kurash, to'y tantanalari, yubileylarni zamonaviy talablar asosida o'tkazish, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirish, huquqiy ta'lim-tarbiyani yaxshilash singari masalalar bo'yicha umummahalla miqyosida doimiy ravishda tadbirlar o'tkazilib turiladi.

Mahalla keksa avlod bilan navqiron avlodni tutashtirib, qovushtirib turadigan, hayotga endigina kirib kelayotgan norasidalar, yigitchalar va qizaloqlarni yoshi ulug', hayotiy tajribasi boy, aqli zukko kishilar yo'l-yo'riqlari, o'g'itlari asosida tarbiyalaydigan, saboq

beradigan maskandir.

Kimning kimligi, nimalarga qodirligi, bilimdonligi, hayotiy tajribasi, fe'l-atvori, iymon-e'tiqodi, halol-pokligini aniq belgilab beradigan, toshu tarozidan o'tkazadigan asosiy maskan, eng katta mezon - mahalladir.

Mahallaning ta'lim-tarbiya maktabi, hayot dorilfununi sifatidagi ahamiyati shu qadar kattaki, uning bu boradagi o'rni va rolini aniq va mukammal bayon etish, mohiyatini to'la yoritish hech ham mumkin emas.

Mahalla tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, ta'lim-tarbiyaviy, huquqiy, madaniy-ma'rifiy sohalar-dagi vazifalar haddan tashqari ko'p va xilma-xil, qamrovi nihoyatda keng.

Mahalla vakolatiga kiradigan funksiyalar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi haqidagi qonunlar, qarorlar va rasmiy hujjatlarda belgilab berilgan.

Islom Karimov «Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezoni bo'lsin» nomli risolasida o'zini o'zi boshqarishning xalqimiz an'analari va qadriyatlariga juda mos bo'lgan usuli - mahallalar tizimi so'nggi yillarda juda katta nufuzga ega bo'lib borayotganligini, zero, uning qo'lidan kelmaydigan ish yo'qligini quyidagicha ifodalaydi: «Zero, barchamiz mahallada o'sganmiz. Uning nufuzini ko'tarish, bilingki, nafaqat iqtisodiy, nafaqat ijtimoiy, balki bu - siyosiy, tarbiyaviy, ulkan ma'naviy masaladir. Biz mahallalarga shu nuqtai nazardan qarashimiz lozim. Mahallaning har qanday masalani yechishga qurbi yetadi. Nega deganda, eng adolatli muhit, eng adolatli ijtimoiy sharoit, vaziyat faqat mahallada bo'lishi mumkin. Hech bir korxonaga, hech bir davlat idorasi yoki jamoat tashkiloti bu borada mahalla bilan tenglasha olmaydi. U yerda hayot tajribasi katta, zaminga yaqin, ko'pni ko'rgan, barcha ishni joy-joyiga qo'ya oladigan fidoyi odamlar yashaydi va ishlaydi. Eng zo'ravon, manaman degan odam ham mahalla ahli oldida yuvvosh bo'lib qoladi. Nega deganda, hamma - u qanday odam bo'lmasin, qaysi lavozimda o'tirmasin, mahalla ahliga bo'ysunishga majbur. Shuning uchun, takror aytaman, ayrim «beli baquvvatlar» ham, quturib ketayotgan ba'zi kimsalar ham mahallaga quloq soladi. Quloq solmay ham ko'rsinchi! Shunday ekan, barcha masalada mahal-

lalarga suyangan holda ishlashimiz, kelajagimizni ular yordamida qurishimiz lozim»²⁸.

Prezident asarlarida ilmiy asoslab berilgan nazariy qoida va xulosalar mazmun va mohiyatidan anglashilib turilganidek, davlat, va davlatga qarashli tuzilmalar o'tish davrining boshida hal qiluvchi rol o'ynadi. U islohotlarning tashabbuskori bo'lib maydonga chiqdi, ustuvor yo'nalishlarni tanlashda faol ishtirok etdi, islohotlarni ro'yobga chiqarishni, qabul qilingan qarorlar ijrosi ustidan nazorat olib borishni ta'minladi. Mustaqillikning dastlabki, eng og'ir yillarida davlat aholining ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlarini, qolaversa, amalda respublikaning butun aholisini o'tish davrining qiyinchiliklaridan himoya qilishdek murakkab vazifani o'z zimmasiga oldi.

Yo'l boshchimiz yuqoridagi fikrlarini yanada davom ettirib, birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining oltinchi sessiyasida so'zlagan nutqida quyidagilarni alohida ta'kidladi: «Aynan davlat yangi huquqiy baza va yangi ijtimoiy munosabatlar shakllanishida, erkin demokratik me'yorlarga o'tishda, ko'p ukladli iqtisodiyot va bozor infrastrukturasi qoror topishida, yangi bank, moliya, soliq tizimi shakllanib, yangi mazmun bilan boyishida tashabbuskor bo'ldi»²⁹.

²⁸ I.A.Karimov. Bizdan azod va obod Vatan qolsin. 2-tom. T., «O'zbekiston», 1996, 281-bet.

²⁹ I.A.Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-tom. T., «O'zbekiston», 1997, 129-bet.

IV bob. DAVLAT SHAKLLARI

1-§. Davlat shakli tushunchasi, uning tarkibiy unsurlari

Davlat shakli tushunchasi davlatshunoslikning eng muhim, sermazmun xususiyatlaridan biridir. Huquqshunos Ivan Ilin shu munosabat bilan quyidagilarni ta'kidlagandi: «Bu murakkab va g'oyat mas'uliyatli masalani ehtiyotkorlik va mutlaqo xolis fikr bilan o'rtaga qo'yish zarur.

Eng avvalo, davlat shakli xalqlar hayotiga befarq qaraydigan «mavhum tushuncha» ham, «siyosiy chizgi» ham emas, balki **tarzi va xalqning jonli tashkilotidir**. Xalq o'z hayot tarzini tushunishi, aynan «shunday» tashkillanishini uddalashi; shu tuzum qonunlarini hurmat qilishi hamda shu tashkilotga ixtiyoriy hissasini qo'shishi zarur. Boshqacha aytganda, aynan **xalqning jonli huquqiy ongi** davlat shaklini ro'yobga chiqaradi, unga hayot, kuch baxshida etadi; binobarin, davlat shakli **eng avvalo xalq huquqiy ongi darajasiga**, xalq tomonidan to'plangan tarixiy **siyosiy tajribaga**, uning iroda kuchi va milliy xarakteriga bog'liq»¹.

I.Ilinning bu fikriga qo'shilmaslikning iloji yo'q. Haqiqatan ham mabodo biron kishi o'yin qoidalarini bilmasa, o'yin rejasini taqdim eta olmasa, va, umuman, o'ynashni xohlamasa, bunday odamni shaxmat o'ynashga majbur qilish hech kimning xayoliga ham kelmaydi-ku.

Bir jamoada birga o'ynamagan o'yinchilardan tuzilgan futbol komandasi o'yinni boy berishi turgan gap.

Tarixchilarning shohidlik berishicha, buyuk sarkarda Amir Temur bo'lajak jang qanday borishi kerakligi, uning mazmun-mohiyatini batafsil tushuntirar, shuning uchun hech qachon mag'lubiyat alamini totmagan ekan.

Siyosiy hayotda ham shunday: u jonli odamlar tomonidan ularning vatanparvarlik muhabbati bilan, ularning davlat tushunchasi bilan, ularning burchga sadoqati, tashkiliy ko'nikmalari bilan, ularning qonunga hurmatlari bilan yaratiladi. Bularning hammasini insonda tarbiyalash kerak. Binobarin, davlat shakli haqida faqat xalq huquqiy ongi darajasini va olingan ko'nikmani hisobga olgan

¹ Ильин И. О грядущей России. Избранные статьи. М., Корпорация «Телекс», 1993, 27-бет.

holdagina gapirish zarur.

Davlat va huquq nazariyasi tushunchalari tizimida **«davlat shakli»** kategoriyasi bilan **«davlat mohiyati»** kategoriyasi bevosita bog'liqdir.

Oldingi bo'limlarda davlatning mohiyatini ochib bergandik. ya'ni uning ijtimoiy vazifalari, jamiyatning davlat paydo bo'lguniga qadar bo'lgan tashkiliy tuzilishi aniqlab berilgan, davlatning asosiy belgilari ajratib ko'rsatilib, asosiy ta'riflar berilgandi. Endi **davlat shunday tuzilganini** qarab chiqish payti keldi. Boshqacha aytganda, **jamiyatning bu alohida siyosiy, tarkibiy, hududiy tashkiloti qanaqangi shakllarda mavjud bo'ladi va amal qiladi?** Davlatning shunday shakli, ya'ni tuzilishini o'rganib chiqqandan so'nggina biz shunday murakkab hisoblangan davlatni tushunib yetish sari bir qadam olg'a siljidik, deya olamiz.

Ayni paytda ushbu mavzuning yaqin o'tmishdagi nazariy va amaliy ishlanmalari mazkur toifa ma'lum ma'noda munosib baholanmaganidan dalolat beradi. Biroq, bu yerda so'z faqat munosib baholay olinmaganidagina emas, «davlat shakli»ni batafsil o'rganishning ahamiyati haqida ham bormoqda. Zero, E.I.Temnovning haqqoniy ta'kidlashicha, «davlat-huquq mohiyatidan kelib chiquvchi davlat shaklining (huquq shakli singari) qat'iyligi va aniqligi e'lon qilingan siyosiy yo'lni amalga oshirishda sub'yektivizm va zo'rvonlikni jiddiy cheklashi mumkin edi»².

Shu bois - biron maqsadni ko'zlabmi yoki beixtiyor ravishdami – bilmadik, biroq sovet davri mualliflari aksariyatining asarlarida, odatda, davlat «mazmuni»ning ahamiyatini ta'kidlab, uning sinfiyligiga urg'u berilardi. Holbuki, shaklsiz mazmunning ham yashay olmasligi allaqachonlardan ma'lum edi. Shunga qaramay, davlat haqidagi ijobiy gaplarning hammasi beistisno uning mazmuniga nisbatan aytilardi. Bunday nuqtai nazarning asossizligini ko'rsatib va isbotlab berish uchun ushbu kategoriyani batafsil qarab chiqish kerak bo'ladi.

Gapni **«davlat shakli»** tushunchasiga oid turli nuqtai nazarlar mavjudligidan boshlash o'rinli, deb o'ylaymiz. Jumladan, bir xil mualliflar uni faqat tor ma'noda izohlaydilar. Ularning fikriga ko'ra, bu - **faqat boshqaruv shakli xolos**. Boshqa birovlar bu

² Темнов Е.И. Форма государства //Общая теория права и государства. М., «Юрист», 1994. 255-бет.

tushunchani *keng manoda* talqin etadi. Zero, ular mazkur tushunchaga ***boshqaruv shakllari bilan davlat tuzilishi shaklini*** kiritadilar.

Biroq, nuqtai nazarlar farqi shu yondashuvlar bilangina cheklanmaydi. Davlatning ichki va tashqi shakllarini farqlovchi mualliflar ham bor. Ichki shakl deganda, demokratiya, tashqi shakl deyilganda esa, siyosiy hokimiyatning aniq tashkiloti tushuniladi (D.A.Kerimov). Ushbu nuqtai nazar nimalarga asoslanganligini quyidagicha izohlash mumkin: modomiki, demokratiya siyosiy tartibning bir ko'rinishi ekan, uni davlatning ichki shakli sifatida tushunish zarur, boshqaruv va davlat tuzilishi shakllari majmui esa, tashqi shaklni tashkil etadi.

Ayrim davlatshunoslar davlatga harakatdagi dinamik va tashkiliy statik tizim sifatida qarashni taklif etadilar. Shu taklifdan kelib chiqqan holda ular dinamik jihatdan siyosiy (davlat) tartibni, statik jihatdan esa, boshqaruv shakli va davlat tuzilish shakllarini davlat shakli deb hisoblaydilar.

Yuqoridagilarning hammasi yuridik adabiyotlarda davlat shakli bo'yicha yagona tushunchaning yo'qligidan dalolat beradi. Ayni paytda, ushbu tushunchaning an'anaviy hisoblangan ta'rif mavjud bo'lib, uni aksariyat olimlar ma'qullashadi, biz ham uni asos qilib olishni tavsiya etamiz.

Shunday qilib, ***davlat shakli deganda, uch tarkibiy qismi (yoki tomoni) - boshqaruv shakli, davlat tuzilishi shakli va siyosiy idora usuli birlikda olingan siyosiy hokimiyat tashkiloti tushuniladi*** (S.A.Komarov).

Ushbu ta'rifga e'tiroz bildirmagan holda, biz, e'tiboringizni ***«siyosiy hokimiyat»*** hamda ***«siyosiy idora usuli»*** degan iboralarga jalb etishni istardik. Bu iboralar bizga tanish mazkur yo'nalishda tez-tez qo'llanadi. Fikrimizcha, bu zaruriy shart emas. Shuning uchun ham ba'zi mualliflar diqqatni chalg'itmaslik uchun bu iboralarni shunday qo'llashadi: ***siyosiy (davlat) hokimiyat, daviat (siyosiy) idora usuii***.

Yana bir jihatni ta'kidlashni istardik. Biz yuqorida davlat shakli uning mazmuni bilan uzviy bog'liqligini aytib o'tgandik. Shu fikrni batafsilroq tushuntiramiz. Mazmun davlat hokimiyatining kimga tegishliligini, uning sub'yektini (egasini) aniqlash imkonini beradi,

shuningdek, uni kim amalga oshiradi, degan savolga javob beradi. Zikr etilganlar asosida, davlat shaklining **uch jihati** mavjudligiga ishonch hosil qiamiz. Bular:

* boshqaruv shakli, ya'ni davlat hokimiyati va boshqaruvni tuzish va tashkil etishning muayyan tartibi;

* davlat tuzilishi shakli, ya'ni davlatning hududiy tuzilishi, markaziy, mintaqaviy va mahalliy hokimiyatlarning o'zaro munosabatlari muayyan tartibi;

* siyosiy (davlat) idora usuli, ya'ni siyosiy (davlat) hokimiyatni amalga oshirish usul va uslublaridir.

Lekin shuni ta'kidlash joizki, bular hozircha davlat shaklini tushunishga umumiy yondashuv, eng ilk tanishuvdir. Uni batafsilroq tushunish uchun davlat shaklini tashkil etuvchi **uchchala jihatni diqqat bilan o'rganish, ularning o'zaro bog'liqligi, o'zaro ta'sirini kuzatish hamda nazariy, siyosiy-huquqiy tafakkur yuz yilliklar davomida davlatni o'rganar ekan, davlat shakiining aynan shunday mazmunini nega alohida ajratib ko'rsatganligini** tushunishga harakat qilish kerak.

Davlat shaklini bunday tushunish dabdurustdan tarkib topmaganligi va hozir ham unga qo'shilmasliklarini qayd etib o'tish joiz deb o'ylaymiz. Uzoq vaqt davomida davlat shakli boshqaruv shakli va davlat tuzilishi shaklidan (biz keltirgan tarkibda dastlabki ikkitasidan) iborat deb hisoblab kelingandi. Keyinchalik unga siyosiy idora usuli qo'shildi. **«Davlat shakli»** va **«siyosiy idora usuli»** o'rtasiga tenglik alomatini qo'yuvchilar ham bo'lgandi. Bunga asos ham bor edi. Biroq, buni keyinroq **«siyosiy (davlat) idora usuli»** tushunchasini batafsil ko'rib chiqish vaqtida yaxshiroq tushunib olamiz. Shunga qaramay, hozirgi kunda davlat hokimiyati tashkiloti uch qism - boshqaruv, davlat (siyosiy) tuzilishi hamda davlat (siyosiy) idora usuli - birligidan tashkil topadi, degan konsepsiya keng tarqalgan.

2-§. Boshqaruv shakli

Avval - boshdanoq, davlatni nazariy jihatdan tushunib yetishda boshqaruv shakli alohida o'rin tutishini ta'kidlashni istardik. Qonuniyat shuni taqozo etadi. Davlatga uyushgan jamiyatda davlat hokimiyatini kim va qanday amalga oshirishini aynan shu shakl

belgilab beradi. Bu masala insoniyatni juda qadimdan to'ldirilgan keladi. Arastuning o'zi, undan keyin Aflotun ham qadimgi dunyoda davlat hokimiyatini tashkil etish va uni boshqarishning xilma-xil shakllarini o'rganar ekanlar, bu davlatlarni kim va qanday boshqarishi, ya'ni boshqaruv shakli mezonini bo'yicha davlatlar tasnifini ishlab chiqishga urinishgan.

To'la asos bilan aytish mumkinki, ko'p asrlar davomida nazariy siyosiy-huquqiy tafakkur ko'plab, ba'zan bir-biriga sira o'xshamaydigan davlatlarni zo'r berib o'rganishni davom ettirib keldi. Olimlar o'z izlanishlarida davlat shakllaridagi eng muhim jihatni ajratib olib, ularni tasvirlab berish, tahlil etish, baholashga va iloji bo'lganda bu shakllarni rivojlantirish istiqbollari oldindan aytib berishga urindilar. Avgustin, Forobiy, Gobbs, Monteske, Lokk, Russo, Radishchev va boshqalarning asarlarida davlat shakllari haqidagi bilimlarni umumlashtirish va tizimlash, ularning vujudga kelish va rivojlanishi-ning tub ildizlariga yetib borishga ko'p urinib ko'rilgan.

Aynan shuning uchun, agar Arastu va Aflotun davrlarida nazariy siyosiy-huquqiy tafakkur boshqaruvning u yoki bu shaklini belgilab beruvchi sabablarni aniqlashga urinib, asosan boshqaruv xilma-xil shakllarini tasvirlash yo'lidan borgan bo'lsalar, XX asrda esa, siyosiy-huquqiy tafakkur marksistik nazariya doirasida boshqaruv shaklini (formatsiyadan kelib chiqqan holda) davlat xili bilan, jamiyatning sinfiy tarkibi, iqtisodiy bazisi kabilar bilan bog'lab tushuntirishga intiladi.

Boshqaruv shaklini (biz yuqorida aytib o'tgan davlat shakli uch qismidan birini) aniqlashda marksistik nazariya davlat hokimiyati u yoki bu tuzilishini tavsiflovchi ijtimoiy-sinfiy belgisini asosiy belgi sifatida ajratib ko'rsatardi. U boshqaruv shaklini mazkur davlatning ijtimoiy-sinfiy mohiyatining, siyosiy mazmunining, sinfiy kuchlar amaldagi nisbatining tashqi ifodasi sifatida ta'riflardir. Bu chizmaga ko'ra respublika sinfiy kuchlarning bir xil nisbatida paydo bo'lsa, monarxiya boshqa nisbatida vujudga keladi.

Albatta, jamiyatning sinfiy tuzilishi, sinfiy manfaatlarining to'qnashuvi, sinfiy kuchlar nisbatini hech kim inkor etmaydi, ular hayotda mavjud bo'lib, davlat tuzilishiga, eng avvalo, hokimiyat tizimi qanday shakllarda tashkil topgani va amal qilishiga, davlatni kim boshqarishiga ta'sir etadi. Biroq, ayni paytda, davlat sinfiy

belgisi ahamiyatini oshirib yuborishga o'rin yo'q. Biz yuqorida bunday yondashuv uslubiy jihatdan noto'g'ri bo'lib, aksariyat hollarda ko'pgina narsalarni tushuntirib bera olmasligiga misollar keltirgandik. Yana bir bor shu masalaga to'xtalamiz. Bunday yondashuvda boshqa bir qancha omillar: tarixiy an'analar, milliy ruhiyat, diniy ong, madaniy muhit, jamiyatni o'ta g'oyaviylashtirish va siyosiyashtirish darajasi, ekologiya va ko'pchilik boshqa omillar masalani o'rganish doirasidan tashqarida qolib ketadi.

Hozirgi vaqtda fanimiz, shu jumladan, davlat va huquq nazariyasi jamiyat rivojining marksistik ta'limoti umumiy inqirozi bilan bog'liq uslubiy inqirozdan asta-sekin xalos bo'lib bormoqda. Bu - davlat tuzilishining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida boshqaruv shaklini yanada chuqurroq va asosliroq tushunish, ushbu shakllarning chuqur o'ylangan tasnifini taqdim etish, ular rivojining real istiqbollari oldindan aytib berish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda boshqaruv shaklining quyidagi ta'rifini taklif etamiz:

Boshqaruv shakli - konkret davlatda davlat hokimiyatini tashkii etish usullarining majmuidir. Agar ushbu ta'rifni yanada aniqroq ifodalaydigan bo'lsak, u oliy hokimiyatni, boz ustiga uning oliy va markaziy organlarini, tarkibi, vakolatini, shu organlarni tashkil etish tartibini, shuningdek, unda oddiy xalq ishtiroki darajasi, bu organlar vakolati muddatlarini ko'zda tutishini aytishimiz kerak bo'ladi. Boshqaruvning qadim-qadimdan insoniyatga ma'lum bo'lgan shakllari **monarxiya** va **respublikadir**. Shu munosabat bilan Arastu o'z vaqtida boshqaruv shakllarini oliy hokimiyat tanho amalga oshiriladigan monarxiyaga, tor doiradagi cheklangan shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan aristokratiyaga, butun xalq hokimiyatni boshqaradigan demokratiyaga bo'lganligini eslash o'rinlidir.

Qadimgi yunon faylasufining shu qadar uzoqni ko'ra bilish qobiliyatiga tan berish kerak! Zero, hozirgacha boshqaruv shakli oliy hokimiyat bir kishi tomonidan amalga oshirilishi (monarxiya) yoki u saylab qo'yiladigan vakolatli kollegial organ (respublika)ga taalluqliligiga qarab bo'linadi.

«Monarxiya» atamasi («monos» - bir, «arxe» - hokimiyat) yunoncha so'z bo'lib, «yakkahokimlik», «yagona hukmdor» ma'nolarini bildiradi. Monarxiya boshqaruv shakli sifatida o'zining

aniq yuridik belgilariga ega. Monarx davlatning jonli timsoli bo'lib, tashqi va ichki siyosat bobida davlat boshlig'i sifatida, xalq vakili, millat «otasi» sifatida, fuqarolarni jipslashtiruvchi, ularni davlat tevaragiga birlashtiruvchi shaxs sifatida maydonga chiqadi. Monarxlar - masalan, Fransiya qirollaridan biri: «Davlat - mening o'zimman», deb bejiz aytmagan. Biroq, bu aksariyat hollarda masalaning faqat yuridik tomonini anglatar, amaldagi ahvolni ifodalay olmasdi.

Monarx tanho hukmronlik qiladi. Albatta, bu davlatning barcha ishlarini uning bir o'zi hal etarkan, degan ma'noni bildirmaydi. Turli davlat organlarida xizmat qiluvchi ko'psonli maslahatchilar, vazirlar, amaldorlar davlat ishlarini boshqarishardi. Ayni paytda, eng muhim, prinsipial davlat ishlari bo'yicha monarxning o'zi hukm chiqarishiga to'g'ri kelardi. U butun hokimiyatning to'la sohibidir. Monarx hokimiyati oliy hokimiyat bo'lib, mustaqildir. U-davlatdagi oliy hokimiyatdir.

Odatda, uning hokimiyati muqaddas deb e'lon qilinar, din og'ushiga o'ralar edi.

Albatta, shularning barchasiga qaramay, monarxning xalqaro, siyosiy va milliy kuchlar ta'sirini his etmasligi mumkin emas. Lekin ba'zan monarx hukmi tasodifiy, sub'yektiv omillarga bog'liq bo'lib qoladigan hollar ham uchraydi (buni ham tushunsa bo'ladi - axir monarx ham odam, insonlarga xos narsalarning hammasi unga ham begona emas).

Monarxiya hokimiyati vorislik asosida bir avloddan ikkinchi avlodga meros bo'lib o'tadi. Hokimiyatning bir shaxsdan ikkinchisiga o'tishiga xalqning hech qanday aloqasi bo'lmaydi. Monarx muddatsiz va umrbod hokimiyat egasidir. Lekin bundan monarxni faqat tabiiy o'limgina hokimiyatidan ajratar ekanda, deb xulosa chiqarish xato bo'lurdi. Monarxlar ag'darib tashlangani, o'ldirilgani, boshqa kishilar bilan almashtirilganiga tarixda misollar ko'p.

Monarx mas'uliyatdan ozod kishi hisoblanadi, ya'ni u o'z boshqaruvi natijalari uchun aniq yuridik va siyosiy javobgar hisoblanmaydi. Darvoqe, tarixda xalq monarxni javobgarlikka tortgan holatlar haqida ko'pdan-ko'p misollar mavjud (inqiloblarni eslaylik).

Monarxiyaning eng gullab-yashnagan davri yangi davr arafasiga to'g'ri kelib, bu vaqtda uning boshqaruvning respublika shaklidan farqlari ko'zga tashlana boshlagan, **mutlaq (cheklanmagan) va cheklangan monarxiya** ko'rinishlari o'rtasidagi

farqlar aniq bilinib qolayotgandi.,

Mutlaq monarxiya shaklidagi boshqaruvning asosiy belgisi - **monarxning to'la hokimiyatini cheklaydigan biron-bir davlat organining yo'qligi**dir - Monarxiyaning yuridik xususiyatlari to'g'risidagi S.A.Komarov nuqtai nazari biz uchun ham matlub bo'lib, ular:

- hokimiyatdan muddatsiz, ya'ni umrbod foydalanish;
- taxtni meros sifatida yoki qarindoshlik huquqi bo'yicha egallash;
- tashqi aloqalarda kafolat (mandat) asosida emas, o'z shaxsiy huquqi bo'yicha vakillikni amalga oshirish;
- davlat boshlig'i javobgarligining yo'qligi (faqat xudo oldida mas'ullik)dir.

Bunday sharoitlarda (zarurat yo'qligi tufayli) tabaqaviy, vakillik muassasalari yo'qolib ketadi yoki to'la tanazzulga yuz tutadi, xalqning siyosiy va ijtimoiy huquqsizligi odatiy holga aylanadi.

Cheklangan monarxiya turli tarixiy davrda turli ko'rinishga ega bo'ladi. Qizig'i shundaki, Arastu **ruhiy asoslar**-dan kelib chiqib, monarxiyalarni «to'g'ri» boshqaruv shakliga ega bo'lgan monarxiya va mabodo monarx barchaning manfaatlari o'rniga o'zining g'arazli, shaxsiy manfaatlarini ko'zlab, boshqarishda zulmni qo'llaydigan bo'lsa - «noto'g'ri» (zolimlik va istibdod) shakliga ega monarxiyalarni ajratib ko'rsatgandi. Hozirgi zamon olimlari **yuridik asoslamigina** hisobga olishadi. Ularga ko'ra, cheklangan monarxiya (feodalizm davrida) tabaqaviy-vakillik hamda konstitutsiyaviy monarxiyaga bo'linadi. Konstitutsiyaviy monarxiya o'z navbatida **dualistik va parlamentlik monarxiya** (kapitalizm davrida) ko'rinishlariga egadir.

Konstitutsiyaviy monarxiya burjuaziya jamiyatining shakllanish davrida paydo bo'lgan. U shunday boshqaruv shaklidan iboratki, bunda monarx hokimiyati vakillik organi tomonidan cheklangan bo'ladi. Bu esa, parlament tasdiqlaydigan konstitutsiyada mustahkamlanadi. Uni o'zgartirishga monarxning haqi yo'q. Shu asosda **dualistik** hokimiyat ikki tarafлама xususiyatga ega bo'lishini tushunib olishimiz mumkin (mazkur so'zning tarjiması ham shundan guvohlik berib turibdi).

Amaldagi mavjud va yuridik hokimiyat monarx shakllantira-

digan hukumat bilan qonunchilik organi sifatida maydonga chiquvchi parlament o'rtasida bo'linadi. Mamlakatni boshqarish monarx ixtiyorida bo'lib, vazirlar unga hisob berib turadilar. Hukumat parlamentning partiyaviy tarkibiga bog'lanmagan holda shakllantiriladi. Boshqaruv dualizmi (ikki taraflamaliligi) shundan iboratki, misol uchun monarx feodallar manfaatlarini, parlament esa, burjuaziya va boshqa tabaqalar manfaatlarini ifodalaydi.

Bunday boshqaruvga Prussiya, Italiya, Ruminiya (o'tmishdagi) davlatlari misol bo'la oladi. Hozirgi vaqtda boshqaruvning bu shakli o'z umrini yashab bo'ldi.

Parlamentlik monarxiya mamlakatlari (hozirgi Angliya, Belgiya, Norvegiya, Shvetsiya)da qirol shohlik vazifasini o'tasada, mamlakatni to'la ma'noda boshqarolmaydi. Hukumat parlament tomonidan saylovlarda ko'p ovoz olgan muayyan partiyalar vakillaridan iborat qilib shakllantiriladi. Eng ko'p deputatlik mandatlariga ega bo'lgan partiya rahbari hukumat boshlig'i bo'ladi. Qonun hujjatlari parlament tomonidan qabul qilinib, rasman monarx imzolaydi. Shunday qilib, qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud sohalorida monarx hokimiyati ramziy ma'noga ega. Lekin yuqorida zikr etilganlardan monarx faqat sof ramziy shaxsga aylanib qoladi, degan ma'no kelib chiqmaydi. Bu sho'ro davriga oid xato bo'lib, u vaqtda monarxiya umri tugab bo'lgan bir narsa sifatida ro'yxatdan chiqarib yuborilgandi. Agar shunday bo'lsa - ming yillab yashab kelgan boshqaruvning bu shakli hozirgacha ba'zilarining e'tiborini tortib kelayotganini qanday izohlash mumkin? Chunonchi, 1975 yili Ispaniya xalqi plebistsit (referendum)da monarxiyani qaror toptirishga ovoz berdi. SSSR barham topishi bilan ko'pchilik respublikalar (Rossiya, Ukraina)da monarxiyaning qayta tiklanishi ehtimoli haqida gaplar bo'ldi. Albatta, buni izohlashning qiyin joyi yo'q. Mashaqqatli damlarda, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotda hukm surayotgan beqarorlik sharoitlarida aksariyat odamlar hokimiyat tepasiga monarxning - «millat otasi»ning, «millatlar yakdilligi ramzi»ning kelishiga umid bog'lay boshlaydilar. Biroq, bunda faylasuf I.A.Ilinning haqqoniy ta'kidiga ko'ra, monarxiya diniy ildizlarga asoslangan boshqaruvning «jonli» shakli bo'ladi, shuning uchun ham maxsus ijtimoiy-ruhiy muhitni taqozo etadi. Uni dekret bilan joriy etish, yana ham muhimrog'i tasodifiy bir shaxsni monarx deb e'lon qilish

mumkin emas.

Respublika (lotincha **Respublica** - xalq ishi) - **davlat hokimiyati ahoii muayyan muddatga saylab qo'yadigan organlar tomonidan amalga oshiriladigan boshqaruv shakli**dir. Respublika ham monarxiya singari muayyan tarixiy xususiyatga ega. Boshqaruv respublika shakiining bir qancha turlari mavjudligi tarixdan ma'lum. Ular quldorlik sharoitlaridayoq namoyon bo'la boshlagan edi.

Demokratik respublika Afina davlatida (eramizgacha V-IV asrlar) mavjud bo'lgan. Buni jamiyatning ijtimoiy tarkibi, quldorlikning shu yerga xos xususiyati, ya'ni ozod afinaliklarni qulga aylantirishning istisno etilganligi, quldor jamoalar bo'lganligi, davlat boshqaruvining samarali tizimi mavjudligi bilan izohlash mumkin edi.

Sparta (eramizgacha V-IV asrlar) va Rim davlati (eramizgacha V-II asrlar) aristokratik respublikalar hisoblanadi. Davlat sifatida ular ko'proq aholining aristokratik qismi manfaatlarini ifodalardi.

Kapitalizm davri **parlamentar (parlament) respublikasi hamda prezidentlik respublikalarni** vujudga keltirdi.

Parlamentar respubiikalarning boshqalardan farq qiluvchi xususiyati hokimiyat pog'onalarida kelishmovchiliklarning bo'lmasligidir. Zero, ijroiya hokimiyati boshlig'i (bosh vazir) va uning mahkamasi parlament, to'g'rirog'i, parlament a'zolarining ko'pchiligi tomonidan tayinlanadi va nazorat qilinadi. Hukumat qonun chiqaruvchilar ko'pchiligi qo'llab-quvvatlab turgan muddatlardagina o'z vazifalarini bajara oladi. Bunday ko'pchilikdan mahrum bo'lganda esa, mazkur hukumat iste'foga chiqishga majbur bo'ladi. Odatda, parlament respublikalarida prezident katta rol o'ynamaydi: ijroiya hokimiyati go'yo qonun chiqaruvchi hokimiyatning davomi sifatida ish olib borishi tufayli hokimiyat tarmoqlari o'rtasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan ixtiloflarning oldi olinadi.

Biroq, parlament respublikasi ham kamchiliklardan xoli emas. Partiya tizimining o'ta mayda bo'laklarga bo'linib ketganligi shunday kamchiliklardan biridir. Mazkur hoi parlament koalitsiyalarining ham maydalashuviga, bu esa, o'z navbatida hukumatning beqarorligiga olib keladi. Muayyan sharoitlarda, hatto ozchilikni tashkil etuvchi ekstremistik partiyalar ham, parlament ko'pchiligi koalitsiyasining bir qismi bo'lib qolishi mumkin. Bu esa, mamlakatga ijroiya va qonun

chiqaruvchi hokimiyatlar o'rtasidagi ziddiyatlardan kam bo'lmagan jiddiy salbiy oqibatlar keltirishi mumkin.

Boz ustiga, parlament respublikasida shu parlament oddiy ko'pchiligi kuchi bilan mustabidlikni yaratish ehtimoli istisno etilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, boshqaruv parlament shaklining samaradorligi va barqarorligi parlamentdagi o'rinlar uchun kurash olib boruvchi siyosiy partiyalar tabiatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Prezidentlik respublikasi boshqaruv shakli sifatida birinchi navbatda saylab qo'yilgan davlat boshlig'i bir vaqtning o'zida hukumat rahbari ham bo'lishi bilan farq qiladi. Prezidentning o'zi parlament roziligi bilan shu hukumatni tuzadi va zarurat tug'ilganda uni tarqatib yuborish huquqiga ega bo'ladi. Butun xalq tomonidan saylangan prezident umummilliy manfaatlar ifodachisi, millat ramzi bo'lishi (har qalay shunday bo'lishi kerak ham) boshqaruv prezidentlik shaklining ijobiy tomonidir. Mazkur shakl butun vakolatni bir shaxsga beradi va u favqulodda holatlarda mas'uliyat va rahbarlikni o'z qo'lga oladi. Boshqaruvning prezidentlik shakli, odatda, parlament shakliga nisbatan yuqoriroq darajadagi siyosiy barqarorlikni ta'minlaydi. Zero, prezident konstitutsiyada belgilab qo'yilgan qat'iy muddatga saylanadi.

Prezidentlik boshqaruv shaklining zaif joylari ham mavjud. Boshqaruvning parlament shaklidan farqli o'laroq, u hokimiyatning ijroiya va qonun chiqaruvchi tarmoqlari o'rtasidagi ziddiyat va mojarolarni, shuningdek, konstitutsiyaviy inqiroz ehtimolini istisno etmaydi. Bunday vaziyat, chunonchi, prezident bilan parlament ko'pchiligi boshqa-boshqa partiyalar, siyosiy oqimlarga mansub bo'lgan vaqtlarda yuzaga kelishi mumkin.

Shunday qilib, boshqaruvning parlament va prezidentlik shakllaridan birini tanlash yagona, ammo beqaror rahbariyat (parlament boshqaruvi) bilan barqaror, lekin ikki hokimiyat o'rtasidagi ixtiloflarni istisno etmaydigan rahbariyatdan birini tanlash degan ma'noni anglatadi.

Bundan tashqari, prezidentni saylashning eng matlub uslubi o'zi bormikan? Ularning har biri o'zining kuchli va zaif tomonlariga ega. Shu munosabat bilan prezidentlik saylovlarining ahamiyati oshib boradi. To'g'ridan-to'g'ri saylovlar eng sodda va demokratik saylovlardir. Bundan tashqari, prezidentlik hokimiyati qonunchilik

hokimiyatiga juda katta qaram bo'lib qolishi ham mumkin (masalan, favqulodda holat sharoitlarida prezidentni ikkinchi muddatga qayta saylash tartibini olib ko'ring).

Davlat boshqaruv tizimi qotib qolgan emas, balki tarixiy taraqqiyot jarayonida muqarrar ravishda o'zgarib, yangilanib turadi.

Dunyodagi davlatlar boshqaruv shakllari ko'p ming yillik tarixga ega bo'lib, jamiyat taraqqiyoti asosida takomillashib, mazmun jihatidan mukammallashib borgan. Buni O'zbekiston davlat boshqaruvi misolida ko'rish mumkin. Konstitutsiyamizga muvofiq O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatini tashkii etishning asosiy tamoyillaridan biri - xalq hokimiyatchiligidir. Respublikada xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. Xalq davlatni boshqaruvni bevosita yoki saylab qo'yilgan o'z vakillari orqali amalga oshiradi.

Mustaqillik tufali O'zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimi shakllantirila boshlandi. «Prezidentlik boshqaruv usuli - shu tizimning o'zagidir»³.

Davlat boshqaruvining prezidentlik shakli O'zbekistonda tasodifiy ravishda yuzaga kelmadi. Davlat boshqaruvining bu zamonaviy va samarali shaklini yuzaga keltirishda xalqimizning davlatchilik sohalaridagi ko'p ming yillik tarixiy tajribalari, diyorimizning muayyan shart-sharoitlari, xalqning an'analari va mentaliteti, o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, hozirgi zamon ilg'or davlatlarining tajriba va yutuqlari zaruriy ravishda nazarda tutilgan.

Jahon tarixiy tajribasi prezidentlik usuli davlat boshqaruvining eng maqbul, xalq manfaatlari - ehtiyojlariga javob beradigan qulay tizimlaridan ekanligini ko'rsatib turibdi. «1995 yilga ma'lumotga ko'ra, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo 186 davlatdan 140 tasida Prezident lavozimi mavjud bo'lib, ularning aksariyati prezidentlik respublikasidir. Bular AQSh, Fransiya, Argentina, Braziliya, Meksika, Rossiya Federatsiyasi, Gonduras, Gambiya, Urugvay va boshqalardir»⁴.

O'zbekistonda joriy etilgan davlat boshqaruvi prezidentlik usulining mazmun-mohiyati, asosiy tamoyillari, o'ziga xos xususiyatlari, Prezidentning huquqiy maqomi, vakolatlari Respublika Konstitutsiyasi - Asosiy Qonunda, Oliy Kengashning sakkizinchi sessiyasida 1991

³ I.A.Karimov. «O'zbekiston»: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura», 1-tom. T., «O'zbekiston», 1996, 37-bet.

⁴ Mustaqillik. Izhili ilmiy-ommabop lug'at. T., «Sharq» nashriyot-matbaa konsemi Bosh tahririyati, 1998, 41-bet.

yil 18 noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonunda bayon etilgan.

-Asosiy Qonunning 90-moddasida belgilab qo'yilishicha, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan besh yil muddatga saylanadi. Prezidentni saylash tartibi O'zbekiston Respublikasining qonuni bilan belgilanadi».

Xalqimizning sodiq o'g'loni, fidoyi farzandi, taniqli davlat, siyosat va jamoat arbobi Islom Abdug'aniyevich Karimov 1990 yil 24 martda Respublika Oliy Kengashida O'zbekiston Prezidenti etib saylandi. 1991 yil 31 avgustda Islom Karimov tomonidan O'zbekiston davlat mustaqilligi e'lon qilindi.

O'zbekiston davlat mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab Islom Karimov mamlakatda huquqiy demokratik davlat qurish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish, davlatimiz va jamiyatimizning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, huquqiy asoslarini mustahkamlash, kelajakda O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishini ta'minlash bo'yicha qat'iy va izchil siyosat yur-gizib kelmoqda.

Islom Karimov 1991 yil 29 dekabrda muqobillik asosida o'tgan umumxalq saylovida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi. Saylovchilarning 86 foizidan ko'prog'i Islom Karimov uchun ovoz berdilar. 1995 yilning mart oyida o'tkazilgan umumxalq referendumida esa Islom Karimovning prezidentlik vakolatlari 2000 yilgacha uzaytirildi.

Konstitutsiyaning XIX bobida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuksak vakolatlari to'la ifodalangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasida belgilab qo'yilganidek, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat

boshlig'idir. Prezident ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi.

Konstitutsiyaning 93-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va Qonunlarga rioya etilishining kafilidir. O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar ko'radi. Mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda Uzbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi. Muzokaralar olib boradi.

Prezident ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi; respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi; O'zbekiston Respublikasi vazirliklarini, davlat qo'mitalarini hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir Farmonlarni Oliy Majlis tasdig'iga kiritadi.

Oliy Majlisga Konstitutsiyaviy sud raisi va a'zolari, Oliy sud raisi va a'zolari, Oliy xo'jalik sudi raisi va a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi. Viloyatlar, tuman, shahar va xo'jalik sudlarining sudyalarini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi. Favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi.

Prezident respublika Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi. Qurolli Kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlarni beradi. Amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qiladi va O'zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan fuqarolarni afv etadi. Milliy xavfsizlik va davlat nazorati xizmatlarini tuzadi, ularning rahbarlarini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi hamda o'z vakolatlariga kiradigan boshqa masalalarni hal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 95-moddasiga ko'ra Prezident davlat boshlig'i sifatida zarurat tug'ilgan chog'da, Konstitutsiyaviy sud bilan bamaslahat, Oliy Majlisni tarqatib yuborishi va uch oy mobaynida yangi parlament saylovlarini

belgilashi mumkin.

Prezident zarur bo'lganda, 93-moddaga muvofiq respublika boshqaruv organlarining, shuningdek, hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini to'xtatadi va bekor qiladi.

Prezident o'z vakolatlarini bajarishda boshqa hokimiyat tarmoqlaridan mustaqildir.

Shunday qilib, O'zbekistonda Prezident Islom Karimov rahbarligida kuchli hokimiyat - davlat boshqaruvi qaror topdi.

Respublika fuqarolari davlat mustaqilligidan keyin o'tgan qisqa vaqt ichida O'zbekistonda erishilgan ulkan tarixiy yutuqlarni, iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat, huquqiy ta'lim-tarbiya bobida qo'lga kiritilgan ijobiy natijalarni, jahon hamjamiyatida uning obro'-e'tiborining ortib borayotganini haqqoniy ravishda Prezident Islom Karimovning ilmiy-amaliy faoliyati bilan bog'laydilar.

O'zbekiston davlati Prezident Islom Karimov rahnamoligida olis kelajakni ko'zlab, buyuk davlatlar safida bo'lish niyati bilan rivojlanib bormoqda. «O'zbekiston xalqi kelajakka ishonch bilan qaraydi. U eng avvalo o'z kuchlariga, o'zining boy tabiiy, iqtisodiy resurslariga ishonadi, sihat-salomatlik, baxt-saodat, boylik va madaniyatga o'z yo'li bilan keladi. Ulug' kelajak - oldinda. Va u bizning - O'zbekiston fuqarolarining baxt-saodati yo'lida olib borayotgan mushtarak ishimizga kuch-quvvat, g'ayrat baxsh etadi»⁵.

Sotsialistik respublika. Boshqarishning bu maxsus shakli bir qator mamlakatlarda sotsialistik inqilob natijasida vujudga kelgan. Marksizm nazariyotchilari fikriga ko'ra, u ishchilar sinfi boshchiligida to'la-to'kis xalq hokimiyatini ta'minlaydigan chinakam demokratik respublika bo'lishi kerak edi. Sotsialistik respublikaning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- hokimiyat oliy va mahalliy organlarining demokratik markazlashuv (tsentralizm) tamoyillari asosida yagona vakillik tizimiga qo'shilib ketishi;

- davlat hokimiyati asosini tashkil etuvchi vakillik organlarining yetakchi mavqei;

- mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy jarayonlariga yagona rahbarlikni amalga oshirish. Bu moddiy va

⁵ I.A.Karimov. «O'zbekiston": milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura». 1-tom. T., ««O'zbekiston"», 1996, 85-bet.

ma'naviy boyliklarni taqsimlash ishini nazorat qilish va muvofiqlashtirib borish imkonini beradi;

- ishchilar sinfi va uning partiyasining ijtimoiy va davlat hayotidagi rahbarlik roli;

- hokimiyatning tarmoqlarga bo'linish zaruratini inkor etish.

Odatda, boshqaruv sotsialistik shakiining uch ko'rinishi: Parij Kommunasi, Sovet respublikasi va xalq-demokratik (xalq) respublikasi qayd etiladi. Ular asosida esa prolyetariat diktaturasi tamoyili yotadi.

Ba'zan boshqaruvning aralash shakllari, jumladan, parlament-prezidentlik shakllari uchrashi mumkin. Ular biz keltirgan tasnifga tushmaydi va parlamentlik hamda prezidentlik hokimiyatlarining o'ziga xos sintezi, birikmasidan iborat bo'ladi (masalan, Fransiya).

Yana bir jihatga e'tiboringizni jalb etishni istardik: har qanday boshqaruv shakiini birdek baholash mumkin emas. Albatta, respublikalar, umuman olganda, monarxiyaga qaraganda boshqaruvning ilg'or shaklidir. Ayni paytda shunday vaziyatlar ham vujudga kelishi mumkin, unda monarxiya u yoki bu jamiyatni barqarorlashtirishi mumkin bo'ladi. O'z navbatida, boshqaruvning respublika shakli monarxiya sulolalarini o'rnatishga debocha bo'lishi ham mumkin. Chunonchi, respublika shaklidagi davlatlarda totalitar tuzum sharoitlarida boshqaruvning monarxiya shakli belgilari namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, davlat boshlig'i (Indoneziyada Sukarno, Yugoslaviyada I.B.Tito)ning o'zgarmay qolishi hollarini eslang. Bu ham yetmaganday, Markaziy Afrika Respublikasining bir umrlik prezidenti Bokassa imperator ham bo'lib oldi.

3-§. Sunniy va shi'a davlat-huquqiy ta'limoti xususiyatlari: boshqaruvning xalifalik va imomlik shakllari

Musulmon davlati - xalifalik VII asrda vujudga kelgan. Bu quldorlik jamiyati halokatga yuz tutib, g'arbiy Arabistonda uning xarobalari o'rnida feodal jamiyat qaddini tiklayotgan o'tish davri edi. Xalifalikning paydo bo'lishi islom va dindorlar musulmon jamoasi-ning taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib, uning doirasida o'zaro munosabatlar islom huquqi bilan muvofiqlashtirib borilgan. Shu tariqa, aynan VII-X asrlardagi islom huquqi fani doirasida musulmon davlati

nazariyasi vujudga kelgan, deyish mumkin.

Biz yuqorida mumtoz musulmon huquqi Qur'on va Sunnadan hokimiyat munosabatlarini tartibga soluvchi qoidalarni juda kam olganligini ta'kidlab o'tgandik. Boz ustiga ular «davlat» atamasini umuman qo'llamaydilar. Faqat «imomat» (so'zma-so'z tarjimasini «ibodat chog'ida rahbarlik qilish») va xalifalik (vorislik) tushunchalari mavjud bo'lib, ular keyinchalik musulmon davlatlarini ifodalash uchun ishlatila boshlangan.

Musulmon davlatini tashkil yetish va uning yashash tamoyillarini ishlab chiqish zarurati tugilgan paytlarda islom fiqhshunos olimlari katta qiyinchiliklarga duch kelishgan. Biroq, bu tamoyillar oz bo'lsa-da, Qur'on va Sunnada mavjud xalifalikka oid qoidalarni keng ma'noda talqin qilish asosida hamda Muhammad (S.A.V.) va uning to'rt vorislari - «chor yor»lar tomonidan oliy hokimiyatni boshqarish amaliyoti to'g'risidagi ma'lumotlarni qo'shish asosida ishlab chiqildi.

Xalifalik musulmon siyosiy nazariyasining hal qiluvchi muhim kategoriyasi bo'lib, u ikki nuqtai nazardan - yo musulmon hokimiyatining mohiyati sifatida yoki boshqaruvning maxsus shakli sifatida talqin etilardi. Islom ta'limotida xalifalikka berilgan barcha ta'riflar asosida yirik fiqhshunoslardan biri - al-Mavardi (974-1058 yillar) qarashlari yotadi. U davlatga dinni himoya qilish va dunyoviy ishlarga rahbarlikda payg'ambar faoliyati vorisligi sifatida qarardi. Mazkur tushuncha asosida ***xalifalik vazifasi oliy dunyoviy (siyosiy) hokimiyatni amalga oshirish va musulmon jamoasi darajasida dinni qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'lgan tashkilotdir***, degan xulosa qilingan.

Islom huquqshunoslik ta'limotida xalifalikning kelib chiqishi, uning vazifalari haqidagi masala eng muhim hisoblanardi. Islom fiqhshunoslarining ko'pchiligi, xalifalik hokimiyatining qaror topishi musulmon jamoasi zimmasiga yuklangan muqarrar majburiyat deb hisoblaydi. Bu dindorlar musulmon huquqi qoidalarini qanday bajarayotganlari hamda davlat va jamoat ishlarida tartibni ta'minlash ustidan xalifa nazoratining zarurligi bilan izohlanardi. Zero, ular, hatto adolatsizlikka yo'l qo'ygan taqdirda ham, har qanday hokimiyat hokimiyatsizlikdan, beboshlikdan, ya'ni anarxiyadan afzal degan fikrga amal qilardilar.

Shi'a siyosiy tafakkuri namoyandalari kuchli hokimiyat

tamoyilini yanada izchillik bilan yoqlab chiqqandilar. Ular imomat (xalifalikni ular shunday atashadi) Muhammad (S.A.V.) payg'ambarlik missiyasining davomi va nihoyasi deb hisoblashardi. Modomiki shunday ekan, deyishadi ular, imomatni o'rnatish Ollahning haq-huquqidir, uning karami va donoligining oliy namunasi, dinning ilk arkonlaridan biridir.

Islom fiqhshunoslik fani xalifalikda oliy hokimiyat kimga tegishli bo'lishi kerakligi masalasini juda boshqacha hal etadi. ***Sunniy ta'limotga asosan siyosiy mustaqillikning bosh sohibi Ollohdir. Uning nomidan yerda hokimiyatni xalifa amalga oshiradi. Jamoaning maxsus haq-huquqlari o'z hukmdorini saylash va uning faoliyatini nazorat qiiishdan iborat bo'ladi.***

Bunday yondashuvdan farqli o'laroq, ***shi'a siyosiy ta'limoti mustaqillik belstisno Ollahning o'zigagina xos bo'lib, uning nomidan musulmonlarning barcha ishlariga yakka imomning o'zi rahbarlik qiladi, deb da'vo qiladi. Imom esa faqat shariatga bo'ysunadi, hech kimga, shu jumladan, jamoatga ham hisob bermaydi, deb hisobianadi.***

Qizig'i shundaki, xalifalik boshqaruvi to'g'risidagi ta'limot Qur'onning atigi ikki (boshqasi yo'q ham) qoidasi asosida ishlab chiqilgan. U, avvalo, xalifadan maslahat bilan ish ko'rish va umumiy fikrni inobatga olib hukm chiqarishni talab qilar, ikkinchidan, jamoat zimmasiga hukmdorga bo'ysunish vazifasini yuklardi.

Islomiy fiqh ta'limotining yana bir o'ziga xos xususiyatini - unda musulmon davlati boshlig'i lavozimini egallash tartibi to'g'risida ko'rsatma yo'qligini ta'kidlash lozim.

Sunniy ta'limotga ko'ra, xalifani mujohidlar deb atalgan musulmon fiqhshunosligining eng yirik bilimdonlari saylashlari kerak. Ular Qur'on va Sunnada tilga olinmagan huquqiy masalalarni mustaqil hal qilish huquqiga ega bo'lishgan.

Shi'a ta'limoti bo'yicha imom jamoat tomonidan saylanmay, u Ollahning bevosita vakili hisoblanadi.

Sunniylar ta'limoti davlat boshlig'ining o'z xatti-harakatlarida musulmon huquqiy qoidalariga og'ishmay amal qilish, raiyat manfaatlari va «umum foydasi»ni hisobga olish, shuningdek, muhim qarorlar qabul qilish chog'ida «maslahat bilan ish ko'rish»ni xalifalikning muhim xislatlari deb e'lon qiladi. Sunniy fiqh ta'limoti ayniqsa

davlat boshlig'ining hokimiyati mutlaq hokimiyat emasligiga alohida urg'u beradi. Binobarin, u oliy hokimiyatni amalga oshirishiga qaramay, uning vakolatlari ilohiy kuchga ega emas. Xalifa qonun chiqaruvchi hokimiyatdan foydalana olmaydi hamda uning o'zi ham mujohid bo'lgandagina yangi huquqiy qoidalarni joriy etishi mumkin.

Shi'alarining bu boradagi nazariy qarashlari, sunniylar ta'limotidan jiddiy farq qiladi. Shi'a ta'limotiga ko'ra, imom mutlaq hokimiyatga ega va bu hokimiyat qariyb ilohiy qudrat kasb etadi. Bu holat uni jamoatdan ancha yuqori qo'yishga olib keladi. Qur'on va Sunnada tilga olinmagan masalalar bo'yicha faqat imomning hukmi qonun kuchiga ega bo'ladi. Xalifalikka islomiy yondashuv, shuningdek davlat mohiyatini va uning faoliyat yuritishining ayrim jihatlarini o'rganish, «musulmon huquqi ustuvorligi» qoidasidan kelib chiqqan holda uning siyosati maqsadlarini belgilashni ham o'z ichiga oladi.

Mazkur yondashuvning mohiyati **musulmon davlatini islom yaratgan**, degan g'oyadan iborat. Hokimiyat mazmunini musulmon fiqhshunoslari ikki maqsadni amalga oshirishda ko'rganlar. Ulardan biri yer yuzida Olloh irodasini bajarish bo'lsa, ikkinchisi buning uchun payg'ambar (S.A.V.) va uning ilk safdoshlari oliy diniy va dunyoviy vazifalarni amalga oshirishdagi boshlang'ich faoliyat yo'riqlariga o'xshash boshqaruv tizimini yaratishdan iborat⁶.

Davlat haqidagi islom ta'limotining ayrim qoidalaridagi mavjud qarama-qarshiliklarga e'tiborni qaratish lozim. Jumladan, ayrim ilg'or jihatlar (davlat faoliyatining ekspluatatsiyani birmuncha cheklashga va muhtojlarga yordam berishga yo'naltirilganligi) undagi elita hokimiyatini mustahkamlash hamda musulmonlarni davlat ishlari ni hal etishda qatnashishdan chetlashtirish bilan qo'shilib ketadi.

Bizga ma'lumki, islom ta'limotiga ko'ra jamoat xalifani nazorat qilishi mumkin bo'lganiga qaramay, amalda bu huquq xalifa qilayotgan ishlarga indamay rozi bo'lishdan iborat bo'lib qoladi. Faqat mujohidlar (ko'pincha rasman) hukmdorni tanqid qilishga haqli edilar. Oddiy musulmonlar haqida gapirib o'tirishning hojati ham yo'q. Boz ustiga hokimiyatni tashkil yetishning aniq shakiini tanlash xalifaning hamda o'ziga xos «maslahat kengashi»ni tashkil etgan

⁶ Саидов А.Х. Основы мусульманского права. Т., O'zR IIV Akademiyasi, 1994. 54-bet.

mujohidlarning ishi hisoblanardi. Fikri jamoat fikriga tenglashtirilgan ana shu kengash orqali davlat boshlig'ining faoliyati nazorat qilinadi hamda istibdod va zo'rvonlikning oldi olinadi, deb hisoblanardi.

Shunga qaramay, A.X.Saidovning fikricha, «tahlil etilayotgan nazariya umuman olganda **demokratik xarakterga ega**». Biroq, u «mohiyatan boshqaruvning ilohiylashtirilgan shaklini va o'z xatti-harakatlari uchun mutlaqo javob bermaydigan imomning cheksiz hukmronligini himoya qiluvchi shi'alar nazariyasining konservativ ko'rinishi»ni ham qayd etadi. Bunday fikrga qo'shilish qiyin. Zero, muallif o'zi fikrini davom ettirarkan, ushbu nazariyaning demokratik tamoyillari amalda ro'yobga chiqmay qolib ketdi, deya tan oladi. U yana shunday davom etadi: «Musulmon tadqiqotchilarining o'zlari e'tirof etishlaricha, payg'ambar (S.A.V.) va uning dastlabki to'rt xalifasi davlatigina musulmon ideali - «maslahat» boshqaruviga rasman, shunda ham qisman mos kelgan. Ulardan keyin hukmdor hokimiyati o'z shakliga ko'ra amalda avloddan-avlodga meros bo'lib o'tuvchi monarxiyaga aylandi. Uning «chinakam» musulmon boshqaruviga hech qanday aloqasi yo'q edi»⁷.

Huquqiy nazariya qoidalarida ularni amalga oshirish omillari ko'rsatib berilmagan bo'lsa, bunday nazariyaning demokratik mohiyati haqida gapirish mumkinmi? Bizning-cha, gapirib bo'lmaydi.

Albatta, musulmoncha boshqaruv ta'limoti islom olamiga kiruvchi mamlakatlarning hozirgi davlat-huquqiy rivojiga o'tkazayotgan ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Jumladan, boshqaruvning monarxiya shaklidagi bir qator mamlakatlarda hokimiyat meros sifatida emas, balki eng obro'li din arboblari va hukmron sulola vakillari tomonidan saylanish natijasida qo'lga olinadi.

Ma'lumki, musulmon davlatchiligi dunyoga kelgan kundan boshlab bir-biriga chambarchas bog'liq ikki qoida ustuvorligi uning asosini tashkil etgan: maslahatlashuv (sho'ro) - ya'ni hukmdorlarning qarorlarni jamoa bo'lib qabul qilishi hamda shariat qonunlarining mustaqilligidir. Buning ustiga o'rta asr arab-musulmon davlatlari tuzilmalarida maslahatlashuv tamoyili aniq yuridik tasdiq'ini topmadi. Demak, musulmon hukmdorlari uchun ular majburiy tus ololmadi. Shariat qoidalariga yoki «ilohiy qonunlar»ga rioya etilishiga kelsak, bu hamisha har qanday davlat hokimiyati qonuniy-

⁷ Saidov A.X. Основы мусульманского права. Т., O'ZR IIV Akademiyasi, 1994. 96-bet.

ligining zarur sharti bo'lib kelgan. Shuningdek, musulmon olami davlat-siyosiy rivojining barcha bosqichlarida «taqvodor islom», uning Qur'on va Sunnaga asoslangan mumtoz davlat-huquqiy ta'limoti bilan ularning amalda qo'llanishi o'rtasida ma'lum uzilish bo'lganligini qayd etish lozim. Bunday holatning bosh sababi, aftidan shundaki, «islom, baribir, ozmi-ko'pmi davlatchilikning yaxlit nazariyasini yarata olmadi. Qur'on va Sunnada shu masalalarning barchasi bo'yicha faqat eng umumiy qoidalargina bayon etilgan. Ulardan amalda jamiyat rivojining u yoki bu davriga taalluqli o'zgarib boruvchi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga bog'liq holda turlicha foydalanish mumkin»⁸.

Islom dini, uning Qur'oni Karim va Hadisi Sharif nomli muqaddas kitoblari musulmon davlati va huquqi uchun asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Jahon madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan islom madaniyatida, xususan islom dinida umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan g'oyalar, ta'limotlar, insonni to'g'ri yo'lga boshlaydigan yo'l-yo'riqlar behisob darajada ko'p. Islom dini hech qachon yomon yo'lga boshlamaydi. Aksincha, barcha illatlardan, yolg'on va riyokorlikdan poklanishga, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilat sohibi bo'lishga, birovlarining mol-mulki va joniga qasd qilmaslikka, qon to'kmaslik, jonini bejon qilmaslikka da'vat etadi.

Islom bu dunyoning o'tkinchi ekanini, oxiratni eslatib turadi, odam bolasini harom yo'llardan uzoq yurishga, yaxshi bo'lishga, o'zaro bir-birini hurmat qilishga, o'zidan yaxshi iz qoldirishga, savob ishlarni, ezguliklarni ko'proq qilishga har doim undab turadi. Savobli ishlarni qilgan odamga, uning elu yurtiga, albatta, Olohning rahmatlari yog'iladi, yaxshilikning mukofoti faqat yaxshilikdir, deb ta'lim beradi.

Islom dini millat ajratishni, milliy adovat va nizolarni, mahalliychilikni, birovlarni «sen - musulmon», boshqalarni esa «sen - kofir» deb ajratishni, xurofotni-bid'atni, jaholatni keskin qoralaydi. Olohning bandasi bo'lgan Insonni oliy qadriyat sifatida e'zozlaydi. Shuning uchun ham dunyodagi ko'pchilik mamlakatlar va xalqlar singari mustaqil O'zbekistonda ham islom dini umumbashariy qadriyat sifatida e'zozlanib, hurmat qilinib kelinmoqda, uning

⁸ O'sha yerda, 56-bet.

zamonaviy g'oyalari va ta'limotlaridan odamlarning ruhiy dunyosini, imyon-e'tiqodini, insoniy fazilatlarini mustahkamlashda, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatda, ta'lim-tarbiya tizimida, huquqiy tarbiya ijodiy foydalanilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «Olloh qalbimizda, yuragimizda» nomli kitoblarida biz o'z millatimizni islom dinidan ayri holda aslo tasavvur qila olmasligimiz, diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar hayotimizga chuqur singib ketganligi zikr etilgan. **«Islom dini, - deydi bu haqda yurtboshimiz, - bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham imyon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig'indisi emas. Ana shu ma'rifatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar va yaxshi o'g'itlarga amal qiladi. Mehr-oqibatli, nomusii, oriyatli bo'lishga, izzat-ehtiromlar tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar»⁹.**

Prezident tomonidan ta'kidlanganidek, biz dindan siyosiy maqsadlar va yovuz niyatlar yo'lida, o'rta asrlarda mavjud bo'lgan musulmon xalifaligini tiklash yo'lida foydalanishlarga mutlaqo qarshimiz. **«Biz bundan buyon ham aholini eng oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilish tarafdorimiz.** Lekin biz hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'ymaymiz. Chunki bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz»¹⁰.

Islom Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida XX asr oxirida jahon hamjamiyati hayotida islom qadriyatlarini tiklash bayrog'i ostida ro'y berayotgan xatarli hodisalar, g'oyat xilma-xil, ko'p qirrali urinishlar, harakatlar, vahhobiychilik nomi ostidagi diniy ekstremizm va fundamentalizm singari xavf-xatarlar, mafkuraviy tahdidlar haqida batafsil to'xtalgan.

Hozirgi paytda bizdan uzoq masofalarda joylashgan ayrim

⁹ I.A.Karimov. *Vatan sajdagohi kabi muqaddasdir*. 3-tom. T., «O'zbekiston», 1996, 40-bet.

¹⁰ I.A.Karimov. «O'zbekiston» XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va kafolatlari. T. «O'zbekiston», 1997, 44-bet.

islom davlatlarida o'рта asrlarda mavjud bo'lgan musulmon xalifaligini tiklashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan muayyan tashkilotlar mavjud. Ular bundan o'n to'rt asr burungi voqelikni tiklash niyatida katta mablag' va mafkuraviy ta'sir vositalaridan foydalanishga harakat qilmoqdalar. Ularning asosiy maqsadi islom dini niqobi ostida hukmronlik qilish, hokimiyatni qo'lga kiritishdir. Diniy ekstremistlar va fundamentalistlar fikricha, musulmonlar yashaydigan mamlakatlar o'rtasida hech qanday ma'muriy chegaralar bo'lmasligi, bu davlatlarning barchasi yagona xalifalik markazi tomonidan boshqarilishi kerak, emish.

Bu - tarixiy haqiqatga, zamon talabiga, dunyodagi xalqlar, millatlar talab va ehtiyojlariga batamom ziddir. Bu - tarix g'ildiragini orqaga qaytarishga urinishdir. O'tgan vaqtni orqaga qaytarib bo'lmaydi. Insoniyat tarixning ob'yektiv qonuniyatlariga asosan o'tmishdan kelajakka tomon to'xtovsiz ravishda ilgarilab, yuksalib boraveradi.

Islom Karimov o'рта asrlarda mavjud bo'lgan musulmon xalifaligini tiklashga urinuvchilar orasida «Hizbi tahriri islomiya» tashkiloti ayniqsa faolligi bilan ajralib turganligini ko'rsatib, shunday deydi: «Uning vakillari bizning mamlakatimiz hududida ham yashirincha, pinhona ish olib borishga urinishmoqda. Ular asosan hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz yoshlarimizni o'z tuzog'iga ilintirishga, turli yo'llar bilan ularning miyasini zaharlab, o'z xalqi, o'z yurtiga qarshi g'animga aylantirishga jon-jahdi bilan, hech qanday mablag'larini ayamadan harakat qilmoqdalar. Tabiiyki, biz bunday yovuz intilishlarga aslo yo'l qo'ya olmaymiz va qo'ymaymiz ham»¹¹.

4-5. Davlat tuzilishi shakllarining xilma-xilligi

Ma'lumki, har qanday davlat muayyan hududda joylashgan. Uning fuqarolari ham xuddi shu hududda istiqomat qilishadi. O'zining ijtimoiy funksiyalarini bajarish - fuqarolarning iqtisodiy turmushi va himoyasini tashkii etish, sug'urta zahiralari yaratish va hokozalar uchun davlat turli xil faoliyatni amalga oshiradi. Ammo aholining soni ancha ko'p, hududiy o'lchami katta bo'lgan sharoitlarda bir markazdan turib bu faoliyatni amalga oshirish - qariyb uddalab bo'lmaydigan vazifadir.

¹¹ I.A.Karimov. O'z kelejagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz.T., «O'zbekiston», 1999, 13-bet.

Fuqarolar soni va hudud ko'lamini muayyan chegaraga yetganda mamlakat hududini okruglar, viloyatlar, o'lkalar, shtatlar, kantonlar, guberniyalar, tuman singari hududlarga bo'lish hamda shu hududiy tuzilmalarda hokimiyatning mahalliy (hududiy) organlarini tuzish zarurati tug'iladi. Shu tariqa hokimiyat va boshqaruvning markaziy hamda mahalliy organlari o'rtasida vakolatlarni bo'lish ehtiyoji ham paydo bo'ladi. Bu davlat (hududiy) tuzilishi zaruratini keltirib chiqaradigan birinchi sababdir.

Ikkinchi sabab u yoki bu davlat aholisining ko'p millatliliigi bilan bog'liq. Har bir xalq, millatning o'z an'analari, davlatchilik bo'yicha tarixiy tajribasi mavjud, madaniy, til va boshqa ma'naviy ehtiyojlarga ega. Bularning hammasini davlat tuzilishi chog'ida nazarda tutish kerak.

Uchinchi sabab sub'yektiv va hatto tasodifiy omillar - o'zlashtirib olish, mustamlakachilik ta'siri, siyosiy manfaatlar va boshqa ko'pgina holatlardan iborat bo'lishi mumkin. Boshqaruv shakli singari hududiy tuzilish ildizlari ham juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Qadimgi Sharq despotik imperiyalaridagi viloyatlar, shaharlar, satrapiyalar, zabt etilgan hududlarga bo'lingan. Ular o'z hududiy tuzilmalari hamda o'z hokimiyat va boshqaruv organlariga ega bo'lishgan. Albatta, davlat o'z hududiy tuzilmalarining oddiy yig'indisidan iborat emas. Lekin bu tuzilmalarsiz davlat mavjud bo'la olmaydi.

Davlatshunos olimlar tomonidan davlat tuzilishi tushunchasiga ko'plab ta'riflar berilgan. Lekin ular bir-birlaridan unchalik katta farq qilmaydi. Ularning qariyb barchasi ***davlat tuzilishi shakli deganda davlat hokimiyatining ma'muriy-hududiy tashkii etilishi, davlat bilan uni tashkii etuvchi qismlar o'rtasidagi, davlatning alohida qismlari o'rtasidagi, markaziy va mahalliy organlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xarakterini tushunish kerak***, deb hisoblashadi.

Tuzilish tarkibiga ko'ra davlatlar oddiy - ***unitar*** hamda murakab - ***federativ va konfederativ*** davlatlarga bo'linadi. Davlat tuzilishi shakli nafaqat ommaviy hokimiyat bilan, balki davlatning yana bir muhim xususiyati - aholining hududiy tashkiloti bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Unitar (yagona, lot. «unus» - «bir» so'zidan olingan) davlat

oddiy tuzilishga ega yaxlit davlat bo'lib, to'la siyosiy birligi bilan boshqalardan farq qiladi. Unitar davlatlarning aksariyati muayyan ma'muriy-hududiy bo'linish (tumanlar, viloyatlar, kantonlar)ga ega. Biroq mazkur mustaqil qismlar davlat suvereniteti alomatlariga ega emas. Bunday davlatda oliy organlarning yagona tizimi hamda yagona qonunchilik mavjud bo'ladi. Unitar davlatning yaxshi tomoni shundaki, uning tuzilishi sodda bo'lib, oliy hokimiyat to'laligicha uning tasarrufida bo'ladi.

Barcha unitar davlatlarga xos bo'lgan markazlashtirish turli shakllarda va turli darajada namoyon bo'lishi mumkin. Ba'zi mamlakatlarda mahalliy organlar umuman bo'lmaydi va ma'muriy-hududiy bo'linmalar markaziy hokimiyat vakillari tomonidan boshqariladi.

Boshqa davlatlarda mahalliy organlar tashkil etiladi-yu, lekin ular (bevosita yoki bilvosita) markaziy hokimiyat nazorati ostida bo'ladi. Markaziy hokimiyat mahalliy organlar ustidan nazoratning qanday turini amalga oshirishiga qarab, **unitar davlatlar markazlashgan va markazlashmaganga** bo'linadi.

Bundan tashqari, ba'zi unitar davlatlarda bir yoki bir necha hududiy bo'linmalarga boshqalardan imtiyozliroq huquqiy maqom berilishi mumkin. Bunday unitar davlat nisbiy ma'muriy mustaqil muxtoriyat (avtonomiya)ga ega bo'ladi. Davlat tuzilishining yuqoridagi shakli hududiy bo'linmalarning maxsus manfaatlarini hisobga olish zarur bo'lgan joylarda qo'llaniladi. Mazkur avtonom tuzilmalarda o'zini o'zi boshqarish huquqi boshqa aholiga qaraganda kengroq bo'ladi. Biroq, muxtoriyatlar mustaqilligiga markaziy hokimiyat belgilagan doiradagina yo'l qo'yiladi.

Yana bir jihatni hisobga olish kerak. Unitarizm yer egaliklari, knyazlik va boshqalarga bo'linib ketgan feodal tarqoqligiga nisbatan o'z davri uchun ilg'or hodisa bo'lgan. Zero, u yagona bozorning vujudga kelishi, burjua iqtisodiy munosabatlarining rivojiga yo'l ochib bergan. Lekin kapitalizmning rivojlanib borishi, fan-texnika taraqqiyoti bilan, yangi iqtisodiy muammolarning paydo bo'lishi va boshqa omillar tufayli integratsiya jarayonlari boshlanib ketadi. Bular esa, murakkab davlatlar va ularning tuzilmalari - federatsiya, konfederatsiya, hamdo'stlik va hokazolarni yuzaga keltiradi.

Federativ davlat (lot. «feodus» - ittifoq, shartnoma) - murakkab davlat. Davlat va huquq fanida **davlatlarning**

shartnoma va qonuniy tartibga solingan birlashuvini ta'sis etishga asoslangan ittifoqi federatsiya deb ataladi. Demak, o'zaro birlashishga intiluvchi bir qancha mustaqil davlatlar mavjud bo'lgan joydagina federatsiya tashkil etilishi mumkin.

Rejalashtirilayotgan Rossiya va Belorussiya ittifoqi munosabati bilan hozirgi vaqtda federatsiya haqida juda ko'p gapirilayotgani diqqatga sazovor. Bunda ajablanarli joyi shundaki, ko'pchilik (siyosatchilar, yuristlar, jamoat arboblari ham) federatsiya nima ekanligi haqida juda mavhum tasavvurga ega ekanlar. Shu munosabat bilan biz tarixga murojaat etishga qaror qildik.

Federatsiyaning kelib chiqish tarixini taxminan shunday tasavvur etish mumkin: siyosiy jihatdan shakllanib bo'lgan bir qancha kichik davlatlar mustaqil yashashga intilishadi-yu, biroq tashqi xavf-xatar va ichki qiyinchiliklar **uiardan boshqa o'zlariga o'xshash davlatlar bilan birlashishni talab qilayotganiga** ishonch hosil qiladilar. Shunday qilib, ular mazkur birlashuv nimalardan iborat bo'lishi hamda qanday qonuniy tartibda bu amalga oshirilishi haqida shartnoma tuzib, yagona davlatni barpo etadilar. Bu birlashuv, odatda, «abadiy» deb e'lon qilinadi.

Shveysariyada xuddi shunday voqea sodir bo'lgan. U yerda kuchli qo'shnilarga qarshi kurash davomida dastlab 1321 yili Uri, Shvits, Nidvalden va Obvalden deb nomlangan kichik davlatlar (kantonlar) **strategik** jihatidan birlashishdi va keyinchalik «ittifoq yorlig'i»ni taqishdi. 1332 yili ular federatsiyasiga Lyutsern kantoni qo'shildi. 1352 yili TSyurix, Glarus va TSug federatsiyaga birlashdi. 1353 yili Bern «abadiy» ittifoqqa qo'shildi. 1415 yili Aargau kantoni Avstriyadan ajratib olindi va federatsiya tarkibiga kiritildi. Shu yildan boshlab Shveysariyada har yili o'tkaziladigan federal s'ezdlar o'z ishini boshladi.

Ancha keyinroq Amerika Qo'shma Shtatlari xuddi shunday asosda birlashdilar. Ular—dastlab bir-biridan mustaqil 13 ingliz mustamlakasidan iborat bo'lib, ularning har biri o'zining maxsus siyosiy va konstitutsiyaviy tarixiga ega edi. 1775 yili bu koloniyalar Angliyaga qarshi kurashda **strategik** maqsadlarda birlashishdi. 1781 yili, keyin esa, 1787 yili shtatlar federal konstitutsiyalarini ishlab chiqishdi, ya'ni ular endi **davlatchiilik** asosida birlashishgandi.

Keyin ular safiga Fransiyadan sotib olingan Luiziana qo'shildi. Rossiya dan Alyaska sotib olindi. Meksikadan «hududlar», Ispaniyadan Antil orollari tortib olindi.

Yuz yilliklar mobaynida mustaqil siyosiy hayot kechirib kelgan 25 nemis mustaqil davlati va erkin shahari 1871 yili xuddi shu tarzda birlashishdi. Ular «abadiy konfederatsiya» sifatida yagona Olmoniyani tashkil etdi.

1867 yilda Shimoliy Amerikadagi uch ingliz viloyati (Kanada, yangi Shotlandiya va yangi Braunshveyg) «Kanada nomli yagona mustaqil davlat»ga birlashdi.

1885-1886 yillarda ingliz suvereniteti asosida oltita Avstraliya mustamlakasi, yangi Zelandiya va Fiji orollari Avstralosiy federal davlatiga birlashdi.

Mumtoz ma'nodagi federativ davlatlar pastdan yuqoriga, kichikdan kattaga, ko'plikdan birlikka shaklida tipik tarzda paydo bo'lgan. Bunda federal konstitutsiyalar siyosiy jihatdan o'sib-chatishib ketadigan kichik davlatlar aynan nimalarda o'z mustaqilliklarini saqlab qoladi-yu, nimalarda yo'qotishlarini belgilab beradi. Odatda, ularning har biri uchun alohida taalluqli bo'lgan hamda hamdo'stlik birligiga xavf solmaydigan hamma narsada ularga mustaqillik beriladi.

Agar, mabodo, ittifoq davlati o'z vakolatini suiiste'mol qilib, mahalliy ishlarga aralashadigan bo'lsa, mahalliy mustaqillik tarafdorlari **federal konstitutsiyaga** ishora qilib: «Biz – federalchilarmiz! Bizning davlatimiz unitar emas, federativ davlatdir», deyishadi. Shunday qilib, I.Ilin asosli ravishda ta'kidlaganidek, «federalizm» g'oyasi o'zining **bosh, birlashtiruvchi, markazlashtiruvchi ahamiyati** dan tashqari aks ta'sir holatlarini ham o'z ichiga oladiki, bular **qismlarning so'nmas o'ziga xosligi, ularning qonun doiralariidagi mustaqilligi, katta ittifoq qa'ridagi jonli tashabbuskorliklaridan** iborat. Muhimi, shuni ta'kidlash joizki, bu aks ta'sir holatlari **yuridik** emas, **siyosiy** ma'noga ega, zero, u konstitutsiyaviy normalarga emas, balki **ularni hayotda qo'llash va amalga oshirishga** taalluqli¹².

Shuningdek, federatsiya kichik davlatlarning bir-biri bilan chatishib ketishining hech ham birdan-bir va buning ustiga eng

¹² Ильин И. О грядущей России. М.: Телекс, 1993, 54-бет.

yaxshi usuli emasligini nazarda tutish kerak. Tarixning shohidlik berishicha, federatsiya asoslarida emas, balki unitar davlatga singib, to'la chatishib ketish asosida yaxlit bir butunlikka aylanish hollariga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, Fransiya oliylik. U hozirgi holatdagi birlikka uch-to'rt asr davomida erishgan. Vaholanki, dastlab Fransiya bir qirollik, bir kurfyurstlik, 26 gersoglik, olti knyazlik, bir markgraflik, bir erkin graflik, 77 graflik, 19 vitsegraflik, 14 «mulk», bir «markizlik», bir «kaptalat» va 13 vaqf yerlari (ularning ba'zilari keyinchalik Germaniya va Shveysariyaga o'tib ketgan)dan tashkii topgan. XIX asr boshlariga kelib, shunchalik ko'p davlatlarning izi ham qolmadi.

Italiya, Ispaniya, Angliya ham xuddi shunday holatni boshdan kechirdi. Shu holatlarning hammasida kichik davlatlar federatsiyaga kirish yo'li bilan emas, balki bittasiga singib ketish yoki qo'shilish orqali birlashgan. Millatlar aralashib, xalqlarning **unitar siyosiy shakl** doirasida siyosiy farqlanish jarayoni nihoyasiga yeta boshlagandi.

Shunday qilib, tarixda yirik davlatlar vujudga kelishining ikki yo'li mavjud. Har ikki yo'l bir nechta yoki ko'pchilik alohida-alohida davlatlardan boshlanadi. Birinchi yo'l - shartnomaviy birlashuv (federatsiya) yo'li; ikkinchisi - unitar davlatga iqtisodiy va madaniy chatishib ketishning siyosiy qo'shilish yo'li.

Federativ tuzum o'z asoslariga ega ekanligini ta'kidlash zarur. Bu asoslarsiz u yo «qog'ozda» qolib ketadi yoki «soxta federatsiya»ga aylanib, mamlakatni parchalanish, zaiflashuvga olib keladi hamda adoqsiz ichki nizolar, to'ntarishlar, fuqarolik urushlari va fitnalarga yo'l ochadi.

Federativ tuzumning **birinchi asosi - ikki yoki bir necha mustaqil davlatning mavjud bo'lishidan** iborat. Agar bular bo'lmasa, hech qanaqangi federatsiya haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Federatsiyaga kiruvchi har bir davlat yo butunlay mustaqil bo'lishi yoki jilla bo'lmaganda o'z mustaqilligini e'lon qilib, uni amalga oshirish uchun kurashni boshlashi kerak. I.Ilin to'g'ri ta'kidlaganidek, «ularning har biri o'z ichida mustahkam hokimiyat, birlik va huquq-tartibotga ega bo'lgan jipslashgan davlat jamoasi bo'lmog'i darkor. Siyosiy beqiyofalar, ko'chmanchi qum sahrolari, qalbaki «davlat sifatlar», (hushi joyiga kelmaydigan jinnilardek)

hamisha ezilgan, darg'azab holatdagi jamoalar federatsiyani tashkil etolmaydi: zero, ular shakl-shamoyilsiz, mas'uliyatsiz, hushi joyiga kelmaydigan, davlat shartnomasini tuzishni ham, unga rioya qilishni ham uddalay olmaydigan mavhum mubham narsalardir»¹³.

Ikkinchi asos - davlatlar nisbatan uncha katta bo'lmashligi kerak. YA'ni yangi tashkil topgan davlat hayotiy-siyosiy ma'noga ega bo'lsin. Jahonda ma'lum bo'lgan federatsiyalar ichida kichkina Shveysariya uchun federatsiyaga birlashish eng oson kechgandi, ulkan Qo'shma Shtatlar uchun bu jarayon mashaqqatli kechgan. Lekin, shunga qaramay, hatto Shveysariya ham yangi «kantonlar»ni qabul qilishdan qat'iyan bosh tortib kelmoqda. Qo'shma Shtatlar esa, o'z tarkibiga Kanadaning kirishiga hech rozi bo'lmayapti. «Shunday hududiy etnik va xo'jalik miqyoslari mavjudki, - deb yozadi I.Ilin, - bunday miqyoslarda federativ shakl butunlay foydasiz: u tartibni, hayot va xo'jalik xavfsizligini yengillashtirish o'rniga uni bema'nilarcha qiyinlashtiradi. Aynan shuning uchun ham bironta jiddiy va tajribali siyosatchi Sho'rolarning go'yo «federativ tuzum»ni amalga oshirayotganiga hech qachon ishona olmagan. Shuning uchun ham «butun jahon sovet ittifoqi» so'zlari bir vaqtning o'zida ham yuridik ahmoqlik, ham siyosiy aldamchilik bo'lib yagraydi».

Uchinchi asos shundan iboratki, shartlashayotgan davlatlar ***bir-birlariga haqiqatan ham strategik, ham xo'jalik, ham siyosiy jihatdan aniq ehtiyoj sezishi zarur.*** Aks holda federatsiya tarkib topmaydi ham, o'zini saqlab qololmaydi ham. Umuman, federatsiya o'ylab topilmaydi. O'zidan-o'zi paydo bo'lib qolmaydi - u jonli mavjudot singari o'sib-ulg'ayadi. Lekin bu ham kam - xalqaro ***bu ehtiyojni tushunib yetishlari, uning foydasini e'tirof etishlari va shu birlashuvni ixtiyor qilishlari darkor.***

Kichik davlatlar bir-birlarisiz yashay olmagan, lekin ularning buni tan olishni istamaganligi, birlashishni uddalay olmay, fuqarolik urushlari yoxud istilolardan halokatga uchragan misollar tarixda ko'p topiladi (Rus knyazliklari). Shuningdek, boshqalar bilan shartnoma asosida birlashishga yo'l topolmay, qirilib ketgan xalqlar haqida ham tarix shohidlik beradi.

¹³ Ильин И. О грядущей России. М.: Телекс, 1993, 56-бет.

Federativ tuzumning **to'rtinchi asosi** shundaki, xalqda o'z burchini anglash hissi tarbiyalangan, majburiyatlar va shartnomalarga xolis va sadoqat bilan qarash, o'z sha'ni va qadr-qimmatini bilish, davlat sifatida o'zini o'zi boshqara olish qobiliyati shu xalqqa xos fazilatlar bo'lgan joydagina bunday federatsiyani tuzish mumkin. Davlatlar ittifoqi sadoqatga asoslanib, abadiyatga tuziladi. Bu ittifoq «ixtiyoriy chiqib ketishlar», xiyonatni tan olmaydi, siyosiy shuhratparastlik, buyuklik vasvasasi hamda boshqa xalqlarga nafrat bilan qarash kasalligiga muhtalo bo'lgan xalqlar o'rtasida bunday ittifoqning bo'lishi mumkin emas. Davlatlarning shu tarzdagi ittifoqi uzoq yashay olmaydi - u yo unitar davlat shakliga almashadi yoki o'zining barcha ishtirokchilarini xarob qilib, o'zi ham halokatga uchraydi.

Nihoyat, xalqqa (yoki xalqlarga) **kelishish san'ati yoki siyosiy murosa iste'dodi** hadya etilgan joyda federatsiya vujudga kelishi mumkin.

Kelishish san'ati iroda intizomini, umumiy ish uchun vatanparvarlik sadoqatini talab qiladi. Siyosiy murosa qobiliyati ikir-chikirlarni orqaga surib, asosiy masalalarda birlashishga erishishdan iborat. Xalqda bunday fazilatlar asrlar davomida tarbiyalanib boradi. Federatsiya asoslari shulardan iborat. Faqat ularni chuqur bilib va anglab olgandan keyingina, bizning fikrimizcha, federatsiya singari murakkab siyosiy hodisa haqida bahs yuritish mumkin.

Shunday qilib, federatsiya o'z tarkibidagi sub'yektlari davlat mustaqilligiga ega bo'lgan murakkab davlatdir. Hozirgi vaqtda yuridik adabiyotlarda ittifoq va muxtoriyat ko'rinishlari tilga olinishini ham qayd etish joiz.

Ittifoq federatsiyasi hududi uning sub'yektlari hududlaridan tashkil topgani uchun federatsiyaning har bir sub'yekti fuqarosi bir vaqtning o'zida butun mamlakat fuqarosi hisoblanadi. Bunday davlat yagona federal Qurolli Kuchlariga, moliyaviy, soliq va pul tizimlariga ega bo'ladi. Federatsiya sub'yektlari o'z harbiy qismlariga ega bo'lishlari mumkin bo'lsada, asosiy tashqi siyosiy faoliyatni ham federal organlar olib boradi.

Federal davlatda davlat hokimiyatining umumfederal (qonun chiqaruvchi, ijroiya va sudlov) organlari bo'ladi. Ularning qarorlari federatsiya vakolatlarida qay darajada belgilangan bo'lsa, o'sha

darajada uning sub'yektlari uchun majburiy hisoblanadi. Oliy federal organlar bilan bir qatorda federatsiya a'zolari, qismlari, sub'yektlarining ham davlat hokimiyati oliy organlari bo'ladi.

Shu tariqa federatsiya tarkibida davlat mahkamasining ikki darajasi - federal (ittifoq) hamda respublika (kanton, shtat, yer va hokazolar darajasi) miqyosidagi mahkamalar mavjud. Davlatning federativ mohiyati oliy darajada qo'sh palatali ittifoq parlamentini tuzishda o'z ifodasini topadi. Mazkur palatalardan biri (yuqori palata) federatsiya sub'yektlari manfaatlarini ifodalaydi. Uni shakillantirishda aholisining sonidan qat'i nazar, teng vakillik tamoyilidan foydalaniladi. Ikkinchi palata davlatning barcha aholisi manfaatlarini ifodalash uchun tuziladi. Qo'sh fuqarolik federatsiya rasmiy belgilaridan biri bo'lib, bu har bir fuqaro ayni vaqtda ham federatsiyaning, ham tegishli davlat tuzilmasi (masalan, respublika)ning fuqarosi hisoblanishini bildiradi.

Federativ davlatda garchi uning sub'yektlari o'z huquqiy tizimlarini tuzishlari, o'z konstitutsiyalariga ega bo'lishlari mumkin bo'lsa-da, yagona markazlashtirish tamoyili asosidagi huquqiy tizim amal qiladi. Biroq bu, konstitutsiya ham, qonunlar ham federal konstitutsiya va qonunlarga to'la muvofiq kelishi va ularga zid bo'lmasligi shart bo'lgan subordinatsiya va qonunlar ierarxiyasi doirasida amal qiladi.

Federatsiya sub'yekti konstitutsiyada ko'rsatilgan o'z sudlov va huquqni muhofaza qiluvchi organlariga ega bo'lish huquqidan foydalanadi. Oliy sud pog'onasi (instansiya), odatda, federatsiya sub'yektlari sudlari qarorlari yuzasidan shikoyatlarni qarab chiqmaydi yoki qonunda alohida ko'rsatilgan holatlardagina ularni ko'rib chiqishi mumkin.

Federatsiyada soliqlarning ikki yo'nalishli tizimi: federal soliqlar hamda federatsiya sub'yekti solig'ldan foydalaniladi. Yig'lgan soliqlar umumfederal g'aznaga tushadi, keyin ularning bir qismi (byudjet orqali) federatsiya sub'yektlariga jo'natiladi. Shu bilan bir vaqtda davlat tuzishmalari (respublikalar) daromadlari yetarli bo'lmay, ular yordam puli va dotatsiyalarga ehtiyoj sezadi. Moliyaviy qaramlik konstitutsiyaviy mexanizmga qo'shimcha muhim omillardan biri bo'lib qoladi. Buning o'z zaminlari mavjud. Federatsiya sub'yektlari o'rtasidagi munosabatlar juda murakkab,

ya'ni ularda xo'jalik munosabatlarining shirkati (kooperatsiyasi) bo'lib, federatsiyaning bir sub'yektidan ikkinchisiga moliyaviy mablag'larning oqib o'tishi yuz berib turadi. Shu bois federatsiya sub'yektlarining biri ushbu ittifoqdan chiqishni ixtiyor etsa, federatsiya boshqa a'zolariga bu narsa ma'qul bo'lmaydi. Binobarin, buning uchun federatsiya barcha a'zolarining roziligi kerak bo'ladi. Boshqacha aytganda, millatlarning o'z taqdirlarini o'zlari belgilash tamoyili davlat yaxlitligiga putur yetkazmasligi lozim.

Hozirgi sharoitlarda federativ davlatda millatlarning o'z taqdirlarini o'zlari belgilash huquqini amalga oshirish shunchalik murakkabki (xo'jalik munosabatlarining uzilishi, etnik jihatdan ozchilikni tashkil etganlarning muammolari, to'qnashuvlar, jumladan, qurolli to'qnashuvlar, qochoqlar, inson huquqlarining buzilishi, ishlab chiqarishning pasayib ketish), federatsiyadan chiqish uchun qilingan har bir da'vatning xalq, millat uchun qanchalik qimmatga tushishini yaxshilab mulohaza qilish zarur.

Albatta, hayot g'oyat murakkab, yuz berishi mumkin bo'lgan har bir noxush hodisani oldindan ko'rish qiyin. Prezidentimiz aytganidek, har bir millat o'z taraqqiyot yo'liga ega bo'lishi lozim. Muhimi - ushbu yo'l boshi berk ko'chaga eltmasligi kerak. Axir shunday holatlar ham bo'ladiki, muayyan federatsiyaga kirish hodisasi millat, xalq uchun o'lim bilan baravardir. Zero, bunday federatsiyada millatning an'analari, tili, boringki qadr-qimmatini maxsus ishlab chiqilgan rejalar asosida yo'q qilish hollari ham yuz berishi mumkin-ku! Biroq, bunday davlatni aksariyat hollarda federativ davlat deb atash qiyin. Aslida u unitar avtoritar, totalitar davlatga ko'proq o'xshaydi.

Har qanday federatsiyaning bosh masalasi ittifoq bilan federatsiya sub'yekti o'rtasidagi vakolatlar chegaralarini aniqlashdan iborat. Davlat tuzilmalarining ahvoli va ular munosabatlarining mazmun-mohiyati aynan shunga bog'liqdir. Qoidaga ko'ra, u federatsiya konstitutsiyasi yoxud federativ shartnomada belgilab qo'yiladi.

Ma'lumki, federativ va mahalliy organlar vakolatlari masalasi uch tamoyil asosida hal etiladi:

birinchisi - beistisno federatsiya vakolati tamoyili, faqat federatsiya qaror qabul qilishi va me'yoriy hujjatlar chiqarishi

mumkin bo'lgan masalalarni aniq belgilashdan iborat. Qolgan barcha masalalarni hal etish federatsiya sub'yektlari vakolatiga kiradi;

ikkinchi tamoyil - ham federatsiya, ham federatsiya sub'yektlari hamkorlikda hal etadigan, ya'ni bir xil vakolatga ega bo'lgan masalalar ro'yxatini belgilash tamoyili;

uchinchisi -uch sohaviy vakolatlar tamoyili. U (federatsiya sub'yektlari) shtatlar, respublikalar, yerlar, kantonlar bo'yicha federal vakolatlarni hamda federatsiyaning o'zi va federatsiya sub'yektlarining birgalikda hal qilish huquqini beruvchi vakolatlarni belgilashni ko'zda tutadi.

Ba'zi federativ davlatlar (masalan, Rossiya) amaliyotida vakolatlarni taqsimlashning shu vakolatlarni ixtiyoriy topshirish usuli ham paydo bo'lganligiga e'tiboringizni qaratishni istardik. Bu qoida federatsiya sub'yektining markazga qat'iy tobeligi masalasini ancha yumshatadi hamda vakolatlarni taqsimlash tamoyilining ixtiyoriyligidan dalolat beradi. Bu o'z navbatida an'anaviy federatsiya sub'yektlaridan ko'proq mustaqilligi bilan, vakolatlarning markazlashtirilgan taqsimoti o'rniga ularning ixtiyoriy taqdim etilishi bilan ajralib turadigan «birlashgan a'zolik» tushunchasini dunyoga keltirdi.

Millatning o'z taqdirini o'zi belgilash, ya'ni federatsiya tarkibidan chiqish huquqi federatsiyaning eng murakkab masalalaridan biridir. Turli federatsiyalar konstitutsiyalari tahlili ularning birontasida ushbu tamoyil qonuniy mustahkamlab qo'yilmaganini ko'rsatdi. Faqat sobiq SSSR Konstitutsiyasi bundan mustasno bo'lib, u ham aslida quruq bayonotdan nariga o'tmagandi. Zero, unda mazkur huquqni amalga oshirish omillari ko'rsatib berilmagandi.

Bunday qilinishining o'z asoslari bor. Federatsiya sub'yektlari o'rtasidagi munosabatlar odatda chambarchas bog'lanib ketgan bo'ladi. Xo'jalik aloqalarining kooperatsiyalashuvi, moliyaviy mablag'larning federatsiyaning bir sub'yektidan ikkinchisiga oqib o'tishi odatiy bo'lib qoladi. Shuning uchun ham federatsiya sub'yektining bir tomonlama ittifoqdan chiqish haqidagi xohish-irodasi boshqa barcha a'zolarga ma'qul kelmasligi mumkin. Binobarin, butun federatsiyadan to'liq ruxsat olishga to'g'ri keladi. Boshqacha aytganda, millatlarning o'z taqdirini o'zlari belgilashlari

huquqi tamoyili davlatning bir butunligiga rahna solmasligi kerak.

Yuqorida ittifoq yoki muxtoriy (avtonom) federatsiyalar bo'lishi mumkinligini eslatgandik. Endi ular o'rtasidagi farqlarni asoslashga harakat qilamiz. Buni «sho'ro» federatsiyasi misolida yaqqol kuzatish mumkin. Sobiq Ittifoq tarkibi federatsiyaning ikki turi - ittifoqdosh respublikalarni birlashtirgan (ya'ni ittifoq) federatsiya hamda muxtoriyatga asoslangan (ya'ni muxtoriy) federatsiyadan iborat bo'lganligi ma'lum. Ularning birinchisiga suveren (aslida qog'ozda) davlatlardan tashkil topgan Sovet Ittifoqi misol bo'la oladi. Ikkinchisiga esa, RSFSR misol bo'lib, uning tarkibiga 16 muxtor respublika, 5 muxtor viloyat va 10 muxtor okrug kirgan. Lekin ittifoq federatsiyasining muxtoriyatdan farqi shu bilan cheklanib qolmasdi. Sho'ro federatsiyasining ikki turi o'rtasidagi farq, shuningdek, ular davlat hokimiyati organlarining tuzilishidagi o'ziga xos xususiyatlarda ham o'z ifodasini topgan. Chunonchi, SSSR Oliy Kengashi ikki palatadan iborat edi. RSFSR Oliy Kengashi muxtoriyatga asoslangan federatsiyaning oliy organi sifatida yolg'iz bir palatadan iborat qilib tuzilgandi. Bundan tashqari, ittifoqdosh respublika federatsiyadan chiqish huquqiga ega bo'lib, na muxtor respublika va na muxtor viloyat bunday huquqqa ega emasdi.

Hozirgi vaqtda Rossiya, AQSh, Braziliya, Hindiston federativ davlatlar sifatida mavjud. Odatda, federatsiya normativ shartnoma asosida (1922 yili SSSRning tashkil topishi) yoxud konstitutsiya qabul qilinishi asosida vujudga keladi (AQSh, 1787 yil).

Konfederatsiya davlatlarning shunday ittifoqidan iboratki, u qat'iy muayyan maqsadlar (siyosiy, harbiy, iqtisodiy maqsadlar) yo'lida shartnoma yoki bitim asosida tuziladi hamda muvaqqat xarakterga ega bo'ladi. Konfederatsiya keyinchalik yo federatsiyaga (AQSh, Shveysariya singari) o'sib, birlashadi yoxud (Avstro-Vengriya kabi) tarqalib ketadi.

Konfederatsiyani tashkil etuvchi davlatlar xalqaro huquqiy munosabatlar sub'yektlari sifatida saqlanib qolib, o'z fuqaroliklari bo'lishida, hokimiyat organlari tizimini boshqarishda, sudlov organlariga egalik qilishda davom etadilar. Ular hokimiyatni mustaqil boshqarib, o'z konstitutsiyalariga ega bo'ladilar. Shuning uchun konfederatsiya darajasida qabul qilinadigan hujjatlar shu konfederatsiyaga kiruvchi davlatlar oliy organlari tomonidan

ma'qullanishi shart. Konfederatsiya a'zolari o'z mustaqil daromad manbalariga ega bo'lib, uning bir qismini konfederatsiya byudjetiga o'tkazishlari mumkin. Konfederatsiya armiyasi mazkur konfederatsiya a'zolari bo'lgan davlatlar harbiy qismlaridan tashkil topadi va ularning qarorlari asosida konfederatsiya qo'mondonligi ixtiyoriga yuboriladi.

Umuman, ta'kidlash lozimki, davlat hokimiyati tuzilishi biz yuqorida ko'rsatib o'tgan shakllardangina iborat, deb o'ylash noto'g'ri bo'lurdi. Dunyo davlatlararo birlashish va oshkora huquqiy ittifoqlarning ko'plab shakllari (shaxsiy va haqiqiy uniya¹⁴, vassallik, syuzerenitet¹⁵, millatlar va davlatlar hamdo'stligi, davlatlar hamjamiyati)ni, dominionlar va metropoliyalar, savdo ittifoqlari, harbiy bloklar munosabatlari va hokazolarni ko'p ko'rgan. Biroq, bular endi davlatlararo birlashmalarga kiradi.

Bundan tashqari tantanali ravishda e'lon qilingan federatsiya aslida unitar davlat bo'lib chiqqan holatlar ma'lum. «Sho'ro xalqlari milliy sotsialistik davlatchiligining oliy shakli»¹⁶ hisoblangan sho'ro federatsiyasi bilan xuddi shunday bo'lgandi.

Sho'ro sotsialistik ittifoqdosh respublikalari SSSR Konstitutsiyasida mustahkamlangan ixtiyoriy birlashuv asosida yagona ittifoq davlati sifatida SSSRga kiradilar, deb hisoblanardi. SSSR Ittifoqini tuzish haqidagi shartnoma (1922 yil) bu birlashuvning huquqiy asosi bo'lgandi. Biroq, bu faqat qog'ozdagina shunday, ya'ni yuristlar tili bilan aytganda, de jure bo'lib, amaldagi siyosat - de jure markazdan turib amalga oshirilishi davom etavergan. Shunga o'xshash holatni Rossiyada hozir ham kuzatish mumkin. Chunonchi, bu yerda ijroiya hokimiyati rahbarlarini saylash - shahar va viloyatlar ma'muriyatlari boshliqlarini mamlakat prezidenti tomonidan tayinlanishi bilan qo'shib olib boriladi. Lekin joylardagi oliy mansabdor shaxslarni poytaxtdan turib tayinlash va ularning vakolatlarini belgilab berish federatsiya emas, unitar davlatning alomatidir. Bundan tashqari Rossiya oldingi xatolarining ham jazosini tortmoqda. Axir sobiq Ittifoq davlat-hududiy chegaralanishi davrida millatlar manfaatlari hisobga olinmay yaratilgandi. O'sha vaqtlarda boshqacha bo'lishi ham mumkin

¹⁴ Uniya - lot. birlashma, ikki monarxik davlatning bir monarx hokimiyati asosida birlashuvi.

¹⁵ Суэренитет - фр., bir davlatning ikkinchi davlat (vassallik)ga nisbatan ustuvorlik huquqi.

¹⁶ Юридический энциклопедический словарь. М.: Советская энциклопедия, 1984 й, 394-бет.

emasdi. Zero, millatga mansublik qandaydir ikkinchi darajali, asta-sekin barham topib ketadigan tushuncha deb qaralardi. Faqat birgina «millat» - yagona sho'ro xalqigina yashashga haqli edi. Biroq, tarix hamma narsani joy-joyiga qo'yishi yana bir bor o'z isbotini topdi: bunday davlat, to'g'rirog'i, **davlat tuzilishining bu shakli** o'limga mahkum bo'ldi.

Insoniyat uchun eng muhim saboqlardan biri shundan iboratki, davlat tuzilishining har qanday shaklida ham markaz bilan hududiy joylar o'rtasida vakolatlar har qanday milliy-etnik mojarolarning kelib chiqish ehtimolini qariyb yo'q darajaga olib boradigan omillarni yaratish imkonini beradigan tarzda taqsimlanishi darkor. Buni albatta yodda tutish lozim. Chechenistondagi voqealar buning yorqin dalilidir.

5-§. Siyosiy rejim tushunchasi va turlari

Mazkur tushuncha ilmiy doiralarda nisbatan yaqinda - XX asrning 60-yillarida paydo bo'ldi. Shu zahotiy oq u olimlar dunyosida jiddiy munozaralarga sabab bo'ldi. Jumladan, ulardan ayrimlarining fikricha, «siyosiy rejim» so'zining sintezlash mohiyatiga ko'ra, «davlat shakli» tushunchasining sinonimi sifatida qaralishi kerak edi. Boshqalarning fikriga ko'ra esa, siyosiy rejim umuman davlat shakli tarkibidan chiqarib tashlanishi zarur. Zero, deb tushuntiradi ular, davlatning amal qilishi siyosiy emas, balki davlat rejimini tavsiflaydi. Bu munozaralar oxir-oqibatda siyosiy rejimni tushunishga ikki xil yondashuv - **tor va keng ma'nodagi** yondashuvlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Keng ma'nodagi yondashuv siyosiy rejimni siyosiy hayot va umuman jamiyat siyosiy tizimi hodisalari qatoriga kiritadi.

Tor ma'nodagi yondashuv uni faqat davlat hayoti va davlatning o'zigagina mansub tushuncha sifatida talqin etadi va buni uning davlat shaklining boshqa tomonlarini - boshqaruv shakli va davlat tuzilishi shaklini, shuningdek, davlatning o'z funksiyalarini amalga oshirish shakli va usullarini aniqlab berishi bilan izohlaydi.

Lekin, ko'p o'tmay, siyosiy rejim ham keng ma'nodagi, ham tor ma'nodagi yondashuvlarni taqozo etadi, degan xulosaga kelindi. Nima sababdan shunday bo'ldi? Shuning uchunki, mazkur qarash jamiyat hayotining ikki asosiy sohasi - davlat va ijtimoiy-siyosiy

sohalarda ro'yi berayotgan siyosiy jarayonlarni zamonaviy tushunishga ko'proq mos keladi. Bunday qarash, shuningdek, davlat va nodavlat tashkilotlar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar tarkibiga kiruvchi siyosiy tuzumning zamonaviy talqiniga ham mos keladi. Siyosiy tuzumning barcha tarkibiy qismlari - siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari (shuningdek, «tizimdan tashqari» ob'yektlar - cherkov, ommaviy harakatlar va boshqalar) davlatning, uning mohiyati, funksiyalari, shakl va uslublarining jiddiy ta'sirini his etib turadi.

Shunday qilib, davlat shaklini tavsiflashda siyosiy rejim tor ma'noda (davlat rahbarligi usul va uslublari yig'indisi) ham, keng ma'noda tushunilganda (shaxsning demokratik huquqlari va siyosiy erkinliklarining kafolatlanish darajasi, rasmiy konstitutsiyaviy va huquqiy shakllarning siyosiy hayot voqeligiga mos kelish mezon, hokimiyat tarkiblarining davlat va ijtimoiy hayot huquqiy asoslariga munosabati xarakteri) ham katta ahamiyatga molikdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda to'la asos bilan shuni aytish mumkinki, siyosiy rejim davlat hokimiyatining aholi bilan o'zaro munosabatlari qanday qilib va qanday usullar, yo'sinlar yordamida amalga oshiriladi, ijtimoiy qatlamlarning siyosiy sohadagi haqiqiy nisbati qanday namoyon bo'ladi, turli jamoat tashkilotlarining siyosiy maqomi qanday, davlat organlari o'z hududlarida yashovchi aholini boshqarish bo'yicha amalda qanday rol o'ynaydilar, degan savollarga aniq javob beradi.

Davlat va huquq nazariyasi davlatchilikning ko'p asrlik tarixida ma'lum bo'lgan siyosiy rejimning bir necha asosiy turini ajratib ko'rsatadi.

Avvalo, barcha siyosiy rejimlar birinchi navbatda ikki xil ko'rinishdagi katta guruhga - **demokratik va demokratiyaga zid** rejimga bo'linadi.

Demokratiyaga zid rejim uch turdan - **totalitar, fashistik va avtokratik** turlardan iborat.

Avtokratik rejimga **jamoat avtokratiyasi va yagona shaxs avtokratiyasi** kiradi.

Jamoat avtokratiyasi o'z navbatida **aristokratiya va oligarxiya** deb nom olgan boshqaruv shakllariga bo'linadi.

Yagona shaxs avtokratiyasi despotiya, mustabidlik,

shaxsiy hokimiyat shakllariga ega.

Endi mazkur rejimlarni batafsil ko'rib chiqamiz.

Despotik rejim (yunoncha «cheklanmagan hokimiyat»). Ushbu rejim hokimiyat istisnosiz faqat bir shaxs tomonidan amalga oshiriladigan mutlaq monarxiyaga (podshohlikka) xosdir. Despotik rejimlar qadimda paydo bo'lgan. U hokimiyatni boshqarishdagi o'ta o'zboshimchalik, fuqarolarning despot oldidagi to'la huquqsizligi, boshqarishda hech qanday huquqiy va axloqiy asoslarning bo'lmashligi bilan ajralib turadi. Despotiya sharoitida mustaqil harakat qilish, norozilik bildirish, qahr-g'azab izhor etishi mumkin emas - ular darhol bostiriladi. Bunday bostirishlar chog'ida qo'llaniladigan jazolar o'ta shafqatsizligi bilan ajralib turadi va ayni paytda jazo «jinoyat»dan ancha dahshatli bo'ladi.

Nega shunday qat'iy choralar ko'rilardi? Dahshat va qo'rquv urug'ini sochish uchun shunday qilinardi. Despotiya odamlarni dahshatda ushlab turishga asoslangan rejimdir. Monteske despotiyani ta'riflar ekan, hamma hukmdorning jazoga ko'tarib turilgan qo'lini har daqiqa his etishi kerak ekanligi haqida shunday yozadi: «Mabodo hukmdor dahshat solib turuvchi qo'lini bir lahzagagina tushirsa, basharti, u davlatda birinchi o'rinlarni egallab turgan shaxslarni to'xtovsiz yakson qilib tashlay olmasa, hamma narsa barbod bo'ldi, deyavering, zero, dahshat qo'rquvi - boshqaruvning mazkur yagona asosi yo'qolar ekan, unda xalqning himoyachisi ham yo'q bo'ladi».

Despotik rejim asosan O'rta YEr dengizi mamlakatlarida, YAqin Sharqda, Osiyo, Afrika, Janubiy Amerika mamlakatlarida, ya'ni Osiyo ishlab chiqarish usuli (osiyocha taraqqiyot yo'li) qaror topgan davlatlarda uchragan. U insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlariga xosdir. Biroq, bu rejim hozirgi bosqichda ham, hozirgi zamon davlatlarida ham ular rivojining tarixiy o'ziga xosligi, bu davlatlardagi boshliqlarning shaxsiy fazilatlariga bog'liq ravishda paydo bo'lgan va bo'lishi ham mumkin.

Mustabidlik rejimi - *yakka shaxs hukmronligiga asoslangan*. Mustabid hokimiyati odatda, zo'ravonlik, bosib olish, ba'zan esa, qonuniy hokimiyatni ag'darib tashlash natijasida o'rnatilishi bilan despotiyadan farq qiladi. Unda ham huquqiy va axloqiy asoslar bo'lmaydi, u zo'ravonlik, ba'zan esa terror va

genotsid asosiga qurilgan bo'ladi. Mustabid hokimiyati shafqatsizdir. U ham dahshat va qo'rquvga asoslanadi. Mustabid har qanday qarshilikni tug'ilishdayoq bostirishga harakat qiladi, shuning uchun ham g'alayon ko'targanlarni qatl etadilar. Boshqa mamlakat hududi va aholisini zabt etish nafaqat jismoniy va axloqiy zo'rvonlikni, balki asoratga solingan xalq an'analari va urf-odatlarini tahqirlashga ham olib keladi. Mustabid rejimlar qadimgi yunoniston polislar¹⁷da, ayrim o'rta asr shahar-davlatlarida mavjud bo'lgan. Avval ta'kidlaganimizdek, mustabidlik despotiya singari zo'rvonlikka asoslanadi, biroq, despotiya sharoitlarida qahr-g'azab qamchisi eng avvalo oliy mansabdorlar boshiga tushsa, mustabidlik tuzumida uning zarbiga har bir odam uchraydi. Qonunlar ishlamaydi, ularning o'zi juda kam bo'ladi. Chunki mustabidlik hokimiyati qonunlarni yaratishga intilmaydi ham.

Totalitar rejim. Ushbu rejim XX asr mahsulidir. To'la asos bilan unga fashistik davlatlarni hamda «shaxsga sig'inish» davri sotsialistik davlatini kiritish mumkin. Totalitar rejim avtoritar rejimning eng keskin shaklidir. Totalitar davlat to'la qamrovli, to'la nazorat qiluvchi va hamma narsaga chuqur kirib boruvchi hokimiyatdir.

Totalitar rejim - fuqarolar hayotiga o'z aralashuvini cheksiz chegarasiz kengaytirgan, boshqaruvi ko'lamiga ularning butun faoliyatini va majburiy muvofiqlashtirishni ham qo'shib olgan siyosiy rejim demakdir. «Totus» so'zi lotinchada «jami, bir butun» ma'noni anglatadi. Binobarin, totalitar davlat hamma va jami narsalarni o'z komiga tortuvchi davlatdir. U fuqarolarning tashabbuskorligi nozarur va zararli, fuqarolar erkinligi esa xavfli va chidab bo'lmaydigan narsa degan qoidaga amal qiladi. YAgona hokimiyat markazi mavjud bo'lib, u hamma narsani bilish, hamma narsani oldindan ko'ra olish, hamma narsani rejalashtirish, hamma narsani amr qilishga da'vat etilgan hisoblanadi. Taniqli huquqshunos I.Ilin bunday davlatni qanday ta'riflashiga e'tibor qiling-a: «Odatiy huquqiy ong, taqiqlanmagan hamma narsaga ruxsat beriladi, degan nuqtai nazardan kelib chiqadi; totalitar davlat esa, butunlay boshqa narsani - yozilmagan hamma narsa man etiladi, deb uqtiradi. Odatiy davlat: sening xususiy manfaatlaring bor, unda sen erkinsan deydi; totalitar davlat: faqat davlat manfaatigina mavjud va sen unga

¹⁷ Πολις - Yunonistonda shahar - davlatlar shunday atigan.

bog'langansan, deya e'lon qiladi.

Odatdagi davlat o'zing o'yla, erkin e'tiqod qilaver, o'z ichki hayotingni o'zing xohlaganingcha quraver, deb ruxsat beradi; totalitar davlat: yozilganlarnigina o'yla, e'tiqodning keragi yo'q, o'z ichki hayotingni ko'rsatmalar asosida qurasan, deb talab qiladi. Boshqacha aytganda: bu yerda boshqaruv hamma narsani qamrab oladi, inson har tomonlama asoratga solingan, erk jinoyat hisoblanib, jazoga tortiladi»¹⁸.

Shu munosabat bilan I.Ilin, totalitarizm mohiyati **davlatning alohida shakli** (demokratik, respublika yoki avtoritarligi)da emas, balki **boshqaruv hajmidadir - bu hajm hamma narsani o'z komiga qamrab olishda ifodalanadi**, deb hisoblaydi.

Biroq, bunday sharoit faqat yagona hokimiyat, istisnosiz yagona partiyaga, ish berishda monopoliyaga, hamma yoqqa kirib boruvchi qidiruvga, o'zaro chaqimchilikka va shafqatsiz terrorga asoslangan eng izchil diktatura sharoitidagina amalga oshirilishi mumkin.

Totalitar rejimda siyosiy hukmron partiya, siyosiy lider, xalq dohiysi boshchiligidagi hukmron elita tomonidan yaratiladigan yagona rasmiy mafkura mavjud bo'ladi.

Totalitar rejim jamiyatning yetakchi kuchi deb e'lon qilinuvchi yagona hukmron partiyaning bo'lishigagina yo'l qo'yadi. Uning qoidalari muqaddas aqidalar sifatida qabul qilinadi. Hukmron partiya davlat boshqaruvi jilovini egallab oladi: partiya va davlat mahkamalarining chirmashib-chatishib ketishi ro'y beradi. Bundan tashqari, hukmron partiyaning mislsiz muvaffaqiyatlari haqidagi axborotlar xalq ongiga muttasil singdirib boriladi. Chunki ommaviy axborot vositalari ham partiyaviy hisoblanadi. Bularning hammasi totalitar rejim asosiy qonunlar bilan emas, balki partiya amr-farmonlari, farmoyishlari va yo'riqnomalari asosida yashashini anglatadi. Qonunlar hali umuman mavjud ekan, ular to'laligicha partiya yo'riqlariga bo'ysundirilgan bo'ladi. Davlat organlari go'yo amal qilayotgandek ekan, ular partiya diktaturasini yashirib turuvchi pardaga aylanadi.

Modomiki, «fuqarolar» hali mavjud ekan, ular (huquq, vakolatlarni emas) majburiyatlarni ado etuvchi sub'yektlarga hamda

¹⁸ Ильин И. О грядущей России. М.: Телекс, 1993. 50-бет.

farmoyishlar ob'yektiga aylanadilar.

Bu shunday tuzumki, unda huquq sub'yektlari bo'lmaydi, qonunlar ham, huquqiy davlat ham bo'lmaydi. Bu yerda huquqiy ong ruhiy omillar - ochlik, qo'rquv, azob-uqubatlar va xo'rliklar bilan, ijodiy mehnat esa, zo'r berib qullarcha ishlash bilan almashtiriladi.

«Shuning uchun ham totalitar rejim, - deb yozadi I.Ilin, - huquqiy ham, davlat rejimi ham emas. Materialistlar tomonidan yaratilgan bu rejim to'laligicha «tan-ruh»ning hayvoniy va qullik omillariga, qul nazoratchilarining tahdidli buyruqlariga, bu nazoratchilarga yuqoridan singdirilgan o'zboshimcha farmoyishlariga asoslanadi. Bu - fuqarolari, qonunlar va hukumati mavjud bo'lgan davlat emas, ijtimoiy gipnoz mashinasidir; bu - dahshatli va tarixda misli ko'rilmagan biologik hodisa - huquq asosida emas, erkinlik, ong-idrokka, fuqarolik, davlatga asoslanmay, qo'rquv, nodonlik va yovuzlik chatishmasidan iborat jamiyatdir»¹⁹.

Agar bu tashkilotning shakli haqida gapiradigan bo'lsak, u mislsiz miqyoslardagi va o'z komiga dunyoni tortuvchi quldorlik diktaturasidir:

Davlat boshqaruvida totalitar rejim o'ta markazlashganligi bilan tavsiflanadi. Yuqoridan keladigan buyruqlarni hamma bajarishi shart, har qanday tashabbus jazolanadi. Totalitar tizimga «dohiy» boshchilik qiladi. U - eng oqil, dono, eng adolatli odam hisoblanadi. U beayb, uni tanqid qilish mumkin emas. U qariyb xudo maqomiga chiqarib qo'yiladi.

Totalitar rejim aholiga nisbatan keng ko'lamli va doimiy terrorni qo'llaydi. Terror hokimiyatni mustahkamlash va amalga oshirishning bosh sharti bo'lib qoladi.

Totalitarizm sharoitida hayotning barcha sohaları ustidan davlatning to'la nazorati o'rnatiladi. Iqtisodiy hayotda mulkning barcha shakllari davlat tasarrufiga o'tkaziladi. Siyosiy hayotda fuqarolar qariyb qatnashmaydi, odamlarning shaxsiy hayoti ham nazorat ostida bo'ladi. Aqidaparastlik mafkuraviy, siyosiy va huquqiy hayotning asosiga aylanadi. Totalitar rejim «dushmanlar»ga qarshi kurash niqobi ostida chaqimchilikni rag'batlantiradi.

Mamlakatni harbiylashtirish ham totalitar rejimga xos xususiyatlardan biridir. Harbiy-sanoat majmui, armiya totalitarizmning

¹⁹ O'sha yerda.

asosiy tayanchlari hisoblanadi.

Shaxsiy hokimiyat rejimi totalitarizm ko'rinishlaridan biridir. U ko'pgina jihatlari bilan totalitar rejimga o'xshab ketadi. Lekin unda «shaxsga sig'inish», dohiyga sig'inish ayniqsa kuchayadi. Boshqaruvning bunday usuli oqibatlari yaqin o'tmishimizdagi sho'ro hokimiyati davridagi holatdan hammamizga ma'lum.

Shunga qaramay, bugungi kunda ham sobiq Ittifoqni qaytarish, tiklash hamma balolardan xalos etadi, deguvchilar uchrab turadi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov bunday da'volarning butunlay asossizligiga e'tiborni qaratadi. Jumladan, u shunday degandi: «Tabiiy savol tug'liadi: O'zbekiston yetmish yil mobaynida tekin xom ashyo makoni edi, xo'sh, o'sha ittifoqqa O'zbekiston va umuman O'rta Osiyo mintaqasi markaz va boshqa respublikalarni yana suvtekin xom ashyo bilan ta'minlovchi sifatida qaytadimi? Sizlar shuni xohlaysizlarmi, janoblar va o'rtoqlar?!»²⁰.

Fashistik rejim. Bu totalitarizmning eng yuqori pog'onalariga xos shakllardan biri bo'lib, millatchilik mafkurasi, bir millatning boshqalaridan afzalligi to'g'risidagi tasavvurlar bilan, o'ta agressivligi bilan ajralib turadi.

Fashizm davlat siyosati darajasiga ko'tariladigan millatchilik, irqchilik mafkurasiga asoslanadi. Milliy mushtaraklikni muhofaza etish, geopolitik va ijtimoiy vazifalarni hal etish, millat «sofligi»ni asrash fashistik davlatning maqsadi deb e'lon qilinadi. Fashistik mafkuraning bosh shiori odamlar qonun oldida, hokimiyat, sud oldida teng bo'lishi mumkin emas - ularning huquq va majburiyatlari qaysi millatga, irqqa mansubliklariga bog'liq, degan yaramas aqidalardan iborat. Bunda muayyan millat oliy irqqa mansub va shuning uchun barcha ezguliklarga munosib deb e'lon qilinadi. Boshqalar faqat noraso, tuban odamlar sifatidagina yashashlari mumkin, deb hisoblashadi.

Fashistik rejim insonga nafrat bilan qarovchi agressiv rejim bo'lib, barcha xalqlarni, ~~shu~~ jumladan, o'z xalqini ham azob-uqubatlarga olib boradi.

Fashizmni tavsiflovchi xususiyatlar:

- dinsizlik; umuman dinga dushmanlarcha munosabatda bo'lish;

²⁰ I.A.Karimov. «O'zbekiston»: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura» 1-tom. T., «O'zbekiston». 1996, 207-bet.

- doimiy va go'yo «ideal» tuzum sifatida huquqiy totalitarizmni barpo etish;

- partiya yakka hukmronligini o'rnatish va ulardan o'sib chiquvchi korrupsiya va axloqiy buzilishlar;

- millatchilik va jangovar shovinizmga mukkasidan ketish;

- safsatabozlik, laganbardorlik va despotiya suyak-suyagiga singib ketgan terarizmga butun borlig'i bilan berilib ketish.

yuqoridagilarga qaramay, insoniyatga tahdid solmaydigan tuzumni rejim deb hisoblash mumkin emas. Mazkur rejim muayyan tarixiy shart-sharoitlarda vujudga kelishi mumkiligini hammamiz yaxshi bilamiz. Bunda jamiyatdagi ijtimoiy ixtiloflar, ommaning qashshoqlashuvi yaqqol ko'zga tashlanadi. Umuman, fashizm bolshevizmga qarshi javob sifatida, davlat-muhofaza kuchlarining o'ngga tomon jamlanishi ko'rinishida dunyoga kelgan. Kuchlarni'ng bunday jamlanishi hatto demokratik davlatlarning o'zida ham keyinchalik amalga oshirilaverishi mumkin. Milliy xavf-xatar chog'larida xalqning sog'lom kuchlari hamisha mudofaa-diktatorlik yo'nalishida jamlanadi. Qadimgi Rimda shunday bo'lgandi, yangi Ovrupoda ham shunday bo'lgan, bundan keyin ham shunday bo'ladi

Avtoritar rejim. U huquqiy, axioqiy asoslarga ega bo'lishi mumkin. Biroq, bunday davlat xalqni boshqarish ishlariga jalb etmaydi. Vakillik organlarining mavjudligi ahvolni o'zgartirolmaydi. Ular amalda davlat hayotida arzirli mavqega ega bo'lmaydi. Parlament dohiy yoki bir guruh shaxslar (xunta, oligarxiya) boshchiligidagi hukmron elita taklif etgan har qanday qarorlarni so'zsiz tasdiqlab beraveradi. Rahbarlikni amalga oshiruvchi elita, oliy mansabdor shaxslar uchun katta yengilliklar, imtiyozlar mavjud bo'ladi. Davlatda rahbarlik harbiy yoki davlat to'ntarishi yordamida hokimiyatni zabt etganlar qo'liga o'tar ekan, avtoritar rejim **to'da yoki xunta** nomini oladi. Hukmron to'da ichida boshliq ajralib turadi. Boshliq u yoki bu masalani muhokama etishda o'z «koman-dasi»ga murojaat qilishi, ularning maslahatlarni tinglashiga qaramay, uning ta'sir doirasi cheksiz-chegarasizdir.

Avtoritarizm sharoitida muxolifatga yo'l qo'yilmaydi. Bunday rejimda shaxs o'z konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalana olmaydi. Hokimiyat bilan o'zaro munosabatlarda o'z xavfsizligi kafolatlaridan ham mahrumdir. Zero, hokimiyat unga nisbatan bimalol majbur

etish choralarini qo'llashi mumkin. Davlat manfaatlarining shaxs manfaatlaridan to'la ustuvorligi e'lon qilinadi.

Avtoritar hokimiyat xalq ishonchi buyuk kuch ekanligini yaxshi tushunadi. Shuning uchun omma orasida dohiy va uning safdoshlariga ko'r-ko'rona fidoyilikni singdirishga intiladi. Buning uchun u safsatabozlik va xalq ongini turli hiyla-nayranglar bilan zaharlash yo'llaridan foydalanadi. Hozirgi vaqtda avtoritar rejimlar turli mamlakatlarda tez-tez uchrab turadi.

Shunday qilib, biz demokratiyaga qarshi rejimlarni ko'rib chiqdik va endi **demokratik rejimlar tahliliga** o'tamiz.

Demokratik rejimning eng zamonaviy shakllaridan biri **liberal-demokratik rejim** hisoblanadi. U ko'pchilik mamlakatlarda mavjud. Uning ahamiyati va maftunkor qudrati shu qadar kuchliki, ko'pchilik olimlar uni hokimiyatni amalga oshirish rejimi emas, balki jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida sivilizatsiyaning yashash sharti, jamiyat siyosiy tashkiloti siyosiy evolyutsiyasining qariyb oqibat natijasi deb hisoblashmoqda. Albatta, bu yerda bo'rttirib yuborish, mubolag'a ko'rinib turibdi. Hozir davlat hokimiyatining yangi shakllari paydo bo'layaptiki, bunday shoshqaloklik va qat'iy xulosalarga o'rin yo'q.

Shuningdek, davlat va huquq nazariyasida eng demokratik va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan hokimiyatni amalga oshirishning siyosiy usul va uslublarni ham liberallikka taalluqli deb qarashlarini ham aytib o'tish joiz.

Bu tamoyillar eng avvalo shaxs bilan davlat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni belgilab beradi. Bunda inson o'z mulki, huquq va erkinliklariga ega bo'ladi, iqtisodiy jihatdan mustaqil, siyosiy erkin harakat qiladi. Shaxs bilan davlat o'rtasidagi nisbatlarda ustuvorlik shaxs tomonida bo'ladi. Liberal rejim bozor munosabatlarini, bozor iqtisodiyotini tashkil yetishni taqozo etadi. Bozor esa, teng-huquqli, erkin va mustaqil sherikchilikni talab etadi. Liberal jamiyatda so'z erkinligi, fikr almashish erkinligi, mulk shakllari erkinligi e'lon qilinadi, xususi tashabbuskorlikka keng yo'l ochiladi.

Bunday jamiyatda davlat hokimiyati saylovlar yo'li bilan shakllantiriladi. Davlat boshqaruvini amalga oshirish hokimiyatni taqsimlash tamoyili asosida yo'lga qo'yiladi.

Davlat boshqaruvida markazdan qochish tamoyilidan foyda-

laniladi, ya'ni markaz mahalliy organlar hal eta olmaydigan muammolarnigina yechishni o'z zimmasiga oladi. Liberal-demokratik rejim davlat rejimi bo'lgan jamiyat fuqarolik jamiyati deb ataladi.

Biroq, buni ham ortiqcha idellashtirish mumkin emas. Bu rejimda aholi daromadlarining, ular turmush darajasining keskin tabaqalanishi ro'y beradi, fuqarolarning boshlangach imkoniyatlari bir-birlaridan juda katta farq qiladi, ularning ijtimoiy himoyasida muammolar bo'ladi, faqat o'zinigina o'ylash (individualizm) rivojlanib kyetishi mumkin va hokazo. Baribir, liberalizm bugungi kunda ko'pchilik davlatlar uchun eng jozibador rejim bo'lib qolyapti.

Asl demokratik rejim. «Demokratiya» so'zi, albatta, ko'pchilikka ma'lum bo'lishi kerak, lekin bu so'z orqali ifodalanadigan ma'no birdek tushunilavermaydi. Bundan tashqari, totalitar tuzumlar hamda harbiy diktaturalar xalq madadiga tayanish maqsadida o'zlariga demokratik tamg'alar osib olgan hollarga tarixda misollar ko'p. Ayni paytda demokratik g'oyalar hech qachon tarix maydonini tark etmagan « va insoniyatni doim to'lqinlantirib keladi.

Lug'atlarda demokratiyada «xalq oliy hokimiyat timsoliga ega bo'lib, bu hokimiyatni yo o'zi bevosita amalga oshiradi yoxud erkin saylov tizimi orqali o'zlari tanlagan vakillari vositasida amalga oshiradi», deb ta'riflanadi. Avraam Linkoln (AQSH prezidenti)ning so'zlariga qaraganda, demokratiya - «xaiqning shu xalq uchun amalga oshiradigan xalq boshqaruvidir».

Shu jihatdan I.Ilin ta'rifi ham qiziqish uyg'otishi mumkin. U shunday yozadi: «Demos» so'zi xalq ma'nosini anglatadi, «kratos» so'zi kuch, hokimiyatni ifodalaydi. Haqiqiy davlat shu ma'noda «demokratik» bo'lishi mumkinki, o'zining eng yaxshi kuchlarini xalqdan oladi hamda uni o'z tuzilishida to'g'ri ishtirok etishga jalb qiladi. Bu shu eng yaxshi kuchlarning doimiy tanlovi davom etib, ***xalq o'z davlatini to'g'ri qurishni bilishi darkor***²¹.

Qizig'i shundaki, demokratiya juda murakkab hodisa bo'lishiga qaramay, uning dunyoga kelish, hatto tug'ilgan sanasini aniqlash ajablanarli tarzda g'oyat oson ishdur: bu - miloddan avvalgi V asrdagi Afina shahar-davlatidir. Perikl Afinasi (uning eng shuhrat topgan boshlig'i sharafiga bu davlat shunday atalgan) siyosatchi-nazariyotchilar va davlat arboblarning keyingi avlodlari uchun ilhom

²¹ Ильин И. О грядущей России. М., Телекс, 1993, 42-бет.

manbai bo'lib xizmat qilgan.

Shu bilan birga, bugungi ko'z bilan qaralganda, Afina demokratiyasining ko'pgina jihatlari g'alati va yot tuyulishi mumkin.

Miloddan avvalgi oltinchi-beshinchi asrlarda Afinada markaziy siyosiy institut (mahkama) 5-6 ming kishi qatnashadigan yig'in bo'lgan. Yig'in balog'at yoshiga yetgan hamma erkak fuqarolar uchun ochiq edi (ayollar, qullar va muhojirlar istisno qilingan). Yig'in hech qanday huquqiy cheklashlarsiz, ko'pchilik ovoz bilan amalda har qanday ichki muammolarni hal eta olardi. Sudlov ishlari ham maslahatchilar tarkibidagi 501 fuqaro ishtirokida boyagiday ko'pchilik ovoz bilan biron kishining aybli yoki aybsizligi haqida hukm chiqarardi.

Yig'in boshqaruvchilari saylanmay, qur'a tashlash yo'li bilan aniqlanishi yana ham ajibroq edi. Zero, afinaliklar har qanday fuqaro davlat lavozimini egallay oladi, deb hisoblardilar. Lavozimlarning o'zi ham juda kam edi: strateglar bir yillik muddatga saylanishardi. Boshqa hamma holatlarda Perikl Afinasi hammaga ma'lum ijroiya institutlari bo'lmish prezident, bosh vazir, mahkama yoki doimiy fuqarolik xizmatidagi ishlarni eplayverardi. Qarorlar qabul qilish uchun mas'uliyat beistisno yig'in a'zolari bo'lgan fuqarolar zimmasiga tushardi.

Konstitutsiyaviy cheklashlar nimaligini bilmagan Perikl Afinasida fraksiyachilikka moyillik kuchli bo'lib, ko'pincha so'zamol va ayyor notikloar ta'siriga tushib qolindilar. Shuning uchun ham oqibat-natijada demokratik Afina faylasuf Suqrot (Sokrat)ni o'limga mahkum etdi va bu bilan uning shogrdi Aflotunning bitmas-tuganmas nafratiga uchradi. Aflotun umuman demokratiyaning ashaddiy dushmaniga aylandi.

Lekin dushmanlari bo'lgani, ichki zaifliklariga qaramay, Afina demokratiyasini nozik gulga o'xshatib bo'lmasdi. U eramizdan oldingi 404 yilda Peloponnes urushidagi mag'lubiyatni boshdan kechirib hamda o'zining bosh raqibi Sparta qo'lga tushib ham, qariyb 200 yil yashadi.

Demokratiya g'oyalarining umri abadiy deb bo'lmasa-da, undan ham uzoqroq bo'ldi. Balki shu boisdan ozodlik va demokratiya ko'pincha sinonim so'zlar sifatida ishlatiladi. Zero, demokratiya ozodlikning o'zigina emas, balki uzoq va uqubatli tarix davomida

shakllangan amaliy normalar va jarayonlar majmuidir. Boshqacha aytganda, demokratiya ozodlik qonuniy maqomga ega bo'lganini bildiradi.

Demokratiya ikki asosiy turga - **bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) va vakillik demokratiyalariga** bo'linadi. **Bevosita demokratiya sharoitida** saylangan yoki tayinlab qo'yilgan rasmiy shaxslar vositachilgisiz fuqarolar ijtimoiy qarorlarni qabul qilishda qatnasha oladilar. Bunday tizim nisbatan kam odamlar qatnashadigan jamoa va qabila kengashlarida, kasaba uyushmalari mahalliy organlari yig'inlarida hamma a'zolar masalalarni muhokama etish hamda konsensus yo'li yoki ko'pchilik ovoz bilan qaror qabul qilish uchun bir binoga joylasha oladigan hollardagina mazmun-ma'noga ega bo'lishi mumkin. Qadimgi Afina - jahondagi birinchi demokratiya davlatida bevosita demokratiyani, yodingizda bo'lsa 5-6 ming kishi qatnashadigan yig'inlar yordamida amalga oshirishganidan hayratga tushasan kishi (aftidan, bu miqdor bevosita demokratiyani hayotga tatbiq etish uchun odamlarni bir joyga to'plash mumkin bo'lgan eng katta miqdor bo'lgan bo'lsa ajabmas).

Hozirgi zamon jamiyatli o'zining murakkabligi, ko'psonliligi bilan bevosita demokratiyani amalga oshirish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun bugungi kunda uning eng ko'p qo'llaniladigan shakli **vakillik demokratiyasidir. Bunda fuqarolar siyosiy qarorlarni qabul qilish, qonunlarni ta'riflab berish hamda ijtimoiy farovonlik yo'lidagi dasturlarni hayotga tatbiq etish uchun rasmiy shaxslarni saylaydilar.** Bu rasmiy shaxslar murakkab ijtimoiy muammolarni chuqur o'ylab, tartibli hal etishlari mumkin. Buning uchun ular boshqa xususiy shaxslar ega bo'lolmaydigan kuch va vaqtlarini sarflashlari kerak bo'ladi.

Rasmiy shaxslarni saylash tartiblari xilma-xil bo'lishi mumkin. Masalan, umummilliy miqyosda qonun chiqaruvchilar tumanlarda saylanishi, ularning har biri bir kishidan vakilni tanlashi mumkin. Mutanosib vakillik tizimida qonun chiqaruvchi organda har bir siyosiy partiya butun mamlakat bo'yicha saylanganlarning umumiy soniga foizlik nisbatiga muvofiq ravishda o'z vakiliga ega bo'ladi. Mahalliy va tuman saylovlari shu modellardan nusxa ko'chirishi yoki saylovlar o'rniga guruhliy konsensus orqali, ya'ni kamroq rasmiyatchilik bilan o'z vakillarini saylashlari mumkin. Biroq, qanday

usul bilan saylanishlaridan qat'i nazar, vakillik demokratiyasida rasmiy shaxslar xalq nomidan o'z joylarini egallaydilar hamda barcha harakatlarida xalqqa hisob berib turishga majburlar.

Demokratik rejim barcha odamlarning tengligi va ozodligini e'tirof etib, davlatni boshqarishda xalqning ishtirokiga asoslanadi. Demokratik davlat faqat o'z fuqarolarining huquq va erkinliklarini e'lon qilibgina qolmay, bu huquq va erkinliklarning iqtisodiy asoslarini ta'minlashi, ularning konstitutsiyaviy kafolatlarini ham belgilashi kerak bo'ladi. Natijada keng huquq va erkinliklar qog'ozda emas, amalda mavjud bo'lib qoladi.

Demokratik davlatda xalq hokimiyat manbaidir. Bunday hokimiyatning chuqur kasbiylashuvi (professionalizmi) demokratik rejim mavjud bo'lgan davlatni boshqalaridan farqlaydigan muhim belgidir.

Jamiyat ishlarini boshqarishda xalq ishtiroki chinakam ommaviy tus oladi. Referendumlar, plebistsitlar, xalq tashabbuslari, muhokamalar, namoyishlar, yig'ilishlar ijtimoiy hayotning odatiy voqealariga aylanib qoladi. Jamoat tashkilotlari qarorlar, tavsiyalarni ishlab chiqishda qatnashadi, shuningdek, ijroiya organlari ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Shu yerda haqli bir savol tug'iladi: mazkur o'ng'ay bo'lmagan vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash uchun fuqaro qanday fazilatlariga ega bo'lishi kerak?

Davlat hayoti arifmetik asosda emas, jonli asosda tashkil topadi. Bu hayotda qatnashayotgan odamlar mavhum fuqarolar bo'lmay, jonli shaxslardir. Ular ozodlikka shunchaki muhtoj bo'lib, uni talab qilishmaydi, balki shu ozodlikka ***munosib bo'lishlari ham darkor***. Saylov byulletenini istagan kishi kutiga keltirib tashlay oladi, biroq, mas'uliyat bilan, davlat nuqtai nazaridan kelib chiqib fikr yuritish va harakat qilish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Inson o'z davlati hayotida jonli mavjudot sifatida qatnashadi va shu jarayonda o'zi ham davlat tanasining jonli a'zosiga aylanadi. U o'z davlati hayotida butun borlig'i bilan - mehnati, qurol olib yurishi, harbiy mashaqqatlar, azob-uqubatlari, qalbining sadoqati, burch hissi bilan, qonunlarni bajarishi va eng muhimi ***huquqiy ongi bilan*** ishtirok etadi. U o'z davlatini shaxsiy sadoqati bilan, oilaviy hayoti, soliqlarni to'lab borishi bilan, xizmati, savdo-sotiq-lari bilan,

madaniy ijodkorligi va hatto o'z nomining shuhrati bilan barpo etadi.

Biroq, bu davlat - «hamma narsaning hammasi», hamma narsani o'z komiga tortadi va hammani asoratga soladi, degani emas. Lekin davlat hayotining matosi uning barcha fuqarolari hayotidan to'qilgan. Har bir alohida olingan yomonlik davlat «tanasi»da yuz beradi, unga zarar yetkazadi, uni emiradi. Aksincha, har bir yaxshilik, olijanoblik, madaniy faoliyat davlat hayotini quradi va mustahkamlaydi. Bularning hammasi qonuniyatdir, chunki davlat mavhum bir narsa emas, u «qayerdadir» bizdan narida joylashmagan (hukumat, militsiya, armiya, soliq idorasi, amaldorlar mahkamasi), u bizning ichimizda, bizning timsolimiz sifatida yashaydi, zero, biz jonli shaxslarmiz, uning qismlari, a'zolarimiz. Bunday munosabat tashqi ishlardangina iborat emas, u bizning ichki hayotimizga daxlsiz qolishi mumkin emas. Lekin yuqoridigalardan biz hech narsa qila olmas ekanmiz, davlat esa hamma narsaga qodir, biz qullarmiz-u, davlat quldor, fuqaro «ijozatingiz bilan...» tamoyili asosida yashashi kerak ekan, degan xulosa kelib chiqmaydi. Mutlaqo bunday emas: chunki davlatni ozod, tashabbuskor, ma'naviy badavlat kishilar bunyod etadi, mustahkamlaydi, takomillashtiradi. Shuni qayd etish kerakki, har qanday slyosiy organizm eng avvalo samimiy-ma'naviy tabiatga egadir: ma'naviy qadr-qimmat hissini yo'qotgan, mas'uliyat va davlatga daxldorlik mazmunidan mahrum bo'lgan, or-nomus va halollikdan yuz o'g'irgan xalq muqarrar ravishda o'z davlatiga xiyonat qiladi va uni barbod etadi.

Haqiqatan ham, fuqaro o'z huquqiy ongidan ajralib yashay olmaydi: huquqiy ongi tuban odam o'z majburiyatlarini bajarmasligi bilan, vakolatlarini oshirib yuborishi bilan, mayda huquqbuzarlik va qo'pol jinoyatlari, poraxo'rliklar va kamomadlarga yo'l qo'yishi, korrupsiya va josuslikka qo'l urishi bilan har qadamda o'z davlatiga ziyon-zahmat yetkazadi. Bu fuqaro emas, balki xoin, sotqin kul, tutilmagan o'g'ridir. Bu «fuqaro» kimni saylay oladi-yu, uning o'zini qayerga saylash mumkin? Davlat ishlarida u nimaning fahmiga yetadi?

Shunday qilib, gapning indallosini aytadigan bo'lsak, davlat xalqdan tashkii topadi va hukumat unga boshchilik qiladi. Binobarin, hukumat xalq uchun yashab, ishlashga da'vat etilgan hamda xalqdan kuch-quvvat olishi kerak, xalq esa, o'z navbatida buni bilishi va

tushunishi darkor, o'zining butun kuch-quvvatini umumiy ishga safarbar etmog'i lozim. Davlat hayotida xalqning to'g'ri ishtiroki unga kuch bag'ishlaydi. Chinakam davlatchilikning demokratik qudrati ana shundadir. Mabodo, xalq siyosiy kaltabinligi, erksizligi yoki axloqiy jihatlari tufayli o'z demokratiyasini to'g'ri tashkil eta olmasa - unda demokratiyaning bo'lishi mumkin bo'lmay qoladi. Ayni paytda bu yerda bir-biridan andoza olish mumkin emas, hatto halokatlidir. Zero, har bir xalq o'z hayotining har bir davrida aynan o'zi uchungina mos va maqsadga muvofiq uslubni topishi mumkin va lozim.

Demokratiya markaziy va mahalliy organlar o'rtasidagi vakolatlarni chegaralash tizimining yangi darajasi bilan ham belgilanadi. Markaziy davlat hokimiyati faqat umuman jamiyatning mavjudligi bilan bog'liq masalalar - ekologiya, jahon hamjamiyatida mehnat taqsimoti, qurolli mojarolarning oldini olish kabi masalalarnigina hal etishni o'z zimmasiga oladi.

Demokratik jamiyatda normativ muvofiqlashtirish ham tubdan o'zgaradi. Zero, kelajak orzulari ushaliishi bilan majburlovni ommaviy qo'llash masalasi olib tashlanishi kerak.

Albatta, demokratik rejim muammolarsiz rejim emas. Unda jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuvi, jamiyat hokimiyati, ba'zan ayrim tarixiy shart-sharoitlarda jamiyatni vaqtidan ertaroq demokratlashtirish yuz berishi, bu esa, hokimiyatning zaiflashuviga, ijtimoiy barqarorlikning buzilishiga, hatto anarxiyaga olib kelishi, ekstremizmning jonlanishiga sharoit yaratishi mumkin. Biroq, baribir, demokratiyaning ijtimoiy qimmati g'oyatda yuqori. Nihoyat, kim nima deyishidan qat'i nazar, demokratik rejim insoniyat davlat tuzilishida erishgan, hozirgi zamon sivilizatsiyasi moddiy asoslariga, yangiliklari va intilishlariga mos eng buyuk ne'matdir.

6-§. O'zbekistonda davlatchilikni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari

Ma'lumki, 70 yil mobaynida O'zbekistonning taqdiri va farovonligi sobiq Ittifoq qo'lida bo'lib keldi. Respublikadan mahsulotlar va xom ashyoni tashib ketishar, respublikamizga esa, bu yerda istiqomat qiluvchilardan so'rab-netmay, maslahatlashmay, o'zlari lozim topgan narsalarnigina keltirishardi.

O'zbekistonda amalga oshiriladigan boshqaruv tizimi joylarda ham, tarmoqlarda ham, ishlab chiqarish sohaslarida ham va taqsimotda ham markazga qat'iy tobelik asosida, u belgilab bergan chiziqdan tashqariga chiqmay olib borilardi.

Shuni mamnuniyat bilan qayd etish kerakki, O'zbekiston o'zining chinakam mustaqillikka erishish maqsadini birinchilardan bo'lib e'lon qildi. U sobiq Ittifoq respublikalari o'rtasida birinchi bo'lib boshqaruvning prezidentlik shaklini joriy etdi, keng miqyosli islohotlar, jamiyatdagi tub o'zgarishlar va yangilanishlar yo'lini tanladi.

1991 yilning 31 avgust kuni o'zbek xalqining o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi amalga oshdi - O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilindi. Respublika butun ko'pmillatli aholining irodasi «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunda mustahkamlandi hamda umumxalq referendumida yakdil tasdigini topdi.

O'zbekiston Respublikasi hududi va iqtisodiy salohiyati bo'linmasligi, uning chegaralari esa daxlsiz bo'lib, davlat himoyasida ekanligi tamoyili qaror topdi.

Mustaqillik qo'lga kiritilishi bilan darhol respublikada demokratik huquqiy davlat asoslari vujudga keltirila boshladi. Buning uchun oldingi totalitar tuzum illatlarini tag-tomiri bilan qo'porib tashlashga keskin kirishildi. Ko'ppartiyaviylik, g'oyalar va fikrlar xilmaxilligi bilan murosa qilish hayotiy voqelikka aylandi. Bir mafkura hukmronligiga barham berildi. Umuminsoniy qadriyatlar, jahon tan olgan chinakam demokratiya, inson erkinliklari va huquqlari normalarini qaror toptirish vazifasi qo'yildi.

Respublikada so'zda emas - amalda hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijroiya va sudlov hokimiyatlariga bo'linish tamoyili amal qilmoqda. O'zbekiston xalqi davlat hokimiyatining chinakam manbaiga aylandi va bu hokimiyatni ham bevosita, ham o'z vakolatli vakillari - deputatlar korpusi orqali amalga oshirmoqda. Bularning hammasi qonun chiqaruvchilik ishini faol yo'lga qo'yishni taqozo etdi. Uni respublika parlamenti - Oliy Majlis muvaffaqiyatli olib bormoqda. Oliy Majlisning butun salohiyati bugungi kunda yosh mustaqil davlatimizni har tomonlama huquqiy ta'minlashga yo'naltirilgan.

Davlat boshqaruvining yangi, yanada zamonaviy hamda yangi sharoitlarga tez moslashadigan tizimini shakllantirish bo'yicha ishlar zudlik bilan boshlab yuborildi. Boshqaruvning prezidentlik shakli bu tizimning o'zagi bo'lib qoldi.

Joylarda boshqaruv tizimini qayta tashkil etish vazifasi qo'yilib, muvaffaqiyatli uddalandi - viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlik tuzilmalari joriy etildi. Qonunlar ustuvorligini, ular oldida mamlakat barcha fuqarolari tengligini ta'minlovchi sud hokimiyatini qayta tashkil etish ishlari faol olib borilmoqda. Sivilizatsiyalashgan fuqarolik jamiyatining ushbu tarkibiy qismlari qonunchilik va huquq-tartibotning, qat'iy intizom va mas'uliyatlilikning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Respublika oldida o'z taraqqiyot yo'lini tanlashdek jiddiy vazifa ko'ndalang turardi. Uning zarurligi respublikamiz Prezidentining quyidagi so'zlarida yaqqol ifodalangan: «Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, o'z davlatchiligini qo'lga kiritish, milliy va ijtimoiy ozodlikka erishish hech qayerda yengil va osonlikcha bo'lmagan. Mustaqillikka erishgan har bir mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini izlaydi, yangi jamiyat barpo etishda o'z andozasini ishlab chiqishga intiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat, odamlar o'rtasida tarkib topgan munosabatlar, ularning dunyoqarashi, jumladan diniy e'tiqodi, ruhiyati va xulq-atvor normalari shuni taqozo etadi»²².

Davlatimiz boshlig'i, shuningdek, jahonda ijtimoiy taraqqiyotning turk, shved, janubiy koreys va boshqa turli xil ko'rinishlari mavjudligini ham ta'kidladi. Bir qator musulmon davlatlari va yangi sanoati rivojlangan mamlakatlar tajribasi, ikkinchi jahon urushidan keyin xalq xo'jaligini tiklash bo'yicha Ovrupo mamlakatlari va Yaponiya amaliyoti namunalari mavjud. Biroq, deya ta'kidlaydi Prezident, «O'zbekiston boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va respublika sharoitiga tatbiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan shak-shubhasiz samarali foydalanadi»²³.

Bunda gap, albatta, u yoki bu maftunkor va ijobiy samarasi yuksak andozadan oddiy nusxa ko'chirish ustida borayotgani yo'q.

Prezidentimizning quyidagi fikrlarida ushbu masalaga bo'lgan qat'iy nuqtai nazar o'z ifodasini topgan: «Jahon va o'zimizning

²² I.A.Karimov. «O'zbekistonⁿⁱ: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura» 1-tom. T., «O'zbekistonⁿⁱ». 1996, 40-bet.
²³ O'sha yerda.

amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan holda o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo'limizni tanlab olish respublikaning qat'iy pozitsiyasidir. Bu - o'tmish yillarning xatolarini, davlat tuzilishining shakl va usullariga nisbatan mavjud qarashlarni idrok etish natijasidir. Bu - tarkib topgan ijtimoiy voqelikka berilgan real bahodir. Bu - O'zbekiston xalqining ijtimoiy taraqqiyotga, munosib turmush sharoitiga intilishidir»²⁴.

1992 yilning 8 dekabrda O'zbekistonda shonli voqea sodir bo'ldi - O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. U respublikamiz mustaqil va erkin taraqqiyotining huquqiy asoslarini yaratib berdi.

O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishi shakli Konstitutsiyamizning «Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi» deb nomlangan to'rtinchi bo'limining XVI - XVII boblarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, 68-moddada shunday deyilgan: «O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat». 70-modda esa, Qoraqalpog'iston Respublikasi maqomiga bag'ishlangan. Unda: «Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi», deb ta'kidlanadi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar, O'zbekiston kelajagi uchun ularning ahamiyati to'g'risida gapirib, yurtboshimiz shunday dedi: «Biz juda katta qiyinchiliklarni boshdan kechirdik. Oldinda yana qanchadan-qancha sinovlar turibdi. Bugungi murakkab vaziyatda tanlab olingan va azaliy milliy manfaatlarimizga, xalqimizning tabiatiga, ongiga ma'qul bo'lgan yo'ldan adashmaslik choralari haqida, O'zbekistonning porloq istiqbolga yetish yo'li xususiyatlari to'g'risida gaplashib olishimiz zarur deb o'ylayman»²⁵.

²⁴ O'sha yerda.

²⁵ O'sha yerda. 200-bet

V bob DAVLAT FUNKSIYALARI

1. Davlat funksiyasi tushunchasi. Davlat vazifalari va funksiyalarining o`zaro nisbati

Suhbatimizni, avvalo, yuridik adabiyotlarda "davlat funksiyalari" toifasiga nisbatan yagona fikrning yo`qligini ta'kidlashdan boshlaymiz. Biroq, hamma olimlar davlat funksiyalari, uning mohiyatini hamda burchi, maqsadi va vazifalarini ifodalashini e'tirof etadilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda "davlat funksiyalari" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: *Davlatning umumijtimoiy mohiyati va ijtimoiy burchidan kelib chiqadigan muayyan maqsadlarga erishish yo`lidagi vazifalarni amalga oshirish bo`yicha davlat faoliyatining bosh (asosiy) yo`nalishlari (tomonlari, ko`rinishlari) davlat funksiyalari deb ataladi.*

Ayni paytda, *davlat funksiyalari deganda*, uning *faoliyat yo`nalishlarini tushunish* kerakligini, lekin hech qachon bu faoliyatning o`zi deb qabul qilish mumkin emasligini alohida ta'kidlash zarur, deb hisoblaymiz. Funksiyalarni ado etish bo`yicha faoliyat konkret-tarixiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi va uni amalga oshirish chog`ida bu funksiyalarning jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyati (salmog`i, har bir funksiyaning boshqa funksiyalar tizimidagi ahamiyati) namoyon bo`ladi.

Davlatning faoliyat sohalari xilma-xil bo`lganini hisobga olib, uning faoliyatining bosh yo`nalishlarini alohida ajratish zarurati kelib chiqqan. Ana shu bosh yo`nalishlarda davlat mohiyati mujassamlanadi, amalga oshiriladi va rivoj topadi hamda ular davlatning mavjud bo`lish tarzini ifoda etadi. Biroq, davlat funksiyalarida faqat uning mohiyati o`z ifodasini topadi, deb o`ylash xato bo`lur edi. Bunda uning ayni vaqtning o`ziga xos xususiyatlari, siyosiy hukmronlikni amalga oshirish hamda davlatga uyushgan jamiyatni boshqarishning ~~alohida~~ xususiyatidan kelib chiqadigan *maqsad va vazifalarini* aslo yoddan chiqarib bo`lmaydi.

Albatta, hech kim davlat funksiyalarining boshqalardan ajralib turuvchi quyidagi asosiy belgliarni inkor etolmaydi: a) ular davlatning mohiyati va ijtimoiy burchi bilan bevosita bog`liq bo`ladi; b) o`zgaruvchan xarakterga ega bo`lgan

hamda davlatning tiklanish, mustahkamlanish va rivojlanish jarayonlariga bog'liq davlat maqsadlariga erishishga qaratilgan vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Shunday qilib, davlat funksiyalarida uning mohiyati o'zining eng ko'p konkret ifodasini topadi. Mazkur konkretlashuv ob'yektiv xarakterga egadir. Zero, davlat funksiyalari jamiyat iqtisodiy va siyosiy tarkibi hamda ijtimoiy guruhlar, jamoalar, butun xalq manfaatlaridan kelib chiquvchi maqsad va vazifalarning hal qiluvchi ta'siri ostida shakllanadi. Shuning uchun bu funksiyalar davlatning butun tarixiy yashash davri mobaynida unga xos, u bilan birga mavjud bo'ladi. Albatta, hokimiyat tepasiga boshqa siyosiy kuchlar kelsa, davlatning funksiyalari ham o'zgaradi. Funksiyalarning o'zgarishi jamiyat uchun juda katta ahamiyatga molik bo'lgan manfaatlar ustuvorligi o'zgarishi (masalan, urush vaqtidagi mudofaa funksiyasi) bilan ham ro'y berishi mumkin.

Har bir funktsiya voqeyiy-siyosiy tavsifga ega bo'lib, u ular faoliyati mazmuni nimadan iborat ekanligini, u yoki bu maqsadga erishish yo'lida ular qanday vositalardan foydalanishini ko'rsatib beradi.

Funksiyalar mazmuni davlat taraqqiyotining ayrim bosqichlarida o'zgarishi mumkin. Bu, ayniqsa, keskin ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, inqiloblar va boshqalar davrlarida yaqqoi ko'zga tashlanadi.

Shunisi e'tiborga loyiqliki, yaqin-yaqinlargacha davlatga uyushgan jamiyat mavjudligining talqini faqat davlat faoliyatida sinfiylik negizi qanchalik namoyon bo'lishiga beistisno bog'liq qilib qo'yilar, bunda uning ijtimoiy asoslari ortga surib tashlanar yoki butunlay tilga olinmasdi. Ayni paytda, hatto, K.Marks ham davlatning butun jamiyat manfaatlariga xizmat qilishiga e'tiborni qaratgan, u buni har qanday davlatning umumiy ishlarni amalga oshirish manfaatlarini yo'lida faoliyat yuritishi zaruratidan kelib chiqishi bilan asoslagandi. Shunday qilib, har qanday davlat butun jamiyat, barcha sinflar, jamiyat barcha ijtimoiy guruhlari va qatlamlari manfaatlarining himoyachisi sifatida

umumijtimoiy faoliyatni amalga oshiradi deb, to`la asos bilan ayta olamiz.

Bu, albatta, davlatdagi sinfiylik va umumijtimoiylik nisbatlari ko`proq sinfiylik funksiyalarini o`z ichiga olgan davlatlar bilan ko`proq umumijtimoiy (demokratik) funksiyalarga amal qiluvchi davlatlarning bo`lishini ko`rsatib berishni rad etmaydi. Bu holat nafaqat davlat faoliyati yo`nalishini, balki uning ijtimoiy vazifalarini ham belgilab beradi. Bu - qonuniyatdir. Zero, ijtimoiylik avvalo jonli adolat va odamlarning jonli qon-qardoshligi bo`lib, shuning uchun ham hayotni adolatlir oq qiladigan har qanday qoida, har qanday qonun, har qanday tartib ijtimoiydir. Yana "ijtimoiylik"ning birinchi sharti inson shaxsiga, uning sha'ni, qadr-qimmati, erkiga asrab-avaylab munosabatda bo`lishdan iborat. Insonni asoratga solish, uni kamsitish ijtimoiylikni inkor etadi, chunki u jamiyatdagi ma'naviy holatni oldindan hal etib qo`yadi. Shuning uchun inson qadr-qimmati kamsitiladigan joydagi davlatning ijtimoiyligi haqida gapirarkan, ular inson manfaatlarini mensishmaydi yoki ularni ko`r-ko`rona yoxud munofiqona rad etadilar. Hatto davlat muayyan darajada o`z fuqarolarining farovonligi bilan shug`ullansada, bunday da`voga qo`shilib bo`lmaydi.

Shu munosabat bilan I.Ilinning quyidagi gaplarini eslaylik: "To`q qarorlar qarorligicha qoladi; bashang kiyingan va bekarniko`st yashovchi qullar qullikdan qutilib qolmaydilar, balki ahmoq, axloqiy buzuq va o`ziga bino qo`ygan qulga aylanadilar. Dag`dag`alar, qo`rquv, chaqimchilik, josuslik, xushomadgo`ylik va yolg`onchilik rejimi har qanday to`qlikka qaramay, hech qachon ijtimoiy bo`la olmaydi. Insonga eng avvalo qadr-qimmat va erkinlik, e'tiqod, din, tashabbuskorlik, mehnat va ijodkorlik erkinligi kerak. Faqat munosib va ozod insongina jonli adolatni va jonli qon-qardoshlikni amalga oshira oladi. Qullar va mustabidlar hamisha boshqa narsalarni istaydilar va hayotga buning aksini joriy etadilar"¹. Aynan shuning ham sotsializm ijtimoiylik ustidan sinfiylik ustuvorligini e'lon qilgan yoki uni "burjua qalloblari"ning uydirmalari sifatida la'natlagan sotsializm adolat va qon-qardoshlik haqida gapirolmasdi ham, bunga haqqi ham yo`q edi. "Sotsializm" nomi bilan odamlarga adolat va qon-qardoshlikni va'da qilib, so`ng ulardan qadr-qimmatini,

¹ Ильин И. О грядущей России. М.: Колорация Текс, 1993. 60-61-бет

erkini, birodarlik qobiliyatini hamda adolat yo`lini tortib olish, - deb yozgandi I.Ilin, - makkorona aldovdir". Bizning davrimizda (kommunistlar qiyofasidagi) sotsialistlar aynan shunday qildilar, insoniyat ularning bu qilmishlarini hech qachon unutmasligiga ularning ishonchi komil bo`laversin"².

Shu asnoda to`la asos bilan aytish mumkinki, umumijtimoiy funksiyalar salmog`i qanchalik katta bo`lsa, davlatning ijtimoiy murosaga erishish, ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtirish vositasi sifatidagi roli shunchalik yuksak bo`ladi. Bunday vaqtlarda davlat faqat zo`ravonlik, majburlov usullaridan foydalanishdan voz kechib, umumdemokratik, insonparvarlik institutlari, g`oyalari (chunonchi, huquqiy davlat g`oyalari) obro`si va ta`siriga ko`proq tayanadi.

Shu munosabat bilan Prezident Islom Karimovning Oliy Majlis birinchi sessiyasida so`zlagan nutqini eslamay ilojimiz yo`q. O`shanda, jumladan, u shunday degandi: "Biz yaqin o`tmishimizda sinfiy hukmronlikning quroli sifatida davlat haqidagi markscha g`oyani shior qilib olib, bu nazariyani dogma, davlat va huquqni esa sinfiy kurash, sinfiy raqiblarni yengish vositasiga aylantirgan edik. Demokratiya sharoitlarida esa davlat ijtimoiy qarama-qarshiliklarni zo`rlik va bostirish yo`li bilan emas, ijtimoiy kelishuv, xalq ta'biri bilan aytganda, murosai madora bilan bartaraf etish vositasiga aylanadi.

Huquqning o`ziga esa ijtimoiy hamjihatlik va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga keltirish vositasi sifatida yondashiladi"³.

Umuman, marksistlarning ma`lum iboralarini bir muncha o`zgartirib aytish mumkinki, davlat uni qo`llab-quvvatlovchi fuqarolarining ongliligi, to`g`rirog`i, ularning huquqiy ongi bilan kuchlidir. Albatta, bunda davlat o`z faoliyatida sinfiy, guruhiiy, milliy va boshqa ijtimoiy manfaatlarni nazarda tutsa va ular bilan hisoblasha olsa hamda ayni paytda umuminsoniy qadriyatlarga amal qilib, ularning ustuvorligini tan olsa -fuqarolar uni qo`llab-quvvatlaydilar. Faqat shundagina uni sivilizatsiyalashgan davlat deb atash mumkin.

² O`sha joyda.

³ I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. T. "O`zbekiston", 1996. 19-20-beilar

2. Davlat funksiyalari tasnifi

Yuridik adabiyotlarda davlat funksiyalarini tasniflashning turli xil asoslari (mezonlari) mavjud. Bular: a) *faoliyat sohalari bo'yicha*, b) *amal qilish davomiyligi bo'yicha*; v) *ijtimoiy ahamiyati bo'yicha*; g) *amalga oshirishning huquqiy shakllari bo'yichadir*.

O`z navbatida *birinchi guruh (faoliyat sohalari) ichki funksiyalar va tashqi funksiyalarga* bo`linadi.

Ichki funksiyalar davlatning mamlakat ichkarisidagi vazifalarni amalga oshirishi bilan bog`liq. *Tashqi funksiyalar* xalqaro darajadagi faoliyat bo`lib, bunda davlat xalqaro-huquqiy munosabatlar sub'yekti sifatida maydonga chiqadi.

Bir qarashda bu yerda hamma narsa ravshandek. Biroq, aslida sira ham unday emas. Nimalarni ichki funksiyalarga va nimalarni tashqi funksiyalarga kiritish xususida huquqshunos olimlar o`rtasida yagona fikr yo`q. Munozaraga batafsil berilib ketmagan holda (zero, har bir nuqtai-nazar o`z yo`lida asoslangan), ixtilof sabablarini ko`rsatib o`tamiz. Fikri-ojizimizcha, funksiyalarni tashqi va ichkiga bo`lish ko`p jihatdan shartlidir. Bu - qonuniyat ham. Holbuki, davlatning mamlakat ichkarisidagi iqtisodiyot, siyosat, madaniyat kabi sohalardagi faoliyati salmoqli darajada tashqi sharoitlarga, tashqi iqqisodiy va madaniy aloqalarga bog`liq. Bu, ayniqsa, bugungi kun voqeligi sharoitlarida - Yevropa Ittifoqi, Mustaqil Davlatlar Ham-do`stligi kabilar mavjud bo`lib, bu davlatlarning ichki va tashqi funksiyalarini qariyb ajratib bo`lmasligida yaqqol namoyon bo`ladi.

Biroq, qariyb barcha mualliflar ijtimoiy hayotning eng ahamiyatli sohalari - iqtisodiyot, ijtimoiy tarkibotlar, jamiyat ma'naviy hayoti hamda tarkib topgan jamoat tartibi davlat funksiyalari ta'sir doirasiga kiradi, deb hisoblaydilar. Shundan kelib chiqib, *iqtisodiy, mafkuraviy, siyosiy, muhofaza* funksiyalari bo`lishini aytish mumkin.

Amal qilishi davomiyligi bo'yicha funksiyalar *doimiy va muvaqqat* turlarga bo`linadi. Doimiy turlarga davlat uchun hamisha xos bo`lib qoladigan funksiyalar (jumladan, iqtisodiy funksiya) kiradi. Ikkinchi xil funksiyalar davlat muayyan maqsadlarga erishishi (masalan, ag`darib tashlangan sinflar yoki qatlamlar qarshiligini bostirish funksiyasi) bo'yicha vazifalarga bog`liq ravishda uzoq vaqt amal qilmaydi.

Ijtimoiy ahamiyatiga ko`ra, davlat funksiyalari asosiy (umumiy) va asosiy bo`lmagan (alohida) turlarga bo`linadi. Ular o`rtasida o`zaro bog`liqlik mavjud.

Endi e'tiboringizni davlatning o`z funksiyalarini amalga oshirish sohasidagi faoliyati albatta *huquq ijodkorligi, boshqaruv va sudlov* deb ataluvchi *huquqiy* shakllarga kirishi, bunday bo`linish asosida hokimiyatning bo`linish tamoyili yotishiga qaratamiz.

Nihoyat, "maqsad"- "vazifa"- "funksiya" tushunchalarining o`zaro munosabatlarini qarab chiqamiz. Buning uchun *davlat maqsadining shakllanishida, uning ijtimoiy burchi namoyon bo`lishi, bu maqsadga erishish uchun aniq vazifalarni bajarish zarurligi hamda bu holat tegishli funksiyalarni amalga oshirishni taqozo* etishini yodda tutishimiz darkor.

Ayni paytda "funksiya" va "vazifalar" tushunchalari ajralmas tushunchalar ekanligini ta'kidlash joiz. Zero, davlat *oldidagi* vazifalarga mutanosiblik davlat funksiyalari toifasining muhim belgi-sidir. Shuning uchun ham hatto vazifalar va funksiyalarning ta'riflari ham ko`pincha, to`g`rirog`i, qariyb hamisha, bir-biriga to`g`ri keladi.

Nega shunday? Shuning uchunki, davlat va jamiyat oldida muayyan vazifalar ko`ndalang bo`lsa, ularga taalluqli funksiyalarni ham amalga oshirish zaruriyati vujudga keladi. Aks holda davlatning vazifalari bajarilmay qolib ketadi.

Shunday qilib, *vazifa ikki xil zaruriyatni: birinchidan, biron-bir maqsadga erishish zaruriyatini, ikkinchidan, muayyan faoliyat turi zaruriyatini* o`z ichiga oladi. Binobarin, davlat funksiyalari uning vazifalariga bog`liq bo`ladi. Zero, ular funksiyalarning mavjudligining zarur sharti bo`lib, bu funksiyalar mazmunini belgilaydi, ularni amalga oshirish shakl va uslublariga ta'sir ko`rsatadi.

Batafsilroq tushuntiramiz. Taraqqiyotning bir bosqichida turgan har qanday davlat bir xil funksiya (masalan, iqtisodiy funksiya)ga ega bo`ladi, lekin ularni amalga oshirish mazmuni va usullari bo`yicha bir-biridan farq qiladi. Yana bir xato fikrdan qochish kerak: har bir bosqichga qat'iy belgilangan funksiyalar mos keladi deb o`ylash mumkin emas, shuning uchun yangi bosqichga ko`tarilishlar davlat yangilariga almashish yo`li bilan ulardan abadiy xalos bo`ladi, deb o`ylash kerak emas. Albatta, vaqti bilan yangi funksiyalar paydo bo`ladi, *lekin* eskilari ham izziz yo`qolib ketmaydi. Faqat ko`ri-

nishlari o`zgarishi, yangi mazmun bilan boyishi mumkin. Buni har qanday davlat evolutsiyasida kuzatish mumkin. O`zbekiston Respublikasi davlati asosiy funksiyalarini ko`rib chiqish chog`ida biz bunga yana bir bor ishonch hosil qilishimiz mumkin.

3. O`zbekiston davlatining asosiy funksiyalari

Ichki funksiyalar:

Iqtisodiy funksiya. O`zbekiston Respublikasi davlatining bevosita *iqtisodiy* funksiyasiga o`tishdan oldin davlatimiz taraqqiyotining *asosiy maqsadini* tavsiflash lozim deb o`ylaymiz. Buning uchun Prezident Islom Karimovning quyidagi so`zlarini keltiramiz: *"Barqaror bozor iqtisodiyoti ochiq tashqi siyosatga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish pirovard maqsad bo`lib qolishi kerak"*⁴.

Maqsad qo`yilgandan keyin shu maqsadga erishish uchun zarur vazifalarni aniqlash va davlat funksiyalarini ta`riflash mumkinligi bizga ma`lum. Buni *iqtisodiy vazifalardan* boshlaymiz:

! milliy boyligimizning o`shirishini, respublika mustaqilligini, odamlar hayoti va faoliyati uchun munosib shart-sharoitlarni ta`minlashga qodir qudratli barqaror va bir tekis rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni yaratish;

! iqtisodiyotning mutanosib va barqaror amal qilishini ta`minlash;

! iqtisodiyotning bir yoqlama xom ashyo ishlab chiqarishga yo`naltirilganligiga barham berish, mineral va qishloqxo`jaligi xom ashyosini qayta ishlashni tashkil etish;

!! mehnat zahiralarning oqilona bandligini ta`minlash, yangi texnologiyalar, xalqimizning tarixiy an`analari va ko`nikmalariga mos keladigan mehnatni qo`llashning yangi sohalarini yaratish;

! ichki tarmoq va hududiy nomutanosibliklarni tugatish, respublika hududida ishlab chiqarish kuchlarini jadal rivojlantirish va oqilona joylashtirish;

! respublikada mulkdorlar sinfini shakllantirish;

! qishloq xo`jaligi va u bilan bog`liq qayta ishlash sanoati tarmoqlarini ustuvor rivojlantirish.

⁴ I.A.Karimov. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom. T., "O`zbekiston", 1996, 39-betlar

Yuqorida sanab o`tilgan vazifalar ahamiyatini yurtboshimiz - mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar muallifi gaplari bilan izohlaymiz. Masalan, respublikada mulkdorlar sinfini shakllantirish vazifalari xususida, jumladan, u shunday degandi: "Insoniyat tarixi shuni ko`rsatadiki, aynan ana shu tabaqaga mansub odamlar tufayligina jamiyatda barqarorlik, faravonlik, taraqqiyot asosi qaror topadi. Misol uchun har qanday iqtisodiy rivojlangan mamlakatni olib ko`raylik. U yerda hal qiluvchi kuch - ana shu mulkdorlar sinfi hisoblanadi"⁵. Shuning uchun O`zbekistonda xususiy tashabbuskorlik va xususiy mulkka asoslangan ijtimoiy davlat barpo etilishi kerak. Bu davlat yangi xo`jayinlardan milliy manfaatlarni yodda tutishlarini hamda mamlakatni chinakamiga mo`l-ko`lchilikka va samarali xo`jalik yuritishga olib borishni talab qilmog`i darkor. Buning uchun tadbirkorlik va tashkilotchilik talanti, adolatlilik tuyg`usi va qalb sahovati kerakligi ni yaxshi bilamiz. Albatta, talantni hadya qilib bo`lmaydi. Biroq, shunday huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitni vujudga keltirish mumkinki, unda o`quvsiz tadbirkor biznesni o`zi tashlab ketishga majbur bo`ladi.

Adolat tuyg`usini ham qonun yo`li bilan paydo qilish mumkin emas. Lekin bunday tuyg`uni tarbiyalash va ko`rinib turgan har qanday adolatsizlikni (alohida ijtimoiy mas'uliyatni joriy etish yo`li bilan) jazolash mumkin. Xuddi shuningdek, qalb sahovatini ham majburiyat qatoriga qo`shib bo`lmaydi, lekin jamoatchilik fikrini tashkil etish orqali uni ham tarbiyalasa va mustahkamlasa bo`ladi.

Vazifalarni aniqlab olgach, endi biz davlatning asosiy funksiyalari orasida quyidagi iqtisodiy funksiyalarni shakllantirishimiz mumkin: a) mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining umumiy dasturlarini belgilash; b) iqtisodiyotning eng ustuvor tarmoqlarini rag`batlantirish; v) tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish; g) aholini ish bilan ta'minlash bo`yicha yangi siyosatni shakllantirish.

Lekin shuni ham aytish kerakki, faqat maqsad hamda vazifalarni va hatto funksiyalarni aniqlashning o`zigina muhim emas. Ularga og`ishmay amal qilish, shu vazifa va funksiyalarni bajarish undan ham muhimroq. Shu munosabat bilan mustaqillik yillarida iqtisodiyot

⁵ I.A.Karimov. Bunyodkorlik yo`lidan. 4-tom. T., "O`zbekiston", 1996. 172-173-betlar

sohasida chuqur o`zgarishlar sodir bo`lganligini mamnuniyat bilan ta'kidlaymiz.

Birinchidan, mulkka bo`lgan munosabatda tub o`zgarishlar yuz berdi. Xususiy lashtirish va mulkni davlat tasarrufidan chiqarish dasturlarini amalga oshirish hisobiga ko`p ukladli iqtisodiyot tarkib topdi.

Ikkinchidan, xo`jalik yuritishning ma'muriy-buyruqbozlik usullari yo`qotildi, bozor omillari kengroq joriy etilyapti.

Uchinchidan, bozor infratuzilmasi shakllantirildi, yangi banklar, soliq tizimlari tashkil etildi, fond va mol-xom ashyo birjalari, lizing kompaniyalari tarmog`i tashkil etildi, qimmatli qog`ozlar bozori shakllantirilmog`da.

To`rtinchidan, o`z milliy pul tizimimiz yaratildi.

Beshinchidan, iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishildi, inflatsiya darajasi qisqartirildi, ishlab chiqarishning pasayishiga chek qo`yildi.

Oltinchidan, iqtisodiyotda tarkibiy o`zgarishlar sodir etilmog`da, respublikaning issiqlik-energetika mustaqilligiga erishildi, o`zimiz ishlab chiqarayotgan tayyor mahsulotlar salmog`i oshdi, sanoat va qishloq xo`jaligining prinsipial yangi tarmoqlari yaratildi.

Biroq, iqtisodiy islohotlarning eng muhim yakunlaridan biri, Prezident ta'biri bilan aytganda, aholida xo`jayinlik, mulkdor hissi-ning tug`iish jarayoni boshlangani va rivoj topayotganidir, o`rta qatlarning, kichik va xususiy korxonalarining, ko`chmas mulk yer uchastkalari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog`ozlarning shakllanayotganligida.

Ijtimoiy funksiyalar:

Ularni bajarish uchun quyidagi *ijtimoiy vazifalar* qo`yilgandi:

! ijtimoiy adolat tamoyilini amalga oshirish, eng kam ta'minlangan aholi qatlamlari - keksalar, nogironlar, yetimlar, ko`p bolali oilalar, o`quvchi yoshlarning kafolatlangan huquqlarini ta'minlash;

! hamma foydalana oladigan sifatli tibbiy xizmatni ta'minlash, onalik va bolalikni muhofaza etish bo`yicha ta'sirchan choralarni amalga oshirish, go`daklar o`limini kamaytirish, odamlar umrini uzaytirish;

: umumiy ma'lumot olish, erkin kasb tanlash va tegishli maxsus tayyorgarlikka ega bo`lishda hammaga teng huquqlarni taqdim etish.

: Milliy, tarix va madaniy an'analarni hisobga olgan holda ta'limning yangi konsepsiyasini ishlab chiqish;

: ijodkorlikning barcha turlarini rivojlantirish uchun, odamlarning talant va qobiliyatlarini qanot yoydirish uchun shart-sharoitlar yaratish, intellektual mulkni muhofaza etish.

Ushbu vazifalarni bajarish quyidagi *ijtimoiy funksiyalarni* belgilab olishni taqozo etdi: a) jamiyatning yordamga muhtoj a'zolarini ijtimoiy qo`llab-quvvatlash; b) sog`liqni saqlashga, xalq ta'limiga, madaniy muassasalar qurilishiga zarur mablag`larni ajratish; v) yalpi ijtimoiy himoyadan ishonchli ijtimoiy kafolatlar tizimiga izchil o`tishni amalga oshirish; g) adolat ustuvorligiga og`ishmay amal qilish tamoyili.

Yangi ijtimoiy siyosatni shakllantirish zarurati haqida gapirib, O`zbekiston Prezidenti quyidagilarni ta'kidlagandi: "Islohotlar davomida kishilar o`z mehnat va aqliy imkoniyatlarini amalga oshirishlari, qilgan mehnatlariga munosib haq olishlari uchun Konstitutsiyada ko`zda tutilgan teng ijtimoiy kafolatlar va imkoniyatlarni ta'minlash zarur. Tashabbuskorlik va omilkorlik butun choralar bilan rag`batlantirilishi lozim. Haqiqatan yordamga muhtoj aholini aniqlab, shunga qarab ularni ijtimoiy qo`llab-quvvatlashga o`tish jarayonini kuchaytirish zarur. Bunda ayrim kishilarning tayyorga ayyorlik kayfiyatidan tezroq xalos bo`lishlarida yordam berish muhim ahamiyatga ega"⁶.

Oliy Majlisning VI sessiyasida mamlakatimizda ijtimoiy adolat tamoyillari qaror topayotganligi, aholining yordamga eng muhtoj qatlamlarini adresli ijtimoiy qo`llab-quvvatlash tizimi yaratilganligi ta'kidlab o`tildi, "... *biz kishilarning turmush darajasi keskin pasayib ketishiga yo`l qo`ymadik, ijtimoiy barqarorlik hamda aholi-ning islohotlarga ishonchini, jamiyatda umummilliy totuvlikni saqlab qoldik*", deya qayd etadi Islom Karimov.

Bularning hammasi jamiyatimizning asosi bo`lgan oilani moddiy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlash imkonini berdi.

Moliyaviy nazorat funksiyasi. Bu funktsiya bevosita va birinchi navbatda soliq siyosati bilan bog`liqdir. O`z navbatida Prezidentimiz

⁶ I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. T. "O`zbekiston", 1996.

⁷ I.A.Karimov. Yangicha fikrlash - davr talabi. 5-tom, T., "O`zbekiston", 1997. 114-bet

ta'kidlaganidek, "Soliq tizimining eng muhim vazifasi - ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom ashyo, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan, to'plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishdir"⁸.

Buning uchun quyidagi vazifalarni hal etish zarur:

|| korxonalarda soliqlar yukini keskin yengillashtirish;
|| daromad solig'i o'rniga foydadan soliqlar undirishga o'tib, soliqlar yukini pasaytirish;

|| qo'shimcha qiymatdan olinadigan soliq miqdorini kamaytirish;

|| tegishli budjetlarni shakllantirish manbalari sifatida respublika va mahalliy budjetlar o'rtasidagi chegarani aniq belgilab qo'yish. Uni amalga oshirish omiliga to'xtalib, I.A.Karimov shunday degandi: "Davlat budjeti daromadlarining katta qismini joylarga berish, mahalliy budjetlarni mustahkamlash zarur"⁹.

Respublikamiz Prezidenti tomonidan ta'riflab berilgan yana ikki vazifani misol tariqasida so'zma-so'z keltiramiz. Ularning birinchisining mazmuni shunday: "Yangi soliq siyosati doirasida soliq tushumlari tarkibini tubdan o'zgartirish, resurslar, mol-mulk solig'ining rolini oshirish, jismoniy shaxslardan soliq undirishning progressiv tizimini joriy etish vazifasi qo'yiladi"¹⁰.

Shu bilan birga, yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "buning uchun qat'iy moliyaviy-kredit siyosatini izchillik bilan o'tkazish zarur. Biz o'z moliyamizdan ishning ko'zini bilib, ehtiyotkorona va tejab-tergab foydalanishimiz, uning behuda sarflanib ketishiga yo'l qo'ymasligimiz zarur. Xalq xo'jaligida sarflangan har bir so'm salmoqli foyda bilan qaytishi, ertangi kunga, respublika istiqboliga xizmat qilishi kerak"¹¹.

Shunday qilib, moliyaviy nazorat funksiyasining bir qismi davlat va mahalliy budjetga ijtimoiy hamda umumdavlat ehtiyojlarini qondirish uchun yo'naltiriladigan ishlab chiqaruvchilarning daromadlarini aniqlash va hisobga olishdan iborat, deb ta'riflashimiz mumkin. Shuningdek, ishlab chiqarishni jonlantirish va iqtisodiyotni barqarorlashtirishning zarur sharti sifatida soliq tizimini yanada

⁸ I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdirlar. 3-tom. T. "O'zbekiston", 1996.322-bet

⁹ O'sha joyda, 324-bet.

¹⁰ O'sha joyda, 323-bet.

¹¹ O'sha joyda, 334-335-betlar.

takomillashtirib borish ham moliyaviy nazorat funksiyasining tarkibiy qismidir.

4. Jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta'minlash funksiyasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti istiqlolning dastlabki yillari natijalarini sarhisob qilar ekan, ko'pmillatli jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, fuqarolar o'rtasida tinchlik va millatlararo totuvlik saqlanganligi mustaqil O'zbekistonning bunyod bo'lishi va rivojlantirishining birinchi, boshlang'ich bosqichida qo'lga kiritilgan eng asosiy yutuq bo'lganligini ta'kidlagan edi.

Bu o'sha muhim faoliyatda natijalarni qo'lga kiritish uchun davlat tomonidan:

-bir-biriga qarshi turish o'rniga milliy mansubligi, dini, siyosiy e'tiqodidan qat'i nazar, barcha odamlarning jipslashuvi;

-bizdan oldingi avlodlarning mehnati, to'kkan terlari va qoni asosida to'plangan barcha boyliklarni saqlab qolish;

-bozor islohotlariga yo'l ochuvchi huquqiy normalarni yaratish, qabul qilingan qarorlarni izchil amalga oshira borish, odamlarning turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida konkret amaliy vazifalarni chinakamiga ro'yobga chiqarish; respublikaning milliy va ijtimoiy taraqqiyot yo'lidan olg'a borishi;

-ekstremistlar va siyosiy avantyuristlar tomonidan xalqlar o'rtasiga dushmanlik va nifoq urug'ini sochishga har qanday urinishlarning oldini olish singari *vazifalar* qo'yilgandiki, hech mubohlag'asiz ular katta ahamiyat kasb etgandi. Zero, faqat tinchlik, totuvlik va o'zaro yordam sharoitlaridagina har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tish mumkin.

Binobarin, davlatimizning mazkur funksiyasini *uning barqarorlik, tinchlik va o'zaro totuvlikni ta'minlash – davlatchiligimiz binosi barpo etiladigan bu muhim poydevorni bunyod qilishga qaratilgan, bir maqsadga yo'naltirilgan doimiy va izchil faoliyati sifatida ta'riflay olamiz.*

5. Huquq-tartibotni muhofaza qilish funksiyasi

Bir yo'la mazkur yo'nalishdagi davlat faoliyatining asosiy maqsadi faqat hozirgi zamon sharoitlariga mos keladigan qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilishdangina iborat bo'lib

qolmay, balki ularga og`ishmay rioya etilishini ta'minlashdan ham iborat ekanligini qayd etamiz. "Qonunga rioya etish hamma uchun majburiy bo`lgan, uni buzishga esa, aslo yo`l qo`yib bo`lmaydigan huquqiy hayot tartibini, huquqiy madaniyat darajasini ishlab chiqish zarur edi"¹².

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun:

-yangi huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish;

-qonunlar ijrosi ustidan aniq nazorat o`rnatish;

-insonning ishonchli konstitutsiyaviy va yuridik huquqlari, ijtimoiy kafolatlarini, aholining ijtimoiy himoyalaniishi va qo`llab-quvvatlanishini ta'minlovchi qonunchilikni shakllantirish;

-qonunlar asosida yashash va mehnat qilishda, o`z huquq va erkinliklarini qonunlar orqali himoya qilishga o`rganish, o`z majburiyatlarini og`ishmay bajarish;

-qonunchilik va huquq-tartibotni mustahkamlash singari *vazifalar* ko`ndalang qo`yilgandi.

Mazkur vazifalarning so`nggisi ustida batafsilroq to`xtalishni istardik. To`g`rirog`i, ushbu qoidaning I.A.Karimov tomonidan Oliy Majlisning to`rtinchi sessiyasida qanday izohlanganiga e'tiboringizni jalb qilmoqchimiz: "...men bugun huquqiy davlatning eng asosiy talabi - davlatimizda qonunlarni amalga oshirishga, qonunchilikni ta'minlashga safarbar etilgan kishilarning ularni aniq va og`ishmay ijro etishini talab qilish to`g`risida alohida gapirmoqchiman. Men hokimiyat tuzilmalari, huquqni muhofaza etish, sud va nazorat organlarini nazarda tutyapman"¹³.

Aytilganlardan kelib chiqib, davlatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi huquqni muhofaza qilish funksiyasini eng umumiy tarzda: u ijtimoiy munosabatlar barcha ishtirokchilarning qonunlarni aniq va og`ishmay bajarishlarini ta'minlash bo`yicha bundan buyongiy maqsadga yo`naltirilgan faoliyatdan iborat, deb ta'riflashimiz mumkin.

6. Tabiatni muhofaza qilish (ekologiya) funksiyasi

Yaqin o`tmishda aholi ehtiyojlarining o`sib borishi bilan jamiyat tabiiy boyliklaridan tobora ko`proq foydalana borishi kerak,

¹² O`sha joyda, 201-202-betlar.

¹³ I.A.Karimov. Bunyodkorlik yo`lidan. 4-tom, T., "O`zbekiston", 1996.184-bet

degan fikr hamma yerda hukmronlik qilgani ko`pchilikning yodida bo`lsa kerak. Bunda atrof-muhitning buzilishi, ekologiya makonining o`zgarib ketishi, odamlar istiqomat qiladigan joylar hayot uchun xavfli falokat mintaqalariga aylanib ketishi ehtimoli hech kimni tashvishga solmasdi. Shu tariqa ming yilliklar mobaynida tabiat, inson va ishlab chiqarish o`rtasida tarkib topgan muvozanat barham toptirilgandi.

Respublikamiz mohiyat-e'tiboriga ko`ra xo`jalik yuritishning "sotsialistik usulining, tabiat va hayot tarzini o`zgartirishning garoviga aylanib qolgandi. Bu esa, mintaqamizni ayanchli ahvolga solib qo`ygandi. Orolning ekologik halokati, qishloq xo`jaligi ehtiyojlari uchun ekologik zarar hisoblangan moddalar (masalan, butilfos)ning ishlatilishi, zararli ishlab chiqarish korxonalari (Chirchiqdagi kaprolaktan zavodi)ning joylashtirilishi, yerlardan vahshiylarcha foydalanish va boshqalar respublikamizda tabiiy-ekologik tanglikni vujudga keltirgandi.

Prezident Islom Karimov yashash ekologiyasi, tabiat ekologiyasi va ma'naviyat ekologiyasi ajralmas tushunchalar ekanligi xususida doimo gapirib keladi. Uning ta'kidlashicha, respublikada juda xavfli jismoniy halokat vaziyati vujudga kelgan bo`lib, shu muhitda inson ekologiya sohasidagi oldingi davlat siyosatining garoviga aylanib qolgandi.

Shunday qilib, hozirgi bosqichda davlatimizning tabiatni muhofaza qilish funksiyasi:

-tabiiy zahiralardan vahshiylarcha foydalanish, atrof-muhitga zarar yetkazish va respublikada ekologik ahvolning yomonlashuviga yo`l qo`ymaslik;

-boshqa davlatlar ishtirokida Orolni qutqarish, Orolbo`yida ekologik sharoitlarni sog`lomlashtirish bo`yicha ta'sirchan choratadbirlarni amalga oshirish, mazkur mintaqa iqtisodiyoti va ijtimoiy sohalaridagi halokatli oqibatlarni barham toptirishdan iborat, deya to`la asos bilan xulosa qila olamiz.

7. O`zbekiston Respublikasining tashqi funksiyalari

Boshqa mamlakatlar bilan o`zaro foydali hamkorlik yangi tashqi siyosatni barpo etish funksiyasi sifatida.

Mustaqillik yillari mobaynida davlatimiz tashqi siyosatini barpo etishning asosiy tamoyillari ishlab chiqildi va izchil hayotga tadbir etib kelinmoqda. Ular, eng avvalo, O`zbekiston o`z tashqi siyosatini teng huquqlilik va o`zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyillari asosida qurishga intilishidan kelib chiqadi.

O`zbekiston Respublikasi iqtisodiy hamkorlikning ko`ptomonlama xalqaro mexanizmlariga faol qo`shilib ketdi, obro`li xalqaro moliyaviy va iqtisodiy tashkilotlarga a`zo bo`lib kirib, ularda faol siyosat olib bormoqda. Bu tashkilotlar orasida Biriashgan Millatlar Tashkiloti va uning tuzilmalari, Jahon Banki, Xalqaro valuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko`maklashish tashkiloti, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Jahon sog`liqni saqlash tashkiloti va boshqa moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlar bor.

O`rta Osiyodagi boshqa davlatlar Qozog`iston bilan birga O`zbekiston ham Turkiya, Eron va Pokiston tomonlaridan tashkil etilgan iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a`zo bo`ldi. Bu O`zbekistonga dengiz portlariga, tovarlar va kapitalning jahon bozorlariga chiqishini ta`minlaydigan davlatlararo transport kommunikatsiyalarini hamkorlikda qurish loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashish imkonini beradi.

1994 yilning iyunida O`zbekiston Tariflar va savdo bo`yicha Bosh Bitim (TSBB)da kuzatuvchi maqomini oldi. Hozir O`zbekistonning bu tashkilotga to`la huquqli a`zo bo`lib qo`shilishi masalasi qo`yilmoqda. Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligini tashkil etuvchi mamlakatlar bilan bevosita va ko`ptomonlama munosabatlarni rivojlantirish siyosatimizning ustuvor yo`nalishlaridan biri bo`lib kelyapti. O`zbekiston Hamdo`stlik g`oyalarini qo`llab-quvvatladi, ta`sischilar guruhiga kirdi va integratsiyalashuv hamda kooperatsiya asosidagi aloqalarni mustahkamlash ishlarida faol ish olib bormoqda.

O`zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda iqtisodiyotimizga chet el investitsiyalarini keng jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga katta ahamiyat bermoqda.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda davlatimizning tashqi iqtisodiy funksiyalarini quyidagicha izohlash mumkin:

-tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada liberallashtirish bo`yicha bir maqsadga yo`naltirilgan siyosatni olib borish;

- respublika iqtisodiyotiga kapital mablag`larni to`g`ridan-to`g`ri keng jalb etishni ta`minlovchi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sharoitlarni yanada takomillashtirish;

- respublikamizga jahon andozalari darajasidagi texnologiyalarni yetkazib beruvchi, xalq xo`jaligining zamonaviy tarkibini yaratishga ko`maklashuvchi xorijiy investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini og`ishmay olib borish;

- suveren Markaziy Osiyo davlatlari bilan do`stlik, qardoshlik aloqalarini mustahkamlash, ular bilan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni chuqurlashtirish va yanada rivojlantirish, ilmiy va madaniy ayirboshlashni kengaytirish O`zbekiston tashqi siyosatining muhim yo`nalishidir;

- Orol bo`yidagi ekologik halokat oqibatlarini bartaraf etish. Orol dengizini qutqarish bo`yicha birgalikdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan xalqaro hamkorlik doirasidagi faoliyat yo`nalishi ustuvor bo`lib qolaveradi;

- musulmon davlatlari bilan o`zaro munosabatlarni, shu jumladan, ko`ptomonlama asosidagi munosabatlarni yanada chuqurlashtirish;

- Janubi-Sharqiy Osiyoning yangi sanoat mamlakatlari bilan tenghuquqli munosabatlarni yo`lga qo`yish;

- iqtisodiy taraqqiy etgan - AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya va boshqa mamlakatlar bilan o`zaro manfaatli mustahkam aloqalarni o`rnatish;

- butun tashqi iqtisodiy faoliyatimizni tashkil etishni yanada isloh qilib borish.

Ushbu funksiyalarni hayotga joriy etish *"..O`zbekiston iqtisodiyotini jahon iqtisodiy hamjamiyatiga keng ko`lamda uyg`unlashtirish uchun iqtisodiy hamda tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish imkonini beradi"*¹⁵.

8. Mamlakat mudofaasi funksiyasi

Mazkur funksiya davlat faoliyatining muhim yo`nalishini tashkil etadi. Davlatchilik taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ahamiyati g`oyat katta bo`lib kelgan. Zero, hamisha mamlakat

¹⁵ I.A.Karimov. O`zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-ton. T., "O`zbekiston", 1996. 60-bet

ozodligi va mustaqilligini tashqi bosqinchilardan himoya qilishning ob'ektiv zarurati mavjud bo'lib kelganligi ma'lum.

Mamlakat mudofaasi funksiyalari *iqtisodiy, siyosiy, diplomatik va harbiy vositalar* bilan amalga oshiriladi.

Hozirgi zamon davlatlarining aksariyati o'z *mudofaa doktrinasiga* ega. Buning ahamiyati boshqa davlat yoki bir guruh davlatlar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan agressiyaning oldini olish uchun eng maqbul darajada yetarli kuch va vositalarni vujudga keltirishda o'z ifodasini topadi. Shu munosabat bilan respublikamiz Prezidenti Oliy Majlisning birinchi sessiyasida so'zlagan nutqida shunday deb ta'kidlagandi: "Armiyamiz, Qurolli Kuchlarimiz, harbiy doktorinamiz davlatimiz xavfsizligining muhim kafolatidir"¹⁶.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 125-moddasida: "O'zbekiston Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi"¹⁷, deb yozib qo'yilgan.

Davlatning mudofaa funksiyasi uning harbiy doktrinasiga asoslangan bo'lib, ular besh asosiy yo'nalishni tashkil etadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlash. Mamlakat mudofaa qobiliyatini ta'minlash uchun, eng avvalo, mamlakat mudofaa quvvatini mustahkamlash yo'lida zarur bo'ladigan hamma narsani yetkazib bera oladigan taraqqiy etgan iqtisodiyot kerak bo'ladi. "Shu bilan birga, - degan edi Islom Karimov, - Vatanimiz mudofaa qudratining asosi - respublika iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash darkor"¹⁸.

2. Qurolli Kuchlarni, ularning jangovar qudrati va jangovar tayyorgarligini doimiy takomillashtirib borish. Shu maqsadda O'zbekistonda "Armiyani texnik jihatdan jihozlashni mustahkamlash chora-tadbirlari ko'rildi. Iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, bundan keyin ham harbiy salohiyatni ta'minlash uchun zarur mablag' ajratish davom etaveradi. Bizning harbiy doktorinamiz mudofaa va xavfning oldini olish xarakteriga ega"¹⁹.

¹⁶ I.A. Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. T. "O'zbekiston". 1996. 51-bet

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., "Adolat". 1998. 77-bet.

¹⁸ I.A. Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. T. "O'zbekiston". 1996. 52-bet

¹⁹ O'sha joyda.

3. Davlat chegaralarini mudofaa qilish. Ushbu maqsad Islom Karimovning Oliy Majlis birinchi sessiyasidagi nutqida yaxshi ifodalangan: "Atrofimizdagi notinch dunyoda do'stlarimiz bor, lekin O'zbekistonni o'z ta'sir doirasiga kiritishni xohlaydiganlar ham yo'q emas. Buning uchun ular barcha ayraqlardan, qolaversa, harbiy kuchdan ham foydalanishlari mumkin. Shu sababli bizning yaxshi tayyorlangan va qurollangan, istiqlolimiz va chegaralarimizni himoya qilishga qodir armiyamiz bo'lishi kerak"²⁰.

4. Qurolli kuchlarning harbiy ta'limi. Shu maqsadda davlat harbiy hisobda turgan shaxslarni vaqti-vaqti bilan harbiy qayta tayyorgarlikdan o'tkazib turadi. Bu Armiyani jangovar tayyorgarlik holatida ushlab turish imkonini beradi. Oliy va o'rta o'quv yurtlarida olib boriladigan qo'shindan tashqari harbiy tayyorgarlik ham muhim ahamiyatga ega. Yurtboshimizning ta'kidlashicha: "So'nggi paytlarda O'zbekistonda Qurolli Kuchlar uchun eng zarur va yuksak malakali zobitlar tayyorlashga mo'ljallangan bir qancha harbiy o'quv yurtlari tashkil etildi"²¹.

5. Fuqarolarning mudofaasini tashkil etish. Ushbu tadbir dushman ommaviy qirg'in qurollari bilan zarba beradigan yashash joylardan aholini evakuatsiya qilishni nazarda tutadi. Shu maqsadda himoya qurilmalari (bombadan saqlanish joylari), shuningdek qutqaruv va mudofaa ishlarini o'tkazish uchun aholi va maxsus bo'linmalarni tayyorlash ham ko'zda tutiladi.

Mudofaa funksiyalari mustaqil mavjud bo'lmagani ta'kidlash joiz. Ular iqtisodiy, ijtimoiy, jamoat tartibini saqlash, ekologik funksiyalar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Prezident nutqida aynan shu xususiyat qayd etilgan: "Hozirgi dunyoda davlat barqarorligini ta'minlash jamiyatning ijtimoiy-ruhiy, ma'naviy va axloqiy, madaniy va tarixiy ildizlariga tayanadi"²².

²⁰ I.A. Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. T. "O'zbekiston", 1996. 52-bet

²¹ O'sha joyda.

²² O'sha joyda, 53-bet.

VI bob. DAVLAT MEXANIZMI

Davlat mexanizmi tushunchasi

Davlatga o'z hokimiyatini amalga oshirish imkonini beruvchi tashkiliy-moddiy kuch davlat mexanizmidir. Mexanizm davlatning nimadan tashkil topganligini ko'rsatuvchi tarkibiy va predmetli ifodasidir. Aytish mumkinki, mexanizm davlatning doimiy amal qilishi, faoliyatining ifodachisidir.

Davlat mexanizmi - davlat organlari va muassasalarining davlat hukmini, davlat vazifalari va funksiyalarini amalga oshiruvchi yaxlit iyerarxik tizimidir.

Keltirilgan tavsif davlat mexanizmiga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni belgilab olish imkonini beradi.

1. U davlat organlari va muassasalarining yaxlit iyerarxik tizimidir. Uning yaxlitligi davlat organlari va muassasalari tamoyillarining, vazifalari va maqsadlarining yagonaligi bilan ta'minlanadi.

2. Davlat xizmatchilari (amaldorlar, ba'zan boshqaruvchilar, deb yuritiladi) faoliyat ko'rsatayotgan davlat organlari va muassasalari mexanizmning dastlabki tarkibiy qismidir. Davlat organlari subordinatsiya va muvofiqlashtirish asoslari bilan o'zaro bog'liqdir.

3. Davlat hukmining ta'minlanishi uchun u har bir davrning texnik darajasidagi majburlash qurol (muassasa)lariga - qurollangan otryadlar, qamoqxonalar va shu kabilarga ega bo'ladi. Biron bir davlat ularsiz faoliyat yurita olmaydi.

4. Mexanizm yordamida hukmronlik amalga oshiriladi va davlat vazifalari ijro etiladi.

Davlatning funksiyalari va vazifalari o'rtasida bevosita va mustahkam aloqa mavjud. Mexanizm davlat funksiyasini bajarish uchun yaratilgan. Davlat organlari va muassasalari uning o'zgaruvchan funksiyalariga moslashishi kerak. Agar jamiyatda sinfiy va milliy ziddiyatlardan kelib chiqadigan vazifalar yetakchilik qila boshlasa, shu bilan bog'liq ravishda davlat mexanizmining zo'rlash, majburlash organlari birinchi o'ringa chiqadi.

O'quv adabiyotida davlat «mexanizmi» va «apparati» tushunchalari mohiyati jihatidan bir-biriga yaqin deb tushuntiriladi. «Mexanizm» atamasi faqat apparatning yaxlitligi, uning amaliy faoliyatga yo'naltirilganligi bilan izohlanadi.

2-§. Davlat mexanizmi tarkibi

Davlatning yagona va yaxlit mexanizmi tarkibiy qismlarga - organlar, yordamchi tuzilmalarga ajraladi. Ular o'rtasida o'ziga xos iyerarxiya mavjud: davlat mexanizmida turli organlar va yordamchi tizimlar turlicha o'rin egallaydi, ular o'zaro subordinatsiya va muvofiqlashtirishning murakkab munosabatlariga kirishadi.

Davlat mexanizmi tarkibi o'zgaruvchan va turlicha, lekin barcha sharoitda uning tarkibiga boshqaruv va majburlash organlari kiradi. Buni davlat mexanizmining bir qismi faqat boshqarish bilan, ikkinchisi faqat majburlash bilan shug'ullanadi, deb tushunmaslik kerak. Amalda boshqaruv va majburlash vazifalari bir-biriga qo'shilib ketadi.

Ko'p asrlar va ming yilliklar davomida davlat mexanizmi yaxshi taraqqiy etmagan, uning organlari tarkibi va vazifalariga ko'ra ajratilmagan edi. Quldorlik, feodalizm davrlarida, kapitalistik davlatning boshlang'ich davrlarida ham davlat mexanizmining asosini harbiy muassasa, ichki ishlar, moliya va tashqi ishlar muassasalari tashkil etar edi.

Zamonaviy davlat mexanizmi o'ta murakkabligi, organlari va muassasalarining turli-tumanligi bilan ajralib turadi, yirik qo'shimcha tizimlarga bo'linadi. Masalan, davlatning oliy organlari: hokimiyat, davlat rahbari, hukumat uning bir qismini tashkil etadi. Ular odatda jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari diqqat markazida bo'lib, jamoatchilik fikrini shakllantiradi. Ikkinchi qo'shimcha tizim - huquqni muhofaza etish, sud, prokuratura organlari, shuningdek, harbiy kuchlar (armiya, politsiya, razvedka)dir. Ular davlat oliy organlari qarorlarini bajaradilar. Bunda davlat majburlash usullari (harbiy tazyiq, politsiya choralari) qo'llanilishi mumkin.

Davlat organlari tarkibiga hokimiyat vakolatlariga ega bo'lmagan, iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda umumijtimoiy vazifalarni bajaradigan davlat muassasalari ham kiradi.

3-§. Davlat organi tushunchasi va belgilari

Davlat mexanizmining dastlabki va eng muhim tarkibiy unsuri davlat organidir.

Davlat organi - davlat funksiyalarini ijro etishda qatnashuvchi va buning uchun hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan davlat mexanizmining bo'g'ini (unsuri)dir.

Ushbu organ xususiyatlarini o'rganish umuman davlat mexanizmini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

1. Davlat organi muayyan mustaqillikka, avtonomlikka ega bo'lsada, u yaxlit davlat mexanizmining bir qismidir, davlat tarkibida o'z o'rniga ega bo'lib, uning boshqa qismlari bilan mustahkam aloqada bo'ladi.

2. Davlat organi o'zaro va organ bilan alohida huquqiy munosabatlarda bo'lgan davlat xizmatchilaridan iborat. Ular rasmiy xodimlar bo'lib, o'zaro oilaviy, fuqaroviy va boshqa munosabatlarga kirishmaydi.

Davlat xizmatchilarining mavqei, huquqi va burchlari qonunchilik tomonidan belgilanib, ularning huquqiy maqomini ta'minlaydi. Ular tomonidan hokimiyat vakolatlaridan foydalanish hajmi va tartibi qonunchilik tomonidan belgilanib, lavozim yo'riqnomalari, shtat jadvallari va shu kabilarda izohlanadi.

Hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan, huquqiy hujjatlar chiqarib, ularni mustaqil ravishda hayotga joriy etuvchi mansabdor shaxslar davlat xizmatchilari qatoriga kiradi.

Davlat xizmatchilari bevosita moddiy boyliklar yaratmaydi, shu sababdan ularni jamiyat boqadi. Ular egallab turgan lavozimiga hamda bajargan ishiga muvofiq tarzda davlat organidan ish haqi oladi.

3. Davlat organlari ichki tuzilishga (tarkibga) ega. Ular yagona maqsad atrofida uyushgan bo'linmalardan iborat bo'lib, hamma uchun bir xil bo'lgan tartib-intizomga rioya etadi.

4. Davlat organining eng muhim belgilaridan biri muayyan mohiyatga va hajmga ega bo'lgan hokimiyat vakolatlari (huquq va majburiyatlar yaxlitligi)ning mavjudligidir. Uning vakolati davlat organi tomonidan ular bo'yicha qaror qabul qiladigan va bajaradigan aniq masalalar va vazifalar bilan belgilanadi. Vakolat odatda yuridik jihatdan (konstitutsiyada yoki joriy qonunchilikda) belgilab

qo'yilgan bo'ladi. Davlat organi tomonidan o'z vakolatini amalga oshirish nafaqat uning huquqi, balki burchi hamdir.

5. O'z vakolatiga muvofiq ravishda davlat organi quyidagi hokimiyat vakolatlariga ega:

a) ijro etilishi majburiy bo'lgan huquqiy hujjatlar. Bu hujjatlar me'yoriy yoki individual (huquq me'yorlarini qo'llashga doir hujjat) bo'lishi mumkin;

b) davlat organlari huquqiy hujjatlarining ijrosi turli usullar, shu jumladan majburlash va ishontirish tarzida ijro etilishini ta'minlash.

6. O'z vakolatini amalga oshirish uchun davlat organi zarur moddiy baza bilan ta'minlanadi, moliyaviy mablag'lar, bankdagi hisob raqami, moliyalash manbaiga (byudjet hisobidan) ega bo'ladi.

7. Davlat organi davlat vazifalarini bajarishda faol qatnashadi, buning uchun tegishli shakl va usullardan foydalanadi.

4-§. Davlat organlari turlari

Davlat organlari turli asoslarga ko'ra tavsiflanadi.

Kelib chiqish usuliga ko'ra, ular birlamchi va hosila organlarga bo'linadi. Asosiy davlat organlari boshqa organlar tomonidan yaratilmaydi. Ular meros tartibida o'tadi (monarxiya) yoki belgilangan tartibga ko'ra saylanadi va saylovchilardan hokimiyat vakolatini oladilar. Ularga ijrochi-farmoyish beruvchi organlar, prokuratura organlari va shu kabilar kiradi.

Hokimiyat vakolati hajmiga ko'ra davlat organlari oliy va mahalliy turlarga bo'linadi. Hamma mahalliy organlar ham davlat organi bo'lavermaydi (masalan, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi). Davlat oliy organlari davlat hokimiyatini eng ko'p darajada o'zida mujassamlashtiradi va uni davlatning butun hududiga tadbiq etadi. Davlatning mahalliy organlari ma'muriy-hududiy birliklar (grafliklar, okruglar, kommunalar, uyezdlar, viloyatlar va hokazo)da faoliyat ko'rsatadi, ularning vakolati faqat o'z hududlari doirasida amalga oshiriladi.

Umumiy va maxsus vakolatga ega bo'lgan davlat organlarining faoliyat doirasi keng. Ular keng miqyosdagi masalalarni hal etishi mumkin. Masalan, hukumat qonunlarni ijro etar ekan, davlat barcha vazifalarining ijrosida ishtirok etadi. Maxsus (soha) vakolatga ega bo'lgan organlar u yoki bu vazifani, muayyan faoliyat turini ijro

etishga ixtisoslashadi (moliya vazirligi, adliya vazirligi).

Davlat organlari saylab qo'yiladigan va tayinlanadigan, kollegial va alohida bo'lishi mumkin. Davlat mexanizmi, uning oliy organlari tasnifiga bevosita hokimiyatni taqsimlash tamoyili ta'sir ko'rsatadi. Unga ko'ra qonunchilik, ijroiya va sud organlari tashkil etiladi.

Qonunchilik organlari. Odatda qonun chiqarish huquqi oliy hokimiyat vakillik organlariga tegishli bo'ladi. Ular umumiy «parlament» tushunchasi bilan ifodalanadi. Angliya, Kanada, Hindiston va boshqa mamlakatlarda «parlament» termini - qonunchilik organining nomini bildiradi, boshqa mamlakatlarda esa uning nomi o'zgacha.

Parlamentarizmning taraqqiyoti burjuaziya davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyoti davriga to'g'ri keldi. Aynan shu paytda uning asosiy vakolatlari doirasi qaror topdi: qonunlar qabul qilish, byudjetni tasdiqlash, hukumatga so'rovlar va uning faoliyatini muhokama qilish shaklida nazorat etish, ishonch yoki ishonchsizlik bildirish va shu kabilar. Ijtimoiy hayot murakkablashgani sayin, odatda, ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot jarayonida hukumat rolining o'sishi va parlament rolining pasayishi kuzatiladi.

Dunyo mamlakatlarining ko'pchiligida parlamentlar yuqori va quyi palatadan iborat bo'ladi. Kichik mamlakatlar (Daniya, Finlandiya) parlamentlari bir palatali bo'ladi. Yuqori palata, odatda, demokratik bo'lgan quyi palatani muvozanatlashga xizmat qiladi.

Davlat boshlig'i. Uch qismga bo'lingan davlat hokimiyati o'z yagonaligi va suvverenligini yo'qotmaydi: uning hukmronligini ta'minlovchi manba yagona - xalq; u mamlakat aholisining yagona tub manfaatlarini ifodalaydi. Shu sababdan qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatining mustaqilligi mutlaq bo'lmay, nisbiydir. Davlat boshlig'i bu organlarning yaxlit davlat irodasi manfaati yo'lida va umum-davlat maqsadlari yo'lidagi faoliyatning muvofiqlashtirilishini ta'minlashi kerak. Zamonaviy davlatlarda davlat rahbarlari odatda yagonadir: konstitutsion monarxiyada — monarx, respublikalarda — prezident.

Monarx konstitutsiyaviy qarorlar yoki qaror topgan an'analarga ko'ra, parlamentga nisbatan qator huquqlarga ega: sessiya chaqirish, sessiyani tarqatish (odatda quyi palatada), yuqori palata a'zolarini tayinlash, qonunlarni tasdiqlash va e'lon qilish kabi. U partiyaviy fraksiyalar ko'pchiligi yoki parlament fraksiyalari koaliti-

siyasi fikrini e'tiborga olgan holda hukumat rahbari va vazirlarni tayinlaydi (yoki tasdiqlaydi). Rasmiy jihatdan u oliy bosh qo'mondon hisoblanadi va xalqaro munosabatlarda mamlakat nomidan ish ko'radi. Amalda bu vakolatlar hukumat (yoki tegishli vazirlik) tomonidan amalga oshiriladi.

Zamonaviy davlatlarning ko'pchiligida aholi yoki parlament tomonidan saylanadigan yoxud alohida saylov jarayoni orqali saylanadigan prezident davlat boshlig'i hisoblanadi.

Prezident chet ellik diplomatik vakillarni qabul qiladi, boshqa davlatlarga elchilar tayinlaydi, qator mamlakatlarda xalqaro shartnoma va bitimlarni tasdiqlaydi, harbiy kuchlarning oliy bosh qo'mondoni hisoblanadi. Ayrim mamlakatlarda prezident parlamentni tarqatib yuborish, qonunni tasdiqlashdan bosh tortish, uni ikkinchi bor parlament ixtiyoriga havola etish huquqiga ega.

Parlamentar va prezidentlik respublikalarida prezidentning vazifasi va vakolatlari bir xil emas.

Parlamentar respublikalarda prezident ichki ishlardagi kam harakatchan shaxs bo'lib, amaliy hokimiyatni o'z qo'lga to'plab olgan hukumat rahbari tomonidan ikkinchi o'ringa surib qo'yilgan. Masalan, bunday davlatlarda parlamentning tarqatilishi prezident farmoni bilan rasmiylashtirilsada, amalda hukumat qaroriga ko'ra amalga oshiriladi; hukumatni tayinlash uchun parlament roziligi talab etiladi. Prezidentning hujjatlari hukumat rahbari yoki tegishli vazirlik rahbarining imzosisiz amaliy kuchga ega emas.

Prezidentlik respublikalarida prezident - markaziy siyosiy figuradir. Masalan, AQSh prezidentiga Konstitutsiya tomonidan keng vakolatlar berilgan. U bir paytning o'zida ham davlat, ham hukumat rahbari. U 2,5 million davlat xizmatchilaridan tashkil topgan davlat apparatini boshqaradi. Ulardan 1500 federal idoralar rahbarlarini shaxsan o'zi tayinlaydi. Faqat oliy federal lavozimlarga Senatning roziligi bilan tayinlaydi. U davlat hayotining turli masalalari bo'yicha farmonlar chiqaradi.

Ijroiya organlari. Ijroiya hokimiyati bevosita mamlakatni boshqarayotgan hukumatga tegishlidir. Hukumat, odatda, hukumat rahbari (bosh vazir, kengash raisi yoki vazirlar mahkamasi raisi, birinchi vazir, kansler va shu kabilar), uning o'rinbosarlari va hukumat a'zolaridan iborat bo'lib, ular davlat boshqaruvining

alohida idoralarini (vazirliklar, departamentlar) boshqaradi va vazirlar, kotiblar, statis-kotiblar deb nomlanadi.

Har bir davlatda bitta hukumat tashkil etiladi. Federativ davlatda umumfederal hukumati va federatsiya a'zolari hukumati mavjud bo'ladi.

Hukumat o'z vakolati doirasiga kiruvchi barcha masalalar bo'yicha ijro etilishi majburiy bo'lgan huquqiy hujjatlar chiqaradi (farmonlar, dekretlar, qarorlar va farmoyishlar).

Hukumat o'zining ko'p tomonlama faoliyatini davlat ma'muriyatining ko'p sonli organlari - vazirliklar, mahkamalar va komissiyalar va shu kabilar orqali amalga oshiradi. Vazirliklar va boshqa idoralar murakkab, keng taraqqiy etgan amaldorlarning byurokratik apparatiga ega bo'lib, davlat mexanizmi asosini tashkil etadi.

Huquq organlari birmuncha murakkab, fuqarolik, jinoiy, ma'muriy, harbiy dala, transport va boshqa sudlardan iborat tizimdir. Uning boshida oliy va konstitutsiyaviy sudlar turadi. Sud organlari sud yuritishning protsessual huquqi tomonidan tartibga solinadigan odil sudlovni amalga oshiradi.

Sudlar mustaqildir. Qonunchilikda barchaning qonun va sud oldida tengligi, ishni ko'rib chiqishda maslahatchilarning ishtirok etishi, aybdorning himoyalani sh huquqi kabi demokratik tamoyillar belgilab qo'yilgan.

Davlat mexanizmiga davlat hokimiyatining asosiy kuchini tashkil etuvchi harbiy kuchlar, xavfsizlik organlari, politsiya (militsiya) kiradi. Militsiyaning vazifasi - jamoat tartibini himoya qilish va davlatning ichki xavfsizligini ta'minlashdir. Militsiya o'z faoliyatining turli jihatlariga ko'ra tor ixtisosliklarga bo'linadi. Masalan, siyosiy militsiya ichki xavfsizlikni ta'minlaydi, o'z davlatining siyosiy muxoliflariga qarshi kurash olib boradi. Jinoiy militsiya jamoatchilik tartibini saqlaydi. U transport militsiyasi, chegara militsiyasi, sanitariya militsiyasi, o'rmonchilik militsiyasi va shu kabilarga bo'linadi.

Davlat mexanizmida mahalliy hokimiyat organlari alohida o'rin egallaydi. Bunday organlar yoki mansabdor shaxslar (gubernatorlar, prefektlar, komissarlar va shu kabilar) odatda hukumat tomonidan u yoki bu hududni boshqarish uchun tayinlanadi (Finlyandiya, Lyuksemburg). Ko'pincha tayinlangan mansabdor shaxslar bilan birga hududiy miqyosda aholi tomonidan saylangan mahalliy

hukumat organlari faoliyat ko'rsatadi. Shunday davlatlar ham borki, u yerda mahalliy o'z-o'zini boshqarish vazifasini aholi tomonidan saylanadigan mahalliy ma'muriyat bajaradi.

5-§. Davlat mexanizmida byurokratiya va byurokratizm

Byurokratiya va byurokratizm davlat singari qadimiy bo'lib, uning ajralmas qismidir, ko'p jihatdan uning mexanizmini (apparati) belgilaydi.

«Byurokratiya» tushunchasi ko'pincha turlicha tushuniladi. M.Vebr ta'biri bo'yicha byurokratiya - davlat apparati faoliyatining hamma uchun majburiy bo'lgan, tartibga solingan jarayonlari ustuvorligiga asoslangan davlat boshqaruvining oqilona tashkil etilishidir. Ularning ijro etilishi kim tomonidan va kimga yo'naltirilganligiga qarab farqlanmaydi. Ushbu tartib barcha uchun barobar. Bunday bixillashtirish davlat amaldorlarining nuqso-nlaridan kafolatlanishi va suiiste'molchiliklarning oldini olishga xizmat qiladi. K.Marks byurokratiyaga keskin salbiy munosabatda bo'lib, uni mutloq yomonlik tarzida baholagan.


Boshqarishning byurokratik usulidan farqli o'laroq byurokratizm kasallik bo'lib, butun dunyo davlatlariga xosdir. Tom ma'noda byurokratizm «byuro», ya'ni yozuv stoli, idoraning hukmronligini anglatadi. Mohiyatan - davlatdan ajralib qolgan hokimiyatdir. Byurokratlarining asosiy zahirasi - aynan hukmronlik, uni suiiste'mol qilish, lavozim, xizmat burchidan foyda ko'rishdir. Byurokratning qo'lida bu zahira kapitalning boshqa ko'rinishlariga, moddiy boyliklarga aylanadi.

Byurokratizmning yashovchanligi asosan manfaatlar xilma-xilligi va qarama-qarshiligida, ulardan boshqa maqsadlar yo'lida foydalanish imkoniyati mavjudligidadir. Chunonchi, davlat manfaatini burokratlar idoraviy yoki mahalliyga, guruhlarning manfaatiga yoki shaxsiy manfaatga aylantirishi mumkin. Ya'ni «davlat vazifalari idoraviy vazifalarga aylantiriladi», «idoraviy vazifalar davlat vazifalariga aylantiriladi». Byurokratizmga xos bo'lgan xususiyatlardan biri yashirin ish yuritishga, maxfiylikka intilishdir.

Burokratik apparatning eng muhim qonunlaridan biri - hokimiyatni saqlash va kuchaytirish, ya'ni o'z-o'zidan o'sishdir. Shu sababli, davlat apparatining kengayib ketganligini burokratiyaning

avj olishi belgisi, deb baholash mumkin.

Burokratiya bilan kurashishning eng amaliy vositasi demokratiyadir. Davlat mexanizmining barcha bo'g'inlari ustidan doimiy demokratik nazoratning o'rnatilishi, davlat organlari xodimlarining hisobdorligi va almashuvchanligi, oshkoralik va tanqid burokratiyaning kushandasidir.



1-§. Huquqning tushunchasi va mohiyati

"Huquq" iborasi kundalik hayotimizda ko'p qo'llaniladigan tushuncha bo'lib, "haq", "haqiqat" so'zlaridan olingan. Huquq hozirgi kunda quyidagi ma'nolarda qo'llaniladi: **birinchidan**, muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsning huquqi. Masalan, fuqaro Ahmedovning ilm olish huquqi. **Ikkinchidan**, huquq hamma uchun majburiy bo'lgan, davlat tomonidan o'rnatilgan va bajarilishi ta'minlangan, muhofaza qilinadigan qoidalar, me'yorlar majmuidir.

Masalan, Fuqarolik kodeksi – mulkiy va shaxsiy xususiyatga ega nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi davlat tomonidan belgilangan, umummajburiy qoida, me'yorlar majmuidir.

Uchinchidan, huquq – ijtimoiy fan sohalaridan birining nomi bilan bo'lib, davlat va huquq haqidagi ilmlarni o'zida mujassamlashtiradi. Masalan, konstitutsiyaviy huquq fani, fuqarolik huquqi fani, jinoiy huquq fani.

Aflotun va Arastu fanga siyosiy huquq tushunchasini kiritgan va uni tabiiy hamda shartli huquqlarga ajratgan. **"Siyosiy huquq – tabiiy huquq va shartli (insonlar xohish-irodasi bilan o'rnatiladigan) huquq"** qismlaridan iborat. **Tabiiy huquq** tan olish yohud tan olmaslikdan qat'i nazar hamma joyda bir xil ahamiyatga ega bo'lgan qoidalardir. **Shartli huquq** – insonlar tomonidan ularning xohish-irodasiga ko'ra o'rnatilgan qoidalar majmuidir.

N.Kant huquqni "qat'iy imperativ" deb ataydi va uni insoniy holatlarga ham tarixiy davrlarga ham, tajribalarga ham bog'liq bo'lmay mutlaqlik xususiyatiga ega deb hisoblagan. Kantning "qat'iy imperativ" "shunday xatti-harakat qilginki, sening xatti-harakat qoidalaring barcha uchun umumiy bo'lmay qolmasin", degan talabga asoslanadi. Inson qat'iy imperativga amal qilishda erkin bo'lgandagina huquq haqida so'z yuritish mumkin deb hisoblaydi Kant. Qat'iy imperativ asosda birovning boshqalarga nisbatan zo'ravonlik qilishini cheklaydigan normalar huquqni tashkil etadi. Tabiiy qonunlar asosida birovning boshqalarga nisbatan zo'ravonlik qilishini cheklovchi normalar majmuasi huquq deyiladi.

Kantning fikricha, huquq tabiiy, isbot talab qilmaydigan

qoidalar majmuidir, ikkinchidan, huquq qonun sohibi erki-irodasini ifodalovchi ijobiy qoidalar yig'indisidir, uchinchidan, huquq - adolatni amalga oshirish qoidalaridir.

Qadimgi Rim mutafakkirlari huquqni yaxshilik, halol yashash, har kimga o'ziga munosibini berish, o'zgalarga zarar yetkazmaslik, ezigulik va adolat san'atidir, deb ta'riflaydi.

Sharq mutafakkiri, qomusiy olim Abu Nasr al-Forobiy huquqni fozil kishilarning haqiqiy baxtga erishish vositasi deb tushungan. Huquq, uning fikricha, mamlakatda tinchlikni ta'minlash, xavfsizlikni ta'min etish, taraqqiyotga shart-sharoit yaratish, ijodiy mehnatga imkon yaratish vositasidir. **Huquq - ehtirolarni jilovlash vositasidir.** Huquq - insonni asrash, avaylash qurolidir.

Yuridik adabiyotlarda huquqqa turlicha ta'rif berilgan: **«Huquq - bu davlat tomonidan o'rnatiladigan yoki ma'qullanadigan va qo'riqlanadigan, hamma uchun majburiy bo'lgan yashash qoidalaridir. Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi regulyatoridir»¹.**

Ikkinchi fikr: **«Huquq - ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va qonunlarda ifodalangan adolat va erkinlik g'oyalariga tayanuvchi normativ qoidalar tizimi»**, - deb ta'riflaydi².

Uchinchi fikr: **«Huquq - davlat tomonidan belgilangan yoki ruxsat etilgan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq-atvor qoidalari tizimi»**dir,³ -deb hisoblaydi.

Huquqni zamon talablari asosida to'g'ri tushunish amaliy faoliyat uchun g'oyat muhim va zarurdir. Shu bois huquqqa davlat arboblari ham katta e'tibor berib, uni tushunishga o'z munosabatlarini ifodalaydilar. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov huquqqa shunday ta'rif bergan: **«Huquq ijtimoiy hamjihatlik va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga keltirish vositasi»**dir⁴.

Xulosa qilib aytish mumkinki, huquq ko'p qirrali tushuncha, bir

¹ Qarang: Davlat va huquq nazariyasi. AA'zamxo'jayev va SH. O'razayev tahriri ostida. T., 1992, 255-bet.

² Qarang: Davlat va huquq nazariyasi. AA'zamxo'jayev va SH.O'razaev tahriri ostida, T., 1992, 255-bet.

³ Tojixonov U., Saidov A. Davlat va huquq asoslari. O'quv qo'llanma. T., 1999,40-bet.

⁴ Karimov I. A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., «O'zbekiston», 26-bet.

ta'rifda uning hamma jihatlarini qamrab olishning imkoni yo'q. Shunday bo'lsa-da, huquq tushunchasini tashkil etuvchi quyidagi asosiy belgilarni ko'rsatish mumkin:

- 1) Huquqning barcha uchun majburiyligi;
- 2) Huquqning qonun va boshqa aniq shakllarda ifodalangan bo'lishi;
- 3) Huquqning davlat tomonidan o'rnatilishi, muhofaza qilinishi;
- 4) Huquqning ijtimoiy tartib-intizom, erkinlik, adolatparvarlik, tenglikni ta'minlash vositasi ekanligi;
- 5) Huquqning sub'yektiv va ob'yektiv huquqlarga bo'linishi va sub'yektiv huquqlar orqali harakat qilishi;
- 6) Huquq ehtirolarni jilovlash vositasi ekanligi.

Mazkur belgilarning majmui huquq haqida to'laroq tushunchaga ega bo'lish imkonini beradi.

Huquqning mohiyatiga kelsak, huquqning insoniyat uchun xizmat qilishi bilan belgilanadi. Demak, huquqning mohiyatini aniqlash uchun uning kimga xizmat qilishini, kimning irodasini ifodalashini aniqlash zarur.

2-§. Huquqni tushunishning umumiy masalalari va ularning amaliy faoliyat uchun ahamiyati

Huquq falsafiy va nazariy kategoriya sifatida aniq mazmunga ega bo'lganda muhim vosita sifatida ahamiyatga molik bo'ladi. **Huquq nima** degan masala bo'yicha istagancha bahs yuritish mumkin, uning kelib chiqishini turlicha talqin qilish, huquqning mohiyati va jamiyatdagi o'rnini aniqlashda turli fikrlar aytish mumkin. Ammo amaliy faoliyatda huquqni bir xil tushunish, bir xil nuqtai nazar, bir xil aniqlik nuqtasini belgilash zarur bo'ladi. Darhaqiqat, agar fuqarolar huquqqa asoslanib harakat qilsa, agar yurist-amaliyotchi masalani to'g'ri hal qilish uchun huquqqa murojaat qilsa, fuqarolar yoki mansabdor shaxslar xatti-harakatini aniqlash, huquq to'g'risida umumiy aniq tushuncha zarur bo'ladi.

Huquqni tushunish turlicha bo'lganda barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy aloqalarni tartibga solish bo'yicha u o'z qadrini yo'qotgan bo'lar edi. Huquqni tushunishdagi aniqlik - ijtimoiy munosabatlarda tartib va muayyanlikning dastlabki talabidir.

Dunyoning turli qismlarida, turli davlat guruhlarida yoki alohida

olingan mamlakatlarda o'zining huquq tizimi tarixan shakllangan. Muayyan tomon, zamon va rivojlanish shart-sharoitlari, u yoki bu xalqlarning huquq manbalari ob'yektiv tarzda shakllangan. Shu bilan birga har bir zamonning muayyan qismida, har bir alohida vaziyatda huquq haqidagi tasavvurlarda yagona yondashuvga erishish bo'yicha kelishuv yuz bergan.

Mavjud dunyo huquqiy tizimlari va huquqiy oilalari buni yaqqol tasdiqlaydi. Agar davlatlarning huquq tizimi bir-biriga yaqin bo'lsa, fuqarolar bir davlatdan ikkinchisiga o'tganda tez moslashadi, yuristlar hech qiynalmay sudlov faoliyatini amalga oshirishda qatnashadi. Huquqni yagona tarzda tushunish turli mintaqqa xalqlarini bir-biriga yaqinlashtiradi.

Nima uchun **huquqiy davlat qurayotgan O'zbekiston** davlatida ham boshqa davlatlardagi kabi huquqni tushunishda turli xil yondashuvlar mavjud? Albatta, O'zbekistonda hozirgi paytda hech kim ataylab huquqni tushunishni chalkashtirayotgani, xas-po'shlayotgani yo'q. Tarixda huquqni tushunishda shunday holatlar ham ro'y bergan. Rasman huquq deb hisoblangan qoidalar, me'yorlar yetarli foydalanilmay, qo'llanilmay qolgan. Jamiyat, uning quyi va yuqori tabaqalari o'z davlat qonunlari bilan chiqishmay qolganda, ya'ni mazkur qonunlar yo'qsullarga ham, hokimiyat sohiblariga ham og'ir yukka aylangan hollarda yozma huquq o'z qadrini yo'qotgan, qonuniylik inqirozga yuz tutgan.

Huquqqa nisbatan turli xil yondashuvlar jamiyatni demokratlashtirish bilan, xususan fikrlar xilma-xilligini e'tirof etish bilan muvofiqlashadi.

Turli xil kuchlar, ijtimoiy harakatlar, partiyalar hayotga, umuman tizimimizga, xususan huquqqa doir ham o'z nuqtai nazarlari, qarashlariga ega bo'lishi tabiiy, albatta. O'zbekistonning siyosiy mustaqillikka erishuvi, marksizmning mafkuraviy kishanlaridan xalos bo'lishi tufayli avval burjua huquq tizimi deb bepisand qarab kelingan huquq tizimlaridan ham bugungi kunda foydalanish imkoniyatlari ochilmoqda. Xususan, huquqning huquqiy davlatni barpo etish muhim quroli ekanligi O'zbekistonda tan olindi va bu borada ibratli ishlar qilinmoqda. Huquq huquqiy davlat barpo etish yo'nalishlarini belgilab bermoqda. Qonun ustuvorligi, davlat hokimiyati hujjatlarining huquqqa muvofiqligi ta'minlanmoqda.

Huquqiy davlatni shakllantirish jarayonida huquq va uni to'g'ri tushunishning amaliy ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi. Nimani muhofaza qilish, nimaga bo'ysunish, nimaga itoat etmaslik - bu masalalar har bir amaliyot xodimining qarshisida turgan masaladir.

Umumiy qoida sifatida aytish mumkinki: huquqni qo'llovchilar va oddiy fuqarolar uchun yuridik kuchga ega bo'lgan qonunlar va unga asoslanib chiqariladigan hujjatlar g'oyat zarur. Huquq ijodkorlari, qonun ijod qiluvchilar uchun huquq masalasi juda muhim.

Yuridik adabiyotlarda huquqqa turli xil yondashuvlar bayon etilgan bo'lib, ularda huquqning turli jihatlarini xususida fikrlar bildirilgan. Huquqni mukammalroq bilish, tasavvur qilish uchun uning turli xil ta'riflarini bilish, tahlil qilish nihoyatda muhim ahamiyatga molik. Ammo amaliy faoliyat uchun huquqni tushunishda bir xillikka erishish lozim.

3-§. Huquqqa «normativ» yondashuv - qonuniylik va barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatida

O'zbekistonda keng tarqalgan huquqqa yondashuvlardan biri - **normativ yondashuvdir**. Huquqni davlat tomonidan muhofaza qilinadigan normalar majmui deb tushunish huquqiy qoidalarning me'yoriy hujjatlarda ifodalangan mazmuni bilan fuqarolar va boshqa ijrochilarga bevosita tanishish imkonini beradi va o'z harakatining huquqqa mosligini aniqlashga yordam beradi.

Huquqni tushunishning normativ nazariyasi XX asrda o'zining mantiqiy tugallangan shakliga ega bo'ldi. Mazkur nazariyaning namoyandalari Shtammliyer, Novgorodtsev, Kelzen va boshqalardir. Bu nazariyaning asosiy g'oyalari:

- huquq - normalar tizimi, ehromi bo'lib, uning eng yuqorisida asosiy norma bo'ladi, bu norma qonun chiqaruvchi tomonidan belgilanadi, quyi normalar yuqoridagi normalardan kelib chiqadi;

- yuridik fanlar huquqni sof shaklda o'rganishi kerak, u siyosiy, iqtisodiy baholardan xoli bo'lishi lozim.

Huquqni bunday tushunishning ijobiy va salbiy jihatlarini mavjud. Avvalo ijobiy jihatlarini xususida:

Birinchidan, huquqning normativ nazariyasida huquqning eng muhim normativlik xarakteri ta'kidlanadi. Ezgulik, ayniqsa, umumiy

va barqaror bo'lsa, u umumiy qoidaga aylanadi.

Ikkinchidan, normativlik huquqning shakliy aniqligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, huquqiy talablarga asoslanish imkonini beradi.

Uchinchidan, huquqning buzilish holatlarida davlat majburlovi chorolari belgilanadi.

To'rtinchidan, qonunsizlik va zo'rvonlik rejimiga qonuniylik qarama-qarshi qo'yiladi.

Beshinchidan, qonuniy kuchga kirayotgan iroda adolatli, axloqiy, ilg'or bo'lishi shart.

Oltinchidan, yuridik amaliyot mobaynida ijtimoiy munosabatlar qonunga asoslanib chiqarilgan hujjatlar asosida normativ tarzda tartibga solinadi.

Yettinchidan, ijtimoiy taraqqiyotga davlat ta'sir etishining keng imkoniyatlarini tan oladi.

Mazkur nazariyaning ushbu ijobiy jihatlari shubhasizdir. Ayniqsa, davlatning huquq orqali ijtimoiy taraqqiyotga samarali ta'siri, jamiyat manfaatlarini ifodalashi, insonparvarlik, adolat, ozodlik qadriyatlariga asoslanishi g'oyat muhimdir.

Huquqni normativ tushunish barqarorlik, tinchlik-osoyishtalik hukmron bo'lgan mamlakatlarda katta samara beradi. Agar qonunlar o'z vaqtida yangilanib borsa, demokratik talablarga rioya qilinsa, huquqiy normalarda xalqning ilg'or kayfiyati, g'oyalari ifodalansa, huquqni bunday tushunish e'tirozlarga sabab bo'lmaydi.

Huquqni normativ tushunishning salbiy jihatlari:

- shaxsning tabiiy huquqlarini cheklaydi, davlat yaratgan huquqlarning ustuvorligiga asoslanadi;

- huquqni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy omillardan ajratib qo'yadi;

- yuridik normalarning ustunligini tan olish oqibatida eski huquq normalarining ham qo'llanishiga yo'l qo'yadi;

- odat huquqi, shartnomalarni huquq manbai sifatida yetarli inobatga olmaydi.

4-§. Huquqqa «sotsiologik» yondashuv - ijtimoiy hayotning o'sishini ta'minlash vositasi

Huquqqa «sotsiologik» yondashuv XIX asrning ikkinchi yarmida «erkin huquq» maktabi doirasida shakllangan. Ovrupoda bunday yondashuvning namoyandalari Erlix, Jeni, Muromtsev va boshqalardir. Huquq normalari ijtimoiy taraqqiyot talablariga javob bermay qolgan sharoitda vujudga keldi va rivojlandi. Mazkur yondashuv quyidagi g'oyalarga asoslanadi:

1. Huquq tabiiy huquqlarda ham emas, qonunlarda ham emas, balki qonunlarni hayotga tadbiiq etishda ifodalanadi.

2. Huquq - yuridik xatti-harakatlar, yuridik amaliyot, huquqiy tartibot, qonunlarning qo'llanishidir. Huquq bu huquqning sub'yektlari - jismoniy va yuridik shaxslarning amaliy xulq-atvorlaridir.

Bu nazariyaning boshqacha nomi «jonli huquq» nazariyasidir.

3. «Jonli huquq»ni dastavval sudyalalar o'zining yurisdiksiyon faoliyatida yaratadi. Ular «qonunlarni» huquq bilan to'lg'izadi va sudyalalar huquq ijodkorligi faoliyatini amalga oshiradi.

Huquqni «sotsiologik» tushunish o'ziga xos ijobiy va salbiy jihatlarga ega.

Ijobiy jihati shundan iboratki, ***birinchidan*** huquqni bunday tushunish huquqning hayotga tadbiiq etilishiga asoslanadi.

Ikkinchidan, huquq shakllariga nisbatan ijtimoiy munosabatlar ustuvorligi tan olinadi.

Uchinchidan, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklashni tan oladi, boshqaruvni markazlashtirmaslik tarafdori.

Huquqni sotsiologik tushunishning salbiy jihatlari:

- agar huquqni qonunlarni hayotga tadbiiq etish, real huquqiy tartibot deb tushunsak, huquqiy va huquqqa xilof xatti-harakatlarni belgilash mezonlari yo'qoladi, chunki huquqni hayotga tadbiiq etish qonuniy va g'ayriqonuniy bo'lishi mumkin;

- huquq ijodkorligining faqat sudyalalar va ma'muriyatchilarga yuklab qo'yilishi ayrim mansabdor shaxslar tomonidan oshkora zo'ravonlik va o'z vakolatlari doirasidan chetga chiqish, ishonchni suiiste'mol qilish xavfini kuchaytiradi.

Bizning sharoitimizda mansabdor shaxslarning qonunni chetlab o'tishi, qonun talablarining aksini qilgan holda o'z manfaatlarini qondirish hollari uchray turadi. Agar huquqni sotsiologik tushunish

hukmron bo'lsa, undaylarning faoliyati qonuniy bo'lib qoladi va huquq bilan, qonun bilan hech qanday bog'liq joyi qolmaydi. Mansabdor shaxslarga, ayniqsa militsiya xodimlariga «faqat qonun yo'l qo'ygan barcha xatti-harakatga ijozat beriladi» tamoyili ko'proq, ishonchliroq samara beradi.

Sotsiologik yondashuv tadqiqotchilar va qonun chiqaruvchi idora uchun yaxshi samara berishi mumkin. Huquqni bilish, foydali va samarali qonunni ishlab chiqish uchun amaldagi qonunchilikni o'rganish zarur. Hayotga tadbiiq etilgan yozma huquq normalarini o'rganish ularni takomillashtirishning eng ma'qul yo'lidir. Hayotga tadbiiq etilgan huquq - ijtimoiy munosabatlarni qonun bilan tartibga solishdagi nuqson va kamchiliklarni aniqlash manbaidir.

5-§. Huquqning psixologik nazariyasi

Huquqqa yondashuvda ayrim olimlar huquqiy normalar va huquqiy munosabatlar bilan birga huquqiy ongni ham huquq tushunchasiga kiritadilar. Shu bois huquqning psixologik nazariyasi kelib chiqdi, u fanda va amaliyotda mustaqillikka da'vogar bo'lsa-da, aslida huquqiy realizm g'oyalari va boshqa nazariyalar bilan bog'liqlikda yashab kelmoqda.

Mazkur nazariya XX asrda mantiqiy to'la shakllangan bo'lib, Petrajitskiy, Ross, Reysnyer va boshqalar bu nazariyaning Ovrupodagi namoyandalaridir. Mazkur nazariyaning asosiy g'oyalari:

1. Inson psixikasi (ruhiyati) - ijtimoiy taraqqiyot - jamiyat, davlat, huquq, axloqning rivojlanishini belgilovchi omil;

2. Huquq tushunchasi va mohiyati qonun sohibi faoliyati orqali emas, psixologik qonuniyatlar - huquqiy ehtiroslar (imperativ-atributiv xarakter), ya'ni nimagadir huquqiy vakolat (atributiv norma), nimadir qilish burchi (imperativ norma) majmui orqali kiritiladi deb hisoblaydi;

3. Barcha huquqiy his-tuyg'ular ikkiga - ijobiy (davlat tomonidan o'rnatiladigan) va intuitiv (shaxsiy) huquq his-tuyg'ulariga bo'linadi. Intuitiv huquq inson xulq-atvorining haqiqiy tartibga soluvchisi bo'lib, «haqiqiy» huquq sifatida qaralishi kerak.

Mazkur nazariyaning ijobiy jihatlari:

- **birinchidan**, huquqni tushunishda iqtisodiy, siyosiy jarayonlar bilan birga psixologik jarayonlarga ham e'tiborni qaratadi.

Bu ijtimoiy psixologiyani hisobga olmay, individning psixologik tuzilishini inobatga olmay turib qonunlar chiqarish mumkin emasligini bildiradi;

- **ikkinchidan**, jamiyat huquqiy tizimida, huquqiy tartibga solishda huquqiy ongning o'rnini va ahamiyatini oshiradi;

- **uchinchidan**, inson huquqlarining manbaini qonunlardan emas, inson ruhiyatidan qidiradi.

Salbiy jihatlari:

- haddan ziyod psixologik omillarga katta e'tibor berib, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy omillarga e'tiborni susaytiradi;

- intuitiv huquqning haqiqiy deb hisoblanishi bilan huquqni davlatdan ajratadi, huquqiy, huquqqa xiloflik, qonuniy va g'ayri-qonuniylik o'rtasidagi farqni, mezonni yo'qotadi.

Sobiq sovet huquq nazariyasida huquqqa psixologik yondashuv sub'yektiv idealizmga olib keluvchi nazariya sifatida rad etilgan edi. Biroq, sovet hokimiyatining dastlabki yillarida agar prolyetar davlatining manfaatlari talab qilsa, sud'yalar huquqiy ongga murojaat qilishi dekretlarda tan olingan edi. Amalda esa, sotsialistik huquqiy ongga asoslanib, joyida otib tashlash intuitiv huquqi keng miqyosda qo'llanildi. Buning salbiy oqibatlari hammaga ma'lum.

Biroq, huquqqa psixologik yondashuv nazariyasining asoschisi L.I.Petrajitskiy huquqni ob'yektiv va sub'yektiv, intuitiv va pozitiv, rasmiy va norasmiy turlarga bo'lib tushuntiradi. Yuridik amaliyotda, xususan qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotida psixologik nazariya xulosalaridan samarali foydalanish mumkin. Huquq normalari harakatining psixologik mexanizmini bilish nihoyatda muhim, chunki bu huquqni qo'llashda huquqni qo'llovchining kasbiy mo'ljallarining to'g'ri va aniq bo'lishi, huquqni qo'llash motivlarining asosli bo'lishi imkonini beradi.

6-§. Tabiiy huquq nazariyasi (huquqqa falsafiy yondashuv)

Huquqni tushunishga falsafiy yondashuv nazariya sifatida XVII-XVIII asrlarda to'la mantiqan shakllandi. Uning namoyandalari Gobbs, Lokk, Radishchev va boshqalardir.

Mazkur nazariyaning asosiy g'oyalari:

- ijobiy huquq, ya'ni davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar bilan bir qatorda insonga tug'ilishidanoq berilgan oliy, haqiqiy,

«tabiiy» huquq mavjud. Har qanday qonun ham huquqiy bo'lmisligi mumkin;

- huquq va axloq aynanlashtiriladi, (mazkur nazariya namoyandalarning fikriga ko'ra) adolat, haqiqat, ozodlik, erkinlik, tenglik kabi axloqiy tushunchalar huquqning o'zagini tashkil etadi va huquq ijodkorligi hamda huquqni qo'llash jarayonini belgilab beradi;

- inson huquqlarining manbai qonunlarda emas, inson tabiatida bo'lib, unga tug'ilishdan yoxud xudoning amri bilan ega bo'lish mumkin.

Huquqni tushunishning tabiiy huquq nazariyasi quyidagi ijobiy jihatlarga ega:

- **birinchidan**, nazariyalar orasida eng ilgari bo'lib, yangi erkin davlat tuzumi yaratilishiga asos bo'ldi;

- **ikkinchidan**, qonunlar huquqiy bo'lmisligi mumkin, agar qonunlar insonning tabiiy huquqlariga zid kelsa, ularni inkor qilsa, adolat, haqiqat, erkinlik, tenglik me'yorlari buziladi;

- **uchinchidan**, inson huquqlarining manbai tabiat yoxud Olloh deb tan olinadi. Shu bois davlat tuzilmalari va mansabdorlar tomonidan zo'ravonlik qilishning, suiiste'mollarning oldini olish imkoni yaratiladi.

Huquqni bunday tushunish ham o'ziga xos salbiy jihatlarga ega bo'lishi mumkin.

Xususan:

1. Huquqni mavhum axloqiy qadriyat sifatida tushunish uning shakliy-yuridik xususiyatlarini susaytiradi, qonuniy va qonunga xilof harakatlar mezonini har xil odamda har xil bo'ladigan erkinlik, adolat, haqiqat to'g'risidagi tasavvurlarga qarab belgilashda qiyinchiliklarga olib keladi.

2. Huquqni bunday tushunish huquq bilangina emas, huquqiy ong bilan ham ko'proq bog'liq bo'ladi. Huquqiy ong esa turli xil odamlarda turlicha bo'ladi.

Huquqni bunday tushunishga O'zbekistonda ham alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston davlatining qonunlari ham insonning tabiiy huquqlarini, adolat, haqiqat, ozodlik, mustaqillik nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda belgilamoqda.

Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi ajdodlarimiz ham huquqni tabiat yoxud Olloh

tomonidan insonlarga berilgan imkoniyatlar majmui deb tushunganlar.

7-§. Huquqni tushunishga tarixiy yondashuv

Huquqni tushunishga tarixiy yondashuv XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida mantiqan shakllandi. Uning asosiy namoyandalari Gugo Grotsiy, Savini, Puxta va boshqa olimlardir.

Mazkur nazariyaning asosiy g'oyalari:

1) Huquq - tarixiy hodisa bo'lib, til kabi faqat biror kishining kelishuvi yoki kimningdir ko'rsatmasi bilan emas, muayyan tarixiy sharoitda kelib chiqadi va rivojlanadi.

2) Huquq - dastavval huquqiy odatlar (yuridik oqibatlar keltirib chiqaruvchi, tarixan shakllangan xulq-atvor qoidalari)dir. Qonunlar «milliy ruh», «xalq ongi» zamirida huquqdan kelib chiquvchi qoidalar majmuidir.

3) Bu nazariya namoyandalari inson huquqlarini inkor etib, yirik yer egaligi hukmron bo'lgan vaqtda insonning tabiiy huquqlarini tan olishi mumkin bo'lmagan.

Huquqni tarixiy tushunish nazariyasining ham o'ziga xos kamchiliklari yo'q emas:

- bu nazariya yirik yer egaligi tuzumi inqirozga uchragan bir paytda tabiiy huquq nazariyasiga qarama-qarshi nazariya sifatida eski tuzumni saqlab qolish niyatida vujudga kelgan;

- huquqiy odatlarning ahamiyatini qonunlardan ustun qo'yishga harakat qiladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida huquqiy urf-odatlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda davlat organlarining huquqiy hujjatlarisiz o'zlik qilib qoladi.

8-§. Huquqni markscha tushunish

Huquq nazariyasi huquqni markscha tushunishni bunday ta'riflaydi: **birinchidan**, huquq sinfiy hodisa bo'lib, hukmron sinfnings qonun darajasida ifodalangan irodasidir.

Ikkinchidan, huquqda ifodalangan sinfiy irodaning mazmuni moddiy ishlab chiqarish xarakteri bilan, ishlab chiqarish vositalarining to'la egasi, davlat hokimiyatini o'z qo'lida tutib turgan sinfnings xarakteri bilan belgilanadi.

Uchinchidan, huquq ijtimoiy hodisa bo'lib, sinfiy iroda -

davlat-normativ irodasi sifatida ifodalanadi. Huquq - davlat tomonidan o'rnatilgan muhofaza qilinadigan normalar yig'indisidir.

Huquqni marksistik tushunish o'ziga xos salbiy nuqsonlarga ham ega.

Xususan:

- huquqda umuminsoniy qadriyatlarga putur yetkazib sinfiy holatlarga ortiqcha ahamiyat beradi;

- huquqni haddan ziyod moddiy omillar iqtisodiy determinizm bilan bog'laydi.

9-§. Huquqni tushunishga integrativ yondashuv

Huquqni tushunish bo'yicha har xil yondashuvlar bilan tanishuv huquqning ko'p qirrali tushuncha ekanligini tasdiqlab turibdi. Bu yondashuvlarning birortasi mutlaq to'g'ri ham emas, noto'g'ri ham emas. Ularning har biridan biror foydali jihatlarni topish imkonini beradi. Shu bois huquqni tushunishda integrativ yondashuvga ehtiyoj tug'iladi. Chunki, huquqni qo'llash va huquqni ijod qilish jarayonida bu nazariyalarning barcha ibratli jihatlarni umumlashtirish zarurati tug'iladi. Biroq, barcha nuqsonlarini umumlashtirish xavfini oldini olish kerak bo'ladi.

Integrativ yondashuv asosida huquqni mukammal qiluvchi, rivojlantiruvchi, inson, davlat, jamiyat talablariga javob beruvchi jihatlarni umumlashtirishga e'tibor berish zarur. Bu huquqning shakliga ham, mazmuniga ham taalluqli xususiyatlarni qidirishni zarur qilib qo'yadi. Erkinlikning adolatli o'lchovlari huquqning mazmunini tavsiflaydi, shakliy jihatini esa davlat tomonidan majburlovga asoslanuvchi majburiylik tashkil etadi. Shu bois, amaliyotchi (sudya, prokuror, militsiya xodimi, yuriskonsult) uchun qaysi normativ hujjatda, qanday huquqiy munosabat, qanday huquqiy ongda ifodalgan erkinlik va adolatni emas, muayyan jamiyatda muhofaza qilinadigan erkinlik va adolatni himoya qilish muhim. Aks holda noroziliklar, janjallar, har qanday adolatni toptashlarga yo'l ochiladi.

Shunday qilib, huquq amalda mutlaqo mukammal talabga javob beradigan bo'lmay, vaqt va makon shart-sharoitlariga qarab o'zgarishlar, to'ldirishlar, yangilanishlarga muhtoj bo'ladi. Shu bois huquq ijodkorligining samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida huquqqa har xil yondashuvlardan foydalanish, huquqning har xil

ta'riflarini o'rganib ularni sintez qilish yaxshi samara beradi. Huquq nima degan bahslar asosida juda ko'p amaliy muammolar: huquqning asoslari, huquqning manbalari, huquqning ta'sir doirasi, huquqning samaradorligi, huquqdagi ziddiyatlar hal qilinadi.

Xulosa qilib, huquqning integrativ ta'rifini keltiramiz. Huquq - jamiyatda tan olingan va rasmiy muhofaza bilan ta'minlangan tenglik va adolat me'yorlari, erkin xohish irodalarini mutanosiblashtiruvchi, ularning o'zaro kurashlarini hamda o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi me'yorlar majmuidir.

VIII bob. HUQUQ PRINSIPLARI VA FUNKSIYALARI

1-§. Huquq prinsiplarining tushunchasi va mohiyati

Huquq prinsiplari, hech mubolag'asiz, uning mohiyatini ifodalovchi asosiy mexanizmlardan birini, tag zamin o'zagi (sinch - umurtqasi)ni tashkil etadi. Ular butun huquqiy materiyani - g'oyalar, normalar va munosabatlarni qamrab olib, jami huquqiy hayotga muayyan mantiq, mazmun - ma'no, sobitqadamlik, ichki mutanosiblik hamda uyg'unlik baxsh etadi. Yanada teranroq ta'rif qiladigan bo'lsak, huquq prinsiplarida, bamisoli, huquq rivojining butun dunyoviy tajribasi, insoniyat ma'rifiy taraqqiyotining hosilasi o'zining mujassam ifodasini topadi. Prinsiplar huquq shakllanishida yo'nalish beruvchi mo'ljal, mezon vazifasini o'taydi.

Huquq prinsiplari huquqning shakllanish jarayoni, rivojlanishi va harakatlanishining rahbariy g'oyasi, ibtido qoidasi, yetakchi mezoni sifatida maydonga chiqadi.

Avvalo qonunda, huquqiy normalarda o'z tasdig'ini topadigan huquq prinsiplari jamiyatning butun siyosiy-huquqiy hayotiga, mamlakat ijtimoiy tizimiga to'raligicha singib ketadi. Ular nafaqat huquqning mohiyatini, balki uning mazmunini tavsiflaydi, nafaqat uning ichki tuzilishi, statik holatini, balki huquqni qo'llash jarayonini, huquq faoliyatining dinamikasini aks ettiradi. Huquq prinsiplari normativ aktlarni tayyorlashning butun jarayoniga, ularni qabul qilish va chiqarishga, huquqiy talablarga rioya etish kafolatlari o'rnatilishiga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatadi.

Huquq prinsiplari o'ziga xos tayanch tuzilma (konstruksiya) bo'lib, unga nafaqat huquq normalari, institutlari yoki tarmoqlari, balki butun huquq tizimi asoslanadi. Mazkur rahbariy tamoyillar davlat idoralarining butun huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash va huquqni muhofaza qilish faoliyati uchun yo'naltiruvchi mash'al bo'lib xizmat qiladi. Ularga rioya etish darajasiga huquqiy tizimning baqamtiligi, barqarorligi va samarathligi bevosita bog'liq. Huquq prinsiplari umummajburiy tusga ega bo'lganligi sababli ular turli huquq tarmoqlari va institutlari, normalari va huquqiy munosabatlar o'rtasidagi, ob'yektiv hamda sub'yektiv huquq o'rtasidagi ichki birlikni, uyg'unlikni va o'zaro aloqadorlikni ta'minlashga ko'maklashadi.

O'z mohiyati, tabiati jihatidan huquq prinsiplari tasodliiy emas,

balki jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tizimi tomonidan ob'ektiv tarzda belgilanadi. Bundan tashqari, ular mazmuniga mamlakatda mavjud davlat va huquq, hukmron siyosiy va davlat rejimi, jamiyat siyosiy tizimining qurilish hamda amal qilish tamoyillari o'z ta'sirini o'tkazadi¹.

Yuqoridagi fikr kundek ravshan, uni isbotlab o'tirishning hojati ham yo'q. Zero, aytaylik, feodal huquqning tuzilish va harakatlanish prinsiplari quldorchilik huquqi yoki hozirgi zamonaviy huquq prinsiplaridan tubdan farq qiladi. Shuningdek, rim huquqiga asoslangan bugungi kunimizdagi roman - german huquqining prinsiplari islom dini arkonlariga asoslangan musulmon huquqi prinsiplaridan farqlanishi barchaga ayondir.

Huquq prinsiplari, odatda, bevosita qonun hujjatlarida (konstitutsiya va joriy qonunlarning muqaddimasida, moddalarida) mustahkamlanadi; ba'zan huquq normalarining mazmunidan kelib chiqadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida inson huquqlari va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqlik prinsipi, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olish prinsipi o'z aksini topgan.

Shuningdek, Konstitutsiyamizning bir qator moddalarida o'ta muhim boshqa huquqiy prinsiplar mustahkamlangan. Ulardan ba'zilarini eslab o'tamiz: «davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligi» (2-modda), «xalq hokimiyatchiligi» (7-modda), «davlat hokimiyatining taqsimlanishi» (11-modda), «siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi» (12-modda), «Konstitutsiya va qonun ustuvorligi» (15 va 16-moddalar), «fuqarolarning qonun oldida tengligi» (18-modda) va hokazo.

Xorijiy davlatlar tajribasi ham aynan shunday. Misol uchun Shvetsiya Konstitutsiyasining 1-moddasiga muvofiq: «Shvetsiyada butun davlat hokimiyati xalqdan kelib chiqadi. Shved xalqining boshqaruvi fikrlarni erkin shakllantirish hamda umumiy va teng saylov huquqiga asoslanadi. Boshqaruv davlat tuzumi vositasi bilan, vakillik va parlament tizimi, va kommunal o'zini o'zi boshqarish orqali amalga oshiriladi».

Adolat va erkinlik huquq binosining tamal toshlaridir. Barcha

¹ Васильев А.М. Правовые категории. Методологические аспекты разработки системы категорий теории права. -М., 1976, 216-225betlar

prinsiplar orasida ular alohida muhim o'rin tutadi. Adolat va erkinlik prinsipi ko'pgina nufuzli xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarda, mamlakat ichki qonunchiligida o'z tasdig'ini topgan. Fikrimizning dalili sifatida 1948 yilda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ni, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi va boshqa qonunlarni keltirish mumkin.

2-§. Huquq prinsiplarining tasnifi

Huquq prinsiplarini mazmuni, namoyon bo'lish jabhasi va xususiyatlariga qarab turli mezonlar asosida tasniflash mumkin. Masalan, huquqning tipi va harakatlanish ko'lamiga qarab quldorchilik, feodal, burjua va sotsialistik huquq prinsiplari haqida gapirish mumkin. Shuningdek, huquq prinsiplari o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, axloqiy, diniy va maxsus-yuridik turlarga bo'linadi. Huquqshunoslikka oid adabiyotlarda umumiy va maxsus, sohaviy va tarmoqlararo prinsiplar to'g'risida fikr-mulohazalar mavjud.

Umumiy huquqiy prinsiplar butun huquqiy tizim zaminida turishi bilan xarakterlanadi. Bu prinsiplar tahlili orqali u yoki bu mamlakat huquqiy tizimining mazmun-mohiyati, tabiati, o'ziga xos xususiyatlari, harakatlanish sifatlari haqida xulosa chiqarish mumkin. Bunday huquqiy prinsiplar qatoriga quyidagilar kiradi:

1) Huquqni shakllantirish va amalga oshirishda **demokratizm prinsipi**.

Mazkur prinsip huquqni yaratish sohasida xalqning, bevosita xalq vakillari bo'lmish deputatlarning, jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlar, siyosiy partiyalarning, fuqarolarning huquqiy siyosatni shakllantirish va qonunchilikni takomillashtirishda keng ishtiroki orqali namoyon bo'ladi. Huquqni amalga oshirish jabhasida demokratizm tamoyili huquqni qo'llovchi va huquqlarini muhofaza qiluvchi idoralarni tashkil etish va faoliyat yuritish tartibida, dastavval odil sudlovni amalga oshirish jarayonida, ularning fuqarolarga yaqinligida, aholi uchun yuridik yordamning realligi darajasida o'z aksini topadi.

Xususan, O'zbekistonda avj oldirilayotgan sud-huquqiy islohotning zaminida ham demokratik jihatlarni chuqurlashtirish yotadi.

Bunda advokatlar mavqeiini kuchaytirish, sud jarayonida prokuror bilan advokatning huquqiy mavqeiini tenglashtirish, prokuratura va militsiya faoliyatini inson huquqlarini ta'minlash nuqtai nazaridan isloh etish kabilar ko'zda tutiladi. «Jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi kamida uchta mezon bor, - deb ta'kidlaydi O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov. - Bular - xalq qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligidir. Hukumat qarorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi, oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishidir. Ana shu uch sohada haqiqiy siljishlar bo'lmas ekan, demokratiya haqidagi hamma gap -so'zlar yo xalqqa xushomad qilish yoki oddiy siyosiy o'yin bo'lib qolaveradi»².

2) **Qonuniylik prinsipi.** Huquq ijodkorligi jarayoni sub'yektlari tomonidan normativ-huquqiy aktlar loyihasini tayyorlash, muhokama etish, qabul qilish va nashr etish qonunlar, avvaio, Konstitutsiya asosida amalga oshiriladi. Qonuniylik tamoyilining asosiy ma'nosi shundaki, qonun chiqaruvchi idora - parlamentning ham, huquq ijod etuvchi boshqa idoralarning ham faoliyati qonun asosida qat'iy amalga oshirilishi lozim.

Sudlov jarayoni hamda huquqni amalga oshirishda ish ko'radigan barcha davlat idoralari va mansabdor shaxslar faoliyati ham batamom qonunga mos ravishda bo'lishi talab etiladi. Mazkur faoliyatda qonuniylik prinsipi barcha mutasaddi idoralar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar xatti-harakatida qonunga itoat etish, uning talabiga og'ishmay rioya qilishda namoyon bo'ladi. Qonuniylik umumiylik va yagonalik sifatlari bilan xarakterlanadi. Qonunga itoat etish barcha sub'yektlar uchun umumiy talabdir. Ayni vaqtda, qonundagi har bir qoida huquqiy munosabatning barcha ishtirokchilari uchun yagona talab sifatida maydonga chiqadi. Boshqacha qilib aytganda, qonun ustuvor va butun mamlakat hududida yagonadir. U bir xilda tushunilishi va bir xilda bajarilishi lozim.

3) **Insonparvariik prinsipi.** Buning ma'nosi shundaki, huquq jamiyat - inson - davlat o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash va tartibga solishda adolat, insonni sevish, shaxsni e'zozlash va uning sha'nini qadrlash, unga hayot kechirish uchun munosib shart-

² Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sa'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T., 1998, 156-157-betlar.

sharoitlar yaratib berish nuqtai nazaridan kelib chiqadi.

Huquqning insonparvarligi qonunchilik hujjatlarida mustahkamlangan iqtisodiy hamda ijtimoiy tuzum shaxs uchun qulay shart-sharoitlar, imtiyozlar yaratishini nazarda tutadi. Huquqda shaxsni tahqirlovchi, qiynovchi, unga nisbatan noinsoniy munosabatni mustahkamlovchi qoidalar bo'lishi mumkin emas. Mamlakatda vujudga keltirilgan kafolatlar tizimi fuqarolarni g'ayrihuquqiy xatti-harakatlardan hamda ularning oqibatlaridan himoya qilishi kerak.

Albatta, fuqarolar huquq va erkinliklarining to'la kafolati faqat demokratik huquqiy davlat sharoitidagina bo'lishi mumkin. O'zbekistonda insonparvar huquqning shakllanishi mustaqillik, davlat suverenitetining qo'lga kiritilishi hamda mustahkamlanishi davri bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, O'zbekiston Konstitutsiyasida: oila jamiyat va davlat muhofazasidadir (63-modda). Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi (64-modda). Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar (66-modda), - deb ta'kidlanganligida naqadar insonparvarlik g'oyalari mujassamdir. Bunday insonparvarlik bilan yo'g'rilgan huquqiy qoidalarni Oila kodeksida, Mehnat kodeksida, «Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida», «Fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risida»gi va boshqa qonunlarimizda ko'plab uchratish mumkin.

4) Fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

Mazkur prinsip quyidagi jihatlardan bilan tavsiflanadi. Birinchidan, davlatda barcha fuqarolar teng holat va maqomga egaligi. Davlat o'z qonunlari bilan fuqarolarga bir xildagi sharoit va teng imkoniyatlar yaratib beradi. Hamma bir xildagi huquq, va majburiyatlarga ega. Biroq, ulardan foydalanish amalda turlicha bo'ladi. Masalan, biron oliy o'quv yurtiga kiradi, ikkinchi fuqaro esa bu huquqdan

foydalanmaydi. Ikkinchidan, bu prinsip umumfuqaroviy huquqlarning tengligida ifodalanadi. Bu huquqlar, avvalo, Konstitutsiyada va boshqa qonunlarda mustahkamlanadi. Bular fuqarolarning saylov huquqi va saylanish huquqi, mehnat qilish huquqi, bilim olish huquqi, meditsina yordamidan foydalanish huquqi, turar joyga, xususiy mulkka ega bo'lish huquqi va hokazolardir. Uchinchidan, bu prinsip fuqarolarning qonun oldida birdek mas'ulligida ifodalanadi. Qonunni buzgan har bir fuqaro, har bir mansabdor shaxs (shu jumladan, yuridik shaxs) beistisno o'z qilmishi uchun javob berishi shart.

5) Davlat va shaxsning o'zaro mas'ulligi prinsipi. Davlat bilan shaxs bir-birlari bilan muayyan huquq va majburiyatlar orqali bog'liq bo'lishlari lozim. Bu demokratik siyosiy tizim va adolatli davlat boshqaruvining muhim talablaridan biridir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ana shu talab o'z ifodasini topgan: «O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas» (19-modda). Ayni vaqtda, davlat idoralari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar.

O'z navbatida, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga qat'iy itoat etishlari, jamiyat manfaatlariga muvofiq ish tutishlari, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishlari, qonun bilan belgilangan soliqlarni to'lashlari lozim. Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart (Konstitutsiyaning 20-moddasi). Basharti, bir tomondan, davlat, davlat idoralari va mansabdor shaxslar, ikkinchi tomondan, fuqarolar o'z zimmalaridagi qonuniy majburiyatlarini buzmasalar, tegishli yuridik javobgarlik kelib chiqadi. Bunday hollarda fuqaro davlat oldida, davlat esa (o'z mansabdor shaxslari va idoralari orqali) fuqaro oldida qonunda belgilangan majburiyatlarni o'taydi. Mazkur yuridik munosabat hamda aloqadorlik huquqiy davlat barpo etishning zaruriy shartidir. Ta'bir joiz bo'lsa, bu yerda gap «davlat suvereniteti» va «shaxs suvereniteti»ning o'zaro dialektik aloqadorligi, bog'liqligi xususida bormoqda.

Umumiy huquqiy prinsiplar qatoriga, shuningdek, ijtimoiy adolat, teng huquqlilik, huquq va majburiyatlar borligi, huquqning ustuvorligi kabilar kiradi.

Maxsus-yuridik prinsiplar aslida huquqiy tilda ifodalangan ijtimoiy prinsiplardir. Odatda, ilmiy adabiyotlarda maxsus-yuridik prinsiplar toifasiga quyidagilar kiritiladi:

1) huquq normalarining butun mamlakat aholisi uchun umumiy-majburiyligi hamda ularning boshqa ijtimoiy normalardan ustuvorligi;

2) amaldagi ob'yektiv huquqni tashkil etuvchi normalarning ziddiyatsizligi va qonunning boshqa normativ-huquqiy aktlardan ustunligi;

3) huquqning ommaviy va xususiy huquqqa, nisbatan mustaqil huquq sohalari hamda institutlariga bo'linishi;

4) ob'yektiv va sub'yektiv huquq o'rtasida, huquq normasi va huquqiy munosabat o'rtasida, huquq bilan huquqning qo'llanishi o'rtasida mutanosiblik nisbatining mavjudligi prinsipi;

5) ijtimoiy erkinlik, qonun va sud oldida tenglik, teng huquqlilik prinsipi;

6) qonunda mustahkamlangan huquq va erkinliklarning yuridik kafolatlanganligi;

7) teng yuridik mezon (miqyos)larda ifodalangan xulq-atvorning adolatiligi hamda yuridik javobgarlikning sodir etilgan huquq buzilishiga mutanosibligi;

8) yuridik javobgarlikning faqat aybli huquqqa xilof xatti-harakat (yoki harakatsizlik) uchungina qo'llanishi va ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda ko'rilib, uning aybi isbotlanmaguncha u aybdor hisoblanmasligi; aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasi);

9) yangi yoki nisbatan og'irroq yuridik javobgarlikni o'rnatayotgan qonunning orqaga qaytish kuchiga ega emasligi prinsipi; jazolash tizimini insonparvarlashtirish.³

Tarmoqlararo huquqiy prinsiplar ikki yoki undan ortiq huquq tarmoqlari doirasida amal qiladigan prinsiplardir. Ko'pincha bunday prinsiplar bir-biriga yaqin turuvchi huquq sohasini qamrab

³ Qarang: *Общая теория государства и права. Академический курс в 2-х томах. Под ред. М.Н.Марченко. Том 2. Теория права. -М., 1998, 24-25-бетлар.*

oladi (masalan, konstitutsiyaviy va ma'muriy huquq sohaları; jinoiy-protsessual va fuqarolik-protsessual huquqi sohaları uchun umumiy bo'ladigan prinsiplar). Aytaylik, moddiy javobgarlik prinsipi mehnat huquqi, fuqarolik huquqi, oila huquqi sohalarida qo'llaniladigan tamoyil. Faqat ayb uchun javobgarlik prinsipi esa Jinoyat kodeksida hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda, bevosita ulardagi moddalarda aks ettirilgan. Bu prinsip fuqarolik qonunchiligida ham asosiy dasturilamallardan biri hisoblanadi.⁴ Aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi ham tarmoqlararo xarakterga ega. U jinoyat huquqi, ma'muriy huquq, jinoyat-protsessual huquqi va boshqa tarmoqlarda qo'llaniladi.

Sohaviy huquqiy prinsiplar faqat bitta konkret huquq sohasi doirasida harakatlanadi. Masalan, yer huquqi uchun «yerga egalik qilish shakllarining ko'pligi va ularning tengligi» prinsipi, «yerning fuqarolik muomalasida bo'lish» prinsipi, «yer ustidan davlat boshqaruvini amalga oshirish» prinsipi, «yerdagi mustaqil xo'jalik yuritish va yerdan foydalanuvchi sub'yektlarning tengligi» prinsipi, «yerdan maqsadga muvofiq foydalanish, yerdan foydalanganlik uchun haq to'lanishi» prinsipi va hokazolar.

Yana bir misol. Xo'jalik-protsessual (arbitraj-protsessual) huquqida quyidagi prinsiplar rahbariy rol o'ynaydi: sudyalarning saypab qo'yilishi, ularning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi prinsipi, ishlarni ko'rishda kollegiallik va yakkaboshchilikning qo'shib olib borilishi prinsipi, ishlarni ko'rishda oshkoralik prinsipi, ishda qatnashayotgan taraflarning tengligi prinsipi, nizolarni ko'rishda bahslashish, og'zakilik va bevositalik prinsiplari.

Har bir huquq sohasi umumiy va tarmoqlararo prinsiplarga tayanishdan tashqari faqat o'zigagina xos prinsiplarga ham asoslanadi. Bu prinsiplarning barchasi birgalikda nafaqat huquq sohasi uchun, balki butun huquq tizimining tuzilishi va harakatlanishiga zamin bo'lib xizmat qiladi.

3-§. Huquq funksiyalari tushunchasi va turlari

Huquqning mohiyati va ijtimoiy vazifasi uning funksiyalarida namoyon bo'ladi. **Huquq funksiyalari** - ijtimoiy munosabatlarga yuridik ta'sir etishning asosiy yo'nalishlari bo'lib, ularning mazmuni

⁴ Лившиц Р.З. Теория права. М., 1994, 199-бет.

huquqning mohiyati va jamiyat hayotidagi ijtimoiy vazifasi bilan belgilanadi. Huquq, avvalo, jamiyat hayotining turli jabhalariga - iqtisodiyotga, siyosatga, ijtimoiy sohaga, madaniy-ma'naviy munosabatlarga ta'sir etadi va shu tariqa iqtisodiy, siyosiy va tarbiyaviy mazmundagi umumijtimoiy funksiyalarni bajaradi.

Huquq funksiyalari quyidagi xususiyatlar bilan xarakterlanadi:

birinchidan, huquq funksiyalari huquqning mohiyatidan kelib chiqadi va uning jamiyatdagi vazifasi bilan belgilanadi. Funksiya - huquq mohiyatining ijtimoiy munosabatlar mazmunida ifodalanishi (yoritilishi)dir;

ikkinchidan, huquq funksiyalari - ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etishning shunday yo'nalishlariki, ularni amalga oshirish ehtiyoji huquqning ijtimoiy hodisa sifatida mavjudligi zaruriyatidan kelib chiqadi;

uchinchidan, funksiyalar huquqning eng muhim, jiddiy sifatlarini ifoda etadi va jamiyat rivojining hozirgi bosqichida huquq oldida turgan tub vazifalarni bajarishga yo'naltiriladi;

to'rtinchidan, huquq funksiyalari uning ijtimoiy munosabatlar muayyan turini tartibga soluvchi faol harakatining yo'nalishini aks ettiradi. Shu bois huquq funksiyalarining muhim belgilaridan biri uning dinamizmi, harakatlanishi, ta'sir etishidir;

beshinchidan, huquq funksiyalari doimiylik xususiyatiga ega, bu ularning uzluksizligi, uzoq muddat harakatlanishini anglatadi.

Sof yuridik nuqtai nazardan huquq funksiyalarini ikki turga ajratish mumkin: **regulyativ** (tartibga soluvchi) va **negativ** (qo'riqlovchi) funksiyalar.

Huquqning regulyativ funksiyasi jamiyat a'zolari yurish-turishi va xulq-atvorining ijobiy, barchaga maqbul qoidalarini o'rnatishdan, ijtimoiy munosabatlarni yuridik tashkillashtirishdan, insonlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni uyg'unlashtirish va barqarorlashtirishdan iborat. Bu funksiya doirasida huquqiy ta'sirning yana ikki yo'nalishi haqida gapirish mumkin: **regulyativ-statik va regulyativ-dinamik** huquqiy funksiyalar.

Huquqning regulyativ-statik, ya'ni tartibga soluvchi - statik funksiyasi deganda, huquqning ijtimoiy munosabatlarga, ular mavjud holatini, erishilgan darajasini mustahkamlashga, barqarorlashtirishga qaratilgan ta'sir etishi tushuniladi. Ijtimoiy

munosabatlarning u yoki bu huquqiy institutlar shaklida mustahkamlanishi huquqiy tartibga solish maqsadlaridan biridir. Ushbu funksiya turli sub'yektlarning huquqiy maqomini belgilashda, masalan inson va fuqaroning asosiy huquq va erkinliklarini mustahkamlashda, davlat idoralari va mansabdor shaxslarning vakolatlarini belgilashda, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqdorligini belgilashda namoyon bo'ladi. Huquqning mazkur funksiyasida uning tabiati nihoyatda yaqqol aks etadi. Zero, fuqarolar va tashkilotlarga huquqiy vakolatlar beriladi ular shu vakolatlar doirasida erkin, o'zlari istaganicha faoliyat yuritadilar. Bu chegara qanchalik kengaysa, insonlar shunchalik erkin harakat qiladilar.

Tartibga soluvchi - statik funksiya vakolat beruvchi va manetuvchi normalar orqali amalga oshadi, shu bois ular asosida tarkib topadigan munosabatlar passiv huquqiy munosabatlar toifasini tashkil etadi. Bunday holatlarda huquq sub'yektlari o'zlari tashabbus ko'rsatib huquqiy faollik qilishlari mumkin.

Huquqning regulyativ-dinamik, ya'ni tartibga soluvchi - dinamik funksiyasi deganda, huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etib, ularning kelgusidagi rivojlanishini, o'zgarish hamda takomillashuvini belgilab berishi tushuniladi. Bu yerda huquq ijtimoiy munosabatlarning taraqqiyotini, harakatlanishi (dinamikasi)ni rasmiylashtiradi. Mazkur funksiya majburiyat yuklovchi normalar vositasida amalga oshiriladi. Masalan, qonunchilikda fuqarolar zimmasiga qator majburiyatlar yuklatiladi: soliqlarni to'lash, harbiy burchni ado etish, mehnat intizomiga rioya qilish, shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish va hokazolar. Tartibga soluvchi-dinamik funksiya faol toifadagi huquqiy munosabatlar shaklida ro'yobga chiqadi. Bular fuqarolik, mehnat, ma'muriy, moliya va boshqa huquq sohalari institutlarida o'z aksini topadi.

Huquqning regulyativ funksiyasini amalga oshirishda keng tarqalgan usullar quyidagilardir:

- huquq normalari vositasida fuqarolarning huquqiy-muomala layoqatini belgilash;

- fuqarolarning huquqiy maqomini belgilash (mustahkamlash) va o'zgartirish;

- davlat idoralarining huquq va majburiyatlarini hamda mansabdor shaxslarning vakolatlarini belgilash;

- yuridik shaxslarning huquqiy holatini mustahkamlash;
- huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi yuridik faktlarni belgilash;
- huquq sub'yektlari o'rtasida konkret huquqiy aloqani o'rnatish (tartibga soluvchi huquqiy munosabatlar);
- konkret ijtimoiy munosabatlarga tatbiqan huquqiy tartibga solishning oqilona tipini belgilash.

Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlardan kelib chiqib, huquqning regulyativ funksiyasini shunday ta'riflash mumkin. Huquqning regulyativ (tartibga soluvchi) funksiyasi - huquqning ijtimoiy vazifasi bilan belgilangan bo'lib, u xulq-atvorning ijobiy qoidasini o'rnatishda, jamiyat, davlat va fuqarolar manfaatlariga oid munosabatlarni mustahkamlash va rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida huquq sohiblariga sub'yektiv huquqlar berish va yuridik majburiyatlarni yuklashda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy munosabatlarni qo'riqlash zaruriyati har doim mavjud bo'lgan va bundan keyin ham bo'ladi. Huquq hamisha ijtimoiy munosabatlarni muhofaza etish vositasi bo'lib kelgan. Huquqiy ta'sirning bu yo'nalishi huquqning qo'riqlovchi funksiyasini tashkil etadi.

Huquqning qo'riqlovchi funksiyasi - uning ijtimoiy vazifasi bilan belgilangan huquqiy ta'sir etish yo'nalishi bo'lib, u umumiy ahamiyatga molik, o'ta muhim iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa ijtimoiy munosabatlarni muhofaza etishga, ularning daxlsizligini ta'minlashga yo'naltiriladi va shu bilan birga, jamiyatga yot, zararli munosabatlarni siqib chiqarishga qaratiladi.

Qo'riqlovchi funksiyaning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

birinchidan, u huquqni kishilar xulq-atvoriga ta'sir etishning alohida vositasi sifatida ta'riflaydi. Huquq bu vazifani jazo qo'llash, taqiqlar o'rnatish va yuridik javobgarlikni amalga oshirish bilan qo'rqitib, insonlar irodasiga ta'sir o'tkazish orqali bajaradi;

ikkinchidan, unda davlat huquqiy qoidalar vositasida qanday ijtimoiy qadriyatlarni o'z himoyasiga olganligi to'g'risida ijtimoiy munosabat sub'yektlariga axborot yetkaziladi;

uchinchidan, u jamiyatning siyosiy va huquqiy madaniyati darajasining, huquqdagi insonparvarlik asoslarining ko'rsatkichidir.

Huquqning qo'riqlovchi funksiyasiga xos xususiyatlar uni

davlatning huquqni muhofaza etish faoliyati bilan qiyosla ganda aniqroq namoyon bo'ladi. Tegishli davlat idoralari huquq sohiblari tomonidan qonun talablari so'zsiz qat'i bajarilishini ta'minlaydi, jamiyatda qonuniylik muhitini vujudga keltiradilar. Bu huquq buzilishi faktini aniqlash, ularni tergov qilish va aybdorlarni yuridik javobgarlikka tortish bilan ta'minlanadi.

Shunday qilib, huquqning qo'riqlovchi funksiyasi huquqning bevosita harakatlanishi bo'lsa, davlatning huquqni muhofaza etish faoliyati huquq talablariga rioya qilishning moddiy kafolatidir. Bunda maxsus idoralar (IIV organlari, prokuratura, sud)ning huquqni qo'riqlashga qaratilgan faoliyati maydonga chiqadi. Bundan tashqari, qo'riqlovchi funktsiya ijtimoiy munosabatlarni himoyalashga yo'naltirilgandir.

1 -§. Huquq va huquqiy ongning o'zaro bog'liqligi

Jamiyat hayotining olg'a qarab rivojlanishida huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turish yo'li bilan unga uyushqoqlik va tartib kiritadi. Huquqning qoidaga solish ta'siri o'ta ko'p qirralidir. Ya'ni u, bir tomondan, mavjud ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlasa va barqarorlashtirsa, ikkinchi tomondan, hayotda endi tug'ilib kelayotgan yangi munosabatlarning rivojiga rag'batlantiruvchi ta'sir qiladi. Ijtimoiy hayot rivojiga to'sqinlik qiluvchi, jamiyatning olg'a borishiga halaqit beruvchi, ya'ni jamiyat munosabatlari uchun noxush bo'lgan hodisalarning oldini olishda ham huquqning vazifasi kam emas.

Huquq - ozodlik me'yorini belgilab yoki man etib, majburiyat yuklab va aniqlab, odamlarni aniq rivojlanish iziga solib, ularning fe'li-atvoriga faol ta'sir ko'rsatadi. Huquqning tartibga solish ta'siri, uning odam ongiga ta'sirida yuzaga chiqadi. Huquqiy talablar ongda aks etib, shaxs tomonidan anglab yetiladi, tushuniladi va o'zlashtiriladi, insonning huquqqa munosabatini belgilovchi taassurot va ishonchning murakkab bilimlar birikmasiga aylanadi.

Huquq, ijtimoiy hodisa sifatida, ongdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. U, haqiqiy voqelikning boshqa hamma hodisalari kabi, jamiyat ongida aks etib, nafaqat uning in'ikosiga, balki bilish quroli yoki usuliga aylanadi. Ushbu murakkab ruhiy sohada kechadigan ichki fikrlash jarayoni huquqiy haqiqatning ongdagi aksini tushunib yetish va huquq haqidagi bilimlarni shakllantirish bilan bog'langan. Huquq va ong o'rtasida vujudga keladigan uzilmas bog'liqlikni ko'zda tutib, avvalo huquqiy ong tushunchasini aniqlab olish lozim.

Huquqiy ong ijtimoiy ongning bir shaklidir. Demak, u yagona shakl emas. Hayotning sohalari g'oyatda xilma-xil va ularning har biri jamiyat ongida diniy, siyosiy, huquqiy, axloqiy va boshqa aniq shakllarda yuz beradi. O'rganadigan sohasining o'ziga xosligidan qat'iy nazar, ijtimoiy ongning har bir shakli boshqa shakllar bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Goho, ijtimoiy ongning har xil shakllari o'rtasidagi o'zaro singib borish tarzi muayyan qiyinchiliklar tug'diradiki, natijada ularni ajratish oson bo'lmay qoladi.

Hamma biladigan - «O'ldirma!», «O'g'irlama!» kabi diniy

aqidalar o'zining yuqori axloqiy talabi bilan ajralib turadi. Ammo shu talablarning o'zi ijtimoiy ongning axloq kabi shaklida ham ko'rinadi.

Huquqda ko'zda tutilgan o'g'irlik, jamoat mulkini talon-toroj qilish yoki odam o'ldirish uchun jinoiy-huquqiy javobgarlik o'zining tabiati bilan o'sha axloqiy talabning gavdalanishi yoki timsoli emasmi? Yaxshilik va yomonlik hodisalarini tushunish, ko'rdingizki, jamiyat ongining har xil shakl va darajalarida va shunday dialektik o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda ularning har biri ijtimoiy ongning alohida sohasida huquq va huquqiy voqelikning xilma-xil hodisalari bilan uzviy bog'liqdir. Ongning bu shaklini huquqsiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, huquqni ham huquqiy ongsiz aqlga sigdirib bo'lmaydi. Biri ikkinchisidan kelib chiqadi, biridan oldin ikkinchisi yuz bergan bo'ladi, chunki bir holda huquq huquqiy ongning rivojiga yordam bersa, boshqa holda buning aksi bo'lib, huquqiy ong huquqning rivojiga, uning takomillashuviga ko'maklashadi va amalga kiritilishini ta'minlaydi. Ammo, ular o'rtasidag mavjud uzilmas bog'liqlik, ularning har biri inson odatiga ta'sir qilishiga qaramasdan, huquq va huquqiy ongni bir-biriga o'xshatish uchun asos bo'la olmaydi. Ularning har biri alohida huquqiy hodisa sifatida, odamlar munosabatiga, o'zining tartibga solish xususiyatiga ta'sir etishi bilan farq qiladi. Masalan, huquqning odamlar munosabatiga ta'sirining o'ziga xosligi shundaki, uning me'yoriy qoidalari umummajburiy xususiyatga ega. Bu - har kim huquqiy talabga bo'ysunishga majbur deganidir. Bo'ysunmaslik bo'lsa, huquqiy javobgarlik bilan bog'liqdir.

Huquqiy ongga kelsak, uning tartibga solish ta'sir kuchi boshqa shaklda amalga oshiriladi.

Gap shundaki, har bir huquqiy ko'rsatma huquqiy ong sohasi orqali o'tgandan so'nggina, aniq fe'l-atvorda yoki qilmishda amalga oshiriladi.

Huquqiy buyruq, hamma vaqt, shaxsning ongiga murojaat qiladi, chunki odillikning ta'sir kuchi shaxsga qaratilgan buyruqni inson tomonidan anglab olib qabul qilinishiga qaratilgan. Inson huquqiy axborotni anglab qabul qilish, ruhiy tushunib yetishdek murakkab jarayonga duch keladi. Axir, huquqiy ong, mohiyati bo'yicha o'ziga xos «laboratoriyani» tashkil qiladi, unda huquqiy axborotni o'zlashtirish va qabul qilib olish bilan bog'liq bo'lgan

murakkab jarayon kechadi. Huquqiy ongning bilib olish vazifasi, huquqiy talabga nisbatan, o'zining fe'l-atvor yo'lini ishlab chiqishdagi baholash fikriga yoki mulohazaga aylanadi. Boshqacha qilib aytganda, miyaning ichki fikrlash ishining butun jarayoni insonning o'z-o'zini boshqarishi, o'zini o'zi nazorat qilishiga, uning fe'l-atvori xususiyatini aniqlashga yordam beradi. Huquqiy talabni tushunishda, huquqiy bilim darajasi, adliya sohasidan xabardorligi, umumiy va shuningdek huquqiy madaniyatning saviyasi so'zsiz muhim ahamiyatga egadir. Huquq-qanday fe'l-atvor shaklida (qonuniy yoki qonunsiz) amalga oshirilmasin, u hamma hollarda, avvalo, insonning ongiga qaratilgan bo'ladi, u orqali fe'l-atvorga uni tartibga solish ma'nosida ta'sir ko'rsatadi. Huquq va huquqiy ongning yuqoridagidek o'zaro ta'sirida, shu murakkab ijtimoiy hodisaning jamiyat munosabatlariga ta'sir kuchi va tartibga solish ta'sirining mohiyati namoyon bo'ladi. Huquqiy ong ijtimoiy ongning shunday sohasiki, uning qamrovida: tushuncha, taassurot, baholash, fikr yuritish kabi jarayonlarning huquq me'yorlarigina shakllanib qolmasdan, balki huquqiy tizimning xilma-xil qismlari (hakam, hakamlar ishi, jazo berish huquqi, militsiya xizmati, notarial idoralar, prokuratura va boshqa ko'p sohalar) borasida tushunchalar yuzaga keladi.

Pirovardida - odamlar xulq-atvori tamoyiliga singib ketadigan, xilma-xil huquqiy hodisalarga jamiyat a'zolarining munosabati, huquq to'g'risidagi tushuncha, huquqiy bilim - yuqorida zikr etganimizdek shakllanadi.

2-§. Huquqiy ongning tuzilishi

Murakkab ruhiy hodisa bo'lgan huquqiy ong ikki qismga: huquqiy mafkura va huquqiy ruhiyatga ajratiladi. Shu birliklarning har qaysisida huquqiy hodisalar o'ziga xos aksini topadi. Masalan, ulardan birida, huquqiy hodisalar ilmiy-tushunib yetilgan mafkura ko'rinishida aks etsa, ikkinchisida esa, huquqiy hodisaning tarkibiy qismlari, xilma-xil his qilish va holatlar shaklida namoyon bo'ladi.

Huquqiy mafkura va huquqiy ruhiyatlarning o'ziga xosligi ulardagi mavjud umumiylikni va o'zaro ta'sirni mutlaqo inkor etmaydi. Chunki ular bir-birlari bilan chambarchas bog'langandir. Ularning biri ikkinchisini to'ldiradi, biri ikkinchisidan kelib chiqadi, shu tariqa huquqiy voqelik to'g'risida ilmiy asoslangan, hissiy

tushunib yetilgan, murakkab yo'lni o'tgan tushunchani hosil qiladi.

Huquqiy ong ruhiy tarkibining boyligi, uning odamlar xulq-atvoriga, ularning huquqqa munosabatiga ta'siri unga o'ziga xos kuch bag'ishlaydi.

Huquqiy mafkura - har xil huquqiy hodisalar haqidagi nuqtai nazar, tushuncha, g'oya va qarashlarning ilmiy umumlashirilgan tizimidan iboratdir. Huquqiy ongning huquqiy mafkura qismida aksini topgan huquqiy hodisalar huquqqa bag'ishlangan maxsus nazariy izlanishlarda o'z rivojini topib, ilmiy darajada anglab yetiladi.

Bunday ilmiy asarlarning mazmuni odamlar ma'naviy muikiga aylanib, ularning ongiga aniq huquqiy bilimlar-ni, mulohazalarni, e'tiqod va kayfiyatni olib kiradi. Insonning ongida huquqni bilib olish jarayoni, yuqorida zikr qilganimizdek yoki shunga yaqinroq tarzda kechadi. Odamning huquqiy ong jarayonini bilib olish vazifasi tufayli huquqni qo'llashda, sud ishlarida, qonuniylik va qonun to'g'risida axborot olinadi. Shunday axborotlar asosida huquqiy madaniyat darajasi ko'tariladi, odamning huquqiy bilimi rivojlanadi va teranlashadi. Insonning huquqiy fe'l-atvori qandayligi, pirovardida uning huquqiy madaniyati darajasiga, huquqiy bilimining kengligi va teranligiga bog'liqdir. Huquqiy mafkura - shaxsning huquqiy ongini ilmiy asosda shakllantira borib, huquqqa, odamning huquqqa bo'lgan munosabatiga hal qiluvchi ta'sir qiladi.

Huquqiy ruhiyat - ong doirasidagi huquqiy hodisalar bilan bog'liq holda, ongda yuzaga keladigan va unga singib ketgan his, kechinmalar sohasini ifodalaydi. Huquqiy ruhiyat - huquqiy hodisalarni hissiyot bilan tiklash sohasidir. Odam hissiz, o'z-o'zidan o'ylamasdan fikr qiladigan mashina emas - u, nafaqat fikr qiladigan, balki sezadigan tirik zotdir. Shuning uchun, u ijtimoiy hodisalarni, jumladan huquqiy hodisalarni ham, nafaqat aql bilan, balki sezgi bilan ham tushunib yetadi.

Huquqiy hodisalarni tushunib yetish jarayoni odamning ishtirokisiz rivojlana olmaydi, shu sababli unda tabiiy tarzda g'oyaviy va hissiy jarayonlar qo'shilib, chatishib ketadi. Misol uchun, loyihalalanayotgan qonun mazmuni bilan oddiy tanishib chiqish, unda har xil hayajonlanishni (shodlanish va qanoatlanishdan, anglashilmovchilik va achinishgacha, chuqur xafa bo'lishgacha) keltirib chiqaradi yoki to'liqlanishga olib keladi. Odam o'zining ruhiy holatiga ko'ra

huquqni oyoq osti qilish, noqonuniylik, zulm va inson erki kamsitish bilan bog'liq bo'lgan salbiy huquqiy voqeliklarga befar loqayd qola olmaydi. Uning huquqiy kechinmalari va kayfiy: g'azab, qahr va norozilik sezgilarida namoyon bo'lib, ijtimoi huquqiy hayotning manfiy hodisalariga tanqidiy qarash uchun hiss asos yarata borib, insonparvarlik g'oyalari negizida, odamda qay tuzishga intilish tug'diradi.

Huquqiy ong chegarasida har qanday bilimning shakllanis idrok etish jarayonini teranlashtira borib, ular aks yettirgan hoc salarni o'zlashtirishda hissiy tus oladi. Huquqni takomillashtirish xuddi shu inson hissiyoti (buni eslatib o'tish joiz) oldingi o'rinlarda birida turadi. Jamiyatda ijtimoiy odillikka erishishga qaratilgan hissiy tus berilgan talablar kuchiga ishonish uchun qullikni bek qilish, tabaqaviy imtiyoz va chegaralash, irqiy kamsitish, qon oldida hamma fuqarolarning konstitutsiyaviy tengligini tan olis kabilarni eslashning o'zi kifoya. Huquqiy ong sohasida kechadiga fikrlash jarayoni odamlar talabini va manfaatini ifoda etuvchi insc hissiyoti bilan yo'g'rilgan yoki shu hissiyotdan tuzilgan. Huquqiy or sohasida vujudga keladigan huquqiy g'oyalar, tushunchalar va taa surotlar, aql va sezgining shunday noaniq chalkashib ketishi oc batida, odam fe'l-atvorini tartibga solishda katta ta'sirchan kuch ega bo'ladi. Shuning uchun, huquqiy ongni o'rganishga kat ahamiyat beriladi.

Huquqiy ongning tuzilishi tahlili, bir tomondan, huquq mafkura va huquqiy ruhiyat kabi uning tabiiy tarkibiy qismlarinir o'zaro ta'siri tabiatini va o'zaro nisbatini ochadi, boshqa tomondar ijtimoiy hayotda butun hodisa sifatida uning vazifasini och berishga yordamlashadi.

Huquqiy fan huquqiy ong sohasini ijtimoiy va shaxsiy turlarg ajratadi. Ammo bu chegaralash, ularning o'rtasidagi dialektik o'zar bog'liqlikni mutlaqo inkor etmaydi. Huquqiy ongning har bir turin nisbatan mustaqilligini tan olgan holda, ularga xos bo'lgan xusus yatlarni ochadigan huquqning umumiy nazariyasi, ularning ikkala ham jamiyat hayoti mahsuli bo'lganligi uchun, ularning birligii yagona ijtimoiy hodisalar sifatida tan olishdan kelib chiqadi. Ijtimoi ong huquqiy ongning yanada yuqoriroq darajasi hisoblanadi, chunl unda huquqiy voqelikka xos bo'lgan hamma xususiyatla

mujassamlashgan. Uning mazmuni huquqni bilishda va hayotga tadbiiq qilishda odam tafakkurining ijodiy yutuqlari va ijtimoiy-huquqiy amaliyoti bilan sug'orilgan.

Shaxsiy huquqiy ongga kelsak, u o'z mazmuni bilan uncha katta hajmli va keng emas. Bundan tashqari, u, huquqiy tafakkur tarixida to'plangani uchun, huquqiy bilimlar yig'indisini qamrab ola olmaydi. Shaxsiy huquqiy ong bilish imkoniyatlari jihatidan bir qadar cheklangan. Hammaga ma'lumki, har bir odamning hayoti alohidadir. Bir shaxsda huquqiy bilim olish imkoniyati katta bo'lsa, boshqasida kamroq. Birinchisining huquqiy ong darajasi yuqori bo'lsa, ikkinchisniki - past. Shuning oqibatida, shaxsiy huquqiy ong har xil rivojlanish darajasiga ega. Ma'lum darajada, huquqiy ong darajasi jamiyat a'zolarining huquqiy ma'lumotlariga ham bog'liqdir. Shunga ko'ra, fuqarolarning huquqiy madaniyat darajasini ko'tarishga ko'mak beradigan huquqiy axborot tizimini tashkil qilish masalasi alohida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy madaniyatning darajasiga qarab, huquqiy ong uch turga ajratiladi: **oddiy**, **ilmiy** va **kasbiy**. Oddiy huquqiy ong, odatda, o'z-o'zidan vujudga keladi va odamning shaxsiy tajribasi va huquqiy hodisalar bilan bog'liq bo'lgan hayotiy vaziyatlar haqidagi tushunchasi bilan belgilanadi. Bunga - odamning ishga joylashuvidagi yoki oliy o'quv yurtiga kirish qoidalari yoki yo'l qoidasini buzgani uchun javobgarligi haqidagi bilimlar misol bo'la oladi.

Shaxsiy tajriba, kundalik hayotning chegarasida kechib - tor bo'lganligi uchun, huquqiy ong juda chegaralangandir. Huquqiy ong bizni o'rab turgan borliq haqidagi oddiy tushunchalar chegarasida muttasil qola olmaydi va doimo rivojlana borib, tabiiy ijtimoiy qonuniyatlar darajasiga chiqadi, shu bilan nazariy, ilmiy tushunchaga aylanadi.

Ilmiy huquqiy ong ijtimoiy huquqiy-haqiqatni u yoki bu darajada to'g'ri aks ettiruvchi bilimlar tizimini o'z ichiga oladi. Ilmiy huquqiy ong huquqni ijod qilish faoliyatining birinchi darajali manbai bo'lgani uchun huquqiy amaliyotni takomillashtiradi. Unda huquqiy nazariya va huquqiy g'oyalar, tasavvurlar va tushunchalar tizimi bilan bir qatorda, huquqshunoslarning kasbiy huquqiy ongi ham ajratiladi.

Huquqshunoslarning huquqiy ongi qonunga bo'ysunuvchi

fuqarolarning huquqiy mulohazalaridan huquqiy me'yor va nuqtai nazarlari bilimining teranligi hamda katta hajmi va eng muhimi, huquqshunoslar huquqning qoidalari va me'yorlarni qo'llashni bilishi bilan farq qiladi. Huquqshunoslar huquqqa, shuningdek uning amalda qo'llanishiga kasbiy malaka bilan yondashadilar. Bu qonunchilik bilan yuqori darajada mos kelishni, huquqni qo'llash foydaliligini va uni chuqur tushunish zarurligini ko'zda tutadi.

Kasbiy huquqiy ong huquqiy oliy o'quv yurtlarida o'qish natijasida shakllanadi, so'ngra, huquqiy amaliyot jarayonida sayqallanadi.

3-§. Huquqiy ong - huquqni takomillashtirish va rivojlantirish omili

Huquqiy ong - jamiyat ongining tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy hayot rivojida katta ahamiyatga egadir. Huquqiy tizimda biron-bir soha topilmaydiki, unga huquqiy ong o'zining tartibga solish ta'siri bilan kirib borgan bo'lmasa. U huquqiy tizimning me'yoriy asosidan boshlab, huquqiy tashkilotlar faoliyatida huquqni takomillashtirish va rivojlantirish jarayoniga qo'shilib, bu bilan jamiyatda qonunchilikni va huquqiy tartibni mustahkamlaydi. Huquqiy ongning bu qadar ko'p qirraliligi va ko'p qamrovliligi uning ijtimoiy tabiatining qonuniy ko'rinishidir. Axir, ijtimoiy tizimning tarkibiy qismi sifatidagi huquqiy tizimning mavjudligini huquqiy ongdan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi. U huquqiy tizimning tarkibiy qismlarini bevosita yaratadi, takomillashtiradi, bunyodga keltiradi, mustahkamlaydi va uning xilma-xil qismlarini rivojlantiradi, odamlar munosabatini tartibga solishga xizmat qiladi. Huquqiy tizimning asosi huquqiy me'yoriy hujjatlar (qonunlar, qonun asosidagi hujjatlar) hisoblanadi. Bu hujjatlarni yaratish, normalarni ijod qilish faoliyatini amalga oshiruvchi alohida organlarga tegishlidir.

Umummajburiy huquqiy normalar yaratish jarayonining o'zi oson emas. U huquqiy me'yorni yaratishda ijtimoiy talab va manfaatni anglab yetish va o'rganish, qonun loyihalarini ishlab chiqish, ularni muhokama qilish, qabul qilish va qabul qilingan hujjatlarni fuqarolarga yetkazish bilan bog'liqdir. Bu murakkab, norma ijod qilish jarayonining har bir bosqichi, sohasida har bir qabul qilingan hujjatni anglab yetish huquqiy ongning bevosita ishtirokida kechadi.

Yaratilayotgan me'oriy-huquqiy hujjatlar ijodkorlarining umumiy, huquqiy va kasbiy madaniyati darajasi qancha yuqori bo'lsa, ular yaratgan hujjat ham shuncha mukammal bo'ladi. Shuning uchun huquqni ijod qilish jarayoni qatnashchilariga, huquqiy ongni takomillashtirish uchun, shu sohaning yuqori darajali mutaxassisi bo'lishdek yuqori talab qo'yiladi.

Ammo, huquq ijod qilish jarayonida faqat shu kasb bo'yicha tayyorlangan odamlargina qatnashmaydilar. Demokratik davlatlarda qonun loyihalari jamiyatning o'zi tomonidan muhokama qilinadi. Masalan, hozir amaldagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yoki 1996 yilda Oliy Majlis qabul qilgan Mehnat kodeksi loyihasining qator muhokamalari ko'pchilikning qiziqishi va xohishini hisobga olib qolmasdan, ularning huquqiy ong darajasini ham aniqladi.

Bundan tashqari, umumiy muhokama jarayonida aholining jalb qilinishi fuqarolarning huquqiy ongini ko'tarish, uning huquq ijodkorlik faoliyatidagi salmog'ini oshirishda ham foydalidir.

Huquqiy ong huquqni nafaqat yaratadi va takomillashtiradi, balki rivojlantiradi ham. Uni hayotga tadbiq etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Biroq, uning chegarasida bo'lib o'tadigan huquqiy talablarni anglab olish jarayoni unchalik oddiy bo'lmay, ancha murakkabdir. Huquqiy talablarga ong munosabatining bir xil bo'lmasligi shaxsning nafaqat real hayotida, balki ziddiyatli fe'l-atvorida o'zgaradi.

Har bir davlatga uyushgan jamiyatdagi qonunbuzarlik shundan dalolat beradi. Huquqiy ong darajasida shaxsning o'zining huquqiy bilimlari ko'lami ham, huquqni qabul qilish holati ham, ma'naviy o'sganligi ham shaksiz ko'zga tashlanadi. Huquqiy ongga faqatgina yuqorida sanab o'tganlarimiz ta'sir etib qolmay, yana boshqa ko'p omillar ham (jumladan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, maishiy) o'z ta'sirini o'tkazadi. Odamlarning bir-birlari bilan o'zaro ta'siri va munosabati, muhiti, tarbiyasi, axloqiy darajasi ham kam ta'sir qilmaydi. Ijtimoiy-huquqiy yo'l-yo'riq huquqni baholash, uning talablariga munosabat, o'ta xilma-xil omillar majmuining ta'siriga bog'liq holda ongda shakllanadi. Shuning uchun, huquqiy talablarga bo'lgan, salbiy yoki ijodiy holatning o'zi ham har xilligi bilan farq qiladi. Masalan, bir odamning qonuniy fe'l-atvori uning axloqiy ongi

bilan ta'riflansa, boshqasi faqat yuridik javobgarlik oldidagi qo'rquv tufayli o'zini to'g'ri tutadi. Shaxsning fe'l-atvorida qayd qilingan nozik farqlar, huquqiy ong tabiatining o'zi naqadar murakkabligini yaqqol ko'rsatadi. Shuning uchun, shaxsning huquqiy bilimini kengaytirib va teranlashtirib qolmasdan, balki unda huquqning haq talablari izidan borishini anglab yetishida va unda ichki ishonch shakllanishiga yordam beradigan, huquqiy tarbiya bo'yicha to'g'ri yo'lga qo'yilgan faoliyat zarurdir. Huquqni amalga kiritishga, demak jamiyatda huquqiy tartib o'rnatishga yordam beruvchi, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tartibga chaqirish kabi tuyg'ular faqat shunday sharoitdagina rivojlanadi. Huquqiy talablarga rioya qilmaslik, albatta huquqiy tartibning buzilishiga olib keladi. Xuddi shuning uchun, huquqiy ongning yuqori darajada rivojlangan bo'lishi, huquqiy tarbiyaning muhim masalasiga aylanadi. Bu, demak, fuqarolarning huquqiy bilimlarini maqsadli rivojlantirish, huquqqa zo'r e'tibor bilan qarash, uning ijtimoiy qimmatini tushunish demakdir. Shaxsning huquqiy bilimlari ko'lami, nafaqat uning huquqdan xabardorligi, bilish darajasiga bog'liq, balki huquqiy talablarga munosabatiga ham bog'liqdir. Chunki, ongda axborotlarning ijobiy yoki salbiy qabul qilinishiga qarab, muttasil anglab yetish jarayoni kechib turadi.

Huquqqa hurmatsizlik bilan salbiy (nigilistik) munosabatda bo'lish, axloqqa qarshi fe'l-atvor bilan bog'liqdir.

Huquqiy tarbiyaning vazifasi, odamlarning ongida huquqning ahamiyatini, maqsadini to'g'ri tushunishni, uning talablarining haqiqatligini, ularga ongli ravishda rioya qilish zarurligini shakllantirishdan iborat.

X bob. HUQUQ IJODKORLIGI

1-§. Huquq ijodkorligi tushunchasi, turlari va funksiyalari

Huquq davlat bilan jamiyat o'rtasidagi bog'lovchi vositadir. Huquq davlat siyosatini, maqsadi va intilishlarini jamiyat ijtimoiy ongiga yetkazadi. O'z navbatida, jamiyat huquqda o'z irodasi hamda manfaatlarining mujassam ifodasini, adolat mezonini ko'radi. Davlat hokimiyati huquq yordamida jamiyatni boshqaradi, unga siyosiy rahbarlikni amalga oshiradi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi, o'z amri-irodasini ro'yobga chiqaradi. Aynan shu maqsadda huquq yaratishga ijtimoiy zaruriy ehtiyoj kelib chiqadi.

Huquq ijod etish davlatning yuridik normalar yaratishga qaratilgan maxsus faoliyatidir. Davlat mazkur faoliyat orqali xalqning mushtarak irodasini qonun darajasida ifoda etadi, ijtimoiy boshqaruv va siyosiy rahbarlikni amalga oshiradi. Bu faoliyat natijasida jamiyatda harakatlanuvchi bir butun va ichki mutanosiblikka ega bo'lgan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umum-majburiy huquqiy normalar tizimi vujudga keltiriladi. Huquq normalarining yaratilishi, yuridik kuchi, shakli, quyidan yuqoriga bo'ysunish munosabatlari davlatning huquq ijodkorlik funksiyasi bilan bevosita bog'liqdir. **Huquq ijodkorligi** nisbatan kengroq jarayon bo'lmish **huquq yaratishning** tarkibiy qismi hisoblanadi.

Huquq yaratish - yuridik normani shakllantirish va rasmiylashtirishga qaratilgan jarayon bo'lib, u ancha uzoq vaqt davom etadi. Ushbu jarayon: ijtimoiy vaziyatni tahlil etish, uni huquqiy tartibga solish zaruriyatini anglab yetish; bo'lajak yuridik qoida haqida umumiy tasavvur hosil qilish; yuridik normani ishlab chiqish va qabul qilish kabi harakatlarni qamrab oladi. Huquq yaratishning so'nggi bosqichi huquq ijodkorligini tashkil etadi.

Huquq ijodkorligi - vakolatli davlat idoralari va mansabdor shaxslarning (referendum chog'ida - butun xalqning) huquq normalarini o'rnatish, o'zgartirish, takomillashtirish va bekor qilishga yo'naltirilgan maxsus faoliyatidir.

Huquq ijodkorligi faoliyatiga nafaqat yangi huquqiy normalar o'rnatish, balki ilgari chiqarilgan normativ huquqiy qoidalarni o'zgartirish va bekor qilish ham kiradi. Huquq ijod etishning ijtimoiy qadr-qimmati, roli shundaki, u ijtimoiy munosabatlarni tartibga

solish mexanizmining boshlang'ich bo'g'inidir. Zero, davlat huquqiy normani o'rnatish yoki sanksiyalash (ma'qullash) orqali huquqni qo'llash va huquqni qo'riqlashdek serqirra, murakkab jarayonga turtki beradi. Huquq ijodkorligi tufayli vujudga keltiriladigan huquq normalari davlat idoralarining turli xil rasmiy hujjatlarida aks ettiriladi. Bunday rasmiy hujjatlar normativ - huquqiy aktlar deb ataladi. Huquq ijodkorligi davlat harakteriga ega bo'lgan aktiv faoliyatdir. Davlat idoralari jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish funksiyasini muntazam ravishda amalga oshirib boradilar. Bu esa huquq ijodkorlik jarayoni beto'xtov davom etib turishini taqozo qiladi.

Huquq ijodkorlik faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra davlat irodasini ifodalash bilan bog'liq. Dunyo tarixida bu qoida ko'plab marotaba o'z isbotini topgan. Muayyan sharoitda hukmronlik qiluvchi individlar o'z kuchini davlat tarzida o'rnatishdan tashqari, shu sharoit ta'sirida qaror topgan o'z irodalariga davlat irodasi ko'rinishida (qonun ko'rinishida) umumiy tus berishlari lozim. Davlat tashkiliy kuch bo'lsa, huquq yuridik qoida shakliga kirgan irodadir.

Huquq ijodkorligi o'z mazmuniga ikki toifa harakatni qamrab oladi: **birinchidan**, huquq ijod etuvchi organlarning normativ akt loyahasini tayyorlash bo'yicha harakatlari: ya'ni, loyihani ishlab chiqish to'g'risidagi qarorni qabul qilish; loyihani tayyorlash; loyihani muhokama etish; uni manfaatdor idoralar bilan kelishib olish va qo'shimcha ishlov berish. **Ikkinchidan**, bu toifaga normativ aktni chiqarish bo'yicha harakatlar kiradi: huquqiy akt loyahasini huquqni ijod etuvchi organ muhokamasiga kiritish; huquq ijod etuvchi organ tomonidan loyihani muhokama etish; normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish va uni e'lon qilish (nashr etish).

Albatta, huquq ijod etishning mazkur bosqichlari (harakatlari) ba'zan birlashib ketishi, ba'zan esa yangi xatti-harakatlar bilan to'ldirilishi mumkin. Xususan, yakka tartibda huquqiy akt qabul qiluvchi mansabdor shaxs ushbu bosqichlarni birlashtirib yuborishi mumkin. Masalan, Prezident farmon chiqarganda yoki hokim farmoyish qabul qilganda aytib o'tilgan bosqichlarni birlashtirib, o'zi bajaradi. Ayrim hollarda yuqoridagi bosqichlardan tashqari, loyiha yuzasidan mutaxassis - olimlarning xulosasini olish, uni ekspertizadan o'tkazish va loyihani keng xalq muhokamasiga qo'yish kabi

xatti-harakatlar ham amalga oshiriladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, huquq ijodkorligi faqat qonun loyihasi yoki huquqiy qarorni ko'rib chiqish va qabul qilish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon davlat idoralarining amaldagi huquqiy aktlarga o'zgartirishlar kiritish, eskirgan yuridik normalarni bekor qilish va mavjud normativ aktlarni tizimlashtirishga qaratilgan faoliyatini o'z ichiga oladi.

Yuridik normalarni o'rnatuvchi sub'yektlar sifatida xalq, davlat hokimiyat va boshqaruv idoralari, mansabdor shaxslar maydonga chiqadi. Ana shu ma'noda huquq ijodkorligining **turlari** haqida gapirish mumkin.

1) **Xalqning bevosita huquq ijodkorligi.** Xalq tomonidan amalga oshiriladigan huquq ijodkorligining eng yorqin ifodasi **referendum** - davlat va jamiyat hayotining o'ta muhim masalalari bo'yicha umumxalq ovoz berishidir. Referendum huquq ijod etishning alohida shakli sifatida xalqning bevosita iroda bayon etishi hisoblanadi. Bu huquqiy normalar yaratishning o'ta nufuzli turi bo'lib, referendum natijalari davlat hokimiyat idoralarining biron-bir tarzidagi tasdiqlashiga muhtoj emas. Referendum yo'li bilan qabul qilingan hujjat mamlakat hududida oliy yuridik kuchga ega bo'ladi va faqat referendum orqali bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin (O'zbekiston Respublikasining «Referendum to'g'risida»-gi qonunining 1-moddasi). U qat'iy irodaviy mazmuvdagi siyosiy-yuridik institutdir. Mohiyat-e'tibori bilan referendum davlatning u yoki bu qarorini xalq ovozi bilan tasdiqlanishi, shu orqali unga uzil-kesil va umummajburiy xarakter baxsh etilishidir. Xalqning intilish va istaklarini, manfaat va irodasini aniqlash hamda qonun darajasiga ko'tarishda referendum eng samarali usul hisoblanadi.

2) **Davlat idoralarining huquq ijodkorligi.** Bu huquq ijodkorligining asosiy, eng keng tarqalgan, aniq maqsadga yo'naltirilgan turidir. Davlat idoralarining vazifasi, vakolatlari hamda faoliyat yo'nalishlari qonunda belgilab qo'yiladi. Ana shu yuridik vakolatlar doirasida har bir davlat idorasi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi. Ularning vakolatlari darajasi va ko'lami normativ hujjatlarining yuridik kuchini, o'zaro mutanosiblik (iyerarxi) munosabatlarini belgilab beradi. Odatda, davlat idoralari huquqiy maqomini belgilovchi yuridik aktda (Konstitutsiya, qonun, farmon yoki nizomda)

ular qanday yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy akt qabul qilishi belgilab qo'yiladi. Masalan, O'zbekiston Konstitutsiyasining 83-moddasiga ko'ra Oliy Majlis - qonun qabul qiladi; 94-moddasiga ko'ra Prezident - farmon, qaror va farmoyish chiqaradi; 98-moddasiga muvofiq Vazirlar Mahkamasi Oliy Majlis va Prezident aktlari ijrosini ta'minlash uchun - qaror va farmoyishlar chiqaradi. Konstitutsiyaning 15 va 16-moddalari esa qonun ustuvorligini ta'kidlaydi. Bu moddalar mazmuni bilan normativ-huquqiy aktlar o'rtasidagi o'zaro bo'ysunish va ustuvorlik munosabatlari aniq-ravshan belgilab qo'yilgan.

3) **Mansabdor shaxslarning huquq ijodkorligi.** Avvalo, mansabdor shaxs tushunchasini aniqlab olish lozim, chunki amaldagi qonunchilikda unga tegishli ta'rif berilmagan. Chamasi, **mansabdor shaxs** - bu davlat hokimiyat yoki boshqaruv idorasida yoxud nodavlat tashkilotida muayyan lavozimni egallagan, unga yuklangan funksiyalarni bajarish uchun huquqiy aktlar qabul qilish va amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan fuqarodir.

Nodavlat tashkilotlar (xo'jalik, tijorat, ijodiy va hokazo) rahbarlarining huquqiy akt qabul qilish va amalga oshirish bo'yicha vakolatlari mehnat, fuqarolik, moliya va boshqa sohalarga oid qonunchilik qoidalaridan kelib chiqadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida nazarda tutilgan quyidagi mansabdorlik lavozimlarini sanab o'tish mumkin: Prezident, Oliy Majlis Raisi, vazir, hokim, deputat, prokuror, sudya, boshqarma va bo'lim boshliqlari, korxonalar, muassasa, nodavlat tashkilotlar rahbarlari va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlatimizdagi eng oliy mansabdor shaxs hisoblanadi.

Mansabdor shaxsning normativ-huquqiy aktlar loyihasini tayyorlash va uni qabul qilish bo'yicha faoliyati huquq ijodkorligi hisoblanadi. Biroq uning huquqni qo'llash bilan bog'liq xatti-harakati huquq ijodkorlik faoliyati doirasiga kirmaydi.

Huquq ijodkorligi davlat faoliyatining huquqiy shakllaridan biri bo'lib, bu jarayonda quyidagi funksiyalar bajariladi: qonunlar, boshqa huquqiy aktlar loyihasini tayyorlash; amaldagi qonunchilikni yangilash, uni ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlariga doimo moslashtirib turish; eskirgan huquqiy normalarni bekor qilib borish; huquqda hal etilmagan jabhalar (probel)ni to'ldirib borish; qonunchilikni

batartiblashtirib turish, sistemalashtirish. Mazkur funksiyalarning yuqori saviyada muntazam bajarib turilishi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solinish samaradorligi oshishini, qonunchilik tizimi takomillashgan hamda mukammal bo'lishini ta'minlaydi.

2-§. Huquq ijodkorligi prinsiplari

Demokratik davlatda xalqning irodasini, ijtimoiy intilish, manfaat va ehtiyojlarini qonun darajasiga ko'tarish huquq ijodkorligining mazmunini tashkil etadi. Bu o'ta muhim va mas'uliyatli jarayon muayyan tagzamin prinsiplar asosida amalga oshiriladi. Zero, shunday prinsiplar, ya'ni rahbariy g'oya va qoidalarga tayanilmasa, huquqiy normalar tizimini vujudga keltirishda lozim darajadagi sifat va samaraga erishib bo'lmaydi. Eng muhimi, xalq, irodasi va manfaatlarini to'liq hamda aynan ifoda etishni ta'minlab bo'lmaydi.

Shu bois mamlakatimizda amalga oshiriladigan huquq, ijodkorligi quyidagi asosiy prinsiplarga tayanadi:

a) *Huquq ijodkorligining xalqchilligi*

Demokratik va huquqiy davlat maqomiga ega bo'lishga intilayotgan davlat o'zining qonun ijodkorlik, huquq yaratish faoliyatida o'z xalqi bilan, aholi keng qatlamlari bilan mahkam bog'liq va uzviy aloqador bo'lishi lozim.

Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekanligi Konstitutsiyamizda mustahkamlangan. Shunday bo'lgach, davlat, uning idoralari huquq yaratish chog'ida xalq manfaati va ehtiyojlaridan kelib chiqishi mantiqiy holdir. Ayniqsa, qonunni xalq tomonidan saylangan deputatlar qabul qilishida chuqur va bevosita ramziy ma'no bor. Xalq o'z muxtor noiblari orqali qonun chiqarish hokimiyatiga daxldor bo'ladi. Qolaversa, huquq ijodkorligi sub'yekti sanalmish barcha davlat idoralarining ushbu faoliyati keng jamoatchilik, xalq ommasi nazorati ostida ro'y beradi. Xalqchilik prinsipi haqida gap borganda butun mas'uliyatni his etish darkor.

b) *Huquq ijodkorligining demokratikligi*

Demokratizm huquq ijodkorligida xalq irodasini aniqlash va qonunda ifoda etish darajasi bilangina tavsiflanmaydi. Bu, avvalo, huquqiy aktlarni qabul qilishda, xususan, qonun chiqarishda xalqning ishtirokini ta'minlashda namoyon bo'ladi. Demokratizm parlament va mahalliy xalq deputatlari kengashlari faoliyati jarayonida

aks etadi. Referendum qonun qabul qilishning bevosita demokratik shakli ekanligini yuqorida ta'kidlab o'tgan edik. Shuningdek, demokratiyaning bevosita shakllariga o'ta muhim normativ-huquqiy aktlar loyihasining ommaviy axborot vositalari orqali keng xalq muhokamasiga qo'yilishi ham kiradi. Bunday muhokamalar chog'ida mamlakat fuqarolari, jumladan, olimlar, mutaxassislar loyiha yuzasidan o'z taklif va mulohazalarini bildiradilar. Shu tariqa xalqning fikri, irodasi qonun chiqaruvchi organga ayon bo'ladi va uni huquqiy normalar mazmunida to'laqonli aks ettirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Binobarin, demokratiyaga muttasiy intilish ijtimoiy taraqqiyotimizning strategik yo'nalishidir. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «demokratiya atamasining qanday sharhlanishi emas, balki uning qanchalik realligi, haqiqiyliigi, yashashga qobilligi muhimdir... U hayotimizning har bir soniyasiga singib ketmasa, turmushimizning ajralmas qismiga aylanmasa, hamma shiorlar va ta'riflar mazmunsiz... so'z o'yini bo'lib qolaveradi»¹.

Demokratik qadriyatlar, mezon va me'yorlar haqida so'z bor-ganda quyidagilarni qayd etish muhim ahamiyatga ega. «Jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi kamida uchta mezon bor. Bular - xalq qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligidir. Hukumat qarorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi, oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishidir»².

v) **Huquq ijodkorligida qonuniylik prinsipi** Ushbu prinsip huquq ijodkorligi sub'yektlarining normativ huquqiy aktlar loyihasini tayyorlash, muhokama etish, qabul qilish va e'lon qilish borasidagi xatti-harakatlari Konstitutsiyaga va boshqa qonunlarga asoslanishidan kelib chiqishi lozim. Huquq ijodkorligidagi qonuniylik ikki jihatni nazarda tutadi: **birinchidan**, davlat idoralari tomonidan qabul qilinadigan har bir akt ularning vakolatlari doirasida va tegishli aktlar uchun belgilangan taomil (tartib) asosida chiqarilishi shart; **ikkinchidan**, normativ-huquqiy aktning mazmuni ham qonuniylik talablariga javob berishi shart. Ya'ni, yangi chiqarilayotgan hujjat, qonunlar va yuridik kuchi bo'yicha o'zidan yuqori turuvchi boshqa huquqiy aktlarga zid bo'lmasligi kerak.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: «O'zbekiston», 560-bet.

² Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: «O'zbekiston», 560-bet.

Qonun ustuvorligi, qonuniylik prinsipi avvalo qonun chiqaruvchi idora hamda ijroiya hokimiyat yuqori idoralari uchun ham dasturilamaldir. Basharti, qonunlar, farmonlar va hukumat qarorlari Konstitutsiyaga muvofiq bo'lmay qolsa, maxsus muhofaza mexanizmi ishga tushadi. Bunday hollarda Konstitutsiyaviy sud o'zining tegishli xulosasini chiqaradi va g'ayrikonstitutsiyaviy aktni harakatdan to'xtatadi.

g) *Huquq ijodkorligining oshkoraligi*

Huquq ijodkorligi faoliyatining natijasi bo'lmish normativ aktlarda fuqarolarning huquq va majburiyatlari mustahkamlanadi. Shu sabab, normativ-huquqiy akt darhol o'z ijrochilari e'tiboriga yetkazilishi zarur. Fuqarolar o'zlariga huquq normalari tomonidan qo'yilayotgan talablardan xabardor bo'lishlari, jillaqursa, shunday bilim olish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Quyidagi yuridik prezumpsiya barchaga ayon: qonunni bilmaslik hech kimni javobgarlikdan ozod qilmaydi; hech kim qonunni bilmasligini ro'kach qilishi mumkin emas. Xuddi shuning uchun ham, ya'ni javobgarlikka tortishga ma'naviy huquqqa ega bo'lish uchun davlat fuqarolarning normativ-huquqiy aktlar bilan tanishish imkoniyatini ta'minlab berishi lozim.

Normativ-huquqiy aktlarni oshkor qilishning asosiy vositasi ularni ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilishdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasida juda muhim qoida mustahkamlangan: «Qabul qilingan qonunlarning va boshqa normativ hujjatlarning matbuotda e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy shartidir». Mazkur konstitutsiyaviy tamoyil muhim demokratik mazmunga ega. Normativ-huquqiy aktni hayotga joriy etishdan avval u oshkora tarzda xalqqa yetkazilishi lozim. Huquqiy hujjatlar fuqarolardan sir tutilishi, yashirin harakatda bo'lishi mumkin emas.

Bu tamoyilga xalqaro huquqda ham katta e'tibor beriladi. Ovrupoda xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha Kengash qatnashchilari bo'lgan davlatlarning 1989 yil 15 yanvardagi Vena uchrashuvi yakuniy hujjatida shunday deyiladi: OXHK qatnashchisi bo'lgan davlatlar «shaxslarning o'z huquq va burchlarini bilishga hamda ularga muvofiq harakat qilishga bo'lgan huquqini samarali ta'minlash, shu maqsadda inson huquqlari va asosiy erkinliklariga oid qonunlar, ma'muriy qoida hamda tartibotlarni nashr etib barchaga yetkazish majburiyatini oladilar».

d) **Huquq ijodkorligining ilmiy asoslantirilganligi**

Huquqiy normalar yaratish jarayoni zamonaviy huquq ilmi va amaliyoti yutuqlariga, huquqiy tafakkur va mantiq qoidalariga qat'iy tayanmogi lozim. Har bir qonun, huquqiy norma ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish qonuniyatlarini chuqur anglash hamda ilmiy asoslantirish zahirida yaratilishi kerak. Muayyan qonun yoki boshqa huquqiy aktning qabul qilishdan oldin uni yaratish uchun qanday ehtiyoj borligi ilmiy jihatdan dalillanishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun huquqiy tartibga solish mo'ljallanayotgan ijtimoiy munosabatlar turi chuqur tahlil etilishi, zarur bo'lsa konkret sotsiologik tadqiqotlar, jamoatchilik fikrini o'rganish ishlari amalga oshirilishi o'rinli bo'ladi.

Ilmiylik prinsipi haqida gap borganda, kamida ikki jihat nazarda tutiladi. **Birinchidan**, huquq ijodkorligi puxta ilmiy strategiyaga tayanishi zarur. Bunday strategiya umumdavlat miqyosida shakllantiriladi. Uni, odatda, davlat yuqori hokimiyat organlari huzuridagi strategik tadqiqotlar institutlari amalga oshiradi. **Ikkinchidan**, konkret normativ-huquqiy akt matni ustida ish borganda, huquq normasini yaratish va ifodalashda (mazmunan hamda yuridik texnika nuqtai nazaridan) ilmiy tavsiyalar inobatga olinishi lozim. Bundan maqsad - ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda mumkin qadar ko'proq samaraga erishishdir. O'z faoliyatini ilmiy jihatdan ta'minlash uchun huquq ijod etuvchi organlar huquqiy hujjat loyihasini tayyorlashda ishchi guruhlar tarkibiga yetakchi yurist - olimlarni kiritadilar; loyiha yuzasidan xulosa olish uchun uni tegishli ilmiy muassasalarga yuboradilar.

So'nggi paytlarda O'zbekiston Respublikasi parlamenti faoliyatida loyihalarning ilmiy ekspertiza qilishga e'tibor qaratilayotganligi tahsinga sazovor. Xususan, «O'zbekiston Respublikasi qonunlarini tayyorlash to'g'risida»gi Qonunning 18-moddasi loyihalarni mustaqil ekspertizadan o'tkazishni nazarda tutadi. Unga muvofiq:

«Qonun loyihalari ekspert baholashidan o'tkazilishi mumkin. Ekspertiza Oliy Majlis qo'mitasida, komissiyasida loyiha ustidagi ishlar tugallanganidan keyin o'tkaziladi.

Qonun loyihalarini ekspertizadan o'tkazishga olimlar, amaliotchi xodimlar va boshqa yuqori malakali mutaxassislar jalb etiladi.

Loyihani ekspertizadan o'tkazish natijalari yuzasidan

ekspyertlar tegishli xulosa taqdim etadilar».

Ilmiylik tamoyilida sobit turiladigan bo'lsa, huquq ijodkorligining sub'yektlari bo'lgan idoralarning vakolatlari hokimiyatlar taqsimlanishi asosida, o'zaro tiyib turish va qarama-qarshi muvozanat asosida tashkil etilishi lozim. Shu yo'l bilan mazkur idoralar faoliyatida parallelizm, takrorlash, nomuvofiqlik va boshqa idoraning vakolat doirasiga daxl qilish hollari istisno etiladi.

Huquq ijodkorligiga ilmiy yondashish talabi ayniqsa bugungi kunda, ya'ni bozor munosabatlarini qaror toptirish davrida, demokratik qadriyatlarni shakllantirish chog'ida inson huquqlarining ustuvorligini ta'minlash, milliy, siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy munosabatlarni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun muhimdir. Bu munosabatlarni aniq huquqiy tartibga solishga erishish uchun huquq ijodkorligining ilmiy zaminini muttasil takomillashtirib borish lozim.

3-§. Normativ-huquqiy aktlar -huquq ijodkorligi mahsuli

Huquq ijodkorlik faoliyatining hosilasi, bevosita mahsuli - turli-tuman normativ-huquqiy aktlardir. Bunday aktlar huquq ijodkorligi sub'yektlarining yuridik normalarini ifodalovchi hujjatlardir.

O'zbekiston Respublikasida huquqni ifodalashning (bayon etishning) asosiy manbai, shakli normativ-huquqiy aktlar hisoblanadi. Normativ-huquqiy aktlar davlat tomonidan o'rnatiladigan yoki ma'qullanadigan huquqiy hujjatlarning alohida rasmiy turidir.

Normativ-huquqiy akt deganda, davlat vakolatli organlarining ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umumiy majburiy tusdagi qoidalarni o'rnatuvchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi huquq ijodkorlik hujjati tushuniladi. Huquqning normativ akt shakli demokratik huquqiy jamiyat sharoitida mamlakat xo'jalik, siyosiy, ma'daniy va ma'naviy hayotiga davlat yo'li bilan rahbarlik qilishning eng maqbul shaklidir.

Normativ-huquqiy aktlar o'zining quyidagi uch xususiyati bilan ijtimoiy normalarning boshqa turlaridan ajralib turadi: 1) normativ-huquqiy aktlar vakolatli davlat organlari tomonidan yaratilib, barcha uchun umumiy majburiy qoidalarni o'rnatadi, o'zgartiradi (takomillashtiradi) yoki bekor qiladi; 2) ularda huquqiy qoidaning mazmuni, ya'ni huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va burchlari ifoda etiladi; 3) normativ-huquqiy aktlarda mustahkamlangan qoidalar

bajarilmagan yoki buzilgan taqdirda muayyan huquqiy oqibatlar kelib chiqadi, qoida bo'yicha, davlatning majburlov kuchi ishga solinadi.

Yuridik ustqurma murakkab va serqirra bo'lganligi sababli normativ-huquqiy aktlar turli mezonlar bo'yicha turkumlanishi (tasnif qilinishi) mumkin. Bunday mezonlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- huquqiy tartibga solish predmeti yoki tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlarning turi;
- huquq ijod etuvchi sub'yekt;
- huquqiy aktning yuridik kuchi;
- huquqiy akt harakat qiladigan hudud;
- huquqiy-normativ aktning yuridik nomlanishi. Normativ-huquqiy aktlarni turkumlash usullari, uslublari, yo'llari ham turlichadir. Turkumlashning eng keng tarqalgan ilmiy usullari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: alifboli-predmetli ko'rsatkichlar; iyerarxiyaga (pog'onali mutanosiblikka) asoslangan turkumlash, u oddiy va o'nliklar bo'yicha bo'linishi mumkin; fasetli turkumlash va deskriptor turkumlash.

Normativ-huquqiy aktlar, ularni chiqaradigan davlat organlarining mavqeiga, aktlarning yuridik kuchiga ko'ra quyidagi turkumlarga bo'linadi:

1. Qonunlar (Konstitutsiya va joriy qonunlar);
2. Prezident farmonlari, qaror va farmoyishlari;
3. Hukumat qarori va farmoyishlari;
4. Davlat va xo'jalik boshqaruv organlarining qaror, buyruq va yo'riqnomalari;
5. Mahalliy vakillik va ijroiya organlarining qarorlari va farmoyishlari.

Ushbu turkumlashda keltirilgan normativ-huquqiy aktlarning har biriga alohida-alohida to'xtalib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek o'zaro munosabatlari va farqlarini ko'rsatib o'tamiz.

1) **Qonun normativ-huquqiy aktlar tizimida**

Normativ-huquqiy aktlar tizimida qonunlar asosiy o'rinni egallaydi. Qonun huquqning eng muhim va baobro' shakli bo'lib, unda huquqning hamma sifatlari mujassamlashadi. Albatta,

«qonun» iborasi serqirra va ma'nodordir³. Bu o'rinda so'z yuridik qonunlar xususida bormoqda. Qonun davlat oliy vakillik organlarining eng yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan aktidir. Konstitutsiya (Asosiy qonun) qonunlar orasida markaziy o'rinni egallaydi. Unda jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy asoslari, siyosiy tizimi mustahkamlanadi, shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruv mexanizmi, fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari belgilab beriladi. Konstitutsiya jamiyat huquqiy tizimining, butun qonunchilikning o'zagini, yuridik zaminini tashkil etadi. Joriy qonunlarning barchasi konstitutsiya qoidalari va prinsiplari asosida hamda ularning ijrosi manfaati yo'lida chiqariladi.

Qonun oliy yuridik kuchga ega. Bu sifat quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- qonunni uni qabul qilgan oliy vakillik organidan boshqa hech kim o'zgartira olmaydi, bekor qila olmaydi yoki yangisini o'rnatmaydi;

- boshqa barcha normativ-huquqiy aktlar qonunga qat'iy muvofiq holda qabul qilinadi va amalga oshiriladi;

- biron-bir qonunosti normativ-huquqiy akt qonunga zid bo'lsa, u qonunga muvofiq holga keltiriladi yoki bekor qilinadi;

- qonun oliy yuridik kuchga ega bo'lgan akt bo'lganligi sababli uni qabul qilgan organdan boshqa hech kim qo'shimcha tarzda tasdiqlashi va harakatdan to'xtatib qo'yishi mumkin emas.

Qonun davlat nuqtai nazaridan eng muhim deb hisoblangan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solish vositasidir. Unda mazkur munosabatlardagi qonunlarning normativ majburiy xarakteri va siyosiy huquqiy me'yori o'z ifodasini topadi. Qonunlar faqat siyosatning ifodasi, siyosiy chora bo'lib qolmasdan, beqiyos ijodiy va tarbiyaviy vazifani bajaruvchi katta ma'naviy boylik hamdir.

³ «Qonun» kategoriyasi ijtimoiy va tabiiy fanlar tomonidan keng ko'llaniladi. Xususan, turli ilmiy adabiyotlarda «falsafa qonunlari», «iqtisodiy qonunlar», «tabiiat qonunlari», «ijtimoiy taraqqiyot qonunlari» kabi tushunchalar tez-tez uchray turadi. SHular qatorida «yuridik qonunlar» iborasi ham ishlatiladi. Bular turli fanlarga taalluqli bo'lishiga qaramasdan, ularni birlashtiruvchi umumiylik mavjud. SHunga ko'ra «qonun»ning umumiy universal ta'rifini berish mumkin. Qonun - tabiat va jamiyatdagi voqea, hodisa hamda jarayonlar o'rtasidagi munosabatdir, shuningdek ularning ichki eng muhim, zaruriy, barqaror va takrorlanib turuvchi aloqasi, boglanishi va o'zaro ta'siridir. Qonun - hodisalarning ichki aloqadorligi va o'zaro bir-biriga sababchiligi. Qonun tushunchasi mohiyat tushunchasiga ya'in turadi. Qonunni bilish hodisadan mohiyatga o'tishni nazarda tutadi. Qonun tasodifiyatning emas, balki zaruriyatning ifodasidir. Qonunlar ob'yekti xarakterga ega. Qonunlarni tabiatga insonlar emas, aksincha tabiat insoniyatga beradi. Ijtimoiy turmush, taraqqiyot qonunlarning asosiy manbaidir. «Qonun muhim munosabatdir», «mohiyatlarni shug munosabati yoki mohiyatlar o'rtasidagi munosabatdir».

O'zbekistonda qonun huquqning asosiy shakli bo'lib, u davlat oliy hokimiyat vakillik organi tomonidan maxsus belgilangan tartibda qabul qilinadi. U davlat tomonidan muayyan holatlarga (munosabatlarga) tadbiq qilish uchun chiqariladigan, aynan o'xshash turdagi holatlarga takror-takror qo'llanadigan, barcha fuqarolar, mansabdor shaxslar, davlat organlari, korxonalar, muassasa va tashkilotlar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan umumiy qoidalarni o'z ichiga oluvchi normativ-huquqiy aktdir.

Respublika qonunlarida yangilanayotgan ijtimoiy tuzumimizning, huquqiy davlat barpo etishning eng muhim prinsiplari, rivojlanishimizning yo'nalishlari va dasturiy vazifalari o'z aksini topadi. Bunday muhim prinsiplar, avvalo, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlangan. Masalan: davlat suvereniteti prinsipi, xalq hokimiyatchiligi prinsipi, inson huquqlarining ustuvorligi prinsipi, qonuniylik prinsipi, demokratizm prinsipi, davlat bilan shaxsning o'zaro burchdorligi prinsipi, Konstitutsiya va qonunning oliyligi prinsipi, hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi, ijtimoiy adolat prinsipi, qonun va sud oldida barchaning tengligi prinsipi, aybsizlik prezumpsiyasi, fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarishi prinsipi va boshqalar.

Shunday qilib, qonun ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarining yuridik shakldagi tavsifini o'zida aks ettirgan va eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, bevosita xalq irodasini ifodalovchi, belgilangan tartibda davlat hokimiyatining oliy vakillik organi tomonidan yoki referendum yo'li bilan qabul qilinadigan va oliy yuridik kuchga ega bo'lgan normativ aktdir.

Qonunning yuridik xususiyatlari ichida uning normativligi alohida ahamiyat kasb etadi. Normativlik qonunning muhim belgisi va xususiyati hisoblanadi. Huquqiy hujjatlarning boshqa shakllari ham normativ bo'lishi mumkin, biroq ular qonunchalik qat'iy kuchga ega bo'lmay, tezkor ijro etuvchi yoki huquqni muhofaza etuvchi bo'lishi mumkin. Qonun normativ-akt ekanligi quyidagi ikki jihat bilan xarakterlanadi. Birinchidan, u qonun chiqaruvchi organning huquqiy qoida o'rnatish xususidagi amr-farmoyishini, irodasini, qarorini mustahkamlaydi; ikkinchidan, real hayotga qat'iy va muntazam huquqiy ta'sir etish shakli, vositasidir. Qonun normalarining mavjudligi normativ-huquqiy aktda namoyon bo'ladi.

Qonunning normativligi deganda, shuningdek, uning barcha uchun umumiy-majburiy qoida, davlat talabining ifodasi ekanligini ham tushunish lozim. Boshqacha qilib aytganda, qonunning normativligi uning bir xildagi qoidani barcha uchun norma, me'yor, mezon darajasiga ko'tarilishidir. Qonunda mustahkamlangan qoida hamma o'xshash hollarda bir xildagi talab sifatida takror-takror amal qilaveradi. Har qanday huquq amalda bir-biriga teng bo'lmagan har xil odamlarga bir xildagi masshtabni tadbiiq qilishdir. Bu yerda «masshtab» so'zi «norma» so'zini anglatadi. «Norma» - grekcha so'z bo'lib, me'yor, andoza, masshtab, qolip demakdir. Uning umumiy va mavhum tabiati ham ana shunda. Normativlik esa muayyan harakat, faoliyat va munosabatning faqat norma talabi asosida amalga oshirilishidir. Qonunning normativligi unda ifodalangan davlat irodasining qat'iyiligi, ustunligi va oliyligi bilan chambarchas bog'liqdir. Aynan shu irodaning imperativ (bo'ysundiruvchi) mazmuni qonun vositasi bilan umumiy yurish-turish va xulq-atvor mezonlarini belgilaydi.

Demak, qonunning normativligi: 1) uning davlat hokimiyat mazmunidagi oliy irodani ifoda etishligida; 2) eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilganligi va bunday tartibga solishning qat'iy chegarasini belgilashida; 3) hamma uchun bir xildagi umummajburiy harakat qoidasini o'rnatishida va lozim bo'lganda davlat majburlov kuchi bilan ta'minlanganligida; 4) maxsus vakolatli davlat organi tomonidan alohida belgilangan tamoyil asosida yaratilishidir.

2) Prezident Farmonlarining huquqiy maqomi

O'zbekiston Prezidenti davlat boshlig'i va ijroiya hokimiyati boshlig'i sifatida respublika hududida majburiy tarzda amal qiluvchi Farmonlar chiqaradi. Prezidentning davlat mexanizmida va ijroiya hokimiyati tizimida tutgan qat'iy o'rni uning Farmonlarining normativ-huquqiy aktlar tizimida egallaydigan mavqeini, rolini belgilab beradi.

Prezident Farmonlari ijroiya hokimiyati tizimida eng yuqori kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy aktdir. An'anaga ko'ra, Farmon yuridik kuchi va ahamiyati jihatidan qonundan keyingi o'rinda turadi. Biroq, hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi davlat va siyosiy tizimimizga joriy etilgan hozirgi sharoitda Farmonni oddiygina

«qonunosti akti» deb tushunish to'g'ri bo'lmaydi. Bunday eskicha talqinni tark etish kerak. Farmon ijroiya hokimiyatining Konstitutsiyada belgilangan o'z vakolatlarini amalga oshirish aktidir. Shu bois uni «qonunosti akti» emas, balki «konstitutsiyaviy darajadagi huquqiy akt» deb ham atash mumkin. Uning qonun bilan munosabatiga kelganda shuni aytish lozimki, Prezident vakolatiga taalluqli masala bo'yicha chiqarilgan Farmonni qonun bilan ham bekor qilish yoki boshqacha hal etish mumkin emas. Masalan: Prezident Farmoni bilan tayinlangan Bosh Prokuror yoki vazirni hech bir qonun bilan vazifasidan ozod etib bo'lmaydi. Bunday lavozimlarga hatto qonun bilan ham biror shaxsni tayinlab bo'lmaydi. Bordi-yu, shunday qilingan taqdirda mazkur qonun Konstitutsiyaga zid bo'lib, yuridik kuchga ega bo'lmaydi, chunki bu Prezidentning konstitutsiyaviy vakolatlariga daxl qilish bo'ladi. Va, aksincha, Konstitutsiyada qonun bilan tartibga solinishi ko'zda tutilgan masala bo'yicha Farmon chiqarish mumkin emas. Hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipining qat'iy talabi ana shunday.

Farmonlar, umumiy qoidaga ko'ra, O'zbekiston Konstitutsiyasi hamda qonunlariga muvofiq va ularning ijrosini ta'minlash maqsadida chiqariladi.

Prezident Farmonlari yuksak nufuzliligi mamlakat iqtisodiyotining, aholi ijtimoiy hayotining hamda davlat boshqaruvining qonunlar va hukumat qarorlari bilan qamrab olinmagan talaygina dolzarb masalalarini tez va samarali hal etish imkonini beradi. Masalan: O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishi munosabati bilan aholini ijtimoiy muhofazalash kun tartibining nihoyatda dolzarb masalasiga aylandi. Xalqning kam ta'minlangan qatlamlariga davlat ko'magini berish lozim bo'lib qoldi.

1990 yil 3 maydagi «Ko'p bolali onalarga nafaqa miqdorini ko'paytirish to'g'risida» birinchi raqamli Farmon shu masalaga bag'ishlandi. Bu chuqur ramziy ma'noga ega hujjatga ko'ra ko'p bolali oilalarning moddiy ahvolini, avlodning o'sish sharoitlarini yaxshilash maqsadida onaga to'lanadigan har oylik nafaqa miqdorini ikki baravar ko'paytirish belgilandi.

Respublikada bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini jadal shakllantirishda ham Prezident Farmonlarining ahamiyati katta bo'ldi. «Respublikada dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada mustahkam-

lash va tadbirkorlik faoliyatini Davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasida birja faoliyatini muvofiq- lashtirish to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish qo'mitasini tashkil etish to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlan- tirish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish va himoya qilish choralari to'g'risida»gi Farmonlar bunga misol bo'la oladi.

Prezident Farmonlari strategik va dasturiy xarakterga ega bo'lib, ularda hukumat, u yoki bu vazirlik, davlat qo'mitasi muayyan yirik murakkab masalani qanday hal etishi kerakligining aniq rejasi va yo'l-yo'riqlari belgilab beriladi. Farmonlar Vazirlar Mahkamasi va davlat boshqaruvining boshqa bo'g'inlari faoliyatiga rahbarlikning samarali vositasidir. Biroq Farmonlar hukumat qarorlari o'rnini egal- lab olmaydi. Har ikki turdagi bu hujjatlar Konstitutsiya va qonunda belgilangan vakolatlar doirasida chiqariladi.

Farmon bilan qonunga qo'shimcha yoki o'zgartirish kiritish mumkin emas, u qonun asosida va qonun ijrosini ta'minlash maqsadida chiqariladigan aktdir. Shu o'rinda qonun bilan Farmon o'rtasidagi munosabatni aniqroq bayon etish lozim:

1. Qonun parlamentning, hokimiyat oliy vakillik organining aktdir; Farmon esa, oliy ijroiya hokimiyati rahbarining akti.

2. Qonun hamisha normativ xarakterga ega bo'ladi; Farmon normativ akt bo'lishi ham, bunday bo'lmasligi ham mumkin. Ba'zan Farmonlar individual akt sifatida chiqariladi.

3. Qonun o'z yuridik kuchi jihatdan Farmondan ustun turadi. Farmon normativ-huquqiy aktlar iyerarxiyasida qonundan keyinigi o'rinni egallaydi. Qonun bilan Farmonning qoidalari o'zaro zid kelib qolgan taqdirda, qonun ustuvorlik qiladi.

Shu o'rinda qonunning ham, Farmonning ham tartibga solish predmeti borligini yodda tutish lozim. Konstitutsiyaga muvofiq Farmon bilan hal etiladigan masala bo'yicha qonun chiqarish mumkin emas va aksincha. Biroq barcha Farmonlar parlament - Oliy Majlis tasdig'idan o'tishi lozim.

4. Qonun Konstitutsiyada belgilangan alohida qat'iy o'rnatilgan tartibda (odatda to'rt majburiy bosqichli jarayon oqibatida) qabul qilinadi. Farmonni qabul qilish esa, qonun ijodkorligi jarayonidagi singari maxsus bosqichlarni amalga oshirishni talab etmaydi.

3) **Hukumatning qaror va farmoyishlari** O'zbekiston Konstitutsiyasining 98-moddasiga binoan, Respublika Hukumati - O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonunlarga muvofiq mamlakatning butun hududida barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi va farmoyishlar chiqaradi. Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni ta'minlash maqsadida qonunlar, Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O'zbekiston Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari normativ-huquqiy xarakterga ega bo'lib, ular iqtisodiyot, ijtimoiy-madaniy va boshqa ijroiya idoralari faoliyatini boshqarishga yo'naltirilgandir. Hukumat qarorlari va farmoyishlari qonunga yoki Prezident Farmoniga zid kelib qolsa, qonun yoki farmon amal qiladi. Hukumatning bunday qarori bekor qilinishi shart bo'ladi.

Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari faqat unga Konstitutsiya va qonun bilan belgilab berilgan vakolat doirasidagina chiqarilishi mumkin. Prezidentlik hokimiyati qaror topganidan buyon, aksariyat hollarda, Farmonlarda Hukumatga topshiriqlar ifodalanib, unga tegishli qaror qabul qilish vazifasi yuklatiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993 yil 3 apreldagi «O'zbekiston go'sht va sut sanoati davlat aksionerlik uyushmasi («O'zgo'shtsut-sanoat»)ni tashkil qilish to'g'risida»gi Farmonida Vazirlar Mahkamasiga ikki hafta muddat ichida «O'zgo'shtsut-sanoat» uyushmasini tashkil qilish va uning faoliyatiga oid qarorni qabul qilib, tuzilmasi va Ustavini tasdiqlash vazifasi topshirildi⁴. 1993 yil 6 aprel kuni Vazirlar Mahkamasi o'zining «O'zbekiston go'sht va sut sanoati davlat aksionerlik uyushmasi («O'zgo'shtsut-sanoat»)ni tashkil qilish va uning faoliyati masalalari to'g'risida»gi 172-son qarorini qabul qildi⁵.

Prezidentning 1993 yil 2 iyun Farmoni bilan Vazirlar Mahkamasiga 20 kunlik muddat ichida «O'zfarmosanoat» (tibbiy doridarmon ishlab chiqarish sanoati) konsernini tashkil etish va uning faoliyati masalalariga doir qaror qabul qilish, konsern tuzilmasi va

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Xabarnoma. 1993. № 10, 20-bet.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, 1993yil, aprel, №172.

Ustavini tasdiqlash vazifasi topshirildi⁶. Vazirlar Mahkamasi o'sha yil 17 iyunda «O'zbek farmatsevtika sanoati davlat aksionerlik konsernini tashkil etish va faoliyati masalalari to'g'risida»gi 290-son qarorni qabul qildi⁷. Qarorda «O'zfarmosanoat» konserniga bir oylik muddat ichida uning Ustavini hukumat tasdig'iga kiritish vazifasi topshirildi. (Farmondagi 20 kunlik muddat Ustavni tasdiqlashga ham taalluqli edi).

4) Davlat va xo'jalik boshqaruvi idoralarning aktlari
Normativ-huquqiy aktlar Hukumatga itoat etuvchi boshqa davlat boshqaruvi organlari tomonidan ham chiqariladi. Bular vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat konsernlari va korporatsiyalarining qarorlari, buyruqlari va yo'riqnomalari bo'lishi mumkin. Bunday hujjatlarning ta'sir ko'lamini, harakat doirasi va yuridik kuchi bu aktlarni o'rnatuvchi boshqaruv idorasining davlat organlari tizimida tutgan o'rni va uning vakolatlari bilan belgilangan. Ular qonunga, Farmonga va hukumat qaroriga muvofiq hamda shu aktlarning ijrosini ta'minlash maqsadida chiqariladi. Boshqaruv tizimidagi quyi turuvchi organning huquqiy akti undan yuqori turuvchi organning aktiga muvofiq bo'lishi shart. Respublika vazirliklari, davlat qo'mitalari va boshqa boshqaruv idoralarining qonunga, farmonga va hukumat qaroriga zid hujjatlari Vazirlar Mahkamasi tomonidan bekor qilinishi ko'zda tutiladi. Vazirlar Mahkamasi o'z vakolati doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining O'zbekiston Konstitutsiyasiga, qonunlariga, O'zbekiston Prezidenti Farmonlariga va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga zid bo'lgan qarorlari va farmoyishlarining ijrosini to'xtatib qo'yish huquqiga ega⁸.

5) Mahalliy vakillik va ijroiya organlarining aktlari

Mahalliy vakillik va ijroiya organlari Konstitutsiya, qonunlar, Farmonlar, hukumat qarorlari, markaziy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining aktlariga muvofiq holda va ularni ijro etish uchun qaror va farmoyishlar qabul qiladilar. Mazkur huquqiy aktlar shu davlat organlari hokimiyati ta'sir etadigan hudud doirasida amal qiladi. Ular yuqorida sanalgan aktlarga zid bo'lib chiqsa, tegishli tartibda bekor qilinadi. Xususan, O'zbekiston Prezidenti, xuddi

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Xabarnoma, 1993, № 10, 45-bet.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, 1993yil iyun, № 290.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida Qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993, № 5, 202-moddada.

respublika boshqaruv organlarining aktlari singari, hokimlarning qabul qilgan g'ayriqonuniy hujjatlarini to'xtatadi va bekor qiladi (Konstitutsiyaning 93-modda, 13-bandi).

Yuridik adabiyotlarda huquqning manbai sifatida huquqiy odat, sud tajribasi (sud pretsedenti), xalqaro shartnomalar ham ko'rsatiladi. Odatlar faqat davlatning ma'qullashi tufayligina huquqiy odat sifatiga ega bo'lishi mumkin. Huquqiy odatlar qonun va boshqa normativ huquqiy aktlar amal qilmaydigan sharoitlarda qo'llanilishi mumkin. Sud tajribasi mavjud qonunlarni takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Xalqaro shartnomalarga kelganda, ularning mamlakat ichki huquqiy qoidalaridan ustuvorligi tan olinadi. O'zbekistonning deyarli barcha qonunlarida quyidagicha qoida mustahkamlanadi: «Basharti xalqaro shartnoma va bitimlarda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlaridagidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma va bitim qoidalari qo'llaniladi».

Shunday qilib, qonun respublika normativ-huquqiy aktlari o'rtasida o'z yuridik kuchi jihatidan eng ustuvor o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham qonun jamiyat huquqiy tizimining o'zagi sifatida maydonga chiqadi.

4. Qonunning oliyligi prinsipi

Demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jamiyatda qonunning hukmronligi qaror topishini taqozo etadi. Chinakam huquqiy davlat bo'lishi uchun mamlakatda adolatli, insonparvar, demokratik qonunlar tantana qilmog'i shart. Qonunning oliyligi davlat va jamiyat hayotining muqaddas prinsiplaridan biridir. Ijtimoiy siyosiy turmushda qonun muqaddas sanalib, uning yuksak nufuzga ega bo'lishining boisi shuki, unda xalqning hukmron irodasi, xohishi va istaklari, manfaat va intilishlari o'zining mujassam ifodasini topadi.

Qonunning oliyligi bugun paydo bo'lgan yangi muammo emas. Bu g'oya bir necha asrlardan buyon siyosiy-huquqiy ta'limotlar xazinasidan o'rin olib, o'z qadri hurmatlovchi davlatlar tajribasida qo'llanib kelmoqda. Masalaning qadr-qimmatini totalitar tuzumdan voz kechib, milliy istiqloq yo'liga kirgan yosh O'zbekiston davlati uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Hamma gap qonunning oliyligi prinsipini O'zbekistonning siyosiy-huquqiy voqeligiga singdirishda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida vujudga

kelganligini dunyoga e'lon qiluvchi «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonundayoq (1991 yil, 31 avgust) o'zining umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligini, demokratik davlatchilik yo'lidan borajagini, O'zbekistonda uning Konstitutsiyasi va qonunlari ustun ekanligini bayon etdi. Mustaqil O'zbekistonning 1992 yilgi yangi Konstitutsiyasida ham xalqimizning oliy maqsadi insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish ekanligi o'z ifodasini topdi.

4-§. Qonun ijodkorligi jarayoni va bosqichlari

Qonun davlat hokimiyatining maxsus faoliyati mahsuli sifatida vujudga keladi. Davlat amrining oliy ifodasi bo'lmish qonun, hokimiyatning alohida vakolatli organi tomonidan amalga oshiriladigan murakkab jarayon natijasida yaratiladi.

Qonunchilik (qonunni yaratish) jarayoni - davlat oliy vakillik organi ning konstitutsiyada belgilangan tartibda yangi qonunlarni yaratishga, amaldagi qonunlarga qo'shimcha va o'zgartirish kiritishga qaratilgan, shuningdek eskirgan qonunlarni bekor qilish borasidagi harakatlari yig'indisi bo'lib, u qonun bilan tartibga solinishi zarur bo'lgan munosabatlarni aniqlash, qonun loyihasini tayyorlash, uni muhokama etish va qabul qilishni o'z ichiga oladi. Qonunchilik jarayoni muayyan tartib, tashkillashganlik ifodasi sifatida mamlakatda qonunchilik hokimiyatini amalga oshirish shakli hisoblanadi. Qonunning oliyligi, jamiyat hayotidagi ustuvor mavqei qonunchilik jarayonining ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilab beradi. Zero, qonun yaratish jarayonining mukammal tartibga solinganligi sifatli va talab darajasidagi qonunning tug'ilishi uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Qonunchilik jarayonining ta'rifi ikki ma'noga ega: birinchidan, bu qonun loyihasining parlamentga kiritilishidan boshlab, to u qabul qilingunga qadar davlat organlari tomonidan ro'yobga chiqariladigan vakolatlar bo'lsa, ikkinchidan, qonunchilik hokimiyatini amalga oshirishda ishtirok etadigan turli sub'yektlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi protsessual qoidalar ifodasi (shakli)dir. Qonunchilik jarayonining muhim xususiyati shundaki, uning mazmunini tashkil etuvchi harakatlar tartibi va ularni amalga oshirish taomili konstitutsiyaviy tarzda belgilab qo'yiladi.

Qonun ijodkorligi jarayoni, an'anaga ko'ra, ushbu jarayonning

turli bosqichlarida ishtirok etuvchi organlar o'rtasidagi vakolatlarni taqsimlash ma'nosida talqin etiladi. Garchand, qonun chiqarish faoliyatida u yoki bu mustaqil sub'yektlar ishtirok etsalarda, qonunchilik jarayoni asosan parlamentning qonun yaratish faoliyati tartibi bo'lib qolaveradi.

Qonun ijodkorligi jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Muayyan qonun yaratilishiga bo'lgan ob'yektiv ehtiyojni aniqlash;⁹

2. Qonunchilik tashabbusi;

3. Qonun loyihasini muhokama qilish;

4. Qonunni qabul qilish;

5. Qonunni imzolash va e'lon qilish.

Qonun bilan tartibga solish ehtiyojini aniqlash

Qonun ijod etish faoliyatini faqat qonun chiqaruvchi organ doirasidagi harakatlar bilangina chegaralab bo'lmaydi. Mazkur faoliyat qamroviga muayyan turdagi ijtimoiy munosabatlarni qonun vositasi bilan huquqiy tartibga solishga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, qonunchilik tashabbusi sohiblarining, parlament qo'mitalarining, komissiyalarining shu yo'nalishda olib boradigan ishlari ham kiradi. Qonun chiqaruvchi organning vazifasi ancha murakkab va mas'uliyatlidir. U huquqiy tartibga solish ehtiyojini aniqlagach, tegishli muammoli vaziyatning huquqiy yechimini izlab topishga kirishadi. Ushbu muammoli ijtimoiy munosabatlar aynan qonun bilan tartibga solinishi kerakmi yoki boshqa turdagi huquqiy akt bilan (masalan, farmon yoki hukumat qarori bilan) tartibga solinishi mumkinmi, degan masalani hal etadi. So'ngra amaldagi qonun hujjatlarini tahlil qilib, mavjud normativ aktlarni to'ldirish, o'zgartirish yetarlimi yoki yangi qonun qabul qilish kerakmi, degan savolga yechim topadi.

U yoki bu qonunni qabul qilish ehtiyoji (zaruriyati) hamda muayyan huquqiy qoidani o'rnatishga qaratilgan xalq irodasining yo'nalishi aniqlangach, qonun chiqaruvchi organning diqqat-e'tibori ijtimoiy shakllangan qoidani yuridik tilda bayon etishga, uni aniq, ifodalashga, qat'iy rasmiylashtirishga qaratiladi. Qonun ishlab chiqishga kirishishdan avval mavjud ijtimoiy hayot, real voqelik, muayyan muammoli vaziyat atroflicha tahlil etilishi lozim.

Shunday qilib, u yoki bu qonunning yaratilishiga bo'lgan

⁹ Qarang: Odilqoriyev X, T. O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni. - T.: «O'zbekiston», 1995, 75-85-betlar.

ehtiyojni o'rganish (aniqlash) - qonun ijod etish jarayonining boshlang'ich bosqichidir.

Qonunchilik tashabbusi

Qonunni yaratish jarayoni, ya'ni qonun chiqaruvchi organ doirasidagi bevosita faoliyat qonunchilik tashabbusi ro'yobga chiqishidan boshlanadi.

Qonunchilik tashabbusi huquqi - Konstitutsiyada belgilangan vakolatli organlar, tashkilotlar va shaxslar tomonidan muayyan qonun loyihasini yoki yangi qonun qabul qilish to'g'risida, shuningdek qonunni o'zgartirish yoxud uni bekor qilish to'g'risidagi taklifni Oliy Majlis e'tiboriga taqdim etilishi va parlament tomonidan bu masalani belgilangan tartibda ko'rib chiqish haqida tegishli qaror qabul qilishdir.

Yuridik adabiyotda qonunchilik tashabbusining ob'yekti xususida bahs-munozara mavjud. Ba'zi olimlar bunday ob'yekt sifatida parlamentga tayyor qonun loyihasi kiritilishini nazarda tutadilar. Ikkinchi guruh olimlari biron-bir qonunni qabul qilish to'g'risida taklifni ilgari surilishining o'zi - qonunchilik tashabbusi bo'ladi, deb hisoblaydilar. Bu munozaraga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Reglamentining 66-moddasida aniq javob berilgan:

«Qonunchilik tashabbusi huquqi yangi qonunlar loyihalarini, amaldagi qonunlarga o'zgartishlar kiritish to'g'risidagi qonunlar loyihalarini, yangi qonunlarni qabul qilish yoki amaldagi qonunlarga o'zgartishlar kiritish to'g'risidagi takliflarni (qonun chiqarish to'g'risidagi takliflarni) kiritish shaklida amalga oshiriladi».

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 82-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, Oliy Majlisning deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokurori egadirlar.

Qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lmagan davlat va jamiyat tashkilotlari yoki alohida fuqarolar taklif etgan qonun loyihalari yoki qonunchilik xarakteridagi takliflari mazkur huquqqa ega bo'lgan idoralar va shaxslar orqali parlamentga kiritilishi mumkin.

Qonunlarning loyihalari va qonunchilikka oid takliflar ularni ishlab chiqish zarurligi asoslangan holda, bo'lajak qonunlarning maqsadi, vazifalari va asosiy qoidalari hamda ular amaldagi qonunlar tizimida tutadigan o'rnining, shuningdek, ularni qo'llashdan kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarining batafsil ta'rifi bilan birga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi. Amalga oshirish uchun qo'shimcha moddiy va boshqa xarajatlar talab qilinadigan loyiha taqdim etilayotganda unga moliyaviy-iqtisodiy dalillar ilova qilinadi¹⁰.

Qonun loyihasini muhokama qilish - qonun ijod etish jarayonining alohida muhim bosqichi. Bu bosqich qonun loyihasi parlamentga taqdim etilib, u sessiya kun tartibiga kiritilgach boshlanadi. Qonun loyihasi ikki xil shaklda muhokama qilinadi. **Birinchi holda**, qonun loyihasi parlament sessiyasida muhokama etiladi. **Ikkinchi holda**, jamiyat hayotining o'ta muhim masalalariga oid qonunlar loyihasi parlament qarori bilan umumxalq muhokamasiga chiqarilishi mumkin. Barcha qonun loyihalarini umumxalq muhokamasiga qo'yish majburiy qoida emas. Umumxalq muhokamalari qonunchilik tajribamizda keng qo'llanilayotgan demokratik institutdir.

Umumxalq muhokamasi - o'z mohiyati-e'tiboriga ko'ra qonun loyihasi yuzasidan xalq bilan bevosita kengashuv, maslahatlashuvdir. Bu tadbir xalq ommasini tajribasini mujassamlashtirish, jamoatchilik fikrini aniqlash va qonunda xalq manfaatlarini, xohish - irodasini to'la-to'kis aks ettirish imkonini beradi.

Parlament sessiyasi muhokamasiga kiritilgan qonun loyihalarini ko'rib chiqish, qoida tariqasida, ikki marta o'qish yo'li bilan amalga oshiriladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonun loyihasini birinchi o'qishda uning tashabbuskori ma'ruzasini va bosh qo'mita yoki komissiyaning qo'shimcha ma'ruzasini tinglaydi; loyiha-niing asosiy qoidalari (konsepsiyasini) muhokama qiladi hamda o'z taklif va mulohazalarini bildiradi. Birinchi o'qishda ma'qullangach, qonun loyihasining matni ustida bevosita ish olib boriladi. Qonun loyihasini ikkinchi o'qishda u moddama-modda, bo'lim va boblar bo'yicha yoki yalpi matni bo'yicha muhokama qilinadi. Muhokama chog'ida qonun loyihasi kamchiliklarini tuzatish uchun tegishli qo'mita (komissiya) yoki idoralarga qaytarilishi mumkin (Oliy Majlis Reglamentining 79-moddasi). Ko'rib chiqish natijasiga qarab, Oliy

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Reglamenti. - T., 1995, 14-bet (68-modda).

Majlis qonunni qabul qiladi yoki rad etadi yoxud maromiga yetkazish uchun qaytaradi.

Qonunni qabul qilish bosqichi muhim siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan voqeadir. Bu bosqichning ahamiyati va mas'uliyati shundaki, bunda qonun loyihasiga rasmiy yuridik kuch baxsh etiladi, u qonunga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasiga muvofiq, qonunni qabul qilish uchun Oliy Majlis deputatlarining (ya'ni 250 nafar deputatning) ko'pchilik ovozi talab etiladi. Qonun loyihasi to'lig'icha yoki moddama-modda yoxud bo'lim hamda boblar bo'yicha ovozga qo'yilishi mumkin. Qonun loyihasini yoqlab deputatlar umumiy sonining yarmidan ko'pi ovoz bersa, qonun qabul qilingan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi qonunini qabul qilish yoki unga o'zgartirishlar kiritish xalq deputatlari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovoz bilan amalga oshiriladi.

Oliy Majlisda qonunga ovoz berish demokratik tarzda bevositalik asosida amalga oshadi. Har bir deputat shaxsan o'zi ovoz berish huquqiga ega. Deputat ovoz berish uchun boshqa hamkasbini vakil qilishi mumkin emas.

Ovoz berish oshkora, ochiq, yashirin va nomma-nom bo'lishi mumkin.

Oliy Majlisda ovoz berish ovozlarni hisoblovchi maxsus elektron tarmoq yordamida o'tkaziladi. Sessiyada deputatlar orasidan sanoq komissiyasi saylanadi. U ovoz berish natijalari xolislik bilan hisoblab chiqilishini ta'minlaydi. Yashirin ovoz berish elektron mashinadan foydalangan holda yoki byulletenlar tashlash yo'li bilan o'tkaziladi.

Qonunlar umumxalq ovoz berishi (referendum) orqali ham qabul qilinadi. Bunda ovoz berish yashirin tartibda o'tkaziladi: fuqarolarning o'z xohish-irodalarini izhor etishlari ustidan nazorat qilishga yo'l qo'yilmaydi. Referendum ishtirokchilari teng bo'lib, har bir fuqaro shaxsan ovoz beradi va faqat bitta ovozga ega bo'ladi.

Qonunni imzolash va e'lon qilish. Qonun qabul qilingach, uni imzolab, so'ng e'lon qilish (matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilish) qonunchilik jarayonining alohida bosqichi sanaladi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 83-moddasiga muvofiq, qabul qilingan qonunlarning matbuotda e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy shartidir.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari mamlakat Prezidenti tomonidan imzolanadi. Bunda Prezident «veto» huquqidan foydalanishi mumkin. Ya'ni, Prezident imzolash uchun yuborilgan qonunlar Konstitutsiyaga yoki inson huquqlariga yoxud milliy xavfsizlikka zid deb hisoblasa, qonunga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun Oliy Majlisga qaytarishga haqli (Konstitutsiyaning 93-moddasi 14-bandi). Agar Oliy Majlis ilgari o'zi qabul qilgan qarorni (ya'ni, qonunni) uchdan ikki qismdan iborat ko'pchilik ovoz bilan tasdiqlasa, Prezident bu qonunga imzo chekadi.

O'rnatilgan tartibga ko'ra O'zbekiston qonunlari qabul qilinganidan so'ng o'n kundan kechiktirmasdan o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida nashr etiladi. Qonunlar rasmiy matbuot nashrlarida - «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi»da (o'zbek va rus tillarida), «Xalq so'zi» va «Narodnoe slovo» gazetalarida, shuningdek «Erkin Qaraqalpaqstan», «Vesti Karakalpakstana» gazetalari bosib chiqiladi.

Qonunni matbuotda e'lon qilish davlat tomonidan o'rnatilgan huquqiy normalarni aholiga yetkazishning eng tezkor, epchil va ishonchli usullaridan biridir. Matbuotda e'lon qilishning afzal tomoni shundaki, qonunlarning matni bilan qayta-qayta tanishish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Qonunni matbuotda e'lon qilish rasmiy yuridik fakt bo'lib, uning kuchga kirayotganidan dalolat beradi. Qonun matbuotda bosilib chiqqandan keyin 10 kun o'tgach kuchga kiradi (albatta, qonun matnida uni kuchga kiritishning uzoqroq muddati ko'rsatilishi bu umumiy xulosaga putur yetkazmaydi).

Shunday qilib, parlament qonunni qabul qilib, uni mamlakat aholisi e'tiboriga yetkazgach, qonunchilik hokimiyatini amalga oshirish tartibi hisoblangan qonun ijod etish jarayoni nihoyasiga yetadi.

5-§. Normativ-huquqiy aktlarning vaqt, hudud va shaxslarga nisbatan amal qilishi

Normativ-huquqiy aktlarni hayotga samarali tatbiq etishning muhim sharti - ularning amal qilish doirasini aniq belgilab olishdir. Normativ hujjatlarning harakatlanishi - ularda nazarda tutilgan

yuridik oqibatlarining yuzaga chiqishidir. Normativ-huquqiy aktlarning harakatlanish ko'lamlari amaliyot uchun bevosita ahamiyat kasb etadi. Bu masala quyidagi to'rt yo'nalishni qamrab oladi:

1) mazkur akt qanday ijtimoiy munosabatlarga tatbiq etiladi (harakatlanish mavzusi);

2) normativ akt qachondan boshlab va qaysi vaqtgacha amal qiladi (vaqt bo'yicha harakatlanishi);

3) u qaysi hududga o'z ta'sirini o'tkazadi (hududda, makonda harakatlanishi);

4) normativ akt kimlarga taalluqli (shaxslarga nisbatan amal qilishi).

1. Aktning harakatlanish mavzusi

Normativ-huquqiy aktlar turli mazmundagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Masalan, ma'muriy qonunchilik sohasidagi normativ aktlar davlat boshqaruvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi; fuqaroviy qonunchilik aktlari mulkiy va mulkiy bo'lmagan shaxsiy munosabatlarni huquqiy tartibga soladi. Bu sohalarga oid aktlarning hech biri o'zgasining mavzusiga, ko'lamiga oid munosabatlarni tartibga sola olmaydi.

Huquqiy tartibga solish mavzusi predmetini irodaviy ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Bu hol huquqiy aktlarning inson irodasi ishtirok etmaydigan hodisa yoki boshqa vaziyatlarga ta'sir etishini istisno qiladi. Bunday holatlar faqat yuridik faktlar sifatida maydonga chiqishi mumkin. Ya'ni, qonun bu faktlar tufayli kelib chiqadigan yuridik oqibatlarni belgilay oladi, ammo ularning mazmuniga, ichki harakatlanishiga ta'sir eta olmaydi.

Shunday qilib, normativ-huquqiy aktlar muayyan turdagi va mazmundagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

2. Normativ aktlarning vaqt bo'yicha amalda bo'lishi qonun yoki boshqa huquqiy hujjatning yuridik kuchga kirish va uni yo'qotish vaqtini anglatadi. Har bir davlatda qonun va boshqa normativ aktlarning matbuotda e'lon qilinishi va kuchga kirishi tartibi to'g'risidagi normalar amal qiladi.

O'zbekistonda qonunlarni matbuotda e'lon qilish va yuridik kuchga kiritish tartibi maxsus qonun hujjatlari bilan belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati

oliy organlarining huquqiy aktlari qabul qilinganidan (imzolanganidan) so'ng o'n kundan kechiktirmasdan o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida nashr etiladi, ayni vaqtda radio va televideniye orqali e'lon qilinishi ham mumkin. Qonunlar O'zbekiston Prezidentining imzosi bilan e'lon qilinadi. Qonunlarni kuchga kiritish to'g'risidagi parlament qarori esa Oliy Majlis Raisining imzosi bilan e'lon qilinadi.

Qonunlar, Oliy Majlisning boshqa qarorlari «Axborotnoma»da nashr etilgandan so'ng 10 kun o'tgach, butun respublika hududida kuchga kiradi. Xuddi mana shu hujjatlar rasmiy matbuot organlari («Xalq so'zi», «Narodnoe slovo», «Erkin Qaraqalpaqstan» va «Vesti Karakalpakstana» gazetalari) da bosilib chiqqanidan keyin 10 kun o'tgach yuridik kuchga kiradi. Normativ mazmunga ega bo'lmagan hujjatlar ular qabul qilinib, matbuotda e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi. Albatta, bu umumiy qoidadir. Biroq, qonun chiqaruvchi idora vaziyatga qarab boshqa muddatlarni belgilashi ham mumkin.

Agar Oliy Majlisning muayyan qonunni kuchga kiritish tartibi to'g'risidagi qarorida boshqacha muddatlar belgilangan bo'lsa, qonun nashr etilgach, yuqoridagi 10 kunlik muddatda emas, balki parlament qarorida ko'rsatilgan muddatda kuchga kiradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 1994 yil 24 sentyabrda qabul qilinib, 1995 yil 1 apreldan boshlab kuchga kiritilgan; O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 1997 yil 24 aprelda qabul qilinib, 1998 yil 1 yanvardan e'tiboran kuchga kiritilgan; Respublikaning Bojxona kodeksi 1997 yil 26 dekabrda qabul qilinib, 1998 yil 1 martdan kuchga kiritilgan.

Odatda kodekslar va boshqa katta qonunlar qabul qilingandan to' kuchga kirguncha bir necha oy vaqt o'tadi. Bunday muddat belgilanishiga sabab tegishli ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitni vujudga keltirish, tashkiliy-tayyorgarchilik ishlarini amalga oshirish uchun vaqt-imkoniyat zarur bo'lishidir. Bu davr ichida qonunni hayotga joriy etish mexanizmi tarkibiga kiruvchi qonunosti aktlar (farmon, hukumat qarori, nizom va yo'riqnomalar) ishlab chiqilib qabul qilinadi. Zarur bo'lsa, tashkiliy-institutsional tuzilmalar tizimi vujudga keltiriladi va hokazo.

Ba'zi normativ-huquqiy aktlar matbuotda e'lon qilingan kundan

boshlab kuchga kiradi. Bu haqda tegishli ko'rsatma qonunni kuchga kiritish tartibi to'g'risidagi qarorda nazarda tutilgan bo'ladi.

Amaliyotda qonun hujjatlarini bosqichma-bosqich qabul qilib, shu zayilda kuchga kiritish hollari ham uchrab turadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismi 1995 yil 25 dekabrda qabul qilindi, Fuqarolik kodeksining ikkinchi qismi esa 1996 yil 29 avgustda qabul qilinib, har ikkala qism 1997 yil 1 martdan boshlab kuchga kirdi.

Prezident Farmonlarida ularni kuchga kiritishning turli shakllari qo'llaniladi. Masalan, Farmonlar matnida shunday qoidalar uchraydi: «Farmon imzolangan vaqtdan kuchga kiritilsin», «Farmon matbuotda e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiritilsin», «Farmon qabul qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiritilsin». Kuchga kiritishning bunday shakllari boshqa turdagi normativ-huquqiy aktlarga ham xosdir.

Referendumda qabul qilingan qonunni e'lon qilish va kuchga kiritish tartibi «Referendum to'g'risida»gi qonunning 27-moddasida belgilangan:

«Referendum natijalarini referendum o'tkazuvchi Markaziy Komissiya ovoz berish tugagidan keyin o'n kundan kechiktirmay ommaviy axborot vositalari orqali O'zbekiston Respublikasining aholisiga ma'lum qiladi. Referendum o'tkazuvchi Markaziy Komissiya qonunlarini ustidan bu qarorlar qabul qilingan kundan boshlab bir hafta ichida O'zbekiston Respublikasining Oliy Sudiga shikoyat qilinishi mumkin».

Referendumda qabul qilingan qaror (qonun) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashi tomonidan referendum natijalari haqida rasman xabar qilinganidan keyin kechi bilan yetti kun ichida matbuotda bosib chiqariladi va agar referendum qarorining o'zida boshqa muddat nazarda tutilgan bo'lmasa, e'lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Normativ aktlarning kuchga kirish va amalda bo'lish vaqtini aniq belgilash muhim ahamiyatga ega. Chunki ular belgilangan vaqtdan boshlab so'zsiz bajarilishi lozim. Bu qonun ustuvorligi prinsipini hayotga joriy etish bilan bog'liq. Qonun orqaga qaytish kuchiga ega emas, degan talab qonun chiqarilgunga qadar vujudga kelgan hamda mavjud bo'lgan harakat va munosabatlarga tatbiq

etilmaydi, degan ma'noni anglatadi. Biroq, bu umumiy yuridik aksiomadan ikki hoiatda istisno bor: **birinchisi**, agar qonun yoki normativ aktning o'zida, ularning orqaga qaytish kuchi ko'rsatilgan bo'lsa; **ikkinchisi**, agar qonunda qilingan xatti-harakat uchun jazo qo'llash to'xtatilgan bo'lsa yoki jazoni yengillashtirish ko'zda tutilgan bo'lsa, qonun orqaga qaytish kuchiga ega.

Qonun va boshqa normativ-huquqiy aktlar quyidagi uch asosga ko'ra o'z amal qilishini to'xtatadi:

a) normativ aktning amal qilishi belgilab qo'yilgan muddat tugagan bo'lsa;

b) davlat vakolatli organining normativ aktni bekor qilish to'g'risida qarori bo'lsa yoki eskisining o'rniga kelayotgan yangi qabul qilingan normativ aktda bu haqda ko'rsatilgan bo'lsa;

v) ilgari amalda bo'lgan normativ aktni almashtiruvchi yangi normativ akt qabul qilinsa.

Odatda, eskirgan normativ aktni bekor qilish yoki kuchini yo'qotgan deb topish haqida maxsus qaror qabul qilinadi.

3. Normativ aktlarning hududda, makonda harakatlanishi

Davlat suvereniteti tamoyiliga binoan normativ-huquqiy aktlar davlatning butun hududida harakatda bo'ladi. Davlat hududiga quyidagilar kiradi - yer maydoni, yer osti, ichki va hududiy suvlar, yer va suv hududi ustidagi havo makoni, elchixonalarning, harbiy kemalar, parvoz etuvchi kemalar (apparatlar) hamda ochiq dengizda suzuvchi kemachalarning hududlari. Normativ aktlar amal qilinishining hududiy ko'lamlari davlat yurisdiksiyasi bilan chambarchas bog'liq. Ba'zan xorijiy mamlakat qonunchiligi muayyan davlat hududida amal qilishi mumkin. Biroq, buning uchun bu ikki davlat o'rtasida ular qonun hujjatlarining o'zaro bir-birining hududida amal qilishi haqida shartnoma bo'lishi shart.

Xalqaro shartnomalar normativ aktlarning eksterritorial harakatini ham nazarda tutishi mumkin. ya'ni, bir davlatning qonunlari o'z hududidan tashqarida ham amal qiladi (bir davlat qonunlarining boshqa davlat hududida bo'lgan o'z fuqarolari va tashkilotlariga nisbatan qo'llanilishi). Federativ davlatlarda federal qonunlar butun ittifoq hududida, fedyeratsiya sub'yektlarining

qonunlari esa ularning o'z hududlaridagina harakatlanadi.

Ko'pchilik davlatlarning qonunchiligida kollizion me'yorlar mavjud. Bular nizoli vaziyat vujudga kelganda qo'llaniladi. Masalan, teng kuchli huquqiy aktlar to'qnashib qolganda, shuningdek turli davrda chiqarilgan aktlar yoki har xil hajmdagi aktlar yoxud turli idoralar tomonidan o'rnatilgan aktlar o'zaro zid kelib qolganda kollizion normalar ishga solinadi. Davlatning turli ma'muriy-hududiy bo'laklari uchun chiqarilgan aktlar o'rtasida ham o'zaro qarama-qarshilik kelib chiqishi mumkin. Aksariyat hollarda bunday nizolar sud orqali hal etiladi.

4. Normativ aktlarning shaxslarga nisbatan harakatda bo'lishi

Huquqiy qoidalarning vazifasi ular tatbiq etilishi lozim bo'lgan munosabatlarni, tashkilotlarni va kishilar doirasini aniqlab berishdan iborat. O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa huquqiy aktlari mamlakatning barcha fuqarolariga, davlat idoralariga, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlarga nisbatan amalda bo'ladi. O'zbekiston Konstitutsiyasi, qonunlar va boshqa normativ aktlar mamlakatda yashovchi, vaqtincha kelib-ketuvchi ajnabiy fuqarolarga ham tatbiq etiladi. Tartibga solinishi lozim bo'lgan munosabatlar va xorijiy davlatlar bilan tuziladigan shartnomalarning mazmuniga qarab, yuqorida ko'rsatilgan umumiy qoidalardan ayrim istisnolar mavjud. Masalan, O'zbekiston Respublikasida yashaydigan chet el fuqarolari sudga majburiy tartibda ko'rsatma berish uchun keltirilgan bo'lsa, ammo u diplomatik immunitet (daxlsizlik) huquqidan foydalanadigan bo'lsa, bunday shaxslarning xatti-harakatlari diplomatik vositalar bilan hal qilinadi. O'zbekistonning ayrim qonun normalari xorijiy davlat fuqarolariga qo'llanilmaydi. Masalan, ular bizda saylov huquqiga ega emaslar; qurolli kuchlar safida xizmat qilishi va huquqni muhofaza etuvchi davlat idoralarida ishlashi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasining qonunlari bizning chet davlatlarda turgan (doimiy ishlovchi, turist, xizmat safarida bo'lgan) fuqarolarimizga nisbatan ham qo'llaniladi. Masalan, chet elda jinoyat sodir etgan O'zbekiston fuqarosi xorijiy qonunchilik bilan javobgar bo'lishidan tashqari, O'zbekiston Jinoyat kodeksi bilan ham javobgar qilinadi.

6-§. Normativ-huquqiy aktlarni tizimlashtirish

Jo'shqin qonunchilik va huquq ijodkorlik faoliyati natijasida mamlakatda katta hajmdagi normativ-huquqiy aktlar majmui hosil bo'ladi. Ularni qamrab olish, o'rganish va qo'llash uchun normativ aktlarni batartiblashtirish, guruhlashtirish, ya'ni tizimlashtirish zaruriyati tug'iladi. Tizimlashtirishning maqsadi huquqiy hujjatlarni tartibga solish, bir tizimga keltirish, ularni foydalanish uchun qulay qilib (muayyan bo'lim, ruknlar asosida tasniflab) joylashtirishdan iborat.

Normativ-huquqiy aktlarni tizimlashtirish - amaldagi qonunchilik hujjatlarini batartiblashtirishga, tizimlashtirishga qaratilgan maxsus faoliyatdir.

Huquqiy adabiyotda tizimlashtirishning quyidagi ikki an'anaviy turi - **kodekslashtirish va inkorporatsiya** haqida gapiriladi.

Kodekslashtirish - qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirishning eng yuqori shaklidir. Mazkur amal tufayli qonunchilik tarmog'idan muhim huquqiy normalarni mantiqiy birlashtiruvchi majmuiy hujjat (kodeks) vujudga keltiriladi. Kodekslashtirishda normativ-huquqiy aktlar shunchaki, oddiygina to'plab birlashtirilmaydi, balki huquqiy tizimning umumiy prinsiplaridan kelib chiqib, tarmoqdagi barcha normativ material ichki mutanosib bir butun va ilmiy tizimlashtirilgan yagona akt ko'rinishida bayon etiladi.

Kodekslashtirish - amaldagi qonunchilik normalarini chuqur va har tomonlama qayta ishlash hamda lozim bo'lsa, unga jiddiy o'zgartishlar kiritish orqali yangi, majmuiy, tizimlashtirilgan normativ-huquqiy akt yaratishdir. Kodekslashtirishning muhim xususiyati va inkorporatsiyadan farqi shundaki, u faqat huquq ijod etuvchi idora tomonidan amalga oshiriladi. Shu jihatdan u huquq ijodkorligining bir turi hisoblanadi.

Kodekslashtirishda normativ aktning mazmuni o'zgaradi, ya'ni: eskirgan huquqiy norma bekor qilinadi, yangisi yaratiladi; ko'pchilik normalar qayta bayon qilinadi; normalar o'rtasidan qarama-qarshiliklar, takrorlashlar hamda huquqdagi kamchiliklar bartaraf etiladi.

Kodeks - muayyan huquq (qonunchilik) sohasidagi ustuvor normalarni ifoda etuvchi, mujassamlashtiruvchi qonundir. U katta miqdordagi turli xil normalarni qamrab olsa ham, ichki muvofiqlikka ega bo'lgan yagona bir butun aktdir. Uning tarkibiy qismlari

(normalar, institutlar) o'zaro uzviy aloqador bo'lib, muayyan tizim tarzida joylashtiriladi. An'anaga ko'ra, qonunchilik sohasida uyg'unlashtiruvchi va boshqaruvchi faol markaz rolini tegishli kodekslar o'ynaydi. Kodeks oddiy qonundan o'zining mukammalligi, sayqal topganligi, barqarorligi bilan farq qiladi. Agar muayyan qonunchilik sohasida bir vaqtning o'zida kodeks va bir necha qonun hujjatlari mavjud bo'lsa, ular ichida kodeks yuridik kuchi hamda tartibga solish imkoniyati jihatidan ustunlik qiladi. Kodekslar ichki mantiqining pishiqligi, normalarining o'zaro muvofiqlashtirilganligi bilan ajralib turadi. Kodekslashtirilgan aktlar o'zining huquqiy tartibga soluvchi ta'sir kuchini va ahamiyatini uzoq muddat davomida saqlab qoladi.

Kodeksdan tashqari kodekslashtirilgan aktlarning **ustav** va **nizom** shakllari mavjud. Ular o'z mazmuni va vazifasiga binoan birbiridan farq qiladi.

Ustav - boshqaruvning u yoki bu sohasidagi muayyan idora, vazirlik va tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi normalarni o'zida aks ettiruvchi kodekslashtirilgan aktdir. Masalan, temir yo'l transporti Ustavi; Qurolli Kuchlarning intizomiy ustavi va hokazo.

Nizom - muayyan davlat tuzilmalarining (jamoat birlashmalarining) tashkil etilish tartibini, tuzilishi, vazifasi, funksiyalari va vakolatlarini belgilovchi majmuyi kodekslashtirilgan akt.

Nizom - kodekslashtirilgan aktning eng keng tarqalgan turi. U muayyan huquq ijodkorlik organi yoki vakolatli mansabdor shaxs tomonidan tasdiqlanadi. Eng ahamiyatli sohalarga tegishli va yuridik kuchi yuqoriroq bo'lgan nizomlar respublika Prezidenti, Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Masalan, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni to'g'risidagi nizom» - mamlakat Prezidenti tomonidan, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qo'mita va komissiyalari to'g'risida nizom» - Oliy Majlis tomonidan, «Uy egalarning o'zini o'zi boshqarish jamoat organlari - Uy-joy egalari Kengashlari to'g'risidagi Nizom» - Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlangan va hokazo.

Inkorporatsiya - tizimlashtirishning bir turi bo'lib, bunda qonunlar, farmonlar, hukumat qarorlari, farmoyishlar va boshqa normativ-huquqiy aktlarning mazmuniga hech qanday o'zgarish kiritilmasdan alfavit, xronologik, mavzu bo'yicha va boshqa tarzda

tizimga solib nashr etiladi.

Qonunlarni inkorporatsiya qilish orqali tizimlashtirish deyarli barcha davlatlarda amalga oshiriladi. Ular ko'p jildli qilib nashr etilib, qonunlarning chiqarilgan vaqtiga qarab (xronologik), alfavit tartibida va boshqa sifat hamda belgilariga qarab joylashtiriladi. O'zbekiston Respublikasining Adliya vazirligi Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab chiqarilgan qonunlarni «O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari» degan ko'p jildli xronologik to'plam sifatida nashr etib kelmoqda.

Inkorporatsiyaning uch turi mavjud:

a) **rasmiy inkorporatsiya** - qonunchilik aktlarini ularni chiqargan organlar tomonidan to'plam va majmua shaklida tizimlashtirish;

b) **norasmiy inkorporatsiya** - bunda tizimlashtirilgan to'plamlar tuzish unga maxsus vakolati bo'lmagan idora va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi (masalan, yuridik nashriyotlar tomonidan yoki ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan tizimlashtirish);

v) **ofitsioz inkorporatsiya** - qonunchilik aktlarining ularni tizimlashtirish vakolatiga ega bo'lgan idoralar tomonidan to'plam yo majmua qilib chiqarilishi (odatda, bunday tizimlashtirish Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi).

Qonunlar majmuini tuzish, qonunlar va boshqa muhim normativ-huquqiy aktlarni to'plab, qat'iy tartib asosida mavzuli (predmetli) tizimlash - inkorporatsiyaning eng yuqori ko'rinishidir.

Konstitutsiya asosida mamlakat qonunlari majmuini tayyorlash va chop etish qonunlar mazmunini aholiga yetkazish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini qo'riqlashni kuchaytirish, davlat va jamiyat hayoti huquqiy negizini mustahkamlashga, ommaning huquqiy madaniyatini yuksaitirishga xizmat qiladi.

Normativ-huquqiy aktlarni **jamlash** (konsolidatsiya qilish) usuli qonunchilikni tizimlashtirishga yaqin turadi. Qonunchilikni jamlash normativ-huquqiy aktlarni tizimlashtirishdan oldin, dastlabki bosqich sifatida maydonga chiqadi. Bunda u yoki bu masalaga oid huquqiy aktlar to'planadi, birlashtiriladi hamda umumlashtiriladi.

7-§. Huquq ijodkorligida yuridik texnika masalalari

Huquq ijodkorligi jarayonida vakolatli mutasaddi idoralar va shaxslar muayyan tamoyillarga, qoidalarga rioya etishlari lozim. Huquqiy adabiyotlarda va yuridik amaliyotda «yuridik texnika» degan tushuncha keng qo'llaniladi.

Yuridik texnika - normativ-huquqiy aktlar loyahasini tayyorlash, ularni rasmiylashtirish, nashr etish va tizimlashtirish qoidalari (tartibi, taomili) yig'indisidir. Avvalambor, yuridik texnika - huquqni tashqi ifodalash qoidalari, aksariyat hollarda huquqiy madaniyatning eng oddiy (elementar) talablari yig'indisi hisoblanadi. Masalan, huquqni rasmiy ifodalashning asosiy talablari quyidagilar: huquq normalarining barchaga tushunarli bo'lishi; iboralarning aniq, sodda va qat'iy ma'noli bo'lishi; aholi saviyasiga mos yuridik andozalar (konstruksiyalar)dan foydalanish; yuqori turuvchi idoralar aktidagi qoidalarni takrorlayvermaslik; uzundan-uzun, g'aliz jumlar tuzmaslik va hokazo.

Normativ aktlarning ichki tuzilishi va bayoni quyidagi talablarga javob berishi kerak: huquqiy qoidalar bayonining mantiqiy uzviylik va sobit ketma-ketlikda bo'lishi; normativ-huquqiy aktga kiritilgan qoidalarining o'zaro mutanosib va bir turli bo'lishi; normativ aktning maqsadli tarzda ruknlarga bo'lish, uning bo'lim, bob va moddalarini nomlash; normativ aktning tarkibiy qismlari o'rtasida qarama-qarshiliklarning bo'lmasligi; qonunchilikning bitta sohasiga kiruvchi aktlar o'rtasida o'zaro mutanosiblikning mavjud bo'lishi va hokazo.

Yuridik texnikaning yorqin namunalaridan, keng tarqalgan tur-laridan biri qonunchilik texnikasidir. Qonunchilik faoliyatining sifati, samaradorligi va batartib tashkillashtirilishi, uyushtirilishi ko'p jihatdan qonunchilik texnikasiga bog'liq. Yuqori darajadagi qonunchilik texnikasining zohir bo'lishi jamiyatda shakllangan huquqiy madaniyat darajasini, huquq va qonunga hurmatni ifodalovchi ko'rsatkichlardan biridir. Qonunchilik texnikasini huquqiy aktlarni rasmiylashtirish usuli (yo'l-yo'riqlari) sifatida talqin qilish normativ aktlarning tili va uslubi, tuzilishi, huquqiy qoidalarni shakllantirish hamda bayon etish masalalarini chuqur o'rganish uchun zaruriy asos bo'lib hisoblanadi.

Huquqiy adabiyotda keng tarqalgan fikrga ko'ra, qonunchilik texnikasi - normativ aktlar loyahasini shaklan ifoda etish, bayon etish

usul va uslublari, shuningdek ularni tayyorlash ishlarini tashkil etish qoidalarini qamrab oluvchi kompleks tushuncha bo'lib, unda huquqiy aktlar loyihalarini tayyorlashning tashkiliy-texnikaviy metodlari va ularni rasmiylashtirishning metodologik usullari uzviy birikib ketgan.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan qonunchilik faoliyati tajribasidan kelib chiqqan holda qonunchilik texnikasiga shunday ta'rif berish mumkin: **qonunchilik texnikasi** - normativ-huquqiy aktlar loyihalarini tayyorlashning huquq ijodkorligi amaliyotiga tayanuvchi va nazariy jihatdan chuqur mushohada etilgan qoidalari va usullari tizimi bo'lib, u normativ-huquqiy qoidalar shakli - mazmuniga to'la va aynan muvofiq bo'lishini, normativ materialni tushunarli, oddiy hamda oson ilg'ash, kuzatib borishga imkon berishini, tartibga solinadigan masalalarni bekamu ko'st qamrab olinishini ta'minlaydi. Qonunchilik texnikasi qoidalarini shakllantirishda tabiiy-texnikaviy fanlar, huquqshunoslik ilmining yutuqlari bilan bir qatorda tilshunoslik, informatika nazariyasi kabi boshqa fanlar ham muhim manba bo'lib hisoblanadi.

Huquqiy adabiyotlarda qonunchilik texnikasi nuqtai nazaridan normativ-huquqiy aktlar loyihalariga qo'yiladigan eng umumiy talablar mufassal yoritilgan¹¹. Qonunchilik texnikasi talablari va qoidalariga amal qilish tufayli quyidagi afzalliklarga erishiladi:

- muayyan ijtimoiy munosabatlar to'la-to'kis normativ tartibga solinadi, bu boradagi bo'sh jihatlar va huquqiy qoidalar bayonidagi kamchiliklar bartaraf etiladi;

- huquqiy tartibga solish konkretlashadi va aniq belgilanadi;

- huquqiy aktga kiritilgan normativ qoidalarning mantiqiy izchilligi hamda uzviy aloqadorligi ta'minlanadi;

- normativ akt mazmunida va butun qonunchilik tizimida qarama-qarshilik istisno etiladi; o'z ahamiyatini yo'qotgan va eskirgan aktlarni o'z vaqtida bekor qilish imkoniyati yaratiladi;

- bir toifa ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy aktlar soni keskin qisqaradi; normativ materialdan foydalanish, uni bir tizimga solish osonlashadi;

- huquqiy qoidalar bayoni qat'iy va bir usulda ifoda etiladi;

¹¹ Qarang: Odilqoriyev X.T. O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni. - T., 1995, 183-185-betlar.

- huquqiy-normativ akt tilining ravon, aniq, tushunarli bo'lishiga, huquqiy iboralarning bir ma'noda qo'llanilishi va anglanishiga erishiladi.

Qonunchilik texnikasining muhim ahamiyatga molik jihatlaridan yana biri qonunning tili, ifoda uslubi masalasidir. Qonunchilik tili - davlat hokimiyati o'z fuqarolari bilan aloqa bog'laydigan rasmiy tildir. Aynan til vositasida davlatning irodasi, u yuritayotgan siyosatning mazmuni va mohiyati xalqqa yetkaziladi¹².

¹² Qonunchilikning tili xususida qarang: Ko'chimov SH.N. O'zbekiston Respublikasida qonunchilik texnikasi: til, uslub, huquqiy atamashunoslik. - T., 1996.

XI bob. HUQUQNING MANBALARI

1-§. Huquqning manbalari (shakllari) tushunchasi

Yuridik adabiyotlarda e'tirof etilishicha, huquqning manbai deganda umumiy ma'noda huquqning ifoda etilish shakli tushuniladi.

Huquq tushunchasida maxsus huquqiy mazmunnigina emas, balki uning mavjud bo'lishining ichki shaklini ham tushunmoq lozim. Huquqning manbalari (shakllari) tushuncha sifatida huquqning davlat bilan bog'liqligini bevosita ifodalaydi. Agar huquqning mazmuni bo'lib umumiy yurish-turish qoidalari yig'indisi hisoblansa, uning ichki shakli har bir alohida huquq normasining tashkil topish usullari va barcha huquq normalarining bir tizimga birlashishidir, uning tashqi shakli yoki huquqning manbai esa, davlat erkini o'ziga xos hujjatlashtirish, shakllantirish usullari yig'indisidir. Huquqning manbai tushunchasini uni tashqi ifodalash shakli nuqtai nazaridan tahlil qilganda, normalar hokimiyat tepasida turgan, xalqning, biror-bir sinfnig yoki guruhning manfaatlarini ifodalovchi ma'lum bir siyosiy kuchning erkin qonun darajasiga ko'tarilgan ifodasidir. Davlat hokimiyatini tashkil qiladigan va huquqni yaratadigan kuch sifatida maydonga chiqadigan jamiyatning moddiy shart-sharoiti, moddiy ma'noda huquqning manbai tushunchasini anglatadi. Shaki doimo mazmunga ega bo'lishi kerak, agar u mazmunga ega bo'lmasa, o'z qadr-qimmatini yo'qotadi. Bizni birinchi o'rinda huquqning manbai sifatida shaklan huquqiy odat, huquqiy pretsedent, normativ-huquqiy akt, normativ shartnomalar qiziqtiradi. Yuridik adabiyotlarda keltirib o'tilishicha, huquqning shakllari quyidagi o'ziga xos xususiyatlar bilan xarakterlanadi: u fuqarolar erkini normativ mustahkamlashi zarur; mavjud ijtimoiy-iqtisodiy bazis bilan belgilanadi; xalqning manfaatlariga xizmat qiluvchi siyosiy hokimiyatni ta'minlashi zarur; manfaatlarni ifodalashning eng demokratik shakli sifatida qonunlar ahamiyatini tasdiqlashi kerak.

2-§. Huquqiy odat

Tarixan huquqning dastlabki manbai (shakli) bo'lib huquqiy odat hisoblanadi.

Huquqiy odat - uzoq davr mobaynida amalda bo'lish natijasida shakllangan va davlat tomonidan umummajburiy qoida sifatida tan olingan yurish-turish qoidasidir.

Har qanday odat ham huquqiy odatga aylana olmaydi, balki ma'lum bir guruh, sinf yoki butun jamiyatning manfaatlariga javob bera oladigan va davlat tomonidan sanksiyalangan odatgina huquqiy odat bo'lishi mumkin.

Huquqning manbalari tizimida huquqiy odatning roli va o'rnini turli davlatlarda turlicha bo'lgan.

Hozirgi davrda huquqiy odatning roli va ahamiyati uncha katta emas va u kamdan-kam holatlardagina qo'llaniladi.

Quyidagi huquqiy yodgorliklarni huquqiy odatga misol tariqasida keltirib o'tish mumkin:

Hammurabi qonunlari, Manu qonunlari, XII jadval qonunlari va boshqalar.

3-§. Huquqiy pretsedent

Huquqiy pretsedent - lot. *praecedens* - «avvalgisi, oldingisi» ma'nosini anglatadi.

Sud yoki ma'muriy organning yozma yoki og'zaki qarori, kelgusida barcha shunga o'xshash ishlarni ko'rib chiqish va hal qilish uchun asos bo'ladigan namuna, etalon, norma sifatida qabul qilinsa, u pretsedent bo'ladi. Shunday qilib, ma'lum bir ish bo'yicha qabul qilingan qaror huquqiy norma sifatida tan olinadi. Huquqiy pretsedent umumiy (anglo-sakson) huquqiy tizimi amalda bo'lgan davlatlar - Angliya, AQSh, Avstraliya, Kanada kabi davlatlarda keng qo'llaniladi, lekin shu davlatlarda huquqiy pretsedent turlicha qo'llanishi mumkin. Masalan, Angliyada huquqiy pretsedent quyidagi qoidalarga bog'liq bo'ladi:

1) Lordlar palatasi qabul qilgan qaror hamma sudlar uchun majburiydir;

2) Apellyatsiya sudining qarori barcha quyi turuvchi sudlar uchun ham va shu sudning o'zi uchun ham (jinoyat huquqidan tashqari) majburiy ahamiyatga ega.

4-§. Normativ-huquqiy aktlar

Normativ huquqiy akt - davlat vakolatli organlari tomonidan o'rnatiladigan yoki ma'qullanadigan huquqiy aktdir. Normativ-huquqiy akt deganda, davlat vakolatli organining ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, umumiy majburiy tusdagi qoidalarni o'rnatuvchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi huquq ijodkorlik akti tushuniladi.

Ma'lumki, davlat organlari huquqiy aktlarni chiqaradilar, lekin barcha huquqiy aktlar ham normativ huquqiy akt bo'la olmaydi. Faqatgina umumiy huquq va majburiyatlarni o'rnatuvchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi aktlarga normativ-huquqiy akt bo'la oladi. Normativ-huquqiy aktlarda yangi huquqiy normalar belgilanadi, amaldagi normalar o'zgartiriladi yoki bekor qilinadi. Demak, normativ-huquqiy aktlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) Umumiy majburiy qoidalarni o'rnatadi, o'zgartiradi va bekor qiladi;
- 2) Normalar bilan belgilangan huquq va burchlar ifoda etiladi;
- 3) Ularda o'rnatilgan normalarning majburiyligi va bajarilgan taqdirda kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar belgilanadi.

Normativ-huquqiy aktlar faqatgina davlat hokimiyati va davlat boshqaruv organlari tomonidan chiqariladi. Normativ-huquqiy aktlar, o'z xususiyatiga va ularni chiqargan davlat organlarini vakolatiga bog'liq bo'lgan yuridik kuchiga qarab tasniflanadi. Normativ-huquqiy akt huquqni qo'llash va huquqni sharhlash aktlaridan farq qiladi. Normativ-huquqiy aktning asosiy shakli qonundir. Qonun –huquqning yozma holda ifodalangan shaklidir. «Qonun - jamiyat huquqiy tizimining eng muhim tarkibiy qismi, huquqni ifoda etishning oliy shaklidir»¹.

Qonun davlat nuqtai nazaridan eng muhim deb hisoblangan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlovchi, rivojlantiruvchi va tartibga soluvchi normativ-huquqiy aktdir yoki boshqacha tarzda ifodalaganda, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, bevosita xalq irodasini ifodalovchi, belgilangan tartibda davlat hokimiyatining oliy vakillik organi tomonidan yoki referendum yo'li bilan qabul qilinadigan va oliy yuridik kuchga ega bo'lgan normativ aktdir.

O'zbekiston Respublikasida normativ-huquqiy aktlarning quyidagi turlari mavjud:

- 1) qonunlar (Konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlar va joriy qonunlar);
- 2) Prezident Farmonlari, qaror va farmoyishlari;
- 3) Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari;
- 4) davlat va xo'jalik boshqaruv organining qaror, buyruq va yo'riqnomalari.

¹ Odilqoriyev H. T. O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni. Tashkent, «O'zbekiston», 1995, 39-bet.

5) mahalliy vakillik va ijroiya organlarining qarorlari.

5-§. Normativ shartnomalar

Normativ shartnoma ham huquqning manbai (shakli) hisoblanadi. U normativ-huquqiy aktga o'xshasa ham, lekin tashkil topish xususiyatlariga qarab, undan farq qiladi.

Normativ shartnomalar ayniqsa xalqaro huquqda katta ahamiyatga ega. Normativ shartnomalarga kiruvchi xalqaro shartnomalar ham muhim ahamiyatga egadir.

Xalqaro shartnoma - ikki yoki undan ortiq davlatlar o'rtasida tuziladigan, ularning huquq va majburiyatlarini o'rnatadigan, o'zgartiradigan yoki bekor qiladigan bitimdir. Shartnomalar - norma o'rnatadigan (masalan, yadroviy qurollarni tarqatmaslik haqidagi shartnoma) yoki ta'sis qiluvchi (masalan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi haqida) bo'lishi mumkin.

Huquqning manbalari haqida yana shuni ta'kidlab o'tish lozimki, huquqning tarixiy rivojlanish davrida shunday hollar ham uchrab turadiki, bunda huquqiy doktrina va g'oyalar ham huquqning manbai hisoblangan. Musulmon huquqida esa, diniy matnlar, aqidalar huquqning manbai bo'lib hisoblanadi. Musulmon huquqining quyidagi asosiy manbalari mavjud: Qur'on, Sunna, ijmo', qiyos.

1) Qur'on (arab. - qiroat, o'quv)da islom aqidalari, e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy normalar o'z ifodasini topgan.

Qur'on 114 sura (tizma)dan iborat bo'lib, undagi axloqiy va huquqiy normalar keyinchalik shariat (to'g'ri yo'l, qonunchilik)ga asos qilib olingan.

Musulmon huquqining ikkinchi manbai Sunnadir.

2) Sunna (arab. - odat, an'ana) - Muhammad payg'ambarning so'zlari, ishlari va xatti-harakatlari. Sunna haqidagi rivoyatlar hadis (rivoyat)larda berilgan va ular to'plam qilingan.

3) Ijmo' (arab. - yakdillik bilan qabul qilingan qaror) Qur'on va hadislarda aniq ko'rsatma berilmagan huquqiy masalani hal etishda faqih (qonunshunos) va mujtahid (intiluvchi)lar to'planib, yagona fikrga kelgan holda fatvo berishi (hukm chiqarishi).

4) Qiyos (arab.- taqqoslash)

Qur'on va Sunnada berilmagan biror huquqiy masala, ulardagi shunga o'xshash masala bo'yicha berilgan ko'rsatmaga taqqoslash yo'li bilan sharh etiladi.

XII bob. HUQUQ NORMASI

1-§. Huquq normasi tushunchasi

Huquq ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etuvchi vosita sifatida doimo, muayyan xulq-atvor, xatti-harakat qoidasi sifatida o'zini namoyon etib, u tegishli hayotiy holatlarda huquq sub'yektlari tomonidan qayta-qayta qo'llanishga mo'ljallangandir.

Huquq o'z ichki tuzilishiga ega. Yaxlit bir tizim sifatidagi huquq tizimi o'z ichiga huquq tarmoqlarini, huquq institutlarini oladi. Huquq tizimining eng kichik, birlamchi tarkibiy unsuri bo'lib, huquq normasi hisoblanadi. Agar huquqni, huquq tizimini bir bino deb qaraydigan bo'lsak, huquq normasi uning bir g'shti sifatida yoki bir jonli organizmning eng kichik bir hujayrasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, unda huquqqa xos bo'lgan muhim belgilar jamlangan bo'ladi. Huquq normasi hokimiyat tepasida turgan siyosiy kuchlarning amr-irodasini ifodalaydi; davlat tomonidan o'rnatilgan yoki sanksiyalangan bo'ladi; barcha huquq sub'yektlari tomonidan bajarilishi majburiy; aks holda davlatning majburlov kuchi bilan ijrosi ta'minlanadi; normativ aktlarda va boshqa huquq manbalarida ifodalanadi.

Ayni paytda, huquq normasiga yaxlit bir tizimning eng kichik bo'lakchasi sifatida o'ziga xos jihatlar ham tegishlidir.

Aslida «norma» so'zi lotincha bo'lib, u o'zbekchada «qoida», «namuna» ma'nolarini anglatadi. Darhaqiqat, har bir norma o'zida biron-bir xatti-harakat, xulq-atvor qoidasini, muayyan yurish-turish modelini ifodalaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasiga binoan, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar, - bu huquqiy norma fuqarolarning amaldagi qonunchilikka nisbatan qanday xatti-harakat qilishi to'g'risidagi qoidalarni o'zida mustahkamlagan.

Shunday qilib, huquq normasi-barcha huquq sub'yektlari uchun majburiy bo'lgan, davlat tomonidan o'rnatilgan va sanksiyalangan xatti-harakat qoidasi, xulq-atvor namunasi bo'lib, unda ijtimoiy munosabat qatnashchilarining huquq va majburiyatlari mustahkamlanadi.

Huquq normasida mustahkamlangan harakat, xulq-atvor

qoidasida jamiyatning, xalq hayotining moddiy sharoitlari bilan belgilanadigan erki, manfaatlari ifodalanadi. Huquq normasi shaxslarning bir-biri bilan bo'ladigan o'zaro munosabatida qanday xatti-harakat modeliga, namunasiga rioya etishlari lozimligini, ya'ni qaysi harakatlarni sodir etish yoki etmaslik mumkin ekanligini ko'rsatadi. Shu ma'noda huquq normasi huquqiy xulq mezoni sifatida o'zini ko'rsatadi. Uning tartibga soluvchi vosita sifatidagi ahamiyati shunda ko'rinadiki, biron-bir huquq sub'yekti (xususan shaxs, organ, muassasa) o'z harakatida huquq normasida mustahkamlangan qoidaga rioya etadi yoki boshqa huquq sub'yektidan huquq normasida belgilangan tegishli xatti-harakatni sodir etishni talab qiladi, shuningdek, belgilangan qoidaning bajarilmaganligi huquqbuzuvchiga nisbatan ta'sir chorasining qo'llanishiga olib keladi.

Huquq sub'yekti huquq normasida belgilangan xatti-harakat namunasiga rioya qilgan holatida, huquq normasi o'zini xatti-harakat o'lchovi, xatti-harakat doirasi va chegarasi sifatida namoyon etsa, unda belgilangan qoida buzilganda esa, u huquq sub'yekting harakatiga baho berish vositasi sifatida o'zini ko'rsatadi.

Ma'lumki, huquqning tartibga soluvchilik roli katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, shu bois huquq normasi ham bo'lishi mumkin bo'lgan huquq buzilishi hollarining **oldini olishga xizmat qiladi, chunki huquq sub'yekti tomonidan belgilangan xatti-harakat qoidasini buzish, muqarrar ravishda unga nisbatan ta'sir choralarning qo'llanishiga olib keladi.** Huquq normasi - ijtimoiy normalarning alohida bir turidir, u boshqa ijtimoiy normalardan bir **qator jihatlari** bilan ajralib turadi. Avvalambor, huquq **normasi umumiy xarakterga egadir.** U ijtimoiy munosabat qatnashchilarining barchasiga, ularning xohish-istagiga bog'liq bo'lmagan holda tegishli bo'ladi, ya'ni u biron bir konkret hoi va hayotiy holatga mo'ljallangan bo'lmay, balki ularning muayyan bir ko'rinishiga, turiga, ya'ni ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir kategoriyasiga, turkumiga tegishlidir (masalan: bitimlar tuzish, pensiyaga chiqish tartibi, nikohdan o'tish va hokazo).

Huquqiy normaning umumiy xarakterga ega ekanligi avvalambor shunda ko'rinadiki, toki huquqiy normada ko'zda tutilgan holatlar yuzaga kelaverar ekan, bu norma ham qo'llanilaveradi, qo'llanilgach esa kuchini yo'qotmaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 125-moddasi - «Transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish» - shu paytgacha sodir etilgan va etilishi mumkin bo'lgan ma'muriy huquqbuzarlik hollarida qo'llaniladi.

Huquqiy normaning yana bir muhim jihati uning davlat erki-irodasini, amrini ifoda etishida ko'rinadi. Shu bois, huquq normasi - muayyan munosabatlar ifodasi yoki muayyan harakatni sodir etishni maslahat beruvchi tavsiyanoma tarzidagi qoida bo'lmay, balki, shu normada ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelganda qanday harakat qilish lozimligini belgilovchi hokimona amr - buyruqdir. Zero, har qanday huquq normasi vakolatli davlat organi tomonidan o'rnatiladi yoki sanksiyalangan bo'ladi, shu bois davlat amri-irodasini ifodalaydi, umummajburiy qoida tariqasida amal qiladi. Huquq normasida belgilangan lozim xatti-harakat qoidasi mabodo bajarilmasa, uning bajarilishini ta'minlovchi davlatning majburlov choralari harakatga kiradi. Masalan: huquq sub'yekti tomonidan qonunga xilof harakatlari sodir etilishi tegishli yuridik javobgarlikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, demak, huquq normasi davlatning salohiyatiga, kuchiga tayanadi. Davlatning amr-irodasi - huquqiy norma huquq sub'yektiga muayyan huquqlarni bergan holda ham saqlanib qoladi, chunki u huquq sub'yektining huquqiy kafili sifatida, ya'ni shu huquqning qo'riqchisi va bajarilishini ta'minlovchi kafil tariqasida o'zini namoyon etadi. Huquq normasi mazmunan va ijtimoiy ahamiyati bois davlat amri irodasini o'zida ifodalaydi. Uning bu jihati, o'z navbatida shakl masalasiga, ya'ni huquqiy normaning ifodalanish shakliga qat'iy talab qo'yadi. Huquqiy norma qonunlarda, normativ aktlarda va boshqa rasmiy huquqiy hujjatlarda shaklan aniq qoidalar tarzida mustahkamlangan bo'ladi, zero, huquq normasini to'g'ri tushunish va o'rinli qo'llash uchun, u albatta puxta ishlangan, aniq va ixcham shakldagi qoida bo'lishi kerak.

Ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar ichida huquq, aynan o'zining shu jihati bilan, ya'ni shaklan aniq qoida ekanligi bilan axloq normalaridan farq qiladi.

Shunday qilib, huquq normasi davlat tomonidan o'rnatilgan yoki sanksiyalangan, bajarilishi hamma uchun majburiy bo'lgan va aniq shakllangan xatti-harakat, yurish-turish qoidasidir.

Huquq normasi - davlat tomonidan o'rnatiladigan va ma'qul-

lanadigan, muayyan shaklda ifodalanadigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy yurish-turish qoidasidir.

2-§. Huquq normasining tuzilishi

Huquq normasi o'z ichki tuzilishiga ega, ya'ni u tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ayni paytda ular o'zaro bir-biri bilan bog'liqdir.

Ta'kidlash lozimki, adabiyotlarda huquqiy normaning tuzilishi masalasida turlicha yondashuvlar mavjud. Lekin, ko'pchilik mualliflar huquqiy norma 3 element (unsur)dan iborat degan fikrni qo'llashadi.

Shunday qilib, huquqiy norma quyidagi 3 unsurdan iborat:

- 1) gipoteza;
- 2) dispozitsiya;
- 3) sanksiya.

Gipoteza - huquq normasining tarkibiy unsuri bo'lib, u ushbu huquqiy normaning qanday sharoitlarda harakatga kirishishi va uning dispozitsiyasi qanday sharoitlarda amalga oshishini belgilovchi hayotiy sharoit va mavjud holatlarni ko'rsatadi, ya'ni huquq normasida belgilangan xatti-harakat qanday sharoitlarda bajarilishi lozimligini ko'rsatadi. Gipotezada huquq normasida belgilangan qoida qay sharoitda va qay holatda hamda kim tomonidan amalga oshirillishi ko'rsatiladi. Gipoteza huquqiy normaning bir qismi bo'lib, unda dispozitsiyada ko'rsatilgan qoidaning kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan konkret aniq hayotiy holatlar (voqea, harakat, holatlar) o'zining ifodasini topadi. Masalan, fuqarolik huquqi normasi fuqarolarning muomala layoqati qaysi holda to'la vujudga kelishini ko'rsatadi (qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 22-moddasi: «Fuqaroning to'liq muomala layoqati u voyaga yetgach, ya'ni 18 yoshga yetgach to'la hajmda vujudga keladi»). yoki O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 13-moddasi fuqaroning ma'muriy javobgarlikka tortilishi qaysi vaqtdan boshlanishini, ya'ni fuqaro 16 yoshga to'lganidan keyin boshlanishini ko'rsatadi.

Dispozitsiya - huquq normasining tarkibiy unsuri bo'lib, unda huquq sub'yektlarining huquq va majburiyatlari belgilanadi va ularning bo'lishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlari variantlari

aniqlanadi. Dispozitsiya huquqiy normaning bir qismi bo'lib, unda gipotezada ko'rsatilgan holatlar mavjud bo'lganda huquq sub'yektlari rioya etishlari lozim bo'lgan xatti-harakat qoidasi ifodalangan bo'ladi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasiga muvofiq, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar - bunda, demak gipotezada ko'rsatilgan holatlar, ya'ni farzandlarning voyaga yetishi va mehnatga layoqatli bo'lishi hollarining mavjudligi dispozitsiyaning amal qilishiga sharoit tug'diradi, ya'ni farzandlarda o'z ota-onalariga g'amxo'rlik qilishi majburiyatini vujudga keltiradi.

Sanksiya - yuridik normaning tarkibiy unsuri bo'lib, u huquqiy norma buzilgan holda huquq buzgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan davlat majburlov chorasining turini belgilaydi. Sanksiya huquq normasining bir qismi bo'lib, unda dispozitsiyada ko'rsatilgan talablarni bajarmaganlik uchun berilishi mumkin bo'lgan jazoning yoki tavsiya etilgan harakatni sodir etganlik uchun rag'batlantirishning turi va o'lchovi ifodalangan bo'ladi.

Shunday qilib, yuridik normaning tarkibiy qismlari quyidagilarni o'rnatadi:

Gipoteza - dispozitsiyada ko'rsatilgan qoidaning kim va qachon bajarishi lozimligini va qaysi sharoitda bajarishi lozimligini ko'rsatadi; dispozitsiya esa - bajarilishi lozim bo'lgan qoidaning nimadan iboratligini ko'rsatadi; sanksiya esa - normani bajarmaslik oqibatlarini ko'rsatadi.

Ta'kidlash lozimki, hamma norma ham 3 unsurli tuzilishga ega emas. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 95-moddasida faqat gipoteza va dispozitsiya ko'rsatilgan va bu hol deyarli barcha konstitutsiyaviy normalarga xosdir:

«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tarkibida uning normal faoliyatini tahdidga soladigan ixtiloflar yuz berganda yoxud u bir necha marta Konstitutsiyaga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda, Prezidentning Konstitutsiyaviy sud bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida (gipoteza) Oliy Majlis tarqatib yuborilishi mumkin. Oliy Majlis tarqatilgandan so'ng unga yangi saylov 3 oy mobaynida o'tkaziladi» (dispozitsiya). Yoki boshqa bir misol: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 88-moddasi: «Oliy Majlis deputati

daxlsizlik huquqidan foydalanadi (gipoteza). U Oliy Majlisning roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, hibsga olinishi yoki sud tomonidan beriladigan ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas (dispozitsiya)». Yuqoridagilarga asoslangan holda aytish mumkinki, deyarli barcha konstitutsiyaviy normalar asosan gipoteza va dispozitsiyadan iborat.

Jinoiy va ma'muriy javobgarlikni ko'zda tutuvchi normalar esa - asosan dispozitsiya va sanksiyadan iborat bo'ladi. (Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarning maxsus qismi normalariga qarang).

Shunday qilib, huquq normasining tarkibi - uning o'zaro mantiqiy bog'liqligi - ichki tuzilishi, «qurilishi»dir.

3-§. Huquq normasining turlari va ularning tasnifi

Huquq normalarining ilmiy va o'quv adabiyotida turlicha tasniflari va guruhlanishlari mavjud. Huquq normalarini, ularda mustahkamlangan qoidalar xarakteriga qarab quyidagicha tasniflash mavjud:

1. Huquq va vakolat beruvchi normalar - ya'ni huquq sub'yektiga qanday harakatlarni sodir etish mumkinligini ko'rsatuvchi normalar. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasiga binoan, «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi».

2. Majburiyat yuklovchi normalar - ya'ni qanday harakatlarni sodir etish lozimligini ko'rsatuvchi normalar. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasiga binoan, «fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar».

3. Man qiluvchi normalar - ya'ni huquq sub'yektiga muayyan xatti-harakatlarni sodir etishini man qilib qo'yuvchi normalar. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57- moddasida «maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi» deb ko'rsatilgan va bu qoida man etish xarakteridadir.

Bulardan tashqari, huquq normalarini boshqa qator mezonlar asosida tasniflashlar ham mavjud. Bunda eng avvalo huquq

normalari huquq tarmoqlari bo'yicha bo'linadi va bunday guruhlash huquq normalarini bir tizimga keltirish va zarur hollarda kodifikatsiya qilish uchun muhimdir.

Huquq normalarini moddiy va protsessual huquq normalariga bo'lish ham keng tarqalgan, bunda huquq sub'yektlarining huquq va majburiyatlari mazmunini aniqlab beruvchi normalarni moddiy huquq normalari guruhiga qo'shamiz, huquqlarni amalga oshirish va majburiyatlarni bajarish, ijro etishning tartibini belgilovchi normalarni esa protsessual normalar deymiz.

Huquq normalarida xatti-harakatni shakllantirishning mavhumligiga qarab, ular abstrakt (mavhum) va kazuistik normalarga ajratiladi. Konkret bir munosabat turini yaxlit holda tartibga soladigan normalarni abstrakt normalar deymiz. Bir munosabat turining konkret bir qismini tartibga soladigan normalar esa kazuistik normalar deb ataladi.

Gipotezada mustahkamlangan holatning faktik jihatlari aniq yoki nisbiy aniqligiga qarab, huquq normalarini aniq va nisbiy aniq huquq normalariga bo'lamiz.

Gipotezaning hajmiga qarab, huquq normalarini oddiy (aniq bir holat ko'rsatilgan), murakkab (ikki yoki undan ortiq holat ko'rsatilgan) hamda alternativga (ikki holatdan birining mavjudligiga bog'liq holda normani qo'llash mumkin bo'ladi) bo'lish mumkin.

Dispozitsiyaning aniqligiga qarab, huquq normalarini: mutlaq aniq, nisbatan aniq va blanket normalarga bo'lish mumkin.

Mutlaq aniq huquqiy normalarda huquq va majburiyatlar aniq belgilangan bo'ladi.

Nisbatan aniq huquqiy normalar esa har bir konkret holatlarda huquq va majburiyatlarni yanada ko'proq aniqlash imkonini beradi.

Blanket normalarda esa - qaysi qoidalarni bajarish zarurligi (davlat standartlari qoidalari, texnika xavfsizligi qoidalari) umumiy tarzda ko'rsatiladi.

Huquq qo'riqlovchi normalar sanksiyalarning aniqligiga qarab, mutlaq aniq, nisbatan aniq huquqiy normalarga bo'linadi. Mutlaq aniq sanksiyali huquqiy normalarda aniq bitta davlatning majburlov chorasi ko'rsatiladi, masalan, yetkazilgan zararni qoplash kabi.

Nisbatan aniq sanksiyali huquq normalari esa, turli xil jazo turlaridan birini yoki huquqiy ta'sir chorasi turlaridan birini qo'llashni

nazarda tutadi. Bunday sanksiyalar alternativ sanksiyalar ham deb yuritiladi, Jinoyat kodeksining aksariyat sanksiyalari alternativ sanksiyalardir.

Kumulyativ sanksiyali huquq normalari o'zida asosiy jazodan tashqari qo'shimcha jazo berilishini ham nazarda tutadi, masalan, muayyan jinoyatni sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum qilish kabi asosiy jazodan boshqa mol-mulkni musodara qilishni ham o'zida mustahkamlaydi.

Huquq normalarini yana asosiy (dastlabki) va hosila normalarga bo'lish ham ancha keng tarqalgan, birinchisida umumiy xarakterga ega bo'lgan qoidalar mustahkamlansa (masalan qonun normalari), ikkinchisida esa, umumiy qoidalarni rivojlantiruvchi, aniqlashtiruvchi normalar mustahkamlanadi (masalan, normativ aktlar normalari qonun normalarini aniqlashtiradi, konkretlashtiradi).

Huquq normalari yana harakati hududiga qarab, umumiy harakat qiluvchi, mahalliy miqyosda harakat qiluvchi normalarga bo'linadi, bunda birinchisi butun mamlakat hududida amal qilsa, ikkinchisiga kiradigan normalar ma'lum hududlarda amal qilishi mumkin, masalan, ekologik inqiroz hududlarida, juda baland tog'lar sharoitida, cho'l zonasida, radiaktiv xavf mavjud zonalarda va hokazo.

Huquq normalari sub'yektlariga qarab, umumiy va maxsus normalarga bo'linadi, bunda birinchisi hamma huquq sub'yektlari uchun taalluqli bo'lsa, ikkinchisi esa, aholining muayyan guruhi uchun yoki aniq belgilangan doiradagi sub'yektlarga, jumladan: pensionerlarga, nogironlarga, ichki ishlar xodimlariga va boshqalarga taalluqli bo'ladi.

Huquqiy tartibga solish uslubiga qarab, huquq normalarini yana imperativ, dispozitiv normalar guruhlariga bo'lishadi. Imperativ normalar qat'iy amr xarakteriga ega bo'lib, xatti-harakat sub'yektiga belgilangan harakat modelidan chetga chiqishni man etadi, masalan, ko'pgina ma'muriy-huquqiy normalar shunday mazmundadir.

Dispozitiv normalar, imperativ normalardan farqli o'laroq, munosabat qatnashchilariga o'z xatti-harakatlari variantlarini, sub'yektiv huquq va majburiyatlar hajmi to'g'risida kelishib olish imkonini o'zida ifodalaydi. Dispozitiv normalar ko'proq fuqarolik-huquqiy munosabatlarda uchraydi.

Kollizion normalarda - biron-bir holat bir emas, balki bir necha huquqiy normalar ta'siriga tushib qolishi mumkin va bu holda o'sha normalar o'rtasida nizo - «to'qnashuv» sodir bo'ladi, bu holatni hal etish uchun kollizion normalar qabul qilinadi. Shu bois kollizion normalar «hakamnorma» deb yuritiladi va unda o'sha holatni tartibga solishda qaysi huquqiy norma qo'llanilishi ko'rsatiladi.

1-§. Huquqiy munosabatlar tushunchasi va turlari

Huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etishi muammosi davlat va huquq nazariyasi uchun muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy munosabatlarning huquq normalari yordamida tartibga solinadigan qismi huquqiy munosabatlarni tashkil qiladi. Huquq normalari o'z vazifa va funksiyalarini huquqiy munosabatlar orqali amalga oshiradi; ijtimoiy munosabatlar shakliga aylantirish, ya'ni ularni tartibga solish bilan huquq hayotga tatbiq etiladi.

Huquqiy munosabat - o'zaro sub'yektiv huquq va majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan shaxslar (ya'ni, huquq sohiblari) o'rtasidagi huquq normalari va muayyan yuridik faktlar asosidagi aloqadir.

Huquqiy munosabat ta'rifidagi asosiy narsa, avvalo, bu tomonlar o'rtasidagi aloqadorlikni aks ettirishdir. Bunday munosabatlarda kamida ikki tomon - huquq sohiblari ishtirok etib, o'zaro muloqotga kirishadilar.

Sohiblar bir-biri oldida tegishli sub'yektiv huquq va majburiyatlarni o'taydilar. Huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari bir-biri bilan o'zaro mutanosib tarzda bog'liq; bir tomonning huquqiga ikkinchi tomonning majburiyati muvofiq keladi. Masalan, ishga kirish bilan bog'liq huquqiy munosabatni olaylik. Bunda, ishga qabul qilingan xodimda muayyan mehnat faoliyatini amalga oshirish majburiyati, korxonada ma'muriyatida esa tegishli ish haqi to'lash majburiyati paydo bo'ladi. Ayni paytda, ikkala sohib ham qonunda belgilangan qator huquqlardan foydalanadilar.

Yuridik adabiyotda huquqiy munosabatlarning tabiati masalasi ancha munozarali. Bir guruh olimlar huquqiy munosabatlarni ijtimoiy munosabatlarning alohida bir turi, deb hisoblaydilar (L.S.Yavich,¹ V.K.Babaev,² Yu.I.Grevtsev³ va boshqalar) Boshqa mutaxassislarining ta'kidlashicha: «Huquqiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning alohida turi emas, ya'ni ular mulkiy, mehnat, oilaviy, boshqaruv munosabatlari silsilasida mustaqil o'rin tutmaydi: huquqiy munosabatlar faqat ularning yuridik shakli, ifodasi sifatida namoyon

¹ Явич Л.С. Право и общественные отношения. - М., 1987.

² Общая теория права. Подред. В.К.Бабаяева -Н.Новгород, 1993, 405 - 407 бет.

³ Гревцев Ю.И.Правовые отношения и осуществление права. - Л., 1987, 29-42 бетлар.

bo'ladi... Ijtimoiy munosabatlar huquqiy shaklga ega bo'lishi mumkin, bunda ular huquqiy munosabatlar, deb ataladi»⁴. To'g'ri, ijtimoiy munosabatlarning hammasi ham huquqiy normalar vositasida tartibga solinmaydi. Odatda, davlat va jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan eng muhim ijtimoiy munosabatlar huquq bilan tartibga solinadi. Ijtimoiy munosabatlarning qolgan qismi axloq normalari, siyosiy normalar, jamoat birlashmalari normalari, odat qoidalari, diniy normalar va hokazolar bilan tartibga solinadi.

Huquqiy munosabatlar quyidagi xususiyat va maxsus belgilar bilan tavsiflanadi:

a) **Huquqiy munosabat - ijtimoiy tUSDagi munosabat**, ya'ni insonlar o'rtasidagi munosabat bo'lib, bu ularning faoliyati, xulq-atvori bilan bevosita bog'liqdir. Aytaylik, mulkdor buyumga nisbatan muayyan huquqlarga ega. Biroq, bu huquqlar real hayotiy mazmunga ega bo ekanligini lishi uchun mulkdor mazkur buyum ustidan boshqa odamlar bilan munosabatga kirishishi lozim. Xususan, mulkdor shaxs buyumni o'zga kishiga sotishi, o'zining mulkdan foydalanish huquqini birovga o'tkazishi, hadya qilishi mumkin. Ayni paytda, ulardan o'zining mulk huquqiga rioya etishlarini talab qila oladi.

Huquqiy munosabat har qanday ijtimoiy munosabat kabi insonlar ongli faoliyatining natijasidir. Kishilar o'rtasidagi huquqiy aloqalar ongli va ularning oqilona faoliyati natijasi hisoblanadi. Huquqiy munosabat ijtimoiy munosabatning maxsus ko'rinishi sifatida rang-barang ijtimoiy hayotning butun borlig'i va boyligi bilan uzviy bog'liq hamda mazmunan u bilan belgilanadi. Zero, har qanday ustqurma voqeligi kabi huquqiy munosabatlar ham moddiy (iqtisodiy) munosabatlarga, bazisga asoslanadi. Bu ustuvor metodologik fikrga yana shuni qo'shimcha qilish mumkin:

huquqiy munosabatlar, nafaqat, iqtisodiy munosabatlarga, balki hayotda huquqning mavjud bo'lishini taqozo etadigan barcha holatlarga ham tayanadi.

Huquqiy munosabatlarni tavsiflaganda hamisha e'tibor beriladigan muhim sifatlardan biri ularning mafkuraviy tabiatidir. Mafkuraviylikni sobiq totalitar tuzumdagi sinfiylik bilan aralashtirib yubormaslik lozim. To'g'ri, mafkura sinfiy intilish va manfaatlarni aks

⁴ Лазарев В.В., Липень С.В. Теория государства и права. -М., 1998. 290-291 бетлар.

ettirishi mumkin. Biroq, bu hoi ular aynan bitta hodisa, degan xulosani bermaydi. O'z mohiyatiga ko'ra, mafkura ijtimoiy-siyosiy hayotga oid turli qarashlar, nazariyalar tizimidir. Masalan, erkin bozor va tadbirkorlik munosabatlariga o'tish - mafkuradir; davlat va jamiyatning dinga munosabati ham mafkura; aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish ham mafkura va hokazo. Shuningdek, huquq va unga mutanosib huquqiy munosabatlar hamisha mafkuraviy hodisalar bo'lib qoladi. Bu yerda, eng muhimi, huquqning tor sinfiy manfaatlarga emas, aksincha, umuminsoniy qadriyatlar va manfaatlarni ifodalashga yo'naltirilganligidir. Mafkuraviylikning yana bir xususiyati shundaki, huquqiy munosabatlar avvalambor kishilar ongi orqali (huquqiy ong sifatida mavjud) bo'lib, so'ng real voqelikka aylanadi⁵.

b) **Huquqiy munosabat - huquq normalarining insonlar xulq-atvoriga ta'siri natijasida vujudga keladigan munosabat.** Huquq normasi bilan huquqiy munosabat o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Hayotda faqat yuridik normalarda nazarda tutilgan huquqiy munosabatlarga mavjud bo'ladi. Kishilar o'rtasidagi muayyan munosabatlarga huquqiy norma qo'llanilgach, ular huquqiy munosabatlarga aylanadi. «Ijtimoiy munosabatlarning huquqiy tartibga solinishini ixtiyoriy hodisa emas, balki qonuniy jarayon deb tushunish lozim. Buning sharti shuki, huquqiy normalar tartibga solinuvchi ijtimoiy munosabatlardan, huquqiy voqelikdan bevosita kelib chiqishi kerak, chunki huquqiy normalar munosabatlarni tug'diruvchi sabab bo'lishdan avval ushbu munosabatlar ichki rivojlani-shning **oqibati**, ularning zaruriy, mohiyatiga oid maxsus belgisi bo'lganligidir⁶.

v) **Huquqiy munosabat** - kishilarning o'zaro sub'yektiv huquqlar va yuridik majburiyatlar vositasidagi aloqalaridir. Bu aloqaning alohida shakli. Ya'ni, huquq normalari bilan mustahkamlangan huquq va majburiyatlar orqali amalga oshadigan aloqadir. Sub'yektiv huquq sohibi - **huquqdor**, vakolatti shaxs; yuridik majburiyatlar egasi - majburiyat o'tovchi shaxsdir. Har qanday huquqiy munosabatda **huquqdor** shaxs qarshisida majburiyat o'tovchi shaxs (inson, tashkilot, davlat idorasi) hozir bo'ladi. Xuddi shu ma'noda huquqiy munosabat individuallashtirilgan (ya'ni, shaxsi

⁵ Qat'iy: *Общая теория права и государства. Подред. В.В.Лазарева. -М., 1996. 181-бет.*

aniqlangan) aloqa hisoblanadi. Shaxsini belgilash **nomma-nom va ijtimoiy vazifani bajarishdagi roliga** qarab ikki ko'rinishda bo'ladi.

Shaxsini nomma-nom belgilashda huquq sohiblari o'z ismi-shariflari, tashkilotlar esa o'zlarining to'liq unsurlari bilan nomlanadilar. Masalan, nikoh munosabatlariga kirishuvchi shaxslarning aniq ism-shariflari ifoda etiladi. Yoki mahsulot yetkazib berish, yuk tashib berish munosabatlariga kirishgan tashkilotlarning barcha unsurlari, to'liq nomlanishi va boshqa muhim belgilari aniq ko'rsatiladi.

Ikkinchi holatda sub'yektlarni nomma-nom yoki unsurlar (rekvizitlar)ga qarab belgilash talab etilmaydi. Faqat ularning **ijtimoiy roii, vazifasi ta'kidlanadi**. Masalan, oldi-sotdi munosabatlarida bir tomon-sotuvchi, ikkinchi tomon-xaridor. Yoki ma'muriy huquq buzilishi munosabatlarida bir tomonda-militsiya xodimi, ikkinchi tomonda-fuqaro va hokazo.

g) **Huquqiy munosabat - irodaviy munosabatdir**. Ma'lumki, huquqiy normalarda muayyan davlat irodasi ifoda etiladi. Shu bilan birga huquqiy munosabat vujudga kelishi uchun uni ishtirokchilarining ham irodasi talab qilinadi. Shunday huquqiy munosabatlar borki, ularning vujudga kelishi uchun barcha ishtirokchilar irodasi bayon etilishi lozim. Aytaylik, nikohga kirayotgan har ikki tomon o'z irodasini bildirishi yoki oldi-sotdi munosabati sotuvchi bilan xaridor xohish-irodasi tufayligina amalga oshishi mumkin. Ba'zi huquqiy munosabatlarda bir tomon iroda bayon etsa, yetarli hisoblanadi. Bunday huquqiy munosabatlar, xususan, ma'muriy ishlar yoki huquqni muhofaza etuvchi idoralar amri bilan qo'zg'atiladigan jinoyat ishlari bo'lishi mumkin.

d) **Huquqiy munosabat - davlat tomonidan qo'riqlanadigan munosabatdir**. Yuridik normalarda davlat irodasi va manfaatlari aks ettirilganligi bois davlat ularning talablari to'la-to'kis bajarilishini nazorat qilib—boradi. Huquqiy qoidalar ixtiyoriy bajarilmagan taqdirda davlatning majburlash tizimi ishga tushiriladi. Davlat huquqni qo'riqlash orqali, ayni vaqtda, huquq bilan tartibga solinadigan munosabatlarni ham qo'riqlaydi. Huquqiy munosabatlar davlat tomonidan maxsus tarzda qo'riqlanganligi bilan ijtimoiy munosabatlarning boshqa turlaridan farq qiladi. Davlat tomonidan

qo'riqlanadigan huquqiy munosabatlar tizimi jamiyatdagi huquqiy tartibotning asosini tashkil etadi.

Shunday qilib, huquqiy munosabat - xuquqiy normalarning kishilar xatti-harakati, hulq-atvoriga ta'sir etishi oqibatida vujudga keladigan, davlat tomonidan qo'riqlanadigan hamda uning ishtirokchilarida sub'yektiv huquq va yuridik majburiyatlar mavjudligi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy munosabatlardir.

Jamiyat hayotida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar nihoyat darajada turli-tumandir. Ularni bir qancha mezonlar asosida tasniflash mumkin. Huquqiy munosabatlarni quyidagi mezonlar asosida guruhlash, turlarga ajratish, ya'ni tasniflash maqsadga muvofiq:

1) Huquq sohasiga tatbikan, ya'ni huquq normalarining muayyan huquq sohasiga tegishliligiga qarab huquqiy munosabatlar quyidagi turlarga bo'linadi: davlat-huquqiy (konstitutsiyaviy) munosabatlar; fuqaroviy-huquqiy munosabatlar; jinoiy-huquqiy munosabatlar; mehnat-huquqiy munosabatlar; moliyaviy-huquqiy munosabatlar va hokazo. Shuningdek, mazkur tasniflash doirasida moddiy va protsessual huquqiy munosabatlar; xususiy-huquqiy hamda ommaviy-huquqiy munosabatlar haqida gapirish lozim.

2) Huquqiy munosabatlar o'zining vazifasi, funksional belgilanishiga ko'ra tartibga soluvchi (regulyativ) va qo'riqlovchi (negativ) turlarga ajratiladi. Bu yerda tasniflash mezoni - huquqning dinamik va statik funksiyalari, ya'ni tartibga soluvchi funksiyasidir. Tartibga soluvchi huquqiy munosabatlar huquq sub'yektlarining mo'tadil xulq-atvorlari, ya'ni huquqqa muvofiq xatti-harakatlari natijasida yuzaga keladigan munosabatlardir. Qo'riqlovchi huquqiy munosabatlar - huquqni buzish sodir etish va buning uchun jazo tarzida davlat majburlov chorasini qo'llash zaruriyati asosida kelib chiqadigan munosabatlardir.

3) Huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari tengligi yoki hokimlik-bo'ysunish (iyerarxik) tarzidaligiga qarab bu munosabatlar farqlanadi. Tomonlar mavqeining, huquq va majburiyatlarining tengligiga asoslangan huquqiy munosabatlar, masalan, fuqaroviy-huquqiy, oilaviy-huquqiy munosabatlar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Hokimlik va itoat etish (ya'ni, avtoritar) mazmuni-dagi huquqiy munosabatlar, jumladan, jinoiy-huquqiy, ma'muriy-

huquqiy munosabatlar shaklida bo'ladir. Bunda bir taraf ko'proq huquqqa, hokimiyat vakillik vakolatlariga ega. Ikkinchi taraf esa itoat holatida bo'lib, nisbatan ko'proq majburiyat o'taydi.

4) Adabiyotlarda kompleks (majmuyiy) huquqiy munosabatlar haqida ham gapiriladi. Bunday munosabatlar uzoq davom etuvchi, nisbatan turg'un, murakkab tarkibli bo'lib, ulardagi o'zaro huquq va majburiyatlar ko'p qirraliligi bilan namoyon bo'ladir. Ushbu turdagi munosabatlarga er-xotin o'rtasidagi munosabatlar yoki korxonalar ma'muriyati bilan xodim o'rtasidagi munosabatlar va hokazo misol bo'la oladi. Kompleks huquqiy munosabatlar o'z tatbiqi jarayonida bir necha oddiy huquqiy munosabatlarga bo'linadi. Majmuyiy huquqiy munosabatlar ularning tarkibiga kiruvchi oddiy huquqiy munosabatlardan o'zining vujudga keitiruvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi asoslariga ko'ra farq qiladi.

5) Huquqiy munosabatlar **umumiy va konkret; mutlaq va nisbiy** turlarga ham bo'linadi.

Umumiy huquqiy munosabatlar deganda, avvalo, fuqarolarning asosiy huquq, erkinlik va majburiyatlarini mustahkamlovchi konstitutsiyaviy normalar asosida vujudga keluvchi munosabatlar tushuniladi. Fuqarolar qonunda nazarda tutilgan vakolatlariga ega bo'lgach, u yoki boshqa barcha huquq sub'yektlari bilan huquqiy aloqadorlikda hisoblanadilar. Basharti, mazkur huquq va erkinliklar amalga oshirilsa, **konkret** huquqiy munosabat vujudga keladi. Aniq (konkret) huquqiy munosabatlar jinoyat, fuqarolik, mehnat, oila, soliq, uy-joy va boshqa kodekslar maxsus qismidagi moddalar qo'llanishi asosida kelib chiqishi mumkin. Bunda qonunda mustahkamlangan konkret huquqning ta'minlanishi uchun muayyan sub'yekt tegishli yuridik majburiyatni ado etadi.

Mutlaq huquqiy munosabatlarda bir taraf aniq ma'lum bo'ladir - bu sub'yektiv huquq sohibidir. Qolgan barcha sub'yektlar majburiyat o'tovchi maqomida bo'ladilar, ya'ni vakolatli shaxs tomonidan, o'z sub'yektiv huquqlarining amalga oshirishiga monelik qilmasliklari lozim. Bunday huquqiy munosabatga mulkchilik munosabatlari misol bo'ladir.

Nisbiy huquqiy munosabatlarda barcha ishtirokchilar (tarafalar) aniq belgilangan bo'ladir, ya'ni huquq egasi ham, majburiyat o'tuvchi tomon ham ma'lum bo'ladir. Masalan, sotuvchi va xaridor, buyurtmachi va pudratchi, ma'muriyat rahbari va xodim.

2-§. Huquqiy munosabatlarning sub'yektlari

Huquqiy munosabatlarning mazmunini tashkil etuvchi, ularning vujudga kelishi uchun zarur bo'lgan tarkibiy qismlar mazkur munosabatlarning unsurlari deb ataladi. Bular huquqiy munosabatlarning sub'yekti, ob'yekti, sub'yektiv huquq va yuridik majburiyatlardir. Huquqiy munosabat, avvalambor, insonlar (insonlar jamoasi) o'rtasidagi aloqa, bog'lanish, munosabatdir. Shu nuqtai nazardan huquqiy munosabat o'z ishtirokchilariga, taraflariga ega. Har qanday munosabat ikki yoki undan ortiq shaxslar o'rtasidagi bog'lanish, muloqot sifatida talqin etiladi. Binobarin, muayyan sub'yektlarning mavjud bo'lishi huquqiy munosabatlar amalga oshirishining muqarrar sharti hisoblanadi.

Huquqiy munosabatlar sub'yektlari - huquqiy normalar tufayli muayyan munosabatlar ishtirokchisi hamda sub'yektiv huquq va yuridik majburiyatlar egasi bo'lgan insonlar yoki tashkilotlardir.

Ta'rifdan ma'lum bo'lishicha, huquqiy munosabat sub'yektlari ikki toifaga bo'linadi: insonlar yoki jismoniy shaxslar va tashkilotlar (jamoaviy sub'yektlar). Jismoniy shaxslarga tegishli davlatning fuqarolari, shu mamlakat hududida turgan xorijiy davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar kiradi. Huquqning jamoaviy sub'yektlariga turli-tuman davlat va nodavlat idoralar hamda tashkilotlar, shuningdek, davlatning o'zi ham kiradi. Jamoaviy sub'yektlar sifatida ba'zan ijtimoiy birliklar ham tushuniladi: masalan, referendum yoki saylovlar o'tkazilgan chog'da - xalq ana shunday sub'yekt hisoblanadi. Fuqaroviy huquqiy munosabatlarda jamoaviy sub'yektlar yuridik shaxslar sifatida maydonga chiqadilar.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida jismoniy va yuridik shaxslar ta'rifi berilgan. Fuqarolar (jismoniy shaxslar) deganda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi. Qonun barcha fuqarolarning huquq va burchlarga ega bo'lish qobiliyatini (huquqiy layoqatini) teng ravishda e'tirof etadi. Kodeksning 39-moddasida yuridik shaxs tushunchasi bayon etilgan. Unga muvofiq, o'z mulkiga, xo'jalik yuritishida yoki kundalik boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan

ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Yuridik shaxsning huquqiy layoqati va muomala layoqati bir vaqtda, ya'ni u tuzilgan paytdan boshlab vujudga keladi va uni tugatish yakunlangan paytdan e'tiboran tugatiladi. Yuridik shaxsning maxsus huquq layoqati uning ustavi, nizomi yoki qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Yuridik shaxslar mulkdor yoki u vakil qilgan shaxs tomonidan yoxud vakolatli organning farmoyishi asosida, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tashkil etiladi. Yuridik shaxslar - davlat, davlat idoralari, jamoat va shirkat tashkilotlari, xo'jalik birlashmalaridir. yuridik shaxsni tugatish asoslari va tartibi Fuqarolik kodeksining 53-55-moddalarida mustahkamlangan.

Davlat idoralari va nodavlat tashkilotlar quyidagi hollarda huquqiy munosabatlarning sohibi bo'ladilar:

a) o'zlarining hokimiyat yoki qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirish orqali;

b) jamiyat va davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida (faoliyatida) ishtirok etish orqali;

v) xo'jalik va mulkiy munosabat bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish orqali.

Davlatning o'zi to'lig'icha huquq sohibi bo'lish holatlari ham mavjud. Masalan, **xalqaro-huquqiy munosabatlarda**-ya'ni, xorijiy davlatlar bilan muloqotga kirishganda; **daviat - huquqiy munosabatlarda**, - ya'ni, federatsiya bilan uning sub'yektlari o'rtasida aloqalar amalga oshganda yoki davlat fuqaroligiga qabul qilishda yoxud davlat o'z fuqarosiga faxriy unvonlar berganda va hokazo; **fuqaroviy-huquqiy munosabatlarda**, - ya'ni, davlat mulki bilan bog'liq munosabatlarda, ijtimoiy xarakterdagi tarixiy, milliy, ilmiy, madaniy va moddiy boyliklarga davlat merosxo'r (voris) bo'lgan hollarda; **jinoiy-huquqiy munosabatlarda**, - ya'ni, jinoiy ish bo'yicha hukm yoki fuqarolik ishi bo'yicha hal qiluv qarori davlat nomidan e'lon qilinadi.

Davlat ishtirok etadigan mulkiy munosabatlar davlat mulki, tashqi savdo, kredit, boj va qarz masalalarida vujudga keladi. Muayyan hollarda davlat yagona huquq sub'yekti sifatida maydonga

chiqadi. Masalan, Konstitutsiya va amaldagi qonunlarga muvofiq, O'zbekistonda yer, yer osti boyliklariga, suv va o'rmonga, temir yo'lga, havo va suv transportiga, aloqa vositalariga egalik qilish huquqi faqat davlatga tegishlidir. O'zbekiston Respublikasi - xalqaro huquqiy munosabatlar sub'yekti, ya'ni ma'lum huquq va majburiyatlar egasidir.

Huquqiy munosabatning sub'yekti bo'lish uchun tashkilot yoki jismoniy shaxs huquqdorlik maqomiga ega bo'lishi lozim. Faqat huquqdor, ya'ni huquqiy layoqat va muomala layoqatiga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar huquqiy munosabat ishtirokchisi deb tan olinadi. **Huquqdorlik** - huquq sohibi bo'lish, huquqiy aloqalar ishtirokchisi bo'lish qobiliyatidir.

Huquqiy layoqat - shaxsning huquq normalariga muvofiq sub'yektiv huquq va yuridik majburiyatlarga ega bo'la olish qobiliyatidir. Boshqacha aytganda, huquqiy layoqat jismoniy va yuridik shaxslarning sub'yektiv huquq va sub'yektiv majburiyatlarga ega bo'lish imkoniyati, qonunda ko'zda tutilgan turli aniq munosabatlarga kirishish qobiliyatidir. Insonlarda huquqiy layoqat ular tug'ilgan paytda paydo bo'lib, to vafot etgunicha mavjud bo'ladi. Huquq normalari huquqiy munosabat sub'yektlarining ular huquqiy layoqatiga mos tarzdagi harakatlanish mezonini va chegarasini belgilaydi.

Huquqiy muomala layoqati jismoniy va yuridik shaxsning o'ziga tegishli huquqini o'zi bevosita amalga oshirish qobiliyatini anglatadi. Muomala layoqati qonunda belgilangan shaxslar tomonidan o'z harakatlari bilan sub'yektiv huquq va yuridik majburiyatlarga ega bo'lish qobiliyatidir. Muomala layoqatining mazmuni, ko'lami va ro'yobga chiqarilish shartlari huquq normalari bilan belgilanadi.

Demokratik jamiyatda huquq layoqati va muomala layoqati uni chindan ham amalga oshirish imkoniyatlari bilan ta'minlanadi. Umumiy qoidaga ko'ra, barcha fuqarolar huquq layoqatiga ega hisoblanadilar. Biroq, har bir fuqaro ham muomala layoqatiga ega bo'lavermaydi. Xususan, O'zbekistonda muomala layoqati balog'at chog'i, voyaga yetish kunidan boshlab yuzaga chiqadi. Ayrim huquq tarmoq (soha)larida huquq layoqati va muomala layoqati bir vaqtda paydo bo'ladi. Masalan, davlat huquqi sohasida asosiy huquq va majburiyatlarga ega bo'lish o'n sakkiz yoshdan boshlanadi.

Mehnat-huquqiy munosabatlarda huquq va muomala layoqati 16 yoshdan, nikoh-oila huquqiy munosabatlarida 18 yoshdan (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga ko'ra ayollar 17 yoshdan) qatnasha oladilar. Jinoiy-huquqiy munosabatlarda jinoiy javobgarlikka tortilish 16 yoshdan, ayrim jinoyatlarda huquq va muomala layoqati hatto 13 yoshdan paydo bo'ladi.

Fuqarolik qonunchiligi me'yorlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarda huquq layoqati va muomala layoqati har doim ham birga (bir vaqtda) vujudga kelmaydi. Fuqarolarning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va uni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik majburiyatlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lgach to'la hajmda vujudga keladi. Ayni vaqtda, ta'kidlash lozimki, voyaga yetgunga qadar qonuniy asosda nikohdan o'tgan fuqaro nikohdan o'tgan vaqtdan e'tiboran to'la muomala layoqatiga ega bo'ladi (Fuqarolik kodeksining 22-moddasi). Shuningdek, ushbu qonunda o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha va o'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlarning muomala layoqati ko'lami belgilangan (27 va 29-moddalar).

Huquqiy munosabat sub'yekti o'z xatti-harakati, nojo'ya xulq-atvori va huquqbuzarligi oqibati uchun, shuningdek yetkazilgan zarar uchun javobgarlik o'tay olish qobiliyatiga ham ega bo'lishi lozim. Gap delikt layoqati haqida bormoqda. «Delikt» lotincha deliktum iborasidan olingan bo'lib, sodir etilgan huquq buzilishi, j'noyat uchun javob bera olish layoqatini anglatadi⁷. Mazkur layoqat sohibi hisoblanayotgan shaxs aqli raso, ruhiy jihatdan sog'lom bo'lishi va o'z xatti-harakatlari oqibati uchun to'la javobgarlikni ado etishga layoqatli, qodir bo'lishi lozim.

Huquqdorlik tushunchasi tarkibida huquqiy layoqat muhim belgilovchi o'rinni egallaydi. Muomala layoqati bilan delikt layoqati esa undan kelib chiqadi. Zero, shaxs huquq layoqatiga ega bo'lmasa, huquqni amalga oshirishga oid harakat yoki u bilan bog'liq javobgarlik haqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

⁷ Qarang: Краткий словарь иностранных слов. -М., 1952, 111-бет.

3-§. Sub'yektiv huquq va yuridik majburiyatlar

Huquqiy munosabat uning ishtirokchilarida o'zaro sub'yektiv huquq va majburiyatlar mavjud bo'lishi bilan tavsiflanadi. Sub'yektiv huquq va yuridik majburiyatlar huquqiy munosabatlarning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Zero, ularni o'zaro bog'liqlikda tahlil etish orqali huquqiy munosabatning tabiati, maqsadi va yo'nalishi xususida tasavvur hosil qilish mumkin.

Sub'yektiv huquq - huquqdor (vakolatli) shaxsning huquq normalari doirasida hamda konkret yuridik faktlar asosida vujudga keluvchi xatti-harakati, fe'l-atvorining me'yori. Shuningdek, sub'yektiv huquq - huquqiy munosabat ishtirokchilarining tegishli huquq normalasiga asosan unda ko'zda tutilgan harakatni sodir qilishga haqli ekanini yoki ulardan ma'lum harakatlarni amalga oshirilishini talab qilish vakolatiga ega ekanliklarini bildiradi.

Sub'yektiv huquqning mazmunini aks ettiruvchi jihat *huquqiy vakolat* hisoblanib, u uch xil bo'ladi:

a) **o'z xatti-harakatlarini amalga oshirish yuzasidan bo'lgan huquqiy vakolatlar.** Bunga misol: mulkdor o'ziga tegishli bo'lgan mulkka nisbatan egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlariga ega ekanligidir (bular mulk huquqini tashkil etuvchi jihatlar hisoblanadi); o'z harakatlarini sodir etish huquqi huquq normalari yoki boshqa shaxslarning sub'yektiv huquqlari bilan cheklanishi mumkin;

b) **o'zgalarning xatti-harakatiga bo'lgan huquqiy vakolat.** Bunda sub'yektiv huquq javobgar shaxs tomonidan muayyan harakatlar sodir etilgan taqdirdagina amalga oshadi. Masalan, qarz shartnomasi bo'yicha pulni qaytarishni talab etish huquqi;

v) **talab tarzidagi huquqiy vakolat.** Bu vakolatli davlat idorasiga murojaat etib, muayyan majburiyatning bajarilishini talab etish imkoniyatidir. Masalan, sudga murojaat etib, aliment to'lanishini talab qilish huquqi.

Shunday qilib, sub'yektiv huquqning amalga oshishi huquqiy vakolat egasi bo'lgan shaxsning ixtiyori, istagi va irodasiga bog'liqdir.

Sub'yektiv huquq hamisha erkinlik (ozodlik) bilan uzviy talqin etiladi. U - erkinlik me'yori. Mabodo, erkinlikning bu me'yori nolga

teng bo'lsa, har qanday munosabat o'zining huquqiy tabiatini yo'qotadi⁶. Basharti, sub'yektiv huquq o'zga shaxs yoki tashkilot tomonidan buzilsa, huquqiy vakolat sohibida zavol topgan huquqini muhofaza etilishini talab qilib, murojaat etish imkoniyati paydo bo'ladi. Mazkur vaziyatda davlatning qo'riqlovchi mexanizmi harakatga keltiriladi.

Yuridik majburiyat - huquqiy munosabat ishtirokchilarining tegishli huquqiy normaga asosan o'zlarining burchi (majburiyati) bo'lgan harakatni amalga oshirishlari yoki muayyan harakatni sodir etishdan o'zlarini tiyishlaridir. Shaxs yuridik majburiyatlarni o'tash tufayli huquqiy munosabat ikkinchi ishtirokchisining sub'yektiv huquqi amalga oshishini ta'minlaydi. Agar huquqimizga muqobil turuvchi majburiyat o'tovchi shaxs bo'lmasa, agar u sub'yekt qonun talab etgan xatti-harakatlarni sodir etmasa (yoki biron-bir harakatdan o'zini tiymasa), bizning huquqimiz quruq gapdan boshqa narsa bo'lmay qoladi. Yuridik majburiyat qonunga muvofiq talab etiladigan, bajarilishi lozim bo'lgan xulq-atvor, xatti-harakatdir. Agar sub'yektiv huquqdan foydalanish ixtiyoriy bo'lib, undan foydalanmaslik ham mumkin bo'lsa, yuridik majburiyatni bajarmaslik mumkin emas.

Sub'yektiv yuridik majburiyat quyidagilarda ifodalanadi:

- **taqiqlangan xatti-harakatlarni sodir etishdan tiyilish** (bunda majburiyat o'tovchi shaxs passiv bo'lib, sub'yektiv huquq amalga oshishiga xalal bermaydi);

- **muayyan xatti-harakatlarni sodir etish** (bunda majburiyat o'tovchi shaxsdan faol harakat qilish talab etiladi, toki huquqiy munosabat boshqa ishtirokchisining sub'yektiv huquqi ro'yobga chiqishi uchun sharoit yaratilsin).

Yuridik majburiyatni bajarmaslik oqibatida yuridik javobgarlik kelib chiqadi. yuridik majburiyatni bajarmagan shaxsga nisbatan davlat majburlov chorasini qo'llaydi, ya'ni jazoga duchor etadi.

Shunday qilib, sub'yektiv huquq va yuridik majburiyat o'zaro chambarchas bog'liqdir. Huquq majburiyatsiz mavjud bo'lmaydi. Va aksincha, biron-bir huquqqa mutanosib kelmaydigan majburiyat bo'lmaydi. Aynan bir faktik xulq-atvor, xatti-harakat bir vaqtning

⁶ Qarang: Варламова Н.В. Правоотношения: философский и юридический подходы. -Правоведение. 1991, № 4. 51-бет.

o'zida bir tomon uchun huquq, ikkinchi tomon uchun majburiyat hisoblanadi. Masalan, ish vaqtidan tashqari ishlaganlik tufayli oshirilgan haq to'lash -ma'muriyat uchun majburiyat; xodim uchun - huquqdir.

4-§. Huquqiy munosabatning ob'yekti

Huquqiy munosabatlar tarkibiy tuzilishining zaruriy qismlaridan biri - ularning ob'yektidir. «Ob'yekt» - lotincha so'z bo'lib, mavzu degan ma'noni anglatadi. Har qanday huquqiy munosabat uning zamirida yotgan hayotiy hodisalarni, narsa va jarayonlarni tartibga solishga qaratilgan muayyan vazifani o'taydi. Shu bois, ob'yektsiz, ya'ni hech narsaga qaratilmagan, hech narsaga ta'sir ko'rsatmaydigan huquqiy munosabatlar bo'lmaydi.

Huquqiy munosabatda ishtirok etayotgan sub'yektlarning diqqat-e'tibori, manfaati, xatti-harakati qaratilgan real ne'mat, narsa, jarayon, harakatlar (ularga erishish, foydalanish va ularni muhofaza etish) huquqiy munosabatning ob'yekti deb ataladi. Masalan, uy-joy oldi-sotdi shartnomaviy munosabatining ob'yektini uy-joy tashkil etadi; odam o'ldirish jinoyatining ob'yekti - insonning hayoti; birovni haqorat qilish fuqaroviy, ma'muriy va jinoiy javobgarlik keltirib chiqarishi mumkin. Bu huquqiy munosabatlar ob'yektini shaxsning sha'ni, qadr-qimmat, obro'-e'tibori tashkil etadi.

Huquqiy munosabatlarning ob'yekti hayot hodisalari va ijtimoiy voqeliklar kabi turli-tumandir. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:


1) **Moddiy olam ne'matlari.** Ularga buyumlar, ashyolar kiradi. Yuridik ma'noda buyumlar - tabiat ne'matlari va mehnat faoliyati jarayonida yaratilgan narsalar bo'lib, ular xususida huquqiy munosabatlar kelib chiqadi. Buyum (ashyo)lar toifasiga: ishlab chiqarish qurol-vositalari, iste'mol mollari, pul, qimmatli qog'ozlar, moddiy mahsulotlar ya boshqalar kiradi. Masalan, moddiy olam ne'matlari ob'yekt bo'luvchi huquqiy munosabatlarga oldi-sotdi, mahsulot ayirboshlash, hadya, meros kabi munosabatlar kiritiladi.

2) **Ma'naviy ijod mahsulotlari.** Bu intellektual-aqliy faoliyat natijasidir. Unga madaniyat, san'at, tasviriy ijod, kino, adabiyot asarlari va boshqalar kiradi.

Intellektual-aqliy ijod mahsullari yuzasidan ham turli-tuman huquqiy munosabatlar kelib chiqadi. San'at va adabiyot asarlarini yaratgan shaxs mualliflik huquqiga da'vogar bo'adi. Muzeyga,

ko'rgazmaga, she'riyat kechasiga borgan kimsalarda ana shu ijod mahsulotlariga qiziqish paydo bo'ladi. Bu manfaatning ob'yekti – ma'naviy boyliklardir. Ijod mahsulotlari oldi-sotdi, hadya, ijara, foydalanish kabi huquqiy munosabatlarning ob'yekti bo'lishi mumkin.

Huquqiy munosabatlar tarkibi



3) Huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining xulq-atvori va uning natijalari. Inson faoliyati, xulq-atvori huquqiy munosabatlar vositasida tartibga solinuvchi ob'yekt sifatida maydonga chiqdi.

Aksariyat hollarda majburiyat o'tovchi sub'yektning xulq-atvori huquqiy munosabat ob'yekti bo'ladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga muvofiq, ichki ishlar idoralari jazoni o'tab qaytgan shaxslar ustidan ma'muriy nazorat o'rnatadi va amalga oshiradi. Bunda nazorat ostida bo'luvchi shaxsning faoliyati, yurish-turishi, xulq-atvori militsiya bilan jazo o'tab chiqqan shaxs o'rtasidagi huquqiy munosabatning ob'yekti bo'ladi.

Xulq-atvorning natijasi deganda, u yoki bu harakat yohud harakatsizlik keltirib chiqaradigan oqibat tushuniladi. Ko'pgina huquqiy munosabatlar muayyan oqibatga erishish uchun o'rnatiladi va amalga oshiriladi. Bu holda xulq-atvor emas, balki uning natijasi huquqiy munosabatning ob'yekti sanaladi. Masalan, yuk tashish shartnomasi asosida kelib chiquvchi huquqiy munosabatni olaylik. Bunda huquqdor shaxsni (yuk qabul qilib oluvchi tomonni) majburiyat o'tovchi shaxsning qanday xatti-harakatlar sodir etishi qiziqitirmaydi. Balki uning harakatlari natijasi, ya'ni yukni muayyan muddatda belgilangan joyga yetkazib berishi qiziqtiradi.

4) Shaxsiy nomulkiy ne'matlar. Huquqiy munosabatning shaxsi nomulkiy ob'yekti deganda, nomoddiy ne'matlar, insonning bevosita shaxsiyat bilan bog'liq narsalar tushuniladi. Bular – insonning hayoti, qadr-qimmat, sha'ni, sog'lig'i kabilar. Insonni hayotdan mahrum etish jinoyatdir. Deyarli barcha davlatlarda jinoyat qonunchiligida inson hayotiga tajovuz qilish jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Shuningdek, insonning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, obro'-e'tibori, qadr-qimmat, fuqarolik, ma'muriy, nikoh va oila hamda boshqa qonunchilik sohalari tomonidan muhofaza etiladi.

5-§. Yuridik faktlar

Barcha ijtimoiy hayot hodisalari singari huquqiy munosabatlar ham dialektik qonuniyatlarga itoat etadi. Insonlar o'rtasidagi aloqalarning yuridik shakli bo'lmish huquqiy munosabatlar paydo bo'lib, o'zgarib, barham topib turadi.

Huquqiy munosabatlar yuridik normalar asosida kelib chiqadi. Biroq huquqiy normalar o'z-o'zidan, bevosita huquqiy munosabatlarni paydo qilmaydi. Normalar faqatgina huquqiy munosabatlar vujudga kelishining shartlarini, holatlarini va mezonlarini belgilab beradi. Huquqiy munosabatlarning mavjud bo'lishi yuridik faktlar, deb ataluvchi muayyan hayotiy hodisalar bilan bog'liq. Yuridik faktlar huquqiy munosabatlarning zaruriy sharti, konkret talabi sifatida maydonga chiqadi.

Xo'sh, yuridik fakt degani qanday hodisa? Turmushdagi barcha voqeliklar mana shunday hodisalar hisoblana oladimi? Chamasi, yo'q. Hayotda turli-tuman faktlar, holatlar, shart-sharoitlar bor. Ammo ularning hammasi ham yuridik fakt maqomiga ega

bo'lavermaydi. Muayyan hodisa va holatlarni yuridik fakt, deb e'tirof etish davlatning xohish-irodasiga bog'liq. yuridik fakt huquqiy munosabatni keltirib chiqaradi, tomonlarda huquq va majburiyat tug'diradi. Huquqiy normalar ta'sirida u yoki bu hayotiy holatlar yuridik faktga aylanadi.

Demak, **yuridik faktlar** - huquqiy normalar asosida huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi va barham toptiruvchi hayotiy hodisalardir.

Yuridik faktlar huquqiy tizimda, huquqiy tartibga solish mexanizmidan muhim rol o'ynaydi va katta ahamiyat kasb etadi. Ular huquqiy norma bilan konkret huquqiy munosabat o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'indir.

Yuridik faktlar huquqiy normalar va huquqdorlik (huquq sub'yekti), sub'yektiv huquq va yuridik majburiyat bilan mushtaraklikda huquqiy munosabatlarning zaruriy sharti hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasiga muvofiq, har kim bilim olish huquqiga ega. Fuqaroning oliy o'quv yurtiga kirib o'qish huquqi amalga oshishi uchun u balog'at yoshiga yetganlik hamda muomala layoqatiga egalikdan tashqari tegishli yuridik fakt mavjud bo'lishi lozim. Bu yuridik fakt - kirish imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirish va buyruq bilan o'quv muassasasiga qabul qilinishdir. Ana shundagina talaba bilan o'quv yurti ma'muriyati o'rtasida huquqiy munosabat kelib chiqadi.

Yuridik faktlar huquq normalarida nazarda tutiladi, mustahkamlanadi. Aytaylik, nikohni FXDyo (ZAGS) idoralarida ro'yxatdan o'tkazish fakti yuridik faktdir, chunki bu holat Fuqarolik kodeksi va Oila kodeksida mustahkamlangan. Ayni vaqtda, masjidida ham nikoh o'qitish faktlari (urf-odati) mavjud. Biroq, bu fakt qonunda nazarda tutilmagan. Shu bois u yuridik fakt bo'la olmaydi.

Yuridik faktlar xilma-xildir, ular mohiyatan bir necha turlarga bo'linadi.

1) yuridik faktlar ular keltirib chiqaradigan huquqiy oqibatlariga qarab: **huquqni yaratuvchi, huquqni o'zgartiruvchi va huquqni bekor qiluvchi** faktlarga bo'linadi.

Ayni bir yuridik hodisa bir vaqtning o'zida ham huquq yaratuvchidan huquqni o'zgartiruvchi, ham huquqni bekor qiluvchi fakt bo'lishi mumkin. Masalan, insonning o'limi fakti meros huquqiy

munosabatlarining kelib chiqishiga sabab bo'la oladi, huquqiy munosabat ishtirokchilari tarkibi o'zgarishiga olib keladi (ya'ni, o'lgan shaxs bu munosabatlardan chiqib ketadi), mavjud qator (oilaviy, mehnat, nafaqa) huquqiy munosabatlarning barham topishiga asos bo'ladi.

2) yuridik faktlar irodani ifodalashiga qarab, ikki asosiy guruhga: yuridik hodisalar va yuridik harakatlarga bo'linadi.

Hodisalar - tabiat va jamiyatdagi shunday faktlarki, ularning yuz berishi kishilarning erku irodasiga, ongiga va ehtiyojiga bog'liq emas. Masalan, yer qimirlashi, bola tug'ilishi, insonning vafot etishi, yong'in, sel kabi tabiiy ofatlar va boshqalar. Mazkur hodisalar huquq bilan tartibga solinuvchi ijtimoiy munosabatlarga muayyan ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababdan ular yuridik faktlar, deb tan olinadi. Odatda, hodisalar huquqiy munosabatning ob'yektiga ta'sir etadi. Masalan, yong'in tufayli uy-joyiga zarar yetgan shaxs bilan tegishli davlat idoralari, jumladan, sug'urta idoralari o'rtasida huquqiy munosabat kelib chiqadi.

Harakatlar - huquqiy munosabat ishtirokchilar irodasi bilan bog'liq faktlar. Ular bir necha turga ajraladi: **huquqqa muvofiq** va **huquqqa xilof** harakatlar. Amaldagi qonun normalari asosida vujudga keladigan hamda shu normalar bilan tartibga solinadigan harakatlar **huquqiy (huquqqa muvofiq)** harakatlar, deb ataladi. Huquqiy normalar talablariga zid, ularni buzuvchi harakatlar **huquqqa xilof (g'ayriqonuniy)** harakatlar hisoblanadi.

Huquqqa zid bo'lgan harakatlar o'z mazmuni va xarakteriga qarab **jinoiy, ma'muriy, fuqarolik** va **intizomiy huquqiy bo'lmagan harakatlarga** bo'linadi. Huquqiy bo'lmagan harakat qonunga binoan yuridik javobgarlikni keltirib chiqaradi. Masalan, jinoyat sodir qilganlik uchun jinoiy javobgarlik kelib chiqadi.

Huquqqa muvofiq harakatlar o'z navbatida ikki turga bo'linadi:


- **yuridik aktlar;**
- **yuridik xatti-harakat.**

Yuridik aktlarda huquqqa muvofiq harakatlar muayyan huquqiy oqibatlarni vujudga keltirishini nazarda tutib, sodir etiladi. Bunday harakatlarda huquq va majburiyatlarni vujudga keltirish, o'zgartirish va barham toptirishga ongli ravishda qaratilgan xohish ifodalandi. Masalan, fuqarolik huquqiy bitimlari, ma'muriy aktlar

shunday aktlar sirasiga kiradi.

Yuridik xatti-harakatlar kishilar tomonidan huquqiy oqibatlarga olib kelishini atayin ko'zda tutmagan holda sodir etiladi, biroq bunday oqibatlar qonunda nazarda tutilganligi tufayli kelib chiqadi. Masalan, ijodkor ilmiy yoki badiiy asar yaratdi, deylik. Bunda ijodkor huquqiy oqibatlar vujudga keltirishni istagani yoki istamaganidan qat'i nazar, qonun mualliflik huquqiy munosabatlari paydo bo'lishini shart qilib qo'ygan. Demak, ijod mahsulining yaratilishi – yuridik faktdir.

Yuridik aktlarning eng muhim xususiyati shundan iboratki, ularda yuridik ahamiyatga molik asosiy shart – yuridik oqibatlarni ko'zlab o'zicha ish ko'rishdir.



Shunday qilib, yuridik faktlar huquqiy munosabatlar o'rnatis-hning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ular, odatda, huquqiy munosabat sub'yektlarining manfaatlariga mos keladi. Yuqoridagi tahlillarga yakun yasab, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Huquqiy munosabatlar - ijtimoiy munosabatlarning alohida turi bo'lib, ular ustqurmaning tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy tizim, ishlab chiqarish munosabatlari zahirida vujudga keladi va takomil-lashib boradi;

2. Huquqiy munosabatlar, o'z navbatida, jamiyat hayotiga, ishlab chiqarish jarayoniga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;

3. Huquqiy munosabatlar huquq normalari asosida paydo bo'ladi (o'zgaradi yoki barham topadi) hamda o'z tabiatiga ko'ra irodaviy xarakterga ega bo'ladi;

4. Faqat huquqiy normalargina ijtimoiy munosabatlarga qonu-niy shakl baxsh eta oladi;

5. Huquqiy munosabatlar - davlatli jamiyatga xos hodisa. Ular davlat siyosati, xohish-irodasi bilan chambarchas bog'liqdir. Huquq vositasida davlat ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga soladi; zarur hollarda huquqiy munosabatlarni ro'yobga chiqarish, muhofaza etish uchun davlatning majburlash kuchi ishga solinadi;

6. Demokratik jamiyatda huquqiy munosabatlar, asosan, ixtiyoriy, ongli ravishda amalga oshiriladi. Biroq shunday bo'lsada, huquqiy munosabatlar doimo davlatning madadiga (zo'rlik kuchiga) tayanadi;

7. Huquqiy munosabatlar quyidagi to'rt unsurli tarkibiy tuzili-shga ega: huquqiy munosabat sub'yekti, uning ob'yekti, huqu-qdorlik, yuridik majburiyat.

8. Huquqiy munosabatlar vujudga keltiriladigan, o'zgarti-radigan (rivojlantiradigan) yoki barham toptiradigan hayotiy hodi-salar (shuningdek, tabiat hodisalari) yuridik faktlar hisoblanadi (chizmaga qaralsin);

9. yuridik faktlar hayotda huquqdan alohida, mustaqil holda bo'lib, davlat xohish-irodasi tufayligina huquqiy ma'noga ega bo'ladi;

10. Huquqiy munosabatlar ob'yektiv va sub'yektiv huquqni amalga oshirishning alohida shaklidir.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy munosabatlar fuqarolar, jamoat birlashmalari, davlat idoralari va boshqa yuridik shaxslar o'rtasidagi turli-tuman aloqalarni tartibga solish orqali jamiyatda qonuniylikni mustahkamlashga, qonun ustuvorligini qaror toptirishga, shuningdek, inson, jamiyat va davlat manfaatlarini huquqiy jihatdan uyg'unlashtirishga samarali xizmat qiladi.

1-5. Huquq tizimi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari

Atrofimizda kechayotgan ijtimoiy hayot turfa ijtimoiy munosabatlar makonidir. Ijtimoiy munosabatlar xilma-xil bo'lishiga qarab, ayni paytda, mazmunan muayyan guruhlarga birlashadilar, boshqacha qilib aytganda, ular ma'lum darajada ixtisoslashadi, oqibat natijada yaxlit bir makrotizimni tashkil etadi. Bu ob'yektiv jarayon o'z navbatida uni tartibga soladigan huquq normalarining ham tegishli guruhlanishini, tizimlanishini belgilaydi.

Huquq tizimi - huquqning ichki tuzilishi, ichki qurilishi - tarkibi bo'lib, u huquqning qanday qismlardan iborat ekanligini va qismlar o'rtasidagi munosabat hamda nisbatni ko'rsatadi.

Huquq tizimi ob'yektiv xarakterga ega. Buning ma'nosi shuki, mavjud ijtimoiy munosabatlar va ularning real manzarasi huquq tizimini belgilovchi omil hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi, yangilanishi huquq tizimida o'zining aynan ifodasini topadi, shu jihatdan har bir davlat huquq tizimi shu jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning in'ikosi, ifodasi hisoblanadi. Ma'lumki, har qanday huquq davlat tomonidan o'rnatilgan va bajarilishi davlat tomonidan ta'minlanadigan normalar yig'indisidan iborat, ayni vaqtda bu normalar majmui stixiyali tarzda jamlangan bo'lmay, balki qismlari o'zaro muvofiqlik, bog'liqlik asosida birlashgan. Bu tizim bir paytda umumiylik va alohidalik, mustaqillik va bog'liqlik, o'xshashlik va farqlanish xususiyatlariga egadir. Huquq tizimini tashkil etgan normalarning umumiyligi va mushtarakligi ularda ifodalangan davlat amrining birligi, huquqiy normalar amal qilib turgan «huquqiy zamin» hisoblanmish huquqiy tizimning, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish mexanizmi va bu mexanizm asoslanadigan umumiy qoidalarning yaxlitligi, shuningdek, vazifa va maqsadlar mushtarakligi bilan belgilanadi.

Huquq tizimi jamiyatda mavjud bo'lgan va doimo rivojlanish jarayonini boshidan kechirayotgan ijtimoiy munosabatlarning ifodasi bo'lib, u huquqning ichki tuzilishini, unda huquq normalarining ham umumlanish, ham farqlanish xususiyatlarini ko'rsatadi.

Huquq tizimi:

- birinchidan, ijtimoiy munosabatlarning mazmuni bilan bog'liq

holda, ob'yektiv ravishda shakllangan;

- ikkinchidan, u yaxlit tizim sifatida huquqning ichki tuzilishini, ya'ni bu tizim qanday ichki «qurilma»dan iboratligini ko'rsatadi;

- uchinchidan, huquq tizimi uni tashkil etuvchi yuridik normalarning muayyan guruhlarga birlashishini ko'rsatadi;

- to'rtinchidan, huquq tizimini tashkil etuvchi yuridik normalarning va ular birlashgan guruhlarning o'zaro farqlanishini, alohidalanishini ko'rsatadi;

- beshinchidan, ijtimoiy munosabatlarning xususiyati va ularning o'ziga xosligi yuridik normalarning ham ma'lum darajada ixtisoslashuvini taqozo etadi.

Malumki, tizimlar nazariyasiga ko'ra, har qanday tizimning tarkibiy qurilishi muayyan qoidalar va mezonlar asosida tashkil topadi. Biron-bir tizimni chuqurroq anglash uchun tizim asosida yotadigan shu mezonlarni aniqlash ahamiyatga molikdir. Bunday aniqlash huquq tizimini o'rganish uchun ham zarur bo'lib, uning natijasida biz yaxlit huquqning tarkiban nimalarga asosanib «qurilganligi», huquq normalarining jamlanishi va guruhlarga bo'linishi asosida nimalar yotganligini bilib olamiz. Shu maqsadda ilmiy-o'quv adabiyotida qator yondashuvlardan foydalaniladi. Genetik yondashuv asosida birlamchi va ikkilamchi (hosila) mezonlar ajratiladi. Huquqqa nisbatan birlamchi mezon bo'lib, avvalo, inson hisoblanadi. Shu ma'noda huquqqa nisbatan ikkilamchi (hosila) mezon bo'lib, turli yo'llar bilan shakllangan ijtimoiy va ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar, eng avvalo, davlat va jamiyat hisoblanadi. Tarixiy yondashuvga asosan esa huquqning tizim sifatida shakllanishining butun rivojlanish yo'lini kuzatib tahlil etish mumkin, bu jarayonda eng muhim mezon sifatida huquqning shakli (manbai) oldinga chiqadi. Huquq shakllarini tahlil etish orqali biz u yoki bu huquq tizimi uchun xos bo'lgan tizim shakllantiruvchi asoslarni aniqlashimiz mumkin. Tarixiy yondashuv huquq tizimining genetik aloqalarini ochib berishi bilan bir qatorda, tarixiy rivojlanish jarayonida huquq tizimida bo'lgan dinamik o'zgarishlarni ham kuzatish mumkin. Bu avvalo insonning o'zining individ sifatida va turli ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar a'zosi sifatida rivojlanishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, huquq tizimiga turli diniy, etnik, g'oyaviy omillar va ularning o'zaro nisbati ta'siri ham namoyon bo'lgan.

Huquq tizimiga tizimli-tuzilmaviy yondashuv uning ichki tuzilmasida huquq normalarining ma'lum tarzda tartibli joylashganligini ko'rsatadi. Huquq tizimida joylashgan normalarning tartibga solinganligi, o'zaro muvofiqligi va aloqadorligi hamda ayni paytda farqlanishi ijtimoiy munosabatlarning ham xuddi shunday tuzilmaviy xarakteri va ularni huquqiy tartibga solishning bog'liqligi bilan belgilanadi.

Huquq tizimliliigi bir necha darajalarni o'z ichiga oladi. Ulardan birinchisi o'z ichki aloqalariga ega bo'lgan huquq normasidir. Shu aloqadorlik sababli u konkret huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Shu bilan bir qatorda, aynan bir munosabat bir necha normalar bilan tartibga solinadi va bu ularni huquq tizimliliigining ikkinchi darajasi hisoblangan huquq institutiga birlashtirishga asos bo'ladi va bu huquq normasining tashqi aloqalari natijasi sifatida vujudga keladi. Uchinchi, huquq tizimliliigining ancha yuqori darajasi bo'lib, huquqning tarmoqlarga bo'linishi hisoblanadi.

Huquq normasi huquq tizimining birlamchi unsuri bo'lib, u davlat tomonidan o'rnatiladigan hokimiyat xarakteriga ega bo'lgan xatti-harakat qoidasidir. Huquq normasi huquq tuzilmasi ichida birinchi bo'lib, yaxlit huquqda bo'ladigan o'zgarishlarni o'zidan o'tkazadi. Shu bois uning boshqa huquq tizimi tuzilmalariga ta'siri kattagina, agar ta'bir joiz bo'lsa, uni huquqning o'lchov birligi deyish mumkin.

Huquq instituti huquqiy normalarning alohida guruhi bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarning muayyan turini tartibga soladi. Odatda, huquq instituti huquqiy normalarning uncha katta bo'lmagan barqaror guruhi bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir turini tartibga soladi. Demak, agar huquqiy norma huquqiy materiyaning birlamchi unsuri bo'lsa, huquq instituti esa uning dastlabki huquqiy umumlashmasidir. Har bir tarmoq o'z ichiga qator institutlarni oladi va ular tarmoqning tarkibiy qismi, bo'lagi, bo'g'ini sifatida namoyon bo'lib, ayni paytda, muayyan mustaqillik xarakteriga ega, zero, ular ma'lum darajada mustaqil masalalarni tartibga soladi. Huquq institutlariga misol qilib, ma'muriy huquqda mansabdor shaxs instituti, fuqarolik huquqida da'vo muddati, shartnomalar, oldi-sotdi instituti, konstitutsiyaviy huquqda saylov tizimi, fuqarolik instituti, jinoyat huquqida zaruriy mudofaa instituti, oila huquqida nikoh

Instituti va hokazolarni keltirish mumkin.

Huquq institutlarini turlicha guruhlash mumkin. Eng avvalo biz ularni huquq tarmoqlari bo'yicha ajratamiz: ma'muriy huquq institutlari, fuqarolik huquqi institutlari va shu kabi. Institutlarni turlarga ajratishda bizga mezon vazifasini huquq tarmoqlari o'taydi. Hayotda shunday bo'ladiki, muayyan bir ijtimoiy munosabat bir huquq tarmog'i instituti bilan tartibga solinib qolmasdan, bir necha tarmoq institutlari bilan ham tartibga solinishi mumkin. Shu munosabat bilan tarmoq institutlari va tarmoqlararo institutlar (aralashgan) hamda oddiy va murakkab (kompleks-majmuaviy), regulativ (tartibga soluvchi), qo'riqlovchi va ta'xis etuvchi (mustahkamlovchi) institutlarga ajraladi.

Huquq tarmog'i - bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar va huquq institutlarining alohida majmui. Huquq tarmog'i huquqni tizimlashning ancha yuqori darajasi hisoblanadi va u ma'lum yaxlitlik va mustaqillik bilan tavsiflanadi. Ta'kidlash lozimki, ba'zi o'quv-ilmii adabiyotlarda huquq tizimining yuqorida ko'rsatib o'tilgan tuzilmaviy elementlaridan tashqari yana huquq tarmoqchasi (podotrasl) va subinstitutlar ham farqlanadi. Huquq tizimida tarmoqlarning ajralib chiqishiga asos bo'lib, unga bo'lgan ob'yektiv zarurat hisoblanadi, davlat esa bu zaruratni o'z vaqtida anglab, uni rasmiylashtiradi xolos. Tarmoq qonun chiqaruvchi tomonidan o'ylab topilmay, balki ijtimoiy va amaliy ehtiyoj mahsuli sifatida shakllanadi. Ijtimoiy munosabatlarning u yoki bu sohasining sifat jihatidan turdoshligi muayyan huquq tarmog'ining shakllanishini taqozo etadi va shu bois u yoki bu huquq tarmog'ining mavjudligi yoki yo'qligi huquqiy tartibga solishga muhtoj bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning tegishli sohasi mavjud yoki mavjud emasligiga bog'liq bo'ladi. Ayni paytda, huquq tarmoqlari ham o'zlarining hajmi, ijtimoiy munosabatlar-ga ta'siri va umuman huquqiy tartibga solishda tutgan o'rni bilan farqlanadi va bu farq ko'p jihatdan ular tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va ahamiyati bilan belgilanadi. Mustaqil huquq tarmog'i tashkil etilishi uchun quyidagi shartlar bo'lishi lozim:

- 1) u yoki bu munosabatlarning o'ziga xosligining ma'lum darajasi;
- 2) bu munosabatlarning hajmi, kattaligi va ko'pligi;

3) vujudga kelgan munosabatlarni boshqa huquq tarmoqlari normalari yordamida tartibga solishning imkoni yo'qligi;

4) bu munosabatlarni tartibga solishning alohida uslubini qo'llash zarurligi.

An'anaviy tarzda ilmiy-o'quv adabiyotida huquq tarmoqlariga quyidagilar kiritiladi: konstitutsiyaviy, ma'muriy, moliya, mehnat, fuqarolik, oila, jinoyat huquqlari, fuqarolik-protsessual, jinoyat-protsessual huquqi, yer huquqi, qishloq xo'jaligi huquqi, ekologiya huquqi va boshqalar.

Shunday qilib, huquq tizimi murakkab, ko'ptuzilmali va harakatchan yaxlit tuzilma bo'lib, o'z ichiga, prof. S.S.Alekseyev ta'kidlaganidek, quyidagi bir necha darajalarni oladi:

1. Alohida normativ qoida tuzilmasini;
2. Huquqiy institut tuzilmasini;
3. Huquqiy tarmoq tuzilmasini;
4. Huquqning yaxlit tizimini.

Bularning hammasi bir butun yaxlitlikda ancha murakkab tarkibni tashkil etadi.

Ayni paytda, huquq tizimi darajalari o'zaro mantiqan va mazmunan bog'liq bo'lib, ular bir-birini sababning oqibati tarzida taqozo etadi.

Ommaviy va xususiy huquq. Ta'kidlash joizki, jahon yuridik fanida huquq xususiy va ommaviy huquqqa ajratiladi. Xususiy huquq alohida shaxslarning ehtiyojini qondirish va manfaatini himoya qilishga qaratilgan bo'lsa, ommaviy huquq esa davlatning umumiy manfaatlarini muhofaza etadi. Xususiy va ommaviy huquqning shakllanishi qadimgi Rimga borib taqaladi. Unda jus publicum va jus privatum ajratilgan bo'lib, ularga Rim yuristlari tavsif berishgan. Masalan, Ulpianning fikriga ko'ra, ommaviy huquq Rim davlatining holatiga, maqomiga taalluqli «ad statum rei Romanae spectat»; xususiy huquq esa alohida shaxslar foydasiga taalluqlidir: «ad Singulorum utilitatem» (qarang: I.B.Novitskiy. Osnovi Rimskogo grajdanskogo prava. M., «yur.lit». - 1972). Huquq himoya etadigan manfaatlar mazmuni, xarakteri xususiy va ommaviy huquq sohaslarini ajratishning mezoni hisoblangan. Ommaviy huquq doirasiga davlat manfaatini muhofaza etuvchi huquqiy normalar kirgan, xususiy huquq sohasiga esa alohida shaxslar manfaatini himoya

qiluvchi normalar kirgan. Shunisi e'tiborga molikki, Rimda ommaviy va xususiy huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning xarakteriga ko'ra ancha farqlangan. Xususan, ommaviy huquq uchun jus publicum priuatorum pactis mutari non protest, ya'ni ommaviy huquq normalari alohida shaxslarning kelishuvi bilan o'zgartirilishi mumkin emas, degan tamoyil xos bo'lgan. Bunday normalar imperativ normalar, deb atalgan. Ya'ni, so'zsiz, majburiy, hokimiy-buyruq xarakteridagi normalar.

Xususiy huquq uchun esa vakolat beruvchi normalar xos bo'lgan. Moddiy va protsessual huquq. Huquq tizimidagi tarmoqlar moddiy va protsessual (jarayoniy) huquqqa ham bo'linadi. Konstitutsiyaviy, ma'muriy, moliya, yer huquqi, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi va mehnat huquqi moddiy huquqqa kiradi va ular insonlararo, ularning xilma-xil tuzilmalariaro real tarkib topadigan munosabatlarni tartibga soladi. Bu munosabatlar mulk shakllari, mulkka egalik qilish, undan foydalanish, tasarruf etish, mulkni olish va sotish, davlat boshqaruvi sohasidagi munosabatlar, fuqarolarning mehnat va siyosiy faoliyatlari, huquq va erkinliklarining amalga oshirilishi bilan bog'liq holda vujudga keladi.

Protsessual huquq tarmoqlariga esa jinoyat-protsessual va fuqarolik-protsessual huquq tarmoqlari kiradi. Ular turli nizolar, kelishmovchiliklarni hal etish, jinoyat va boshqa huquqbuzarliklarning tergov qillinishi va sudda ko'rilishining taomiliy, tashkiliy masalalarini tartibga soladi. Masalan, jinoyat huquqi normalari qanday qilmish jinoyat ekanligini va shu xatti-harakat yoki harakatsizlik uchun beriladigan jazoning umumiy asoslarini belgilab bersa, jinoyat protsessual huquqi uni tergov qilish, sudda ko'rish kabi qator masalalarni o'z normalarida mustahkamlaydi. Moddiy huquq bilan protsessual huquq o'rtasida uzviy bog'liqlik borligi yaqqol ko'rinib turibdi. Ular bir-birini taqozo etadi va uzviylikda bir butun yaxlitlik kasb etadi.

Shunday qilib, huquq tizimi - huquqning ob'yektiv ravishda shakllangan ichki tuzilishi bo'lib, u harakatdagi, o'zaro bir-biri bilan bog'langan barcha yuridik normalar, institutlar va huquq tarmoqlarini o'z ichiga oladi, ichki uzviylik va ayni paytda, tartibga soladigan munosabatlarning xususiyatlaridan kelib chiqadigan farq bilan xarakterlanadi.

Huquq tizimi tarkibidagi eng yirik tuzilma - huquq tarmog'idir. Huquqni huquq tarmoqlariga ajratish ikki mezon, ya'ni huquqiy tartibga solishning predmeti va huquqiy tartibga solishning usuli (metodi) orqali amalga oshiriladi.

2-§. Huquqiy tartibga solish predmeti va usuli - huquqni tarmoq va institutlarga ajratishning asosi sifatida

Huquqiy tartibga solish predmeti deganda, huquq bevosita tartibga soladigan narsa - ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Ijtimoiy munosabatlar o'zining xususiyatiga ko'ra, yuridik normalar o'rtasida alohida bog'liqlikni vujudga keltiradi, ularni yaqinlashtiradi. Shu bois huquqiy tartibga solish predmeti huquq normalarini ma'lum tarmoqqa kiritishda, guruhlashda asos bo'lib hisoblanadi. Huquqiy tartibga solish predmeti tuzilmasi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

a) huquqiy tartibga solish predmeti sub'yektlari (individual va jamoa);

b) sub'yektlarning xulq-atvori, xatti-harakati, qilmishi;

v) atrof-muhit ob'yektlari: narsalar va hodisalar - bular yuzasidan insonlar bir-birlari bilan munosabatga kirishadilar va ma'lum manfaat yuzasidan ularga qiziqadilar;

g) muayyan munosabatlarning paydo bo'lishi va barham topishining bevosita sababchilari bo'lgan ijtimoiy faktlar: hodisa va harakatlar.

Demak, huquqiy tartibga solish predmeti - huquqiy ta'sir doirasidagi barcha munosabatlardir, boshqacha aytganda, huquqiy maydon doirasidagi munosabatlardir.

Huquqiy tartibga solish predmeti - jamiyat a'zolari bo'lmish insonlar o'rtasida vujudga keladigan va tarkib topadigan faktik, real munosabatlar bo'lib, ular ob'yektiv ravishda huquqiy tartibga solinishga muhtoj bo'ladilar. Bunday munosabatlar xilma-xil va ko'p sonli, ya'ni boshqaruv, mehnat, mulk, oila sohalarida bo'lishi mumkin. Ular mazmunan turlicha bo'lganlari holda, muayyan umumiy xususiyatlardan ham xoli emas. Umumiylik quyidagilarda ko'rinadi:

1. Insonlar va ularning turli jamoalari, birlashmalari uchun hayotiy muhim bo'lgan munosabatlardir;

2. Munosabatlar stixiyali tarzda bo'lmay, balki doimo aniq

maqsadga yo'naltirilgan, irodaviy munosabatlardir;

3. Munosabatlar, albatta, barqaror, qayta-qayta takrorlanadigan, tipik (xos va mos) munosabatlardir;

4. Munosabatlar insonlarning xatti-harakati orqali ifodalangan va shu bois ularning kechishi ustidan chetdan nazorat olib borish mumkin.

Shunday qilib, ijtimoiy munosabatlar, aniqrog'i, ularning mazmuni, hajmi, ixtisoslashganligi, guruhlashganligi huquq tizimining ham tarkibiy tuzilishini, uning ichki «qurilmasi»ni belgilovchi bosh omil va bosh mezon bo'lib xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, har bir huquq tarmog'ining huquqiy tartibga solish predmeti o'z xususiyatiga ega. Shu bois bu holat mazkur tarmoq ob'yekti bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning ma'lum turini tartibga solish usulining ham o'ziga xos bo'lishini taqozo etadi.

Huquqni tarmoqlarga ajratishning yana bir muhim asosi huquqiy tartibga solish usulidir.

Huquqiy tartibga solish usuli - jamiytdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarga huquqning ta'sirida qo'llaniladigan usul, vosita va yo'llar majmui. Huquqiy tartibga solish usuli uzoq tarixiy jarayonda shakllangan munosabat bo'lib, davlat undan huquqiy normalarni yaratishda va ijtimoiy munosabat ishtirokchilari o'rtasidagi huquqiy aloqalarni tartibga keltirishda foydalanadi. Agar huquqiy tartibga solish predmeti huquq nimani tartibga soladi, degan savolga javob bersa, huquqiy tartibga solish usuli esa huquq shu ijtimoiy munosabatlarni qanday, qaysi yo'l, usul bilan tartibga soladi, degan savolga javob hisoblanadi.

Huquqiy tartibga solish usuli huquqni tarmoqlarga ajratishning qo'shimcha asosi bo'lsada, uning huquqiy tartibga solishning samaradorligini oshirishdagi roli kattadir.

Ta'kidlash lozimki, darslik va ilmiy adabiyotlarda huquqiy tartibga solish usullari turlari va ularning tasniflari to'g'risida yakdillik yo'q. Biroq turlicha tasniflarning mavjudligiga qaramasdan, ularning barchasini mazmunan ikki guruhga bo'lish mumkin:

1) avtonomiya usuli (dispozitiv);

2) avtoritar usul (imperativ).

Avtonomiya usuli, asosan, fuqarolarning huquqi, oila huquqi, mehnat va savdo huquqi, ya'ni xususiy huquq harakati daxldor

sohalarda qo'llaniladi.

Avtoritar usul esa davlat huquqi, ma'muriy huquq, moliya huquqi, jinoyat huquqi, ya'ni ommaviy huquq harakati daxldor sohalarda qo'llaniladi.

3-§. O'zbekiston Respublikasidagi asosiy huquq tarmoqlarining qisqacha tafsili

Yuqorida ta'kidlanilganidek, huquq tarmoqlari - ijtimoiy munosabatlarning katta bir yaxlit sohasini tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuidan iborat huquq tizimning yirik tarkibiy qismidir.

Hozirgi paytda, O'zbekistonda mavjud eng asosiy huquq tarmoqlariga va ularning o'ziga xos jihatlariga, predmeti va tartibga solish usuli xususiyatlariga, har bir tarmoqning yaxlit huquq tizimida egallagan o'ziga xos va mos o'rniga, ularning o'zaro farqlariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Huquq tizimida yetakchi o'rinni **konstitutsiyaviy (davlat) huquq** egallaydi. Bu huquq tarmog'i davlatga oid eng muhim, asosiy bo'lmish munosabatlarni tartibga soladi va shu bois uning normalarida boshqa huquq normalari uchun negiz bo'ladigan qoidalar mustahkamlangan. Uning asosiy normalari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va boshqa qonunchilik aktlarida mustahkamlangan. Konstitutsiyaviy huquq normalari O'zbekistonning konstitutsiyaviy tuzumi asoslarini, shaxsning huquqiy holati, davlat hokimiyatining oliy va mahalliy organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari asoslarini va davlat tuzilishiga oid boshqa masalalarni mustahkamlaydi. Davlat tuzumiga oid munosabatlar bevosita konstitutsiyaviy huquqning ob'yekti hisoblanadi. Bu huquq tarmog'i usulining mazmuni - ta'sis etish, mustahkamlashdan iboratdir. Ta'kidlash lozimki, mazkur huquq normalari, asosan, gipoteza va dispozitsiyadan iborat tuzilmaga ega bo'lib, ularda aniq sanksiya mustahkamlanmagan. Ayni paytda, Konstitutsiyaning ba'zi normalari to'g'ridan to'g'ri harakat qilishi mumkin.

Ma'muriy huquq konstitutsiyaviy huquq bilan mustahkam bog'liq huquq tarmog'i hisoblanadi va u ijroiya hokimiyatini amalga oshirishda vujudga keladigan boshqaruv munosabatlarini tartibga soladi. Bu huquq tarmog'i normalari davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslarning boshqaruv, ijro etish

hamda farmoyish berish bilan bog'liq faoliyatini tartibga soladi. Boshqaruv, ijro etish va farmoyish berish funksiyasini amalga oshiruvchi organlar, jumladan, Prezident devoni tuzilmalari, hukumat, vazirliklar, qo'mitalar, mahalliy organlar ma'muriyati tegishli vakolatlar bilan ta'minlangan. Xalq xo'jaligining, iqtisodiyot va madaniyat sohalari, sanoat, qishloq xo'jaligi, fan va ma'rifat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, mudofaa va xavfsizlik kabilar bu huquq tarmog'ining ob'yekti bo'lib hisoblanadi.

Tarmoqning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda qo'llaydigan usuli hokimiyat va bo'ysunish, imperativ xarakterdagi buyruqlar, lavozimi va darajasiga asoslangan bo'g'inma-bo'g'in bo'ysunish, topshirilgan soha uchun javobgarlik kabilardan iborat.

Moliya huquqi davlatning moliya va byudjet faoliyatini amalga oshirish, banklar va boshqa moliyaviy muassasalar faoliyatida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soladi. Tarmoqning predmeti bo'lib moliyaviy munosabatlar, davlat byudjetini shakllantirish va ijrosini ta'minlash, pul muomalasi, bank operatsiyalari, kreditlar, soliqlarga oid munosabatlar hisoblanadi. Moliyaviy faoliyat ko'pincha ijro etish, farmoyish berish xarakteriga ega va shu bois u ma'muriy huquq bilan ancha bog'liqdir. Bu faoliyat yana davlat - hokimiyat xarakteriga ham ega. Shuning uchun u konstitutsiyaviy huquq bilan bog'liq. Bu tarmoqning usuli - tekshirish, nazorat, bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar berish yo'li bilan ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etishdan iborat.

Yer huquqi yerdan foydalanishga doir munosabatlarni tartibga soladi. Uning normachari unumli foydalanish va yer tuzilishi, yer fondini saqlash va taqsimlash, turli yer shakllarining ularning ma'muriy - xo'jalik ahamiyatiga qarab, huquqiy holatini aniqlashga doir munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Yer huquqi o'z ichiga o'rmon, suv va tog' huquq tarmoqchalarini ham oladi. Bu huquq tarmog'ining asosiy normativ akti bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi hisoblanadi. Yer huquqi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda yo'l berish, ruxsat berish va man etish usullaridan foydalanadi.

Qishloq xo'jalik huquqi - qishloq xo'jalik shirkatlari, fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari, ijara xo'jaliklarining tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishi, ularning boshqa xo'jalik sub'yektlari hamda

davlat organlari bilan o'zaro munosabatlari, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishidagi mehnatdan foydalanish va unga haq to'lash tartibi, daromadni taqsimlash tartibiga doir munosabatlarni tartibga soluvchi normalar majmuidan iborat. Ma'lumki, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bundan tashqari, bozor munosabatlarining qishloq xo'jaligiga keng kirib borishi va mustahkamlanishi bu huquq tarmog'ining ahamiyatini oshirmoqda.

Qishloq xo'jalik huquqi normalari qonunlarda, normativ aktlarda va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi tashkiliy shakllarining Namunaviy nizomlarida mustahkamlangan. Bu normalar hali kodekslashtirilmagan. Mazkur huquq tarmog'ining asosiy usuli dispozitiv xarakterda bo'lib, u qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi sohasidagi munosabatlarni mustahkamlash, muhofaza qilish, tavsiya etish, yordam ko'rsatish yo'llari bilan amalga oshiriladi.

Mehnat huquqi normalari mehnat munosabatlarining vujudga kelishi, o'zgarishi va barham topishining shartlarini aniqlash, ish vaqti hamda dam olish vaqti muddatining davomiyligini aniqlash, mehnat muhofazasi, mehnat intizomiga doir munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Mehnat munosabatlari sub'yektlariga ishchi va xizmatchilar, davlat organlari va jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari kiradi. Mehnat huquqining mehnat munosabatlarini tartibga solishda qo'llaydigan usullari bo'lib rag'batlantirish, tegishli shartnomalarga normativ hujjat tusini berish hisoblanadi.

Fuqarolik huquqi mulkiy munosabatlarni, shuningdek, shaxsiy nomulkiy munosabatlarni (masalan, ismga bo'lgan huquq, mualliflik huquqi, qadr-qimmatni himoya qilish) tartibga soladi. Mulk munosabatlari, meros va vorislik munosabatlari ham fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadi. Bu huquq normalari o'z ta'siri bilan korxonalar, muassasa, tashkilotlar va jismoniy shaxslarning barcha fuqarolik oboroti (muomalasi), xo'jalik faoliyatini, jumladan, mulkga egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etish, mulkni sotib olish va sotish, hadya qilish, meros qoldirish, mulkni ijaraga saqlab turishga, garovga berish, mahsulot yetkazib berish kabi munosabatlarni qamrab oladi.

Ta'kidlash lozimki, fuqarolik huquqi normalari har qanday mulkiy munosabatlarni ham tartibga solavermaydi. U faqat taraflar huquqiy jihatdan teng bo'lgan mulkiy munosabatlarni tartibga

soladi. Masalan, da'vogar va javobgar, kreditor va qarzdor, buyurtmachi va pudratchi kabi. Bu huquq tarmog'iga hokimiyat va bo'ysunish tarzidagi ma'muriy va moliya huquqlari uchun xos bo'lgan munosabatlar yotdir.

Fuqarolik huquqi huquq tarmoqlari tizimida eng yirigi bo'lib, u hajman yirik va kompleks xarakterdagi huquq tarmog'i hisoblanadi. Ayniqsa, bozor munosabatlarining rivojlanishi, turli mulk shakllarining vujudga kelishi munosabati bilan uning ob'yekti yana ham kengaymoqda. Shu bois mazkur huquq tarmog'i quyidagi qator huquq tarmoqchalarini o'z ichiga oladi: meros huquqi, mualliflik huquqi, turar joy huquqi, patent huquqi va boshqalar. Fuqarolik huquqining bosh normativ akti O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksidir. Bundan tashqari, ushbu huquq tarmog'i ichiga kiradigan ba'zi huquq tarmoqchalari normalari ham kodekslashtirilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksi, Uy-joy kodeksi.

Mazkur huquq tarmog'i tartibga soladigan munosabatlar mazmuni uchun taraflarning tengligi xosdir. Shu bois fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish usuli dispozitiv xarakterga ega. Ya'ni qonunda belgilangan qoidalar doirasida shartnomada munosabat ishtirokchilarining muayyan xatti-harakat variantlarini mustahkamlash va ularga asoslanib, ish yuritish huquqining mavjudligidir.

Oila huquqi, huquq tarmog'i sifatida fuqarolik huquqiga bog'liq va unga yaqin. Oila - nikoh munosabatlari sohasidagi mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi, Uning normalari nikoh tuzish hamda uni bekor qilish, er-xotinlar, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni, farzandlikka olish, vasiylik va homiylikka oid munosabatlarni, oila a'zolarining mulkiy ahvoliga, ularning o'zaro huquq va majburiyatlariga doir masalalarni tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi oila huquqining asosiy normativ hujjati hisoblanadi. Bu huquq tarmog'ining tartibga solish usuli taraflarning tengligiga asoslanadi va dispozitiv xarakterga ega bo'ladi.

Jinoyat huquqi yordamida davlat qanday ijtimoiy xavfli xatti-harakat jinoyat hisoblanishi va ular uchun qanday jazo tayinlanishini belgilaydi. Jinoyat huquqi jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan mutasaddi davlat organining vakolatlarini, jinoyatchilarni jinoiy

javobgarlikka tortish asoslari va shartlarini, ularga nisbatan davlatning qoralov siyosati prinsiplarini, konkret jinoyatlar tarkibini va ularga belgilanadigan jazolar tizimi hamda turlarini, aybning shakl turlarini o'z normalarida mustahkamlaydi.

Jinoyat huquqining bosh normativ akti O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksidir. Bu huquq tarmog'ining ijtimoiy munosabatlarga ta'sir o'tkazish usuli jamiyat uchun xavfli munosabatlarni qat'iy man etishdan iborat.

Jinoyat ijroiya huquqi - mahkumlarning huquqiy holati, jazolarni va boshqa jinoiy -huquqiy ta'sir choralarini ijro etuvchi muassasalar, organlar tizimi, ularning faoliyatini tekshirish va nazorat etish, har xil jazo turlarini ijro etish tartibiga doir normalarni o'z ichiga oladi.

Mazkur huquq tarmog'ining usuli - tarbiyalash va rag'batlantirish jarayonlarini hokimiyat va bo'ysunish usuli bilan qo'shib olib borishga asoslangan. Asosiy huquq normalari O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksida jamlangan.

Jinoyat protsessual huquqi - protsessual huquq tarmoqlaridan bo'lib, u jinoyat ishlarini ochish, sudda ko'rish bo'yicha sud, prokuratura va surishtiruv hamda dastlabki tergov organlarining faoliyatini, shu faoliyat shakllarini tartibga soluvchi normalarni o'z ichiga oladi; Jinoyat - protsessual huquqi jinoyat jarayonining ishtirokchilari bo'lmish gumondor, ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, jabrlanuvchi, ekspert, ayblov va himoya vakillarining protsessual huquq hamda majburiyatlarini, ularning huquqiy holatini belgilaydi. Huquq tarmog'ining bosh normativ akti - O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi. Bu huquq tarmog'i ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ham imperativ, ham taraflar tengligiga asoslangan usullardan foydalanadi.

Fuqarolik protsessual huquqi fuqarolik, oila, mehnat, yer va moliyaviy sohalarda vujudga keladigan nizolarni qarab chiqish yuzasidan sud faoliyatini tartibga soladi. Fuqarolik protsessual huquqi jarayoni ishtirokchilarining huquqiy holati, ularning huquq va majburiyatlari ham ushbu huquq tarmogi normalari bilan belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi huquq tarmog'ining asosiy normativ hujjati hisoblanadi.

Fuqarolik protsessual huquqiga juda yaqin turadigan huquq

tarmog'i - xo'jalik protsessual huquqi bo'lib, u xo'jalik sudlari tomonidan sudda mulkchilikning turli shakllariga mansub xo'jalik sub'yektlari va ular bilan fuqarolar hamda tadbirkorlar o'rtasida vujudga keladigan xo'jalik nizolarini ko'radi.

Yuqoridagilardan tashqari, O'zbekiston huquqida majmuaviy xarakterga ega bo'lgan tarmoqlar, jumladan, xo'jalik huquqi, ekologiya huquqi, savdo va tadbirkorlik huquqlari ham shakllangan. Mamlakatimizdagi asosiy huquq tarmoqlari shulardan iborat.

Xalqaro huquq - xalqaro, eng avvalo, davlatlararo munosabatlarni tartibga soladi. Shu sababli u bironta ham davlatning milliy huquq tizimiga kirmaydi. Xalqaro huquqda uning sub'yektlarining jamoaviy irodasi mustahkamlangan va mujassamlashgan. Turli xalqaro shartnomalar, bitimlar, kelishuvlar, konvensiyalar, deklaratsiyalar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining hujjatlari ushbu huquqning normativ bazasi hisoblanadi. Bu hujjatlarda xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi norma va tamoyillarning yaxlit, mukammal tizimi o'z ifodasini topgan bo'lib, ular xalqaro huquq sub'yektlari hisoblanish davlatlarning o'zaro huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

Hozirgi zamon xalqaro huquqi ommaviy va xususiy xalqaro huquqqa bo'linadi. Xalqaro xususiy huquq turli davlatlar fuqarolari hamda tashkilotlari o'rtasidagi mulkiy va boshqa munosabatlarni, ularning huquqiy holatini, yurisdiksiyasini, yashab turgan davlat qonunchiligini qo'llash tartibi va shartlariga doir munosabatlarni tartibga soladi.

Davlatlar, xalqlar va xalqaro hukumatlararo tashkilotlar xalqaro huquqning sub'yektlari hisoblanadi.

XV bob. HUQUQNI TATBIQ ETISH VA QO'LLASH

1-§. Huquqni tatbiq etish

Huquq normalari hayotga tatbiq etilsagina, u mazmun kasb etadi va jamiyat uchun ahamiyatga ega bo'ladi. Agarda huquq tatbiq etilmas ekan, oxir-oqibatda u o'zining mohiyatini butunlay yo'qotadi. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning samarasi ko'p jihatdan huquq normalarini to'g'ri tatbiq etishga bog'liq.

Darhaqiqat, mavjud huquq normalarini amalda qo'llamasdan turib, davlat ijtimoiy munosabatlarni o'z maqsadi yo'lida tartibga sololmaydi. Eng umumiy va keng ma'noda olganda, huquq normalarini tatbiq etish - huquqiy normalar yordamida ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etishdir.

Huquq normalarining asosiy vazifasi shundan iboratki, ular huquqiy munosabat sub'yektlari huquqlarining mazmunini belgilashga va shu bilan birga huquqning tatbiq etilishiga yordam beradi.

Huquqni tatbiq etish - davlat tomonidan yuridik jihatdan mustahkamlangan va kafolatlangan imkoniyatlarning amalga oshirishi hamda ularni kishilar va ularning tashkilotlari faoliyatida hayotga tatbiq etishdir.

Ba'zi yuridik adabiyotlarda «huquqni tatbiq etish», «huquqiy normalarni tatbiq etish», «huquqiy normani amalga oshirish», «huquqiy normani qo'llanish» kabi tushunchalar yuzasidan munozarali fikrlar mavjud.

Ko'pchilik nazariyotchi olimlarning fikrlaricha, huquqiy normalarni tatbiq etish - huquqiy normalarni amalga oshirish demakdir.

«Tatbiq etish» ma'nosini bildiradigan «realizatsiya» atamasi lotinchadan olingan bo'lib, «realis»- moddiy yoki moddiylashtirish degan ma'noni anglatadi. Hozirgi kunda bu so'z ko'proq u yoki bu rejani, dastur va loyihalarni, maqsadlar va hokazolarni hayotda amalga oshirish yoki ularni tatbiq etish ma'nosida qo'llaniladi. «Huquqni tatbiq etish» atamasi yuqoridagi mazmunga mos keladi. Darhaqiqat, huquq nomoddiy ko'rinishga ega bo'lsa ham, u kishilarning faoliyatlarida, faol xulqi va yurish-turishlarida, ularning moddiy va ma'naviy qadriyatlardan foydalanganlarida tatbiq etilib moddiylashadi.

Huquqni tatbiq etish murakkab jarayon bo'lib, u ma'lum mud-dat mobaynida amalga oshiriladi. Bu jarayonda nafaqat sub'yektiv huquq va majburiyatlar egalari (shaxslar), balki davlat ham o'zining organlari, ya'ni huquqni ijod qiluvchi, huquqni ijro qiluvchi, huquqni qo'llovchi organlari orqali ishtirok etadi.

Huquqni tatbiq etish jarayoni huquqni tatbiq etish shakllarini va uni amalga oshirishning yuridik mexanizmini o'z ichiga oladi.

Ko'pgina yuridik adabiyotlarda huquqni tatbiq etishning shakllari turlicha ko'rinishlarda bo'lib, ularni umumlashtirgan holda quyidagicha tasniflash mumkin.

Huquqni tatbiq etishning, normativ hujjatlarda ko'rsatilgan qoidalarni qo'llanish darajasiga ko'ra, uch xil shaklini ko'rsatish mumkin:

a) huquqiy faoliyat amalga oshiriladigan umumiy vazifalari va tamoyillar o'z ifodasini topgan qonunlar hamda moddalarning muqaddimalarida ko'zda tutilgan umumiy ko'rsatmalarni tatbiq etish;

b) huquq sub'yektlarining huquqiy maqomini hamda vakolatlar doirasini o'rnatuvchi umumiy normalarni tatbiq etish;

v) muayyan huquqiy munosabatlarda tegishli huquqiy normalarni tatbiq etish.

Huquqni tatbiq etish sub'yektlariga ko'ra uning quyidagi ikki shaklini ko'rsatish mumkin: *individual* va *jamoat tomonidan tatbiq etish*. Huquq normalarining amalda qo'llanishi uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari va fuqarolarning ma'lum darajadagi amaliy faoliyati talab qilinadi. Huquq normalari kishilarning muayyan munosabatlariga nisbatan tatbiq qilinadi va shunga ko'ra konkret huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi yoki to'xtatilishi sodir bo'ladi.

Huquqni tatbiq etuvchi sub'yektlar faoliyati xarakteriga ko'ra, huquqni tatbiq etishning to'rt xil shaklini ko'rsatish mumkin - huquq normasiga rioya qilish, huquq normasini bajarish, huquq normasidan foydalanish va huquq normasini qo'llash:

a) *huquq normalariga rioya qilish* - huquq normalarida belgilangan majburiyatlarni bajarish va huquq normalari man etgan harakatlarni sodir etmaslikdan iborat;

b) *huquq normalarini bajarish* - odatda, hayotga tatbiq etish bilan bog'liq bo'lgan majburiyat yuklovchi qonunlarni faol (aktiv)

harakatlar bilan bajarish;

v) *huquq normalaridan foydalanish* - huquq normalari orqali tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar qatnashchilarining tegishli normalarda nazarda tutilgan huquqlaridan foydalanishi;

g) *huquq normalarini qo'llash* - ma'lum yuridik ishlar bo'yicha yuridik faktlar yoki muayyan huquq normalariga asoslanib, vakolatli organlar yoki mansabdor shaxslar tomonidan individual qarorni tayyorlash va uni qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan hokimiyat faoliyatidir.

Huquqni tatbiq etishning yuridik mexanizmi turli xil bo'lib, uning mazmuni mamlakatning huquqiy tizimi xususiyatlari bilan belgilanadi.

2-§. Huquqni qo'llash

Huquqni tatbiq etish jarayoni odatda davlat va uning organlari ishtirokisiz sodir bo'ladi. Fuqarolar va tashkilotlar huquqiy munosabatlarga ixtiyoriy, majburlov kuchisiz va o'zaro kelishuvga asosan kirishadilar va shu munosabatlar orqali o'zlarining sub'yektiv huquqlaridan foydalanadilar, o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarini bajaredilar hamda qonun bilan o'rnatilgan normalarga rioya qiladilar. Shu bilan birga ba'zi hoilarda huquqni tatbiq etish uchun davlatning aralashuvi zaruriyati tug'iladi, chunki busiz huquqni amalga oshirish mumkin bo'lmay qoladi.

Bir qator huquqiy munosabatlar davlat va davlat organlarining bevosita ishtiroki bilan belgilanadi. Masalan, armiya safiga chaqirish, fuqarolarning nafaqa olish huquqini amalga oshirish, sodir qilingan huquqbuzarlik uchun tegishli ta'sir choralarini belgilash kabi faoliyat bo'yicha tegishli davlat organlarining bu masalalar bo'yicha huquqni tatbiq etishga qaratilgan qarori zarur bo'ladi.

Umuman olganda, davlatning huquqni qo'llash borasidagi faoliyati jamiyat manfaatlaridan kelib chiqadi va qonunga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Huquqni qo'llash - ma'lum yuridik ishlar bo'yicha yuridik faktlar yoki muayyan huquq normalariga asoslanib, vakolatli davlat organlari yoki mansabdor shaxslar tomonidan individual qarorni tayyorlash va uni qabul qilish bilan bog'liq, bo'lgan hokimlik faoliyatidir.

Huquqni qo'llashning quyidagi belgilari mavjud:

huquq normasini qo'llash vakolatiga ega bo'lgan organlar yoki

mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladi;
individual xarakterga ega;
muayyan huquqiy oqibatlarni-sub'yektiv huquq, majburiyatlar, javobgarliklarni o'rnatishga yo'naltirilgan;
maxsus belgilangan protsessual shakllarda amalga oshiriladi;
individual harakatga ega bo'lgan yuridik qaror chiqarish bilan yakunlanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, huquqiy normalarni qo'llash davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat tashkilotlari va fuqarolar tomonidan amalga oshiriladi.

3-§. Huquqni qo'llash bosqichlari

Huquq normalarini qo'llash - murakkab jarayon bo'lib, u o'z ichiga quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

- huquq normasi bilan tartibga solinishi lozim bo'lgan yuridik ishning faktik tomonini o'rganish va o'rnatish;
- ko'rilyotgan yuridik ishga mos keladigan huquq normasini topish, uni tahlil qilish va tatbiq etish;
- ko'rilyotgan yuridik ish bo'yicha yuridik kuchga ega bo'lgan tegishli qaror, ya'ni huquqni qo'llash aktini chiqarish.

Bu bosqichlarda amalga oshiriladigan harakatlarning hammasi qonunchilik talablari asosida vakolatli davlat organlari, mansabdor shaxslar yoki jamoat tashkilotlari tomonidan, ularning vakolatlari doirasida olib borilishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan huquq normalarini qo'llash bosqichlarini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

1. Ko'rilyotgan yuridik ishga nisbatan huquq normasini qo'llashni talab etuvchi holatning faktik tomonini o'rganish va o'rnatish uchun dastlab huquq normasi qo'llanilyotgan ish yuridik ahamiyatga egami, shu masalani hal etishda huquq normasini qo'llamasdan ham (masalan, ijtimoiy normalar: axloq yoki odob normalari asosida) hal etish mumkinmi degan masalani ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Bu masalani echish uchun amaldaga qonunlar bilan yaxshi tanish bo'lish talab etiladi.

Agar ko'rilyotgan ish yuridik xarakterga ega bo'lsa, uning faktik holatlari sodir qilinganda, masalan, jinoyatni sodir qilgan shaxs, jinoyat sodir etilgan vaqt, joy va uning qanday usulda

amalga oshirilganligi, jinoyat tufayli kelib chiqqan oqibatlar, ayblilik darajasi (xarakteri - qasddan yoki ehtiyotsizlikdan) va boshqa holatlar; fuqarolik huquqiy nizolar kelib chiqqanida bitim tuzish holatlari, uning mazmuni, bu bitimni bajarishga qaratilgan harakatlar, tomonlarning o'zaro da'volari kabi holatlar huquq normalarini qo'llash zarur bo'lgan yuridik ishning faktik holatlari bo'lib hisoblanadi.

Odatda faktik holatlar o'tmishda ro'y bergan bo'ladi, shuning uchun huquqni qo'llovchi bu holatlarni bevosita o'zi kuzata olmaydi. Bu faktik holatlar o'tmishda ro'y bergan holatlarni o'zida ifoda (aks) ettirgan moddiy va nomoddiy dalillar (guvohlarning ko'rgazmalari, ekspert xulosalari, voqea sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomalari va boshqalar) yordamida aniqlanadi.

2. Huquq normalarini qo'llashning ikkinchi bosqichi - ko'rilayotgan ishga mos keladigan huquq normasini tanlash va tahlil qilishdir. Agar ishning birinchi bosqichida ko'rilayotgan ish yuridik xarakterga ega bo'lgan huquq normalarini talab etadi degan xulosaga kelinadigan bo'lsa, shu ishni olib borayotgan shaxs, barcha huquq normalari orasidan mazkur ishga mos keladigan tegishli huquq normasini tanlab olishi va shu ko'rilayotgan ishda uni qo'llashi lozim. Buning uchun esa, u avvalo, mazkur norma matnining haqiqiy ekanligiga, bu norma o'zgarishsiz va o'z kuchini yo'qotmasdan hozirgi kunda ham amal qilish kuchiga ega ekanligiga to'la ishongan bo'lishi kerak.

Aniqlangan faktik holatlarni yuridik baholashning mohiyati, ya'ni ularni yuridik kvalifikatsiya qilish shuni anglatadiki, bunda ko'rilayotgan hodisalarni tartibga solish uchun aynan zarur bo'lgan huquq normasini izlab topish va tanlash lozim bo'ladi.

Ko'rilayotgan ish bo'yicha faktik holatlar va yuridik faktlar aniqlanganidan keyin, qo'llanishi ko'zda tutilgan huquq normasining gipotezasiga ushbu holatlarning mos kelishi yoki kelmasligi o'rganiladi va taqqoslash asosida bu ish yuridik baholanadi (kvalifikatsiya qilinadi).

Amaldagi qonunchilik ko'rilayotgan ishni hal qilishda shu kunda kuchda bo'lgan huquq normalari asosida ish olib borish va aynan shu normalar asosida qarorga kelish lozimligani talab qiladi.

3. Huquq normasini qo'llashning uchinchi bosqichi huquqni qo'llaydigan organ va tashkilot tomonidan, shuningdek huquqni

qo'lovchi mansabdor shaxs tomonidan qaror qabul qilinishi yoki huquq normasini qo'llanish aktlarini chiqarishdir. Bu aktda huquq normasi sharhlangan mazmunga moslashtirilgan aniq ish, fakt va munosabatning hal etilishi o'z ifodasini topgan bo'ladi. Ko'rilayotgan ish bo'yicha qaror chiqarish vaqtida, bu qarorning qo'llanilayotgan huquq normasining dispozitsiyasi yoki sanksiyasi talablariga mos kelish-kelmasligiga e'tiborni qaratish lozim.

Ish bo'yicha qaror qabul qilishning quyidagi ikki jihatini ko'rish mumkin:

Birinchidan, bu *aqliy faoliyat* bo'lib, u o'z ichiga ish bo'yicha to'plangan dalillarni baholash asosida bo'lib o'tgan hodisa (voqea) to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishni, uni yuridik baholash (kvalifikatsiya)ni, tomonlar yoki aybdor uchun yuridik oqibatlarini, tomonlarning huquq va majburiyatlarini, aybdorning javobgarlik darajasini belgilashni va hokazoni o'z ichiga qamrab oladi.

Ikkinchidan, bu ish bo'yicha qabul qilingan hujjat - huquqni qo'llanish aktini chiqarishni nazarda tutadi. Bu aktda yuridik ishni hal etish bilan bog'liq bo'lgan aqliy faoliyatning natijasi o'z ifodasini topib, unda konkret shaxs uchun yuridik oqibat kelib chiqish masalasi rasman o'z aksini topadi.

4-§. Huquqni qo'llash aktlari

Huquqni qo'llash aktlari - konkret shaxs (shaxslar)ning huquqlarini, majburiyatlarini yoki ularning yuridik javobgarlik darajasini belgilovchi, yuridik faktlar va huquq normalariga asoslanib vakolatli organ yoki mansabdor shaxs tomonidan chiqariladigan huquqiy aktdir.

Huquqni qo'llash aktlari quyidagi bir qator xususiyatlarga ega:

1) ular vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan chiqariladi. Bundan esa huquqni qo'llash aktlarining davlat-hokimiyat xarakteriga ega ekanligi kelib chiqadi;

2) bu aktlar qat'iy - individuallashtirilgan bo'lib, ular konkret shaxslar va hodisalarga qaratilgan bo'ladi;

3) bu aktlarning bajarilishi davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlanadi;

4) huquqni qo'llash aktlari bir marta qo'llaniladi, shuning bilan u o'z kuchini yo'qotadi.

Huquqni qo'llash aktlari xilma-xil bo'lib, ularni bir necha mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin.

Huquqni qo'llash aktlarining turlari

№	Mezonlar	Turlari	Misollar
1	Sub'ektlarga ko'ra	davlat hokmiyati organlari aktlari	Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qarorlar, Prezident Farmonlari
		davlat boshqaruvi organlari aktlari	vazirliklar, davlat qo'mitalari, hokimliklar qarorlari, farmoyishlari va hokazo
		sud organlari aktlari	sud qarorlari, ajrim va hukmlari
		nazorat organlari aktlari	soliq inspeksiyasi, prokuratura va hokazo aktlari
		mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari aktlari	fuqarolar yig'inlari qarorlari
2.	Huquqiy ta'sir etish xarakteriga ko'ra	regulyativ (tartibga soluvchi) qo'riqllovchi	
3.	Ahamiyatiga ko'ra	Asosiy, yordamchi	
4.	Ifoda etish shakliga ko'ra	rasmiy hujjatlar ustiga yozilgan ko'rsatma (rezolyutsiya) og'zaki	

Huquqni qo'llash aktlari qabul qilinganda asoslantirilganlik, qonuniylik va maqsadga muvofiqlilik talablariga amal qilinishi lozim.

- **asoslantirilganlik talablari** deganda ko'rilayotgan yuridik ishga tegishli bo'lgan barcha holatlar har tomonlama o'rganib chiqilgan va dalillar asosida isbotlangan bo'lishi tushuniladi;

- **qonuniylik talablari** o'z ichiga to'rtta muhim jihatni oladi, bularga: 1) ishni ko'rayotgan vakolatli organ yoki mansabdor shaxs taalluqlilik, sudlovlik va boshqa shu kabi talablarga amal qilishi; 2) ish bo'yicha tegishli dalillarni to'plash, ishni ko'rish tartibini belgilovchi protsessual normalarga qat'iy amal qilish; 3) aniq yuridik

faktga nisbatan tegishli normani to'g'ri yuridik kvalifikatsiya qilish va uni qo'llash; 4) ish bo'yicha qaror qabul qilish paytida qo'llanilayotgan huquq normasining dispozitsiya (sanksiya)sida ko'zda tutilgan ko'rsatmalarga qat'iy rioya qilish.

• **maqsadga muvofiqlilik** talablari quyidagilarni ko'zda tutadi. Odatda huquq normasining dispozitsiya (sanksiya)sidagi ko'rsatmalar huquqni qo'llovchi uchun qaror qabul qilishda muayyan tanlash erkinligini tug'diradi. Lekin bu erkinlik maqsadga muvofiqlilik talablari bilan, ya'ni adolatlilik, samaradorlik, tomonlarning moddiy ahvolini e'tiborga olish, javobgarlikni taqsimlash va hokazo tamoyillarga ko'ra chegaralanadi. Masalan, sud jinoyat qonunchiligi bo'yicha sanksiyada ko'rsatilgan jazo choralari tanlayotgan paytda qilingan jinoiy qilmishning og'irligini, sudlanuvchining ayblilik darajasini, javobgarlikni og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarni e'tiborga olishi lozim bo'ladi.

Demak, huquq normalarini qo'llash aktlari qonunchilikning talablarini o'zida aks ettirishi va normativ aktlarga mos keladigan bo'lishi, muayyan organning yoki mansabdor shaxsning bevosita faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha chiqarilishi, ilmiy asoslanishi va bu aktga rasmiy tus beradigan zarur rekvizitlarga ega bo'lishi zarur.

1-§. Huquq normalarini sharhlash tushunchasi

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda tub o'zgarishlar o'tkazish, huquqiy demokratik davlat qurish davriga kirdi. O'zgarib borayotgan shart-sharoitlarni hisobga olib, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi va shu asosda huquqiy islohot o'tkazilib, ko'pgina yangi qonunlar qabul qilinmoqda. Bu hakda respublika Prezidenti I.A.Karimov shunday deydi: «Qabul qilingan bu muhim qonunlar milliy davlatchilikni barpo etishga, erkin bozor iqtisodiyotini rivojlantirishga, jahon hamjamiyatidagi mamlakatlar bilan faol hamkorlik qilishga qaratilgandir»¹.

Bu qonun va boshqa normativ-huquqiy aktlarni, har bir normani hayotda to'g'ri tatbiq qilish, qo'llash, ya'ni ular bilan jamiyatda, kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish muhimdir. Buning uchun har bir tatbiq etiladigan huquqiy norma ning mohiyati va mazmunini to'g'ri tushunib, anglab olish va sharhlash juda katta ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Huquqiy normalar hayotda to'g'ri qo'llanib, ular orqali davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar o'rtasida turli ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi. Shuning uchun huquqiy normani hayotda tatbiq etishda shu huquqiy norma bilan hal qilinadigan ishni har tarafлама o'rganish va ishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish kerak. So'ngra, fuqarolar va yuridik shaxslar o'rtasidagi tegishli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy normalarni sharhlash lozim.

Huquqiy normalarning mazmunini to'g'ri anglab olish va ularni sharhlash, sodir bo'lgan ijtimoiy munosabatlarga ularni tatbiq etishdan oldin, uning ma'nosi va mazmunini to'g'ri anglash muhimdir.

Qonun va boshqa huquqiy aktlar matnidagi so'z va iboralarni grammatik, mantiqiy va yuridik jihatdan talqin etish, tushunib olish muhimdir. Bunda tatbiq etilayotgan huquqiy norma ning, har bir moddaning ta'sir qilish doirasini belgilash, bular bilan tegishli munosabatlarni tartibga solish uchun siyosiy va yuridik malaka talab qilinadi. Amaliyotda huquqiy normalar qo'llanib hal qilinadigan ishlar

¹ Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafoliati. Toshkent, «O'zbekiston», 1993 y., 3-bet.

sud, prokuratura, tergov va surishtiruv organlari tomonidan ko'rilayotganda, yo'l qo'yiladigan xatolarning ko'pchiligi - huquqiy normalarni noto'g'ri tatbiq etish va sharhlash natijasi bo'lib chiqadi. Shu bois, hayotda tatbiq etiladigan huquqiy normalar bilan tegishli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun birinchi navbatda bu huquqiy normaning ma'nosi va mazmunini aniqlash nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy normalarni sharhlash masalasi quyidagi uchta muhim masalani o'z ichiga oladi: 1) tatbiq etiladigan huquqiy normalarni sharhlovchi sub'yektlarni aniqlash (bular - davlat organlari - davlat hokimiyatining oliy va mahalliy vakillik organlari, ijro etuvchi organlar - Prezident, Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlari, turli vazirliklar va davlat qo'mitalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar - sud, prokuratura, adliya, ichki ishlar idoralari va boshqalar, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar); 2) tatbiq qilinadigan huquqiy normalarning mazmunini aniqlash uchun mantiqiy, grammatik, tarixiy va sistematik usullar qo'llaniladi; 3) tatbiq etilayotgan normalarning hajmi bo'yicha va yuridik kuchiga qarab sharhlash.

Huquqiy normalarni sharhlash ilmiy tomondan ishlab chiqilgan va hayotda sinab ko'rilgan bir qator maxsus usullar orqali amalga oshiriladi. Bu usullar huquqiy normalarning ma'nosi va mazmunini ochishga yordam beradi.

Huquqiy normalarning mazmunini aniqlash uchun quyidagi usullar ishlatiladi: grammatik usul, mantiqiy usul, tarixiy-siyosiy usul va sistematik usul. Bu usullar orqali huquqiy normalarning barcha xususiyatlari aniqlanadi: a) huquqiy normaning turlari va uning mazmuni; b) huquqiy normaning yozilgan tili; v) huquqiy normaning huquq tizimida tutgan o'rni va hokazo.

Grammatik usulda qo'llaniladigan huquqiy norma mazmuni uning matni grammatik - filologiya, til qoidalariga asosan tahlil qilib beriladi. Huquqiy norma matnidagi so'z va iboralarning, masalan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksidagi «yomon oqibatlar», «ig'vo qilish», «jinoyat tarkibi» va boshqalarning mazmuni aniqlanadi. Bunda huquq normasi matnidagi har bir so'z va jumlaning mazmuni grammatik jihatdan to'g'ri va noto'g'riligi tahlil qilinadi. Grammatik usulda tatbiq qilinadigan huquqiy norma

turli joylarda uchraydigan so'z va iboralarning to'g'riligiga, ularning o'xshashlik va bog'liqlik tomonlariga e'tibor berib, huquqiy normalarning mazmunini aniqlab, keyin ular sharhlanadi.

Mantiqiy usulda - tatbiq etiladigan huquqiy normalarning mazmuni mantiq fanining qonuniyatlariga asosan aniqlanadi. Bunda huquqiy normaning matnidagi ifodalar, tushunchalar bir-biri bilan ichki va uzviy mantiqiy jihatdan bog'langanligiga e'tibor berilib, huquqiy normaning mazmuni aniqlanadi. Masalan, O'zR FKning 15-moddasida «Ruhiiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni idora qila olmaydigan fuqaro sud tomonidan muomalaga layoqatsiz, deb topilishi mumkin», deyilgan. Demak, voyaga etgan fuqaro ruhiy kasal bo'lsa ham, to sud tomonidan «muomalaga layoqatsiz», deb qaror chiqarilib, tan olinguncha mantiqan muomalaga layoqatli, deb faraz qilinadi.

Tarixiy-siyosiy usulda tatbiq etilayotgan huquqiy normaning mazmuni qaysi tarixiy sharoitda, davlatning qaysi organi tomonidan, qanday maqsadda chiqarilganligi aniqlanadi. Masalan, 1926 yilda qabul qilingan O'zR JKda bezorilik to'g'risidagi moddada fuqarolar tomonidan korxonalarda, muassasalarda va jamoat joylarida bezorilik qilish xususidagi so'zlar bor edi. Hozirgi harakatdagi, 1994 yilda qabul qilingan O'zR JKning 227-moddasi 1-qismida bezorilik jinoyatiga quyidagicha ta'rif berilib, unda yuqoridagi so'zlar olib tashlangan: «Bezorilik, ya'ni jamoat joylarida tartib-qoidalarga qasddan hurmatsizlik bildirish, urish-do'pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o'zga-ning mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish jiddiy zarar yetkazish bilan bog'liq holda sodir etilsa - eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi».

Tarixiy-siyosiy usulda har bir huquqiy normaning qanday sharoitda, qanday maqsadda chiqarilganligiga e'tibor beriladi.

Bu usul tergov, prokuratura va sud organlarida huquqiy normalar bilan tegishli ishlarni ko'rib hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

Sistematik usulda - tatbiq etiladigan huquqiy normaning mazmunini boshqa huquqiy normalar bilan solishtirib, uning tegishli

huquq sohasi normalari tizimidagi o'rnini aniqlash kerak. Bu usulda tatbiq etilayotgan huquqiy normaning yangisi bilan almashtirilganligi, qo'llashda qoidadan istisno bor-yo'qligi aniqlanadi. Masalan, O'zR FKning 321-moddasida mulkni ijaraga oluvchi tomonidan yomonlashtirilgan holda yetkazilgan zararlarning ijaraga beruvchiga to'lanishi to'g'risida aytiladi. Zararning to'lanishi to'g'risida O'zR FKning 479-moddasida ham aytiladi. Bu yerda zarar yetkazilishi, shartnoma bo'yicha olingan majburiyatning buzilishi uchun bu moddalar bir-biri bilan solishtirilib, yetkazilgan zararning undirilishi masalasi o'zR FKning 479-moddasi bilan emas, balki 321-moddasi bilan hal etiladi.

Huquqiy normalarning mazmuni yuqoridagi usullar bilan sharhlanadi.

2-§. Huquq normalarini sharhlash turlari

Huquq normalarini sharhlash masalasi - huquqning mazmunini ochish, tushuntirish va huquqiy hujjatlar yuridik mohiyatini yoritishga qaratilgan faoliyatdir. Buni amalga oshirishda huquqiy normalarni sharhlovchi sub'yektlarning roli katta.

O'zbekiston Respublikasida huquqiy normalarni sharhlaydigan sub'yektlar quyidagilardan iborat: davlat hokimiyati vakillik organlari, davlat boshqaruv organlari, sud organlari, prokuratura va boshqa organlar, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar. Shu sub'yektlar huquqiy normalarni sharhlaganda ularning mazmunini to'g'ri tushunib, huquqiy normalarni qo'llab, turmushdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Huquq normalarini sharhlash ularni qo'llaydigan sub'yektiga qarab, ikki guruhga: rasmiy va norasmiy sharhlashga bo'linadi.

Rasmiy sharhlash - turmushda qo'llaniladigan huquqiy normalarni rasmiy sharhlash vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu sharh barcha sub'yektlar uchun majburiy bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida huquqiy normalarni sharhlash bilan o'z vakolati doirasida quyidagi davlat organlari shug'ullanadi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Prezident, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va Vazirlar Kengashi.

Rasmiy sharhlash **autentik, normativ** sharhlash tarzida

bo'ladi.

Normativ sharhlashda davlat hududida huquq normalarini bir xilda qo'llash maqsadida, qaysi davlat organi chiqargan bo'lsa, shu organning o'zi sharhlaydi. Bu sharhlashni yuridik adabiyotda autentik (muallif tomonidan sharhlash) deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasida autentik sharhlash huquqi Prezidentga, Vazirlar Mahkamasiga, vazirliklarga, davlat qo'mitalariga, xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlariga o'zlari chiqargan huquqiy hujjatlar bo'yicha berilgan. Bu sharhlashning vazifasi: O'zbekiston Respublikasining hududida huquqiy normalarni to'g'ri qo'llash uchun umummajburiylik kuchiga qarab, bir xilda sharhlashdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 3-qismiga asosan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi Konstitutsiya va qonun normalarini yuridik kuchiga qarab sharhlaydigan yagona organdir. Bu sharhlash rasmiy normativ bo'lib, barcha davlat organlari, korxonalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

Huquqiy normalarni kazual sharhlashda sud organlari har bir fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va boshqa ishlarni ko'rayotganda tegishli huquqiy normalar bilan bu ishlarni ko'rib, hal qilish chog'ida huquqiy normalarni sharhlaydi. Sudning har bir fuqarolik ishi bo'yicha chiqargan qarori yoki jinoiy ishlar bo'yicha chiqargan hukmi huquqiy normani kazual (kazu) sharhlash asosida amalga oshadi. Bu norasmiy sharhlashdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi qonunining 16-moddasi 4-bandiga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi sud amaliyotini umumlashtirib ko'rib chiqadi va qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha ularni sharhlab, dasturiy ko'rsatmalar beradi.

Huquq normalarini norasmiy sharhlashga shuningdek ilmiy sharhlash kiradi. Tatbiq etilayotgan huquqiy normalarni ilmiy sharhlash ilmiy xodimlar, olimlar, jamoat va davlat arboblari tomonidan darsliklarda, ma'ruzalarda, kitoblarda va ilmiy maqolalarda amalga oshirilishi mumkin.

Norasmiy ilmiy sharhlash natijalari davlat organlari, jamoat

birlashmalari, korxonalar, muassasa, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy bo'lmada, huquqiy normalarning mazmunini sharhlab, tushuntirib beradi. Bu sharhlar huquqiy normalarni amaliyot bilan bog'lab, kishilarning huquqiy ongini va huquqiy madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Norasmiy sharhlar qonunlarni takomillashtirishga, huquqni muhofaza etuvchi organlar faoliyatini yaxshilashga, qonunchilikni mustahkamlashga yordam beradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga, Fuqarolik kodeksiga, Mehnat kodeksiga va boshqa Kodekslariga sharhlar mavjud.

Huquq normalarini sharhlar hajmi bo'yicha uch xil bo'ladi:

1. So'zni tom ma'nosida sharhlar - bunda turmushga tatbiq etilayotgan huquqiy norma mazmunini yozilgan matniga qarab, hech narsa qo'shmasdan qo'llash tushuniladi. Bunga misol qilib O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-moddasini ko'rsatish mumkin. Unda shunday deyilgan: «O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganlikdan qat'iy nazar, hamma uchun tengdir». Shuningdek, huquqiy normalarni so'zning tom ma'nosida sharhlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22-moddasini keltirish mumkin. Bunda «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi», deb ko'rsatilgan.

2. Cheklangan sharhlar - bunda tatbiq etilayotgan huquqiy norma o'z matnida cheklanganligi belgilab qo'yiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida «Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar», deyilgan. Bu yerda ota-onalar o'z farzandlarini doimo boqish emas, balki voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar, deb cheklab qo'yilgan.

3. Keng ma'noda sharhlash - bunda qo'llaniladigan huquqiy normaning mazmuni uning yozilgan matniga nisbatan kengroq qilib sharhlanadi. Masalan: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasida «sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysunadilar», deyilgan. Buni kengroq qilib sharhlaydigan bo'lsak, sudlar o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi - oliy davlat vakillik organi tomonidan chiqarilgan qonunlar, davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i Prezidentning chiqargan Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va boshqa davlat organlari tomonidan chiqarilgan normativ huquqiy hujjatlarga amal qiladi. Yoki bo'lmasa, keng ma'noda huquqiy normalarni sharhlab tatbiq etishda O'zR JKning 55-56-moddalarini-jazoni yengillashtiruvchi va og'irlash-tiruvchi holatlarni olish mumkin. 55-moddada jazoni yengilla-shtiruvchi holatlarga quyidagilar kiritilgan: aybini bo'yniga olish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish, yetkazilgan zararni to'lash, og'ir shaxsiy va oilaviy sharoitlar oqibatida, majburlash yoki moddiy tomondan, xizmat jihatidan qaramlik sababli va boshqa bir qancha sabablar natijasida jinoyat sodir etish, voyaga yetmaganligi, homilador ayolli-gi sababli. 56-moddada jazoni og'irlashtiruvchi holatlarga quyida-gilar kiritilgan: homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan, yosh bola, qariya yoki ojiz ahvoldagi shaxsga nisbatan, aybdorga moddiy tomondan, xizmat jihatdan yoki boshqa jihatdan qaram bo'lsa jinoyat natijasida og'ir oqibatlar kelib chiqqan bo'lsa, umumiy ofat sharoitidan foydalangan holda yoki favqulodda holat vaqtida yoxud ommaviy tartibsizliklar jarayonida, mastlik holatida yoki giyohvandlik vositalari yordamida va boshqa holatlarda jinoyat sodir etilgan bo'lsa.

Sud har bir jinoyat ishini ko'rganda yuqoridagi jazoni yengil-lashtiradigan va og'irlashtiradigan holatlarni keng ma'noda sharh-laydi. Bu holatlar hamma jinoyatchilar uchun bir xilda qo'llanilmaydi. Har bir jinoyat ish bo'yicha jinoyatchining shaxsiga oid xarakteri hisobga olinadi.

O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan hozirgi davrda kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlar huquq normalari bilan tartibga solinadi. Bunda huquq normalarini sharhlash-avvalo turli usullar bilan ularning mazmunini aniqlash va huquqiy normalarning hajmi, yuridik kuchiga qarab sharhlash katta yordam beradi. Bu esa

aholining huquqiy normalarni yaxshiroq tushunib, ularga amal qilishlikka, huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishligiga olib keladi.

3-5. Huquq analogiyasi va qonun analogiyasi

Turmushda huquqiy normalar qo'llanib, tegishli ishlar hal qilinayotgan vaqtda, huquq va qonunlarimiz qanchalik mukammal bo'lmasin, ba'zan ular bilan ba'zi ishlarni hal qilib bo'lmaydi. Chunki hayot turli voqealarga boy bo'lib, turmush birlamchi, huquq lkkilamchidir. Bu holda huquqda bo'shliq paydo bo'ladi. Ana shunday vaqtda turmushdagi ijtimoiy munosabatlarni hal qilish huquq o'xshashligi - Analogiyasi prinsipi bilan tartibga solinadi.

Yuridik fanda huquq o'xshashligi va qonun o'xshashligi tushunchalari mavjud. Huquq analogiyasi - hayotda uchraydigan tegishli ijtimoiy munosabatlarni huquqning umumiy prinsiplariga asosan tartibga solishdir. Qonun analogiyasi esa tegishli ishlarni shu ishga o'xshash bo'lgan qonun bilan hal qilishdir. O'xshashlik bo'yicha huquqiy normalar juda kam hollarda qo'llaniladi. Faqat davlat, jamiyat va fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish uchun o'xshashlik qo'llaniladi.

O'zbekiston Respubllkasida jinoyat ishlarini ko'rish uchun amaldagi jinoyat qonunchiligiga asosan analogiyaga yo'l qo'yilmaydi.

Analogiya faqat fuqarolik ishlari bo'yicha qo'llanilishi mumkin. Bu haqda O'zR FKning 4-moddasida fuqarolik huquqlari va burchlari qonunlarda nazarda tutilgan asoslardan, shuningdek, fuqarolar va tashkilotlarning qonunda nazarda tutilmagan bo'lsada, lekin umumiy asoslari va fuqarolik qonunlarining mazmuni tufayli fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltiradigan harakatlar-dan kelib chiqadi, deb ko'rsatilgan. Xuddi shunday huquqiy norma O'zR FKning 2-moddasi 3-qismida berilib, unda shunday deyiladi:

«Nizoli munosabatni tartibga soladigan qonun bo'lmagan taqdirda, sud shu munosabatlarga o'xshash munosabatni tartibga soladigan qonunni tatbiq etadi, bunday qonun ham bo'lmagan taqdirda esa sud qonunlarning umumiy asoslari va ma'nosiga tayanadi».

Analogiya bo'yicha huquqiy normalarni qo'llash va hayotda

sodir bo'ladigan tegishli ishlarni hal qilishning majburiy shartlari quyidagicha:

1. Tegishli ijtimoiy munosabatlarni ko'rib, ishni hal qilayotganda, shu masalaga oid huquqiy normaning yo'qligi;

2. Paydo bo'lgan hodisani - ya'ni ijtimoiy munosabatlarni tegishli huquqiy tartibga solishni talab qilishligi;

3. Hayotdagi shu hodisaning yoki ijtimoiy munosabatlarning hal etilishi jamiyat, davlat va fuqaro manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan ob'yektiv zaruriyat ekanligi.

XVII bob. HUQUQIY XULQ-ATVOR. HUQUQBUZARLIK VA YURIDIK JAVOBGARLIK

1-§. Huquqiy xulq-atvor

Huquq - ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, rivojlantirib va qo'riqlab turuvchi muhim vosita. Shu bilan birga, bu munosabatlarining o'zi jamiyatda kishilarning xulqi, yurish-turishlari va hayotiy faollatlarining mahsulidir. Shunday ekan, huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vositasi sifatida kishilarning harakatlaridan kelib chiqadigan munosabatlarga ta'sir qiladi.

Jamiyatda kishilarning xulqi turli xil shakllardan iborat bo'lib, uni ifodalanishiga, samaradorligiga, motivlariga, maqsadlari va oqibatlariga qarab turlarga ajratish mumkin. Shu bilan birga, xulqning barcha ko'rinishlari jamiyatning tizimida ma'lum manfaatlarni, yo'nalishlarni, g'oyaviy tomonlarni belgilaydi. Aynan shuning uchun ham, har qanday xulq-atvor, axloq huquqiy baholashning ob'yekti bo'lib yuzaga chiqadi. Huquq nuqtai nazaridan kishining xulqi har xil baholanishi mumkin. Kishilarning ayrim munosabatlari huquqiy tartibga solishning doirasidan tash-qarida bo'lishi mumkin, shuning uchun ham bunday munosabatlar huquq bilan baholanmaydi va tartibga solinmaydi, ular faqat axloqiy jihatdan baholanadi va ijtimoiy normalar bilan tartibga solinadi (Masalan, sevgi, do'stlik munosabatlari yoki sportga, musiqaga, san'atga qiziqish va hokazo). Yuridik adabiyotlarda va amaliyotda huquq normalari bilan tartibga solinadigan, huquqiy ta'sir etish doirasidagi xulqqa ko'p e'tibor qaratiladi.

Huquqiy xulq-atvor huquq normalariga mos keladigan, yuridik oqibatlarni keltirib chiqaradigan, ijtimoiy foydali ahamiyatga ega bo'lgan, huquq sub'yektlarining ongli ravishdagi xulqidir.

Yuridik adabiyotlarda huquqiy xulq-atvor - ijtimoiy foydali, jamiyat va davlat tomonidan ijobiy baholanadigan, zarur va istalgan xulq sifatida xarakterlanadi. Mohiyatiga ko'ra huquqiy xulqning shakllari huquqni tatbiq etish shakllariga to'la mos keladi, ya'ni huquqiy xulq huquq qoidalarining tatbiq qilinishini ifoda etadi va ularning xarakteridan kelib chiqib, huquqqa amal qilish, uni bajarish, undan foydalanish va uni qo'llash kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Huquq qoidalariga amal qilish, yuridik majburiyatlarni bajarish,

berilgan huquqlardan foydalanish, maxsus sub'yektlar tomonidan huquqni qo'llash - bularning barchasi birgalikda huquqiy xulqning mohiyatini ifodalaydi.

Huquq nuqtai nazaridan xulq-atvor - *huquqqa mos keluvchi, yuridik betaraf va huquqqa zid keluvchi* bo'lishi mumkin.

Huquqiy xulq-atvor tuzilishiga ko'ra quyidagi to'rtta elementlar birligidan iborat: sub'yekt, ob'yekt, sub'yektiv tomon va ob'yektiv tomon.

Sub'yektlar bo'lib davlat tomonidan belgilangan tartibda tan olingan jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadi.

Ob'yektlar bo'lib moddiy dunyoning predmetlari, ijodiy faoliyat natijasi va sub'yektlarning xulqi hisoblanadi.

Ob'yektiv tomon huquqiy xulqning harakat yoki harakatsizlik shakllarida namoyon bo'ladi.

Sub'yektiv tomon huquqiy xulqning ichki tomonlarini ifodalab, u huquq sub'yektlarining mas'uliyatlilik darajasi bilan karakterlanadi.

Huquqiy xulqni bir qator asoslarga ko'ra tasniflash mumkin:

- 1) faol (aktiv) huquqiy xulq-atvor;
- 2) odatdagi huquqiy xulq-atvor;
- 3) sust (passiv) huquqiy xulq-atvor.


Faol (aktiv) huquqiy xulq-atvor - fuqarolarning, mansabdor shaxslarning tashabbusli, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan qonuniy faoliyatidir. Huquqiy faollikni namoyon etish shakllari xilma-xil bo'lib, bu faollik huquq sub'yektlarining o'z xizmat vazifalariga munosabatlarida, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining shakllanishida hamda ularning ishlarida ishtirok etishlarida, huquq ijodkorligi jarayonida qatnashishlarida, davlat tuzilmalari bilan hamkorlik qilishlarida va hokazolarda ko'rinadi.

Odatdagi huquqiy xulq-atvor - kishilarning kundalik hayotidagi huquq normalariga mos keladigan xulqi bo'lib, bu xulq doirasida fuqarolar o'zlarining huquqiy majburiyatlarinigina bajaradilar, u yoki bu ko'rinishdagi yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatlarni amalga oshiradilar.

Sust huquqiy xulq-atvor - fuqarolarning o'z huquq va erkinliklaridan atayin foydalanmaganligida namoyon bo'ladi. Bunga misol qilib, fuqarolarning saylovlarda ishtirok etmasligini ko'rsatish

mumkin.

Huquqiy xulqni huquq sub'yektlariga ko'ra fuqarolar, davlat organlari, jamoat tashkilotlari va hokazolarning xulqlariga ajratish mumkin. Huquqiy xulq o'zining barcha ko'rinishlarida shaxsning har tomonlama uyg'unlashuviga muhim turtki bo'ladi hamda uning ijodiy va intellektual mahorati hamda qobiliyatining o'sishiga, ma'naviy sifatlarining shakllanishiga yordam beradi.



2-§. Huquqbuzarlik tushunchasi va turlari

Huquqbuzarlik ijtimoiy ma'noda jamiyat, fuqarolar va jamoat birlashmalarining huquq va manfaatlariga xavf tug'dirishga qodir xulq bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishini qiyinlashtiradi va ularning buzilishiga sabab bo'ladi. Huquqbuzarlik qasd yoki ehtiyotsizlik ko'rinishida bo'ladigan, huquq qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida jamiyat, davlat va fuqarolar (shaxslar) manfaatlariga etkaziladigan moddiy va ma'naviy zarar yoki xavfli harakat va harakatsizlikdir.

Huquqbuzarlik - huquq va muomala layoqatiga ega sub'yekt tomonidan sodir etiladigan, huquq normalari talablariga zid keluvchi hamda shaxsga, mulkka, davlatga va butun jamiyatga zarar

keltiruvchi ijtimoiy xavfli qilmishdir.

Huquqbuzarlikning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

1) huquqbuzarlik jamiyat va shaxs uchun ijtimoiy xavfli xarakterga ega;

2) huquqbuzarlik huquqqa qarshi xarakterga ega;

3) huquqbuzarlik - aybli qilmishdir;

4) huquqbuzarlik faqat kishilar tomonidan sodir qilinadi;

5) huquqbuzarlik kishilarning erki va ongiga bog'liq bo'lgan holda, ular tomonidan ixtiyoriy amalga oshiriladi va hokazo.

Huquqbuzarlik yuridik fakt bo'lib hisoblanadi, u o'z navbatida qo'riqlovchi xarakterga ega bo'lgan huquqiy munosabatlarni yuzaga keltiradi. Huquqbuzarlikning tarkibi muayyan huquq normalarini sharhlashda, uning mazmunini ochib berishda hamda dunyoqarash nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga egadir. U o'z ichiga to'rtta unsurni qamrab oladi: *ob'yekt*, *sub'yekt*, *ob'yektiv tomon* va *sub'yektiv tomon*.

Huquqbuzarlikning ***ob'yekt*** deb huquq bilan tartibga solinadigan va qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatiarga aytiladi. Ob'yekt huquqiy normada aniq mustahkamlangan bo'ladi.

Huquqbuzarlikning ***ob'yektiv tomoni*** bo'lib shaxsning harakat va harakatsizligi oqibatida huquqning buzilishi hamda uning ijtimoiy xavfliigi hisoblanadi. Bu huquqqa qarshi qilmishning tashqi tomonini ifodalaydi. Aynan shu ifodalanish holatiga qarab, huquqbuzarlik to'g'risida, ya'ni u qanday sodir bo'lganligi va qay darajada zarar keltirganligi haqida fikr yuritish mumkin bo'ladi.

Ob'yektiv tomonning unsurlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- huquqqa qarshi qilmish;

- huquqqa qarshi zararli oqibat;

- huquqqa qarshi qilmish bilan zararli oqibat o'rtasidagi sababiy bog'liqlik;

- joyi, vaqti, usuli va muhit.

Huquqbuzarlikning ***sub'yekt*** bo'lib, huquqbuzarlikni sodir qilgan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Sub'yektlarning xususiyatlari huquqbuzarlikning turiga bog'liq bo'ladi. Masalan, jinoiy va ma'muriy huquqning sub'yektlari bo'lib faqat shaxslar hisoblanadi.

Huquqbuzarlikning ***sub'yektiv tomoni*** - shaxsning huquqqa

qarshi qaratilgan harakati yoki harakatsizligiga va ulardan kelib chiqadigan ijtimoiy xavfli qilmishga nisbatan psixik-ongli ko'rinish-degi munosabatidir. Huquqbuzarlik sub'yektiv tomonining zaruriy belgisi aybdir. Ayb-huquqbuzarning huquqqa xilof xatti-harakatiga va ularning ijtimoiy xavfli oqibatiga nisbatan *qasd* yoki *ehtiyotsizlik* shakildagi munosabatidir.

Qasd - shaxsning huquqqa xilof xatti-harakatini sodir qilayotgan paytida, bu harakatning huquqqa xilofligini, ijtimoiy xavfililigini, uning oqibatini anglash yoki tushunishidir (to'g'ri qasd) yoki bu xatti-harakatning ma'lum oqibatni keltirib chiqarishiga ongli ravishda yo'l qo'yishidir (egri qasd).

Ehtiyotsizlik - shaxsning hatti-harakatlari natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarning oldini olishni nazarda tutib, beparvolik bilan o'z-o'ziga ishonib harakat qilishidir.

Huquqbuzarlik xarakteri va ijtimoiy xavfililik darajasiga qarab ikki turga bo'linadi: ***jinoyat va nojo'ya ish***. *Jinoyat* - ijtimoiy xavfli xatti-harakat yoki harakatsizlikdir. U davlatning ijtimoiy tuzumiga, jamiyatning siyosiy va iqtisodiy tizimiga, mulkka, fuqarolarning huquq va erkinliklariga xavfli tahdid soluvchi qilmishdir. *Nojo'ya ish* huquqbuzarlikning ko'p tarqalgan ko'rinishi bo'lib, ijtimoiy xavfning yo'qligi bilan xarakterlanadi va jazo choralarining qo'llanishiga qarab *jinoyatdan* farq qiladi. *Nojo'ya ish*ning quyidagi turlari mavjud: fuqarolik-huquqiy, ma'muriy-huquqiy va intizomiy-huquqiy.

3-§. Yuridik javobgarlik tushunchasi, turlari va asoslari

Huquqshunoslik fanida yuridik javobgarlik masalasi yuzasidan turlicha fikrlar mavjud. Ko'pchilik mualliflar yuridik javobgarlikni ba'zan davlatning huquq talablarini bajarishga qaratilgan majburlov choralarini qo'llashi deb tushunsalar, boshqa ba'zi bir olimlar unga amaldagi yuridik kategoriyalar doirasida yondashib, yuridik javobgarlikni qo'riqlovchi huquqiy munosabatlar, maxsus yuridik majburiyatlar yoki huquq normalari sanksiyalari ko'rinishida talqin etishga intiladilar.

Yuridik javobgarlikning tabiati va mazmunini aniq belgilash uchun avvalo javobgarlikning o'zi nima degan savolga javob berish zarur. Javobgarlikni ikki ma'noda: *pozitiv* (ijobiy) javobgarlik va

*retrospektiv*¹ javobgarlik ma'nosida tushunish mumkin. Agar pozitiv (ijobiy) ma'nodagi javobgarlik mavjud hamda kelgusidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turishga qaratilgan bo'lsa, retrospektiv javobgarlik o'z navbatida o'tmishga qaratilgan bo'ladi, ya'ni u shaxsning yuridik majburiyatlarni bajarmasligi yoki huquqni buzganligi oqibatida yuzaga chiqadi. Jamiyatda javobgarlikning bu ikki turi o'zaro uzviy bog'liqdir. Pozitiv javobgarlik qancha yuqori darajada bo'lsa, huquq qoidalari ham shuncha mukammal bajariladi hamda retrospektiv javobgarlikka tortilish holatlari shuncha kam sodir bo'ladi.

Yuridik javobgarlik - huquqbuzarga nisbatan huquq normalarida ko'zga tutilgan sanksiyalar asosida davlatning majburlov choralari qo'llash bo'lib, bunda aybdor shaxs muayyan huquqlardan (shaxsiy, mulkiy, tashkiliy va hokazo) mahrum etiladi.

Yuridik javobgarlik quyidagi belgilari bilan xarakterlanadi:

- 1) yuridik javobgarlik davlat majburlov choralari bilan bog'liq;
- 2) yuridik javobgarlik huquqbuzarlik bilan bog'liq;
- 3) yuridik javobgarlik huquqbuzar uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi (ozodlikdan, ota-onalikdan mahrum bo'lish yoki sodir etilgan qilmishi uchun jarima to'lash va hokazo);
- 4) huquqbuzarga nisbatan qo'llaniladigan choralarning xarakteri va hajmi huquq normalarining sanksiyasida o'rnatilgan bo'ladi;
- 5) davlat tomonidan qo'llaniladigan majburlov choralari huquqni qo'llash faoliyati davomida tegishli vakolatli organlar tomonidan qonunda belgilangan tartibda va protsessual shakllarga amal qilgan holda olib boriladi.

Yuqoridagi xususiyatlari bilan yuridik javobgarlik siyosiy, axloqiy va boshqa javobgarliklardan farq qiladi.

Shaxsni javobgarlikka tortish masalasini hal etishda uning qilmishida huquqbuzarlikning tarkibi mavjudligiga ahamiyat berish hal qiluvchi rol o'ynaydi, ya'ni huquqqa qarshi qilmishning ob'yektiv va sub'yektiv tomonlarini hamda ob'yekt va sub'yektlarni birgalikda bog'lagan holda o'rganish masalaning mazmunini ochib berishga, uni konkretlashtirishga va individuallashtirishga yordam beradi. Huquq buzilishining turlariga muvofiq yuridik javobgarlik ham to'rt

¹ Retrospektiv - o'tmish, o'tmishga qaytish demakdir, yani sodir etilgan huquqqa xilof ish uchun javobgarlik.

turga bo'linadi: 1) jinoiy-huquqiy; 2) fuqarolik-huquqiy; 3) ma'muriy-huquqiy; 4) intizomiy-huquqiy javobgarlik.

Jinoiy-huquqiy javobgarlik fuqarolar tomonidan ijtimoiy va davlat tuzumiga, mulk shakllari, xo'jalik tizimi, shaxslar, fuqarolarning huquq va qonun bilan qo'riqdanadigan manfaatlariga va hokazolarga qarshi tajovuz qilinganda kelib chiqadi. Jinoyat kodeksida ko'zda tutilgan talablarni buzish jinoyat hisoblanadi va shu jinoiy harakat yo'ki harakatsizlikka nisbatan jinoiy javobgarlik belgilanadi. **Fuqarolik-huquqiy javobgarlik** fuqarolarning, shaxslarning mulkiy munosabatlari va bu munosabatlar bilan bog'liq mulkiy xarakterda bo'lmagan shaxsiy munosabatlarga zarar yetkazganlik holatlarida belgilanadi. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik Fuqarolik kodeksi, Yer kodeksi, Oila kodeksi, Mehnat kodeksi va boshqalarda nazarda tutilgan holatlarda qo'llaniladi.

Ma'muriy-huquqiy javobgarlik huquqiy munosabatlarning buzilishi bilan bog'liq bo'lib, ularga - boshqaruvning o'rnatilgan umumtartib qoidalarini bajarmaslik, masalan, yo'l harakati qoidalarini va jamoat tartibini buzish, tabiatni muhofaza etishga qarshi harakatlar va boshqalar kiradi.

Ma'muriy-huquqiy javobgarlik bo'yicha quyidagi jazo choralarini ko'rsatish mumkin: ogohlantirish; jarima solish; predmetni musodara qilish (agar u huquqni buzish quroli yoki ob'yekti bo'lsa); maxsus huquqlardan mahrum etish (ov qilish, transport vositalaridan foydalanish va hokazo); ma'muriy qamoq; axloq tuzatish ishlari va boshqalar.

Intizomiy-huquqiy javobgarlikning belgilanish holatlari Mehnat kodeksida, ichki mehnat tartibi qoidalarida hamda maxsus Nizomlarda nazarda tutiladi. Intizomiy - huquqiy javobgarlik mehnat va xizmat intizomini, harbiy va boshqa intizomni buzish bilan bog'liq bo'lib, ularga idoraning ichki tartib-qoidalarini buzish, ishga kech kelish yoki ishdan barvaqt ketish va shu kabi hollar kiradi.

Jinoiy va fuqarolik - huquqiy javobgarlikni belgilash faqat sud va xo'jalik sudlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ma'muriy va intizomiy-huquqiy javobgarlik ichki ishlar organlari, mansabdor shaxslar va tegishli vakolatga ega rahbar shaxslar (ma'muriyat) tomonidan amalga oshiriladi.

Yuridik javobgarlikni belgilashning asosiy maqsadi jazolash

emas, balki huquq umumiy maqsadlarining muayyan ifodasiga qaratilgan bo'lib, ular ijtimoiy munosabatlarning mustahkamlanishi, tartibga solinishi va himoyasida o'zining ifodasini topadi. Bu maqsadlar o'z navbatida huquqning tartibga soluvchi (regulyativ) va qo'riqlovchi funksiyalari amalda bo'lishini belgilaydi. Yuridik javobgarlikning asosiy funksiyasi qonuniylik va huquq-tartibotni muhofaza qilishdan iborat. Muayyan huquqbuzarga nisbatan javobgarlikning qo'llanishi birmuncha tor maqsadni, ya'ni aybdorni jazolashni ko'zlaydi. Bu bilan davlat o'zining majburlov choralarini amalga oshira turib, yana boshqa bir maqsadni ko'zda tutadi - bu maqsad kelajakda huquqbuzarlikni sodir etishning oldini olishga yoki bu haqda ogohlantirishga qaratilgan bo'ladi.

Bu maqsadlar o'z navbatida yuridik javobgarlikning funksiyalarini belgilab beradi. Ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun quyidagi tamoyillarga amal qilinadi: *qonuniylik; adolatparvarlik; maqsadga muvofiqlilik; huquq buzilgan holda javobgarlikning muqarrarligi; individuallik (jazoning faqat huquqbuzarga nisbatan qo'llanilishi).*

Qonuniylik. Bu tamoyilning mohiyati huquq qoidalari talablarining qat'iy va aniq tatbiqidan iborat bo'lib, yuridik javobgarlikka nisbatan bu talab, uni faqat vakolatli organlar tomonidan qonunda belgilangan asoslarda hamda o'rnatilgan tartibda amalga oshirilishidir.

Adolatparvarlik. Bu tamoyil aybdor bo'lmagan shaxslarning javobgarlikka tortilish hollariga yo'l qo'ymas-likni yoki sodir etilgan qilmishning isbotlanishi zarurligini talab etadi. Yuridik javobgarlikning adolatparvarlik tamoyili quyidagi rasmiy talablar tizimida o'z ifodasini topadi:

- nojo'ya qilmishlar uchun jinoiy javobgarlikka tortish mumkin emas;

- javobgarlikni belgilovchi va uni og'irlashtiruvchi qonun orqaga qaytish kuchiga ega emas;

- huquqning buzilishi natijasida keltirilgan zararni qoplash zarurati mavjud bo'lsa, yuridik javobgarlikni qo'llash orqali uning o'рни to'ldiriladi;

- har bir buzilgan huquq uchun faqat bitta javobgarlik belgilanadi;

- huquqbuzarlik kim tomonidan sodir etilgan bo'lsa, faqat shu **shaxs** javobgarlikka tortiladi;

- jazo turlari va choralari huquqbuzarlikning darajasiga (og'ir yoki yengilligi) bog'liq bo'ladi.

Huquq buzilgan taqirda javobgarlikning muqarrarligi. Yuridik javobgarlik huquqbuzarlik bilan uzluksiz bog'liq va bu bog'liqlikdan ushbu tamoyilning mohiyati kelib chiqadi, ya'ni sodir etilgan har qanday huquqbuzarlik uchun javobgarlikning qo'llanishi hamda uning muqarrarligi belgilanadi. Kishilarning ongida yuqoridagi bog'liqlikni, ya'ni har qanday huquqbuzarlikning jazosiz qolmasligi to'g'risidagi dunyoqarashni shakllantirish - huquqbuzarlikning darajasini kamaytirishga qaratilgan muhim omildir.

Maqsadga muvofiqlilik. Sodir etilgan qilmishga nisbatan javobgarlikning muqarrarligi bu tamoyilning ma'nosini anglatadi, chunki belgilanadigan javobgarlik maqsadga muvofiqdir. Yoki huquqbuzarni qonuniy asoslarsiz javobgarlikdan ozod qilishga yo'l qo'yilmaslik ham maqsadga muvofiqlilikdir va hokazo. Maqsadga muvofiqlilik talablari javobgarlikni tatbiq etishda qonuniylik talablariga zid kelmasligi kerak va, aksincha, maqsadga muvofiq emaslik nuqtai nazaridan qonun talablarini buzish mumkin emas.

Individuallik. Bu tamoyilga binoan sodir etilgan huquqbuzarlik uchun faqat aybdor shaxsning o'ziga nisbatan javobgarlik qo'llaniladi. Javobgarlikni aybdor sub'yektdan boshqa sub'yektga o'tkazishga yo'l qo'yilmasligi kerak. Masalan, ko'p hollarda rahbar xodimlarning mas'uliyatsizligi tufayli yo'l qo'yilgan huquqbuzarliklar uchun javobgarlik korxonaga yoki tashkilotlarning zimmasiga yuklatilishiga harakat qilinadi. Bu tamoyilni hayotga to'g'ri tatbiq etish uchun har bir xodimning funksional vazifalari va uning bu vazifalarni bajarmaslik oqibatida kelib chiqadigan javobgarlik choralari doirasi qonunchilik va boshqa normativ hujjatlarda o'z aksini (ifodasini) topishi zarur.

Yuridik javobgarlik huquq normalari qoidalariga binoan huquqni qo'llash organining qaroriga asoslanib yuzaga keladi va uning faktik asosi bo'lib huquqbuzarlik hisoblanadi.

Shu bilan birga, huquqbuzarlik o'z-o'zidan javobgarlikni keltirib chiqarmaydi yoki davlat majburlov choralari qo'llashni yuzaga keltirmaydi, balki bunday qo'llash uchun asos bo'ladi xolos. Real

yuridik javobgarlikni amalga oshirish uchun esa vakolatli organning huquqni qo'llash akti zarur bo'ladi. Bunday aktlar sudning qarori, ma'muriyat buyrug'i bo'lishi mumkin.

4-5. Aybsizlik prezumpsiyasi. Yuridik javobgarlik va qilmishning huquqqa xilofligini istisno qiluvchi holatlar

Aybsizlik prezumpsiyasi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berish majburiyatiga ega emas.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim. Qonun qo'llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak. Fuqaroning aybsizlik prezumpsiyasi - shaxsning huquq va erkinliklarini mustahkam kafolatidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (26-modda) aybsizlik prezumpsiyasi o'zining ifodasini topgan bo'lib, unda jumladan, shunday deyiladi: «Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi...»

Bu masala O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 23-moddasida ham o'zining yorqin ifodasini topgan.

Yuridik javobgarlik va qilmishning huquqqa xilofligini istisno qiluvchi holatlar mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

1) aqli norasolik (shaxs o'zining harakatlariga hisobot bera olmaydigan hollarda);

2) zaruriy mudofaa (shaxs, jamiyat, davlat manfaatlarini himoyasidan kelib chiqib, zarar yetkazuvchiga nisbatan zaruriy mudofaa doirasida qarshilik ko'rsatish yoki zarar yetkazish);

3) oxirgi zarurat (shaxs jamiyat, davlat manfaatlariga xavf tug'diradigan holatlarda, bu xavfning oldini olishga qaratilgan choralar doirasidagi harakatlar);

4) ijtimoiy xavflilik darajasi bo'lmagan huquqbuzarliklar sodir etilganda;

5) kazu (tasodiflar) va hokazo.

XVIII bob. HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MEXANIZMI

1-§. Huquqiy tartibga solish tushunchasi

Kishilik jamiyati o'zining muayyan darajada batartibli, tashkil-lashganligi va uyushganligi bilan tavsiflanadi. Turli-tuman ijtimoiy munosabatlarning majmui bo'lmish jamiyat keng ko'lamda normativ tartibga soluvchi vositalarga muhtojlik sezadi. Normativ tartibga solish zaruriyati ijtimoiy guruhlar ehtiyoj va manfaatlarining xilma-xilligi hamda ularni kelishtirish, muvofiqlashtirish lozimligidan kelib chiqadi.

Jamiyat o'z rivojlanishining butun mobaynida kishilar xulq-atvorini tartibga soluvchi, me'yorlovchi usul va vositalar tizimini shakllantiradi. Ijtimoiy tartibga soluvchi vositalar sirasida, avvalo, ijtimoiy normalar muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy normalar - axloq normalari, odat normalari, huquq normalari, an'analar, jamoat birlashmalarining normalari, diniy normalar kabi turlarga ajraladi. Ular turli ijtimoiy-siyosiy guruhlar hamda qatlamlar tomonidan vujudga keltiriladi. Xususan, davlat o'z funksiyalarini bajarish va maqsadlariga erishish uchun huquq normalarini yaratadi. Davlat huquq normalari yordamida ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga soladi.

Huquqiy tartibga solish ehtiyoji ob'yektiv zaruriyatdir. Zero, muntazam maromlilik va batartiblik har qanday ishlab chiqarish usulining talabi bo'lib, u shu tufayli ijtimoiy barqarorlik hamda mustaqillikka ega bo'ladi. Qat'iy tartib iqtisodiy rivojlanishni tasodiflardan va beboshliklardan saqlab turadi. Bunday tartibni davlatning majburlov kuchiga tayanuvchi huquqgina ta'minlay oladi. Huquqiy normalarda ijtimoiy munosabat ishtirokchilari faoliyatining andozasi (modeli), kishilar yurish-turishi, xatti-harakatining algoritmi, taraflarning huquq va majburiyatlari me'yor aks ettiriladi. Huquq insonlar xatti-harakatini sub'yektiv huquq va yuridik majburiyatlar shaklida me'yordash orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Huquq normalari jamiyat hayotining asosiy jabhalarini normativ tarzda tartibga solib turadi. Huquqiy normalarning ijtimoiy munosabatlarga ta'siri, ularni tartibga solishi huquqni amalga oshirish jarayonining bevosita natijasidir. Mazkur qoidani teranroq

anglab yetish uchun «**huquqiy ta'sir etish**» va «**huquqiy tartibga solish**» iboralarining ma'nosini tahlil qilish lozim.

«Ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta'sir etish» iborasi anchagina keng tushuncha bo'lib, o'z mazmuniga jamiyat hayotiga huquq ta'sirining barcha yo'nalishlari va shakllarini qamrab oladi. Huquqning bunday ta'siri - normativ (umummajburiy) regulyatorlik, mafkuraviy va tarbiyaviy omil shakllarida, shuningdek huquqiy prinsiplarni hayotga singdirish tarzida va boshqa ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Huquq ishlab chiqarish munosabatlariga va ularga asoslangan boshqa munosabatlarga ta'sir etib, ularni mustahkamlaydi, qo'riqlaydi va rivojlantiradi. Huquqiy ta'sir etish natijasida ilg'or va ijobiy ijtimoiy munosabatlar huquqiy himoya qilinadi hamda takomillashtiriladi. Jamiyat manfaatlariga mos kelmaydigan yoxud eskirgan munosabatlar esa ijtimoiy turmushdan siqib chiqariladi.

Shuni nazarda tutish joizki, huquqning o'zi bevosita ijtimoiy munosabatlar tizimini yaratishi, o'zgartirishi hamda rivojlantirishi mumkin emas. Huquq ushbu munosabatlar ishtirokchilarining onigiga ta'sir etish orqali, shuningdek qat'iy harakat qoidalarini o'rnatib, ularni tartibga soladi. Ijtimoiy munosabat (shu jumladan, huquqiy munosabat) qatnashchilari ongli va irodaviy harakatlarni sodir etadilar. Shu bois mazkur munosabatlarga huquqiy ta'sir etish, ularni yo'lga solib turish mumkin bo'ladi.

Huquqiy tartibga solish huquqiy ta'sir etishning nisbatan mustaqil va faol ko'rinishlaridan biridir.

Huquqiy tartibga solish - ijtimoiy munosabatlarga huquq yordamida ularni umummajburiy, normativ tarzda tartibga solish maqsadida ta'sir etish jarayonidir. Huquqiy tartibga solishning muhim xususiyati shundaki, u ijtimoiy munosabat ishtirokchilarining yuridik huquq va majburiyatlarini belgilaydi, huquqlar ro'yobga chiqarilishini va majburiyatlar bajarilishini ta'minlaydi.

Demokratik jamiyatda huquqiy tartibga solish ijtimoiy (sotsial) tartibga solishning maxsus turi bo'lib, o'zining demokratik qadriyatlariga tayanganligi, maqsadga yo'naltirilganligi, tashkiliy-batartibligi va samaraliligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, huquqiy tartibga solish o'ziga xos ta'sir etish vositalari (mexanizmi) orqali amalga oshiriladi. Qonun chiqaruvchi idoraning yuridik normalar yaratishdan ko'zlagan maqsadi xuddi ana shu huquqiy ta'sir etish vositalari tizimi

yordamida ro'yobga chiqariladi.

Huquqning ijtimoiy munosabatlar regulyatori sifatidagi talqini huquqshunoslik fanida uzil-kesil tan olingan. Huquqning asosiy vazifasi ham uning regulyatorlik (ya'ni, tartibga soluvchilik) tabiatidan kelib chiqadi. Huquq, qonun hayotiy munosabatlarni tartibga solar ekan, ularning amal qilishi va rivojlanishi uchun muayyan chegara, aniq me'yor o'rnatadi. Shu yo'l bilan ularni jamiyat va davlat manfaatlarini nuqtai nazaridan tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlatchilik yo'liga kirgach, jamiyatni tubdan yangilash, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy-ma'naviy jabhada keng qamrovli islohotlar yo'lini tutdi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad - ijtimoiy adolatni ta'minlovchi demokratik davlatni qaror toptirishdir. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchlik demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir»¹.

Ana shu ustuvor maqsadlar mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, demokratik islohotlar va huquqiy davlatchilik barpo etishning hozirgi bosqichida davlat hamda jamiyat hayotining qonuniy zaminini mustahkamlash, yangi tuzumga oid ijtimoiy munosabatlar majmuini huquqiy tartibga solishni muttasil takomillashtirish - strategik yo'nalishdir. Amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan huquqiy tartibga solish ishining holatiga bog'liqdir. Islohotlar jarayoni rivojlanib va chuqurlashib borgani sari, uning huquqiy negizi sayqallanib va takomillashtirilib boriladi, qabul qilingan qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartishlar kiritiladi. Bu hol qonunlarning ta'sirchanligini oshirish, ularning tarkib topayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan bevosita aloqasini kuchaytirish imkonini beradi.

Davlat qonun, farmon va hukumat qarorlarini qabul qilish yo'li bilan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlarning borishini huquqiy jihatdan jadal va qat'iy tartibga solish, iqtisodiyotning hamda siyosiy tizimning muhim bo'g'inlari va sohalarini takomillashtirish jarayoni amalga oshiriladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatda bozor iqtisodiyoti va bozor

¹ Karimov I.A. *Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari*. - Toshkent, «Sharq», 1998, 49-bet.

munosabatlari infratuzilmasini shakllantirishning huquqiy poydevori yaratildi. Xususan, «O'zbekiston Respublikasida korxonalar to'g'risida», «Tadbirkorlik to'g'risida», «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida», «Auditorlik faoliyati to'g'risida», «Chet el investitsiyalari to'g'risida», «Banklar va bank faoliyati to'g'risida», «Bankrotlik to'g'risida», «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida», «Lizing to'g'risida», «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonunlar, Fuqarolik kodeksi, Yer kodeksi, Mehnat kodeksi va boshqa normativ huquqiy aktlar qabul qilindi.

Yuridik adabiyotda huquqning regulyatorlik funksiyasi turlicha talqin etiladi. Ba'zan yuridik shaklga ortiqcha o'rin berilib, huquqiy tartibga solish mexanizmi tarkibiga huquq ijodkorlik jarayoni ham qo'shib yuboriladi. Bu mantiqqa muvofiq emas. Chunki gap ikkita mustaqil huquqiy hodisa (institut) haqida bormoqda. Demak, xuddi «huquq normasi»ni «huquqiy tartibot» tushunchasiga qo'shib bo'lmaganidek, huquq yaratish jarayonini huquqiy tartibga solish mexanizmiga qo'shish mumkin emas. Xulosa shuki, huquqning imkoniyatlarini, yuridik shaklning ahamiyatini haddan oshirib, ob'yektiv ijtimoiy munosabatlarning ustuvor belgilovchi rolini, ta'sischi xarakterini nazardan qochirish to'g'ri bo'lmaydi.

Huquqiy tartibga solish ko'lamini ta'riflashda ham olimlar ikki guruhga ajraladilar. Ba'zi olimlar huquqiy tartibga solishda yuridik normalar faqat huquqiy munosabatlar (shakli, modeli) orqali ta'sir etadi, deb hisoblaydilar. Ushbu nuqtai nazarda turuvchi mualliflar sub'yektiv huquq va yuridik majburiyatlarining mavjudligini mutlaq va nisbiy huquqiy munosabatlar mavjudligi bilan bog'laydilar. Professorlar S.S.Alekseyev va N.I. Matuzovlar huquqiy tartibga solish huquqiy munosabatlar orqali amalga oshadi, degan fikrni quvvatlab, ayni paytda, absolyut va nisbiy huquqiy munosabatlarga «umumiy huquqiy munosabatlar»ni ham qo'shadilar. Biroq, huquqiy tartibga solish faqat huquqiy munosabatlar bilan chegaralab qo'yilsa, uning tartibga solish doirasi toraytirib yuborilishi mumkin.

Ikkinchi guruh olimlar fikricha, huquqiy tartibga solish huquqiy munosabatlar doirasidan tashqariga chiqadi, ancha kengroq ko'lamda harakatlanadi. Bunday yondashuv so'nggi yillarda yuridik ilmiy jamoatchilik tomonidan ustuvor nuqtai nazar sifatida tan olinmoqda. Masalan, akademik Sh.Z.O'razaev, professorlar

Z.M.Islomov, M.M.Fayziev, U.Tojixonov, S.N.Bratus, A.V.Mitskevich va boshqalar sub'yektiv huquq huquqiy munosabatdan tashqarida ham mavjudligini ishonarli tarzda isbot qiladilar.

Mazkur xulosa ilmiy jihatdan nihoyatda muhimdir. Birinchidan, bu xulosa barcha sub'yektiv huquqlarning (ayniqsa, konstitutsiyaviy huquqlarning) nafaqat huquqiy munosabat orqali, balki undan tashqari ham amalga oshishi va ulardan foydalanish mumkinligini himoya qiladi. Ikkinchidan, u huquq -tartibot huquqiy munosabatlar tizimidangina iborat emasligini, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar huquqiy maqomini ham qamrab olishini ko'rsatadi. Uchinchidan, masalaga bunday yondashish ob'yektiv va sub'yektiv huquqlarni amalga oshirishning hamma shakliga e'tiborni qaratadi, huquqiy tartibga solish mexanizmini to'la izohlaydi².

Shunday qilib, huquqiy tartibga solish ikki shaklda amalga oshadi:

- * huquqiy munosabat orqali;
- * huquqiy munosabatdan tashqarida.

Huquqiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning maxsus turi hamda huquqiy tartibga solishning alohida shaklidir.

Huquqiy tartibga solishning ushbu ikki shakli uchun umumiy jihat shundaki, ular faoliyatining asosiy predmeti - hamisha sub'yektiv huquq bo'lishidir. Huquqiy tartibga solish faqat kishilarning harakatlariga(faoliyatiga), munosabatlariga qaratiladi.

Huquqiy tartibga solish natijasida hamisha real munosabatlar muayyan tarzda me'yorlanadi, "qolip"ga solinadi barqarorlik kasb etadi. Muhimi, bu munosabatlar davlat tomonidan muhofazalanadi.

Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish aniq usullar yordamida amalga oshiriladi. Huquqiy tartibga solish usuli huquqiy tartibga solish predmetiga bevosita bog'liq bo'ladi. Yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi munosabatlarga huquqiy ta'sir etishning yo'llari yig'indisi huquqiy tartibga solish metodi (usuli) deb ataladi. Huquqiy tartibga solish metodining ikki turi, ya'ni: **avtonomiya metodi va avtoritar** (geteronomiya) **metodlari** mavjud.

Avtonomiya metodi asosida tartibga solinuvchi munosabatlar tarasrlar teng huquqli bo'ladilar hamda ular belgilangan vakolatlar

² Явич Л. С. Сущность права. - Л.: ЛГУ, 1985, 206-бет.

dolrasida mustaqil faoliyat yuritadilar. Misol uchun, fuqarolik huquqiy munosabatlarini olaylik, ularda ishtirok etuvchi sub'yektlar qonun belgilagan me'yor ko'lamida o'z xatti-harakatlarini kelishuv, shartnoma asosida erkin belgilaydilar.

Avtoritar metod deganda, ijtimoiy munosabatlarga hukmronlik, buyruq (imperativ) tarzida qat'iy ta'sir tushuniladi. Masalan, ma'muriy-huquqiy va jinoiy munosabatlarni olaylik. Bu munosabatlarda bir tomonda davlat (davlat idorasi yoki vakolatli mansabdor shaxs namoyon bo'ladi, ikkinchi tomondan esa fuqaro maydonga chiqadi. Ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikni qo'llovchi vakolatli sub'yekt davlat hokimiyati nomidan ish ko'radi, avtoritar metodga tayanib huquqiy tartibga solishni amalga oshiradi.

Demokratik jamiyatda huquqiy tartibga solish quyidagi xususiyatlarga ega:

- * huquqiy tartibga solishning barqarorligi;
- * konstitutsiyaviy-tartibga solish ahamiyatining oshishi va ko'lamining kengayib borishi;
- * huquqiy tartibga solishning dialektik va dinamik sifatlarga egaligi;
- * iqtisodiy, siyosiy, madaniy va mafkuraviy hayot sohalarida huquqiy tartibga solish rolining o'sib borishi;
- * huquqiy tartibga solish jarayonida ijtimoiy o'zini o'zi boshqarish va ijtimoiy munosabatlarga jamoat ta'siri omillari hissasining o'sishi;
- * ijtimoiy xulq-atvorni oldindan belgilash, bashorat qilish (prognozlash), modellashtirish imkoniyatlarining oshib borishi;
- * huquqiy tartibga solishning xalqchilligi va samaraliligi;
- * huquqiy tartibga solishning faol, ijodiy xarakterga egaligi.

2-§. Huquqiy tartibga solish mexanizmi va uning unsurlari

Huquqiy tartibga solish mexanizmi jamiyatdagi turli-tuman ijtimoiy munosabatlarga muntazam ravishda va muayyan ketma-ketlikda ta'sir etish jarayonidir. Ijtimoiy munosabatlar mazmuni hamda huquqiy normalar ruhi mamlakat intilayotgan maqsad va vazifalar, ya'ni: bozor iqtisodiyotiga o'tish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish manfaatlari bilan uzviy bog'liq.

Huquqiy tartibga solish jarayoni - ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta'sir etish, ularni amalga oshirish, rivojlantirish va takomillashtirishning qat'iy belgilangan tartibidir. Huquqiy tartibga solish ham har qanday ijtimoiy jarayon singari o'z ibtidosi va intihosiga, boshlanish va nihoyalinish nuqtalariga ega. Bu jarayon davlat tomonidan huquqiy normalar yaratishdan boshlanadi. Huquqiy norma xalqning davlat irodasini o'zida mujassamlantiruvchi, uni huquqiy munosabat ishtirokchilariga yetkazuvchi vosita sifatida vujudga keladi va amal qiladi.

Huquqiy tartibga solish jarayonini uch asosiy bosqichga ajratish mumkin:

1. Ijtimoiy munosabatlarni qoidaga soluvchi (reglamentatsiya qiluvchi) yuridik normaning yaratilish bosqichi;

2. Huquqiy norma asosida muayyan sub'yektlarda huquq va burchlar kelib chiqqan chog'da yuridik normaning amal qilish bosqichi;

3. Yuridik normada nazarda tutilgan holatlar, huquq va majburiyatlar vujudga kelganda sub'yektiv huquq va burchlarning amalga oshirilish bosqichi.

Ko'rsatilgan uch bosqichdan tashqari yana bir bog'lovchi qo'shimcha (fakultativ) bosqich haqida gapirish lozim. Bu fakultativ bosqich huquqni qo'llashdir.

Huquqiy tartibga solish jarayonining uch bosqichiga uchta muhim unsur (huquqiy hodisa) muvofiq keladi:

a) huquqiy normalar;

b) huquqiy munosabatlar;

v) sub'yektiv huquq va majburiyatlarni amalga oshirish aktlari.

Yuqorida zikr etilgan qo'shimcha bosqichga muvofiq tarzda huquqiy tartibga solish mexanizmidagi qo'shimcha (fakultativ) unsur - huquqni qo'llash aktlari maydonga chiqadi.

Huquqiy tartibga solish mexanizmining har bir unsuri, o'z navbatida, o'ziga xos kichik tizimni tashkil etadi. Chunonchi, yuridik normalarning yaratilish bosqichiga muvofiq keladigan tizimga - huquqiy ong, huquq ijodkorligi aktlari, normativ yuridik aktlar, huquqiy normalar, me'yorlar, hujjatlarni tizimlashtirish, yuridik texnika va boshqalar kiradi;

yuridik normalarning amal qilish bosqichidagi huquqiy

munosabatlar tizimiga - huquq sohibi, yuridik faktlar, umumiy va konkret huquqiy munosabatlar kiradi;

huquq va majburiyatlarni amalga oshirish tizimiga -huquqiy munosabat qatnashchilarining muayyan xatti-harakatlari, huquqni qo'llash aktlari kiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan tizimlarni huquqiy tartibga solish jarayonining bo'g'inlari deb atash mumkin. Ushbu jarayonda amal qiladigan unsurlarning mujassam bir butunligi huquqiy tartibga solish mexanizmini tashkil etadi.

Huquqiy tartibga solish mexanizmi - ijtimoiy munosabatlarga jamiyat va davlat oldida turgan maqsad hamda vazifalarga mos ravishda samarali huquqiy ta'sir etishni ta'minlovchi yuridik vositalarning mushtarak tizimidir.

O'z tuzilmaviy tarkibiga ko'ra mazkur mexanizm tegishli unsurlar aloqadorligi va birligiga asoslangan g'oyat murakkab tizim hisoblanadi. Huquqiy tartibga solish jarayonidagi barcha huquqiy vositalarning «mexanizm» iborasi bilan izohlanishi bejiz emas. «Mexanizm» - bir qancha mustaqil hodisalar, qismlar (unsurlar)ning o'zaro aloqadorlik asosida, bir butun agregat sifatida harakat qilishidir. Bunda har bir element uyg'un va barqaror birlashib, biri ikkinchisini harakatlantiradi. Mexanizmga aniq, qat'iy va bir maromda ishlash xosdir. «Mexanizm» unsurlarning oddiy yig'indisi sifatida mavjud bo'lmaydi. U tarkibiy qismlarning o'zaro aloqadorlik asosidagi jipsligi bilan, biri ikkinchisining mavjudligini taqozo etishi bilan, aynan mana shu o'zaro munosabatlar negizida harakatlanishi, rivojlanishi va takomillashishi bilan tavsiflanadi. Huquqiy tartibga solish jarayonida namoyon bo'luvchi unsurlar yagona uzviy bir butun mexanizmni tashkil etadi.

«Huquqiy tartibga solish mexanizmi» tushunchasi «huquqiy ustqurma» (yoki ustqurmaning huquqiy qismi) tushunchasiga yaqin turadi. Har ikki tushuncha tarkibiga huquq normalari, huquqiy munosabatlar, huquqiy-me'yoriy hujjatlar, huquqiy ong, huquqiy madaniyat va boshqa huquqiy voqeliklar kiradi. Biroq, bu unsurlar yagona mexanizmning tarkibiy qismlari sifatida tahlil qilinganda e'tiborni huquqiy ustqurmaning dinamik tomoniga, huquqiy ta'sir etish jarayonidagi yuridik vositalarning bir butun tizimdagi o'zaro harakatiga qaratish lozim.

«Huquqiy tartibga solish mexanizmi» kategoriyasi yordamida har bir huquqiy institut (voqelik)ning huquqiy tartibga solish tizimidagi o'рни va rolini aniqlab olish mumkin. Shuningdek, ta'kidlash joizki, mexanizm tarkibiga kiruvchi huquqiy institut butunning uzviy qismi sifatida yangi xususiyat va jihatlarga ega bo'ladi.

Huquqiy tartibga solish mexanizmining dastlabki unsuri, me'yoriy asosini - huquqiy normalar tashkil etadi. Huquqiy normalarda davlat-hokimiyat irodasi bayon etiladi, ushbu norma orqali o'rnatilayotgan huquqiy talab tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabat ishtirokchilariga yetkaziladi. Huquqiy normada huquqiy munosabat sub'yektlarining huquq va burchlari, vakolatlari doirasi, shuningdek ularni amalga oshirish vositalari ko'rsatiladi.

Huquqiy normaning maxsus funksiyasi shundaki, u normativ tarzda huquqiy munosabat chegaralarini o'rnatadi. Unda xulq-atvor va yurish-turishning andozasi (modeli) belgilanadi. Aynan ana shu yurish-turish qoidalari huquqiy tartibga solish asosi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida fuqarolarning mehnat qilish, erkin kasb tanlash huquqi mustahkamlangan. Bu - umumiy konstitutsiyaviy - huquqiy qoida. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 57, 72-moddalarida ishga joylashish va qabul qilish bilan bog'liq mehnat-huquqiy munosabatlar nazarda tutilgan, Fuqaro mehnat qilishga bo'lgan o'z qobiliyatini tasarruf etish huquqiga ega. Ishga qabul qilish yozma tarzda tuziladigan mehnat shartnomasi orqali amalga oshiriladi. Bu yerda yuqoridagi konstitutsiyaviy qoida aniqlashtirilayotganini ko'ramiz. Biroq, u hali hayotga tatbiq etilayotgani yo'q. Mehnat kodeksining yuqoridagi moddalarida ishga joylashish va qabul qilish bilan bog'liq mehnat-huquqiy munosabatlarni tartibga solishni nazarda tutadi. Mazkur normaning mavjudligi hali yuqoridagi mehnat-huquqiy munosabatlar hal etilganligini anglatmaydi, albatta. Bu toifa masalaning huquqiy yechimiga erishish uchun muayyan fuqaroni ishga qabul qilish to'g'risida ish beruvchining (korxonada ma'muriyatining) aniq individual hujjati (buyrug'i, farmoyishi) chiqarilishi lozim (MK ning 82-moddasi). Ushbu misolimizda MK 57 va 72-moddalaridagi huquqiy normalar tegishli mehnat-huquqiy munosabatlarini tartibga solish uchun asos vazifasini o'taydi.

Huquqiy tartibga solish mexanizmining ikkinchi unsuri -

huquqiy munosabatlardir. Huquq normasi aynan huquqiy munosabat orqali hayotga joriy etiladi, sub'yektiv huquq va burchlarga rioya etiladi, ulardan foydalaniladi va tegishli talablar bajariladi. Muayyan sub'yektiv huquq va burchlarning xususiyatlari huquqiy normaning tartibga solishdagi ta'sir etish xarakteriga bog'liq.

Huquqiy normalarning vakolat beruvchi, majbur etuvchi va man qiluvchi turlariga mos ravishda tartibga soluvchi va qo'riqlovchi huquqiy munosabatlar turlari namoyon bo'ladi.

Tartibga soluvchi huquqiy munosabatlar majbur etuvchi, vakolat beruvchi va man etuvchi munosabatlarga bo'linadi.

Huquqiy tartibga solish mexanizmining uchinchi unsuri - **sub'yektiv huquq va majburiyatlarni amalga oshirish aktlari (harakatlari)dir.** Bu yerda so'z huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq normalariga rioya etish, bajarish va foydalanish shaklidagi real amaliy xatti-harakatlari, xulq-atvori haqida bormoqda. Mazkur harakatlar sodir etilishi bilan qonun chiqaruvchi idora rejalashtirgan maqsad amalga oshadi hamda huquqiy tartibga solish mexanizmi faoliyati yakun topadi.

Huquqni qo'llash aktlari vakolatli davlat idorasining, mansabdor shaxsning davlat-hokimiyat xarakteridagi hujjatidir. Bu hujjatlar huquqiy norma talablarini huquqiy munosabat orqali bevosita hayotga joriy etadi. Lozim bo'lgan hollarda huquqni qo'llash aktlarining bajarilishi davlatning majburlash kuchi bilan ta'minlanadi. Huquqni qo'llash aktlari- qaror, farmoyish, buyruq, hukm va boshqa shakllardan iborat. Bu hujjatlarda huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va burchlari aniq ko'rsatib beriladi.

3-§. Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish

Huquqiy tartibga solishning eng oliy shakli - konstitutsiyaviy tartibga solishdir. Zero, Konstitutsiya mamlakatning Asosiy qonuni bo'lib, yuksak maqomli, o'ta nufuzli siyosiy-yuridik hujjat sanaladi. U mo'tabar ijtimoiy-huquqiy qadriyat sifatida jamiyat va davlat hayotining bosh mezonini, ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtiruvchi, ravon tartibga soluvchi ta'sirchan vositadir.

Huquqiy tartibga solish mexanizmida Konstitutsiyaning oliyligini, ustuvorligini ta'minlash nihoyatda muhim ahamiyatga

molik masaladir. Konstitutsiya - mamlakat huquqiy tizimining o'zagi, uning mustahkam poydevori. Konstitutsiya normalari birlamchi, ta'sis etuvchi xarakterga ega bo'lib, ular bevosita amal qiladi. Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas (16-modda, 2-qism).

Konstitutsiya Asosiy qonun sifatida mamlakat normativ-huquqiy hujjatlar tizimida ustuvorlik qiladi, «hukmron» mavqeni egallaydi. Uning normalari boshqa qonunlarning qoidalaridan ham yuqoriroq yuridik kuchga ega. Qolgan barcha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida, unga muvofiq tarzda va uning ijrosi uchun chiqariladi. Basharti, qonunlar Konstitutsiyaga zid kelib qolsa, yoki unda belgilangan tartiblarni buzib ishlab chiqilgan va qabul qilingan bo'lsa, ular o'z kuchini yo'qotishi shart.

Konstitutsiya butun huquqiy tizimning uyushtiruvchi, hamjihatlashtiruvchi markazi, «tizim» hosil qiluvchi o'zagi bo'lib, barcha huquq tarmoqlari va qonunchilik sohalarini shakllantiruvchi hamda rivojlantiruvchi yuridik asosdir. Qonunchilikning hamma sohalari bevosita Konstitutsiya qoidalari va prinsiplariga tayanadi. Binobarin, Konstitutsiya qonunchilik tarmoqlari vujudga kelishi va amal qilishi uchun sarchashma - manba bo'lib hisoblanadi. Diqqatga sazovor jihati shundaki, konstitutsiyaviy normalar siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-ma'naviy hayotning eng muhim tomonlarini huquqiy tartibga soladi. Ana shu ma'noda konstitutsiyaviy tartibga solish huquqiy tartibga solishning boshqa turlaridan farq qiladi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish murakkab ichki tuzilish (struktura)ga va ijtimoiy hayotning alohida sohaslariga ta'sir etishning o'ziga xos xususiyatlariga ega. U huquqiy tartibga solish yagona tizimining maxsus qismi sifatida bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi, ya'ni:

- * mamlakat miqyosida yagona konstitutsiyaviy tartibga solishning muayyan tizimini tashkil etadi;
- * u umumiy-majburiy, normativ xarakterga ega;
- * huquqiy tartibga solishning umumiy strategiyasini, siyosiy yo'nalishini, ustuvor prinsiplarini belgilaydi;
- * ijtimoiy munosabatlarni konstitutsiyaviy tartibga solish davlat

tomonidan eng yuksak darajada kafolatlanadi va ta'minlanadi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishning mushtarak tizimlilik xususiyati konstitutsiyaviy qonunchilik normalarining ichki mutanosibliigi, bahamjihatligi, o'zaro mantiqiy muvofiqligi va batartibligida ko'rinadi. Mamlakat konstitutsiyaviy qonunchiligi tizimiga - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi va barcha konstitutsiyaviy qonunlar (masalan, «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonun, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonun) kiradi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishning normativlik darajasi hamda siyosiy-yuridik ahamiyati konstitutsiyaviy qonunchilikni o'rnatish xarakteri va tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning muhimligi bilan belgilanadi. Konstitutsiyada mustahkamlangan prinsiplarning hammasi normativ tabiatga ega bo'lib, ular mavjud huquqiy tizim uchun, davlat idoralarining huquq ijo'dkorlik va huquqni qo'llash faoliyati uchun, fuqarolar, mansabdor shaxslar va jamoat birlashmalari faoliyati uchun ustuvor, rahbariy ahamiyatga egadir. Konstitutsiyaviy tartibga solishning umumiy-majburiy tabiatiga kelganda shuni aytish kerakki, u eng oliy darajadagi majburiylikka ega va ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning barcha sub'yektlari uchun bajarilishi shart bo'lgan qat'iy talabdir.

Mamlakatimizda Konstitutsiyaga amal qilish majburiyati konstitutsiyaviy qonunchilik darajasida mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar (Konstitutsiyaning 15-moddasi).

Konstitutsiyaviy qonunchilik normalarining amalga oshirilishi iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy va yuridik kafolatlar tizimi bilan ta'minlanadi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan ishlab chiqarish rivoj topgani hamda xususiy mulkchilik munosabatlari qaror topgani sayin konstitutsiyaviy normalar amal qilishining iqtisodiy zaminlari, kafolatlari mustahkamlana boradi. Shuningdek, mamlakatimizning siyosiy tizimi demokratik tarzda takomillashib borgani sayin konstitutsiyaviy tartibga solishning siyosiy kafolatlari kuchayib boradi. Jamiyatning g'oyaviy asoslari va ma'rifiy-ma'naviy kamoloti

ta'minlanib, tobora yuksalib borgani sayin konstitutsiyaviy tartibotning g'oyaviy-ma'naviy kafolatlari rivoj topadi. Konstitutsiyaviy tartibga solishning yuridik mexanizmi esa Konstitutsiya amal qilishining barcha huquqiy vositalari hamda usullari yig'indisini qamrab oladi. Konstitutsiya normalari qonuniylik prinsipiga qat'iy rioya qilingan holda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiya ustuvorligini ta'minlashning, unga rioya qilishning alohida muhofaza mexanizmi vujudga keltirilgan. Bunday mexanizmning asosiy va markaziy bo'g'inini Konstitutsiyaviy sud tashkil etadi. U qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar aktlarining konstitutsiyaviyligi to'g'risidagi ishlarni ko'rib hal etadi. O'zbekiston Respublikasining «Konstitutsiyaviy sud to'g'risida»gi (1995 yil 30 avgust) qonuniga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud mamlakatimizda konstitutsiyaviy nazoratning oliy sudlov organi hisoblanadi. Konstitutsiyaviy sud barcha davlat organlari tomonidan chiqariladigan huquqiy aktlarning, O'zbekistonning xalqaro shartnomalari va boshqa majburiyatlarining Konstitutsiyaga to'la mos bo'lishini kuzatib turadi; Qoraqalpog'iston Konstitutsiyasi, qonunlari va huquqiy aktlarining O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi; Konstitutsiyaviy sudning qarorlari matbuotda e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Ular qat'iy va ular ustidan shikoyat qilish mumkin emas (Konstitutsiyaning 109-moddasi).

Konstitutsiyaviy tartibga solish jamiyatda yetakchi hamda nufuzli o'rnini egallaydi. U oliy darajadagi huquqiy tartibga solishdir. Konstitutsiya normalari o'z yuridik kuchi jihatidan boshqa oddiy huquqiy normalardan so'zsiz ustuvor bo'lganligi uchun konstitutsiyaviy tartibga solish yuksak yuridik maqomga, shuningdek muhim ijtimoiy-siyosiy mazmunga ega.

Xo'sh, konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish qanday ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladi? Bunday tartibga solishning predmetini jamiyat va davlat hayot faoliyatining eng muhim jihatlari, shunga oid asosiy ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Bu ijtimoiy munosabatlar - jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, sotsial va madaniy rivojlanishini, O'zbekiston davlati ichki va tashqi siyosati asoslarini, respublikada inson (fuqaro) huquqlari va erkinliklarini ustuvor ta'minlashni aks ettiruvchi, xususiy mulkchilikka asoslangan

barqaror bozor iqtisodiyotining qaror topishi bilan bog'liq munosabatlardir. Ushbu munosabatlar jamiyat va davlatimizning mohiyatini hamda asosiy xususiyatlarini ifoda etadi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy tarzda tartibga solinuvchi ijtimoiy munosabatlarni bir necha yirik majmualarga ajratish mumkin:

*** jamiyatning iqtisodiy tizimi, xususiy va boshqa shakldagi mulkchilik hamda tadbirkorlik asoslarini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar;**

*** O'zbekiston siyosiy tizimi va davlat tuzumi asoslarini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar;**

*** shaxsning huquqiy maqomi asoslarini belgilovchi inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash tizimiga oid ijtimoiy munosabatlar;**

*** mamlakatimizning davlat tuzilishi shakli, ma'muriy-hududiy tuzilishi, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi huquqiy maqomi asoslarini belgilashga oid ijtimoiy munosabatlar;**

*** saylov tizimi, parlament, Prezident, Hukumat, sud hokimiyati, mahalliy davlat vakillik va ijroiya idoralarining huquqiy maqomi, vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar va hokazo.**

Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish mexanizmini (avvalgi paragrafda ta'kidlanganidek) uch unsur: konstitutsiyaviy normalar; konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar; konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlarni amalga oshirish aktlari tashkil etadi. Ushbu mexanizmning normativ asosini tashkil etuvchi yuridik normalar o'zining eng oliy siyosiy-yuridik kuchi, yuksak barqarorligi va jamiyat hamda davlat tomonidan qat'iy ta'minlanishi bilan ajralib turadi.

Konstitutsiyaviy normalar asosida tarkib topgan huquqiy munosabatlar umumiy mazmun kasb etadi va tarmoq huquqiy munosabatlari (ya'ni konkret munosabatlar) uchun asos vazifasini o'taydi. Ular o'zining doimiy barqarorligi, uzoq muddatga mo'ljallanganligi va sub'yektlarning yuqori umumiy huquqiy holatini ifodalashi bilan tavsiflanadi. Bunday munosabatlarning sub'yektlari: davlat, xalq, millatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, davlat idoralari, jamoat birlashmalari va fuqarolar hisoblanadi. Konstitutsiyaviy qonunchilik normalarini amalga oshirish har qanday huquqiy normalarni amalga oshirish singari rioya qilish, bajarish,

foydalanish va qo'llash shaklida bo'lishi mumkin.

Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish mexanizmining xususiyatlaridan biri Konstitutsiya normalarining joriy qonunlar tomonidan konkretlashtirilishi hamda bevosita amalga oshirilishidir. Qonun normalari o'z navbatida Prezident Farmoni, Hukumat qarori, davlat boshqaruv idoralari va huquqni qo'llovchi organlar aktlari orqali hayotga joriy etiladi.

Shunday qilib, jamiyat va davlat hayotini konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish, uning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlash mamlakatimizning yanada ildam qadamlar bilan mustaqillik yo'lidan olg'a qarab rivojlanishining ishonchli garovidir.

4-§. Huquqiy tartibga solishning ijtimoiy va ruhiy mexanizmi

Ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta'sir etish jarayonining ichki tuzilishini (strukturasini) yanada kengroq talqin qilish mumkin. Zero, bu nihoyatda serqirra, mazmundor va turfa xil namoyon bo'lish jihatlarga ega hodisadir. Huquqiy tartibga solish yuridik mexanizmdan tashqari, ijtimoiy (sotsial) va ruhiy (psixologik) mexanizmlarga ham ega.

Ayonki, huquq ijtimoiy muhitda amal qiladi. Uning harakatlanishiga turli ijtimoiy omillar, hayotiy vaziyat hamda hodisalar ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy adabiyotlarda huquqning kundalik real hayotda amal qilish hodisasi **huquq harakatlanishining ijtimoiy (sotsial) mexanizmi** deb yuritiladi.

Huquq harakatlanishining yoki huquqiy tartibga solishning ijtimoiy mexanizmi deganda, huquqiy prinsiplar va normalarning talablarini huquq sub'yektlari xulq-atvori hamda yurish-turishiga aylantirish (singdirish) bilan bog'liq jarayonga ta'sir etuvchi ijtimoiy va boshqa hayotiy omillarning yalpi umumiy tizimi tushuniladi.

Mazkur jarayonning asosiy bosqichlariga quyidagilar kiradi: huquq prinsiplari va normalari mazmunini barchaning e'tiboriga yetkazish; huquqiy aktlarda ijtimoiy foydali maqsadni ifodalash orqali huquqqa muvofiq xulq-atvorni yo'naltirib turish; huquqiy ko'rsatmalar yordamida ijtimoiy foydali huquqqa muvofiq xulq-atvorni shakllantirish; ijtimoiy-huquqiy nazoratni amalga oshirish.

Huquqiy tartibga solishning ijtimoiy mexanizmini tavsiflashda

uning ushbu jihatlari alohida o'rin tutadi:

a) huquqiy axborotning darajasi va xarakteri. Huquqning samarali amal qilishi ko'p jihatdan huquq sub'ektlari tomonidan amaldagi yuridik normalarni bilish hamda anglab yetish darajasiga bog'liq. Tabiiyki, bunda huquqiy qoidalarning barchaning e'tiboriga qay yo'sinda va qay me'yorda yetkazilishi muhimdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, aholi tomonidan huquqiy prinsiplar va aniq yuridik normalarni bilish darajasi bir xil emas. Aholining turli qatlamlariga huquqiy axborot har xil yo'l va vositalar orqali borib yetadi. Huquqiy axborotning yetkazilishida ommaviy axborot vositalari - radio, televideniye va matbuotning o'рни alohidadir;

b) ijtimoiy munosabat qatnashchilarining huquqiy e'tiqodi va yo'naltirilganligi. Huquqning ijtimoiy hayotdagi harakatlanishi shaxsning huquqiy e'tiqodi, o'y-fikrlarining yo'naltirilganligi bilan bog'liq. Zero, huquqning amal qilishi huquq sohiblarining nafaqat axborotlanganlik darajasi bilan, balki huquqiy norma talablariga rioya etish va uni bajarishga bo'lgan shaxsiy ichki qat'iyatning shakllanganlik darajasi bilan ham bog'liq. Yanada aniqroq ifoda etadigan bo'lsak, shaxs huquqiy maqsad, vazifa hamda ideallarni bajarish va egallashga qanchalik yo'naltirilganligi nazarda tutilmoqda;

v) huquq amal qilishining ijtimoiy oqibatlari. Yuridik normalar amal qilishining oqibati - huquqiy talabni amalga oshirishning yakuniy natijasigina emas, balki huquq harakati keyingi bosqichlarining boshlang'ich nuqtasi hamdir. Huquqning ijtimoiy harakati «qayta bog'lanish» mexanizmi (huquqiy ong, yuridik va sud amaliyoti, davriy huquq ijodkorligi) orqali huquqiy tartibga solish jarayoniga, uni yo'naltirishga va tuzatishga ta'sir ko'rsatadi;

g) ijtimoiy muhit. Huquqning, shuningdek butun yuridik vositalar tizimining harakatlanishi muayyan ijtimoiy muhitda ro'y beradi. Bunda jamiyat, davlat, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari hamda fuqarolar tomonida huquqqa, qonuniylikka munosabat namoyon bo'ladi. Mazkur muhitda mavjud muayyan shart-sharoit, huquqiy madaniyat, huquqiy ong va tartibiy holati maydonga chiqadi. Huquq harakatlanadigan ijtimoiy muhitning muhim jihatlardan biri jamiyatdagi qonuniylik va huquqiy tartibot rejimini qamrab oluvchi umumiy holat - «huquqiy iqlim»dir. Tahlil

etilayotgan mexanizmida huquqning harakatlanishiga turli ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy omillar huquqiy tartibga solish ehtiyojlarini aniqlashga, huquqiy munosabat ishtirokchilarining xulq-atvoriga, yuridik norma qo'llanayotgan masalaning mazmuniga u yoki bu shaklda ta'sir o'tkazuvchi ijtimoiy hayot hodisalaridir. Ijtimoiy omillar iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy taraqqiyotning ob'yektiv qonuniyatlarini o'zida namoyon etadi. Ijtimoiy omillarni quyidagicha turkumlash mumkin: iqtisodiy, demografik, ekologik, jo'grofiy, siyosiy-huquqiy, g'oyaviy-ruhiy, ijtimoiy-madaniy, milliy, baynalmilal, ilmiy, tashkiliy-texnikaviy va boshqa omillar.

Huquqiy tartibga solish jarayonining ruhiy mexanizmi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsning irodasi, akliy salohiyati (intellekti), motivi, maqsadi, e'tiqodi kabi fazilatlar huquq harakatlanishining ruhiy mexanizmi zahirida yotadi. Qonun chiqaruvchi idora ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda insonlarning ruhiy xulq-atvori xususiyatlarini inobatga oladi. Chunki huquqiy tartibga solish - bu onga, irodaga, ehtirosiga, murakkab motivli xulq-atvoriga ega bo'lgan insonlarni boshqarishdir. Huquq vositasida inson xulq-atvorining motivlari («ichki istak-intilish») shakllantiriladi. yuridik normada o'rnatilayotgan taqiq, man etish yoki ijozat berish, rag'batlantirish usullari bilan, avvalo, inson ruhiyatiga ta'sir etiladi. Shu tariqa inson ruhiyatining tashqi ifodasi bo'lmish yurish-turishi, xulq-atvorining o'zgarishiga erishiladi.

Ijobiy xatti-harakatlarni sodir etishga sabab bo'luvchi faol xulq-atvorni rag'batlantiruvchi **undovchi motivlarni** shakllantirish huquqiy tartibga solishning bosh maqsadidir. Undovchi motivlarni shakllantirish ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: **birinchisi** - faol xatti-harakat sodir etish majburiyatini yuklash; **ikkinchisi** - ijobiy xatti-harakatni sodir etish huquqini berish (ijozat berish).

Shunday qilib, huquqiy tartibga solishning yuridik, ijtimoiy, ruhiy mexanizmlari jamuljam inobatga olingan taqdirdagina ko'zlangan samaraga erishish mumkin.

XIX bob. QONUNIYLIK VA HUQUQIY TARTIBOT

1-§. Qonuniylik va huquqiy tartibot tushunchasi

O'zbekiston - bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tar ekan, uning davlat qurilishi va iqtisodiyotni isloh qilish dasturining muhim qoidalaridan biri qonunlarning ustuvorligini ta'minlash, qonuniylik va huquqiy tartibotni mustahkamlashdir. Busiz demokratik huquqiy davlat qurib bo'lmaydi.

Bozor munosabatlariga mos keladigan huquqiy asosni shakllantirish - uzoq davom etadigan jarayondir. Buning uchun yangi huquqiy tizimni ishlab chiqish kerak bo'lib, uning asosini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tashkil qiladi.

Hozirgi vaqtda davlat qurilishi, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarga taalluqli islohotlarning huquqiy asoslarini belgilovchi bir qancha qonunlar qabul qilindi. Jumladan, ularning eng muhimlari:

Davlat qurilishi sohasida - saylov tizimi, Konstitutsiyaviy sud, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, sudlar, prokuratura, davlat hokimiyati va o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonunlar.

Iqtisodiy sohada - mulkchilik, korxonalar, tadbirkorlik, banklar va bank faoliyati, korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqdar, tashqi iqtisodiy faoliyat, chet el investitsiyalari, valyutani tartibga solish to'g'risidagi va boshqa qonunlar.

Ijtimoiy sohada - onalik va bolalikni himoya qilish, kam ta'minlangan fuqarolarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, nafaqa bilan ta'minlash to'g'risida va boshqa qonunlar.

Bu qonunlar hayot, amaliyot bilan bog'liq bo'lib, kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, ularda qonunga bo'ysunish bozor munosabatlariga o'tishning barcha amal qiladigan qoidalaridan biri etib belgilangan.

Qonuniylik - barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor hamda yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan amaldagi qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarning aniq va o'gishmay bajarilishidir.

Qonuniylikning asosiy vazifasi - mamlakatning ijtimoiy va davlat tuzumini mustahkamlash, bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun mulkning turli shakllariga yo'l ochish va ularni qo'riqlash, fuqarolarning huquq, erkinliklari va burchlarini mustahkamlashdir.

Jamiyatda qonuniylik ikki xil ma'noda - keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda - bajarilishi talab qilinadigan barcha qonun-qoidalar tushuniladi. Bularga davlat tomonidan chiqarilgan konstitutsiyaviy va boshqa amaldagi qonunlar, barcha normativ-huquqiy hujjatlar kiradi. Tor ma'noda olganda qonuniylik davlat organlarining faoliyatida qonunlarga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilishini ko'zda tutadi. Chunki, O'zbekistonda barcha davlat organlari, mansabdor hamda yuridik shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga asosan ish ko'rish lozimligi Asosiy qonunda belgilangan.

Qonuniylik huquqiy targ'ibot bilan uzviy bog'liq bo'lib, u orqali amalga oshiriladi. Huquqiy tartibot jamoat tartibining bir qismi bo'lib, faqat huquqiy normalarning amalga oshirilishi natijasida paydo bo'lib, kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni huquqiy vositalar orqali tartibga soladi. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar huquqiy tartibot orqali paydo bo'ladigan huquqiy munosabatlardan kengroq bo'lib, ularga axloq, urf-odatlar va boshqa turmush qoidalarining amalga oshirilishi natijasida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar kiradi. Kishilar o'rtasidagi yoki fuqarolar bilan davlat organlari o'rtasidagi munosabatlar huquqiy tartibot, ya'ni huquqiy normalar orqali amalga oshirilib, qonuniylik mustahkamlanadi. Qonuniylikning o'ziga xos xususiyatlari uning quyidagi tamoyillarida ifodalanadi.

1) Qonunning ustunligi va hamma uchun majburiyligi.

Bu tamoyilga asosan O'zbekistonning barcha qonunlari va boshqa huquqiy normalari muqaddas bo'lib, ularga huquq sub'yektlari amal qilishi kerak. Bu tamoyil Konstitutsiyamizning 15-moddasida mustahkamlangan bo'lib, unda shunday deyilgan: «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar».

Respublika Prezidenti I. A.Karimov O'zbekistonda yangi jamiyat qurish va bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun barcha kishining qonunga amal qilishligini muhim tamoyil deb hisoblab: «Men uchun

eng muhimi - qonuniylikni hurmat qilishdir¹-deb ko'rsatdi.

2) **Qonuniylikning yagonaligi tamoyili.** Bu esa O'zbekiston hududida qonunlar bir xilda qo'llanilishini, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini bildiradi. Bu haqda Konstitutsiyaning 18-moddasida shunday deyilgan: «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar».

Respublikamizda qonunning yagonaligi va barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, birinchidan, O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlari uning barcha hududida amal qilishini hamda boshqa normativ huquqiy hujjatlar qonun asosida qabul qilinib, ularga zid bo'lmasligini talab qiladi. Ikkinchidan, O'zbekiston qonunlari uning ijtimoiy va davlat tuzumini, barcha millat va elatlarning manfaatlarini qo'riqlaydi. Uchinchidan, Respublikaning butun hududida qonunlar bir xilda qo'llaniladi.

3) **Qonuniylik va maqsadga muvofiqlik tamoyili.** Respublikamiz hududida amaldagi qonunlarni va boshqa normativ hujjatlarni aniq bajarish har bir davlat organi, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxs va fuqarolar uchun shartdir. Ammo hayotda shunday kishilar va rahbarlar borki, ular o'zlarining qonunga xilof xatti-harakatlarini, go'yo qonunning eskirib qolganligi bilan va bugungi kun talablariga javob bera olmasligi bilan yoxud qonunda mahalliy sharoit hisobga olinmagan, degan bahonalar bilan oqlaydilar.

Basharti, amaldagi qonunlar eskirib qolgan bo'lsa, u belgilangan tartibda davlat hokimiyatining oliy vakillik organi - Oliy Majlis tomonidan o'zgartiriladi yoki bekor qilinadi. Mamlakatimizda qonunlarning ishlab chiqilishi va qabul qilinishi xalqning keng ishtirokida demokratik asosda o'tadi. Qonun loyihasi ustida olib boriladigan ishlarda shu qonun loyihasiga bevosita taalluqli bo'lgan shaxslar, davlat organlari va jamoat birlashmalari ishtirok etadilar.

4) **Qonuniylikning a'foll madaniy darajasi bilan bog'liqligi.** Qonuniylik aholining madaniy darajasi bilan, davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati bilan bog'liq bo'ladi.

¹ Karimov I.A. Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmag. T., «O'zbekiston», 1993, 5-6-betlar.

Kishilarning huquqiy ongi qancha yuqori bo'lsa, qonunni buzish hollari shunchalik kam bo'ladi.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1997 yil 29 avgustda «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi»² to'g'risida maxsus qaror qabul qildi. Mamlakatimizda iqtisodiyot, siyosat, davlat qurilishi, huquqiy tizim va jamiyat hayoti ma'naviy-ma'rifiy sohalarida keng ko'lami islohotlar o'tkazilmoqda. Bu islohotlarning qonuniy asosi yaratildi. Shuning uchun qarorda huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirib, keng xalq o'rtasida huquqiy tarbiyani mustahkamlab, aholi madaniy darajasini ko'tarish vazifasi qo'yildi.

5) Qonuniylikni ta'minlashda xalqning ishtiroki. O'zbekistonda xalq qonuniylikni ta'minlashda va huquqiy tartibotni mustahkamlashda keng ishtirok etadi. Bu haqda Konstitutsiyamizning 7-moddasida shunday deyilgan: «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi».

6) Qonuniylikning demokratiya bilan bog'langanligi. Qonuniylik demokratiya bilan uzviy bog'liqdir. Xalq davlat hokimiyatini o'zi ishonch bildirib saylagan deputatlari, Prezident, hokimiyat va boshqaruv organlari orqali boshqaradi. Qonuniylik demokratik tartiblarga bo'ysunishni talab qiladi, demokratik tartiblar, o'z navbatida, qonuniylikni mustahkamlash va rivojlantirishda asosiy shartdir. Bu tamoyil Konstitutsiyaning 13-moddasida belgilab qo'yilgan: «O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi».

Qonuniylik va huquqiy-tartibot kafolatlari va ularni ta'minlash usullari. Jamiyatda qonunlar bilan kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlar tartibga solinar ekan, qonunlarni hayotda

² O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, Toshkent, 1997, № 9, 23-33-betlar.

to'g'ri qo'llash uchun qonuniylik tegishli usullar orqali amalga oshiriladi. Bunday usullar davlat tomonidan belgilangan bo'lib, qonuniylikning kafolati deb ataladi.

Qonuniylikni amalga oshirish kafolatlari quyidagilardan iborat.

Iqtisodiy kafolat. Konstitutsiyamizning 53-moddasiga asosan jamiyatning iqtisodiy negizini bozor iqtisodiy munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan xilma-xil shakllardagi mulk tashkil qiladi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini muhofaza qiladi. Bu mulk shakllarining xilma-xilligi xalqning moddiy va madaniy farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa fuqarolarning mehnat qilish huquqi, qarigan chog'ida, kasal bo'lganida, vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotganda va boshqa hollarda ijtimoiy moddiy ta'minot olish huquqi uchun moddiy negiz yaratadi.

Siyosiy kafolat. Bu O'zbekistonning demokratik huquqiy davlat qurishida, huquqiy davlat esa umuminsoniy qadriyatlarga va milliy xususiyatlarga amal qilishida, uning siyosiy tizimida, shuningdek, davlat va jamoat birlashmalarini boshqarishda keng xalq ommasining ishtirok etishida ifodalanadi.

Huquqiy kafolat. Qonuniylikni amalga oshirish uchun barcha huquqiy normalarni bajarish, ular buzilgan holatlarni aniqlab olish usullari, qonun buzilishining oldini olish, qonunni buzgan kishilarga nisbatan tegishli javobgarlik choralari: intizomiy, ma'muriy, fuqarolik va jinoyi jazo qo'llashdan iborat.

Jamoatchilik kafolati. Qonuniylik va huquqiy tartibotni mustahkamlash faqat davlat organlarining ishi bo'lmasdan, balki barcha jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolar boshqa uyushmalarining vazifasidir.

Bu kafolatlar O'zbekistonda barcha xalqning qonunlar va boshqa normativ huquqiy hujjatlarga amal qilib, qonuniylikka rioya qilishni va ularni huquqiy jihatlardan tarbiyalab, huquqiy ong va huquqiy madaniyatini rivojlantirish ishlarini yaxshilaydi. O'zbekistonda qonuniylik va huquqiy tartibotni buzgan kishilarga nisbatan maxsus usullar qo'llaniladi. Bu ishontirish va majbur qilish usullaridir. Ishontirish usuli - keng xalq ommasiga qonunlar va huquqiy

normalarni tushuntirish orqali, ular ongiga singdirish va boshqa tarbiyaviy choralar ko'rish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Majbur qilish usulida - qonunlar va boshqa huquqiy normalar buzilgan taqdirda davlat organlari tomonidan uning zo'rlik kuchi bilan majburiy choralar ko'rish amalga oshiriladi.

2-§. Qonuniylikni muhofaza qilish va ta'minlash

Jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibot fuqarolarning qonuniy xatti-harakatlari bilan, barcha davlat organlari va jamoat birlashmalarining qonunlarga rioya qilishlari, ulardan to'g'ri foydalanishlari bilan o'rnatiladi. Huquqiy tartibot qonunlar orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun huquqiy tartibot jamiyat normal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Qonuniylik va intizom bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Qonuniylik - davlat intizomining asosidir. Davlat intizomi esa qonuniylikni mustahkamlashni talab qiladi. Qayerda intizom buzilsa, tartibsizlik bo'lsa, o'sha erda qonunchilik buziladi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish davrida bosh vazifa qonunning ustunligini, ya'ni barchaning qonunga og'ishmay amal qilishligini ta'minlashdan iboratdir. Har bir davlat organi, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxs va fuqaro qonunlarga amal qilishi kerak. Chunki jamiyatning aksariyat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy sohadagi munosabatlari qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Respublikada hozirgi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda islohotlar amalga oshirilayotgan vaqtda qonunlarni barcha kishilar, davlat organlari va mansabdor shaxslar bajarishi uchun ularning javobgarligini oshirish juda muhimdir. Bu sohada Respublika Prezidenti huzuridagi Nazorat inspeksiyasining tuzilishi muhimdir. Unga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlar va qarorlarning, Prezidentning Farmonlari, qarorlari hamda farmoyishlarining va boshqa normativ hujjatlarning, ijtimoiy va iqtisodiy dasturlarning bajarilishi va davlat intizomiga rioya qilinishi yuzasidan mansabdor shaxslarning javobgarligini tekshirish vazifasi yuklangan.

Qonuniylikni mustahkamlashda viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari

Kengashlari - davlat hokimiyatining vakillik organlari muhim rol o'ynaydi. Mahalliy hokimiyat organlari O'zbekistonning qonunlarini, Prezident Farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini bajaradi, Respublika va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni muhokama qilishda qatnashadi.

Respublika Konstitutsiyasining 100-moddasiga asosan mahalliy davlat hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi: qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash; hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish, mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqdar, yig'implarni belgilash, mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish va fuqarolik holati aktlarini qayd etish.

Demak, qonunlarning quyi davlat organlari, jamoat birlashmalari va fuqarolar tomonidan bajarilishini ta'minlash mahalliy xalq deputatlari Kengashlarining asosiy vazifasidir. Ularga qonuniy ravishda nafaqat o'zlariga bo'ysunuvchi korxonalar va tashkilotlarning, balki o'z hududlarida joylashgan respublikaga bo'ysunuvchi korxonalar va tashkilotlarning ham qonunlarga rioya qilishlarini nazorat qilish huquqi berilgan.

Xalq deputatlari Kengashlari va ijro etuvchi organlarning qonunlarni bajarishi hayotning barcha sohalarida qonuniylikni mustahkamlashning muhim shartidir.

Xalq deputatlari ham qonuniylik va huquqiy tartibotni mustahkamlashda faol qatnashadi. Ular davlat hokimiyati vakili sifatida qonunlarni buzmaslikni talab qilish huquqiga egadir.

Deputat so'rovi - deputatlar zarur bo'lgan hollarda xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarida boshqaruv organlaridan o'z ish faoliyatining har qanday masalalari bo'yicha, jumladan qonuniylikning buzilishi bo'yicha tegishli talab va uni mustahkamlash masalasini qo'yadi.

Xalq deputatlari Kengashlari sessiyalari orasidagi davrda deputatlarning qonuniylikni mustahkamlash shakllaridan biri doimiy komissiyalar hisoblanadi, ularning har biri o'z sohasida qonunlar va boshqa normativ hujjatlarni vazirliklar, korxonalar, muassasalar va idoralar o'z ish faoliyatlarida aniq va o'z vaqtida ijro etishini ta'minlashi kerak.

Qonuniylikni mustahkamlashda davlatning ijro etuvchi, ya'ni

boshqaruv organlari muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda boshqaruv organlari 3 guruhga: yuqori, markaziy va mahalliy organlarga bo'linadi. Yuqori boshqaruv organiga - Respublika Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi kiradi. Markaziy boshqaruv organlariga - respublikadagi vazirliklar, davlat qo'mitalari, konsernlar, assotsiatsiya, korporatsiya, kompaniyalar va boshqa idoralar kiradi. Mahalliy davlat boshqaruv organlariga - viloyatlar, tumanlar va shaharlardagi hokimlar boshchilik qiladigan ijroiya organlari kiradi.

Boshqaruv organlari o'z ish faoliyatida qonunlarni va boshqa normativ hujjatlarni qo'llaydi va ularning ijro etilishini ta'minlaydi. Bu organlar jamiyatning tegishli sohalarini boshqarib, o'z hududida intizomni, qonunlarga aniq rioya qilishlikni ta'minlaydi. Ular ijtimoiy sohaning o'zlariga yuklangan tomonlarini idora etib, qonun va boshqa normativ hujjatlarning ijrosini ta'minlaydi.

Davlat boshqaruv organlarida qonuniylik tamoyiliga amal qilish, Konstitutsiya va qonunlarning bajarilishini ta'minlash intizom va qonunchilikni mustahkamlaydi. Bu organlar qonun asosida barcha mulkchilik shakllarini, inson huquqi va erkinliklarini himoya qiladi va jamoat tartibini mustahkamlaydi. Qonuniylik tamoyiliga qat'iy amal qilish boshqaruv organlari ishini ham yaxshilaydi. Bu esa fuqarolarning Huquqiy ongiligini o'stirishga olib keladi.

Davlat boshqaruv organlarida ijroni nazorat qilish va tekshirishning asosiy vazifasi - qarorlarni o'z vaqtida bajarish, bu organlar ish faoliyatini yaxshilash va mansabdor shaxslarning javobgarligini oshirishdan iborat.

Fuqarolarning shikoyat va arizalarini bu organlarning o'zi ko'rib chiqishi va ularni hal qilishi qonuniylikni mustahkamlashning muhim shaklidir.

Qonuniylikni va huquqiy tartibotni mustahkamlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning roli va o'rni salmoqlikdir.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish, qonuniylik va huquqiy tartibotni amalga oshirish va mustahkamlash yo'lida huquqni muhofaza qiluvchi organlar: sud, prokuratura, ichki ishlar, adliya vdoralari va boshqalar muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonning sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik

sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy sudi, uning xo'jalik sudi, shu muddatga tayinlanadigan viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar va xo'jalik sudlaridan iborat.

Konstitutsiyaviy sud O'zbekistonda konstitutsiyaviy nazoratning oliy sud organi bo'lib, barcha qonunlarning, Prezident farmonlarining, hukumat va davlat hokimiyati mahalliy idoralari qarorlarining va boshqa normativ huquqiy aktlarning Konstitutsiyamizga mosligini belgilaydi.

O'zbekiston Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sudlov ishlarini qonuniy ko'rish uchun tuzilgan sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. Oliy sud Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar, shahar va tuman sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

O'zbekistonda mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va tadbirkorlar o'rtasida iqtisodiy sohada va uni boshqarish sohasida vujudga keladigan xo'jalik nizolarini Oliy xo'jalik sudi va xo'jalik sudlari qonun asosida ko'rib hal etadi. Sudyalar mustaqil bo'lib, faqat qonunga bo'ysunadilar. Ularning odil sudlovni amalga oshirishida hech kimning aralashishiga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Prokuratura organlariga respublika Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyat, tuman va shahar prokurorlari kiradi. Ularning asosiy vazifasi mamlakatning barcha hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan oliy darajada nazoratni amalga oshirishdir. O'zbekiston Konstitutsiyasining 120-moddasiga binoan, prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo'ysunib amalga oshiradi.

Adliya organlari - respublika Adliya vazirligi, viloyat hokimliklari qoshidagi adliya boshqarmalari bo'lib, ular qonuniylik va huquqiy tartibotni mustahkamlash uchun katta ish olib boradi. Ular mamlakatda qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qilib, davlat, tadbirkorlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi. Bular turli huquq buzilishlariga qarshi kurashib, ularni bartaraf etadi.

Militsiya organlariga O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi, viloyatlar, tuman va shaharlar hokimliklari huzuridagi ichki ishlar boshqarma va bo'limlari kiradi.

Joylardagi ichki ishlar organlari o'z faoliyatida ikki tomonlama - mahalliy hokimiyat organlariga va ichki ishlar yuqori organlariga bo'ysunadi. Mamlakatda jamoat tartibini saqlash, mulkning turli shakllarini qo'riqlash, korxonalar, muassasalar, birlashmalar, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquq va burchlarini qonun buzilishlaridan himoya qilish militsiyaning eng muhim vazifasi hisoblanadi. Bu organlar jinoyatchilikning va boshqa qonun buzilishlarining oldini olishga asosiy e'tiborini qaratadi va shu sohada katta ish olib boradi. Huquqiy tartibotning buzilishiga olib keladigan sabablarni va shart-sharoitlarni o'rganib, ularni bartaraf etish choralarini ko'radi. Aholi o'rtasida huquqiy bilimlarni targ'ib qiladi, jamoat tartibini saqlash va turli qonunbuzarliklarga qarshi kurash masalalari bo'yicha chiqarilgan amaldagi qonunlarni xalq o'rtasida tushuntirib beradi.

Militsiya organlari ko'cha, maydonlarda, istirohat bog'larida, transport yo'llarida, vokzallarda va boshqa shu singari jamoat joylarida tartibni saqlash va mustahkamlashni ta'minlaydi.

1-§. Jahon yuridik xaritasi

Jahon huquqiy madaniyati - insoniyat tarixida to'plangan huquqiy qadriyatlarning majmuidir. Har bir mamlakat jahon huquqiy madaniyatiga muayyan hissa qo'shgan. Jahon huquqiy madaniyati - umuminsoniy va milliy huquqiy g'oyalari, kechinmalar, ta'limotlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Har bir milliy huquqiy tizim jahon huquqiy madaniyatining tarkibiy qismidir. Shu bois jahon huquqiy xaritasini hozirgi zamon asosiy huquqiy tizimlari orqali ta'riflash mumkin. Ammo, dunyodagi 200 ga yaqin milliy huquqiy tizimlarning barchasini ko'rib chiqishning imkoni ham yo'q, kerak ham emas. Shuning uchun yuridik tipologiya masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. XXI asr bo'sag'asida milliy huquqiy tizimlarning soni deyarli uch barobarga ko'paydi va hozirda ularning soni 200 taga yaqinlashdi. Albatta, gap milliy huquqiy tizimlarning soni va ularning xilma-xilligida emas. Bunda yuridik tipologiya dunyo huquqiy xaritasini ko'p jihatdan har tomonlama tahlil qilishning dastlabki zaruriy shartidir.

Yuridik tipologiyaning asosiy ob'yekti quyidagi tushunchalardir: «dunyo huquqiy xaritasi», «huquqning tarixiy tipi», «huquqiy tizim oilasi», «milliy huquqiy tizim».

Huquqiy tizim deganda, tor ma'noda «milliy huquqiy tizim» deb ataladigan ma'lum davlatning huquqi tushuniladi. Bunda «huquqiy tizim» tushunchasi «huquq tizimi» tushunchasining sinonimi emas, chunki keyingisi ob'yektiv va sub'yektiv omillar bilan belgilanadigan, huquq sohasining tuzilishi, o'zaro aloqasi va munosabatini ochib beradigan institutsional tushunchadir.

Huquqiy tizim huquq tizimga nisbatan keng tushuncha. U huquqning institutsional tuzilishi (huquq tizimi) bilan birga, jamiyat huquqiy hayotining boshqa qator tarkibiy qismlarini ham o'z ichiga oladi. Ular tahlil qilish huquqiy rivojlanishning faqat bir institutsional tuzilish bilan ochib bo'lmaydigan tomonlarini va jihatlarni ochish imkonini beradi. «Huquqiy tizim» tushunchasida «huquq tizimi»dan farqli o'laroq, huquq sohasining ichki kelishuvchanligi aks ettirilbina qolmasdan, balki ularning muxtorligi mustaqil huquqiy tuzilmalar sifatida aks ettiriladi.

Keng ma'noda ishlatiladigan «huquqiy tizim» tushunchasi qiyosiy huquqshunoslik bilan uzviy bog'liq. Bu yerda atamalar ancha xilma-xildir. Masalan, R.David «huquqiy tizimlar oilasi», K-O.Ebert va M.Reynstayn «huquqiy doiralar», I.Sabo «huquqiy tizimlar shakli», S.S.Alekseyev «tuzilmaviy umumiylik» atamalarini ishlatadi. Eng ko'p tarqalgani «huquqiy oila» atamasidir.

«Huquqiy oila» tushunchasi o'zaro o'xshash yuridik belgilarga ega bo'lgan huquq tizimlarining nisbatan birligini anglatish uchun xizmat qiladi va aytib o'tilgan tizimlarning muayyan tarixiy rivojlaniishi xususiyatlarini, ya'ni tuzilishi, huquq manbalari, yetakchi huquq institutlari va sohalari, huquqiy madaniyati, an'anasi kabilarni aks ettiradi. U, eng avvalo, «huquqning tarixiy tipi» tushunchasiga nisbatan ikkilamchi, yordamchi hisoblanadi, huquq shaklining nisbatan mustaqilligini, huquqning texnik-yuridik mazmunini, o'ziga xosligini aks ettiradi. Shunday qilib, huquq oilasi deganda, bir huquq chegarasida tarixiy shakllanishining o'xshashligi asosida birlashgan milliy huquq, tizimlarining ozmi yoki ko'pmi keng majmui, huquq manbalari tuzilishi, etakchi huquq sohalari va huquqiy institutlari, huquqni qo'llash, yuridik fanning umumiy jihatlari tushuniladi.

«Huquqiy tizim» tushunchasi keng ma'noda «huquqning tarixiy tipi» tushunchasiga o'xshash tushuncha sifatida qo'llaniladi. Bu tushunchalarning ikkinchisi bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyadagi huquqiy tizimlarning mohiyatan tavsifini umumlashganligicha qamrab oladi va eng muhimi, shu tizimlarga ham xosligini ifodalaydi. Biroq «huquqning tarixiy tipi» tushunchasi hozirgi zamon huquqiy tizimlarining barcha ko'rinishlarini qamrab olmaydi. Huquqiy tizimlarning umumiy belgilari mos kelganda, ayniqsa, ular huquqning umumiy nazariyasi uchun muhim bo'lgan o'ziga xos tarixiy tavsifi bilan farqlanadi.

Yuridik adabiyotlarda butun yer sharidagi milliy huquqiy tizimlarni e'tiborga olib, «dunyo huquqiy xaritasi» (V.A.Tumanov), «dunyoning yuridik jug'rofiyasi» (V.Knapp), «huquqiy tizimlar hamjamiyati» (J.Stalev) va boshqa atamalar ishlatiladi.

Bu atamalar yer sharida mavjud bo'lgan milliy huquqiy tizimlarni ularning o'ziga xos belgilari bilan birga qamrab oladi.

2-§. Yuridik tipologiya va tasniflash

«Tipologiya» va «tasniflash» tushunchalari aynan o'xshash emas. Tasniflashga nisbatan tipologiya kengroq tushuncha. U barcha bo'g'inlari umumiy rivojlanish qonuniyatlariga ega bo'lgan sifatiy o'xshashlik yig'indisini e'tiborga oladi. Mohiyatan tipologiya bilan tasniflashning aloqasi umumiy va maxsus birlik sifatida ko'rsatilishi mumkin. Tipologiya tasniflashga tayanadi, mantiqan bilish jarayoni undan keyin keladi, uning kamchiliklarini bosib o'tadi, bu ma'noda uning to'g'ridan-to'g'ri davomi hisoblanadi.

Dunyo miqyosidagi tipologiyada hozirgi zamon huquqiy tizimlari huquqning ma'lum tarixiy tipiga tegishliligicha qarab aniqlanadi. Uning tuzilishi uchun ishlatiladigan mezon tegishli ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar tomonidan berilgan huquqiy tizimlar mohiyatini e'tiborga oladi. Shunday qilib, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzum tipologik mezon deb hisoblanishi va u hozirgi zamon huquqiy tizimlarining dunyo miqyosidagi tipologiyasi, ya'ni huquqning tarixiy tiplarini tuzish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Hozirgi zamon huquqiy tizimlarining dunyo miqyosidagi tipologiyasi shu muhim narsani qayd qiladiki, busiz huquqning tarixiy tipi mavjud bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. U huquqiy tizimlarni turli shakl va ko'rinishlarda bo'ladigan tegishli ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning tarkibiy qismi deb ta'riflaydi.

Yuridik tipologiya muammosi umumiy va maxsus munosabatlar bilan hal etilmaydi, shuningdek oraliq sifatidagi daraja ham mavjud, usiz hozirgi zamon huquqiy tizimlarini o'rganib bo'lmaydi. U hozirgi zamon huquqiy tizimlarini umumiy va xususiy o'rganishda o'zaro aloqadorlik sifatida falsafiy tushunchalarni qo'llashni ko'zda tutadi. Bu yerda so'z uch tomonlama aloqa, ya'ni huquqning tarixiy tipi - dunyo miqyosidagi tipologiya natijasi, huquqiy oilani tasniflash natijasi va muayyan milliy huquqiy tizim haqida boradi. Har bir milliy huquqiy tizimda, birinchidan, barcha huquqiy tizimlarga, umuman, huquqqa tegishli huquqning umumiy belgilari; ikkinchidan, ularning ayrimlari bilan huquqning ma'lum bir tarixiy doirasida birlashuvchi xususiyatlar (tipologik belgilar), uchinchidan, huquq oilasi va huquq guruhi doirasida birlashuvchi xususiyatlar va nihoyat, faqat tegishli milliy huquqiy tizimlargagina xos bo'lgan xususiyatlar aniqlanadi.

Yuridik tipologiya doirasida turli huquqiy tizimlarni muayyan-

tarixiy, yuridik-texnikaviy va boshqa xususiyatlari jihatdan tasniflash an'anasi mavjuddir.

Ma'lumki, huquqiy tipologiyaning ikkala turi uchun ham o'zaro aloqa, shartlashilganlik, bir-birini o'zaro to'ldirib turishlik xos bo'lsa-da, ular bir-biriga qarama-qarshi qo'yilmasligi kerak. Bunda umumiy tipologiya uning ichidagi tasniflash uchun metodologik asos rolini bajaradi, oxirgisi esa konkretlashtiradi va u yoki boshqa huquqning tarixiy tipi doirasida huquqiy tizimlarning eng muhim umumiy belgilarini ma'lum ma'noda shakllantiradi.

Tasniflash umumiy tipologiyaning o'ziga xos xususiyatlari bilan o'zaro aloqadorligini hisobga olmasligi mumkin emas, va aksincha. Umumiy tipologiya bilan huquqiy tizimlarning tasniflash birligidagina dunyo huquqiy xaritasi haqida umumiy tushuncha olish mumkin.

Tasniflash huquqiy tizimlar darajasida ham, huquqning yetakchi sohalari darajasida ham bo'lishi mumkin.

Hozirgi zamon huquqiy tizimlari tasnifini huquq oilalari tizimi, huquq guruhleri va alohida milliy huquqiy tizimlar tuzilishi bo'yicha murakkab deb qaramoq lozim. Har bir huquq oilasi tarkibida yana ko'p mayda tasniflarni ko'rish mumkin va, o'z navbatida, ularni ham bir nechta huquq guruhlariga bo'lish mumkin. Masalan, roman-german huquq oilasida fransuz huquqi va german huquq guruhi, umumiy huquq oilasida ingliz huquqi guruhi va Amerika huquq guruhi ajratiladi.

Akademik V.Knapp bunday tasniflashni keltiradi. Masalan, u roman-german huquq oilasida quyidagi huquq tizimlarini farqlaydi: fransuz huquqi, avstriya huquqi, german huquqi, shveysariya huquqi, skandinaviya mamlakatlarining huquqi, huquqning aralash tizimi, kanonik huquq¹.

Hozirgi zamon asosiy huquqiy tizimlarini tasniflashda yurist «yetti o'lchab bir kes» qabilida ish tutishi kerak va, avvalo, huquqiy tizimlarning uncha ko'p bo'lmagan soni bilan chegaralanishi lozim. Agar kimda-kim tasniflashda butun yer sharidagi huquqiy tizimlarni ishlatmoqchi bo'lsa, u empirik material og'irligini torta olmay qoladi. Bugungi kundagi hozirgi zamon huquqiy tizimlarining eng mukammal ro'yxati qiyosiy huquqning xalqaro qomusida keltirilgan. Biroq bu yerda ham dunyodagi barcha huquqiy tizimlar qamrab olingan

¹ Qarang: В. Крупные системы права в современном мире. Сравнительное правоведение. М., 1978. 228-231 betlar.

emas.

Shunisi qiziqki, yurist, avvalo, huquqiy tizimlarning bosh bo'g'inini aniqlashi, so'ng ularning keyingi jug'rofiy tarqalishini aniqlamog'i lozim. Agar dunyo huquqiy xaritasiga nazar tashlansa, shuni ko'rish mumkinki, yer sharining uchdan ikki qismi roman-german va ingliz umumiy huquqlaridan kelib chiqadigan huquqiy tizimlar asosida yashamoqda.

Tasniflash asosi bo'lib birinchidan, ancha keng yoki aksincha juda tor ilk jug'rofiy doira xizmat qilishi mumkin. Ikkinchidan, mezonlar emas, balki tarixiy xarakterda ham bo'lishi mumkin. Va, nihoyat, bu vazifani yuridik institutlar va huquq sohalari ham bajarishi mumkin. Umuman, hozirgi zamon huquqiy tizimlarini keng doirada tasniflashda ishlatiladigan mezonlar turli xil omillarni, ya'ni etnik, madaniy, jug'rofiy, diniy omillardan boshlab «huquqiy texnika», «huquq uslubi»gacha hisobga olishi mumkin. Shu bois, yurist olimlar qancha bo'lsa, tasniflashlar ham shunchalik ko'p.

Hozirgi zamon huquqiy tizimlarini tasniflashni ikkita asosiy yo'nalishga bo'lish mumkin. Tabiiyki, shartli ravishda ulardan har biri o'z navbatida o'ziga xos ma'lum xususiyatlarga ega bo'lgan bir qancha turlariga ega.

Birinchi yo'nalish fransuz olimi R.Davidning asarlarida o'z aksini topgan. Uch tomlik asarida olim uchta «huquq oilasi» (roman-german, ingliz-sakson, sotsialistik)ni ajratib ko'rsatadi va ularga dunyo xaritasining beshdan to'rt qismini o'z ichiga oladigan va «diniy va an'anaviy tizimlar» deb nomlangan butun yuridik dunyo tutashadi².

Bunday tasniflashga ikkita mezon, ya'ni mafkuraviy (bunga R.David diniy, falsafiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni kiritadi) va yuridik texnika mezoni asos bo'ladi. O'z navbatida, ularning ikkalasini ajratgan holda emas, balki umumlashtirgan holda foydalanish zarur. Zamonaviy yuridik fanda R.Davidning tasniflashi mashhur. Masalan: fransuz universitetlarida «Hozirgi zamon asosiy huquqiy tizimlari» o'quv fanining o'qitilishi xuddi shu tasnif asosida olib boriladi.

Ikkinchi yo'nalishning ko'zga ko'ringan vakili nemis yuristi K.TSvaygert hisoblanadi. Tasniflashga besh omil, ya'ni:

1) huquqiy tizimning paydo bo'lishi va taraqqiyoti;

² Давид Р. Основные правовые системы современности. М., 1988. 39-48-бетлар.

- 2) yuridik fikrlashning o'ziga xosligi;
- 3) o'ziga xos huquqiy institutlar;
- 4) huquq manbaiari va ularni sharhlash usullari;
- 5) mafkuraviy omillarni nazarda tutuvchi «huquqiy uslub» («huquq uslubi») mezon bo'lib xizmat qiladi.

Shu asosda K.TSvaygert sakkizta «huquqiy doira»; roman - german, skandinav, ingliz-amerika, sotsialistik, islom huquqi, hind huquqini farqlaydi.

Asosiy huquqiy oilalarni ajratish uchun bir-biri bilan o'zaro bog'liq uchta mezon:

- 1) huquqiy tizimlarning kelib chiqishi;
- 2) huquq manbalari tizimi;
- 3) huquqiy tizimlar tuzilishi, yetakchi huquqiy institutlar va huquq sohalarini muhim hisoblanadi.

Huquq asoslarining shakl, tizim va iyerarxiyasi huquqiy oilaning holatini tavsiflaydi va ularni tasniflashning muhim mezonini o'zida ifodalaydi. Agar roman-german huquq oilasi yozma kodifikatsiyalashgan huquq, ya'ni qonunlarda o'z ifodasini topgan normalar yig'indisidan iborat bo'lsa, bunda doimiy va keng norma ijodkorligi qonunlarga birkiriladigan umumiy tamoyillarga yo'l topadi. Ingliz-amerika umumiy huquqi esa kontinental huquq tizimidan shu ma'noda farqlanadiki, uning asosida sud pretsedenti yotadi: u o'zida majmualashtirilmagan huquqiy tizimni ifoda etadi.

Har bir huquq oilasi manbalari tizimi, avvalo, tarixiy rivojlanishning o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan skandinav huquqi asoslari alohida qiziqish uyg'otadi. Mana yuz yildan ortiq vaqt davomida ko'pchilik qonunchilik aktlari bu yerda skandinav davlatlari hamkorligi natijasida qabul qilinadi. Agar ilgari bu qonunchilik hamkorligi faqat xususiy huquqqa tegishli bo'lsa, endi u butun ommaviy huquq sohasini ham qamrab oladi.

Huquq manbalari tizimining tarixiy rivojlanish xususiyatlarini yuridik fikrlash obrazi deb ataladigan holat ham belgilaydi. Masalan, roman-german yuristi uchun tushunarli yondashish, tushunarli tuzilishga, hamma huquq sohalarini to'la tizimlashtirishga intilish va mantiqiy aloqalarni mantiqan ko'rib chiqish xosdir. Ingliz yuristi o'zini umumlashtirish va mavhumlashtirish bilan ovora qilib o'tirmaydi. U o'z tajribasiga asoslanib, o'z ishini yaxshi va

muvaffaqiyatli tashkil qilishi mumkin.

Huquqiy tizimlarni tasniflashda umuman huquq sohalari o'rnini, ayniqsa, konstitutsiyaviy, fuqarolik, savdo, jinoiy, protsessual kabi yetakchi sohalarini e'tiborga olmog'i lozim. Bir xil huquqiy tizim huquqning qaysi sohasi mezon sifatida olinishiga qarab, turli huquq oilasiga kiritilgan bo'lishi mumkin. Masalan, xususiy huquq asosida ishlab chiqilgan tasniflashda Lotin Amerikasi davlatlari huquqiy tizimi ba'zi bir farqlanishi bilan roman-german huquq oilasiga mansubligi seziladi. Lekin konstitutsiyaviy huquq asosidagi tasniflashda bu mamlakatlarning ko'pchiligi umumiy huquq tizimidagi Amerika huquqi guruhidga kiritiladi.

Skandinav huquq tizimi esa roman-german huquq tizimiga mansub. Bu yerda xususiy huquq bilan ommaviy huquq o'rtasidagi chegara ozroq aniqlikka egaligi hisobga olinsa, u holda u «umumiy huquq»ga yaqinroqdek tuyuladi.

Shunday qilib, uchta o'zaro bog'liq mezonlar orasidan quyidagi sakkizta asosiy huquq oilasini ajratish mumkin:

roman-german huquq oilasi, Lotin Amerikasi huquq oilasi, umumiy huquq oilasi, skandinav huquq oilasi, musulmon huquq oilasi, hindu huquq oilasi, odat huquqi oilasi, Uzoq Sharq huquq oilasi.

3-§. Roman-german huquq oilasi

Roman-german huquq oilasiga Ovrupo qit'asida Rim kanonik huquqi va mahalliy an'analar asosida yuzaga kelgan huquq tizimlari kiritiladi. U Rim huquqini italyan, fransuz va nemis universitetlarida o'rgatish asosida XII-XVI asrlarda yustinian qonunlari to'plami asosida shakllangan, ko'pgina Ovrupo davlatlari uchun umumiy bo'lgan yuridik fanni o'rganish asosida yuzaga keldi. «Rim huquqi retsepsiyasi» nomini olgan jarayon yuz berdi. Boshida bu retsepsiya nazariy shaklda edi. Rim huquqi bevosita qo'llanilmasdan, uning mohiyati, rivojlangan tizimi, ichki mantiqi, yuridik texnikasi o'rganilar edi. Xuddi shu narsa Ovrupo davlatlarining huquqiy tizimlarida ma'lum bir o'xshashlikka olib keldi. Shu yo'nalishda kanonik huquqning ta'siri ham ko'zga tashlanadi. Milliy kodifikatsiyalash huquqqa aniqlik va ravshanlik berdi, uning amaliy ishlatilishini ancha osonlashtirdi va kontinental Ovrupoda vujudga kelgan huquq

normasi va umuman huquqni tushunishning mantiqan tugallanishi bo'lib maydonga chikdi. Ular roman-german huquq oilasining bir butun holat sifatida shakllanishini tugalladi.

Roman-german huquq oilasi uchun yozma huquqning mavjudligi, huquq asoslarining bir butun iyerarxik tizimi, uning ommaviy va xususiy huquq sohalariga bo'linishi, shuningdek huquq tizimlarining sohalarga bo'linishi xosdir. Roman-german huquqi oilasidagi barcha mamlakatlar huquqi uchun uni tizimlashtiruvchi xususiyati - ozmi-ko'pmi bir xil huquq tamoyillarining yakka tizimi umumiy sanaladi. Bu mamlakatlarning barchasida yozma konstitutsiyalar mavjud bo'lib, ulardagi normalar orqali oliy yuridik nufuz tan olinadi. Ko'pchilik davlatlarda bu nufuz odatdagi qonunlarning konstitutsiyaga mosligi yuzasidan sud nazoratini o'rnatish bilan mustahkamlanadi. Konstitutsiyalar turli davlat organlarining qonunchilik vakolatlarini belgilaydi va shu vakolatga muvofiq turli huquq manbalarini darajalashtirishni o'tkazadi.

Roman-german yuridik nazariyasi va qonunchilik amaliyoti odatdagi qonunning uch turini farqlaydi: to'plamlar, maxsus qonunlar (davriy qonunchilik) va normalarning to'plangan matnlari.

Ko'pchilik kontinental mamlakatlarda fuqarolik (fuqarolik yoki savdo), jinoyat, fuqarolik protsessual, jinoyat protsessual kodekslari va boshqa ba'zi bir qabul qilingan qonunlar amal qilayapti.

Odatdagi qonunchilik tizimi ham ancha kengaytirilgan. Qonunlar ijtimoiy munosabatlarning alohida sohasini tartibga soladi, masalan, hissadorlik qonunlari. Har bir mamlakatda ularning soni juda ko'p. Roman-german huquqi manbalari orasida qonunga binoan qabul qilingan aktlarning, reglamentlar, ma'muriy farmoyishlar, vazirlar dekretlari va hokazolarning roli katta va bu rol yanada ortib bormoqda.

Roman-german huquqi manbalari tizimida odat huquqi o'ziga xosdir: u faqat qonunga qo'shimcha sifatida harakat qilib qolmadan, balki «qonundan tashqari» ham amal qila oladi. Shunday holatlar bo'ladiki, odatlar «qonunga qarshi» bo'lib qoladi. Masalan, Italiya navigatsiya huquqida dengiz odati fuqarolik kodeksi normasidan ustun kelib qoladi. Bugungi kunda odat ba'zi istisnolarni e'tiborga olmaganda, mustaqil huquq manbai xususiyatini yo'qotdi.

Sud amaliyoti holatining ancha qarama-qarshi ekanligini ko'rish

mumkin. Lekin shunga qaramay, sud amaliyotini yordamchi manbalar qatoriga qo'shish mumkin emas. Birinchi navbatda bu «kassatsion pretsedent» bilan bog'liq. Chunki kassatsion sud - oliy pog'onadir, shunda «oddiy» sud qarori masalan, qiyoslash yoki umumiy tamoyillarga asoslangan, kassatsion bosqichini o'tib, shunga o'xshash ishlarni hal qilishda boshqa sudlar tomonidan farqli pretsedent deb qaralishi mumkin.

Roman-german huquqi tizimida, shu huquq oilasi qurilishining asosiy tamoyillarini ishlab chiqqan doktrina alohida o'rin egallaydi. Doktrina qonunni tayyorlash faoliyatida ancha muhim rol o'ynaydi. U huquqni qo'llash faoliyatida qonunlarni shunlash ham ishlatiladi.

Xalqaro aloqalarning rivojlanishi bilan milliy huquqiy tizimlar uchun xalqaro huquq katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ba'zi bir davlatlarda xalqaro shartnomalarga, ichki qonunlarga nisbatan, katta yuridik kuch berilmoqda. GFR ning 1949 yildagi Konstitutsiyasida «xalqaro huquqning umumiy tamoyillari» qonunga nisbatan ustunlikka egaligi to'g'ridan-to'g'ri aytiladi. Shunday qilib, ierarxiya tizimining yagona chizmasi doirasida aksentlarning mohiyat aralashuvi bo'lsada, roman-german oilasiga kiruvchi davlatlar uchun bunday chizmalar xosdir. Xuddi shunday huquqiy tizim haqida uning sohalarga bo'linishini aytish mumkin.

Roman-german oilasiga kiruvchi barcha davlatlarda huquqni ommaviy va xususiyga bo'lish tan olinadi. Bunday bo'linish umumiy xarakterga ega va oxirgi paytlarda o'zining avvalgi ahamiyatini yo'qotdi. Eng umumiy ma'noda shuni aytish mumkinki, ommaviy huquqqa davlat organlari maqomi va faoliyati tartibini belgilaydigan va individ bilan davlatning munosabatlarini belgilaydigan soha va institutlar tegishlidir. Xususiyga esa, shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan soha va institutlar tegishli. Har bir bu ikki sohaga turli davlatlarda deyarli bir xil sohalar mos keladi. Lekin, masalan, GFRda ommaviy va xususiy huquq o'rtasidagi bo'linish, Fransiyadagiga nisbatan unchalik sezilmaydi, umumiy, ma'muriy va konstitutsiyaviy adliya organlarini tashkil qilish vakolatida Fransiyadagiga nisbatan boshqacha aksini topgan.

Turli Ovrupo davlatlari huquqining roman-german huquq oilasiga mansubligi milliy huquqiy tizimlar o'rtasidagi ma'lum farqlarni istisno qilmaydi. Shuni eslatib o'tamizki, bir tomondan

fransuz huquqi, ikkinchi tomondan german huquqi shu modelga xizmat qilishdiki, buning asosida roman-german huquq oilasi ichida ikkita huquq guruhi ajratiladi: roman guruhi; bunga Belgiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Italiya, Portugaliya, Ispaniya kiradi, german huquq guruhi, unga Avstriya, Shveytsariya va boshqa davlatlar tegishli. Roman-german huquqi oilasida fransuz huquqida eng kuchli deb tanilgan «rim (roman) huquqi» «german huquqi» guruhidan farq qiladi, «german huquqi»ga german huquqi fani ancha ta'sir ko'rsatgan.

4-§. Angliya-Amerika huquqiy tizimlari (umumiy huquq oilasi)

Asosiy huquq manbai harakatga kiritilgan qonun hisoblangan roman-german huquqiy davlatlaridan farq qilib, ingliz-sakson huquqiy oilasiga kiruvchi davlatlarda sudylar tomonidan shakllantirilgan va sud pretsedentlarida ifodalangan norma huquqning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Ingliz-amerika umumiy huquqi, rim huquqi kabi «himoya bor joyda huquq bor» tamoyiliga asosan rivojlangan «Adolat huquqi» qoidalari bilan to'ldirilgan va takomillashtirilgan ingliz umumiy huquqini kodifikatsiya qilishning barcha urinishlariga (I. Bentam) qaramasdan, u sudlar tomonidan tuzilgan pretsedent huquqi hisoblanadi. Bu statut (qonunchilik) huquqi rolining o'sishini istisno qilmaydi. Shunday qilib, ingliz huquqi uch xil tuzilishga ega bo'ldi: umumiy huquq - asosiy manba; bu asosiy manbani tuzatuvchi va to'ldiruvchi adolat huquqi; statut huquqi - parlament tomonidan chiqarilgan yozma huquq.

Ingliz-amerika huquqiy oilasida Angliya huquqi guruhini va kelib chiqishi jihatidan u bilan bog'liq AQSH huquqini farqlash kerak. Angliya huquqi davlatlari guruhiga Angliya bilan birga Britaniya imperiyasining sobiq mustamlakalari - Irlandiya, Kanada, Avstraliya, yangi Zellandiya kiradi. Hozirgi davrda 36 ta davlat Hamdo'stlik a'zosi hisoblanadi. Ma'lumki, Angliya yirik mustamlakachi davlat bo'lib, ingliz umumiy huquqi ko'pgina mamlakatlarda tarqalgan edi. Buning natijasida bugungi kunda dunyo aholisining uchdan bir qismi ingliz huquqi normalari asosida yashamoqda.

AQSH huquqi ingliz umumiy huquqiga asoslangan bo'lib, hozirgi paytda to'la mustaqildir. Fransuz huquqi sezilarli rol

o'ynaydigan Luiziana shtati va hududida ispan huquqi tarqalgan janubiy shtatlar bundan mustasno.

Umumiy huquq - o'zida tarixning chuqur ta'sirini mujassamlashtirgan tizim bo'lib, bu tarix esa to XVIII asrgacha, istisnosiz ingliz huquqi tarixidir, u uch yo'l: umumiy huquqning shakllanishi, uni adolat huquqi bilan to'ldirish, statutlarini sharhlash bilan rivojlanadi.

Biroq agar kontinental Ovrupo yuristlari huquqni o'rnatilgan tartiblar majmui deb qarasarlar, inglizlar uchun esa, u, asosan, sud nima qarorga kelsa shuni bildiradi. Qit'ada yuristlar, avvalambor, bu holat qanday sharhlanishi bilan qiziqsalar, Angliyada esa sud to'g'ri qarori chiqarishi uchun u qaysi tartibda qurilishi bilan qiziqishadi. Fransiyada, Germaniyada, Italiyada, roman-german huquq oilasiga kiruvchi barcha davlatlarda odil sudlov doimo universitetlarning yurist diplomiga ega bo'lgan sudyalar tomonidan amalga oshirilgan. Hatto Angliyada XIX asrgacha «yuqori sudlar»da ham yuridik universitet ma'lumotiga ega bo'lish shart emas edi; ular advokat bo'lib ishlash, sudlov ishlari amaliyotini o'rganish jarayonida mutaxassislikni egallar edilar. Faqat bizning davrimizda advokat yoki sudya bo'lish uchun universitet diplomini olish zarur odat bo'lib qoldi. yuridik kasb bilan shug'ullanish imkonini beradigan professional imtihonlar jiddiy masala bo'lib qoldi, hozirgi kunda ularni yuridik diplomning muqobili deb qarash mumkin. Lekin bugungi kunda ham inglizlar nazarida ishlarning sudda vijdonli kishilar tomonidan ko'rillishi asosiy mezon bo'lib qoldi. Ularning fikricha, umumiy axloqning bir qismini tashkil qiluvchi sudlov ishlarining asosiy tamoyillariga rioya qilish «yaxshi sudlash» uchun yetarlidir.

Angliya huquqi hozirda ham asosan muayyan holatlarni ko'rib chiqish jarayonida sudlar tomonidan ishlab chiqilgan sud huquqi bo'lib qolmokda. Pretsedent qoidasi nuqtai nazaridan olib qaraganda, bunday yondashish nizomni yetkazib beradi, bunda umumiy huquq normalari ko'proq o'zgaruvchan va ozroq mavhum hisoblanadi, lekin roman-german huquq tizimi normalariga nisbatan huquqni ko'proq kazuistik qiladi.

Anglo-sakson huquq oilasida huquq tuzilishi (huquq sohalari va institutlariga bo'lish), huquq konsepsiyasi, huquq, manbalari tizimi,

yuridik til - bularning hammasi roman-german huquq tizimiga nisbatan butunlay boshqacha. Ingliz huquqida huquq ommaviy va xususiyga bo'linmasdan, umumiy huquq va adolat huquqiga farqlanadi.

Ingliz huquqi sohalari kontinental huquq tizimidagidek ifodalangan, buning sharti ko'proq ikkita omilga bog'liq. Birinchidan, hamma sudlar umumiy yurisdiksiyaga ega, ya'ni turli kategoriyadagi, masalan: ommaviy va xususiy-huquqiy, fuqarolik, savdo, jinoiy ishlarni ko'rib chiqishlari mumkin. Bo'lingan yurisdiksiya huquq sohaslarini chegaralashga olib keladi, bixillashtirilgani esa, aksincha yo'nalishda harakat qiladi.

Ikkinchidan, ingliz sud amaliyoti asosiy masalalar bo'yicha qonunchilik islohoti yo'li bilan asta-sekin rivojlandi. Angliyada Ovrupocha tipdagi kodekslar yo'q. Shuning uchun ingliz yuristiga huquq bir xil bo'lib ko'rinadi. Ingliz doktrinasi huquqning tarkibiy bo'linishi haqidagi munozarani bilmaydi.

Amerika inqilobi birinchi o'ringa o'zining «inglizcha o'tmishidan» voz kechuvchi mustaqil amerika huquqini barpo etish g'oyasini surdi. 1787 yilda yozma federal konstitutsiyaning va AQSH tarkibiga kirgan shtatlar konstitutsiyalarining qabul qilinishi bu yo'lda birinchi va muhim qadam bo'ldi. Ingliz huquqida shu bilan birga pretsedent tamoyilidan va umumiy huquqning boshqa xarakterli belgilaridan butunlay voz kechish ko'zda tutiladi. Lekin Amerika huquqi roman-german oilasiga o'tmaydi. Faqat ba'zi shtatlar, ya'ni sobiq fransuz va ispan mustamlakalari bo'lgan shtatlarda (Luiziana, Kaliforniya) roman tipidagi kodekslar qabul qilindi, ular baribir keyinchalik asta-sekin «umumiy huquq» tomonidan singdirib yuborildi.

Umuman, AQSHda Angliyadagiga o'xshash dualistik tizim: pretsedent huquqi qonunchilik bilan o'zaro harakatdagi tizim vujudga keladi; Angliyada va AQSHda xuddi shunday huquqning umumiy konsepsiyasi va uning roli mavjud, umuman ikki davlatda ham huquqni bir xilda bo'lish tamoyili, huquq normalarining bir xil tushunchasi va ularni izohlash mavjud.

Ingliz yuristi singari amerikalik yurist uchun huquq - bu, avvalambor, sud amaliyotidir. Qonun chiqaruvchi tomonidan chiqarilgan normalar ko'p marotaba sudlar tomonidan qo'llangan va

sharhlangandagina Amerika huquqiy tizimiga kiritiladi. Bunda normalarning o'zi emas, balki sud qarorlari dalil sifatida keltiriladi. Shunday qilib, AQSH huquqi umumiy huquq tizimiga o'xshash tuzilishga ega. U yoki bu muammoni ko'rib chiqishga kirishilganda, amerika va ingliz huquqi o'rtasidagi muayyan farqlar yuzaga chiqadi, ularning ko'pi haqiqatdan ham muhim va e'tibordan soqit qilish mumkin emas.

Shunday farqlardan biri AQSH federal tuzilishi bilan bog'liq. AQSH tarkibiga kiruvchi shtatlar ancha keng vakolatlarga ega va bu vakolatlar doirasida ular o'z qonunchiligini va o'z pretsedent huquqi tizimini yaratadi. Shu munosabat bilan shuni aytish mumkinki, AQSH ning 50 ta shtatida 50 huquqiy tizim mavjud va bundan tashqari 1 ta federal huquq tizimi umumiy ravishda ish ko'radi, jami bo'lib 51 ta huquqiy tizim mavjud. Har bir shtat sudi o'z yurisdiksiyasini mustaqil ravishda amalga oshiradi. Shuning uchun, bir shtat sudi qabul qilgan qarorga boshqa sarning sudlari amal qilishi shart emas. Sud amaliyotining bir xilligiga intilish qanchalik kuchli bo'lishiga qaramasdan, baribir turli shtat sudlari bir xil mazmundagi ishlar bo'yicha ba'zan butunlay qarama-qarshi qarorlar qabul qilishi hollari ham uchraydi. Bu esa shtatlar sudlari (ko'pchilik ishlarni ko'rib chiquvchi) qarorlari bilan ma'lum toifadagi ishlarni ko'rib chiqish huquqiga ega bo'lgan federal sudlar o'rtasidagi tafovutlarni chuqurlashtiradigan qarama-qarshiliklarni vujudga keltiradi.

Amerika huquqi ingliz huquqidan yana bir jihati bilan, ya'ni pretsedent tarkibining ko'proq, erkin harakatda bo'lishi bilan farq qiladi. Shtatlarning yuqori sud instansiyalari va AQSH Oliy sudi hech qachon o'z pretsedentlari bilan bog'langan emaslar. Shundan ularning huquqni o'zgarayotgan sharoitga moslashtirish jarayonidagi ancha erkinligi namoyon bo'ladi. Pretsedent bilan ko'proq erkin munosabat, Amerika sudlarining (mashhur ingliz sudlari emas) qonunlarni konstitutsiyaga moslashtirishni nazorat qilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Shtat oliy sudi yoki AQSH Oliy sudi shunday qilib konstitutsion sharhlash pretsedentidan voz kechishi mumkin. Oliy sud tomonidan, ayniqsa, faol ishlatiladigan konstitutsiyaviy nazorat huquqi nisbatan katta obro'ga ega va ko'proq ahamiyatli. Bu avvalo yozilgan konstitutsiyaning borligi, aniqrog'i konstitutsiyalarning butun tizimi: ikki yuz yil amalda bo'lib kelgan federal va

turli yoshdagi shtatlar konstitutsiyalari bilan bog'liq. Shunga qo'shimcha ravishda yuqorida aytib o'tildiki, shtatlarga ancha keng qonunchilik vakolati berilgan va ular undan faol foydalanishmoqda. Shundan katta hajmdagi qonunchilik hujjatlari shtat darajasidagi statut huquqini egallaydi.

AQSH statut huquqida ingliz huquqi bilmaydigan kodekslar ham uchraydi. Bir qancha shtatlarda fuqarolik kodeksi harakatda, 25 tasida - fuqarolik jarayoni, hamma shtatlarda - jinoyat protsessual kodeksi bor. AQSHda kodifikatsiyaning maxsus shakli, bir xil qonunlar va kodekslar deb ataladigan tuzilish bor. Ularning maqsadi qayerda ayniqsa muhim bo'lsa, Huquqning shu tomonlari mumkin bo'lgan birligini o'rnatishdir. Shunaqa qonunlar va kodekslar loyihasini tayyorlashni barcha shtatlar vakillarining umummilliy komissiyasi Amerika huquq instituti va Amerika advokatlar uyushmasi bilan birgalikda amalga oshiradi. Loyiha qonun bo'lishi uchun u shtatlar tomonidan qabul qilinishi kerak. Shunday kodekslar orasida birinchi va eng mashhuri 1962 yilda rasman ma'qullangan umumiy savdo kodeksi hisoblanadi.

AQSHda Angliyadagi kabi qonunning qabul qilinishi, uni sharhlash sud pretsedentiga bog'liq va uning bir xilda sharhlanishiga kafolat yo'q. Bir qator sabablarga ko'ra (mustamlakachilik bosqini, retsepsiya (o'zlashtirish), mafkuraviy ta'sir va boshqalar) Ovrupo chegarasidan tashqarida shakllangan bir qancha milliy huquqiy tizimlar bor. Ular u yoki bu izohlar bilan roman-german huquq oilasiga kiritilishi mumkin. So'z «Lotin Amerikasi huquqi», ya'ni to'g'ridan-to'g'ri roman-german oilasiga kirmasa ham, lekin unga yaqin «skandinav huquqi» haqida bormoqda.

5-§. Lotin Amerikasi huquqiy tizimlari

Lotin Amerikasi mamlakatlari huquqiy tizimlari Lotin Amerikasi davlatlarining tarixiy taqdiridagi umumiylik, ijtimoiy - iqtisodiy tuzum va siyosiy tuzilishning o'xshashligini, ularning ko'pida o'xshash siyosiy-huquqiy institutlarni vujudga keltirdi. Bu bilan ularning huquqiy tizimlari o'xshashligi ham yuzaga keldi. Shuning uchun ham Lotin Amerikasi huquqi haqida gapirish mumkin. Lotin Amerikasi huquqi o'z asosida - kodifikatsiyalangan huquq, xususan kodekslar ovrupocha nusxada tuzilgan. Bu, esa birinchi navbatda uning

roman-german huquq oilasiga yaqinligi haqida gapirish imkonini beradi. Shundan va boshqa o'xshash belgilari - deyarli o'xshash huquq, huquq normasining umumiy xarakteridadir. Xuddi ovropocha, avvalo, kodifikatsiyaning fransuzcha modelini qabul qilishga Lotin Amerikasi davlatlari ma'lum darajada kolonial huquq, o'z tarixiy rivojlanishi bo'yicha fransuz huquqiga yaqin turadigan va Amerika qit'asiga bosqinchilar tomonidan olib kelingan ispan va portugal huquqi xarakteri bilan tayyorlangan edilar.

Xarakterlisi shundaki, hatto AQSHga jug'rofiy jihatdan boshqalarga nisbatan yaqin turgan davlatlar ham ovropocha kontinental model tarafdorlari bo'ldilar. Bunga misol tariqasida Meksikani ko'rsatish mumkin. Bu yerda siyosiy mustaqillik qo'lga kiritilganidan keyin «huquqiy tizimi» huquqning kontinental tizimi roman-german guruhiga xos bo'lgan huquqiy g'oyalar va yuridik texnikani qabul qildi. Roman an'analari Meksikada yana shunda ko'rinadiki, uning XIX asrda qabul qilgan birinchi kodekslari va ko'pgina qonunlari o'zida fransuz va ispan huquqining sezilarli ta'sirini sinab ko'rdi.

O'tgan asrda qabul qilingan ba'zi kodekslar bir qator davlatlarda yangisi bilan almashtirildi yoki sezilarli darajada zamona-viyalashtirildi (masalan, Meksikada 1917 yildagi konstitutsiya qabul qilinganidan keyingidagidek), lekin ko'pchilik hollarda eski kodifikatsiya kuchda qoldi. Bu holat Fransiya va GFRda kuzatilgan holatdagidek va o'z navbatida xuddi o'sha muammo va oqibatlarini keltirib chiqardi. Eski qonunlar ko'p sonli qonunlar va qonunosti aktlari bilan o'rab olindi. Lotin Amerikasi huquqida, ayniqsa, havoila qilingan qonunchilikning roli katta, ya'ni hukumat aktlari, prezidentlik boshqaruv shakli bilan ham va uzoq muddatli «harbiy boshqaruv» bilan bog'liq. Bunda normal qonunchilik faoliyati fakti yo'qqa chiqariladi.

Odat huquqining Lotin Amerikasi huquqi manbai sifatidagi roli davlatdan davlatga o'zgarib boradi. Argentinada u ancha ko'p, Urug'vayda esa, aksincha, oz. Lekin umuman bu yordamchi huquq manbaidir va Ovropo qit'asida u qonunda ko'rsatilgan hollarda ishlatiladi.

To'rtta Lotin Amerikasi davlatlari federativ davlat hisoblanadi: Argentina, Braziliya, Venesuela va Meksika. Bu davlatlar huquqini

xarakterlab, federatsiya va uning a'zolari vakolatining taqsimlanishini hisobga olmoq lozim. Xususan qonunchilik vakolatining asosiy qismi federatsiyaga tegishlidir.

Lotin Amerikasi huquqi roman-german huquqidan avvalo ommaviy huquq sohasida farqlanadi. Agar Lotin Amerikasi davlatlari mustaqillikni qo'lga kiritib, xususiy mulk shaklini kiritishda nazarlarini Ovropaga qaratgan bo'lsalar, konstitutsiyaviy namunani ular AQSHda topdilar. Bu davlatlar konstitutsiyalari amerikacha boshqaruv shakli - prezidentlik respublikasi, boshqa konstitutsiyaviy institutlarni o'zlashtirgan. AQSH, Lotin Amerikasi davlatlarida, xususan, tanlash imkoni ham yo'q edi. AQSH konstitutsiyasi o'sha davrda birdan-bir yozilgan amaldagi respublika konstitutsiyasi edi. Shu bilan bir vaqtda Amerika konstitutsiyaviy namunasi qabul qilish Lotin Amerikasining «dualizmi», unga yevropacha va amerikacha model qo'shilganligini gapirishga asos yaratadi. Lekin shuni alohida qayd qilish kerakki, AQSHdan farq qilib, Lotin Amerikasi davlatlari uchun konstitutsiyaviy barqarorlik xos emas. Masalan, Venesuelada 168 yil ichida (birinchi konstitutsiya qabul qilingan vaqtdan boshlab) yigirmata konstitutsiya, Boliviya esa 152 yil ichida 21 ta konstitutsiya qabul qilingan.

Lotin Amerikasi huquqi xususiyatlaridan yana shuni aytish kerakki, bu mintaqada davlatlari qonunlarning konstitutsiyaga mosligi ustidan sud nazorati instituti, sud konstitutsiyaviy nazoratining amerikacha modeli bilmaydigan holatlar ishlatilishini ham qo'shib, AQSHdan sud tizimi qurilishi va faoliyati tamoyillarini olib (ayniqsa Oliy sudlar tashkil etilishi va vakolatiga tegishli hamma jihatlarni), lekin ko'pincha Amerika modelining ko'rinishini o'zgartirdilar, qator hollarda sud hokimiyatini amalga oshirishning milliy konsepsiyasini ishlab chiqdilar, AQSHdan farq qilib, sud amaliyoti ularning ko'pchiligida huquq manbai hisoblanmaydi. XX asrda Lotin Amerikasi o'tgan davrlarga xos bo'lgan xorijiy siyosiy-huquqiy modellardan ham ommaviy, ham xususiy huquqda andoza olishdan ozod bo'lmoqda. Davlat huquqiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatidagi mahalliy milliy institutlar tashkil etilishi va rivojlanishi tamoyili kuchaymoqda. Konstitutsiyalar matni aniqroq bo'lib bormoqda, o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitni va siyosiy ahvolni, umuman dunyodagi va xususan Lotin Amerikasidagi ahvolni ancha yaxshi hisobga olmoqda.

6-§. Skandinaviya mamlakatlari huquqiy tizimlari

Skandinaviya davlatlari - Shvetsiya, Norvegiya, Daniya, Finlyandiya jug'rofiy jihatdan roman-german huquq oilasi davlatlariga Lotin Amerikasi yoki yaponiyaga nisbatan ancha yaqin bo'lishlariga qaramasdan, Skandinaviya huquqining o'ziga xosligini qayd qilib o'tmoq lozim. Rim huquqi, albatta, skandinav davlatlari huquq tizimining rivojlanishida Fransiya va Germaniyadagiga nisbatan ancha kam rol o'ynagan.

Shimoliy mamlakatlarda Fransiyaning grajdanlik kodeksi yoki Germaniya grajdanlik tuzuklari kabi kodekslar yo'q va bo'lmagan ham.

Bu yerda sud amaliyoti Ovrupo qit'asi mamlakatlariga nisbatan keng ahamiyatli o'rin egallagan.

Skandinaviya huquqi va anglo-sakson tizimiga umumiy huquq deb qarash lozim emas. Shimoliy mamlakatlar huquqiy tizimining tarixiy rivojlanishi ingliz huquqidan mutlaqo mustaqil tarzda taraqqiy etgan. Shuningdek, skandinav huquqi umumiy huquqning pretseident qoidasi, farqlash texnikasi, protsessual huquqning maxsus roli tavsifiy belgilariga ega emas.

Shimoliy huquqiy tizimlarning o'zaro mustaqil bog'liqligi Skandinaviya mamlakatlari o'rtasidagi mustahkam siyosat, iqtisodiy va madaniy aloqalarning doimiy mavjudligidadir.

1683 yidda Daniyada qabul qilingan «qirol Xristian V Kodeksi» (uning amal qilishi 1687 yilda Norvegiyada «Norveg huquqi» nomi bilan tarqalgan) va 1734 yilgi «Shved davlati qonunlar kodeksi» kabi ikki qonunchilik hujjati, kodeks skandinav mamlakatlari huquqining shakllanishida boshlang'ich nuqta bo'lgan. Bu kodekslar har ikkala, daniya va shved - skandinaviya huquqi tarmoqlarining keyingi rivojlanish asosini tashkil qildi.

Kodifikatsiyalangan qonunchilik Skandinaviya huquqining katta qismi bo'lmagan. Masalan, Norvegiya va Daniyada sud amaliyotining huquq manbai sifatidagi zaruriy ahamiyatini ko'rsatuvchi aniq yondashuv kuzatiladi. Shvetsiyada ham sud amaliyotining tutgan o'рни katta ahamiyatga ega. Bu esa skandinav huquqini roman-german tizimidan farqlantirib, umumiy huquqqa yaqinlashtiradi.

Skandinav huquqi nafaqat huquq rivojlanishining tarixiy

yo'lidagi o'xshashlik bilan, balki qonunchilikdagi o'ziga xos xususiyatlar, manbalar tizimi bilan ham yagona tizim sifatida chiqadi. Bu yerda Skandinaviya mamlakatlarining qonunchilik sohasidagi mustahkam hamkorligi alohida o'rin egalladi. XIX asr oxirida boshlangan bu jarayon hamma ishtirokchi davlatlarda teng amalda bo'lgan birxillashtirilgan aktlar sonining ancha ko'p yaratilishiga olib keldi.

Skandinaviya mamlakatlarida huquq uyg'unlashuvining yuqori darajasiga erishish uchun alohida maqbul sharoitlar mavjud bo'lgan. Ularning tarixiy rivojlanishi va tillari ancha o'xshash, madaniy aloqalari juda mustahkam, ular orasida jiddiy siyosiy farqlanish mavjud emas, ularning aholisi, jug'rofiy holati va iqtisodiy rivojlanish darajasi taxminan bir xil bo'lgan. Ushbu barcha holatlar, shuningdek bu davlatlarda huquqning parallel yo'nalishda rivojlanishi huquqiy hamkorlikni ancha osonlashtirgan.

Umuman olganda kontinental modelga yaqin bo'lgan Skandinaviya huquqi mohiyatan o'ziga xos xususiyatlarga ega.

7-§. Musulmon mamlakatlari huquqiy tizimlari (islom huquqi)

Musulmon huquqi VIII-X asrlarda Arab xalifaligi davrida paydo bo'lib, musulmon dini - islom asosida diniy shaklda ifoda etilgan, asosan dindor musulmon zodagonlarining erkini o'zida aks ettiruvchi, u yoki bu darajada diniy musulmon davlatlari tomonidan tasdiqlangan va qo'llab-quvvatlangan normalar tizimidan iborat.

Islom huquqni Olloh tomonidan tarixiy bir davrda insoniyatga Muhammad payg'ambar orqali nozil etilgan deb biladi. Jamiyat doimo o'zgaruvchan ijtimoiy sharoit ta'siri ostida o'z huquqini yaratmasdan, balki Olloh tomonidan bir marotaba va abadiy berilgan ushbu huquq orqali boshqarilishi lozim.

Haqiqatan, musulmon huquqi nazariyasi Ollohning inoyati sharhlar va izohlarga muhtojligini tan oladi, shuning uchun ham asrlar davomida bunga musulmon huquqshunoslarining mashaqqatli mehnatlari sarflangan.

Ushbu xatti-harakatlar yangi huquqni yaratishga yo'naltirilmasdan, balki Olloh tomonidan berilgan huquqdan faqatgina amaliyotda foydalanishga ko'mak berdi.

Musulmon huquqi Olloh erkini o'zida qanchalar aks ettirmasin, nafaqat odatdagi huquqiy sohaga tegishli bo'lmay, balki ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan. Shunday qilib, musulmon huquqi musulmon bilishi shart bo'lgan maqsadlarni, amal qilishi talab qilingan ro'zani, berishi farz bo'lgan zakotni, ziyorat qilishi kerak bo'lgan hajni keng ma'noda yoritib beradi. Belgilangan qoidalarga rioya qilishlik uchun majbur qilish mumkin emas.

Bunda u yuridik normalarni, shuningdek huquqiy bo'lmagan, birinchi navbatda diniy va axloqiy regulyatorlarni hamda odatlarni o'z tarkibiga kiritgan yagona ijtimoiy-normativ tartibga soluvchi islom tizimi asosiga quriladi.

Shariat ikki qismdan - diniy, ya'ni e'tiqod tamoyillaridan (aqida) va huquqdan (fiqh) iborat.

Fiqh, ya'ni musulmon huquqi ikki qismga bo'linadi; birinchisi, musulmonning o'ziga o'zgaralar munosabatiga nisbatan xulqiy qarashiga ko'rsatma beradi (muomalat), ikkinchisi esa, musulmonning Olloh oldidagi majburiyatini (ibodat) belgilaydi. Bu ikkala qism ham huquqiy maktablar tomonidan qanday aniqlangan va o'rganilgan bo'lsa, xuddi shunday ko'rinishda yuridik fanlar predmetini tashkil qiladi.

Fiqhning asosiy vazifasi musulmon davlati qonunchiligi bilan uning birlamchi manbalari orasidagi uzviy bog'liqlikni saqlab qolishdir. Musulmon yuridik fanlari bilan dunyoning yuridik fanlari orasidagi farq, musulmon huquqiy tizimi Qur'ondan boshlanib, huquqni insoniyat aql-idrokining va ijtimoiy shart-sharoitning mahsuli emas, balki Olloh tomonidan o'rnatilgan tuhfa deb hisoblashidan iborat ekanligidadir.

Islom - uchta jahon dini ichida eng yoshi bo'lsada, u juda ham keng tarqalgan. Turli hisob-kitoblarga qaraganda, dunyoda 750 milliondan 1 milliardgacha kishi islom diniga e'tiqod qilar ekan. Ular 51 davlatda ko'pchilikni yoki aholining sezilarli bo'lagini tashkil qiladi. Biroq, musulmon huquqining amal qilish doirasi musulmon aholisi bor mamlakatlarning jug'rofiy chegaralariga mos tushmaydi.

Islomga din sifatida e'tiqod qiluvchi, lekin musulmon huquqini qabul qilmagan millatlar va etnik guruhlar ham mavjud.

Musulmon yuridik fanlari asosini kazuistik usul tashkil qiladi. Unda «il'm al furu» yoki ishlarni hal qilish (masa'il) nomi

mustahkamlangan. Sunniylar va shi'alar hamma maktablari tarmoqlarining boshida ta'limotlari tan olingan - Madina va Iroq maktablari turadi. Ushbu qadimgi maktablar o'z nazoratidagi hududlarda ildiz otib, oddiy huquqdan foydalanib, uni yangi din ehtiyojlariga moslashtirgan.

Tarixiy sabablarga ko'ra, bugunga kelib musulmon huquqining to'rtta sunniylar (hanafiylar, molikiylar, shafiiylar, xanbaliylar) maktabi, shuningdek uchta shi'alar (jafariylar, ismoiliylar, zaydiylar) maktabi bor.

Har bir maktab o'zining yuridik uslubi va qarashlar tizimiga ega, shuning uchun ularning har biri musulmon huquqining alohida tizimi bo'lib hisoblanish uchun da'vogarlik qiladi.

Musulmon huquqi mustahkam tizimga ega bo'lgan, rad qilib bo'lmaydigan dalillarga asoslanadi.

Musulmon huquqshunoslari qaysidir tomondan tasodifiy yoki noaniq bo'lgan hamma narsani qoralaydilar.

Musulmon huquqshunoslari tomonidan shakllantirilgan huquqiy normalar o'z tuzilishiga binoan doim tashqi dalillarga asoslanadi. Shaxsning maqsad va niyatlari hech qachon e'tiborga olinmaydi. Hamma psixologik (ruhiy) unsurlarni ko'rib chiqishga ongli ravishda yo'l qo'yilmaydi.

Qonunlarning musulmon huquqi tushunishida o'z taraqqiyotining so'nggi bosqichidagi rimcha va g'arbcha tushunish mavjud emas.

Nazariy tomondan faqat Oллоh qonunchilik hokimiyatiga ega. Haqiqatda esa musulmon huquqining yagona maktabi huquqshunos olimlarning ta'limotlaridir. Qozilar sudlov ishini ko'rayotganda hech qachon Qur'oni Karim yoki Sunna - payg'ambar hadislariga murojaat etmaydilar. Buning o'rniga u mavqei taniqli bo'lgan faqih asarlariga murojaat qiladi.

Huquq ma'lum normalar yig'indisi sifatida, islom paydo bo'lgandan keyingi dastlabki ikki asr davomida tashkil topdi. Keyingi asrlarda amalda hech bir yangilik kiri-tilmagan. Bu turg'unlik «Insonlar xatti-harakati»ga berk eshik - «ijtihad» nomi bilan ifodalanadi. Ammo shi'alar maktabi ushbu «berk eshik»ni hech qachon tan olmagan. Shuning uchun shi'alar huquqi sunniylar maktabi amal qilgan huquqqa nisbatan ancha moslashuvchan bo'lgan.

Shunday bo'lishiga qaramay, XIX asrgacha bo'lgan butun davr mobaynida musulmon huquqi anglash evolyutsiyasi, shariatning an'anaviy holati va tamoyillarining hech qachon odatiy ma'nosini o'zgartirmay hamda to'g'ridan-to'g'ri yuz o'g'irmay yangicha talqin qilgan diniy-yuridik va ilohiy majmualardan kelib chiqqan.

Bunga jamiyat rivojlanish sur'atining qiyosiy sustligi, jamiyat ongida diniy shakllanish hukmronligi hamkorlik qildi. Shunday sharoitlarda ham musulmon huquqi ozmi-ko'pmi o'zining ijtimoiy belgilanish talabiga javob beradi.

Musulmon huquqining to'rtta asosiy manbalari haqidagi ta'limot yaratildi. Birinchi manba, tabiiy ravishda, Qur'oni Karimdir. Ikkinchi manba - Qur'oni Karim qoidalarini izohlab va tushuntirib berish uchun o'ta muhim bo'lgan -Sunna, ya'ni payg'ambarning hadislaridan iborat. Uchinchi manba - ijmo (bitim), butun musulmon ahli tomonidan muayyan diniy-huquqiy muammolar yuzasidan qilingan umumiy fikr. Nihoyat to'rtinchi manba - taqqoslash (qiyos), ya'ni Qur'oni Karim, sunna yoki ijmo tomonidan o'rnatilgan qoidalar-ni yangi o'xshash holatlarda qo'llash.

Musulmon huquqiy manbalari to'g'risidagi ta'limotni rivojlan-tirishning keyingi bosqichlarida uning amaliy g'oyalarini mohiyatan oshiruvchi faqat bir o'zgartirish - barcha yoki faqat birgina maktab huquqshunoslari tomonidan qabul qilingan taklif ham to'g'ri hisoblangan ijmo g'oyasi kiritildi.

Ovrupocha huquq manbalarining ta'siri umuman olganda dastlab barcha o'ziga xos manbalari bo'yicha musulmon huquqi hukmronlik qilgan islom mamlakatlarini ham chetlab o'tmadi.

Ushbu mamlakatlarning huquqiy tizimlari shunday rejada mohiyatan o'zgartirishlarga yuz tutdiki, musulmon huquqining ahamiyati, amal qilish doirasi va ta'siri kamayib, bu huquqning o'zi hech bo'lmaganda o'z tashqi shakliga ko'ra ham ovrupocha kodifi-katsiyani qabul qildi.

Ko'plab mamlakatlarning siyosiy hayotida islomning faol-lashayotganligini tavsiflovchi bunday yo'nalishdagi an'anaviylikni ayni vaqtda oshirish kerak emas. Bunday faollikda g'arbiy huquqiy modellardan yuz o'girishni, musulmon huquqining barcha talab va normalarni to'la tiklashni talab etish hollari kuzatilmoqda.

Musulmon huquqida huquqning klassik bo'linishi, ya'ni

ommaviy va xususiy huquqlarga bo'lish yo'q.

Boblar mantiqiy chegaralanmagan tartibda, xususiy yoki jinoiy huquqqa tegishli bo'lsada, ketma-ket keladi. Musulmon huquqining asosiy tarmoqlari yig'indisiga jinoyat huquqi, sudlov huquqi va oila huquqi kiradi.

Musulmon jinoyat huquqi, avvalambor, og'ir belgilangan (had) va obro'sizlantiradigan (ta'zir) jazolarning farqlanishiga asoslanadi.

O'ta qat'iy jazo chorasi quyidagi jinoyatlar uchun belgilangan: qotillik, xiyonat qilish, xiyonat qilgan deb yolg'on ayblov, o'g'irlik, spirtli ichimlik iste'mol qilish, bosqinchilik va isyon. yuqorida sanab o'tilgan jazolardan tashqari qozi o'z nuqtai nazariga ko'ra, qonunning boshqa hamma buzilishlariga ham jazo belgilashi mumkin. Shunday qilib, unga ishni ko'rib chiqishda katta erkinlik berilib, qator normalar xuddi shu yo'l bilan yaratilgan.

Musulmon sud tuzilishi o'zining oddiyligi bilan ajralib turadi. Sudyaning yakka o'zi hamma turdagi ishlarni ko'ra olgan. Sudlarda iyerarxiya mavjud bo'lmagan.

Hozirgi davr sharoitlarida ba'zi musulmon mamlakatlari (masalan, Misr) musulmon sudidan butunlay voz kechdi. Shunga qaramay ular ko'pchilik arab mamlakatlarida huquqning ijtimoiy harakat mexanizmida ahamiyatli rol o'ynamoqda.

Ba'zi mamlakatlar (masalan, Sudan) musulmon sudlarining ko'p pog'onali tuzilishini qabul qilgan bo'lsa, ba'zilarida musulmon sudlarining turli shaxslarga mos keluvchi (masalan, Iroq va Livandagi sunniy va jafariylar sudi) parallel tizimi mavjud.

Ayrim mamlakatlarda musulmon sudlari o'z vakolatlari doirasiga, asosan shaxs maqomidagi, boshqa mamlakatlarda (Arabiston yarim oroli va Fors qo'ltig'i mamlakatlari) ham fuqarolik, ham jinoiy ishlarni ko'rib chiqishni o'zlariga qo'shib olgan.

Qoidaga ko'ra, sudyalarga diniy-huquqiy tayyorgarlik nuqtai nazaridan yuqori malaka talablari qo'yilgan.

Arab mamlakatlarining oila qonunchiligi musulmon huquqi normalari va tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan.

Musulmon huquqi, bir qancha xorijiy ta'sirni boshidan o'tkazgan bo'lsada, millionlab ommaga ta'sir ko'rsatuvchi mustaqil huquqiy oila bo'lib qolmoqda.

8-§. Hindiston huquqiy tizimi (hindu huquqi)

Tashkil topishi qadimiy bo'lgan hamda ikki ming yillik uzoq tarixiy rivojlanish yo'lini bosib o'tgan hindu huquqi, hind jamiyatining yuridik ustqurmasining asosiy tarkibiy qismidan biri bo'lib, hozirgi davrgacha o'zining tartibga soluvchi ahamiyatini saqlab qolgan (cheklangan tartibda bo'lsada).

Hindu huquqining «barhayotlik» sirining asosiy sabablari qandaydir alohida o'ziga xoslikda emas, balki o'ta barqaror, turli iqtisodiy va siyosiy sharoitlarga moslanuvchan an'anaviy ijtimoiy institut normalari bilan mustahkam aloqada ekanligidadir. Birinchi navbatda - jamoa va varnaviy-toifaviy tuzilishidadir.

Hindu huquqi yuqorida ko'rsatilgan an'anaviy ijtimoiy institutlarga bog'liqligi tufayli ko'p asrlar davomida nafaqat o'zining shaklini emas, balki mazmunini ham saqlab qolgan.

Hindu huquqining asosiy xususiyati - din bilan uzviy birikib ketganligidir. Hindu huquqi mustaqillikka ega emas, mohiyatan aniq, hayot tarzini taxmin qiluvchi, aniq jamiyat tartibini, aniq ijtimoiy tashkilotlar yoki tuzilmalarni, umuman olganda turli diniy oqimlar va urflarni, axloqiy, falsafiy va boshqa g'oyaviy qadriyatlarini qamrab oluvchi o'ziga xos voqelik - hinduizmning ajralmas tarkibiy qismidir.

Dunyoda huquqning hindu tizimi eng qadimgi tizimlardan biridir. Eramizgacha bo'lgan ikki ming yillik va undan ham oldingi davrlarda yaratilgan qadimiy Vedalar - hind diniy qo'shiqlar to'plami, ibodatlar, gimnlar va matallarning matnlarida, alohida misralarida axloq qoidalari ifodalangan.

Hindular Vedalarni xudoning inoyati va o'z dinlari va huquqining manbai deb hisoblasada, ularning hindu aholisining ma'naviy hayotiga amaliy ta'siri juda kam ahamiyatlidir.

Qadimgi Hindistonda huquqiy institutlar va normalar musulmon huquqidek diniy doirada tashkil topdi.

Hindu huquqining rivoji uchun diniy ta'sirdan chiqish jarayoni xos bo'lmay, balki huquqiy va diniy shakllar o'zaro munosbatlardagi o'rin almashuvi diniy shakliga bo'lgan munosabat o'zgarganligi xosdir. Bunda o'zaro va diniy aloqa bo'g'ini bo'lib davlat hokimiyati chiqadi.

Musulmon dunyosidagidek, XI-XII asrlarda sekin-asta

shakllangan hindu huquqi maktablari uchta: meros huquqi, oila huquqining bo'lak bo'lmagan alohida azolarining mulkiy huquqiy rejimi, oila mulkini taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan zaruriy masalalarni hal qilishda turlicha yondashishlar bilan farq qiladi.

Hindu huquqining asosiy maktablaridan biri bo'lib, Bengliyadagi daya maktabi va ko'p tarmoqlangan mitakshara maktabi hisoblanadi. Bundan tashqari hindu huquqi ayrim mintaqalarda haligacha saqlanib qolgan odatlarni kasta, urug'lar yoki oilaning huquq manbai sifatida ko'rilishi lozimligini tan oladi.

Britaniya mustamlakachiligi davrida klassik hindu huquqi diniy boshqaruvchilar tomonidan o'rnatilgan formal normalarga ham, sud qarorlariga ham asoslanmagan edi. U mohiyatan olimlarning mehnatlariga, asarlariga, sharhlarga va ularning to'plamlariga asoslangan. Hindistonning kohin-yuristlari huquqiy tan olishga arziydigan odatlarni aniqlashda shubhasiz muhim rol o'ynaganlar.

Britaniya mustamlakachiligi davrida hindu huquqi jiddiy o'zgarishlarga uchradi. Mulk huquqi va majburiyat huquqi sohalaridagi an'anaviy normalar juda tezlik bilan umumiy huquq normalarini almashtirdi. Meros, nikoh, kasta va boshqa odatlar yoki institutlardagi hamma mushkullik oila va meros huquqi sohalaridagi o'zgacha holat bo'lib, ular hindu huquqi normalariga muvofiq hal qilinar edi.

«Ingliz-hindu huquqi»ga o'xshash huquq kelib chiqdi. Shunga qaramay, hindu huquqining butunlay siqib chiqarilishi sodir bo'lsada, uning qator an'anaviy norma hamda institutlari harakatda davom etdi. Mustaqillik uchun kurash ketayotgan davrda hindu huquqini butunlay kodifikatsiyalash rejasi muhokama qilindi, 1947 yilda mustaqillikka erishilgandan keyin, Hindiston hukumati oila va meros huquqini o'zida mujassamlashtirishi kerak bo'lgan «Hindu kodeksi»ning loyihasini parlamentga ko'rib chiqish uchun taqdim qildi. Biroq konservativ kuchlarning qarshiligi va joylardagi qarshi natijalar tufayli loyiha kun tartibidan chiqarib tashlandi, hukumat alohida qonun loyihalarini tayyorlash yo'lidan ketdi, bunday taktika esa samara berdi.

Hindularning nikoh huquqini shakllantirgan va uni hozirgi zamon dunyoqarashiga moslashtiruvchi nikoh to'g'risidagi qonun 1955 yilda birinchi bo'lib qonuniy kuchga kirdi. 1956 yilda yana uch

qonun: voyaga yetmaganlar va vasiylik to'g'risidagi qonun, meros haqidagi qonun, farzandlikka olish va oila a'zolarini boqqanlik uchun to'lovlar to'g'risidagi qonun kuchga kirdi.

Shunday qilib, hindu huquqini kodifikatsiyalashtirish bo'yicha ayni vaqtgacha ancha ishlar qilingan hamda sudyalar, avvalambor, yangi qonunlar va pretsedentlarga amal qiladi.

Keyinchalik hindu huquqi institutlarining qaytadan shakllanishi yuz berganligi natijasida odatlarning amal qilish doirasi keskin qisqardi.

Yetimlarni farzandlikka olish uchun ruxsat berildi. Farzandlikka olingan bola meros huquqi bo'yicha qonuniy farzandlarga tenglashtirildi. Ko'p xotinlilik taqiqlanib, sud orqali ajrashish qonuniylashtirildi. Meros huquqi ayollar meros huquqining kengaytirilishi tomon isloh qilindi, natijada erkak va ayollar o'rtasidagi huquq farqi kamaydi.

«Hindu huquqi» bo'yicha yuridik ma'lumotlar, qoida sifatida, tabaqalanish masalasini «shaxsiy huquq»ga taalluqli bo'lmaganligi uchun yoritib bermaydi. Mamlakatda «tabaqa institutlari» va «tabaqa avtonomiyasi» haqida gapirish qabul qilingan. Ular Hindiston Konstitutsiyasining 26-moddasida mustahkamlangan: har qanday diniy oqim, mazhab, agar u jamoat tartibiga, axloqqa, sog'liqni saqlashga xilof bo'lmasa: a) diniy yoki xayr-ehson maqsadida muassasalar tuzish va saqlash, b) diniy masalalarda boshqaruvni amalga oshirish... huquqiga ega».

Bunda shunday ma'no borki, toifa diniy aqidalarni buzgan o'z a'zolariga jazo belgilashi mumkin. Agar kelishuvchilik diniy tavsifda bo'lsa, unda tartibbuzar bo'ysunishdan voz kechganligi uchun haydalishi mumkin.

Binobarin, kasta ibodat qilish, ovqatlanish, nikoh va sig'inishning boshqa masalalariga taalluqli ichki tartibni saqlashi mumkin. Sud kasta qoidalarini qayta ko'rishi mumkin emas, u unga rioya qilinishi va to'g'ri qo'llanilishini kuzatish huquqigagina ega. Sud kastalar qarorini, agar u mazmunan odil sudlovga qarshi chiqishini aniqlasa, bekor qilishi mumkin.

Shunday qilib, «hindu huquqi» deganda, hindularning tashqi ko'rinishdan o'zgargan qonun (hali amalda bo'lgan, masalan, Birmada, Malayziyada, Singapurda) va odatlari bilan shaxsiy

huquqlari tushuniladi.

Yuqorida eslatib o'tilgan mamlakatlarda va shuningdek u tashqi ko'rinishdan qonunchiligi o'zgargan (Keniya, Uganda) Sharqiy Afrika mamlakatlari singari Hindistonda ham hindu huquqi huquq tarmog'i sifatida bevosita yoki bilvosita qo'llanilmoqda.

9-§. Afrika mamlakatlari huquqiy tizimlari

Mustamlakachilik tizimining emirilishi natijasida o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan davlatlar hali ijtimoiy munosabatlar sohasida nisbatan keng qo'llanilayotgan eski diniy huquq (musulmon, hindu), odat huquqi unsurlarini o'zida saqlab qolgan yangi huquqni shakllantirdi. Hozirgi davrga qadar Afrika qitasining ko'pchilik aholisi odat huquqi normalariga rioya qiladi.

Odat huquqining tutgan o'rmiga to'g'ri baho berish Afrika qit'asi huquqiy xaritasida yuz berayotgan jarayonlarning qonuniyat ekanligini anglashda, Afrika davlatlari milliy huquqining rivojlanishidagi tavsifiy belgi va an'analarni tushunishda yordam beradi.

Ko'pgina holatlarda «odat huquqi» atamasidan Afrika xalqlarining mustamlakachilik davrigacha mavjud bo'lgan an'anaviy huquqini ifodalash uchun foydalanilgan. An'anaviy huquq, «qabila qonunchiligi»ning ancha kam sonli misollaridan tashqari, og'zaki ravishda avloddan avlodga o'tkazib kelingan yozilmagan qoidalar majmuini o'zida ifodalagan. An'anaviy huquqda huquqiy va axloqiy normalar tomonlar nizolarini yechishda, yarashtirish g'oyasi yo'riqlariga amal qilgan holda, mustahkam aloqada bo'ladi.

Afrika xalqlari orasidagi muhim farqlarga (avvalambor, - etnik va lingvistik nuqtai nazardan, qardoshlik tizimidagi, oila turmush tarzidagi), ularning odat va odat huquqining turli-tumanligiga qaramay Afrika huquqini yagona bir huquq sifatida ko'rilishi uchun yetarli asoslar bor. Afrika odat huquqi individ emas, balki guruhiy yoki uyushma huquq hisoblanadi.

Bunday tavsifiy belgilar deyarli har bir odat huquqi tarmoqlarida ko'zga tashlanadi.

Odat huquqida nikoh shartnomasi o'zida ikki shaxsning ittifoqini emas, balki ikki guruhning kelishuvini namoyon qiladi hamda oilalarning roziligi bilangina ajralishi mumkin. yerga xususiy mulkchilik huquqi ijtimoiy guruhlarga tegishlidir. Meros huquqida

mulk, qoidaga ko'ra shaxsga emas, balki oila yoki guruhga o'tadi.

Yetkazilgan zarar bir shaxs tomonidan ikkinchi shaxsga to'lanmay, bir oila yoki urug' tomonidan boshqa oila yoki urug'ga to'lanadi. Va nihoyat, Afrika jamoasidagi nizolar ham qoidaga ko'ra, urug' va guruhlar orasida kelib chiqqan.

Afrika jamoalarida sudlarning yoki bahslarni yechish tizimining ikki asosiy turi amalda bo'lgan. Ba'zan ular bir jamoatda bir vaqtning o'zida amalda qo'llanilgan. Ularni yuridik rasmiyatchilikka rioya etgan holda arbitraj va sud sifatida toifalash mumkin. Shu o'rinda an'anaviy huquqning o'ta tabiiylik o'rnini ta'kidlash lozim.

Sud taomilida bu holat adolatni aniqlash uchun qasam ichishga majbur qilish va «xudo sudi» tomonidan sinov o'tkazishda namoyon bo'lgan.

Odat huquqidagi yana bir holat - kishilar guruhi yoki jamoalarning mas'ulligi alohida e'tiborga loyiqdir.

Bu ikki yoqlama:

a) oila yoki qarindoshlar guruhi tomonidan o'zlarining alohida a'zosi qilgan nojo'ya xatti-harakat oldidagi javobgarligi (o'zganing aybini yuvish).

b) shaxsning sodir qilgan huquqbuzarligi guruh a'zolarining huquq va majburiyatlariga daxldor bo'ladigan holat sifatida o'zini namoyon qiladi.

Bizning fikrimizcha, individualizm va undan kelib chiqadigan «sub'yektiv huquq» tushunchasi an'anaviy odat huquqiga mos kelmaydi. U shaxsning huquqqa rioya qilishini hech qancha ta'minlamay, uning guruh kishilari bilan munosabatini tartibga soladi.

An'anaviy huquq institutlari orasida oila, yer mulki, meros alohida o'rin egallaydi. Yuqorida qayd etilganidek, odat huquqi bo'yicha, nikoh avvalambor, shaxslar ittifoqi emas, balki ikki oila guruhlarining kelishuvidir.

Ular nikohning har bir bosqichida sezilarli rol o'ynaydi: kuyov va kelinni tanlashadi, kelishishadi va sepini to'laydilar, er va xotin orasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etishadi, ularning faol ishtirokisiz ajralishning imkoni yo'q.

Shu bilan birga odat huquqi erkaklarning bir nechta xotin olish huquqi, ya'ni poligamiyani tan oladi hamda «kelin uchun to'lov»ni

belgilaydi, bularning tasdiqlashicha, odatga asoslanadigan nikoh xotinni sotib olishdan boshqa narsa emas.

Keng tarqalgan fikrlarga ko'ra, nikohni bekor qilish odat huquqida juda ham kam uchraydi, chunki ajralish uchun ruxsat olish katta mehnat evaziga bo'ladi. Oilalar ular orasida amalda bo'lgan ittifoqning davom etishidan o'ta manfaatdor bo'lganlar, negaki nikohning bekor qilinishi so'zsiz to'lovlar qaytarilishini anglatar edi. Ajralish oilalar orasida urug' oqsoqollarini jalb qilgan holda hal qilinadi.

An'anaviy jamiyatlarda yerga egalik qilish huquqi shaxsga emas, balki guruhlariga berilgan deb hisoblash qabul qilingan. Shaxs yerdan foydalanish huquqiga ega bo'lsada, oxir-oqibatda u jamoa yoki guruhga tegishli bo'lgan.

Yerni taqsimlash, undan foydalanish va uni ajratib berish boshqaruvchilar (dohiyalar) yoki bo'lmasa urug' yoki oila kabi ijtimoiy guruhlar nazorati ostida amalga oshirilgan.

An'anaviy jamiyatlarda meros huquqi faqat mulkning emas, balki marhum huquq va majburiyatlarining jami merosxo'rga o'tishini nazarda tutadi.

Merosning juda xilma-xil turlari mavjud:

1) ota nasli yoki ona nasli bo'yicha:

2) merosxo'r (ma'lum yoki saylovli) vafotidan so'ng to'g'ridan-to'g'ri merosxo'r saylanadi:

3) universal (faqat bir merosxo'r) yoki hamkorlikdagi (bir nechta merosxo'r).

Ma'lumki, butun Afrika, ba'zi istisnolarsiz, Ovrupo hukmdorlari tomonidan mustamlaka qilingan edi.

XIX asrda hukmdor mustamlakachilar - inglizlar, fransuzlar, portugallar, belgiyaliklar metropoliyalarda amalda bo'lgan o'zlarining sud tizimini Afrika mamlakatlariga tatbiq etishga urindilar.

Har bir hukmdor mustamlakachi o'z huquqiy andozasini qo'l ostidagilarga o'tkazadi: fransuz huquqi fransuz Afrikasi va Madagaskarga, Belgiya huquqi - Kongoga, portugal huquqi Angola va Mozambikka, umumiy ingliz mustamlakalariga, roman-golland huquqi, keyinchalik ingliz umumiy huquqi ta'siri ostida o'zgargan - Janubiy Afrikaga kiritildi. Liberiya Angliya va AQSHning ba'zi sud odatlari va umumiy huquqi amalda bo'ldi.

Mustamlakachilar o'z huquqiy institutlarini tatbiq etish bilan birga fikran o'z manfaatlariga zid kelmaydigan odat huquqi va Afrika sudlovining ayrim qismlarini saqlab qolish siyosatini yurgizdilar. Shunday qilib, mustamlaka boshqaruvi natijasida huquqning aralash tizimi paydo bo'ldi. U metropoliyalar kiritilgan huquq bilan odat huquqini o'zida jamladi. Birinchisi imtiyozli ravishda ma'muriy huquq, savdo, jinoyat huquqini qamrab oldi. An'anaviy soha - erga egalik, oila va meros huquqi (hayotligida mulkni, ba'zi fuqarolik majburiyatlarini taqsimlash) - odat huquqining harakat doirasida qoldirildi.

Mustamlaka davrida odat huquqida yuz bergan to'rtta asosiy o'zgarishni qayd etish mumkin: birinchidan, nizolarni tartibga solishning an'anaviy uslublaridan voz kechish, ya'ni astalik bilan sud tizimini tatbiq qilib, qabila tomonidan o'rnatilgan tartibdan burjua sud qurilishi namunasiga o'tish;

ikkinchidan, mahalliy sudlarda, odat huquqi bo'yicha, sudlar tomonidan ishlarning hal qilinishida qabul qilingan Ovrupo normalari qabul qilinishi;

uchinchidan, odat huquqini bekor qilmay, afrikaliklarga o'z huquqiy munosabatlarini burjua huquqi asosida tartibga solish imkoniyatini beruvchi qonunlarning joriy etilishi;

to'rtinchidan, varvarlik deb tan olingan, masalan, qullik va jarohat yetkazish kabi ba'zi odatlarning to'g'ridan-to'g'ri taqiqlanishi.

An'anaviy Afrika (huquqiy) odat huquqi, shubhasiz, boshlang'ich ahamiyatini yo'qotmoqda, ba'zi hollarda ko'p qismini yo'qotgan ham. U o'zining sezilar qismida tizimlashtirish va majmualashtirish ob'yekti bo'ldi. Odat huquqi keng ma'noda davlat organlari, shuningdek sudlar tomonidan rivojlantirilgan huquq sifatida qaralmoqda.

Arbitraj odat huquqiga xos bo'lsada, amaliyotda qo'llanmoqda va hatto ba'zi mamalakatlar tomonidan bilvosita tan olinmoqda, u hozirgi zamon rasmiy sudlari amal qilayotgan huquq haqidagi sud protsedurasi g'oyalarning muqarrar ta'sirini boshidan o'tkazmoqda.

Milliy mustaqillik sharoitida huquq rivojlanishining asosiy an'analari bir tomonidan mustamlakachilikka barham berish, ikkinchi tomondan esa, milliy qonunchilikni qamrab olgan ijtimoiy munosabatlarning kengayib borishi natijasida, odat huquqini tartibga solish

ahamiyatining chegaralanishi bilan tavsiflanadi.

Afrika davlatlarning huquqiy qurilish tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, milliy qonunchilik, dastlab tarixan vujudga kelgan odat huquqi normalari bilan birgalikda «meros»lik aloqasini saqlab qolgan.

Afrika mamlakatlarida odat huquqi normalarini huquqiy tartibga solish sohasidan siqib chiqarish juda og'ir va uzoq davom etadigan jarayondir.

Umuman olganda, yosh davlatlarda odat huquqi rivojlanishi-ning asosiy yo'nalishi huquqiy odatni tartibga solish ahamiyatining cheklanishi hamda milliy qonunchilik harakatini qamrab olgan ijtimoiy munosabatlar doirasining kengayishi bilan tavsiflanadi.

XXI bob. JAMIYAT, DAVLAT, HUQUQ: ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI

1-§. Huquqiy davlatni shakllantirish - hozirgi zamon taraqqiyotining ob'yektiv tendensiyasi

Chuqur o'zgarishlar hayotimizga shiddat bilan kirib bormoqda. Olg'a qarab muhim siljishlar jahonning hozirgi qiyofasini keskin o'zgartirmoqda. Xalqlarning ozodlik, mustaqillik va baxt sari azaliy intilishlari, o'z taqdirlarini o'zlari belgilash yo'lidagi qat'iyatlari ularni harakatlantiruvchi kuchga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Oliy Majlisning oltinchi sessiyasida, mustaqillikning buyuk ne'matlari haqida gapirib, jumladan shunday degandi: «Faqatgina istiqlolning hayotbaxsh zaminida yangi demokratik qadriyatlar ildiz otishiga, inson haq-huquqlari va uning erki asosiy boyligi bo'lgan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatiga mos keladigan yangi zamonaviy siyosiy, xo'jalik va jamoa tuzilmalari qaror topishiga imkon tug'ildi»¹.

Prezidentimiz to'g'ri ta'kidlaganidek, «o'tgan besh yil tarix uchun bir lahza bo'lsada, mana shu besh yil ichida biz boshqa mamlakatlar o'n-yuz yillar mobaynida o'tadigan yo'lni bosib o'tdik.

Ulkan sinovlar, qiyinchiliklarni boshdan kechirdik. Hayotimizning eng mashaqqatli yillari ortda qoldi. O'zbekiston sobiq Ittifoq mamlakatlari orasida birinchilardan bo'lib keng miqyosli islohotlar yo'liga, jamiyatni tubdan o'zgartirish va yangilash yo'liga kirdi»².

Shuni ta'kidlash joizki, erishgan yutuqlarimiz sira ham tasodifiy emas. Bu - o'tmish va hozirgi kunga berilgan to'g'ri, ilmiy asoslangan bahoning, o'tish davri murakkab masalalarini hal etishning eng to'g'ri yo'llari tanlanganligining natijasidir. O'zbekiston harakat dasturini aniq iishab chiqib, jamiyatni o'zgartirishga kirishdi. Respublikadagi haqlqiy iqtisodiy, ijtimoly-siyosiy va ma'naviy-axloqiy vaziyat chuqur anglab yetildi va shu asosda yangilanish va taraqqiyotning o'zimizga xos yo'li belgilandi. Respublika Prezidentining oldimizga qo'yilgan mashaqqatli, ammo yuksak vazifalarni bajarish yo'lidagi izchilligi, maqsad sari intilishi, qat'iyati hurmat va tahsinga loyiq.

«Hozir bizning jamiyatimiz tarixiy chorrahada turibdi, - dedi

¹ Karimov I.A. Yangicha ishlash va fikrlash - davr talabi. 5-tom. T., «O'zbekiston», 1997., 104-105 betlar.

² Karimov I.A. Yangicha ishlash va fikrlash - davr talabi. 5-tom. T., «O'zbekiston», 1997., 105-bet.

respublikamiz Prezidenti mustaqillik qo'liga kiritilganidan bir yil keyinroq- Respublikani milliy davlat, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy kamol toptiruvchi o'z taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishimiz zarur. Bu murakkab va mas'uliyatli palladir. Hozir yashab turganlarning taqdirigina emas, balki ularning farzandlari, nevaralarining ham taqdiri, kelajak avlodlarning taqdiri ham shunga bog'liq bo'ladi, Respublika teng holatlarni qay darajada tezroq bartaraf etishi, yakka hokimlik tizimining illatlarini batamom tugatishi, rivojlangan madaniyatli mamlakatlar darajasiga chiqib olishi shu narsa bilan belgilanadi»³.

Tanlangan yo'lining to'g'riligini, oldinga qo'yilgan maqsadlarning real va zaruriyigini hayotning o'zi tasdiqladi. Ma'lumki, bu maqsadlarni ham Prezidentimiz belgilab berdi: «Barqaror bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi siyosatga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish pirovard maqsad bo'lib qolishi kerak. Shunday jamiyatgina O'zbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquqdari va erkinligini kafolatlashi, milliy an'analar va madaniyat qayta tiklanishini, shaxs sifatida insonning ma'naviy-axloqiy kamol topishini ta'minlashi mumkin»⁴.

Shuni ta'kidlash joizki, huquqiy davlat qaror toptirishga da'vat etilgan ijtimoiy boyliklardan biri bo'libgina qolmay, balki shaxs erkinliklari, ornomusi va sha'nini himoya qilishni taminlashning zarur sharti, sansalorlik, mahalliychilik va tor idoraviy manfaatga qarshi kurash vositasi, xalq hokimiyatini amalga oshirish shaklidir.

Ma'lumki, qonun asosidagi uyushma, faoliyat sifatida davlat to'g'risidagi tasavvurlar insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridanoq shakllana boshlagan. Hayotning yanada takomillashgan va adolatli shakllarini izlash huquqiy davlat g'oyasi bilan bevosita bog'lanardi. Qadimgi dunyo mutafakkirlari (Sugrot, Demokrit, Aflo-tun, Arastu, Polibiy, Tsitseron) o'sha davr jamiyatining uzviy ravishda yashashini ta'minlovchi huquq bilan davlat hokimiyati o'rtasidagi ana shu bog'liqlikni ochib berishga urinishgandi.

Huquqni tan oluvchi va ayni paytda cheklangan davlat hokimiyati, qadimgi mutafakkirlar fikricha, adolatli davlatchilik hisoblanadi. «Qonun hokimiyati yo'q joyda, - deb yozgandi Arastu, - davlat tuzumining biron-bir shakli uchun ham o'rin yo'q». Tsitseron

³ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom, T., «O'zbekiston», 1996. 39-bet.
⁴ O'sha erda.

davlat to'g'risida xalq ishi, huquqiy muomala va umumiy huquq-tartibot sifatida gapirgandi. Qadimgi yunoniston va Rimning davlat-huquqiy g'oyalari va tuzilmalari huquqiy davlat to'g'risidagi ulardan ancha keyin taraqqiyparvar ta'limotlarning yuzaga kelishi va rivoj topishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Feodalizmdan kapitalizmga o'tish davridagi ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi, ijtimoiy va siyosiy vaziyatning o'zgarishi davlat va ijtimoiy ishlarni tashkil etishdagi uning rolini tushunishga yangi-cha yondashuvlarni dunyoga keltiradi. Hokimiyatning bir shaxs yoki organ qo'lida jamlanishini istisno etuvchi, qonun oldida hammaning barobarligini qaror toptiruvchi davlat hayotini yangicha tashkil etish muammolari ularda markaziy o'rinni egallaydi.

Feodalizm tanazzulining boshlanish davrlarida huquqiy davlat g'oyalari o'sha vaqtning taraqqiyparvar mutafakkirlari N.Makiavelli va J.Boden qarashlarida o'z aksini topgan. O'tmishda va hozirgi davlat mavjudligining ko'p asrlik tajribasi asosida N.Makiavelli o'z nazariyalarida o'sha davrlar ehtiyojlariga eng yaxshi tarzda javob beradigan ideal davlat shaklini chizib ko'rsatish maqsadida siyosat tamoyillarini tushuntirish, siyosiy hayotni rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchlarini anglab yetishga urinib ko'rgan. U mulkdan erkin foydalanish va xavfsizligini ta'minlashda davlatning maqsadini ko'radi. Davlat shakllari ichida ko'proq respublika afzal ko'riladi. Chunki aynan respublika tenglik va erkinlik talablariga eng ko'p javob beradi. J.Boden davlatni ko'pchilik oilalar va ularga tegishli narsalar ustidan huquqiy boshqarish sifatida ta'riflaydi. Asosiy vazifa huquq va erkinlikni ta'minlashdan iborat.

Ilk burjua inqiloblari davrida huquqiy davlatchilik ta'limotini ishlab chiqishga G.Grotsiy, B.Spinoza, T.Gobbs, D.Lokk, Sh.Monteske, D.Didro, P.Golbax, T.Jefferson va boshqa taraqqiyparvar mutafakkirlar katta hissa qo'shishdi. Huquqiy davlat to'g'risidagi ular ta'limoti ayrim qoidalarning qisqacha tavsifini keltiramiz.

Grotsiy tabiiy huquqning birinchi buyuk nazariyotchisi bo'lgandi. Uning nazariyasiga ko'ra, tabiiy huquq va rasmiy iroda huquqi mavjud. Inson tabiati, inson aql-zakovati tabiiy huquq manbai hisoblanadi. Begona mulkdan tiyilish, keltirilgan zararni qoplash, shuningdek, qilingan yomonlik uchun haqqoniy jazoning muqarrarligini ham u shular qatoriga kiritadi.

Rasmiy iroda huquqi davlat tomonidan o'rnatiladi va tabiiy huquq tendensiyalariga to'la mos kelishi kerak. Aynan shu tufayli feodalizmning huquqiy tuzilmalari Grotsiy tomonidan inson tabiatiga zid deb e'lon qilingan hamda «inson idroki qonunlariga javob beradigan yangi huquq yaratish» talabi olg'a surilgandi. Har bir odamga o'z mulkidan hammaning roziligi asosida erkin foydalanishini ta'minlovchi rasmiy iroda huquqlari vositasida xususiy mulkni muhofaza etish davlat majburiyatiga kirardi. Ijtimoiy shartnoma har qanday davlatning manbai bo'ladi, deb hisoblardi u. Shuning uchun ham davlatni tashkil etishda xalq boshqaruvning istalgan shaklini tanlashi mumkin. Lekin uni tanladimi - xalq hukmdorlarga bo'ysunishga majbur. Davlat boshqaruvi shaklini o'zgartirishga faqat ijtimoiy shartnomani tuzgan har ikki taraf roziligi bilan yo'l qo'yilishi mumkin.

Spinoza birinchilardan bo'lib demokratik davlatni ta'riflab berdi. «Har bir fuqaroga nafaqat hayotini asrash, balki uning manfaatlarini qondirishni kafolatlay olgandagina - davlat qudratli bo'ladi», deb da'vo qilgan hamda fuqarolar mulki, xavfsizligi, or-nomusi, erkinligi va boshqa ne'matlariga qasd qilishdan hukmdorlarni ogohlantirgandi.⁵

Angliyada mutlaq monarxiya himoyachisi deb hisoblanishiga qaramay, **Gobbs** ijtimoiy hayotda huquqning hukmronligi to'g'risidagi ko'plab ilg'or qoidalar muallifidir. Bu qoidalar keyinchalik burjua inqilobi mutafakkirlari tomonidan rivojlantirilgan. Qonun oldida rasman tenglik, shartnomalarning poydorligi g'oyalari ular qatoriga kiradi. Gobbs inson ozodligini qonun taqiqlamagan hamma narsani qilish huquqi deb tushunardi va shu bilan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy boshqarishning eng ta'sirchan tamoyili poydevorini yaratdi.

Lokk burjua jamiyati huquqiy qarashlarining tipik ifodachisi bo'lgan edi. «Insonning tabiiy huquqlarini muhofaza etish uchun tuziladigan davlat, - deya ta'kidlagan edi Lokk, - mulkchilikni tashkil va ta'xis etish uchun qonunlarni qaror toptiradi, shuningdek, ushbu qonunlarni bajarish hamda tashqi hukmlardan himoya qilish uchun ijtimoiy kuchlardan foydalanadi». Bunday davlatda mulkchilik, individual ozodlik va tenglikning tabiiy, ajralmas huquqini ta'minlovchi qonun hukmronlik qiladi. «Huquqiy davlat sharoitida odamlar ozodligi, - deb yozgandi Lokk, - qonunchilik hokimiyati tomonidan o'rna-

⁵ Спиноза Б. Избр. соч. -М., 1957. 2-том, 207-209, 261-бетлар.

tilgan, hamma uchun qat'iy qoidalardan iborat. Uning mohiyati qonun taqiqlamagan hamma hollarda o'z mayliga amal qilish erkinligi hamda boshqa odamning doimiy mavhum, noma'lum yakka hokimlik irodasiga tobe bo'lmaslikdir».⁶

Monteske fuqarolik jamiyatida siyosiy erkinlik zaruratini huquqiy davlatchilikni barpo etishning muhim sharti deb bilardi. Ayni paytda u siyosiy ozodlik g'oyasini fuqarolik erkinligi bilan bog'lardi. Bu erkinlik davlat fuqarolarining xavfsizligida ifodalanadi. U, shuningdek, suliste'mol qilishning oldini olish uchun hamma qonunlarga birdek qat'iy rioya etish zarur, deb hisoblardi.

«Ozodlik qonun yo'l qo'yadigan hamma narsani qilish huquqidan iborat. Mabodo, fuqaro ushbu qonunlar taqiqlagan narsalarni qiladigan bo'lsa, u ozod bo'lolmasdi, zero, boshqa fuqarolar ham xuddi shunday qilgan bo'lardilar».⁷

Monteskening fikricha, siyosiy ozodlik qonuniylik va xavfsizlikni qaror toptirish demakdir. Bunga esa, hokimiyatni bir-birini cheklab, muvozanatga solib turuvchi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'lish yo'li bilan erishiladi. Masalan, mazkur g'oya uning siyosiy-huquqiy nazariyasida eng muhimlaridan biridir. Keyinchalik, u ko'pchilik rivojlangan davlatlar davlat tuzilishida o'zining amaliy ifodasini topdi.

Didro davlat hokimiyatining huquqiy asoslarini ijtimoiy shartnoma asosiga qurilgan mustaqillik tushunchasi bilan bog'laydi. Davlat hokimiyati ijtimoiy shartnoma hosilasi sifatida vujudga keladi, deb hisoblardi u, bu esa jamiyatga uyushgan siyosiy shaklni beradi. Odamlar, barchaning manfaatlarini ta'minlash hamda kuch va irodasini birlashtirish maqsadida, o'z tabiiy mustaqilliklarini qisman topshiradilar. Shunday qilib, davlat hokimiyati suveren bo'lgan xalqning irodasiga asoslangan. «Faqat millat chinakam suverendir. Faqat xalqqina chinakam qonun chiqaruvchi bo'la oladi, faqat xalq irodasigina siyosiy hokimiyat manbai hisoblanadi».⁸

«Mustaqil Amerika Qo'shma Shtatlari Deklaratsiyasi»ning muallifi **Jefferson** huquqiy davlat g'oyasini Amerika qit'asida amalda ro'yobga chiqardi. U boshqaruvning monarxiya shaklini rad etib, xalq suvereniteti tamoyilini himoya qilib chiqdi. Jefferson

⁶ Локк Д. Избранные философские произведения, М., 1960. 2-том, 16-17-бетлар.

⁷ Монтескье Ш. Избр. произведения. -М., 1955. 289-бет.

⁸ История политических учений. М.: Политиздат. 1971. 181-бет.

Deklaratsiyasi, **insonning tortib olinmagan tabiiy huquqlari mavjud, ularni ta'minlash uchun davlat tashkil etiladi**, deb e'lon qildi. Deklaratsiyaga kiritilgan insonning tabiiy huquqlari yaxlit bir butunlik sifatidagi davlatga nisbatan alohida individlarning sub'yektiv huquqlariga aylandi. O'sha davr uchun bu mutlaqo yangi qoida edi. Zero, ilgari odamlarga huquqni davlat beradi, deb hisoblab kelinardi.

O'sha davrlarda huquqiy davlat nazariyasini ishlab chiqishga Volter, Gelvetsiy, Russo, Peyni va boshqalar ham salmoqli hissa qo'shishgan.

Kant huquqiy davlat nazariyasining falsafiy negizlarini asoslab, uni batafsil ishlab chiqdi. Unda inson, shaxs markaziy o'rinni egallaydi. Xalqning o'z irodasini ifodalovchi konstitutsiyani qabul qilish orqali huquq-tartibotni o'rnatishda qatnashishni talab qilish imtiyozini u ommaviy huquqning muhim tamoyili deb hisoblaydi. Xalqning ustuvorligi davlatda barcha fuqarolarning erkinligi, tengligi va mustaqilligi uchun sharoit yaratib beradi va u «huquqiy qonunlarga bo'ysunuvchi ko'pchilik odamlarning birligi» sifatida maydonga chiqadi.⁹

Konstitutsiyaviy huquq asosida faoliyat yuritadigan, xalqning umumiy irodasiga javob beradigan joyda huquqiy davlat bo'lib, u yerda shaxsiy erkinlik, ornomus, tafakkur, xo'jalik faoliyati sohalarida fuqarolar huquqlarining cheklanishiga yo'l qo'yilishi mumkin emas.

Huquqiy davlatda hukm, farmonlar fuqaroga nisbatan munosabatlarda qonunni aniq bajarishga ularni qanday majbur etsalar, fuqarolar ham hukm, farmonlarni xuddi shunday majbur etish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Huquqiy tashkilot imkoniyatini u hokimiyatning xalq tomonidan saylangan parlamentga tegishli qonun chiqaruvchi, hukumatga taalluqli - ijro etuvchi hamda maslahat sudlari tomonidan amalga oshiriluvchi sud hokimiyatlariga bo'linishi bilan bog'laydi.

Kantning huquqiy davlat haqidagi falsafiy ta'limoti siyosiy-huquqiy tafakkurning keyingi rivojiga va yuksak madaniylashgan jamiyat davlat-huquqiy tuzilishi amaliyotiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Gegel olam to'g'risidagi fundamental falsafiy tasavvurlar umu-

⁹ Qarang: Гегель. Философия права. -М., 1990. 95-бет.

miy tizimidan kelib chiqqan holda davlatni tadqiq etadi. Mazkur falsafiy qarashlarning muhim qismi huquq falsafasidan iborat edi.

Gegel talqinida davlat ham eng rivojlangan va mazmunan boyroq huquqdir. Zero, u **barcha boshqa huquqlarning - shaxs, olla va jamiyat huquqlarining tan olinishini o'z ichiga oladi.** Davlatni shaxs va jamiyat ustidan turuvchi mustaqillik darajasiga ko'tararkan, Gegel davlat mavjudligining fuqarolik jamiyati rivojidan oldin ro'y berishini isbotlaydi. Marks Gegelning davlat to'g'risidagi ta'limotining bosh kamchiligini aynan shu da'voda ko'rgandi. Zero, jamiyat rivojining mahsuli bo'lgan davlatdan jamiyat oldin vujudga kelgan. To'g'risi, bizning nazarimizda, Gegel ham umuman jamiyat tushunchasi bilan bir xil bo'lmagan fuqarolik jamiyati haqida gapiryapti.

Gegelning fikriga ko'ra, **davlat ijtimoiy hayotning eng takomillashgan tashkiloti bo'lib, unda hamma narsa ro'yobga chiqqan erkinlik saltanatidan iborat huquqiy asosga quriladi.**

Siyosiy-huquqiy nazariyalar rivoji tarixini ayniqsa huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurilishini o'rganish nuqtai nazaridan ko'rib chiqar ekanmiz, marksizm-leninizm klassiklari nuqtai nazariga to'xtalmaslikning iloji yo'q.

Marks davlat va huquqqa o'zi ta'riflagan ijtimoiy taraqqiyotning sinfiyligi nazariyasidan kelib chiqib qarardi. Ushbu nazariyaga muvofiq jamiyat sinfsizlik holatiga o'tish jarayonida sinflarning yo'qolishi bilan davlat va huquq ham yo'qolib ketadi. Burjua davlati va huquqining o'zaro nisbatini tahlil etarkan, Marks yuridik qonunni ham sinfiy jamiyat moddiy ishlab chiqarish munosabatlarining ifodachisi sifatida isbotlashga urinadi. U, qonunchilik faqat iqtisodiy munosabatlar taqozo etadigan talablarni qayd etadi, deb hisoblardi. Odamlar o'rtasida muayyan ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga mos ravishda tarixan tarkib topgan o'zaro munosabatlarni qay darajada aks ettirish esa - davlatga bog'liqdir.

Marks, qonunlar ma'qullaydigan, ularda ifodalanadigan ijtimoiy munosabatlar vaqti «ijtimoiy ishlab chiqarish usuli bilan hamohang bo'lgandagina qonunlar haqiqiy kuchga ega bo'la oladi»,¹⁰ - deb yozadi.

¹⁰ Маркс К., Энгельс Ф. Соч. - Т., 28.427-бет.

Iyering, yellinek, Dyugi, Ornu, Paund, Spenser va boshqalar timsolida G'arbiy Ovrupo ilg'or siyosiy-huquqiy tafakkuri o'z davri nuqtai nazari va o'tmish yillar tajribasi nuqtai nazaridan huquqiy davlat nazariyasi unsurlarini charxlab borardi. Sub'yektiv baholar tafsilotiga berilmay gapiradigan bo'lsak, mualliflarning ko'pchiligi **qonun chiqaruvchi xuddi fuqarodek qonunga tobe bo'lgan davlatnigina huquqiy davlat deb hisoblash mumkin, degan fikrga qo'shilishardi.**

Chunonchi, **Iyering** faqat davlat hokimiyati o'zi yozgan tartibga o'zi bo'ysungan joyda, bu hokimiyat uzil-kesil huquqiy mustahkamlikka erishgan joydagina huquqiy davlat mavjud bo'ladi, deb hisoblaydi. Faqat huquq hukmronligidagina milliy farovonlik, savdo va hunarmandchilik gullab-yashnaydi, xalqqa xos bo'lgan «aqliy va axloqiy kuchlar» rivoj topadi¹¹.

Yellinek ta'limoti bo'yicha, davlat o'z xalqining umumiy manfaatlarini vakili sifatida hukmronlik qiluvchi xalq ittifoqi yuridik shaxs sifatida, jamiyat progressiv rivoji yo'nalishida individual, milliy va umuminsoniy birdamlik manfaatlarini qondiruvchi sifatida ta'riflanadi.

Huquqiy davlat g'oyalari rus siyosiy-huquqiy tafakkurida ham keng aks etgan. Huquqiy davlat bo'yicha rus ta'limoti oktyabroldi davri huquqshunoslari va faylasuflari N.M.Korkunov, S.A.Kotlyarovskiy, V.M.Gessen, G.F.Shershenevich, B.N.Chicherin, N.A.Berdyayev va boshqalar asarlarida nazariy jihatdan o'z takomiliga yetgan.

Chunonchi, **Shershenevich** huquqiy davlatni shakllantirish yo'llari va asosiy alomatlarini quyidagicha ko'rsatib bergandi: 1) zo'ravonlikni barham toptirish uchun har bir kishi erkinligi chegaralarini belgilab, bir xil manfaatlarini boshqalaridan farqlovchi ob'yektiv huquq me'yorlarini qaror toptirish darkor - boshqaruvda huquqning hukmronligi g'oyasi shundan kelib chiqadi; 2) agar shaxsiy tashabbus erkinlikni talab etsa, davlatga sub'yektiv huquqni muhofaza etish bilan cheklanish kifoya qiladi; 3) yangi tartib hokimiyat organlarining o'zlari tomonidan buzilmasligi uchun mazkur hokimiyat vakolatlarini qat'iy belgilab qo'yish zarur. Bunda ijroiya hokimiyatidan qonun chiqaruvchilik hokimiyatini ajratib, sud

¹¹ Иертт Р. Цель в праве. - СПб., 1881. 47-бет.

hokimiyatining mustaqilligini tasdiqlab, qonunchilikda saylab qo'yiladigan jamoatchilik unsurlarining birgalikda qatnashishlariga yo'l qo'yish kerak bo'ladi. Huquqiy davlatning real kafolatlarini Shershenevich turli vaqtlarda davlat hokimiyatining zo'rvonligiga qarshi turli kafolatlar olg'a surilishida ko'radi: «...a) shaxsning uzviy huquqlari; b) hokimiyatlarning bo'linish tamoyili; v) hokimiyatning huquqiy o'zini o'zi chegaralashi; g) davlatning o'z ustida turgan huquqqa bo'ysunishi. Ijtimoiy fikrning tiyib turuvchi kuchi amalda shunday bo'la oladi»¹². Aytish kerakki, hokimiyatni nodavlat jamoat birlashmalari, matbuot, radio, televidenie tomonidan «tiyib turish» g'oyasini hozir hamma tan oladi hamda u hozirgi zamon jamiyatida o'z amaliy ifodasini topmoqda.

Gessen huquqiy davlat to'g'risidagi o'z ta'rifini G'arb siyosiy-huquqiy tafakkuri qarashlari asosiga quradi. «**Hukumat sifatida o'zi tomonidan qonun chiqaruvchi sifatida yaratiladigan yuridik me'yorlarni o'zi uchun majburiy deb biladigan davlat**, - deb ta'kidlaydi u, - **huquqiy davlat deb ataladi. Huquqiy davlat o'z faoliyatida, o'zining hukumat va sudlov funksiyalarini ado etishda huquqqa bog'liq va uning tomonidan cheklab turiladi, zinhor u huquqdan tashqarida yoki uning ustida turishi mumkin emas**».

Gessen ayni paytda huquqiy davlat tavsifi mazmuniga aniqliklar kiritib, muayyan izohlar beradi. Jumladan, u shu ma'noda qonunchilik faoliyati mustaqilligini himoya qilib chiqadiki, unga ko'ra, davlat odtsiy yoki qonun chiqaruvchi huquqi bilan bog'lanmaydi. Zero, «abadiy» urf-odatlar va qonunlarning o'zi bo'lmaydi. O'z mohiyatiga ko'ra, qonun chiqaruvchi hokimiyat qonun bilan cheklanishi mumkin emas. Ushbu prinsipial g'oyada amaliy negiz mavjud bo'lib, uni quyidagicha ta'riflash mumkin: qonunlar jamiyatning yetuklik darajasiga mos kelishi, ijtimoiy hayotning o'zgarib boruvchi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa shart-sharoitlarini aks ettirishi, jamiyat rivojining ob'yektiv ehtiyojlariga javob berishi kerak.

Kotlyarovskiy, davlat va shaxsning bir-birlariga o'zaro bog'liqligi va o'zaro mas'uliyati to'g'risidagi Kant nazariyasiga qo'shiladi. Unga ko'ra, bu bog'liqlikning kafolati hokimiyatlarning

¹² Шершеневич Р. Ф. Общая теория права. - М., 1911, 248-бет.

bo'linishidan iborat bo'ladi. Uning davlat va jamiyatning real o'zaro mas'uliyatini ta'minlovchi asosiy organ sifatida sudning roli to'g'risidagi xulosasining hozirgi zamon davlat-huquqiy hayoti uchun amaliy ahamiyati katta. Bunday sud hammadan mutlaqo mustaqil bo'lib, shak-shubhasiz xalq ishonchiga sazovor bo'lgan konstitutsiyaviy sud bo'lmog'i lozim. Ushbu ishonchni yo'qotish odil sudlov asosiga, shu bilan birga, huquqiy davlat asosiga putur yetkazishga qodirdir.

Oktyabrdan keyingi davrda Rossiyada va u zabt etgan mustamlakalar hududlarida huquqiy davlat g'oyasi real hayotdan butunlay siqib chiqarilgan yangi davr boshlanadi. Real hokimiyat partiya-davlat mahkamasi qo'lida mujassamlashgan sharoitdagi huquqiy nihilizm, mazkur hokimiyatning xalqdan ajralib qolishi adolat asosida ijtimoiy hayotni huquqiy tashkil etishni nazariyada ham, amaliyotda ham to'liq inkor qilishga hamda totalitar davlatchilikning qaror topishiga olib keldi.

Totalitarizm davri sho'ro davlat-huquqiy fani huquqiy davlat g'oyasini davlatchilikning sinfiy ta'limotiga zid, burjua g'oyasi deb hisoblab, uni qabul qila olmagandi. Buning salbiy oqibatlari ham darhol o'zini ko'rsatdi. Huquqiy davlatchilikning ko'p asrlik nazariyasi va amaliyotining tajribasini huquqiy inkor etish va ilmiy tan olmaslik jamiyat hayotida jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hamda milliy mojarolarni keltirib chiqardi.

Davlat va huquq nazariyasining markscha-lenincha bosqichida hukmronlik qilgan sho'ro davlatining an'anaviy bahosi hamda Leninning «Davlat va inqilob» (1917 y.) asariga to'xtalamiz. Lenin o'zining bu asarida sotsialistik davlatda hokimiyatni tashkil etish to'g'risidagi Marksning ayrim g'oyalarini, to'g'rirog'i proletariat diktaturasi haqidagi g'oyalarini rivojlantirishga uringan. Bundan tashqari, Parij Kommunasini tajribasini, ya'ni bir shaharda, boz ustiga, favqulodda holat (hujumlardan saqlanish, iqtisodiy qiyinchiliklar) hukm surgan sharoitda hokimiyatni tashkil etish tajribasini ulkan bir davlatga ko'chirishga intiladi. Biroq, yetmish yil mobaynida bu asar buyuk ilmiy yutuq, kommunistik jamiyat qurilishi davrida davlatchilikni rivojlantirishning nazariy asosi deb baholab kelindi. Uning mavjud sharoitga nisbatan utopik mazmuni 1918 yildayoq hayot tomonidan rad etilganiga qaramay, shunday qilib kelindi.

«Davlat va inqilob» asarida mehnat va iste'mol mezonini

boshqarishga va uni nazorat qilishga hamma o'rganishi bilan kommunistik jamiyat birinchi bosqichidan uning oliy bosqichiga, shu bilan birga, davlatning to'liq barham topishiga yo'l ochiladi, degan utopik g'oya ifodalanadi. Bu qanday qilib ro'y berishi mumkin? Lenin shunday javob beradi: «Bu yerda barcha fuqarolar qurollangan ishchilar singari davlat qo'lidagi yollanma xizmatchilarga aylanadilar. Barcha fuqarolar yagona umumxalq, davlat «sindikati» xizmatchilari va ishchilari bo'lib qoladilar. Gap shundaki, ular teng ishlashlari, ish mezoniga to'g'ri rioya qilishlari va teng haq olishlari kerak». Lekin Lenin - qanday qilib teng mehnat qilish, uni qanday qilib o'lchash mumkin - degan savollarga javob bermadi va berolmasdi ham. Zero, mehnat ko'pgina sifat tavsiflariga ega! Qanday qilib teng haq olish mumkin? Ushbu tamoyilda mehnatga har qanday intilishni barbod qiluvchi jo'n primitiv tekischiilik ifodalanganini ziyrak o'quvchi darhol tushunib oladi. 1918 yilning o'zidayoq hayot bu ta'limotni chippakka chiqardi.

Mazkur holatni batafsilroq qarab chiqamiz. 1918 yilning o'zidayoq xalqni umumiy qurollantirishni amalga oshirish emas, balki professional Qizil Armiya tuzish ehtiyoji tug'ildi. Davlat boshqaruviga sinfiy jihatdan ishonchli, biroq malakasiz xodimlar emas, balki mutaxassislarni jalb etish zarur bo'lib qoldi. Shunisi diqqatga sazovorki, 1918 yili mutaxassislarga ishchilarning o'rtacha oylik ish haqlaridan 9 baravar ziyod maosh tayinlangandi. Shu bilan boshqaruvga oid aqliy va jismoniy mehnatga baravar haq to'lash haqidagi navbatdagi xomxayol ham havoga uchib ketdi. Sho'rolarda boshqaruv mahkamasi tashkil etildi - mansabdorlar, byurokratiya Sho'ro davlati tarkibida qayta tiklanib qoldi. Leninning o'zi «sotsializmga nisbatan butun nuqtai nazarning o'zgargani»ni tan olishga majbur bo'lgan kezlari uning «Davlat va inqilob» asaridagi g'oyalar va qoidalar kuli ko'kka sovurilgani ayniqsa yaqqol sezilib qoldi. Bu hoi NEP yillari sodir bo'lgandi.

Biroq, ushbu asarda e'lon qilingan hamda rivojlantirilgan proletariat diktaturasiga keladigan bo'lsak, u Sho'ro davlatining mohiyati tavsifi sifatida o'z ahamiyatini saqlab keldi. Bunda Lenin, diktatura - bir sinfnig ikkinchisi ustidan, aholi bir qismining boshqa qismi ustidan doimiy zo'ravonligi tashkiloti deb, diktatura qonunga emas, balki kuchga tayanadigan cheklanmagan hokimiyatni angla-

tadi, diktaturaning ilmiy tushunchasi hech narsa bilan cheklanmagan, hech qanday qonunlar bilan, mutlaqo hech qanday qoidalar bilan siqib qo'yilmagan, bevosita zo'rvonlikka tayanadigan hokimiyatdan boshqa narsa emas, «inqilobiy xalq» bevosita o'zi «sud qiladi, jazolaydi, hokimiyatni qo'llaydi, yangi inqilobiy huquqni ijod qiladi», deb da'vo qilardi.

Sho'ro davlati nazariyasi va amaliyotiga asos qilib olingan mazkur g'oyalar ayni paytda ushbu davlatni demokratik va huquqiy davlat mafkurasiga qarama-qarshi qo'yishni anglatardi.

Bundan tashqari, nazariyada Sho'ro davlati ikki funktsiyani - yaratuvchilik (sotsialistik jamiyat qurilishi) va majburlov (ezuvchi sinflar qarshiligini bostirish) funktsiyalarini bajarayotganligi ta'kidlanardi. Biroq bu nazariyadagina shunday edi. «Ezuvchilar»ni bostirish haqiqatda butun xalqqa qarshi qatag'onlarga, majburiy mehnat va undan sal og'ishlarga qarshi jinoiy javobgarlikning joriy etilishi, davlat tomonidan ish haqining totalitar tarzda cheklanishi, krepostnoylik kolxoz-sovxozlari tuzilishiga, milliy va irqiy kamsitishlar asosida xalqlarni qirishga, Sho'ro davlatining zo'rvonlik shakllari va funktsiyalari joriy etilishiga olib keldi.

Davlat diktaturasi esa asta-sekin partiya diktaturasiga, hukmron partiya elitasi diktaturasiga, kommunistik partiya bosh kotibining diktaturasiga aylanib ketdi. E'lon qilinadigan rasmiy nazariya bilan boshqaruvning amaldagi shakli o'rtasida, sho'ro davlatining amaldagi funktsiyasi va boshqa tavsiflari o'rtasida chuqur jarlik paydo bo'ldi.

Masalan, davlat va huquq nazariyasiga oid turli o'quv darsliklarida kommunistik jamiyat qurilishi jarayonida davlatning «o'lib borishi» haqidagi, sotsialistik sho'ro davlati «yarim davlat» ekanligi to'g'risidagi g'oyalar albatta mavjud bo'lardi. Bularning hammasi Sho'ro davlatining mislsiz mustahkamlanishi va rivoj topib borishida, uning totalitar, «partiya» davlatiga o'sib o'tishi jarayonida ro'y berayotgandi. Bunda partiya va davlat tashkilotlari, mansablari, hokimiyat tarkiblari, shu jumladan, armiya va xavfsizlik organlarining ham tuzilmaviy, ham shaxsiy bir-biriga chatishib ketishi sodir bo'layotgani yaqqol ko'rinib turardi. Ushbu da'volar asosida Sho'ro davlati tomonidan mehnatkashlarning dahshatli tarzda ezib kelinayotgani yashirilardi. GULAG tizimlarida, qishloq xo'jaligi meh-

natini tashkil etishda zo'rvonlik bilan mehnat natijalarining 70 foizi tortib olinardi, va hokazo.

Davlatning «o'lib borishi»ni asoslash uchun jamiyat tuzilishi, tarkibi soddalanib borarkan, sinfiy tafovutlar yo'qolib borarkan, sinflar o'lib boradi, bunda jamiyat tarkiblari bunday soddalashib borgani sari davlat ham o'lib boradi, aytaylik, tashkiliy-mehnat sohasidagi uning boshqaruv rolini esa, mehnatga bo'lgan oddiy ko'nikma egallaydi, deb uqtirilardi.

Siyosiy, tarkibiy va hududiy uyushgan jamiyat sifatida barqarorlik va farovonlikni ta'minlovchi davlatning umum-ijtimoiy funksiyalari, uning madaniyatshunoslik qadriyatlari bunday mulohazalar davomida arimas narsalar sifatida e'tibordan chetda qolib ketardi. Boz ustiga, sho'ro davlati - burjua huquqiy davlatiga tamomila qarama-qarshi, deb baralla e'lon qilinardi.

«Davlat va inqilob» bilan bir qatorda Leninning mashhur «Aprel tezislari» ham (1917 yil) muhim rol o'ynadi. Aynan shu «Aprel tezislari»da Lenin butun hokimiyat Sho'rolarga tegishli bo'lishi kerak bo'lgan Sho'rolar respublikasini parlamenti «quruq safsatabozlik»dan iborat bo'lib, amalda kapital boshqaradigan, ezuvchilar hukmronlik qiladigan parlament respublikasiga qarama-qarshi qo'ygandi.

1918 yilgi Konstitutsiya ijtimoiy qatlamlarning huquqiy tengsizligini, o'z maqsadlarini amalga oshirish yo'lida zo'rvonlikdan foydalanishini ochiq e'lon qilgan davlat tipi sifatida Sho'ro davlatini qaror toptirdi va mustahkamladi. Sho'ro davlati o'z maqsadlaridan biri sifatida jahon inqilobiga erishish g'oyasini ilgari surdi.

Boshqaruv shakliga ko'ra, Sho'ro davlati respublika deb e'lon qilingandi. Biroq, u g'alati respublika edi: unda hokimiyatlarning bo'linishi inkor etilar va aksincha -xokimiyat barcha shohobchalarining Sho'rolarga birlashishi e'lon qilinardi. Sho'rolarning deputatlik korpusi o'zi qonunlarni qabul qilar, ularni o'zi bajarar va hatto ular ijrosini nazorat ham qilardi.

Darvoqe, ko'rsatib o'tilgan barcha kamchiliklarga qaramay, har qalay, davlat faoliyatining tamoyili sifatida qonuniylikni qaror toptirish yo'lidagi urinishlarni ham ta'kidlash joiz. Chunki qonuniyliksiz davlatchilikning bo'lishi mumkin emas. Qonunchilikning maxsus ishlab chiqilgan tizimi yo'qligi tufayli «inqilobiy sudlar» faqat

huquqiy ongagina amal qilardi. Huquqni qo'llanuvchilarning Huquqiy madaniyati past bo'lgan, huquqqa, umuman qonunga nigilistik munosabat hukm surgan sharoitlarda buning ayanchli oqibatlarini tasavvur etish qiyin emas. Qonuniy ijodkorlik faoliyati maxsus kasbiy tayyorgarlikni talab qilmaydi, degan tasavvurlar keng tarqalgandi.

Shularga qaramay, 20-yillarning boshlarida Sho'ro davlatining huquqiy ustunliklarini shakllantirishga urinib ko'rildi - ilk qonunlar, kodekslar qabul qilindi, davlat boshqaruvi organlari faoliyatini nazorat qilish bosh vazifasi hisoblangan prokuratura tashkil etildi. Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishning huquqiy shakllarini izlab topish bo'yicha ishlar olib borildi. Albatta, mazkur jarayonlarning barchasi majmuiy, ilmiy asoslangan mohiyatga ega bo'lmay, yangi qonunlar bilan ularning qo'llanishi o'rtasidagi uzilish yaqqol ko'zga tashlanardi. Shunga qaramay, 20-yillarning o'zidayoq Sho'ro davlatiga nisbatan huquqiy davlat konsepsiyasini qo'llash to'g'risidagi masala qo'yila boshlagandi. Chunonchi, Sho'ro respublikasi o'z faoliyatini huquqiy tartiblar sharoitida olib boruvchi huquqiy davlatdir, deb yozgandi Mallitskiy.

Biroq, tez orada mamlakatda ahvol yanada yomonlashdi. Boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi tiklanishi bunday xulosa chiqarishga, hech bo'lmaganda, hali ertaligidan qat'iy dalolat berib turardi. Huquqiy davlat muammosiga rasmiy munosabat L.M.Kaganovichning Sho'ro hokimiyatining 12 yilligi munosabati bilan qilgan ma'ruzasida ta'riflab berilgandi. Ushbu ma'ruza bilan u Kommunistik akademiya qoshidagi Sho'ro institutida so'zga chiqqandi. Unda, jumladan, shunday deyilgan: «... biz huquqiy davlat nazariyasini rad etamiz - «huquqiy davlat» tushunchasi burjua olimlari tomonidan burjuaziya davlatining sinfiy mohiyatini yashirish uchun kashf etilgan ... Albatta, bularning hammasi qonunlarni istisno etmaydi. Bizda qonunlar bor. Bizning qonunlarimiz davlat hokimiyati alohida organlarining funksiyalari va faoliyat doirasini belgilab beradi. Lekin bizning qonunlarimiz har bir vaqtning o'zida maqsadga muvofiqligi bilan belgilanadi».

Kaganovich tilga olgan qonuniylik va maqsadga muvofiqlikning «nisbati»ga ahamiyat beringa. Ushbu da'voning har qancha bema'niligiga qaramay, mazkur talqin bizning kunlarimizgacha ham

o'z ta'sirini butunlay yo'qotgani yo'q. Jumladan, qonun va uning «maqsadga muvofiqligi» o'rtasidagi nisbatni sub'yektiv talqin etishda qonunga hurmatsizlik munosabati namoyon bo'ladi. Ba'zi bir mahalliy rahbarlar o'z shaxsiy tasavvurlaridan kelib chiqqan holda, qaysidir bir qonunni bajarish shartmi yoki ijro etilishi «maqsadga muvofiq emasmi» degan masalani hal etish huquqini o'zlaricha hal qilib oladilar. Xo'jalik yoki boshqa ijtimoiy «maqsadga muvofiqlik» bahonasi bilan qonunni chetlab o'tishga hatto, qonun haqiqatan ham yomon yoki eskirgan taqdirda ham yo'l qo'yib bo'lmaydi. Uni faqat vakolat berilgan davlat organigina o'zgartirishi yoki bekor qilishi mumkin.

Bunday amaliy tajriba sobiq Ittifoqqa fojiali oqibatlar olib kelgani, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga halokatli ta'sir ko'rsatganini, odamlar ongida qonun me'yorlari va inson hayotiga mensimaslik bilan qarashni qaror toptirganini yodda tutish kerak.

Huquqiy davlat muammosi esa, ko'p yillarga sho'ro davri nazariy tadqiqotlari sahifalaridan o'chib ketdi. Uni burjuaziya davlatining sinfiy mohiyatini niqoblash uchun da'vat etilgan burjua-liberal konsepsiyasi deb hisoblash odat bo'lib qolgandi.

Yuqorida qayd etganimizdek, hozirgi vaqtda, respublikamiz istiqlolni qo'lga kiritishi munosabati bilan, huquqshunoslik nazariyotchilari va amaliyotchilari oldida huquqiy davlat to'g'risida yanada aniqroq konseptual tasavvurlarni tavsiflash vazifasi ko'ndalang bo'ldi. Ushbu muammo yuzasidan olimlarimiz chuqur ilmiy tadqiqotlar olib bormoqdalar. O'tmish va hozirgi davr ilmiy xazinasidan, hozirgi zamon yuksak sivilizatsiyalashgan mamlakatlaridagi huquqiy davlatchilikni barpo etish va uning ishlashini ta'minlash tajribasidan foydalangan holda O'zbekiston huquqshunosligi, falsafiy, iqtisodiy va siyosiy tafakkuri bizning jamiyatimizda bo'lajak huquqiy davlat shaklini real chizib qo'ydilar. Shuni alohida qayd etish lozimki, mamlakat taraqqiyoti konkret shart-sharoitlarini hisobga olgan holda huquqiy davlatni shakllantirishning konseptual qoidalari va yo'llari Prezidentimiz Islom Karimovning asarlarida keng bayon etilmoqda¹³. Respublikamizda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurilishining nazariy tadqiqotlari uchun ham, mazkur

¹³ Karimov I.A. *Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T., «O'zbekiston». 1994. Yana: O'zbekiston iqtisodiy islohotlari. chuqurlashtirish yo'lida T., «O'zbekiston». 1995. Yana: Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T., «O'zbekiston».*

qurilishning amaliyoti uchun ham ularning ahamiyati g'oyat kattadir.

Jumladan, ushbu tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruratini Prezident shunday asoslaydi: «Biz hozir o'zgartirayotgan sovet sotsialistik davlati xalqimiz hayotiga chetdan zo'ravonlik bilan joriy etilgan edi. Bu davlatning shakli va mohiyati xalqimizning axloqiy, ma'naviy va ruhiy qadriyatlariga to'g'ri kelmaydigan, mos kelmaydigan tizimga asoslangan edi.

Xo'sh, bu tizim avvalambor kimga suyanar edi?

Bu tuzum o'z xalqining tarixini, uning ruhi va urf-odatlarini, o'z avlod-ajdodlarini bilmaydigan manqurtlarga tayanar edi. Shuning uchun ham eski sovet tuzumining bayroklarida va shiorlarida bayon qilingan g'oyalar amaldagi ishlaridan nihoyatda uzoq edi. Xuddi shu bois bu davlatning ijtimoiy tizimi bilan xalq ehtiyojlari o'rtasida jarlik paydo bo'ldi. ya'ni inson, uning moddiy, ma'naviy, shu jumladan, milliy qadriyatlari bu tizimda orqa o'rinda turar edi. Binobarin, bunday davlatning avval boshidanoq istiqboli yo'q edi»¹⁴.

Prezidentning davlat va huquq muammolariga yangicha yondashish to'g'risidagi quyidagi gaplari uslubiy qo'llanma bo'lishi mumkin: «Biz yaqin o'tmishimizda sinfiy hukmronlikning quroli sifatida davlat haqidagi markscha g'oyani shior qilib olib, bu nazariyani dogmaga, davlat va huquqni esa, sinfiy kurash, sinfiy raqiblarni yengish vositasiga aylantirgan edik. Demokratik sharoitlarda esa davlat ijtimoiy qarama-qarshiliklarni zo'rlik va bostirish yo'li bilan emas, balki ijtimoiy kelishuv, xalq ta'biri bilan aytganda, murosai madora bilan bartaraf etish vositasiga aylanadi...»

2-5. Huquqiy davlatning tarixiy-nazariy ildizlari

Shunday qilib, nimani huquqiy davlat deb atashimiz hamda uning alomatlari nimalardan iborat ekanligini qarab chiqamiz. Avval boshidanoq qayd etish joizki, huquqiy davlat - ko'p o'lchovli rivojlanib boruvchi hodisadir. U qandaydir o'zgarmas narsadan iborat emas. Ijtimoiy taraqqiyot, rivojlanish davomida u yangi xususiyatlar kasb eta boradi, jamiyat mavjudligining muayyan shart-sharoitlariga hamda uning rivojlanish darajasiga muvofiq ravishda yangi mazmun bilan boyidi. Lekin huquq bilan bog'liqlik huquqiy davlatning doimiy zaruriy asosi bo'lib qolaveradi. Bunda huquq

¹⁴ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. T., «O'zbekiston», 1996. 7-bet.

hamma va har bir kishi uchun erkinlik mezonini bo'lib maydonga chiqsa, amaldagi qonunlar haqiqatan xalq va davlat manfaatlariga xizmat qilsa, ularning amalga oshirilishi adolat timsoli bo'lsagina o'sha huquq ustuvor rolni o'ynaydi. Rivojlangan qonunchilikning o'zi hali jamiyatda huquqiy davlatchilik mavjudliganing alomati bo'la olmaydi: totalitar davlatlarda huquqiy hujjatlar muntazam ravishda chiqarib boriladi, ularning qat'iy amalga oshirib borilishi ta'minlanadi. Lekin bunday huquqiy tartibga solish huquqiy davlatning tamomila ziddidir. Shuning uchun huquqiy davlat alomatlariga o'tish oldidan uning asoslari tahliliga murojaat qilamiz.

Mulkchilikning xilma-xil shakllariga asoslanuvchi ishlab chiqarish munosabatlari huquqiy davlatning iqtisodiy asosi hisoblanadi. Shu munosabat bilan Islom Karimov shunday deb ta'kidlaydi: «Iqtisodiy o'zgarishlarning asosi mulkchilik huquqidir. Respublikada mulkdorning huquqi tan olinadi va qonun yo'li bilan himoya qilinadi. O'zbekiston birinchilardan bo'lib xususiy mulkchilik huquqini e'tirof qildi, mulkchilikning hamma shakllari uchun teng sharoitlar yaratdi».¹⁵

Huquqiy davlatda mulk bevosita moddiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarga taalluqli hisoblanadi, yakka tartibda ishlab chiqaruvchi o'z shaxsiy mehnati mahsulining mulki egasi sifatida maydonga chiqadi. Davlatchilikning huquqiy asosi faqat mulkdorning mustaqilligi va erkinligi mavjud bo'lgandagina ro'yobga chiqadi. Mazkur mustaqillik va erkinlik birgalikda huquqning hukmronligini, ishlab chiqarish munosabatlari ishtirokchilarining tengligini, jamiyat farovonligining muntazam o'sib borishi va o'z-o'zini rivojlantirishini iqtisodiy jihatdan ta'minlaydi. Huquqiy davlat qashshoq bo'lishi mumkin emas.

Huquqiy davlatning ijtimoiy asosi. Inson, uning xilma-xil manfaatlari bunday davlatning diqqat markazida turadi. «Inson va davlat o'rtasidagi munosabatlarda inson manfaatlari ustuvor bo'lishi kerak, - deb ta'kidlaydi Islom Karimov. - Davlat va davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari o'z faoliyatini inson huquqlarini himoya qilish va qo'riqlash ishiga safarbar qilgandagina o'z vazifasini to'g'ri ado etgan hisoblanadi. Bu

¹⁵ Karimov I.A. *Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. T., «O'zbekiston», 1996. 198-bet.*

qoidani hamma tan olishi, bu qoidaga hamma itoat qilishi shart».¹⁶

Har bir fuqaroning o'z ijobiy imkoniyatlarini ijtimoiy tuzilmalar, ijtimoiy aloqalar tizimi orqali amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi, fikrlar xilma-xilligi, shaxsiy huquqlar va erkinliklar ta'minlanadi. Boshqaruvning totalitar usullaridan huquqiy usullarga o'tish, bundan tashqari, davlat ijtimoiy faoliyati maqsad intilishlarini o'zgartirish, uning manzili yo'nalish kasb etishini taqozo etadi. Prezident I.Karimov aytganidek: «Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda, ijtimoiy himoya vositasini kuchaytirishda sifat jihatidan yangi bosqich zarurligi ob'yektiv ehtiyoj bo'lib qoldi. Shu munosabat bilan yalpi ijtimoiy himoyalash tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimiga izchillik bilan o'tish maqsadga muvofiq deb topildi.

Adolat tamoyillariga izchillik bilan rioya etish qoidasi yangilangan ijtimoiy siyosat qurilishiga asos qilib olindi»¹⁷. Shunday qilib, huquqiy davlat - ayni paytda ijtimoiy davlat hamdir.

Huquqiy davlatning axloqiy asosini insonparvarlik va adolat, shaxsning tengligi va erkinliklari, uning or-nomusi va sha'niga oid umuminsoniy tamoyillar tashkil etadi. Huquqiy davlat tartibi insonning oliy Axloqiy qadriyatlarini qaror toptiradi, jamiyat hayotida ularning hal qiluvchi rolini ta'minlaydi, shaxs ustidan zo'ravonlik va kuch ishlatishni istisno etadi. Zero, «Axloq - bu avvalo insof va adolat tuyg'usi, imon, halollik degani.

Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, sharqona Axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida haromdan hazar, nopoklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo'lishi kerak»¹⁸. Oliy Majlisning birinchi sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huquqiy davlatni barpo etish ishida axloq va uning ahamiyatini ana shunday ta'rifladi.

Bizning respublikamizda bu davlat boshqaruvining demokratik usullarida, odil sudlovning adolatligida, davlat bilan o'zaro munosabatlarda shaxs huquqlari va erkinliklarining ustuvorligida (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasi, 14-moddasida), kam sonli millatlarning huquqlarini himoyalash, turli

¹⁶ Karimov I.A. O'sha kitob, 17-bet.

¹⁷ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. T., «O'zbekiston», 1996. 267-bet

¹⁸ O'sha kitob. 39-bet.

diniy qarashlarga sabr-toqatlilikda (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida) o'zining aniq ifodasini topgan.

Huquqiy davlat - mamlakatda istiqomat qiluvchi xalq, millatlar va elatlar suverenitetini o'zida mujassamlashtirgan suveren davlatdir. «O'zbekiston - suveren demokratik respublika» - deyiladi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida.

Huquqiy davlatda majburlov huquq asosida amalga oshiriladi. Davlat suverenitetining muhim sharti bo'lgan majburlov huquq tomonidan cheklangan va shu yo'l bilan qonunsizlik va zo'rvonlik istisno etiladi. Albatta, davlat kuch ishlatishi mumkin, lekin bu oqilona (ya'ni huquq) doirasida hamda uning suvereniteti, fuqarolarining manfaatlariga xavf tug'ilganda ro'y berishi lozim. Davlat, shuningdek, biron-bir kishining xatti-harakatlari boshqa kishilarning erkinligiga tahdid solganda - uning erkinligini cheklab qo'yadi.

Ayni paytda davlatning siyosiy tabiati aynan uning suverenitetida yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki jamiyat siyosiy tizimi turli bo'g'inlarining ehtiyojlari va manfaatlarining butun uyg'unligi unda jamlanadi. Suverenitet tufayli davlat va nodavlat tashkilotlar manfaatlarining eng matlub nisbatiga, ularning adolatli huquqiy muvozanati va erkin rivojiga erishiladi.

Endi huquqiy davlatning asosiy alomatlarini ko'rib chiqamiz.

Ushbu mavzu hamisha huquqshunos olimlarning katta qiziqishiga sazovor bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda. Uning doirasida ko'plab ilmiy tatqiqotlar o'tkazilgan. Chunonchi, Rossiyalik akademik B.N.Kudryavtsev va professor E.A.Lukashevalar huquqiy davlatni shakllantirish quyidagi asosiy tamoyillar hayotga izchil tatbiq etilishini talab qilishini qayd etishadi: 1) ijtimoiy hayotning barcha sohalarida huquqning hukmronligi; 2) davlatning o'zi va organlarining qonun bilan bog'liqligi; 3) shaxs erkinligiga, uning huquq va manfaatlari, ornomusi va sha'nining mustahkamligi, ularning muhofazasi va kafolatlanganligi; 4) davlat va shaxsning o'zaro mas'uliyati; 5) qonunlar va boshqa me'yoriy yuridik hujjatlarning amal qilishi ustidan ta'sirchan nazorat choralari mavjudligi.

Professor B.M.Lazarev huquqiy davlat quyidagi sifatlarga ega bo'lishi kerak, deb hisoblaydi: birinchidan, o'z funksiyalarini amalga

oshirish uchun u huquq va qonun hujjatlaridan keng foydalanadi; ikkinchidan, davlat, uning barcha amaldorlari va organlari huquq bilan bog'langan bo'lib, davlat hokimiyati qonunlar asosida amalga oshiriladi.

Ko'rib turganimizdek, huquqiy davlatning biz keltirgan barcha tavsiflari uning bosh jihatini farqlashni talab qiladi - ya'ni jamiyat va davlatda munosabatlarning butun tizimi huquqiy asoslarga qurilishi lozim. Lekin mazkur muhim xulosa muammoni to'laligicha butunlay hal etadi deb hisoblaydi.

Yuridik adabiyotda huquqiy davlat alomatlarining yanada batafsilroq ro'yxatlari mavjud. Ularga quyidagi ro'yxatni misol qilib keltirish mumkin:

1) davlat-huquqiy boshqaruv barcha imtiyozlarining davlat tuzilmalari tizimida to'planishi;

2) hokimiyatlarning bo'linishi, ya'ni bir davlat hokimiyati shoxobchasi funksiyalarining (qonun chiqaruvchi muassasalar, ijro-farmoyish, sud hokimiyati organlarining) boshqa shoxobcha o'rnini bosishiga yo'l qo'yib bo'lmasligi;

3) fuqarolik jamiyatining mavjudligi;

4) huquqli vakolatlarning biron-bir bo'gan yoki tuzilmada to'planib qolishiga to'sqinlik qiluvchi yakka hokimlikka qarshi mexanizmlarni yaratish;

5) konstitutsiyaviy qonunning ustunligi va to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi;

6) davlat hokimiyati suverenligini qonunda belgilash va hayotga joriy etish;

7) jamiyat tomonidan saylov huquqi me'yorlari asosida qonun chiqaruvchi organlarning shakllantirilishi hamda qonunlarda qonunchilik irodasining shakllanishi va ifodalanishi ustidan nazoratni yo'lga qo'yish;

8) ichki qonunchilikning xalqaro huquq umume'tirof etgan me'yorlari va tamoyillariga mos kelishi;

9) ijtimoiy muomala barcha sub'yektlarining kimningdir o'zboshimcha qarorlaridan huquqiy himoyalanganligi;

10) huquqiy davlatchilikni ta'minlash namunasi, modeli va vositasi sifatida sudning hammadan yuqori turishi;

11) qonunlarning huquqqa mosligi hamda davlat hokimiyati

tizimining huquqiy tashkil etilishi;

12) fuqarolar huquq va majburiyatlarining birligi;

13) davlat va shaxsning o'zaro mas'uliyatlari.

Ayni paytda, huquqiy davlatni barpo etish uchun eng avvalo chuqur ildiz otgan huquqiy faoliyatni rasmiy-dogmatik, tor me'yoriy qabul qilishni barham toptirish kerakligini qayd etish lozim deb hisoblaymiz. Bunda jamiyat tamoyillari va qadriyatlarini, uning rivojlanish ehtiyojlari hisobga olinmagan me'yoriy qarorlar real huquq sifatida ko'rsatiladi. Nazariyadagi bunday ahvol amaliyotni oldinga siljitishga qodir bo'lgan ilmiy tafakkur, ijodning taraqqiyotiga to'sqinlik qiladi.

Sobiq Ittifoqda yuridik fan tushib qolgan vaziyat huquqni rasmiy-dogmatik talqin etishga yaqqol misol bo'la oladi. U asosan ikki funksiyani: chiqariladigan qonunlarni sharhlash hamda mavjud ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va uning asosida yotuvchi avtoritar tafakkur haqidagi masalalar yaratish funksiyalarini bajarardi. Bunday quyushqon ichida hech qanday jiddiy tanqid va, demakki, ilmiy izlanishlarning ham bo'lishi mumkin emasdi.

Shu bilan birga, yaxshi nazariyasiz, shuningdek, huquqiy ijodkorlik jarayonida huquqshunoslar ishtirokisiz amaliyot noto'g'ri yo'ldan ketib qolishi mumkinligini tarixning o'zi ko'rsatdi. Biron-bir huquqiy hujjat chuqur ilmiy tekshirishsiz hamda keng muhokamasiz qabul qilinmasligi va hayotga tatbiq etilmasligi darkor.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, huquqiy davlat nazariyasi tabiiy-huquqiy qarashlar asosida shakllangan. U konseptual jihatdan hamda to'liq ravishda ilk bor I.Kant tomonidan ta'riflab berilgan. Endi esa, u tomonidan taklif etilgan ta'limotni batafsilroq qarab chiqamiz. Sizning e'tiboringizni Kantning tabiiy-huquqiy mafkurasi tavsifida to'rt jihatni farqlash lozimligiga jalb etishdan boshlaymiz:

1) tabiiy huquqning universal xarakteri, aytish mumkinki, universal etika bo'lib, uning me'yori uchun ularning adresatlari kelib chiqishi va mansabiga ko'ra kmlar ekanligining farqi yo'q. Ular insonga qaratilgan;

2) shartnoma - davlat faoliyatining boshlang'ich asosidir. Shartnoma bo'yicha esa, tabiiy huquqlarning hammasi ham davlatga topshirilavermaydi. Ularning ayrimlari daxlsizdir. Zero, ular individlarning xususiy hayotini tashkil etadi;

3) «ijodiy huquqning» (odamlar tomonidan ijod qilinib, davlat tomonidan chaqiriladigan me'yorlarning) tabiiy huquqlarga bo'ysunishi;

4) tabiiy huquq me'yorlarining homiyligi, ularning o'zgarmas mohiyati (mumtoz variant) yoki tabiiy-huquqiy aktlarning o'zgaruvchan mazmuni (tabiiy huquqning vujudga kelishi nazariyasi).

Kant tabiiy-huquqiy va shu bilan birga ijodiy yondashuvi uchun uning huquqiy davlat nazariyasi mohiyatini tashkil etuvchi bir qator qoidalar xosdir.

Masalan, Kant, har bir shaxs mutlaq boylik hisoblanadi: hech kimga, hatto eng olijanob rejalarni bajarish uchun ham, vosita yoki qurol sifatida qarab bo'lmaydi, deb ta'kidlaydi.

U shuningdek, hech qanday inson holatlari bilan bog'lanmagan, tajribadan oldingi va tajribadan tashqari, tajribaga asoslanmagan va mutlaq qandaydir bir qonun mavjud, deb hisoblardi. Kant uni «qat'iy imperativ» deb atagan. Ushbu mavhum shakl har safar jonli mazmun bilan to'laveradi. Bu rasmiy qoida, lekin u hayotiy munosabatlarda qo'llanishi bilan haqiqiy ma'no kasb etadi. Imperativda «Shunday harakat qilginki, sening harakatlaring qoidasi hamma uchun umumiy qoida bo'lib qolishi mumkin bo'lsin», - deyilgan.

Faqat individlar qat'iy imperativga erkin amal qilganlaridagina huquq haqida so'z borishi mumkin, ya'ni ularning shunday qilishlariga hech kim halaqit bermasligi kerak. Bir kishining ikkinchisiga nisbatan zo'ravonligini cheklovchi hamma narsa, Kantning fikriga ko'ra, huquqning o'zidir.

Uning ta'kidlashicha, «umumiy qonun»ni (qat'iy imperativni) hayotga tatbiq etishni ta'kidlovchi real kuch zarur. Huquq umummajburiy, majburlov xarakteriga davlat tufayli ega bo'ladi. Davlat esa, shaxsga xizmat qilishga, uning avtonomiyasini ta'minlash va binobarin, shaxsni har qanday zo'ravonlikdan muhofaza qilishga da'vat etilgan.

Davlat o'z faoliyatini mutlaq huquq asosiga quradi. Qanday huquq asosiga, degan savol tug'iladi. Axir uning o'zi qonunlarni chiqaradi-ku. Kant tomonidan huquq, birinchidan, aprior (shubhasiz haqiqatlar) me'yorlarining majmuidan iborat tabiiy huquq sifatida;

Ikkinchidan, ijodiy, qonunchilik irodasini aks ettiruvchi huquq sifatida; uchinchidan, adolat sifatida tushuniladi. Davlat tabiiy huquqqa rioya qiladi va hamma bilan birga umummajburiy qonunlarni bajaradi.

Oliy huquq-tartibotni o'rnatishda xalq ishtirok etadi. Konstitutsiyada uning irodasi ifodalanadi. Russo ortidan Kant ham xalq suvereniteti g'oyasini ta'kidlaydi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat ham xalqqa taalluqlidir. Ijroiya hokimiyati qonun chiqaruvchi hokimiyatga bo'ysunadi. Sud hokimiyati ijroiya hokimiyati tomonidan tayinlanadi. Shu yo'l bilan hokimiyatlarning oddiy bo'linishi emas, hokimiyatlar muvozanati ta'minlanmogi darkor.

Yana bir bor eslatib o'tamizki, huquqiy davlat uchun aynan hokimiyatlarning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Alohida ta'kidlash joizki, bu nazariya umuminsoniy qadriyat, boylik bo'lib, undan har qanday tarixiy tipdagi davlatlarda u yoki bu darajada foydalanilishi mumkin.

Bizning respublikamizda mazkur tamoyil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (12-modda)da qonuniy mustahkamlangan. Oliy Majlisning oltinchi sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov shunday deb ta'kidlagan: «Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tizimi - ya'ni hokimiyat tarmoqlarining bo'linishi qonuniy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. Ularning har birida qonuniy asosda avtoritarizm va totalitarizm zo'rvonliklarini istisno etuvchi haqiqiy demokratik me'yor va tartiblar joriy etildi»¹⁹.

Biroq, ba'zi bir davlatlarda qarab chiqilayotgan konsepsiyaning tashkiliy-huquqiy jihati shaklan o'zgargan. Chunonchi, Lotin Amerikasi bir qator mamlakatlari konstitutsiyaviy doktrinalari to'rt hokimiyatdan kelib chiqadi: ularda qo'shimcha saylov hokimiyati tilga olinadi. Ba'zan bunday hokimiyatlarning bundan ko'proq miqdori ham sanaladi. Jumladan, Nikaraguaning 1986 yilgi Konstitutsiyasi loyihasida beshta hokimiyat ko'rsatilgandi: ular sirasiga nazorat hokimiyati ham kiritilgan. Jazoirning 1976 yilgi Konstitutsiyasida aslida olti hokimiyat sanab o'tilgandi: ular - siyosiy, qonun chiqaruvchi, ijroiya, sud, nazorat va ta'sis hokimiyatlaridir.

Shunday qilib, turli mamlakatlarda hokimiyatlarning bo'linishi

¹⁹ Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. 5-tom. T., O'zbekiston» 1997. 107-108-bellar.

va hokimiyat birligi to'g'risida xilma-xil qarashlar mavjud. Bir xil bo'lmagan huquqiy, konstitutsiyaviy me'yorlar hamda amaliyot ham bor. Lekin bunda eng muhimi bir narsada - ularning hammasi huquqiy davlatda huquq asosida, eng avvalo, qonun chiqaruvchi hokimiyat e'lon qiladigan huquqiy qonunlar asosida amal qiladi.

Huquqiy davlat haqida gapirarkanmiz, yana bir dalilga e'tiborni jalb qilmay ilojimiz yo'q. Huquqiy mafkurada, huquqiy davlatning o'zi nima degan masalada ikki xil qarash aniq ajralib turadi. Birinchisini ijtimoiy hayotning barcha sohalarida «qonunning hukmronligi» deb ta'riflash mumkin. Albatta, bunda barcha muammolar shu so'z bilan hal etilib qolmasligini his etish qiyin emas. Bu yerda konstitutsiyaviy ma'noda qonun hukmronligi,- ya'ni davlat hokimiyati oliy vakillik organlarining hujjatlari ko'zda tutilmoqda. Boz ustiga, so'z qonunning e'lon qilinadigan ustuvorligi haqida emas, balki haqiqiy ustuvorligi haqida bormoqda.

Albatta, mazkur yondashuvning asosiy tamoyillarini shubha ostiga olmagan holda, baribir, bizning nazarimizda, mohiyati «huquq hukmronligi», «ustuvorligi» ta'rifida ifodalangan ikkinchi nuqtai nazarni afzal ko'rgan ma'qul. U huquq bilan qonun o'rtasidagi mavjud farqqa asoslangan. Huquq ustuvorligi huquqiy (yuridik) qonunning ustuvorligini nazarda tutadi. Zero, bizning bilishimizcha, hamma qonun ham huquqiy ifodalayvermaydi. Mazmuniga ko'ra, qonunlar ilg'or va qoloq, mantiqiy va mantiqsiz, adolatli va adolatsiz bo'lishi mumkin. Qonun ustuvorligi - muhim, lekin, har qalay, huquqiy davlatning tashqi, rasmiy jihati xolos. Huquqiy davlatning ichki, mazmuniy xususiyati qonunning o'zining sifati, mohiyatida. Chinakam demokratik huquqiy davlatda qonun huquqqa mos bo'lishi kerak.

«Huquq hukmronligi», «qonun hukmronligi» atamaları huquqiy davlatning qariyb hamma konsepsiyalarida o'z aksini topadi. Biroq, amalda hali hech kimga huquq va qonun haqiqatan hukmron bo'lgan jamiyatni barpo etish nasib etmagan. Qolaversa, bunday hukmronlikning o'zi mumkin emas. Chunki huquq iqtisodiy tuzum va u taqozo etgan jamiyat madaniy rivojidan yuqori tura olmaydi. Qonun ijtimoiy munosabatlardan tashqarida ham emas, yuqorida ham emas, balki shu munosabatlar tizimida yashashi va amal qilishini isbotlab o'tirishning hojati yo'q.

Shuning uchun ham ba'zi mualliflarning tasavvurlari bo'yicha qonun sal bo'lmasa hokimiyat va boshqaruvning sub'yekti bo'lib qolishi kerakligi kishini ajablantiradi. Biroq, jamiyatni qonunlar emas, balki odamlar boshqaradi. Boz ustiga, inson hokimiyati yashirin, nomsiz va o'z harakatlariga javob bermaydigan holatga intilganda, bu hokimiyat qonun kuchini o'ziga niqob qilib oladi. Ushbu yondashuv tarafdorlari qattiqqo'l, lekin adolatli qonun hammaning ustidan hukmronlik qiladi, deb hisoblaydi. «Qonun hamma narsadan ustun», «qonun – qattiq qo'l bo'lsa ham - qonun», «dunyo halok bo'lsa mayli - adliya o'lmasin» kabi iboralarni eslaylik. yana bir bor takrorlaymiz - qonun nomi bilan hamisha odamlar hukmdorlik qiladi.

Qizig'i shundaki, jahonning ayrim buyuk mutafakkirlari qonun, huquqqa bosiq munosabatda bo'ladilar. Haqiqatan ham ijtimoiy qadriyatlar orasida huquq eng yuqori o'rinda turmaydi. Dunyoda huquqdan yuqori turadigan ko'p narsalar bor. Ular - haqiqat, aql-zakovat, vijdon, or-nomus, ozodlik, adolat va hokazolardir. Huquq va qonun faqat ushbu qadriyatlarni ifodalaganda, ularni hayotga singdirishga yordam bergandagina biron-bir qimmatga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham huquq va qonunni o'z o'rniga qo'ya olmaslik huquqiy davlatni barpo etish yo'lida bizni ta'qib etishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlardan biridir. Afsuski, hozirgi zamon jamiyati bo'lishi kerak bilan haqiqatda borliq o'rtasidagi birlikka hali erisha olgani yo'q. Shu maqsadga erishishning uzoq jarayoni aynan shu huquqiy davlatni shakllantirish va qaror toptirish davri hisoblanadi. Bunday davlatda kerak bo'lgan va xaqiqatda bo'lmoqlikni o'zida mujassamlashtirgan ustuvorlik faqat huquqiy qonunga tegishli bo'lishi mumkin. Haqiqatda bor narsa - mavjud qonun, kerak bo'lgan narsa qonunning qanday bo'lishi kerakligidir. Kerak bo'lgan narsani izlash nazariy jihatdan huquq mohiyatini izlashdan iborat. Shu tariqa, qonun ustuvorligi va hatto davlatning qonunga bog'lab qo'yilishi ham bu davlatni huquqiy deb atash uchun kifoya qilmaydi. Faqat huquq bilan bogliqlik davlatning chinakam huquqiy tabiatini bildiradi.

3-§. Huquqiy davlatni shakllantirish

Ma'lumki, huquqiy davlatga da'vat etish hamda uni shakllantirish jarayonining o'zi hamisha boshqaruvning mustabidlik tarziga,

mutlaq hokimlikka, politsiya davlatiga qarshi javob tariqasida yuzaga kelgan. Aynan shuning uchun ham huquqiy davlatning eng muhim konsepsiyalari burjuaziyaning feodallarga qarshi kurashi davrida paydo bo'lgan. Burjuaziya eski hukmron sinflarning imtiyozlari, mushtumzo'rlik huquqlari, qonuniylashtirilgan zo'rvonliklari o'rniga o'z yuridik qadriyatlarini taklif etgan.

Ushbu g'oyaga konstruktivlik va barqarorlik bag'ishlash, yaramas tartibotlarni supurib tashlash istagining o'zi mutlaqo yetarli emasligi diqqatga sazovor va tarixiy tajriba buni isbotlab turibdi. Buning ustiga yana tamoyillar, ustuvor maqsadga ega bo'lgan yangi huquq-tartibotni yaratish zaruriyatiga qat'iy ishonch, imon-e'tiqod, shuningdek, boshlangan ishni oxiriga etkazishga qat'iyat va komil ishonch ham kerak.

Yana bir qiziq jihat. Huquqiy davlat g'oyasining o'zi eng xilmaxil siyosiy rejimlar ichida vujudga kelgan va hamisha, agar ta'bir joiz bo'lsa, o'z o'rnida yangragan. Chunonchi, XIX-XX asrlar Germaniya tarixida o'ziga huquqiy davlat maqomini bermagan biron-bir siyosiy tuzum bo'lmagan: Bismark davri nemis davlati, Veymar respublikasi, Gitlarning fashistik rejimi - bularning hammasi shu da'vo bilan chiqqan. Hozir ham nemis davlatining Asosiy qonuni (28-moddasi-ning 2-qismi)da ijtimoiy-huquqiy davlatning asosiy tamoyillariga sadoqat qayd etilgan.

Sobiq «sotsialistik lager» mamlakatlari va sobiq Ittifoq respublikalarida huquqiy davlat g'oyasi ayniqsa dolzarb bo'lib qolgandi. Bu ham totalitarizmga, hukmronlik qilishning ma'muriy-buyruqbozlik usullariga, inson huquqlarining buzilishiga qarshi javob harakati edi. Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlashicha, «Bugun biz qanday davlat quryapmiz? Uning siyosiy va ijtimoiy negizi, uning qiyofasi qanday bo'lishi kerak? yangi demokratik jamiyat shakllanishida uning ta'siri qanday bo'ladi?» degan savollarga javob topish, bu xususda atroflicha fikr yuritish fursati yetdi...

...Bular murakkab, ayni paytda g'oyat muhim masalalardir. Biz bu savollarga qanchalik to'g'ri javob topa olsak, huquqiy, demokratik jamiyat qurishning eng maqbul va ma'rifiy yo'llarini shunchalik tezroq topamiz. Xalqimiz kelajagi, Vatanimiz istiqboli ana shunga bog'liq».²⁰

²⁰ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom, T., «O'zbekiston», 1996. 6-bet.

Boshqacha qilib aytganda, huquqiy davlat ta'limotidan chekinish, xatolardan qochish uchun: a) mazkur ta'limotdan nimaga ega bo'lishimizni; b) bizda hech qachon bo'lmagan yoki yetishmagan narsa nimaligini; v) uni shakllantirish uchun nimalar qilish kerakligini ko'ra olishimiz darkor.

Endi yana tarixga murojaat qilamiz. Sobiq sovet hokimiyati davrida davlatning ham huquqiy ijodkorlik, ham huquqni qo'llanish faoliyatida asos qilib olingan aksiomalar, me'yorlar, tamoyillarning alohida majmui mavjud edi. Lekin bu o'ziga xos «sotsialistik huquq» yakka hokimlik asosida bir partiya tomonidan shakllangan bo'lib, shu bilan umuman jamiyat huquqi zo'rvonlik bilan tortib olingandi.

Ayni vaqtda, davlat va jamiyat hayotining huquqiy asosini tashkil etuvchi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar amalda mavjud edi. Asosiy Qonunda fuqarolar huquqlari va erkinliklarining juda keng doirasi e'lon qilingandi. Qonuniylik tamoyili e'lon qilinib, davlat organlari va fuqarolar tashkilotlari faoliyatida qonuniylik uchun kurash olib borish vazifasi qo'yilgandi. Biroq, u nomiga e'lon qilingan bo'lib, chinakam qonuniylik ochiqdan-ochiq yetishmasdi.

Sobiq Sho'ro davlatida huquqiy davlatning boshqa ko'pchilik alomatlari ham yo'q edi. Jumladan, shaxs huquqlari va manfaatlarining jamiyat va davlat manfaatlaridan ustunligi hech qachon tan olinmagan. Aynan shuning uchun ham Prezident I.Karimov, O'zbekiston Konstitutsiyasining bir yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishdagi nutqida quyidagilarni ta'kidlagan: «...Qaysi masalani olmaylik, davlat manfaati birinchi o'rinda, fuqaro, shaxs manfaati esa deyarli hisobga olinmasligi eski Konstitutsiyalarning har qaysi moddasida yaqqol ko'zga tashlanar edi.

Yangi Konstitutsiyamizning eng muhim mohiyati shundan iboratki, unda «Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat hamda fuqarolar oldida mas'uldirlar» deyilgan, ya'ni, fuqarolar manfaatining ustunligi qonuniy ravishda mustahkamlangan va kafolatlangan...»²¹

Hokimiyatlarning bo'linishi nazariyasi, davlat mexanizmida tiyib turish va muvozanatlar nazariyasi tan olinmas, boz ustiga ular burjuaziyaning zararli nazariyalari hisoblanadi.

Konkret ijtimoiy tuzilmalarning yo'qligi sobiq SSSR barbod

²¹ Karimov I.A. Bizdan ozod va abod Vatan qodsiz, 2-tom. T., «O'zbekiston» 1996. 94-bet.

bo'lgandan keyin jiddiy siyosiy qadamlar va davlat-huquqiy o'zgarishlarni amalga oshirishga katta ehtiyojni keltirib chiqardi. Boshqacha aytganda, so'z huquqiy davlatni shakllantirishning zarur shart-sharoitlarini vujudga keltirish ustida borardi. Jumladan, fuqarolarning qoniqarli ahvolini ta'minlash shunday shart-sharoitlardan biridir. Oliy Majlisning to'rtinchi sessiyasidagi nutqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti quyidagilarni ta'kidlashni zarur deb topdi: «...kuchli ijtimoiy siyosatni unutmashimiz lozim. Ijtimoiy muhofaza vositalarini yanada mustahkamlash uchun aniq yo'nalishni kuchaytirish zarur.

Men, avvalo, jamiyatimizda odamlarning ijtimoiy jihatdan keskin tabaqalanishiga yo'l qo'ymaslikni, ya'ni boy-badavlat odamlar bilan bir qatorda nochor va qashshoq kishilar paydo bo'lishiga, aholimiz sotsial toifalari o'rtasidagi asossiz tafovut haddan tashqari katta bo'lishiga, ularning o'rtasida qarama-qarshilik paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslikni nazarda tutyapman».²²

Prezidentimiz haq, agar fuqarolarning moddiy farovonligi o'smaydigan bo'lsa, bunday davlat va huquqning qimmatini bir pul. Moddiy asossiz, yetarli darajada yuqori umumiy siyosiy va huquqiy madaniyatga erishmay turib, xalq irodasini izhor etishning barcha shakllarini faollashtirmasdan huquqiy davlatni tasavvur etish qiyin. Bu huquqiy davlatni shakllantirish uchun zarur bo'lgan birinchi zamin ekanligini eslatib o'tamiz.

Ayniqsa, respublikamizda prezidentlik hokimiyati tuzilmasi yaratilishi munosabati bilan vakillik organlari obro'si (roli)ni oshirish, qonunchilikni va uning hayotga tatbiq etilishini nazorat qilishni takomillashtirish eng muhim, majburiy odimlar bo'lmog'i kerak.

Mamlakatimiz tarixida ilk bor respublika Prezidenti saylandi, mustaqilligimiz haqidagi tarixiy Bayonot e'lon qilindi, suveren davlatimizning yangi Konstitutsiyasi - Asosiy qonuni qabul qilindi. Bular huquqiy davlatni shakllantirishning ikkinchi zaminidir.

Nihoyat, huquqiy davlatni shakllantirishning uchinchi zamini. Uning ma'nosi nimada? Huquqiy davlatning shakllanishi davrida fuqarolarni, jumladan, qonun chiqaruvchidan himoyalash vazifasi ko'ndalang turadi. Qonun chiqaruvchilar ham yanglishishlari, yomon va noto'g'ri qonunlar qabul qilishlari, zimmalariga ijroiya va sud

²² Karimov I.A. *Bunyodkorlik yo'ldan. 4-tom. T.*, «O'zbekiston» 1996. 178-bet

organlari funksiyalarini olishlari hamda shu bilan ko'pgina kulfatlar keltirishlari mumkinligi sir emas. Shuning uchun fuqarolarga ham, deputatlarga ham qonun loyihalarini erkin tanqid qilish huquqi berilishi kerak.

Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi yangi Konstitutsiyasining loyihasi butun xalqimiz tomonidan muhokama qilindi. Shuning uchun «Asosiy qonunimiz xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Chunki uni ishlab chiqish va muhokama etishda butun xalq ishtirok etdi. Bir so'z bilan aytganda, Konstitutsiyamiz tom ma'noda xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsulidir»²³

4-§. Xalq hokimiyati rejimini ta'minlashda qonunning roli

Ilgari ta'kidlab o'tganimizdek, huquqiy davlatchilik uchta muhim tamoyilga: 1) qonunning ustuvorligi; 2) hokimiyatlarning bo'linishi; 3) davlat bilan fuqarolarning bir-birlari bilan o'zaro majburiyatlar asosida bog'langanligiga asoslanadi. Bu eng keng tarqalgan nuqtai nazar, lekin shunga qaramay, bu yerda ham turli variantlar bo'lishi mumkin.

Oldingi bo'limda biz huquqiy davlatda hamisha ham huquqqa mos kelavermaydigan qonun emas, balki huquq hukmronlik qiladi, degan nuqtai nazarni himoya qilgandik. Aslida ham bu juda to'g'ri. Biroq, biz buni huquqiy voqelikni falsafiy idrok etish zarur bo'lgan davlat va huquq nazariyasiga tatbiqan aytgan edik. Lekin faqat nazariya haqida gapirmaydigan, agar faqat nazariyanigina ko'zda tutmaydigan, ya'ni yuridik amaliyotga ham murojaat etadigan bo'lsak, bunda aynan qonunning o'ziga murojaat qilishimizga to'g'ri keladi.

Ma'lumki, haqiqatan ham huquqiy davlatni shakllantirishda albatta: mamlakat xalqi umumiy irodasini qonunda aks ettirishni qanday ta'minlash kerak, qonunchilik faoliyatining o'zining qat'iy qonuniyligi va konstitutsiyaviyligini qanday kafolatlash; qonunlarning bajarilishi uchun mansabdor shaxslar mas'uliyatini qay yo'l bilan ta'minlash mumkin, - degan savollar tug'iladi.

Bular og'ir savollar. Boshqaruv demokratik shakllarining yuzaga kela boshlaganidan boshlab insoniyatning eng donishmand

²³ Karimov I.A. Bizdan azod va obod Vatan qolsin. 2-tom. T., «O'zbekiston» 1996. 93-bet.

vakillari umumiy manfaat va o'z fuqarolarining umumiy irodasini shakllantirishni ta'minlovchi vositalarni qanday topish ustida bosh qotirib kelganlar. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, butun xalq miqyosida yagona iroda ma'nosida umumiy iroda hech qachon mavjud bo'lmagan va bo'lishi ham mumkin emas. Bitta-bittadan qo'shilib, ko'p iroda hosilasi sifatidagi xalq irodasi - bema'nilikdan boshqa narsa emas. Lekin baravar amal qiladigan umumiy iroda to'la ma'noda bor gap. U demokratik rusum-qoidalar asosida namoyon qilinadi. Shu rusum-qoidalar tufayli umumiy iroda, ozchilikning irodasi o'z o'rnini topadi. Chunki ozchilik umumiy irodani shakllantirishda qatnashgan va, ehtimolki, dastlabki variantning o'zgarishiga ta'sir qilgan hamdir. Aynan shunday iroda konkret qonunlarda aks ettiriladi, ularning qonuniyligi va ustuvorligini shart qilib qo'yadi.

Biroq, qonun ustuvorligi faqat uning mamlakat xalqi umumiy irodasini ifodalashi bilangina taqozo etilmaydi. Qonunning qabul qilinishi taomili va uning amal qilish tamoyillarining o'zi uni barcha boshqa me'yoriy hujjatlardan yuqoriga ko'taradi, har qanday huquq tizimidagi uning alohida o'rnini belgilab beradi. Faqat referendumgina umumiy irodaning qonunda to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) ifodalanishini ta'minlay oladi. Parlament va unga o'xshash vakillik organlari ham, albatta, umumiy irodani ochib borishga qodir, lekin uni hamisha ham ta'minlay olmaydi. Ularning ichida va tashqarisida turli mexanizmlar (masalan, lobbizm) vujudga kelib, umumiy manfaatlarga qarama-qarshi o'laroq xususiy (guruhiy) manfaatlarni amalga oshirishga yordam berishi mumkin.

Lekin referendum - murakkab, eng muhimi juda qimmatga tushadigan tadbir. Buning ustiga u qonun chiqaruvchilik faoliyatining tezkorligini ta'minlay olmaydi, parlament esa atayin shuning uchun tashkil etilgan. Shundan kelib chiqqan holda, amaliyot ma'lum darajada uning salbiy faoliyati ta'sirini kamaytirishga qodir qarama-qarshi tizimni yaratdi. Bu tizim nomma-nom ovoz berish, konstitutsiyaviy nazorat, Prezident, davlat boshlig'ining faoliyatidan iborat.

Yana bir narsa. Huquqiy davlatda qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar ularsiz ishlab bo'lmay qolgandagina qabul qilinadi. Zero, me'yoriy-huquqiy boshqarishdan xoli ijtimoiy hayot qanchalik keng bo'lsa, huquqiy davlat tayanchlari shunchalik mustahkam bo'ladi.

Me'yoriy hujjatlar inflyatsiyasi (qadrsizlanishi) huquqiy yemirilishga olib keladi, qonunchilikni ko'zga qiyin tashlanadigan qilib qo'yadi.

Qonunning kuch-qudrati fuqarolarning uning talablariga rioya etish zaruratiga ishonchlariga bog'liq. Biroq, me'yoriy farmoyishlar fuqarolar tomonidan hamisha ham avtomatik suratda o'zgartirilavermaydi. Ular manfaatlariga mos keladigan huquqiy me'yorlar hammadan yengil qabul qilinadi, huquqqa qarshi qaratilgan harakatlarga nisbatan tiyib turuvchi ta'sir ko'rsatadi yoki tashabbuskor ijobiy harakatlarga rag'batlantiruvchi xizmatni bajarishga qodirdir. Lekin shu bilan birga sub'yektlarning me'yoriy farmoyishlarni bajarish bo'yicha harakatlarini baholash qiyin bo'ladi.

Qonun chiqaruvchi endilikda qonun taqdiri ustidan darhol hukm chiqarish imkoniyatidan mahrum. Hamma vakolatlar qonunni qo'llanish bo'yicha maxsus vakolatga ega bo'lgan muassasalar va mansabdor shaxslar ixtiyoriga topshiriladi. Shuning uchun huquqni qo'llanuvchi muassasalarda ijro intizomining yo'qligi qonunlarni samarali amalga oshirishda eng katta to'siq bo'lib qoladi. Qonunchilik talablarini bajarishdagi tang vaziyatlar ko'pincha sovuqqonlik, faoliyatsizlik, loqaydlik oqibatida undan ham ko'proq - mansabdor shaxslar sodir etadigan suiiste'molliklar natijasida yuzaga keladi. Xuddi shuning uchun ham Prezidentimiz Oliy Majlisning to'rtinchi sessiyasida so'zlagan nutqida mana shu muhim jihatga e'tiborni jalb etishni zarur deb topdi. Jumladan u shunday dedi: «... men bugun huquqiy davlatning eng asosiy talabi - davlatimizda qonunlarni amalga oshirishga, qonunchilikni ta'minlashga safarbar etilgan kishilarning ularni aniq va og'ishmay ijro etishini talab qilish to'g'risida alohida gapirmoqchiman. Men hokimiyat tuzilmalari, huquqni muhofaza etish, sud va nazorat organlarini nazarda tutyapman ...

Agar shunday bo'lmasa, agar o'sha organlar yoki mansabdor shaxslarning o'zlari qonunlarni oyoq osti qilsa, mazkur qonunlarning o'zi obro'sizlanadi, yanayam to'g'rirog'i, jamiyatning ma'naviy asoslariga putur yetadi».²⁴

Turli sub'yektlarning taqdim etilgan qonunlarga munosabatini bilish huquqiy davlat qonun chiqaruvchisi uchun juda muhim. Qabul qilinayotgan qonunlarga aholining munosabati to'g'risidagi axborot qonun ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish uchun zarurdir.

²⁴ Karimov I.A. *Bunyodkorlik yo'lidan. 4-tom, T., «O'zbekiston» 1996. 184-bet.*

Qonunga nisbatan norozilikning jamiyatda keng tarqalgan quyidagi holatlari isbotlangan. Birinchidan, murakkab marosimlarni ko'zda tutgan me'yorlar amal qilgan holatda. Ikkinchidan, yangi qoidalar bilan faoliyati siqilgan shaxslar tor doirasining yangi qonun qoidalariga faol qarshiligi. Sobiq SSSRda 1985 yilgi alkogolga qarshi kompaniya bunga misol bo'la oladi. Uchinchidan, yangi me'yorlarga aholi ko'pchiligining qarshiligi eng jiddiy vaziyat bo'lib, bu holatda biz huquqiy nigilizmga duch kelamiz. Qonun chiqaruvchiga nisbatan xalq ishonchiga putur yetishi hamda qonunlar o'zining sifati pastligi huquqqa nigilistik qarashlarning birlamchi sabablaridan hisoblanadi. Boz ustiga, qonun hujjatlari hajmining, hujjatlarning ko'p miqdorli qatlamlarining haddan tashqari shishirilishi hamda bir turli masalalarning huquqiy muvofiqlashtirishdagi ziddiyatlar to'la tartibsizlikka yaqin chalkashliklarni keltirib chiqaradi.

Albatta, demokratik davlatda fuqarolarning huquq va erkinliklarini poymol etuvchi konstitutsiyaga qarshi qonunlarning paydo bo'lish ehtimoli juda oz, bunday qonunlar paydo bo'lgan taqdirda ham ularning amal qilishiga konstitutsiyaviy sud tomonidan to'siq qo'yiladi. Lekin o'z-o'zidan puxta o'ylanmagan, shoshma-shosharlik bilan tayyorlangan qonun paydo bo'lishi mumkin. Natijada qonun hujjatlari matnlarida ochiq-oydin qarama-qarshiliklar va anaxronizmlar hosil bo'ladi, ommaviy ongda esa, qonun chiqaruvchining maqsadlarini tushunish yetishmaydi.

Aynan shuning uchun Oliy Majlisning oltinchi sessiyasida «...talay muhim qonunlar tegishli qonun hujjatlari bilan mustahkamlanmagan, qabul qilingan huquqli me'yorlar va kafolatlarni ro'yobga chiqarishning aniq mexanizmi yetarli darajada ishlab chiqilmagan»²⁵ligiga e'tibor qaratildi.

5-5. Fuqarolik jamiyati tushunchasi va uni shakllantirish yo'llari

Fuqarolik jamiyati huquqiy davlatning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy poydevori hisoblanadi. O'z vaqtida Sen-Simon, jamiyatning ikkita: anarxiya va mustabidlikdan iborat dushmanlari bor, deb ta'kidlagan edi. O'rganish va ta'riflab berishda Hegel katta rol o'ynagan fuqarolik jamiyati, uning ta'biricha, ijtimoiy aloqalarning shunday

²⁵ Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. 5-tom. T., «O'zbekiston» 1997. 118-bet.

yetukligi sifatida maydonga chiqadiki, mazkur har ikki chegara (anarxiya va mustabidlik) amalda istisno etiladi. Uning fuqarolik jamiyati tahlilida ikki asosiy tamoyil yotadi, ya'ni individlar faqat o'zlarining xususiy manfaatlarini ko'zlaydilar va ular o'rtasida har biri har biriga bog'liq bo'lgan ijtimoiy aloqa vujudga keladi. Boshqacha aytganda, Gegel fuqarolik jamiyati deganda, aslida burjua munosabatlarining iqtisodiy tarkibini tushunardi.

Bu tushunarli. Zero, «fuqarolik jamiyati» so'z birikmasi nemis tilida ikki xil ma'noni bildiradi: Burger -ham fuqaro, ham burjua degani. Xususiy mulkchilikning ijtimoiy tartiboti sifatida maydonga chiqar ekan, fuqarolik jamiyati zarurati raqobat va ma'muriy hokimiyat tomonidan boshqarib bo'lmaydigan boshqa jarayonlar orqali o'ziga yo'l ochuvchi bozor munosabatlari tizimidan iborat.

Inson ijodiy imkoniyatlarini faol namoyon qilishni ko'zda tutuvchi munosabatlar tarkib topganda, shaxs erkinligi sharpasi jism va qonga ega bo'lganda fuqarolik jamiyati bo'lishi mumkin. Bu yerda shu narsa ravshanki, «jamiyat» va «fuqarolik jamiyati» tushunchalari o'rtasiga tenglik belgisini qo'yib bo'lmaydi.

«Fuqarolik» sifatlovchisi, o'zining shartligiga qaramay, boy mazmunga ega. Ushbu atama ma'nosi olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Biroq, fuqarolar istiqomat qiluvchi har qanday jamiyat ham fuqarolik jamiyati deb atalmasligi hammaga ravshan. Zotan huquq amal qiladigan har qanday davlat ham huquqiy bo'lavermaydi. Misol uchun, sobiq Sho'ro jamiyati hech qachon fuqarolik jamiyati bo'lmagan, shuningdek, hech qachon huquqiy davlat ham bo'la olmagan.

Shunisi qiziqki, ko'p vaqtlardan ma'lum bo'lgan fuqarolik jamiyati tushunchasi sobiq sho'rolar makonida huquqshunos olimlar uchun nisbatan yangi va bo'sh ishlangan mavzu bo'lib qolgandi. Shuning uchun ham ushbu g'oyaning o'zi ijtimoiy ongimizda juda kam tarqalgan. Huquqiy davlat g'oyasi ancha ko'proq qaror topgan. Agar huquqiy davlat konsepsiyasi rasmiy ravishda 80-yillar o'rtalarida paydo bo'lgan, to'g'rirog'i, olg'a surilgan va sobiq Ittifoq olimlari va siyosatdonlari tomonidan faol muhokama etilgan bo'lsa, fuqarolik jamiyati to'g'risida jumladan, bizning respublikamizda ham yaqindagina gapiriladigan bo'lindi. Ushbu tushunchaning O'zbekiston Respublikasi yangi Konstitutsiyasida o'z aksini topmagani bunga

misol bo'la oladi. Hatto unda mazkur atamaning o'zi yo'q. Vaholanki, uning ko'pgina unsurlari (xususiy mulk, bozor munosabatlari, siyosiy plyuralizm, aybsizlik prezumpsiyasi, shaxsiy manfaatlarining davlat manfaatlaridan ustunligi kabi tushunchalar) Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining biron-bir asari yo'qki, unda «fuqarolik jamiyati» atamasi tilga olinmagan bo'lsin. Ayniqsa, bu uning respublikamizdagi iqtisodiy islohotlarga bag'ishlangan fundamental asariga ko'proq taalluqlidir. Uning dastlabki sahifalarini ochganda quyidagilarga ko'zimiz tushadi: **«Pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir».**²⁶

Oliy Majlisning birinchi sessiyasidagi nutqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faqat fuqarolik jamiyatini qurishning o'zigagina to'xtalmaydi. Zero, bu «...bizning bosh konsepsiyamiz va milliy ravnaqimiz asosidir». U (Prezident) ushbu faoliyatning zarurligi va alohida muhimligini asoslab berdi. Prezidentimizning fikricha, «...haqiqiy milliy ravnaqqa biz faqat davlat hokimiyati vazifalari qat'iy va mukkamal belgilab va shu bilan birga cheklanib qo'yilgan fuqarolik jamiyati sharoitidagina erishmog'lmiz mumkin. Bunday jamiyatda davlatning bosh vazifasi taraqqiyot strategiyasini aniq belgilash va uni hayotga joriy etish uchun qattiq nazorat olib borishdan iborat bo'ladi.

Fuqarolik jamiyatida davlat hokimiyati va boshqaruv organlari umummilliy manfaatlariga daxldor eng muhim vazifalarnigina amalga oshiradi. Mudofaa, davlat xavfsizligi, tashqi siyosat, pul-moliya va soliq tizimini shakllantirish, qonunchilikni rivojlantirish shular jumlasidandir».²⁷

Prezident I.Karimov havas qilsa arzigulik qat'iyat va sadoqat bilan fuqarolik jamiyati g'oyalari hayotga singdirmoqda. Aynan uning o'zi respublikamizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish konsepsiyasining muallifidir, desak, hech mubolag'a bo'lmaydi.

U bu haqda Oliy Majlisning to'rtinchi sessiyasida shunday degandi: «Biz islohotlarni chuqurlashtirish, demokratik tub

²⁶ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom, 1., «O'zbekiston», 1996.177-bet.

²⁷ O'sha kitob. 12-bet.

o'zgarishlar yo'ldan olg'a siljish, hayotimizda asl demokratik qadriyatlar qaror topayotgani to'g'risida gapirganda, avvalo, fuqarolik jamiyati asoslariga o'tish, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish muassasalarini butun choralar bilan kengaytirishni nazarda tutamiz. Bu barcha islohotlarimizning asosiy mohiyati va bosh mantig'idir»²⁸.

Birinchi chaqiriq Oliy Majlisning oltinchi sessiyasidagi nutqida Prezident fuqarolik jamiyatining yanada keng tavsifini berish, uning mohiyatini va shu bilan birga bu yo'nalishdagi maqsadimizni aniqlashtirishni zarur deb topdi: «Bugun, erishilgan marralardan turib, o'z oldimizga demokratik, siyosiy islohotlarni chuqurlashtirish vazifasini qo'yar ekanmiz, pirovard maqsadga erishish - fuqarolik jamiyatini qurish zaruratidan ketib chiqib, ish tutmog'imiz darkor.

Ya'ni, shunday davlat va ijtimoiy tuzilma yaratish kerakki, **unda kuchli markaziy hokimiyat o'z sa'y-harakatlarini mudofaa, davlat xavfsizligi va fuqarolarning xavfsizligi, tartib-intizom, tashqi siyosat, valyuta-moliya, soliq tizimini shakllantirish, qonunlar qabul qilish va jamiyatning boshqa strategik vazifalarini amalga oshirish singari asosiy umum-milliy vazifalarga qaratmog'i zarur.**

Boshqa masalalarni hal etish esa asta-sekin markazdan joylarga, davlat hokimiyati organlaridan jamoat birlashmalari va fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlariga o'tkazilishi lozim»²⁹.

Shu bilan birga Prezident «siyosiy, iqtisodiy, huquqiy bazani yaratmay turib, odamlarning ongini tegishli darajada shakllantirmay turib, qisqa davr ichida bu maqsadlarga erishishning iloji yo'qligini yaxshi tushunadi»³⁰.

Ko'rib turganimizdek, bu yengil masalalardan emas. Bunga yana bir bor ishonch hosil qilish uchun o'tmishga qaytamiz. Bu esa, fuqarolik jamiyati to'g'risidagi tasavvurlar uzoq rivojlanish yo'lini bosib o'tganligiga ishonch hosil qilishimizda bizga yordam beradi. O'ylaymizki, muammoga uning tug'ilishi va o'tmish nazari bilan qarash foydadan xoli emas.

Mazkur g'oyaning tavallud tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi: Arastuning «Siyosat»i, Aflotunning «Davlat»i va boshqa qadimgi grek ta'limotlarida buni ko'rishimiz mumkin. U Uyg'onish davrida

²⁸ Karimov I.A. *Bunyodkorlik yo'ridan*. 4-tom T., «O'zbekiston», 1996.183-bet.

²⁹ Karimov I.A. *Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi*. 5-tom. T., «O'zbekiston» 1997. 129-130-bet.

³⁰ O'sha kitob. 130-bet.

G.Grotsiy, T.Gobbs, J.Lokk, Sh.Monteske, J.J.Russo asarlarida o'z davomini topdi. Lekin «fuqarolik jamiyati» atamasining o'zi faqat XVIII asrning oxirlariga kelibgina muntazam qo'llana boshladi.

Fuqarolik jamiyati deganda, munosabatlarning alohida sohasi, asosan, mulkchilik, bozor, oila, axloqiy munosabatlar tushuna boshlangandi. Mazkur munosabatlar davlatdan ma'lum mustaqillikka ega bo'lishi kerak edi. Shu ma'noda fuqarolik jamiyati noharbiy, xususiy, ustuvor jamiyat, ya'ni rasmiy tuzilmalardan tashqari, ular nazoratiga kirmaydigan hayot tarzi - alohida individlar va ular birlashmalarining, manfaatlarini amalga oshirish, tovar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning o'zaro munosabatlari sohasi mavjud bo'lgan jamiyat shunday jamiyat sifatida talqin etilardi.

Ko'rib turibmizki, bu yerda so'z davlatning shaxs «fuqarolik ishi»ga, odamlarning xususiy hayotiga aralashmaslik haqida bormoqda. Bunda erkin tadbirkorlikning, tashabbus, uddaburronlikning alohida muhiti ko'zda tutilgandi. Bu yerda davlat faqat «tungi qorovul», «nazoratchi», «hakam»lik rolini o'ynashi kerak edi. Fuqarolik jamiyati go'yo tor bozor munosabatlari va davlat hokimiyatidan farq qiluvchi faoliyat boshqa shakllarining o'ziga xos sinonimi sifatida tushunilardi.

Gegel fikri bo'yicha, fuqarolik jamiyati - **bu, eng avvalo, xususiy mulkka asoslangan ehtiyojlar tizimi, shuningdek, oila, tabaqa, davlat tuzumi, huquq, axloq, burch, madaniyat, ta'lim-tarbiya, qonunlar va ulardan kelib chiqadigan sub'yektlarning o'zaro yuridik aloqalaridan iborat. Uning ta'biricha, tabiiy, «madaniyatsiz» holatdan odamlar fuqarolik jamiyatiga kirib kelishlari kerak edi, zero, ana shu jamiyatda huquqiy munosabatlar haqiqatga aylanadi».**³¹

Ayni paytda u, bunday jamiyat faqat «hozirgi zamon dunyosi»dagina bo'lishi mumkinligini ta'kidlardi. Boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyati yovvoyilik, qoloqlik, notamadduniylikka qarshi qo'yilardi.

Inson, uning roli, funksiyalari, maqomi Gegel ta'limotining asosiy unsuri sifatida maydonga chiqadi. Gegel qarashlariga muvofiq alohida shaxs o'zi uchun o'zi maqsad bo'lib, uning faoliyati eng avvalo o'zining (tabiiy va ijtimoiy) ehtiyojlarini qondirishga

³¹ Qaralg: Гегель. Работы разных лет. -М., 1973. 50-бет.

qaratilgan bo'ladi. Ayni paytda, o'z ehtiyojlarini faqat boshqa odamlar bilan muayyan munosabatlarda bo'lgan holatdagina qondira oladi. «Fuqarolik jamiyatida har kimning o'z manfaati o'zi uchun maqsad bo'lib, boshqa hamma uning uchun hech narsa emas. Lekin boshqalar bilan munosabatda bo'lmasdan o'z maqsadlarining to'la hajmiga erisha olmaydi».³²

Fuqarolik jamiyati marksistlar e'tiboridan ham chetda qolmadi. Chunonchi, Marks o'zining ilk asarlarida oilani, tabaqa, sinflarni, mulkchilikni, taqsimotni tashkil etishni belgilash maqsadida ushbu atamani tez-tez qo'llardi. Bunda ularning tarixiy bog'liqlik mohiyati, iqtisodiy va boshqa omillarga tobeligini u ko'p ta'kidlardi.

Keyin uning asarlarida bizga yaxshi tanish bo'lgan ishlab chiqarishi kuchlari, ishlab chiqarish munosabatlari, bazis, ustqurma, ishlab chiqarish usuli va boshqa shu kabi atamalar ko'zga tashlanadigan bo'lib qoldi.

Shunga qaramay u shunday deb yozgandi: «*Ishlab chiqarshi, ayirboshlash va taqsimot rivojining muayyan bosqichini olib ko'ring va siz muayyan ijtimoiy tuzum, oila, tabaqalar, sinflarning muayyan tashkilotini, muayyan fuqarolik jamiyatini olasiz*» (muallif ajratib ko'rsatgan).

Muayyan fuqarolik jamiyatini oling va siz bunda faqat fuqarolik jamiyatining rasmiy ifodasi bo'lgan muayyan siyosiy tuzumni olasiz».³³

Shunday qilib, fuqarolik jamiyati haqidagi masala inson hayotining eng oqilona va maqsadga muvofiq tuzumi tarzida qo'yilgandi. Mohiyatan gap sivilizatsiya rivojining yangi bosqichi haqida, ijtimoiy taraqqiyotning halqa bo'ylab yangi siljishi haqida ketayotgandi. Bu o'ziga mos keladigan rasmiy tan olinishi va ifodalanishi kerak edi. Bunda taklif etiladigan barcha modellar va ta'limotlarda bosh tamoyil - mulkchilik va davlatning yagona «tashkilotchi va muvofiqlashtiruvchi» rolidan, o'z qo'lida barcha ijtimoiy rishtalar va aloqalarni ushlab turishdan voz kechishi tamoyili turardi.

Mulkdan uzoqlashishi har qanday shaxsda salbiy aks etadi, chunki bu bilan u o'zining iqtisodiy ildizlaridan uzib olinadi. Ozod va

³² *Философия права. -М., 1990. 228-бет.*

³³ *Qat'iq: Маркс К., Энгельс Ф. Соч. Т.3. 64-бет.*

teng huquqli individ - mulkdorlar, moddiy va demak, ma'naviy, shaxsiy, siyosiy, axloqiy erkinlik, inson sha'ni - fuqarolik deb ataluvchi jamiyatning asosiy qadriyatlaridir. Shuning uchun fuqarolik jamiyati fuqarolardan iborat bo'lgani uchun emas, balki fuqarolarga kerakli sharoitlarni yaratib bergandagina o'z nomini oqlaydi.

Biz o'tmish mutafakkirlari aytib ketgan gaplarni ataylab keltirdikki, bu bilan, bizda fuqarolik jamiyati qurilishi hech vaqosiz bo'sh joyda emasligini, balki nazariy meroslar yetarlicha borligini ko'rsatib borishga intildik. Albatta, o'zgalar tajribasidan nusxa ko'chirish yaramaydi. Lekin uning nimalardan tuzilganini bilib olish shubhasiz zarur.

Fuqarolik jamiyatining alomatlaridan gapni boshlaymiz. Ular mazkur jamiyat mavjudligining uch darajasida -iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy darajalarida joylashadi.

Tarixiy tajribaning ko'rsatishicha, endilikda xususiy mulk faqat odamlarni bir-biridan ajratibgina qolmay, balki ularni jipslashtirishini ham inkor etish mumkin emas. Oxir - oqibatda aynan mulkchilik davlat hokimiyatiga nisbatan avtonom holatda bo'lgan fuqarolik jamiyati tartibotlarini shakllantirishda yordam beradi. Gegel «fuqarolik jamiyati haddan tashqari boyigan holatida ham favqulodda qashshoqlik bilan, chuvrindilarning paydo bo'lishiga qarshi kurashish uchun etarli darajada boylikka ega emas», deb yozib ketganidan beri katta o'zgarishlar ro'y berdi. Rivojlangan kapitalizm mamlakatlarida to'la yetuk va sivilizatsiyalashgan jamiyat tarkib topdi. U kishilar hayoti darajasi va sifati bo'yicha sobiq sotsialistik lager mamlakatlaridan ancha ustunturardi. G'arbning ko'pgina mamlakatlarida fuqarolik jamiyati sinflar o'rtasidagi munosabatlar tengligini ijtimoiy inqiloblar darajasigacha olib bormaslikka qodir bo'lib chiqdi. Proletariatning ham u yerlarda yo'qotadigan narsalari bor.

Huquqiy davlatchilikning asosiy poydevorlari nimalardan iborat? Muhimlarini sanab o'tamiz: mustaqil ishlab chiqaruvchi, erkin iste'molchi (xaridor) va ozod fuqaro.

Avval boshdanoq, xususiy shaxs ham, shu qatori har qanday jamoa ham mustaqil ishlab chiqaruvchi bo'lishi mumkinligini qayd etamiz. Barcha hozirgi zamon mamlakatlarida teng asoslarda davlat mulkchiligi ham mavjud.

Aynan xususiy mulkchilik jamiyatida muhtojlikda yoki xohishiga

ko'ra uning istalgan a'zosi qonun doirasida davlatga «yo'q» deb, ayni paytda hayoti uchun zarur mablag'lardan ajralmay qoladigan holatni shakllantiradi.

Agar, ishlab chiqaruvchilar ko'pchilik bo'lmaganda, ular jamiyatning bir qismi bo'lib qolaversa, hamma - iste'molchi hisoblanadi, Moddiy va ma'naviy ne'matlar iste'molchisi hisoblangan fuqaro tanqislik bo'lmagan holatdagina o'zini nisbatan xotirjam his qiladi. Ana shundagina jamiyat va davlat barqarorlikka ega bo'ladi.

Zarur mollar va xizmatlar tanqisligi imtiyozlar va ijtimoiy adolatsizlikni keltirib chiqaradi: mollar va xizmatlarni egallangan lavozimning katta-kichikligiga qarab taqdim etish boshlanadi, Shu tariqa mollar hajmining harakati ustidan nazoratni ma'muriy hokimiyat butunlay o'z qo'liga oladi va iste'molchi unga haddan tashqari tobe bo'lib qoladi. Bunday holatda endi gap fuqarolik emas, balki totalitar jamiyat haqidagina borishi mumkin. Fuqarolik jamiyatining siyosiy tavsifi endilikda huquqiy davlat tushunchasida a'lo tarzda jamlangan. Shuni ham boshdayoq qayd etish joizki, tarixiy jarayon rivojida birinchilikni fuqarolik jamiyatiga (Marks) yoki davlatga /Gegel/ berish iqtisodiyot bilan siyosatni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga olib keladi. Bu esa, nazariyada ham, shuningdek amaliyotda ham noto'g'ridir.

Agar faqat davlatchilikning rivoji asos qilib olinadigan bo'lsa, fuqarolik jamiyatining siyosiy tavsifi hech ham to'liq bo'la olmaydi. «Demokratiya ta'sirchan bo'lishi uchun fuqarolik jamiyatining plyuralizmi kerak bo'ladi».³⁴ Uni ko'ppartiyaviylik, jamoat birlashmalarining keng tarmog'i, tadbirkorlar, mustaqil jamoalar uyushmalari, mahalliy boshqaruvning xilma-xil shakllari va boshqalar ta'minlaydi.

Ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyati siyosiy hayotining muhim qismidir. Ular fuqarolik jamiyati hayotiylikining, uning atrof muhit bilan moslashish qobiliyatining muhim shartlaridan biri bo'lgan qaytar aloqani amalga oshiradi.

Umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi - ma'naviy hayot sohasidagi fuqarolik jamiyati alomatlarini ana shu iborada o'z ifodasini topgan. Ozodlik, qonun oldida tenglikka, ijtimoiy adolatga izchil

³⁴ Дарендорф Р. Дорога к свободе: демократия и ее проблемы в Восточной Европе. /Вопросы философии. - 1990. 9-сон, 73-бет.

yo'nalganlik fuqarolik jamiyatida teng sharoitlarni ta'minlaydi. Bu esa juda muhim, deb ta'kidladi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti: «...Islohotlar davomida kishilar o'z mehnat va aqliy imkoniyatlarini amalga oshirishlari. . . uchun Konstitutsiyada ko'zda tutilgan ijtimoiy kafolatlar va imkoniyatlarni ta'minlash zarur. Tashabbuskorlik va omilkorlik butun choralar bilan rag'batlantirilishi lozim»³⁵

Fuqarolik jamiyati sharoitida huquq faqat iqtisodiy va siyosiy hukmronlik qiluvchi sinf irodasinigina emas, balki o'z davri insonparvarlik asoslari, uning ahloqiy yo'nalishlarini ifodalaydi. Kantning fikricha, fuqarolik-huquqiy holati quyidagi tamoyillarga asoslanadi: «jamiyat har bir a'zosining inson sifatidagi erkinligi; fuqaro sifatida uning har bir boshqa odam bilan tengligi; jamiyat har bir a'zosining fuqaro sifatida mustaqilligi».³⁶

Albatta, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat ziddiyatlardan xoli emas. Zero, ko'pchilik jarayonlar hokimiyatlar tomonidan kuchli ehtiyot choralari ko'rilmay, erkin tartibda kechadi. Fuqarolik jamiyatida, chamasi, boshqa har qanday jamiyatdagidan ko'proq kambag'allarning yanada kambag'al, boylarning yanada boyroq bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi mumkin. Shuning uchun ham bu yerda davlatning o'z vaqtida vaziyatni tuzatib, to'g'rilab borishi juda muhim ahamiyatga ega. Biroq, agar u muayyan afzalliklarga ega bo'lsa ham, bu afzallikni taqsimot munosabatlari sohasida emas, balki ishlab chiqaruvchi kuchlarning shiddatli rivojlanish qobiliyatidan izlash kerak. Hozircha chuqur ilmiy idrok etishni talab qiluvchi fuqarolik jamiyatining qandaydir bir qiyofasi tarkib topgan, xolos.

Lekin hozirning o'zidayoq, u yoki bu mamlakatning o'ziga xos xususiyatlaridan qat'i nazar, har qanday fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan eng umumiy g'oyalar va tamoyillarni ko'rsatish mumkin. Ulardan ba'zilarini quyida keltiramiz:

- 1) iqtisodiy erkinlik, mulk shakllarining xilma-xilligi, bozor munosabatlari;
- 2) inson va fuqaroning tabiiy huquqlarini so'zsiz e'tirof etish va muhofaza qilish;
- 3) hokimiyatning qonuniyligi va demokratik tabiati;
- 4) qonun va odil sudlov oldida barchaning tengligi, shaxsning

³⁵ Karimov I.A. *Vatan sajdagohi; kabi muqaddasdir. 3-tom. T., «O'zbekiston» 1996. 302-303-betlar.*

³⁶ Кант И. Соч. В 6-ти томах...-М., 4-том, 2-қисм. 79-бет.

Ishonchli yuridik himoyalanganligi;

5) hokimiyatlarning bo'linishi va ularning o'zaro hamkorlikda ishlashiga asoslangan huquqiy davlat;

6) siyosiy va mafkuraviy fikrlar xilma-xilligi, oshkora muxolifatning mavjudligi;

7) so'z va matbuot erkinligi, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi;

8) davlatning fuqarolar xususiy hayotiga aralashmasligi, ularning o'zaro majburiyatlari va mas'uliyati;

9) sinfiy tinch-totuvlik, sherikchilik va milliy ahillik;

10) odamlarning munosib hayot darajasini ta'minlovchi ta'sirchan ijtimoiy siyosat.

Fuqarolik jamiyati - shaxsiy hokimiyat rejimiga, o'zboshimchalikka, sinfiy nafratga, totalitarizmga, odamlar ustidan zo'ravonlikka o'rin bo'lmagan, qonun, axloq, insonparvarlik va adolat tamoyillarini hamma hurmat qiladigan erkin, demokratik, huquqiy sivilizatsiyalashgan jamiyat. Bu - aralash iqtisodiyotga ega bo'lgan ko'p ukladli raqobatli bozor jamiyati, tashabbuskor tadbirkorlik, turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarinig oqilona muvozanati ta'minlangan jamiyatdir.

Fuqarolik jamiyatida fuqarolarning davlat oldidagi majburiyatlari asosan qonunlarga itoatkorlik va soliqlarni to'lashdangina iborat qilib qo'yilgan bo'ladi. Albatta, muayyan vaziyatlarda va munosabatlarda fuqarolarda ularning ijtimoiy, mehnat, tadbirkorlik va boshqa turdagi faoliyatlari bilan, xizmat, harbiy, oilaviy burchni ado etish bilan bog'liq boshqa majburiyatlari ham yuzaga kelishi mumkin. Biroq, bunday tizimda pastdan yuqoriga (vertikal) emas, balki gorizontaal aloqalar ko'proq bo'ladi.

Fuqarolik jamiyati fuqaro va uning erkinligidan boshlanadi. Fuqaro so'zining o'zi shaxsning mustaqilligi, tenghuquqliligi, sha'ni va o'z-o'zini hurmatlashining sinonimi sifatida yangraydi. Bu jamiyat hamisha har turli tabaqaviy amaldorlarga qarama-qarshi qo'yilgan, odamlarning tengsizlik holatiga qarshi, ularning huquqlarda cheklanishiga qarshi da'vat sifatida qabul qilingan. «Tabaqa» maqomi yoki krepostnoylik maqomi tahqirlovchi va kamsituvchi nomlar edi. Ayni paytda «fuqaro» unvoni burch, mas'uliyat hissini ifodalar, xalqqa xizmat qilish bilan bog'lanardi. Nekrasovning: «Shoir bo'lmasliging

mumkin, lekin fuqaro bo'lishga majbursan», degan satrlarini eslaylik.

Fuqarolik huquqiy jamiyati uchun yana ikki tamoyil - aybsizlik prezumpsiyasi va «qonun taqiqlamagan hamma narsaga ijozat beriladi» ta'rifi ham xarakterlidir. Mazkur tamoyillarning birinchisiga muvofiq belgilangan tartibda aybi isbotlanmaguncha, odam halol, hech narsada aybi yo'q, deb hisoblanadi. Boz ustiga, isbotlash mashaqqatlari ham ayblovchilar zimmasiga tushadi. Ikkinchi tamoyil, erkin fuqaro qonun va axloqqa zid kelmaydigan har qanday harakatlarni qilishga haqli, degan ma'noni bildiradi.

Fuqarolik jamiyati - siyosatlashuvdan va mafkuralashishdan xoli jamiyatdir. Biroq, bu sira ham mazkur jamiyat hech qanday siyosat yurgizmaydi, konkret g'oyalari yoki qarashlardan foydalanmaydi yoxud ulardan qaysi birlarini afzal ko'rmaydi, degan ma'noni aslo bildirmaydi. Fuqarolik jamiyatiga mafkuraviy yakka hokimlik begona ekanligi boshqa gap. Bironta nazariya, agar u yagona va eng to'g'ri, nuqsonsiz va tanho uning o'zi yashashga haqli deb taqdim etilgan taqdirda ham istisnolikka da'vo qilolmaydi. Masalan, sobiq Ittifoqda kommunistik g'oyaning ahvoli nimalar kechgani ma'lum. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida: «Hech qaysi mafkura davlat mafkurasini sifatida o'rnatilishi mumkin emas», degan qoida aks etgan.

Bu yerda bir holatga e'tiboringizni tortishni istardik. Bizning nazarimizda, yuqoridagi modda juda ham sipo ta'riflangan deb bo'lmaydi. Zero, davlatda, har qalay, umummilliy g'oya bo'lishi, uning atrofida butun jamiyatni jipslashtirish mumkin-ku. Shuning uchun jamiyatni mafkuraviylashtirishdan xoli qilishni jo'n tushunish kerak emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq (1993 yil 6 mayda) bejiz shunday demagandi: **«Oldimizda turgan eng muhim masala, bu - milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizda tatbiq etishdir.**

Milliy istiqlol mafkurasini xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuygularini ongimizga singdirishi lozim».³⁷

³⁷ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy, istiqlol, iqtisod, siyosiy, mafkura. 1-tom, T., «O'zbekiston» 1996. 302-bet.

Albatta, biz hozir, mafkuraviylikdan xoli jamiyat, mafkuraviylikdan xoli davlat, mafkuraviylikdan xoli odam, degan iboralarni tez-tez eshitadigan bo'lib qolganmiz. Bu faqat bitta «g'olib» va shak-shubhasiz mafkura hukm surgan oldingi sho'ro tizimi mavjudligiga javob harakatdir. Lekin bundan hech ham eski ta'limot o'rnida qandaydir bo'shliq paydo bo'ladi-yu, u hech narsa bilan to'ldirilishi mumkin emas, degan ma'no kelib chiqmaydi. Bu mafkuraviy masalalar bo'yicha jamiyat, davlat hech qanday nuqtai nazarga ega emas, degan gap bo'lardi. Lekin N.A.Berdyayev allaqachon, har qanday davlatda uni ushlab turuvchi, birlashtiruvchi sinch, ma'naviy asos, tamoyillar bo'lishi kerakligini qayd etgan.

Insonparvarlik ilgor g'oyalari biz barpo etayotgan fuqarolik jamiyatiga yot emasligidan tashqari, unga uzviy ravishda xosdir. Bu yerda so'z aqliy erkinlik, fikrlarni ifodalashdagi erkinlik haqida, mafkuraviy tazyiqqa yo'l qo'yib bo'lmasligi haqida, inson hayoti asoslarini qo'poruvchi radikal-ekstremistik dunyoqarashdan, sinfiy va milliy kurashdan, bolshevizmdan xalos bo'lish haqida bormoqda. Mafkuraviylikdan xoli bo'lish muammosi esa - ko'p yillar davomida odamlar ongiga singdirib kelingan va ular xatti-harakatlarini belgilab bergan partiyaviy-sinfiy aqidalar va qoliplarni barham toptirish muammosidir.

Fuqarolik jamiyati - ochiq, demokratik, totalitarizmga qarshi, o'z-o'zini rivojlantiruvchi jamiyat bo'lib, unda inson, fuqaro, shaxs markaziy o'rinni egallaydi. Aynan shu ma'noda fuqarolik jamiyati siyosiy-mafkuraviy, ayniqsa avtoritar jamiyatga qarama-qarshi turadi. Birlamchi model va ijtimoiy hayot qurilishida tayanch tuzilmasi sifatida oila unda muhim rol o'ynaydi. Gegelning o'ziyoq oilani davlatning birinchi bazasi, tabaqani - ikkinchi bazis deb atagandi. «Pok va sofdil shaxsni tarbiyalashda, ona tilini qayta tiklashda hech kim va hech narsa oila bilan tenglasha olmaydi», - deb hisoblaydi mamlakatimiz Prezidenti..

Oila, mulk, shaxs, erkinlik, huquq, ma'naviyat, tartib va davlatchilik - fuqarolik jamiyatining tub qadriyatlari shulardan iborat. Shu bilan birga, mulkdor shaxs butun jamiyat erkinligining asosiy poydevori bo'lib maydonga chiqadi. Gegel mulkchilik «erkinlikning naqd hayoti mavjudligiki, u o'z-o'zidan muhim maqsaddir»³⁸, deb

³⁸ Gegel. Soch. -M., 1934. 7-tom, 73-82-betlar.

ko'rsatgandi.

Bunda mulkdorlar sinfining jinoyatchilik yo'li bilan emas, balki normal tsivilizatsiyalashgan taraqqiyot jarayonida shakllanishi juda muhim. Shu jumladan O'zbekiston Respubliksi Prezidentining Oliy Majlis to'rtinchi sessiyasidagi nutqi diqqatga sazovor. Unda shunday deyiladi: «Respublikamiz jamiyatda bozor munosabatlarini qaror toptirgan holda iqtisodiy islohotlar yo'lidan dadil qadam tashlamog'qa. Lekin biz shuni teran anglab olishimiz kerakki, bozor va bozor munosabatlarini mulk egalari paydo bo'lmasdan tasavvur qilish mumkin emas. Bozor, iqtisodiy erkinlik o'ziga xos kishilar - mulk egalarisiz amal qilolmaydi».³⁹

Respublikaning mustaqillik sharoitlaridagi besh yillik taraqqiyotining muhim natijalaridan biri sifatida I.Karimov quyidagi dalillarni qayd etdi: «Iqtisodiy islohotlarning eng muhim yakunlaridan biri - aksariyat yurtdoshlarimizda mulkka egalik, mulkdorlik tuyg'usining uyg'onishi va rivojlanishi jarayoni, o'rta qatlam, kichik va xususiy korxonalar egalari, mulkning, er uchastkalarining, aksiyalarning, boshqa qimmatli qog'ozlarning, xullas, daromad keltiradigan mulkning shakllanishidir».⁴⁰

Bu qonuniy hamdir. Bozorda erkin, lekin shu bilan birga, qonunga itoatkor mulkdorlar ishlashlari kerak. Kapitalizmning tiklanish davrida Amerika ma'rifatparvari Tomas Jefferson: «kamroq hukmdorlik qiladigan hukumat eng yaxshi hukumat», - deb atagandi. Ma'lum darajada bu narsa davlatning iqtisodiyot bilan o'zaro munosabatlariga tatbiqan olganda unga ham tegishlidir. Bunda davlat bozorda kamroq buyruq berib, ko'proq uning normal rivojlanishini kuzatishi kerak bo'ladi.

Shunga qaramay, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, turar-joy qurilishi va ijtimoiy ta'minot ko'pincha davlat aralashuvi talab qilinadigan muayyan sohalar sirasiga kiradi. Beqaror jamiyatda barqaror iqtisodiyotni va barqaror siyosiy tartibni o'rnatish mumkin emas.

Fuqarolik jamiyati davlat bilan o'zaro aloqada mavjud bo'ladi, rivoj topadi va o'z vazifasini bajaradi. Ularning munosabatlarida to'qnashuvlar bo'lishi ehtimoli bor. Lekin har qanday holatda ham

³⁹ Karimov I.A. *Bunyodkorlik yo'lidan*. 4-tom. T., «O'zbekiston» 1996. 172-bet.

⁴⁰ Karimov I.A. *Yangicha fikrlash va ishlash davri talabi*. 5-tom. T., «O'zbekiston» 1997. 111-bet.

«mahkama», «organlar» va ularning «agentlari» odamlarning shaxsiy hayotiga aralasha olmaydilar yoki ularga nayrang ishlata olmaydilar. yana bir bor ta'kidlamoqchimiz: fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qutblar singari bir-birlariga qarama-qarshi turmay, uyg'un ravishda o'zaro ta'sir etishlari kerak.

Shunday qilib, bayon etilganlardan kelib chiqqan holda, fuqarolik jamiyatini davlatdan tashqari va siyosatdan tashqari munosabatlar (iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, axloqiy, ma'naviy, oilaviy, diniy munosabatlar) yig'indisi deb ta'riflash mumkin. Bu munosabatlar erkin individ-mulkdorlar va ular birlashmalari o'ziga xos manfaatlarining maxsus sohasini tashkil etadi.

Mazkur holatda «davlatdan tashqari» va «siyosatdan tashqari» birikmalarini ularning mutloq tarqokligi ma'nosida emas, balki davlatning o'zboshimcha aralashuviga nisbatan mustaqillik, avtonomlik, ehtiyot chorasini ko'rib qo'yish sifatida tushunish kerak.

Ayni paytda, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat - bir-biridan ajratib olingan va ayrim holatdagi qismlar emas, balki o'zaro chambarchas bog'liq tizimlardir. Zero, davlat - jamiyatni tashkil etish shakli va faqat jilla bo'lmaganda shuning uchun ham ular ajralmasdir.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining vujudga kelishi - hal etilishi ko'plab omillar va shart-sharoitlarga bog'liq bo'lgan asosiy va uzoq davom etuvchi vazifadir. Shuning uchun ham respublikamiz Prezidenti Oliy Majlisning oltinchi sessiyasidagi nutqida quyidagilarni ta'kidlashni zarur deb topganligi bejiz emas: «Biz shuni yaxshi bilamizki, zarur bazani - siyosiy, iqtisodiy, huquqiy bazani yaratmay turib, odamlarning ongini tegishli darajada shakllantirmay turib, qisqa davr ichida bu maqsadlarga erishishning iloji yo'q»⁴¹

Respublika mustaqillikni qo'lga kiritganidan buyon nisbatan qisqa muddat o'tganiga qaramay, har qalay, hozir amalga oshirilayotgan islohotlarning butun borishi og'ir-oqibatda ko'zlangan maqsadga erishishga - rivojlangan bozor infratuzilmasiga ega bo'lgan fuqarolik jamiyatini, demokratik jamiyatni, ijtimoiy adolat jamiyatini barpo etishga olib boradi.

Insonning tabiiy huquqlarini, shaxs erkinligini, mulkchilik shakllarining xilma-xilligini, huquqiy davlat g'oyalarini, siyosiy fikrlar

⁴¹ Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-tom. T., «O'zbekiston» 1997. 130-bet.

xilma-xilligini e'tirof etish, xususiy tashabbusni rivojlantirish - fuqarolik jamiyati yo'lidagi bizning dastlabki odimlarimiz mana shulardan iborat. Bundan quyidagi muhim xulosa kelib chiqadi: fuqarolik jamiyatini ta'limot, g'oya, jarayon sifatida va intilishimiz yuksak bo'lgan reallik sifatida farqlay bilish zarur.

6-§. Davlat, huquq, shaxs

Huquqiy davlat - huquq bilan bog'liq davlatdir. J.Shevale haqqoniy ravishda ta'kidlaganidek, «huquqiy davlat» tarkibi yetarli darajada murakkab va tuzilmasi bir xil emas. Bir tomondan, huquqiy aralashuvning oqibat maqsadlarini aniqlash kerak bo'lganida (masalan, odil sudlov maqsadlari yoki uning usuli (protsessual shakllarni) yoxud me'yoriy ta'sir kuchini (majburiy jazo choralari tabiatini) aniqlash kerak bo'lganda, huquq davlatdan shikoyat qiladi ... Ikkinchi tomonidan esa, aksincha, faqat hamma fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan huquqiy me'yorlarning birgalikda amal qilishida davlatning qudrati ifodalangani uchungina emas, balki u butunicha huquq bilan bog'langanligi, yuridiklashtirish omili jamiyat siyosiy tashkilotining bir shakli sifatida davlatni farqlovchi xususiyat sifatida maydonga chiqadigan tarzda uning tizimlari huquqiy qobiqqa o'ralganligi uchun ham huquqdan shikoyat qiladi».⁴²

Davlatning huquqqa bog'langanligini uning eng avvalo inson va fuqaro huquqlari bilan bog'liqligi sifatida tushunish lozim. Har qanday sivilizatsiyalashgan jamiyatda tug'ilgan kundan boshlab har bir kishiga tegishli bo'lib, undan tortib olib bo'lmaydigan huquqlar ob'yektiv suratda mavjudligi umum e'tirof etilgan - bu huquqlar insonga tabiatdan in'om etiladi. Davlat va shaxs munosabatlari ularning o'zaro huquqlar va majburiyatlar bilan bog'lanishi asosiga qurilishi kerak. Inson huquqlari nazariyasi va amaliyoti uzoq tarixga ega. Inson huquqlari - tarixiy-tabiiy hodisadir. Bu esa, ular jamiyat tarixiy rivoji, inson hayotining doimiy o'zgarib turuvchi sharoitlarini hisobga olgan holda insonning tabiiy va ijtimoiy mohiyati asosida vujudga keladi va rivoj topadi demakdir. Inson huquqi - muayyan ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi me'yorlar va tamoyillar majmuidir.

⁴² Shevater J.L. *Etat de droit //Reunede droit publit. 1998. № 2. Z. 316*

Shuni nazarda tutish kerakki, har bir tarixiy berilgan huquq tizimi huquq sub'yekti va tegishli ravishda uning huquqlari va majburiyatlari haqidagi, uning ozodligi yoki ozod emasligi to'g'risidagi tasavvurlar sifatida inson haqidagi muayyan yuridik ta'limotni o'z ichiga olib kelgan va oladi.

Inson huquqlari to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishi va evolyutsiyasi tarixi, shaxs huquqlari va erkinliklarining rivojlanganlik darajasi ijtimoiy taraqqiyot darajasi va tegishli jamiyatda huquqning rivojlanishi bilan belgilanishidan dalolat beradi.

Umuman huquq va inson huquqlari - prinsipial jihatdan bir tartibdagi va bir turdagi hodisalardir. Inson huquqlari - umuman har qanday huquqning zarur qismi, ijtimoiy muvofiqlashtirishning maxsus turi va maxsus shakli sifatida huquq mohiyatini ifodalashning muayyan shaklidir. Inson huquqlari huquqsiz va undan tashqarida mavjud bo'lmaganidek, huquqning ham inson huquqlarisiz bo'lishi mumkin emas.⁴³

Ilgari qayd etib o'tganimizdek, har qanday huquqning o'ziga xos xususiyati munosabatlar muayyan doirasi ishtirokchilari rolda chiquvchi amalda xilma-xil odamlarning asos-e'tibori bilan mavhum, rasmiy tengligidan iborat.

Huquqqa xos teng erkinlik tamoyili faqat bir ma'noda, ya'ni u huquq tamoyili ta'siri ostiga tushib qolgan munosabatlar doirasining barcha ehtimol tutilgan ishtirokchilari uchun bir xil darajada ahamiyatli, degan ma'nodagina umumiy xarakterga ega bo'ladi. Biroq, bu umumiylik nisbiydir. Chunki u huquq tomonidan muvofiqlashtiriladigan munosabatlar sub'yektlari bilangina cheklanadi. Ishtirokchilar tarkibi singari munosabatlar huquq shakllari doirasi ham tarixiy rivojlanish jarayonida o'zgaradi hamda barchaning rasman tengligi va erkinligi tan olingungacha odamlarning erkin va erkin bo'lmagan kishilarga bo'linishining ijtimoiy-tarixiy evolyutsiyasini ifodalaydi.

Odamlar u yoki bu qismining to'liq yoxud qisman erkin emasligi (qullik, krepostnoylik) saqlanib kelgan vaqtlarda huquqning o'zi va undan foydalanish rasman teng kishilar doirasiga kirmaganlarga nisbatan imtiyoz (huquq-imtiyoz)dan iborat edi. ya'ni inson ijtimoiy maqomi, muayyan urug', tabaqa, guruhga mansubligi yoki mulki, boyligi borligiga qarab tegishli huquqlarga ega bo'lgan.

⁴³ Qarang: *Общая теория права и государства: /Под ред. В.В.Лазарева. -М., 1994. 311-бет.*

Inson huquqlari hozirgi zamon ta'limoti tarixiy yo'lining turli bosqichlarida imtiyozlilikning u yoki bu ko'rinishi haqida so'z borgan. Ushbu tarixiy qatorda shunday imtiyozlarga ega bo'lgan odamning so'nggi tipi fuqaro bo'ldi, imtiyozii kishi huquqlarining so'nggi shakli esa - fuqaro huquqidir. Tarixiy taraqqiyot davomida tobora ko'proq kishilarni fuqaro sifa'tida huquqiy e'tirof etishning kengayib borishi ro'y berdi. Huquqiy tenglik tamoyili tobora ko'proq odamlar doirasiga yoyilib bordi.

Turli davrlarda rasmiy tenglik tamoyili mazmuni qanday o'zgarib borganligini kuzatish qiziqarlidir. Chunonchi, talion tamoyilida (qonga-qon, jonga-jon) va odil sudlovning afsonaviy tarozusi qiyofasida qilingan jinoyatga teng (baravar, adolatli) qasos g'oyasi o'z aksini topdi. Bu holatda biz ko'proq jinoiy huquq bilan ish ko'ramiz, huquqiy tenglik esa eng avvalo, mas'uliyatli tenglik, jinoyat bilan jazo o'rtasidagi tenglik, jazoning keltirilgan zararga mos kelishidir.

Tenglikni ifodalash va amalga oshirishning boshqa shakli - qur'a inson munosabatlarining yanada yanada kengroq doirasi /ne'matlar, hurmat-eh'tirom, lavozimlarni taqsimlash, qarorlar qabul qilish, janjallarni hal etish kabilar/ni qamrab oladi. Qur'a ishtirokchilari taqdir oldida birdek tengdirlar. Qur'a dastlab taqdirning o'zini, mazkur voqea u yoki bu ishtirokchisi uchun tegishli rolning u tomonidan tanlovini bildirgan.

Keyinchalik qur'aning shakli o'zgarib, qur'a ishtirokchisining o'z ulushi, o'z taqdirini o'zi tanlashiga aylanadi. Natijada qur'a tuzilmasi - tenglik huquqiy tamoyilini qo'shish va amalga oshirishning yangi va istiqbolli shakli shakllanadi.

Sudning paydo bo'lishi bilan aynan bir sudning o'ziga sudlanuvchi bo'lganlarning tengligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan tenglik haqida, uning adolat va huquq bilan bog'liq tasavvurlarning rivojini kuzatish qiziqarlidir. Qadim davrlardanoq tenglik adolat va huquq tamoyili sifatida talqin etib kelingan. Lekin bunda tenglikning ikki turli - arifmetik tenglik (o'lchov, tarozu tengligi va hokazolar) va geometrik tenglik ma'noga qarab tenglik mavjud edi.

Misol uchun Arastu huquqni (tabiiy huquqni ham, irodaviy belgilangan huquqni ham) siyosiy huquq bilan tenglashtirgan.

Arastuning fikricha, bu tenglik odamlarning «buning ustiga erkin bo'lib tug'ilgan va mutanosib ravishda yoki arifmetik teng fuqarolarning»,⁴⁴ siyosiy (polisli) uyushish sharoitlarida mavjud bo'ladi.

To'ralar (ya'ni siyosiy bo'lmagan) hokimiyati va munosabat xilida (vahshiylarcha istibdod tuzumlarida, xo'jayin bilan qul o'rtasidagi munosabatlarda) huquq faqat siyosiy huquq sifatidagina mavjud bo'lishi, inson huquqi esa faqat (polis a'zosi) huquqi sifatida bo'lishi mumkin.

Antik-ma'rifiy yondashuvning boishlanishi qadimgi grek sofistlari ijodi bilan bog'liq. Sofist Protagorning mashhur «Hamma narsaning mezoni - inson» ta'rifi buyuk insonparvarlik ma'nosi bilan to'liq. Bir qator sofistlar (Antifont, Likofron, Alkidam) barcha kishilarning tabiiy tengligi - tabiat bo'yicha, tabiiy huquq bo'yicha tengligi g'oyasi bilan chiqishdi. Odamlarning tengsizligi, shu jumladan, erkin va qullarga bo'linish ular tomonidan odamlarning sun'iy tartiblari, polis qonunlari sifatida talqin etilardi.

Inson huquqlari ta'limotida rimlik yuristlar tomonidan ishlab chiqilgan huquq sub'yekti tushunchasi muhim rol o'ynaydi. Mazkur tushuncha yuridik shaxs konstruksiyasida o'z aksini topgan. Shunisi qiziqki, ular tabiiy huquqqa ko'ra, hamma erkin bo'lib tug'iladi, qullik esa xalqlar huquqi bo'yicha kirib kelgan, deb hisoblashsada, ularning o'zlari yana qullarni huquq ob'yekti sifatida qoldirib, faqat ozod kishilarni yuridik shaxs sifatida tan olardilar. Ularning huquqiy sub'yektlilikni nafaqat xususiy, balki ommaviy huquqqa ham taalluqli deb hisoblashganini qayd etish muhimdir.

Rimlik mualliflar tomonidan qonun talablarining yalpi umumiy-
ligi va birligidek muhim tamoyil asoslab berilgandi. U: «Qonun ta'siri
hammaga birdek bo'lishi kerak», deb ifodalangan.

O'rta asrlarda umuman feodal tuzumi tuzilishi va mavjud-
ligining huquq hamda tabaqaviy va iyerarxik tamoyillari bilan
huquqiy bog'lanishning yanada keng yoyilgan va batafsilroq tarkibi
yuzaga keladi. Feodal jamiyatida inson huquqlari uning qaysi
tabaqaga mansubligiga qarab belgilanadigan bo'ldi. Xilma-xil ijti-
moiy maqomlar turli huquq-imtiyozlar belgilardi.

Qadim zamonlarda yuzaga kelgan odamlarning yalpi tengligi
g'oyasi o'rta asrlarda turli nuqtai nazarlardan turib, turli shakl va

⁴⁴ Qarang: Аристотель. Соч. 4.-М., 1983, 159-бет.

yo'nalishlarda rivojlanishda davom etdi. O'sha davr huquqiy hujjatlarida ushbu g'oyaning amaliy ifodasi tabaqaviy huquqlar va ozodliklar /erkinliklar/dan iborat bo'lgandi. Shunga qaramay, burjua konstitutsiyalari hamda inson huquqlari va erkinliklari yuridik konstruksiyalarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy istiqbolli yo'nalish bo'lgan.

Tabiiy huquqning aql-idrokka asoslangan nazariyasi, avval ta'kidlaganimizdek, G.Grotsiy, B.Spinoza, J.Lokk, Sh.Monteske, T.Jefferson va boshqa mutafakkirlar asarlarida ishlab chiqilgan. Ularning feodal tuzumini tanqid qilganliklari va shaxs huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi yangi tasavvurlarni, individ bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarda huquq hukmronligining zarurligi haqidagi yangi tasavvurlarni asoslab berganliklari burjua dunyoqarashining shakllanishiga, burjua inqiloblarni yuridik tayyorlashga va ular natijalarini yuridik mustahkamlashga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Inson tabiiy huquqlarining ajralmasligi, hokimiyatlarning bo'linishi ta'limotiga bog'liq holda konstitutsiyaviylikning shakllanish jarayonida o'z rolini o'ynadi va ilk burjua konstitutsiyaviy qonunchiligi va davlat-huquqiy amaliyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Chunonchi, 1789 yilgi Inson va fuqaro huquqlari fransuz Deklaratsiyasida barcha odamlarning erkinligi va huquqiy tengligi tantanali e'lon qilingandi. Inson huquqlari unda «tabiiy, ajralmas va muqaddas» deb baholangan. «Tabiiy» deb atalishining sababi shundaki, insonga uning tug'ilishi chog'ida tabiat va faqat tabiatgina tabiiy huquqdarni taqdim etadi. «Ajralmas» deb tan olinishida ularni hayotiy faoliyat yurituvchi jonzod sifatida insonga xos tub sifatlar qatoriga kiritishlari hamda uning timsolida «ijtimoiy ittifoq a'zosi»ni yo'qotishning yaqqol tahdidisiz bu huquqlarni ayirib olib bo'lmagani nazarda tutiladi.

Nihoyat, Deklaratsiyada inson huquqlari «muqaddas» deb atalgan. Bu yerda «muqaddas»lik favqulodda muhim, yuksak hurmatga sazovor va barqaror demakdir.

Bunday huquqlar qatoriga erkinlik, mulkchilik, xavfsizlik va jabr-zulmga qarshilik ko'rsatish kiritilgan. Tafakkur va fikrlarni, shu jumladan diniy masalalar bo'yicha erkin izhor etish ham inson huquqlari sifatida tan olingan. Qonun oldida hammaning tengligi tamoyili e'lon qilingan. Deklaratsiyaning bir qator moddalari jinoiy-

huquqiy sohada inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga bag'ishlangan. Aybsizlik prezumpsiyasi «har bir odam aksi isbotlanmaguncha aybsiz hisoblanadi» degan ta'rifda tan olinadi.

«Birinchi avlod» huquqlari deb atash mumkin bo'lgan qator fundamental siyosiy va fuqarolik huquqlarini e'lon qilib, ularni amaliyotga kiritib, Deklaratsiya inson huquqlari tuzilmasi rivojining ilk bosqichini ochib berdi. Ushbu davrda inson huquqlari o'zining ideal qiyofasidan ayniqsa uzoqlikda edi. Ularni amalga oshirish ijtimoiy tarkibotlar tomonidan vujudga keltirilgan qiyinchiliklarga duch keldi. Natijada «teng bo'lib tug'ilgan» odamlar «faol» va «passiv» fuqarolarga bo'lina boshladilar, «inson huquqlari» tushunchasiga qarama-qarshi siyosiy hayotga «senz» tushunchasi kirib keldi.

Ushbu tuzilma taraqqiyotdagi ikkinchi bosqich huquqlarining yangi, ikkinchi avlodi - ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarning paydo bo'lishi munosabati bilan endi bizning asrimiz sanasiga kiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar (mehnat qilish, ma'lumot olish, ijtimoiy ta'minlanish huquqi) siyosiy huquqlarga qaraganda davlatning ham moddiy, ham yuridik xususiyatdagi choralariga ko'proq muhtojdir. Busiz mazkur huquqlar ozgina bo'lsa ham izchil amalga oshishi qiyin.

Uchinchi bosqich asrimizning ikkinchi yarmiga tegishli bo'lib, inson haq-huquqlarini rivoj toptirish, amalga oshirish va muhofaza qilishda xalqaro huquq rolining keskin oshishi bilan tavsiflanadi. Huquqlar va erkinliklar ro'yxati yanada ko'proq kengayadi, ularning «uchinchi avlodi» shakllanadi.

Uchinchi avlod inson huquqlariga bag'ishlangan xalqaro-huquqiy hujjatlar orasida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi alohida o'rin tutadi. Dastlab Inson huquqlari xalqaro xartiyasi Inson huquqlari deklaratsiyasi, Inson huquqlari to'g'risidagi konvensiya va Konvensiya qoidalarini hayotga tatbiq etish bo'yicha tadbirlar aks etgan hujjatdan iborat bo'lishi kerak deb belgilagandi.

1948 yil dekabrda taklif etilgan hujjatlarning birinchisi - Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilindi. Ikkinchi va uchinchi hujjatlarni tayyorlash davomida inson huquqlarining barcha toifalari kiritiladigan yagona shartnoma o'rniga Inson huquqlari to'g'risida ikkita pakti qabul qilishga qaror qilindi. Bular - Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda

Fuqarolik huquqlari va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktdir. Paktlarni hayotga tatbiq etish tadbirlari paktlarning o'zlariga ham, shuningdek, alohida hujjat - Fuqarolik huquqlari va siyosiy huquqlari to'g'risidagi paktga fakultativ bayonnomaga ham kiritilgan.

Xartiyani tashkil etuvchi hujjatlarning yuridik kuchi turlicha. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi tavsiya beruvchi me'yorlar, me'yor-da'vatlarni aks ettirsa, ikkinchi tomondan xalqaro shartnomalar sifatida paktlar shu paktlar qatnashchilari bo'lgan davlatlar uchun majburiy xatti-harakat me'yorlarini belgilab beradi. Shundan kelib chiqqan holda Xartiyaga yagona hujjat sifatida qarab bo'lmaydi - bu yetarli darajada mustaqil xalqaro hujjatlarni birlashtiruvchi umumiy nomdir.

Deklaratsiyada ifodalangan huquqlar va erkinliklarni to'rt guruh bo'yicha tasniflash mumkin. Birinchi guruhga elementar huquqlar va erkinliklar deb nom olgan huquqlar va erkinliklar: yashash, daxlsizlik, qullikdan ozod bo'lish huquqi, azob-uqubatga yoki vahshiylarcha, insonlikka isnod bo'lgan yoki jazoga mustahiq bo'lmaslik, qonun oldida barchaning tengligi, odil sudlovning taomil kafolatlariga taalluqli bir qator huquqlar, shaxsiy va oilaviy hayotga o'zboshimchalik bilan aralashish hamda or-nomus va sha'niga yoki xatlardagi sirlarga o'zboshimchalik bilan tajovuz qilishdan himoyalash kiritiladi.

Ikkinchi guruhni fuqarolik huquqlari tashkil etadi. Bular: shaxsning huquqiy sub'yekt sifatida tan olinish huquqi, davlat hududida erkin yurish va o'ziga istiqomat joyini tanlash erkinligi, boshpanadan foydalanish huquqi, fuqarolik huquqi, nikohdan o'tish va oila tashkil etish huquqi, mulkka egalik qilish huquqidir.

Siyosiy huquqdar va erkinliklar qatorida Deklaratsiya: fikr, vijdon va din erkinligi; e'tiqodlar va ularni izhor etish huquqi; tinch yig'ilishlar va uyushmalar o'tkazish (tuzish) huquqi; o'z mamlakatini boshqarishda ishtirok etish huquqini belgilaydi.

Nihoyat, 22-28-moddalarda mehnat qilish huquqi, ishni o'z erki bilan tanlab olish, teng mehnatga teng haq olish, kasaba uyushmalariga birlashish huquqi, dam olish va bo'sh vaqt huquqi, muayyan turmush darajasiga ega bo'lish huquqi, bilim olish huquqi kabi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar sanab o'tiladi.

Har bir kishining jamiyat oldidagi majburiyatlari keltirilgan

hamda individning o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirish chog'ida ularni cheklash mumkin bo'lgan asoslar belgilangan. Mazkur cheklashlar boshqalarning huquq va erkinliklarini tan olish va hurmat qilishni ta'minlash maqsadida, shuningdek axloqiylik mulohazalari bo'yicha jamoat tartibini hamda umumiy farovonlikni ta'minlash maqsadida belgilanadi. Ana shunday barcha cheklashlar, agar ular to'g'ridan-to'g'ri qonunda belgilangan bo'lsa, mavjud bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib shuni qayd etish joizki, G'arb demokratiyasi va G'arb sivilizatsiyasining barcha qadriyatlari insonning tabiiy huquqlari sifatida butun jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan emas. Jahonning turli mamlakatlarida tarkib topgan madaniy an'analarning xilma-xilligi buning asosiy sabablaridandir.

Inson huquqlari, davlat - jamiyat - shaxs nisbati to'g'risida gapirarkanmiz, shunday bir muammo, ya'ni huquqiy tartibga solish va davlat faoliyatining chegaralari haqida albatta to'xtalish kerak. Avval boshidanoq, munosabatlarni tartibga solishga yondashuvda tamoman qarama-qarshi qarash ikki mavjudligini qayd etamiz. Ulardan birinchisi - «tungi qorovullik davlati» nomini olgan konsepsiya bo'lib, unga muvofiq davlat eng ahamiyatli munosabatlarnigina tartibga solishi, to'g'rirog'i muhofaza etishi kerak.

Ikkinchi yondashuv shundan iboratki, odamlar o'rtasidagi munosabatlarning tobora ko'proq miqdori davlat boshqaruvi doirasiga kirib qoladi. Ayni zamonda bunday tajriba fuqarolar butun hayotiy faoliyatiga mayda-chuydalarda ham davlat organlarining aralashuviga olib kelishi mumkin.

Huquq jamiyat o'z vazifalarini hal etadigan asosiy, lekin birdan-bir vosita emasligini yodda tutish zarur. Kishilarning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayoti ijtimoiy me'yorlarning butun bir majmui bilan tartibga solinadi. Buning ustiga huquqiy tartibga solish predmeti boshqa qoidalar ta'siri predmetlariga mos kelishi, lekin ayni paytda farq qilishi ham mumkin. Har ikkala holatda ham hech bo'lmasa nazariy jihatdan huquqiy sohaning tashqi va ichki chegaralarini aniqlash zarur.

Shunga ko'ra, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish nomuvofiq yoki butunlay mumkin bo'lmay qoladigan sarhadlar, chegaralar to'g'risidagi masala ko'ndalang bo'ladi. Buni bilish juda

muhim. Zero, qonuniylik va o'rnatilgan huquq-tartibot faqat amaldagi qonunlarni bajarmagan hollardagina buzilmay, balki qonunchilik, huquqni qo'llanish faoliyati jarayonida huquqning ta'sir doirasidan chiqib ketilganda ham ro'y beradi. Shaxs manfaatlariga rioya qilish nuqtai nazaridan ham, jamiyat manfaatlariga rioya etish nuqtai nazaridan ham bunday harakatlar nomaqbuldir.

Huquqiy tartibga solish chegaralari to'g'risidagi masala bilan birinchilar qatori tabiiy-huquqiy qarashlar tarafdorlari qiziqishgan. Ular shunday bir qoidani e'lon qilishdiki, unga muvofiq ijobiy huquq tabiiy huquqqa asoslanishi, unga mos bo'lishi va uning chegaralaridan chiqmasligi kerak. Ular fikriga ko'ra, insonning tabiiy, ajralmas huquqlari davlat uchun mezon bo'lib xizmat qilishi kerak.

Mazkur nuqtai nazarning keyingi vaqtlarda tarafdorlari soni ortib bormoqda.

Huquqiy tartibga solish chegaralari tushunchasi «huquqiy tartibga solish doirasi» huquqiy kategoriyasi bilan chambarchas bog'liqligini esda tutish lozim. Biroq, yuridik adabiyotda hanuzgacha huquqiy tartibga solish doirasi, hajmi mezonlariga yagona yondashuv tarkib topgani yo'q.

Chunonchi, bir xil mualliflar fikriga ko'ra, huquqiy tartibga solish mazmuni, hajmi va doirasini belgilash huquq ijodkorligi organlari vakolatiga kiradi; huquqiy tartibga solish chegaraliligi ob'yektiv mezonlar - ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlari, huquqning ichki qonuniyatlari va xususiyatlari bilan, huquqiy ta'sir o'tkazishning sub'yekti va ob'yekti sifat tavsifi bilan belgilanadi. Huquqiy tartibga solishning doirasi va chegaralari bir-biriga mos kelmaydigan hamda qonun hujjatlarini takomillashtirishga, binobarin, ana shu muvofiqlikni ta'minlashga qaratilgan.

Boshqa olimlar nuqtai nazariga ko'ra, huquqiy tartibga solish doirasi huquq ta'siriga berilgan ijtimoiy makondir. Tartibga solish chegaralari - bunday makonning chegaralari, sarhadlaridir. Qonun chiqaruvchi ta'sir doiralari ehtimol tutilgan /potensial/ boshqarish doirasi; zaruriy boshqarish doirasi; qonuniy tartibga solish doirasi; huquqni amalga oshiruvchi tartibga solish doirasini farqlaydi.

Bizning nazarimizda, huquqiy tartibga solish doirasini odamlar o'rtasida tarkib topadigan, hozirgi zamon vazifalari nuqtai nazaridan huquqiy reglamentga solinishi mumkin va lozim

bo'lgan, ular hayotiy dalillari va holatlarini ob'yektiv tarzda kuzatib boradigan munosabatlar majmui sifatida ta'riflash eng maqbuldir.

Mazkur holatda huquqiy tartibga solishga davlat tomonidan mustahkamlangan xatti-harakatlar umumiy qoidalari vositasida amalga oshiriladigan yuridik ta'sirning ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi. Huquqiy tartibga solish nafaqat odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar va aloqalargagina taalluqli bo'lmay, balki kishilar irodasi va ongidan xoli sodir bo'ladigan aniq holatlar, shuningdek, hodisalarni ham qamrab oladi.

Bunda huquqiy tartibga solish doirasiga faqat yuzaga kelgan munosabatlarga kirishini alohida ta'kidlash zarur. Qonun tegishli xatti-harakatlar tarzi bilan bog'laydigan faktlar yuzaga kelishi oldindan bilingan holda, bu faktlar vujudga kelish paytidan boshlab yuridik bo'lib qoladi.

Huquqiy tartibga solish sarhadlari huquqiy tartibga solish irodasining o'ziga xos chegaralari hisoblanadi va ularni aniqlash uchun ko'pgina faqat qonun chiqaruvchi va uning irodasiga ishonishning o'zi kifoya qilmaydi. Mazkur chegaralar ko'proq mavjud reallik bilan oldindan belgilab qo'yiladi. Ushbu reallikka jumladan qonunchilik faoliyati zarur omillardan biri sifatida qo'shiladi.

Huquqiy tartibga solish doiralarini aniqlash mezonlarini ijtimoiy munosabatlar tabiatining o'zidan, shuningdek, munosabatlarni tartibga soluvchi sifatida huquq xususiyatlaridan izlash kerak. Ba'zi holatlarda, muayyan siyosiy-iqtisodiy vaziyatda huquqiy tartibga solish doirasi, chegaralarining kengayishi kuzatilishi, boshqa holatlarda esa, davlat-huquqiy doirasi torayishi mumkin.

Yuqorida bayon etilganlar asosida davlat, shu jumladan, huquqiy ta'sir chegaralariga ikki tomondan - uning imkoniyatlari va zarurlari nuqtai nazaridan qarab chiqilishi mumkin.

Bu - tartibga solishning ikki sarhadi - yuqorigi (tashqi chegaralar) va pastki (ichki chegaralar) chegaralardir.

Huquqiy tartibga solishning yuqorigi chegarasi mumkin bo'lgan chegara hisoblanadi. Uning ortida qolgan munosabatlarga davlat hokimiyatining qo'li yetmaydi va ular boshqacha, huquqiy bo'lmagan me'yorlar bilan tartibga solinadi. Ular jumlasiga tabiat qonunlari bilan tartibga solinadigan, jug'rofiy, ekologik va boshqa shart-

sharoitlarga bog'liq bo'lgan tabiiy omillarni kiritish mumkin.

Ijtimoiy taraqqiyotining ayrim qonuniyatlari, iqtisodiyot darajasi, ijtimoiy-demografik, siyosiy va boshqa shart-sharoitlar ham huquqiy tartibga solishdan tashqarida qolishi mumkin.

«**yuqorigi**» (mumkin bo'lgan) chegara bundan tashqari madaniyat omillari bilan belgilanishi mumkin. Bu omillarga jamiyat madaniy taraqqiyoti darajasini, uning axloqi, ma'naviyati, milliy, diniy va boshqa urf-odatlar va marosimlarni kiritish mumkin.

Biroq tajribaning guvohlik berishi va hayotning ko'rsatishicha, davlat vaqti-vaqti bilan bu chegaralarni bosib o'tishga, tabiat, jamiyat taraqqiyotining ob'yektiv jarayonlarini huquqiy ramkaga solish, kishi hayotini peglamentlashtirish, uning huquqlarini cheklashga urinadi va bu hol salbiy oqibatlarga olib keladi.

«**Pastki**» chegara (aralashish zarurati) u yoki bu ijtimoiy munosabatlarning davlat va jamiyat uchun muhimlik. darajasi bilan belgilanadi. Hayotda odamlar o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarining katta qismi huquqiy tartibga solish doirasi bilan qamrab olinmagani ma'lum. Biroq, ba'zi paytlarda ulardan ayrimlarining davlat va jamiyat oldidagi ahamiyati ortadi, xususiyan ular umumiyga aylanib, salmoqliroq bo'lib, odamlar o'zaro munosabatlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur holatda davlat huquqi tartibga solish chegaralarini kengaytirishi mumkin.

Lekin ta'sirchanligi o'z-o'zini tartibga solish asosida ushlab turiladigan ijtimoiy munosabatlar davlatning tartibga soluviga muhtoj emas. Istalgan tartib axloq me'yorlari, urf-odatlar va boshqa huquqiy bo'lmagan tartibga soluvchilar ta'siri vositasida saqlab turiladi. Ushbu munosabatlar ham huquqiy tartibga solishning «pastki» chegarasidan tashqarida qoladi.

Albatta, davlat huquqiy tartibga solishning «pastki» chegaralarini buzib o'tish, odamlar kundalik hayotida yuzaga keladigan munosabatlarning mumkin qadar ko'proq miqdorini qamrab olish vasvasasini doimiy his etib turadi. Bu haddan tashqari tartibga solishga berilib ketish, davlatda «politsiya» tartibini o'rnatishga intilish bilan xavflidir. Huquqiy tartibga solish doirasini qonunga qo'shimcha hujjatlar vositasida belgilashga intilish bilan bog'liq ravishda bu xavf yanada ortadi. Qonun vositachi bo'lgan narsalar hamisha ham qonuniy hujjatlar bilan tartibga solinmasligi

ma'lum bo'lsada, xavf xavfligicha qoladi.

Muammo yana shu bilan murakkablashadiki, huquqdagi bo'shliqlar qonun kuchidagi hujjatlar bilan to'ldirishga uriniladi. Shu munosabat bilan ba'zi qonun loyihalarida qonun kuchidagi me'yoriy hujjatda qabul qilinishi mumkin bo'lgan chegaralarni aniq belgilab qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Eng ezgu niyatlar bilan bo'lsada, davlat tomonidan huquqiy tartibga solish chegaralari, sarhadlarining buzilishi munosabatlarning ekvivalentlik (tenglik) xarakteri, ular ishtirokchilarining tengligining buzilishiga olib keladi va buni oqlab bo'lmasligini unutmaslik kerak.

Zo'ravonlik mohiyati huquqdan farqli o'laroq, munosabatlarda uning ishtirokchilari ixtiyori emas, balki huquqiy munosabatlarning ekvivalent va tengligi mohiyati buzilishida namoyon bo'ladi. Ulardan cheklanish, tomonlardan birining ularni o'z tanlovi bo'yicha almash-tirishga, xatti-harakatlarning allaqachon tarkib topgan va e'tirof etilgan miqyoslarini buzgan holda ushbu qadriyatlar haqida o'ziga manfaatli tasavvurlarni butun huquqiy birlashmaga o'tkazishga urinish - zo'ravonlik mana shundan iborat. Agar huquqiy asoslarda cheklanish davlat tomonidan sodir etiladigan bo'lsa, hatto u qonun niqobiga o'ralgan bo'lsada, biz davlat zo'ravonligiga duch kelamiz.

Endi muammoga boshqa tomondan qarab ko'ramiz. Zero, fuqarolik huquqini amalga oshirish chegaralari, sarhadlari haqidagi masala, bu - yana fuqarolik huquqini suiiste'mol qilish muammosi hamdir. Huquqqa ega bo'lishning mutlaq erkinligi, hech bo'lma-ganda davlat ham, jamiyat ham erkinlikka ega ekanliklari uchun ham bo'lishi mumkin emas.

Shaxsning huquqqa egalikda mutlaq erkinlikka erishish uchun intilishi esa huquqtsi suiistemol qilishga olib keladi.

Albatta, har qanday sub'yektiv huquq uni amalga oshirish mumkin bo'lgandagina, boshqacha aytganda, taqdim etilayotgan ushbu sub'yektiv huquq imkoniyatlarida huquqli shaxsning qan-daydir ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanish mumkin bo'lgan taqdiridagina ijtimoiy qimmatga ega bo'ladi.

Lekin sub'yektiv huquqning o'zi o'z mazmuniga ko'ra, huquqli shaxs tomonidan huquqni real amalga oshirish maqsadida qonun kafolatlaydigan erkinlik ham cheksiz bo'lishi mumkin emas. Har

qanday sub'yektiv huquq o'z mazmuni bo'yicha ham, uni amalga oshirish xarakteri bo'yicha ham muayyan chegaralarga ega. Chegaralar har qanday sub'yektiv huquqning ajralmas xususiyatidir. Zero, bunday chegaralar bo'lmaganda, u o'zining aksiga - zo'ra-vonlikka aylanadi va shu bilan huquq maqomidan umuman mahrum bo'ladi.

Mazkur chegaralar, **birinchidan**, sub'yektiv huquq predmeti (predmet chegaralari) bilan bog'langan. ya'ni bir harakatni sodir etishga mo'ljallangan sub'yektiv huquq boshqa harakatlarga daxldor bo'lishi mumkin emas. Jumladan, xaridor, nuqsonli buyumni muayyan muddat ichida almashtirib berishni talab qilish huquqiga ega bo'lgani holda, yaxshi sifatli buyumni o'sha muddatlarda almashtirib berishni talab qilolmaydi.

Ikkinchidan, sub'yektiv huquqning amal qilishi sub'yektiv chegaralar bilan cheklangan. Bu - huquqlar konkret shaxsga tegishli bo'lib, faqat uning o'zi shu huquqlardan foydalanish mumkin, demakdir. Ma'lumki, sub'yektiv huquqlar jamiyatdagi ularning alohida maqomlariga mos ravishda sub'yektlarga: faoliyat turi munosabati bilan (harbiy xizmatchilar), yoshi (balog'atga etmaganlar), mehnat faoliyati shart-sharoitlari munosabati bilan tegishli bo'ladi va hokazolar. Shuning uchun sub'yektiv chegaralar bilan faqat mazmunning o'zigina emas, balki sub'yektiv huquq hajmi ham bog'liq.

Uchinchidan, sub'yektiv huquqlarni amalga oshirish chegaralari vaqt chegaralariga ham ega. Shuning uchun buzilgan huquqni himoya qilishni talab etish huquqi muddat bilan chegaralangan.

To'rtinchidan, sub'yektiv huquqlarni amalga oshirish chegaralari huquqlarni amalga oshirish usullari va shakllari bilan bog'liq.

Beshinchidan, sub'yektiv huquqni amalga oshirish chegaralariga himoya usullari ham kiradi. Masalan, mehnat huquqlarini himoya qilish mehnat nizolarini qarab chiqish bo'yicha qonunda belgilangan tartib asosida olib boriladi.

Oltinchidan, sub'yektiv huquqlarning ularning vazifalariga muvofiq amalga oshirilishi ushbu huquqlarning umumiy chegarasi hisoblanadi.

Sub'yektiv huquqlarni amalga oshirish chegaralarini aniqlashga

ularni cheklash sifatida qarab bo'lmashligini yodda tutish kerak. Aksincha, bu ijtimoiy munosabatlar tizimida oldindan mavjud bo'lgan odamlarning rasmiy teng ahvolidning yuridik ifodasi hisoblanadi. Ayrim shaxslarning o'zlariga tegishli huquqardan foydalanib, mazkur iqtisodiy va huquqiy muvozanat tashqarisiga chiqishga intilishlari, ularni amalga oshirish chegaralarini buzish huquqi suiiste'mol qilish bo'ladi.

Huquqni suiiste'mol qilish huquqni vazifasini buzishda, qonun matnining uning ruhiga qarama-qarshi qo'yilishida ifodalanadi. Bunda odam rasman qonunga muvofiq harakat qilsa ham, aslida unga qarshi ish ko'radigan vaziyat yuzaga keladi.

Huquqni suiiste'mol qilish sub'yektiv huquqni uning vazifasiga zid ravishda amalga oshirishdan iborat. Huquqni suiiste'mol qilish natijasida fuqarolar, davlat, umuman jamiyat huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar yetkaziladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (ikkinchi bo'lim, beshinchi bob, 20-modda) shunday deyilgan: «Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur etkazmasliklari shart».

Agar fuqarolarning o'z huquqlarini qonuniy yo'l bilan amalga oshirishlari davlat tomonidan kafolatlanib, qonun bilan himoya qilinadigan bo'lsa, unda huquqni suiiste'mol qilish, aksincha, har qanday huquqbuzarlik singari siqib chiqarilishi darkor.

Huquqni suiiste'mol qilishga misol tariqasida noqonuniy tarzda turar-joy olish uchun soxta nikohdan o'tish yoki avtomashinani mavjud qoidalarni chetlab o'tib sotish uchun hadya qilish shartnomasini tuzish dalillarini keltirish mumkin. Himoyalash huquqini suiiste'mol qilishni misollarning alohida qatoriga qo'yish kerak. Zero, bunday suiiste'mol nomaqbul oqibatlariga olib kelishi mumkin. Chunki davlat organlari majburlov kuchi bilan bog'liqdir.

Sub'yektiv qonunga noqonuniy tarzda ega bo'lib, keyin undan foydalanishga qaratilgan har qanday huquqbuzarlik ham huquqni suiiste'mol qilishga kirmasligiga e'tiboringizni tortamiz. Faqat fuqarolarning qonuniy huquqlardan ularning vazifasiga zid holatda foydalanishlari shunday suiiste'mollik sifatida tan olinadi. Shuning uchun noqonuniy yo'l bilan huquqni sotib olish ham, qalbaki huquqni amalga oshirish ham huquqni suiiste'mol qilish sifatida

qaralishi mumkin emas. Birinchi holatga begona mulkni egallab olish misol bo'lsa, ikkinchisiga merosxo'rni merosning majburiy ulushidan mahrum qilishni kiritish mumkin.

Huquqni qo'llanuvchi organlarning qonuniylikni qaror toptirish, huquq-tartibotni mustahkamlash va jamiyatning ahloqiy asoslarini barqarorlashtirish faoliyatlarida huquqni suiiste'mol qilishning oldini olish muhim o'rin tutishi kerak.

7-§. O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning konstitutsiyaviy asosi

Respublikamiz Prezidenti I.Karimov Oliy Majlisning birinchi sessiyasida jamiyatimiz va xalqimiz yaqin kelajakda hal etishi zarur bo'lgan muammolarga e'tiborni qaratdi. Shunisi diqqatga sazovorki, mazkur ma'ruza davlat-huquqiy tafakkurni chinakamiga yangicha sharhlash bo'ldi. Zero, hozirgi zamon davlat-huquqiy fanida ilk bor «davlat», «huquq», «huquqiy madaniyat» va boshqa asosiy toifalar kabi tushunchalar mutlaqo yangi ma'noda o'z talqinini topdi.

Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faqat murakkab masalalarni o'rtaga tashlabgina qolmay, ularga batafsil javoblar ham berdi. Shu munosabat bilan u quyidagilarni aytdi: «Biz barpo etayotgan davlat eng avvalo, umumjahon sivilizatsiyasiga, davlat qurilishi sohasida boshqa xalqdar erishgan tajribalarga, ijtimoiy qadriyatlarga asoslanishi lozim.

Vatanimiz azaldan bashariyat tafakkur xazinasiga unutilmas hissa qo'shib kelgan. Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyat, adolatparvarlik, ma'rifatsevarlik kabi fazilatlarini Sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlandi. Va o'z navbatida bu falsafiy-axloqiy ta'limotlar ham xalqimiz dahosidan bahra olib boyib bordi.

Bizning kelajagi buyuk davlatimiz ana shu falsafaga uyg'un holda, Xo'ja Ahmad yassaviy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir ajdodlarimizning dono fikrlariga uyg'un holda shakllanishi lozim...

O'ylaymanki, biz bugun barpo etayotgan jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy asoslarini belgilashda mana shunday g'oyalarga

suyansak, xato qilmagan bo'lamiz».⁴⁵

Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning ilmiy asoslangan dasturiga aylangan ushbu ma'ruzada respublikamiz Prezidenti I.Karimov, demokratik, adolatli fuqarolik jamiyatini qurish - bizning maqsadimiz va asosiy vazifamizdir, deb ta'kidladi.

Ma'lumki, demokratik boshqarishning eng muhim jihatlari «huquqiy davlat» tushunchasida jamlangan. **U davlat suvereni-teti, qonunning ustuvorligi, hokimiyatlarnng bo'linishi, shaxs huquqlari va erkinliklarining poydorligi tamoyillari asosiga quriladi.**

Ushbu tamoyillarning har biri bizning Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yilgan. Shuning uchun ham ular huquqiy davlatchiligimizning konstitutsiyaviy asoslari sifatida qaralishi mumkin.

Bu yerda shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi faqat yuridik hujjatgina bo'lib qolmay, balki muayyan dasturiy uzoqni ko'zlovchi salmoqqa ham ega.

Ham bugungi, ham ertangi kunimizning Asosiy qonuni sifatida u jamiyatimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning asosiy yo'nalish-larini oldindan belgilab boradi. Fuqarolarning kundalik hayotlarida konstitutsiyaviylik ruhini, huquqqa va qonunga hurmatni shakllantirishdagi ahamiyati shundan kelib chiqadi.

Konstitutsiya tamoyillarining universalligi uning Muqaddimasida o'zining yorqin ifodasini topdi. Fundamental qadriyatlarimizni mavjud shart-sharoitlar bilan boglar ekan, Konstitutsiya ijtimoiy ideal ahamiyatini kasb etadi: uning Muqaddimasida biz axloqiy qarashlarimiz va insonparvarlik ohangini topamiz.

Konstitutsiyaviy me'yorlarning universalligini taqozo etuvchi yuqoridagi qadriyatlar eng oliy maqsad va vazifani gavdalantirib, uning uchun xalq tomonidan va xalqning o'zi uchun konstitutsiyaviy tuzum yaratilyapti. Lekin, ma'lumki, huquq odamlar hissiyotlari va ularning da'vatkor qadriyatlarini emas, balki ularning xatti-harakat-larini boshqaradi va shu tariqa konstitutsiyaviy tuzum asoslarida mantiqiy rivojini topadi. Masalan, Muqaddimada e'lon qilingan demokratiya qadriyatlari 1-moddada mustahkamlanib: «O'zbekiston - suveren demokratik respublika», - deyilgan.

⁴⁵ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. T., «O'zbekiston» 1996. 7-8-betlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining bir yiliga bagishlangan tantanali yigilishda so'zga chiqar ekan, bu muhim hujjat ahamiyatini aniq ta'riflab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy ahamiyati shundan iboratki, u dunyoning siyosiy xaritasida yangi suveren davlat paydo bo'iganligini qonuniy mustahkamladi. Oliy Majlisning oltinchi sessiyasida so'zlagan nutqida I.Karimov buni alohida ta'kidladi: «1992 yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakatimiz hayotida ulkan siyosiy voqea bo'ldi. Hech bir davlat o'zining Asosiy qonunida davlat va jamiyat qurilishining tamoyillarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy asoslari va strategik yo'nalishlarini mustahkamlamasdan turib, haqiqiy suveren davlat bo'la olmaydi. Bizning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi eng demokratik, xalqaro miqyosda e'tirof etilgan me'yor va talablarga javob beradi, deyish uchun to'la asoslarimiz bor».⁴⁶

Suverenitetning o'zi nima va unga nima uchun bunday katta ahamiyat beriladi? Agar suverenitet haqida umuman gapiradigan bo'lsak, uni shunday ta'riflash mumkin: «suverenitet - davlatning o'zi mustaqil ravishda, chetdan hech kimning aralashuviz o'zining ichki va tashqi siyosatini belgilay olishini ko'rsatuvchi, XVI asrdayoq Ovrupoda milliy mustaqil davlatlarning tashkil topish davrlarida tarkib topgan tushunchadir».

Davlat suvereniteti:

* mazkur davlat fuqarolarining uning suvereniteti yuzasidan iroda izhoridan;

* boshqa suveren davlatlar tomonidan ushbu davlatning xalqaro huquq sub'yekti deb tan olinishi va u bilan diplomatik munosabatlarni o'rnatishidan;

* xalqaro tashkilotlarga kirishidan;

* xalqaro shartnomalarni imzolab, ratifikatsiya qilgandan keyin davlatning butun hududida o'z majburiyatlarini bajara olish qobiliyatidan;

* inson huquqlarini tan olishi va muhofaza etishidan iborat.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng bir yil o'tgach

⁴⁶ Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-tom. T., «O'zbekiston» 1997. 107-bet.

uning birinchi Prezidenti Islom Karimov shu munosabat bilan yozgandi: «O'zbekiston chinakam mustaqillikka erishish maqsadini birinchilar qatori bildirganligini jonajon o'lkamiz uchun faxr-iftixor tuygusi bilan qayd etib o'tish kerak. Sobiq Ittifoqdagi respublikalardan birinchi bo'lib prezidentlik boshqaruvini amalda joriy etgan ham, keng miqyosdagi islohotlarni amalga oshirish, jamiyatni tubdan o'zgartirish va yangilash yo'liga o'tib olgan ham bizning respubiika bo'ldi.

O'zbek xalqining ajralmas huquqi - o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi ro'yobga chiqarildi. 1991 yilning 31 avgustida O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilindi. Muqaddas orzu ushaldi - Uzbekiston tinch, parlament yo'li bilan o'zining haqiqiy davlat-chiligiga erishdi».⁴⁷

Respublika ko'pmillatli aholisining irodasi «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunda mustahkamlandi va umumxalq referendumida yakdillik bilan tasdiqlandi.

Shu zahotiy oq respublikada huquqiy demokratik davlat asoslari qo'yila boshladi. Eng avvalo totalitar tizim nuqsonlari keskin barham toptirila boshlandi. Ko'ppartiyaviylik, fikrlar va g'oyalar xilma-xilligi real voqelikka aylana boshladi. Bir g'oya - kommunistik g'oyaning yakka hokimligiga barham berildi. Umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya, inson huquqlari va erkinliklarining jahon e'tirof etgan shakllari ustuvorligi tobora ko'proq qaror topa bordi.

Hokimiyatlar - qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlariga bo'linish tamoyili izchil amalga oshirilmoqda. O'zbekiston xalqi davlat hokimiyatining chinakam manbaiga aylanmoqda hamda bu hokimiyatni bevosita o'z vakillari - deputatlar korpusi orqali amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida shunday deb ta'kidlangan: «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir.

O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi».⁴⁸

⁴⁷ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlof, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom. T., «O'zbekiston» 1996, 37-bet.

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T., «Adolat», 1998.

Yosh, navqiron davlatni oyoqqa turg'azishni har tomonlama yuridik ta'minlashga qaratilgan respublika parlamentining qonun ijodkorligi faoliyati darhol faollashib ketdi. Boshqaruvning prezidentlik shakli o'zagi bo'lgan davlat boshqaruvining ilg'or va ta'sirchan tizimi shakllanmoqda. Konstitutsiyaning 89-moddasiga muvofiq Prezident davlat va ijroiya hokimiyatining boshlig'i va ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi. Prezident hokimiyati - milliy mustaqillik va hududiy yaxlitlikning, xalqaro shartnomalar va bitimlarga rioya etilishining kafolatidir. U respublika Asosiy Qonuni talablarining bajarilishini hamda fuqarolik jamiyatining normal ishlab turishini ta'minlaydi.

Joylarda boshqaruv tizimi qayta tashkil etilmoqda - viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlik tuzilmasi ta'sis etildi. Uning zarurligi Oliy Majlisning birinchi sessiyasida Prezidentimiz tomonidan shunday asoslab berilgan: «Eski, qotib qolgan tizim bilan yangi tizim o'rtasidagi kurash keskin tus olgan hozirgi o'tish davrida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kuchli ijro hokimiyati zarur. Buni hayotning o'zi har qadamda taqozo etmoqda. Jamiyat tubdan yangilanayotgan bir paytda bizga malakali, har tomonlama tajribaga ega bo'lgan, o'zgarishlarni hayotga tatbiq etishga qodir boshqaruv apparati kerak.

...Yangi tarixiy jarayonda o'tmishda sinalgan an'anaviy boshqaruv idoralari - hokimliklar qayta tiklandi. Ularning faoliyati va islohotlarni qo'llab-quvvatlayotgan kuchlar mavjudligi tufayli davlatimizda siyosiy va iqtisodiy barqarorlik saqlanib turibdi. Har birimizning xonadonimizda tinchlik va osoyishtalik hukm surmoqda».⁴⁹

Qonunning ustuvorligini, uning oldida barcha fuqarolarning tengligini ta'minlashga da'vat etilgan sud hokimiyati islohoti amalga oshirilmoqda. Bu jarayon mashaqqatli, ammo huquqiy davlatni mustahkamlashning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida zarur jarayondir. Bu yerda hokimiyatning uchinchi mustaqil tarmog'i sifatida butun sudlov tizimini demokratiyalash darkor. Respublikamiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida sudlarning roliga to'xtalib, Prezidentimiz jumladan shunday degandi: «...Ijtimoiy turmushimizning demokratik instituti tariqasida sudning ahamiyati jiddiy oshirilishi zarur.

⁴⁹ Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-tom. T., «O'zbekiston» 1997. 127-bet.

Fuqarolarning qonuniy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sudlarning va huquq-tartibotni muhofaza qilish organlarining faoliyatida asosiy mazmunga aylanmog'i kerak...

...Sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylanib, haqiqatan ham mustaqil bo'lib qolishi lozim».⁵⁰

Fuqarolik demokratik jamiyati yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha tamoyillar qo'shilib, qonuniylik va tartibning, qat'iy intizomning, ichki o'z-o'zini uyushtirish va mas'uliyatning asosi bo'lib qoldi.

Mustaqillik qo'lga kiritilishi bilan O'zbekiston davlat suverenitetini tashkil etuvchi va uni amalga oshiruvchi tashkiliy tartibotlarni shakllantirish jarayoni boshlanib ketdi. Mudofaa, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirliklari, Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat bojxonasi qo'mitasi tashkil etildi. Ilk bor davlat mulkini boshqarish va xususiy lashtirish bo'yicha, qimmatbaho metallar bo'yicha, fan va texnika bo'yicha qo'mitalar, Oliy attestatsiya komissiyasi tashkil etildi.

Bank tizimi qayta tashkil etildi. Respublika Markaziy banki mustaqil bo'lib, boshqaruv organlariga tobelikdan chiqdi. O'zimizning Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankimiz tashkil topdi. Mustaqil milliy aviakompaniya, axborot agentligi va boshqa umumdavlat xizmatlari ishga tushdi.

O'zbek xalqining istiqolga intilishi jahon hamjamiyati, xalqaro jamoatchilik tomonidan keng qo'llab-quvvatlandi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi bir yilning o'zida uning davlat suverenitetini jahonning 125 mamlakati tan oldi. 40 dan ortiq mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatildi.

1992 yilning 2 mart kuni O'zbekiston tarixda ilk bor xalqaro huquqning to'la huquqli sub'yekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Respublika Xelsinki jarayoniga qo'shildi. Xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha Kengashning yakuniy hujjati imzolandi. Bularning hammasi respublika taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Faol va teng huquqli xalqaro iqtisodiy, ilmiy va madaniy hamkorlikning keng imkoniyatlari ochildi.

O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishganligi va uning xalqaro e'tirof etilishi hech kimning vositachilgisiz mustaqil ichki va

⁵⁰ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqadasdir. 3-tom. T., «O'zbekiston» 1996, 11-12-bet.

tashqi siyosatni yurgizish, o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatish imkonini beradi. Respublikamiz Prezidentining ta'kidlashicha: **«Respublikani haqiqatdan ham, uning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, xalqning azaliy turmush tarzi, an'analari, urf-odatlar va ko'nikmalarini, mavjud beqiyos tabiiy boyliklarni har tomonlama hisobga olib, yuksaltirish amalda mumkin bo'lib qoldi»⁵¹.**

Milliy-davlatchilik, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy axloqiy yangilanish va taraqqiyot bo'yicha o'z yo'limizni ishlab chiqish masalasi ko'ndalang bo'ldi. Bunda Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, **«Barqaror bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi siyosatga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish pirovard maqsad bo'lib qolishi kerak. Shunday jamiyatgina Uzbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquqlari va erkinligini kafolatlashi, milliy an'analar va madaniyat qayta tiklanishini, shaxs sifatida insonning ma'naviy-axloqiy kamol topishini ta'minlashi mumkin»⁵².**

Mavzudan biroz chekinib bo'lsa-da, «davlat suvereniteti» atamasi bilan bir qatorda «xalq suvereniteti» atamasi ham mavjudligiga e'tiboringizni jalb qilishni istardik. Bular o'zaro bir-biriga bog'liq ikki tushuncha. Xalq suvereniteti **xalqning davlat hokimiyatidan mustaqilligidan iborat**. Zero, faqat xalqqa ijtimoiy-siyosiy hayot qonunlarini belgilab beradi, davlat hokimiyati esa, uning irodasining ijrochisi bo'lishi kerak.

Shunday qilib, xalq suvereniteti - davlat suverenitetining asosidir. Xalqaro huquqning chinakam sub'yekti sifatida davlat faqat xalq irodasi uning butun hayotida belgilovchi kuch bo'lib qolgan-dagina shunday bo'la olishi mumkin. Keyingi asosiy tamoyil qonun-ning ustuvorligi bo'lib, u Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yilgan va shuning uchun ham huquqiy davlatning konstitutsiyaviy unsurlaridan biri sifatida qaraladi. M.R.Rahmonqulov to'g'ri ta'kidlaganidek, «demokratiya tegishli qonunlarsiz, huquqiy ta'minlanmay turib, mavjud bo'lishi mumkin emas...

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning huquqiy masalalari,

⁵¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istihklol, iktisodiyot, siyosat, mafkura. 1-T. T., «O'zbekiston», 39-bet.

⁵² Karimov I.A. Uzbekiston: milliy istiklol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom. T. «O'zbekiston» 1996, 39-bet.

davlat boshqaruvini takomillashtirish favqulodda dolzarb masalalaridir»⁵³.

Boshqacha qilib aytganda, ushbu jarayonning huquqiy ta'minlovchisi bo'ladigan tegishli qonunlar kerak. Oliy Majlisning birinchi sessiyasida qilgan ma'ruzasida Islom Karimov qonun ijodkorligi sohasida besh yo'nalishni belgilab berdi:

Birinchidan, jamiyatda nisbatan ijtimoiy va mulkiy teng huquqlikni ta'minlovchi qonunlar tizimi darkor. «Odamlar o'rtasida mulkdorlik jihatidan tafovutning kuchayib borish tendensiyasi jamiyatimiz uchun tashvishli alomat bo'lib turmog'i kerak. Bu tendensiyaning oldini olish uchun tegishli tarzda harakat qiladigan himoya mexanizmini shakllantirish darkor.

Davlatimizning oliy qonunchilik organi - Oliy Majlis faoliyatining eng muhim vazifalaridan biri sifatida ana shunday ta'sirchan huquqiy mexanizmni vujudga keltirish deb bilaman»⁵⁴.

Davlatimiz boshlig'i ushbu masalani hamisha diqqat markazida tutib kelayotgani e'tiborga loyiq. Chunonchi, u Oliy Majlisning to'rtinchi sessiyasidagi ma'ruzasida bu muammoga yana qaytishni zarur deb topdi. Jumladan, u o'z nutqida quyidagilarni ta'kidladi: «...kuchli ijtimoiy siyosatni unutmash lozim. Ijtimoiy muhofaza vositalarini yanada mustahkamlash uchun aniq yo'nalishni kuchaytirish zarur.

Men, avvalo, jamiyatimizda odamlarning ijtimoiy jihatdan keskin tabaqalanishiga yo'l qo'ymaslikni, ya'ni boy-badavlat odamlar bilan bir qatorda nochor va qashshoq kishilar paydo bo'lishiga, aholimiz sotsial toifalari o'rtasidagi asossiz tafovut haddan tashqari katta bo'lishiga, ularning o'rtasida qarama-qarshilik paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslikni ko'zda tutyapman»⁵⁵.

«Qanchalik qiyin bo'lmasin, - deb qayd etdi Prezidentimiz Oliy Majlisning oltinchi sessiyasida, - davlat va jamiyat pensionerlar, serfarzand oilalar, talabalar hamda aholining kuchli ijtimoiy muhofazaga muhtoj bo'lgan boshqa tabaqalari xususida gamxo'rlik qilishni bir daqiqa bo'lsa ham unutmagan yo'q...

Buning natijasi o'laroq, biz kishilarning turmush darajasi keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymadik, ijtimoiy barqarorlik hamda

⁵³ Qarag'ay: Рахманкулов М. Демократия и право. Т. 1995

⁵⁴ Karimov I.A. Vatan sajdagohi kabi muqaddasdir. 3-tom, T., «O'zbekiston», 1996. 12-bet.

⁵⁵ Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-tom, T., «O'zbekiston» 1996. 178-bet.

aholining islohotlarga ishonchini, jamiyatda umummilliy totuvlikni saqlab qoldik».

Ikkinchidan, barcha darajadagi davlat organlari faoliyatining huquqiy asoslarini tashkil etuvchi qonunlar tizimini yaratish darkor edi. Bu tizim davlat hokimiyati va boshqaruvning markaziy, viloyat, shahar va tuman organiari funksiyalari, vakolatlarining aniq reglamentini aniq belgilashni ta'minlashga qodir bo'lishi lozim edi. Shu bilan bog'liq ravishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti shunday degan edi: «Davlat boshqaruv idoralarining barcha bo'g'inlari faoliyatini yuqoridan pastga qadar qat'iy taftish qilib chiqish zarur. Ular qanday ishlayapti? Ularning umumiy ishimizga amaliy foydasi tegayaptimi-yo'qmi? Ana shu masalani aniqlab olish shart. Chunki samarasiz boshqaruv bo'g'inlari qanchalik ko'p bo'lsa, fuqarolik jamiyatini qurish shunchalik qiyin kechishi hech kimga sir emas.

Biz davlat qudratiga hokimiyat va boshqaruv idoralarining soni va miqyosiga qarab emas, aksincha, ularning ish tizimi qanchalik samara berayotganiga, ular faoliyatining qonuniy asoslari qay darajada shakllanishiga qarab baho berishimiz lozim»⁵⁶.

Uchinchidan, iqtisodiy va siyosiy islohotlar bevosita boshqaruv kadrlari tayyorgarlik darajasiga bog'liq ekanligi tufayli «...davlat xizmatchilarining maqomi to'g'risida qonun qabul qilish zarurati sezilmoqda...

Mazkur munosabatlarni qonun yo'li bilan tartibga solish kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishdagi o'zboshimchalikni, shaxsiy sadoqat, qarindosh-urug'chilik kabi illatlarning payini qir-qadi. Qonun kuchli rag'batlantirish mexanizmini vujudga keltirishi kerak. Sir emaski, bugun davlat muassasalarida xizmat qilish na moddiy, na ma'naviy jihatdan havas qiladigan mashg'ulot. Bunday qonun qabul qilingach esa, o'z xizmat vazifasiga sadoqatli, yuksak malakali xizmatchilardan iborat davlat apparatiga ega bo'lamiz, deb o'ylayman»⁵⁷.

To'rtinchidan, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining qonunchilik asoslarini mustahkamlash lozim. Bunday qonunlarni qabul qilish zarurati va dolzarbligini Prezidentimiz Islom Karimov shunday izohlaydi: «... biz har kim va har bir narsa qonunga

⁵⁶ Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davri talabi. 5-tom, T., «O'zbekiston» 1997. 113-114-bet.

⁵⁷ Karimov I.A. Vatan sajdagohi kabi muqaddasdir. 3-tom, T., «O'zbekiston». 1996. 13-bet.

bo'ysunishi lozim bo'lgan huquqiy davlat qurmoqchimiz. Bizning jamiyatda qonun boshqaruvning asosiy va ko'pqirrali vositasiga aylanishi zarur. Bunday sharoitda huquqni muhofaza etish organlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. Ularning kasb mahorati va axloqiy sifatlariga bo'lgan talab keskin oshadi. Shundan kelib chiqqan holda sud, prokuratura, militsiya to'g'risidagi qonunlarni takomillashtirib borish zarurati tobora ko'zga tashlanmoqda. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari to'g'risida qonun qabul qilishni ham o'ylab ko'rish lozim»⁵⁸.

Beshinchidan, fuqarolarning siyosiy jarayonlarda, davlatni boshqarishda qatnashishining huquqiy asoslarini takomillashtirish to'g'risidagi masala ham kechiktirib bo'lmaydigan masalalardan. I.Karimov ushbu masalaga oydinlik kiritib, jumladan, shunday deydi: «..men siyosiy partiyalar, birlashmalar, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari, turli xil xayriya va ijodiy jamg'armalar hamda uyushmalar faoliyatini nazarda tutyapman... Bugungi kunda bittagina qonun emas, jamoat tashkilotlari, jamg'armalar, uyushmalar huquqini oshiradigan, ularning jamiyat siyosiy tizimdagi o'rni va ahamiyatini belgilib beradigan, davlat ishlariga ta'sirini kuchaytiradigan butun bir qonunlar tizimiga ehtiyoj sezilmoqda»⁵⁹.

Bundan tashqari: **«Jamiyatimizning ma'naviy qiyofasini belgilab beradigan barcha ijodiy mehnat sohalari ham qonun himoyasida bo'lishi zarur ...**

Ijodiy mehnat qadr-qimmatini oshirishning huquqiy asoslarini yaratish kerak. Ijodiy birlashmalar, ilmiy, ilmiy-texnik jamoalar va uyushmalar faoliyatini kengaytirish uchun yangidan-yangi imkoniyatlarni vujudga keltirish lozim»⁶⁰.

Ma'lumki, Oliy Majlisning oltinchi sessiyasida istiqolga erishilgandan keyingi besh yil mobaynida O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yakunlari sarhisob qilingandi. Shunisi diqqatga sazovorki, sessiyada faqat haqiqatan ham salmoqli va hayratlanarli yutuqlarga urg'u beribgina qolmay, balki demokratik islohotlarni chuqurlashtirish yo'lidan yanada jadalroq borish zaruratiga e'tibor qaratiildi. Prezident I.Karimov to'g'ri ta'kidlaganidek, **«Demokratlashtirish va turmushimizning barcha sohalarda**

⁵⁸ O'sha kitob, 14-bet.

⁵⁹ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom, T., «O'zbekiston». 1996. 14-15-betlar.

⁶⁰ O'sha kitob. 16-bet.

tub islohotlar o'tkazish jarayoni uzoq va uzluksiz davom etadigan jarayon ekanini aniq bilib olishimiz kerak. Ta'bir joiz bo'lsa, bu bizning kundalik tabiiy holatimizga aylanishi lozim. Biz izchil, qadam-baqadam yangi marralarni egallashimiz, yangi vazifalarni belgilab olib, ularni hal etishga bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz kerak»⁶¹.

Binobarin, oltinchi sessiyada shahdam odimlar bilan olg'a siljishning bundan keyingi yo'nalishlarini begilash, ularni konkret mazmun bilan boyitish zarurligi haqida gapirildi. Ularning mohiyati nimada? Bu haqda to'xtalib, yurtboshimiz kamchiliklarni ham ro'y-rost ochib tashladi: «Bugungi kunda gap, eng avvalo, siyosiy islohotlarni chuqurlashtirishning vazifalari va dasturi to'g'risida borishi kerak. Bu islohotlarning sur'atlari esa, ochig'ini aytganda, iqtisodiyotdagi va turmushimizning boshqa sohalaridagi islohotlarning ko'lamlari va samaradorligidan orqada qolmoqda»⁶².

Keyin Prezidentimiz «talay muhim qonunlar tegishli qonun hujjatlari bilan mustahkamlanmagan, qabul qilingan huquqiy me'yorlar va kafolatlarni ro'yobga chiqarishning aniq mexanizmi yetarli darajada ishlab chiqilmagan»ligiga e'tiborni qaratdi.

«Bu boradagi muhim yo'nalishlardan biri, - deb davom etadi I.Karimov o'z nutqida, - inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini ta'minlash yuzasidan muayyan tadbirlarni amalga oshirishdir. Ushbu tadbirlar ham davlat tomonidan, ham ijtimoiy tuzilmalar faoliyatini kengaytirish natijasida amalga oshirilmog'i lozim»⁶³

Bu shu narsa bilan bog'liqliki, «...kundalik hayotda insonni, fuqaroni kamsitadigan ko'plab faktlar uchrab turadi. Bu hol mansabdor shaxslarga, huquq-tartibotni muhofaza qilish organlariga, ya'ni vazifasiga ko'ra inson huquqlarini muhofaza qilishi lozim bo'lgan kishilarga murojaat qilinganda uchramoqda». Shuning uchun, deb ta'kidlaydi Prezident, - «inson huquqlarini va erkinliklarini himoya qilish masalalarida sud organlari va, eng avvalo, Konstitutsiyaviy sud qat'iy pozitsiyada turmog'i lozim». Buning uchun u respublika qonunchiligini inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yorlar va andozalar bilan muvofiqlashtirish choralarini ko'rishni taklif

⁶¹ Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-tom, T., «O'zbekiston» 1997. 117-bet.

⁶² Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-tom, T., «O'zbekiston» 1997. 117-bet.

⁶³ O'sha kitob, 118-bet.

etadi.

Aholining siyosiy faolligini oshirish masalalariga Prezidentimiz maxsus to'xtaladi. Uning haqqoniy ta'biricha, «... aholining aksariyat qismi kundalik yumushlar, odamdagi turmush tashvishlari, iqtisodiy muammolar bilan yashaydi. Odamlarning yangi demokratik qadriyatlarini idrok etishi ko'ngildagidek emas». Aftidan, bu aholining siyosiy madaniyati pastligi natijasidir. Bu holat fuqarolarning siyosiy, nodavlat va jamoat tuzilmalarini shakllantirishda sust ishtirok etayotganida o'z aksini topmoqda. Bu respublikada keng ko'ppartiyaviylik tizimi ishlab turishi uchun huquqiy asoslar to'la mavjudligiga qaramay, «siyosiy partiyalarning shakllanish va qaror topish jarayoni g'oyat sust kechayotgani, ularning siyosiy va iqtisodiy dasturlari ham zaifligi»ning sabablaridan biridir. «Mamlakatni siyosiy va iqtisodiy rivojlantirishning muqobil (amaliy) turlarini ishlab chiqish va himoya qilishda ular yetarlicha faollik ko'rsatmayaptilar». Respublikada muxolifatning mavjudligi muammosi ham shundan kelib chiqadi. Bunday muxolifat, Islom Karimovning ta'kidlashicha, «sivilizatsiyalashgan jahonda, umum e'tirof etilgan demokratik tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatayotgan va rivojlanib borayotgan jamiyat uchun, odatdagi holdir».

Albatta, bunda «muxolifat» deganda biz nimani ko'zda tutamiz, bu tushunchaga qanday ma'no beramiz - shuni aniqlab olish muhim ahamiyatiga ega. Prezidentimiz qat'iy ishonch bilan aytadiki, bu yerda gap islohotlar dasturlarining muqobil variantlarini, jamiyatning taraqqiyoti va yangilanish yo'lidan olg'a siljishini taklif etishga qodir konstruksiyaviy muxolifat haqida ketishi kerak.

Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar ommaviy axborot vositalari oldiga prinsipial yangi vazifalarni ko'ndalang qo'yimoqda. Biroq, deb qayd etadi Prezidentimiz, «bizning matbuotimiz, televideniye va radio hozircha zamonaviy ish usullari va shakllarini egallab olganicha yo'q, xalqaro mezonlarga muvofiq emas. Matbuot sahifalarida va televideniyeda chuqur tahliliy materiallar, jiddiy siyosiy, iqtisodiy va xalqaro sharhlar yo'q, bahs-munozara ko'rinmaydi. Ayrim ommaviy davriy nashrlarning aniq fuqarolik pozitsiyasi va qiyofasi ko'zga tashlanmaydi». Ayni paytda, ommaviy axborot vositalari demokratiyalash yo'lining, islohotlar yo'lining faol yo'l ko'rsatuvchilari bo'lishlari, shu bilan birga ular ham mohiyatlariga

ko'ra demokratik bo'lishlari kerak.

«Qonunchilik mexanizmini va qabul qilingan qonun me'yorlari ijrosi nazoratini yanada takomillashtirish, - deya ta'kidlaydi Prezident, - respublika qonunlarini umume'tirof etilgan xalqaro me'yor va qoidalarga muvofiq .holga keltirish muhim vazifa hisoblanadi». Sud islohotini ham jadal amalga oshirish lozim. Buning uchun esa:

birinchidan, xalq maslahatchilari tuzilmasini isloh qilish;

ikkinchidan, sudlarning tarkibini takomillashtirish, ularni yangi tuzilmalar bilan to'ldirish, ularni yangilari bilan to'ldirish, shu maqsadda transport va soliq sudlarini tuzish, xolis hakamlik sudlari (arbitrajlar) imkoniyatlaridan kengroq foydalanish;

uchinchidan, sud qarorlarini ijro etish tizimini qayta tashkil etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

to'rtinchidan, sudlarning ijro etuvchi hokimiyat bilan o'zaro munosabatlarini tubdan qayta ko'rib chiqish;

beshinchidan, advokatlar tizimining mavqei va ahamiyatini keskin ko'tarish, ular birinchi navbatda sud amaliyotida konstitutsiyaviy va huquqiy me'yorlarga qat'iy rioya etilishini ta'minlashlari, o'z himoyalardagi fuqarolarning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishlari lozim.

496

Deputatlar oldida so'zlarkan, Islom Karimov, shuningdek, huquqiy davlatni shakllantirishda «aholining huquqiy tarbiyasini tubdan yaxshilash, uning huquqiy madaniyat darajasini oshirish, huquqiy axborotning keng maydonini yaratib berish» muhim yo'nalish ekanligini ta'kidladi. Buning uchun, «yuridik ta'lim tizimini jiddiy tarzda isloh qilish, yuridik oliy o'quv yurtlariga talabalar qabul qilish-ni ancha kengaytirish, yuristlarning malakasini oshirish bo'yicha yagona o'quv markazini tashkil etish zarur»⁶⁴.

Respublikamiz Prezidenti, pirovard maqsadga erishish - fuqarolik jamiyatini qurish zaruratidan kelib chiqib demokratik islohotlarni chuqurlashtirishdagi bunday yo'nalishlarni ustuvor yo'nalishlar deb hisoblaydi.

⁶⁴ Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. 5-tom. T., «O'zbekiston», 1997. 128-bet.

Lekin bu jarayonda butun jamiyat, har bir odam qatnashishi shart. Zero, «**demokratiya jamiyatning har bir aʼzosi hayoti-ning uzviy bir qismiga aylangan taqdirdagina, demokratiya hisoblanadi.** Farzandlarimizni bolalikdanoq ayni shu ruhda tarbiyalab borish zarur».

Yana bir jihatga eʼtiboringizni tortishni istardik. Huquqiy davlatchilikni, demokratiyani shakllantirishda qonun, qonunchilikning ustunligi haqida gapirar ekanmiz, oʻtmishimizdagi bor eng yaxshi narsalarning hammasidan foydalanishimiz darkor. Chunonchi, buyuk bobokalonimiz Amir Temur hukmronligi davrlarida Qonun eng hurmatli oʻrinda turgani maʼlum. Oʻzining mashhur «Tuzuklari»da u shunday deb yozgandi: «Qonun hukm surgan joyda ozodlik ham bor». U yana fikrlarini shunday davom ettirgandi: «yana tajribamdia bildimki, davlat yana agar oyin⁶⁵ asosida qurilmas ekan, toʻra - tuzukka bogʻlanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yoʻqoladi. Bunday saltanat yalangʻoch odamga oʻxsharkim, uni koʻrgan har kimsa, nazarini olib qochadi. yoxud kasu nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi - toʻsigʻi yoʻq uyga oʻxshaydi.

Shuning uchun ham men oʻz saltanatim binosini dini islom, toʻra va tuzuk asosida mustahkamladim. Saltanatni boshqarishimda uchragan har qanday voqea va ishni toʻra va tuzuk asosida bajardim».⁶⁶

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir yilligiga bagʻishlangan tantanali yigʻilishda soʻzga chiqarkan, Prezidentimiz quyidagilarni qayd etdi: «yangi Konstitutsiyamizning muhim jihatlardan biri shuki, davlat hokimiyatining tuzilishi va faoliyati tartibi vakolatlarining tamoyili asosida amalga oshiriladi...»

Konstitutsiyada Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining, Oʻzbekiston Prezidentining, Vazirlar Mahkamasining, sud hokimiyati idoralari boʻlmish - Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Oliy xoʻjalik sudining vakolatlari aniq-ravshan belgilab qoʻyilgan.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat Oliy Majlis tomonidan, ijroiya hokimiyati esa Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

⁶⁵ Oyin - qoida, rasm, tartib, odat, tarz.

⁶⁶ Temur tuzuklari. T., G.Gulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1991. 57-bet.

Sud hokimiyati Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi tomonidan amalga oshirilib, ular birgalikda respublikaning yagona sud tizimini tashkil etadi.

Biz huquqiy davlatning asosiy alomatlari to'g'risida gapirib o'tgandik. Ushbu alomatlardan biri - hokimiyatlarning bo'linishi tamoyilidir. Endi ushbu tamoyillar bizning yangi Konstitutsiyamizda o'z ifodasini qanday topganligi masalasiga to'xtalishni lozim topdik. Biroq, oldindanoq, hokimiyatlarning bo'linishini zinhor ularning qarama-qarshi turishi sifatida tushunilmasligi kerakligini qayd etamiz. Aksincha, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bunday imkoniyatni butunlay istisno etadi. Hokimiyatlarning bo'linishi konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasiga muvofiq belgilanib, ularning har biri - qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatlari - vazifalari o'z funksiyalariga ega, ularga tegishli vakolatlar berib qo'yilgan; hokimiyatlar o'z vakolatlarini tiyib turish va nazorat qilish imkoniyatlariga egadirlar. Hokimiyatlardan birortasi boshqasining funksiyasini o'z zimmasiga ololmaydi, lekin alohida-alohida harakat qilishi ham mumkin emas, bunday qilishga qurbi yetmaydi.

Shuning uchun hokimliklar bir-birlarini to'ldirishlari, zarur aloqa va muvofiqikni saqab turishlari, shu bilan xalq farovonligi baxt-saodati yo'lida xizmat qiluvchi yagona «siyosiy organizm»ni tashkil etishiari darkor.

Hokimiyatlarning bo'linishi tamoyiii tiyib turish va posangi tizimining bo'linishini taqozo etadi. Bunday tizimning quyidagi unsurlarini keltirish mumkin; mansabdor shaxslar vakolatlarining muddatlilik; deputatlik manfaatining boshqaruv mahkamalarida mas'ul lavozimiarni egailash bilan kelisholmasligi; (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 87-moddasi); qonunlarga veto qo'yish huquqi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi); parlamentni tarqatib yuborish huquqi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 95-moddasi); saylovlar mobaynida xalq tomonidan amalga oshiriladigan qonun chiqaruvchi hokimiyat ustidan nazorat; sudyalar korpusining mustaqilligi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 106-moddasi).

Shu munosabat bilan B.Nishonovning quyidagi asosli ta'kidiga qo'shilmaslik mumkin emas: «Hqiqiy davlat va iqtisodiy

mustaqillikka erishish, chinakam demokratik, ochiq, insonparvar jamiyatni barpo etish qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatlari uchallasining birligiga asoslangan hozirgi zamonaviy huquqiy tizimni, huquqiy davlatni qaror toptirishni qat'iy ko'zda tutadi. Shu jihatdan so'nggi yillar tariximizning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uchinchi hokimiyat to'g'risidagi qoidani hayotga tatbiq etuvchi O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi qonunining qabul qilinishidek voqealar ahamiyatini ta'kidlash hech ham mubolag'a bo'lmas». ⁶⁷

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining «O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyati» deb atalgan XXII bobi uchinchi hokimiyatga bag'ishlangan o'n bitta moddani o'z ichiga oladi. Bunday bo'lishi tabiiy. **Huquqiy davlat - ayni paytda huquqiy sud davlati hamdir.** Sud hokimiyati mustaqil va xolis sudda ishlari ob'yektiv ko'rib chiqishga da'vat etilgan. U faqat qonungagina amal qiladi. Ilgari qayd etib o'tganimizdek, O'zbekiston Respublikasi sud tizimi Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudidan iborat (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasi).

Konstitutsiyaviy sud - mustaqil va tashkiliy jihatdan qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyatlaridan alohida turadi. Yangi Konstitutsiya bo'yicha Konstitutsiyaviy sud an'anaviy vakolatlari qonunlar, xalqaro shartnomalar va bitimlarning Konstitutsiyaga mos kelishi, vakolatlar to'g'risida hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi nizolarni hal etish va hokazolardan tashqari yana bir muhim imtiyoz - Konstitutsiya va huquqning umumiy tamoyillarini talqin etish huquqini ham oldi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-modda, 3-bandi). Endilikda uning o'zi ham qonun chiqaruvchilik bilan bir qatorda huquq ijodkoriga ham aylandi.

Oliy xo'jalik sudi iqtisodiyot sohasida yuzaga keladigan nizolarni hal etadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sudlov ishlarini yurgizish borasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. U Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar, shahar va tuman sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

Qayd etib o'tganimizdek, respublikada sud tizimini isloh qilish

⁶⁷ Нишонов Б. Доклад о позиции Узбекистана. Демократия и право. Т., 1995.

bo'yicha ko'pgina ishlar qilindi. Lekin hali eng avvalo odamlar ongida ularning sud hokimiyatiga bo'lgan munosabatini o'zgartirish borasida yana ham ko'proq ish qilish kerak bo'ladi. Bugungi kunda oddiy fuqaro to'la darajada na o'z huquqlarini, na qonunlarni va na sud taomillarini bilmasligini isbotlab o'tishning hojati bo'lmasa kerak. Bunday ahvol, oldingi totalitar tuzum sud qarorlari orqali bir mafkuraning tazyig'ini qaror toptirib, o'zining jinoyatkorona siyosatini amalga oshirishi bilan izohlanadi. Bu esa, odamlar ongiga mahkam o'rnashib qolgan. Shuning uchun respublikamiz Prezidenti bu sohada asosiy vazifalar: «ushbu ko'nikmalarni, psixologiyani sindirish, odamlarning sudga munosabatini tubdan o'zgartirishdan iborat, - deb hisoblaydi. - **Xalq sudni faqat odamlarni qoralaydigan, jazolaydigan organ deb emas, aksincha ularning haq-huquqlari va manfaatlarini himoya qiladigan organ deb bilishi kerak**».⁶⁸

Inson huquqlari qonunchilik kafolatlari tizimini shakllantirish huquqiy davlatning muhim tamoyili, fuqarolik jamiyatini bunyod etishning zarur sharti hisoblanadi. Bizning respublikamizda bunday tizimning konstitutsiyaviy, huquqiy asoslari yaratilgan. «Fuqarolarning huquq va erkinliklari borasida, - deb ta'kidladi Prezidentimiz, - **Konstitutsiyamiz Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining barcha asosiy g'oya va qoidalarini o'ziga singdirgan**».⁶⁹ Bizning respublikamiz uchun bu prinsipial yangi ohangdagi va yo'nalishdagi hujjat bo'lgandi. Zero, «...biz so'nggi 70 yil mobaynida davlatga qaramlik va sog'inish holatida yashadik. Mamlakatdagi barcha boyliklarning, mulkning egasi davlat deb hisoblab keldik. Qaysi masalani olmaylik, davlat manfaati birinchi o'rinda, fuqaro, shaxs manfaati esa, deyarli hisobga olinmasligi eski Konstitutsiyalarning har qaysi moddasida yaqqol ko'zga tashlanar edi».⁷⁰

Bugungi kunda O'zbekistonda inson va fuqaroning ajralmas huquqlari - so'z erkinligi, e'tiqod erkinligi, kasbni, ishni erkin tanlash huquqi va boshqa huquqlar qonun yo'li bilan ishonchli tarzda mustahkam himoyalangan. Shunga qaramay, Respublikamizda fuqaro, shaxs huquqlarini himoya qilish bo'yicha qonunchilik sohasida

⁶⁸ Karimov I.A. *Bunyodkorlik yo'lidan. 4-tom, T., «O'zbekiston», 1996. 186-bet.*

⁶⁹ Karimov I.A. *Bizdan o'zod va obod Vatan qolsin. 2-tom, T., «O'zbekiston», 1996. 95-bet.*

⁷⁰ O'sha kitob, 94-bet.

jadal ish olib borilyapti. Bu ish bir necha yo'nalishga ega.

Birinchi yo'nalish - ijtimoiy hayotni boshqarish, fuqarolarning siyosiy huquqlari va erkinliklarini ta'min-lashga yo'naltirilgan qonunchilikdir. Bu yerda muayyan ishlanmalar mavjud. Ularga «Oshkoralik to'g'risida»gi, «Saylovlar to'g'risida»gi, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi, «Prezidentning or-nomusi va sha'nini muhofaza etish to'g'risida»gi, «Fuqarolik to'g'risida»gi, «Ko'ngilli jamoat tashkilotlari to'g'risida»gi, «Muqobil xizmat to'g'risida»gi, «Referendum to'g'risida»gi, «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi, «Sugurta to'g'risida»gi, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi va boshqa qonunlar kiradi.

Yangi Konstitutsiyada butun bir bo'lim (ikkinchi bo'lim)da mamlakatimiz tarixida ilk bor inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari konstitutsiyaviy tarzda mustahkamlandi. Saylov huquqdarining kafolatlanishi to'g'risidagi qonun qabul qilindi.

Ikkinchi yo'nalish. Shubhasiz mazkur yo'nalishni iqtisodiy qonunchilik tashkil etadi. Unga «Mulkchilik to'g'risida»gi, «Tadbirkorlik to'g'risida»gi, «Kooperatsiya to'g'risida»gi, «Ijara to'g'risida»gi, «Fermerlik to'g'risida»gi, «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi, «Garov to'g'risida»gi, «Pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonunlar, shuningdek, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi, «Harbiy investitsiyalar to'g'risida»gi, «Birja va birjalar faoliyati to'g'risida»gi bir qator qonunlar va boshqalar kiradi.

Shunga qaramay, bu yo'nalishdagi ishlar davom ettirilyapti. Zero, bozor munosabatlariga o'tishda yangi-yangi muammolar chiqib turaveradi.

Uchinchi yo'nalish - bevosita fuqarolar haq-huquqlari, qonuniylik va odil sudlovga tegishli qonunlardir. Chunonchi, respublikada mansabdor shaxslarning noqonuniy harakatlari tufayli fuqarolar huquqlari buzilgan taqdirda ularni sud yo'li bilan himoya qilish joriy etilgan va amal qilyapti. Ilk bor aybsizlik prezumpsiyasi konstitutsiyaviy tarzda mustahkamlandi. (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasi). Ayblanuvchiga o'zini himoya qilishi huquqi berildi. O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega va hammalari qonun oldida tengdirlar. Shunga qaramay, Prezidentimiz bu sohadagi olib borilayotgan ishlardan qoniqmayotganligini bayon qilib jumladan, shunday

dedi:»...fuqarolarning manfaatları va huquqlarini sud orqali himoya qilish sohasini mumkin qadar kengaytirish darkor. Vaholanki, ayrim tarmoq qonunlarida huquqlari poymol etilgan fuqarolarning shikoyatlarini sudlov yo'li bilan emas, ma'muriy yo'l bilan ko'rib chiqish tartibi ham uchraydi.

Albatta, bu hol - Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga va bizning Konstitutsiyamiz talablariga zid. Fuqaro, agar uning qonuniy manfaatları va haq-huquqlari poymol etilgan taqdirda, har qanday masala bo'yicha himoya uchun sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lmog'i darkor».⁷¹

Birinchi chaqiriq Oliy Majlisning oltinchi sessiyasidagi ma'ruzasida Uzbekiston Respublikasi Prezidenti quyidagilarni ta'kidlashni zarur deb topdi: «Inson huquqlariga rioya etilishi ustidan monitoring va nazoratni ta'minlovchi idoraviy tuzilmalarni barpo etish ham muhim vazifadir. Oliy Majlisning inson huquqdari bo'yicha vakili institutining, huquqparvar jamoat tashkilotlarining mavqei va maqomini ko'tarish zarur. Inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi mavjud Ombudsman instituti, Jamoatchilik fikri instituti, Amaldagi qonunchilik monitoringi instituti, Inson huquqlari milliy markazi singari tashkilotlarni rivojlantirish hamda boshqa yangi institutlarni tashkil etish lozim»⁷².

Bularning hammasi inson - davlat munosabatlarida ustunlik inson tomonida bo'lishiga qaratilgan. Prezidentimizning fikricha, «davlat va davlat hokimiyatining barcha tarmokdari o'z faoliyatini inson huquqlarini himoya qilish va qo'riqlash ishiga safarbar qilgandagina o'z vazifasini to'g'ri ado etgan hisoblanadi. Bu qoidani hamma tan olishi, bu qoidaga hamma itoat qilishi shart»⁷³.

Shunday qilib, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish murakkab vazifa, lekin insonning qo'lidan keladigan ish. Huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati - oddiy xayolparastlik emas, balki real voqelikdir. Bu yerda so'z qonun va adolat hukmronlik qiladigan, inson, uning hayoti, huquqlari va erkinliklari eng buyuk qadriyat bo'lgan jamiyatni tashkil etish haqida borayapti.

⁷¹ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom, T., «O'zbekiston» 1996.17-18-betlar.

⁷² Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-tom, T., «O'zbekiston», 1997. 119-bet.

⁷³ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom, T., «O'zbekiston», 1996.17-bet.

8-§. Huquqiy davlat va hokimiyatlar bo'linishi tamoyili

Huquqiy davlatda davlat hokimiyati mutlaq emas. Bu hol nafaqat huquqning ustuvorligi, davlat hokimiyatining huquqqa bog'lab qo'yilgani bilan, balki davlat hokimiyatining qanday tuzilgani, uning qanday shaklda va qaysi vositalar bilan amalga oshirilishi bilan ham belgilanadi. Shu yerda hokimiyatlarning bo'linishi nazariyasiga to'xtalish lozim. Bu nazariyaga binoan, hokimiyatlarning (qonun chiqaruvchi, ijro qiluvchi va sud hokimiyatlarining) qo'shilib ketishi, bir organ, bir kishining qo'lida to'planishi despotik rejimning o'rnatilishi, binobarin, shaxs erkinining yo'qqa chiqarilishini anglatadi. Shu bois, huquq bilan chegaralanmagan avtoritar mutlaq davlat hokimiyati paydo bo'lishining oldini olish uchun hokimiyat shoxobchalari bir-biridan ajratilishi va aniqlashtirilishi lozim.

Hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijro qiluvchi va sud hokimiyatlariga ajratish tamoyili hokimiyatning ushbu har bir shoxobchasi mustaqil va boshqasining vakolatiga daxl qilmagan holda faoliyat ko'rsatishini bildiradi. Mazkur tamoyilni hayotga muntazam suratda joriy qilish yo'li bilan hokimiyat shoxobchalaridan birining boshqasiga tegishli vakolatlarni o'ziga olib qo'yish xavfining oldi olinadi. Hokimiyatlar bo'linishi tamoyili hayotga joriy etilishi uchun «to'siq va cheklovlar» tizimi bilan ham ta'minlanishi darkor bo'ladi. «To'siq va cheklovlar» tizimi hokimiyat shoxobchalaridan birining boshqasiga tegishli vakolatlarni tortib olishi xavfiga mutlaqo o'rin qoldirmaydi va davlat organlarining me'yorida faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

Shu nuqtai nazardan AQSh namuna bo'lishi mumkin. Hokimiyatlar bo'linishi nazariyasiga binoan bu yerda qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlari faqat o'z vakolatlari doirasida harakat qiladigan uchta kuch sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ayni vaqtda, bir hokimiyat organining boshqasiga ta'sir etish shakllari ham ko'zda tutilgan. Masalan, prezident Kongress tomonidan qabul qilingan qonunlarga veto qo'yish huquqiga ega. O'z navbatida, kongress vetoni bartaraf qilishi mumkin, agar buning uchun Kongressning har ikki palatasidagi deputatlarning kamida uchdan ikki qismining roziligi olinsa. Senatga prezident tomonidan tayinlangan hukumat a'zolarini tasdiqlash vakolati berilgan. Shuningdek, u prezident tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomalar va bitimlarni ham ratifikatsiya qiladi. Prezident jinoyat sodir etsa, Senat sudga prezidentni mansabidan

mahrum qilish masalasini hal etishi uchun da'vo bilan murojaat qiladi. Biroq, «impichment» haqidagi ishni Vakillar palatasi qo'zg'ashga vakolatli xolos. Senatning qudratini cheklaydigan ta'sir vositalaridan yana biri esa uning raisi vitse-prezident ekani bilan bog'liq. Biroq, ovoz berish chog'ida ovozlari teng bo'lib qolgan taqdirdagina Senat raisi ovoz berish jarayonida ishtirok etishi mumkin. Mamlakatda konstitutsiyaviy nazoratni AQShning Oliy sudi amalga oshiradi.

9-§. Qadriyatlar tizimida inson huquqlari va erkinliklari

Qonun ustuvorligi deyilganda, qonunning boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarga nisbatan ustunligining o'zigina emas, balki jamiyat a'zolariga amaldagi qonunchilik tarafidan berilgan barcha huquq va erkinliklarning majmui ham nazarda tutiladi. Huquqiy davlatda inson huquqlarining biron tarzda kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Aksincha, u mazkur huquqlarni muntazam ravishda va beistisno ta'min etishi va ularni himoyalab turishi lozim. Shu nuqtai nazardan qaraganda, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida huquqiy tenglik masalasi prinsipial ahamiyat kasb etadi. Uning hal qilinishi uchun davlat tomonidan ishonchli kafolatlar yaratilishi va tenglik amalda ta'minlanishi zarur.

Huquqiy davlatda yashayotgan inson va fuqaroning huquq va erkinliklarining ro'yxati xalqaro hujjatlarda aks ettirilgan. Bular sirasiga, eng avvalo, 1948 yil 10 dekabrda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966 yil 16 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul etilgan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt kiradi.

Qayd etib o'tilgan hujjatlarda sanab o'tilgan huquq va erkinliklar huquqiy davlatlarning konstitutsiyasida mustahkamlab va kafolatlab qo'yilgan. Ularda asosiy e'tibor aybsizlik prezumpsiyasini ko'zda tutadigan shaxsning yuridik jihatdan himoyalaniishi masalasiga qaratiladi. Aybsizlik prezumpsiyasi esa haqiqiy demokratik davlatda fuqaroning u yoki bu jinoyatni sodir etishda aybdorligi yoki aybsizligi masalasini faqat sud hal qiladi, degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, o'lim jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan

jinoyat yuzasidan fuqaro ishni maslahatchilar sudi ko'rib chiqishini talab etishga haqlidir.

1948 yili qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 30 ta moddadan iborat. Unda «barcha insonlar erkin va sha'ni hamda huquqlari jihatidan tengdir. Ularga aql va vijdon berilgan, bir-biriga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari lozim», deb yozib qo'yilgan. Shuningdek, mazkur hujjatda inson sha'nini yerga uradigan munosabatlarga, zulm va jazoga yo'l qo'yilmaligi ham ko'rsatib o'tilgan.

Deklaratsiyaning 6-moddasida har bir shaxsning huquq egasi ekanligi, ya'ni insonga qonunchilikda belgilab qo'yilgan huquqlarni olish va foydalanish imkoniyati berilishi belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, Deklaratsiyada hech bir shaxs asossiz ravishda qamoqqa olinishi, ushlab turilishi yoki surgun qilinishi mumkin emasligi, har bir odamning teng ravishda qonun himoyasida bo'lishi, oshkora va adolatli sud qilinishi bayon etilgan. Deklaratsiyada fuqaroning shaxsiy va oilaviy hayotiga ruxsatsiz aralashish, uy-joyining, xat-xabarlarining daxlsizligi huquqiga tajovuz etish mumkin emasligi ham ko'rsatib o'tilgan. Insonning davlat tomonidan tan olinishi va hurmat etilishi shart bo'lgan boshqa huquq va erkinliklari (fikir, vijdon va din erkinligi, har qanday davlat hududida erkin harakatlanish, boshqa davlat hududidan boshpana topish, mehnat qilish, teng haq olish, erkin kasb tanlash, ishsizlikdan himoyalash, kasaba uyushmalari tuzish huquqlari) ham bayon qilingan.

Siyosiy va g'oyaviy plyuralizm huquqiy davlatning muhim belgilaridan sanaladi. Bunday plyuralizmsiz uning mavjudligi ma'nosizdir. Plyuralizm sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan turli ijtimoiy kuchlar o'zlarining siyosiy tashkilotlari vositasida davlat hokimiyatini qo'lga olish uchun madaniy vositalar yo'li bilan o'ziga raqib bo'lgan kuchlarga qarshi halol siyosiy kurash olib boradi. G'oyaviy plyuralizm esa ularga o'zlarining dasturiy qarashlarini erkin ifodalash va g'oyaviy konsepsiyalari foydasiga erkin targ'ibot-tashviqot olib borish imkoniyatini ta'minlaydi.

Siyosiy va g'oyaviy plyuralizm jamiyatdagi demokratiyaning namoyon bo'lishi va tantanasidir. U jamiyatning har bir a'zosiga u yoki bu siyosiy tashkilotga kirish, g'oyaviy jihatdan ma'qulini tanlash masalasini o'zi hal etishga imkon beradi. Davlat jamiyatga biron

muayyan mafkurani zo'rlab singdirmasligi yoki biron siyosiy tashkilotga ustunlik bermasligi kerak, degan tushunchaning ma'nosi ham shunda.

Deklaratsiyada qayd etilgan barcha huquq va erkinliklar davlat tomonidan amalda ta'minlanishi lozim. Bu vazifa, eng avvalo, turli qonun hujjatlarining qabul etilishi va joriy qilinishi hamda ularning ijtimoiy munosabatlarning tegishli sohasida mustahkamlanishi orqali amalga oshiriladi. Inson huquqlari borasidagi xalqaro hujjatlar sirasida Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda Bolaning huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ham sanab o'tish lozim.

Zamonaviy fuqarolik jamiyatidagi huquqlarning yuqorida qayd etilgan xususiyatlari orasidan bittasini alohida ajratib ko'rsatish zarur. Insonning huquq va erkinliklari qonunchilik hamda huquqiy siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolayotgandan tashqari, u yoki bu xatti-harakatni baholash sud himoyasi predmeti sifatida ham ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ham davlat hujjatlari ustidan, agar shikoyatchining nazarida huquqlari cheklanayotganday tuyulsa, xalqaro sud organlariga murojaat qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

Real hayotda fuqarolarning huquq va erkinliklari dunyoning har joyida buzilib turibdi. Bular quyidagilarda ko'rinmoqda: xalqlarning huquqlariga tegishli bo'lgan xalqaro hujjatlarning buzilishi, fuqarolar huquqiy tengligining buzilishi, ekstremist kuchlar tomonidan huquq va erkinliklardan noqonuniy maqsadlarda foydalanish, qonunlarning bajarilmasligi.

Dunyo hamjamiyatida inson huquq va erkinliklari buzilishlariga hali to'la chek qo'yilgani yo'q. Genotsid, irqiy kamsitishning turli ko'rinishlari, harbiy jinoyatlar, shuningdek, insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyatlar batamom bartaraf etilgan emas.

10-§. Davlat va fuqaroning o'zaro mas'uliyati

Shaxs va jamiyatning o'zaro mas'uliyati - huquqiy davlatning ajralmas belgisidir. Nodemokratik davlatda faqat fuqaroning davlat oldidagi mas'uliyati tan olinadi. U go'yo fuqaroga huquq va erkinlik berayotganday bo'ladi va uning maqomini tayinlaydi. Huquqiy davlatda esa buning aksini ko'ramiz. Bu yerda davlat organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolar qoshida ularning huquq va erkinliklari uchun mas'ulligi masalasiga e'tibor qaratiladi. Bu mas'uliyat fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilishida aybdor bo'lgan mansabdor shaxslarning javobgarlikka tortilishini ta'minlaydigan va keskin jazo choralari ko'rilishini ko'zda tutadigan tegishli me'yoriy - huquqiy hujjatlar mavjud bo'lgan sharoitdagina amaliy tus kasb etadi.

Fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilmasligining muhim kafolati konstitutsiyaviy qoida bo'lib, unga binoan davlatning hokimiyat tuzilmalari har bir kishiga uning huquq va erkinliklariga bevosita tegishli bo'lgan hujjatlar va materiallar bilan tanishishni ta'minlashga majbur. Huquqiy davlatda har bir fuqaroning o'z huquq va erkinliklarini himoya qilish huquqi tan olinadi.

Huquqiy davlat hech kim tomonidan qurilgan emas, lekin muayyan yuridik me'yorlar va siyosiy tuzilmalar yaratilishida ongli xatti-harakatlar sodir etilganini ham inkor etib bo'lmaydi. Bunday davlatlar tarixan siyosiy-dav-latchilik an'analarining saqlanishi tufayli tabiiy ravishda paydo bo'lgan. Antik davrda stoiklar tomonidan shakllantirilgan tabiiy huquq g'oyasidan huquqiy davlat g'oyasi o'sib chiqqani ham tasodifiy emas. Ular tabiiy huquq deganda inson tabiatiga mos bo'lgan va insonni inson qilib turgan huquqlarni nazarda tutar edi. Insonning bu huquqlardan birontasidan mahrum qilinishi uni insonlik maqomidan mahrum qilib, qulga, mahkumga yoki harbiy asirga aylantirib qo'yar edi. Tabiiy huquqlar sirasiga yashash huquqi, xavfsizlik, mulkka egalik, erkin yurish va boshqa shunga o'xshash huquqlar kiradi.

11-§. Fuqarolik jamiyati va uning tuzilishi

«Huquqiy davlat» tushunchasi, «fuqarolik jamiyati» tushunchasi bilan chambarchas bog'langan.

Zamonaviy fuqarolik jamiyati tushunchasi bir qancha muhim belgilarning mavjud bo'lishini shart etib qo'yadi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida shunday deb ta'kidlaydi: «Biz uchun fuqarolik jamiyati bu - insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga xalaqit qilmaydigan, balki yordamlashadigan, shaxs manfaatlarini amalga joriy qiladigan, uning huquq va erkinliklarining eng ko'p darajada ta'minlanishiga sharoit tug'diradigan ijtimoiy makondir»⁷⁴.

Fuqarolik jamiyati uchun xarakterli bo'lgan belgilarni qarab chiqsak: birinchidan, fuqarolik jamiyati uchun plyuralizm xosdir. Bu turli siyosiy kuchlar - siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari mavjud bo'ladi, deganidir. Bu kuchlar gorizont al oqalar, bitimlar, sabr-toqat va o'zaro bir-birini tushunish yo'li bilan o'z maqsadiga yetishi lozim. Fuqarolik jamiyatida plyuralizm insonlar orasida qaror topadigan madaniy munosabatlar doirasida va vositasida amalga oshiriladi. Turli ijtimoiy shakl va institutlarning mavjudligi individning barcha ehtiyoji hamda manfaatlarini qondirish va inson mohiyatining barcha qirralarini namoyon qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati erkin kishilar hamjamiyatidir. Inson erki masalasini fuqarolik jamiyatida uch xil sharhlash mumkin. Siyosiy jihatdan inson erki masalasi fuqaro sifatida uning turli siyosiy partiyalarga, jamoat birlashmalariga erkin ravishda kirishini, o'z faoliyatini erkin suratda amalga oshirishini, shuningdek, davlat va mahalliy boshqarish organlariga saylov jarayonida ishtirok etishini ko'zda tutadi. Iqtisodiy jihatdan mulkka egalik qilishni va o'zi xohlagan turdagi, lekin qonunda taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati bilan mashg'ul bo'lishni, banklarda hisob raqami ochishni, qimmatli qog'ozlarga egalik qilishni, o'ziga tegishli bo'lgan mulkdan daromad olish maqsadida foydalanishni bildiradi. Ijtimoiy jihatdan esa ma'lum bir sinfga yoki tabaqaga mansublik insonning hayoti davomida o'zgarishi mumkin. Masalan, ziyoli odam tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish oqibatida biznesmenga aylanishi mumkin.

Uchinchidan, fuqarolik jamiyati ochiq ijtimoiy jamiyatdir. Unda

⁷⁴ Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». O'zbekiston, 1997. 166-bet.

so'z erkinligi, jumladan tanqid qilish erkinligi, oshkoralik, axborot olish erkinligi, erkin ravishda mamlakatga kelish va ketish, boshqa mamlakatlar bilan madaniy, ilmiy va axborot almashish huquqi ta'minlanadi.

To'rtinchidan, fuqarolik jamiyati o'z imkoniyatlari hisobiga taraqqiy etadigan va o'z-o'zini boshqaradigan tizimdir. Jamiyat harakatining eng muhim jihatlaridan biri fuqarolar tashabbusi bo'lib, u ongli ravishda jamiyat foydasiga yo'naltirilishi lozim. Odamlar turli tashkilotlarga birlashib, o'zaro turli-tuman, ba'zan esa o'zlarining qarama-qarshi manfaatlariga bo'ysunib, munosabatga kirishar ekan, shu yo'l bilan davlatning siyosiy hokimiyat sifatidagi aralashuvisiz jamiyatning uygun tarakqiyotini ta'minlaydi. Masalan, ko'pgana mamlakatlarda iste'molchilar huquqini himoya qilish jamiyatlari mavjud, ular jamoat tashkiloti sifatida iste'molchilarning huquqini sifatsiz mahsulotlardan himoya qiladi. Iste'molchining sog'ligiga yoki boshqa manfaatlariga sifatsiz mahsulot tufayli zarar yetgan paytda sudga iste'molchining huquqini himoya qilishni so'rab, da'vo arizasi bilan murojaat qiladi.

Beshinchidan, fuqarolik jamiyati huquqiy demokratik jamiyat bo'lib, bu yerda inson va fuqaroning tabiiy va qonuniy huquqlarining himoya qilinishi bog'lovchi omil vazifasini bajaradi. Huquqlarni himoya qilish va ta'minlash ham qonunchilik, ham davlat kafolatlari bilan, shuningdek, nohukumat jamoat tashkilotlarining faol harakati bilan ta'minlanadi.

Fuqarolik jamiyatining qaror topishi va rivojlanishi ma'lum sharoitlarda mumkin bo'lib, ularning asosiysi turli siyosiy kuchlarning eng muhim ijtimoiy qadriyatlar masalasida konsensusga kelishi hisoblanadi. Bu qadriyatlar esa quyidagilardan iborat: insonning huquq va erkinliklari, haqiqiy xalq hokimiyati, insonning mehnatini va boshqa hayotiy ehtiyojlarini rag'batlantirishga va himoya qilishga qobil bo'lgan bozor iqtisodiyoti, ijtimoiy adolat, huquqiy davlat.

Fuqarolik jamiyatining tuzilishi, deganda uning o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sirda bo'lgan tarkibiy qismlarining majmui tushuniladi. Bunday tarkibiy qismlar sirasiga iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy - ma'rifiy, madaniy va axborot tizimlari kiradi. Biroq ta'kidlash zarurki, bu tarkibiy qismlar ba'zan shunchalik chambarchas bog'lanib ketganki, ularni bir-biridan ajratish ham mushkul

bo'lib qoladi.

Ijtimoiy tizim kishilarni oiladagi, ishdagi, jamoat tashkilotlaridagi va ijtimoiy tabaqalardagi munosabatlari bo'yicha birlashtiradi. U fuqarolik jamiyatining birlamchi negizi bo'lib, fuqarolik jamiyatining boshqa tizimlariga ham ta'sir ko'rsatib turadi.

Ijtimoiy tizimda bosh rol ni oila o'ynaydi, chunki aynan oilada o'sib kelayotgan yosh avlodga tarbiya beriladi, aynan oilada keyinchalik butun jamiyatga o'z ta'sirini ko'rsatadigan psixologik iqlim shakllanadi. O'zbekistonda oilaga katta e'tibor qaratilmoqda, yoshlarga va ko'p bolali oilalarga ko'mak berilmoqda. 1998 yilning O'zbekistonda «Oila yili», 1999 yilning esa «Ayollar yili», 2000 yilning - «Sog'lom avlod yili» deb e'lon qilinishi ham buning yorqin isbotidir.

Qadim vaqtlardan buyon Sharqda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi kuch mahalla bo'lib kelgan. Mustaqillikka erishilgandan so'ng bu ezgu an'analar O'zbekistonda qayta tiklana boshladi. Mahalla haqiqatan ham ijtimoiy institut bo'lib, bu yerda odamlarning o'zaro yaqin munosabatlari qaror topadi.

Ijtimoiy tizimlar qatorida keyingi o'rinlarni yirik tuzilmalar hisoblanadigan siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari egallaydi.

Ma'naviy-ma'rifiy tizimlar yagona va bir butun tuzilmani tashkil etadi. Ularga ma'rifiy jihatdan o'zaro bog'liq munosabatlar kiradi. Ma'rifatsiz jamiyatning kelajagi yo'q. Ma'naviy-ma'rifiy tizimlar o'ziga ilmiy faoliyatni qamrab oladi, shuningdek, ilmiy-texnik taraqqiyot ham ular bilan chambarchas bog'liq. Bu sohada avlodlarning muntazam aloqasini o'rnatish, o'z Vatanining tarixiy o'tmishini bilish juda muhimdir.

Iqtisodiy tizim fuqarolik jamiyatining eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri sanaladi va u mulkchilikning turli ko'rinishlarini qamrab olgan bozor iqtisodiyotini ko'zda tutadi. Mulchilikning barcha shakllari teng amal qiladi va teng himoya qilinadi.

Moddiy boyliklarni ishlab chiqarish munosabatlari ijtimoiy tizimda muhim o'rin tutadi. Ishlab chiqarishning asosida jamiyat a'zoarining yaratuvchilik mehnati yotadi, shu boisdan mehnat munosabatlari iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Yalpi ijtimoiy mahsulotni taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol

qilish munosabatlari iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismlaridan sanaladi va garchi, ular ma'lum darajada, boshqa ijtimoiy tizim doirasida amal qilsa ham. Siyosiy tizimni o'z-o'zini tartibga soladigan bir butun unsunlar (tashkilotlar) - davlat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar, birlashmalar va ular orasidagi o'zaro munosabatlar tashkil etadi.

O'zbekistonda to'rtta siyosiy partiya mavjud. Buning mohiyati parlamentdagi joylarni va hokimiyatni siyosiy kuchlar nisbatiga qarab demokratik saylovlar yo'li bilan taqsimlashdan iborat. Siyosiy tizimga qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlarining vakolatlarini ajratish ham kiradi.

Shunday qilib, qancha odam va ularning qancha birlashmasi, ya'ni, shuncha manfaat va ularni tasavvur etishning shuncha yo'li mavjud bo'ladigan fuqarolik jamiyatidan farqli o'laroq, yolg'iz huquqiy davlatgina jamiyatni birlashtiruvchi bo'g'in vazifasini bajara oladi. Agar huquqiy davlat barham toptirilsa, jamiyat o'zaro raqobatlashayotgan tarkibiy qismlarga bo'linib ketadi.

Kirish	3
I bob. DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI - UMUMNAZARIY FAN SIFATIDA	7
1-§. Davlat va huquq nazariyasining o'ziga xos xususiyatlari	7
2-§. Hozirgi zamon hamda davlat va huquq nazariyasi fani	9
3-§. Davlat va huquq nazariyasi fani predmetini o'rganish metodlari	11
4-§. Davlat va huquq nazariyasining ijtimoiy fanlar tizimidaqi o'rni va roli	21
5-§. Davlat va huquq nazariyasi yuridik fanlar tizimida	26
6-§. Davlat va huquq nazariyasining funksivalari	30
7-§. Davlat va huquq nazariyasining o'auv fani sifatidaqi tuzilishi	34
8-§. Insonparvarlik va umummadaniy qarashlar davlat va huquq nazariyasi asoslari sifatida	34
9-§. O'zbekiston huquqiy fuqarolik jamiyati huquqini yaratish yo'lida	40
II bob. JAMIYAT, DAVLAT VA HUQUQ	43
1-§. Jamiyat haqidagi q'oyalari va tushunchalar	43
2-§. Diniv, sivosiv va huquqiy qarashlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi	51
3-§. Davlat va huquqning paydo bo'lishi haqidagi dunvoviv ta'limot	54
4-§. Davlat va huquqning paydo bo'lishi haqidagi markscha-lenincha ta'limot	57
III bob. DAVLAT TUSHUNCHASI, MOHIYATI, BELGILARI VA TIPLARI	59
1-§. Davlat tushunchasi va mohiyati	59
2-§. Davlatning asosiv belgilari	67
3-§. Davlat mohiyati va belgilarini tushunishda vondashuvlar xilma-xilliqi	68
4-§. Davlat tipologiyasi	75
5-§. Davlatning asosiv tiplari	81
6-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlarida davlat masalalari	91
IV bob. DAVLAT SHAKLLARI	104
1-§. Davlat shakli tushunchasi, uning tarkibiy unsurlari	104
2-§. Boshqaruv shakli	107
3-§. Sunniv va shi'a davlat-huquqiy ta'limoti xususiyatlari: boshqaruvning xalifalik va imomlik shakllari	119
4-§. Davlat tuzilishi shakllarining xilma-xilliqi	126
5-§. Sivosiv rejim tushunchasi va turlari	139
6-§. O'zbekistonda davlatchillikni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	153
V bob. DAVLAT FUNKSIYALARI	157
1-§. Davlat funksiyasi tushunchasi va tasnifi	157
2-§. Davlatning ichki va tashqi funksivalari hamda ularga ta'sir qiluvchi omillar	161
3-§. O'zbekiston davlatining asosiv funksivalari	163

VI bob. DAVLAT MEXANIZMI	175
<u>Davlat mexanizmi tushunchasi</u>	175
<u>2-§. Davlat mexanizmi tarkibi</u>	176
<u>3-§. Davlat organi tushunchasi va belgilari</u>	177
<u>4-§. Davlat organlari turlari</u>	178
<u>5-§. Davlat mexanizmida byurokratiya va byurokratizm</u>	182
VII bob. HUQUO HAQIDA TA'LIMOT	184
<u>1-§. Huquning tushunchasi va mohiyati</u>	184
<u>2-§. Huquni tushunishning umumiy masalalari va ularning amaliy faoliyat uchun ahamiyati</u>	186
<u>3-§. Huquqqa "normativ" vondashuv - oonunivlik va barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatida</u>	188
<u>4-§. Huquqqa "sotsiologik" vondashuv - ijtimoiy havotning o'sishini ta'minlash vositasi</u>	190
<u>5-§. Huquning psixologik nazarivasi</u>	191
<u>6-§. Tabiiy huquq nazarivasi (huquqqa falsafiy vondashuv)</u>	192
<u>7-§. Huquni tushunish tarixi vondashuv</u>	194
<u>8-§. Huquni markscha tushunish</u>	194
<u>9-§. Huquni tushunish integrativ vondashuv</u>	195
VIII bob. HUQUO PRINSIPLARI VA FUNKSIYALARI	197
<u>1-§. Huquq prinsiplarining tushunchasi va mohiyati</u>	197
<u>2-§. Huquq prinsiplarining tasnifi</u>	199
<u>3-§. Huquq funksiyalari tushunchasi va turlari</u>	204
IX bob. HUQUQIY ONG	209
<u>1-§. Huquq va huquqiy onaning o'zaro bog'liqligi</u>	209
<u>2-§. Huquqiy onaning tuzilishi</u>	211
<u>3-§. Huquqiy ong - huquni takomillashtirish va rivojlantirish omili</u>	215
X bob. HUQUO IJODKORLIGI	118
<u>1-§. Huquq ijodkorligi tushunchasi, turlari va funksiyalari</u>	118
<u>2-§. Huquq ijodkorligi prinsiplari</u>	222
<u>3-§. Normativ-huquqiy aktlar -huquq ijodkorligi mahsuli</u>	226
<u>4-§. Oonun ijodkorligi jarayoni va bosaichlari</u>	236
<u>5-§. Normativ-huquqiy aktlarining vaqt, hudud va shaxslarga nisbatan amal qilishi</u>	241
<u>6-§. Normativ-huquqiy aktlarni tizimlashtirish</u>	247
<u>7-§. Huquq ijodkorligida yuridik texnika masalalari</u>	250
XI bob. HUQUONING MANBALARI	253
<u>1-§. Huquning manbalari (shakllari) tushunchasi</u>	253
<u>2-§. Huquqiy odat</u>	253
<u>3-§. Huquqiy pretsedent</u>	254
<u>4-§. Normativ-huquqiy aktlar</u>	254
<u>5-§. Normativ shartnomalar</u>	256

XII bob. HUQUO NORMASI	257
1-§. Huquq normasi tushunchasi	257
2-§. Huquq normasining tuzilishi	260
3-§. Huquq normasining turlari va ularning tasnifi	262
XIII bob. HUQUOIY MUNOSABATLAR	266
1-§. Huquqiy munosabatlar tushunchasi va turlari	266
2-§. Huquqiy munosabatlarning sub'yektlari	272
3-§. Sub'yektiv huquq va yuridik majburiyatlar	276
4-§. Huquqiy munosabatning ob'yekti	278
5-§. Yuridik faktlar	280
XIV bob. HUQUO TIZIMI	286
1-§. Huquq tizimi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari	286
2-§. Huquqiy tartibga solish predmeti va usuli - huquqiy tarmoq va institutlarga ajratishning asosi sifatida	292
3-§. O'zbekiston Respublikasidagi asosiy huquq tarmoqlarining qisqacha tafsili	294
XV bob. HUQUONI TATBIO ETISH VA OQ'LLASH	300
1-§. Huquqni tatbiq etish	300
2-§. Huquqni oq'llash	302
3-§. Huquqni oq'llash bosqichlari	303
4-§. Huquqni oq'llash aktlari	305
Huquqni oq'llash aktlarining turlari	306
XVI bob. HUQUO NORMALARINI SHARHLASH	308
1-§. Huquq normalarini sharhlash tushunchasi	308
2-§. Huquq normalarini sharhlash turlari	311
3-§. Huquq analogiyasi va qonun analogiyasi	315
XVII bob. HUQUOIY XULO-ATVOR. HUQUOBUZARLIK VA YURIDIK JAVOBGARLIK	317
1-§. Huquqiy xulo-atvor	317
2-§. Huquqbuzarlik tushunchasi va turlari	319
3-§. Yuridik javobgarlik tushunchasi, turlari va asoslari	321
4-§. Aysizlik prezumpsiyasi, Yuridik javobgarlik va qilmishning huquqqa xilofligini istisno qiluvchi holatlar	326
XVIII bob. HUQUOIY TARTIBGA SOLISH MEXANIZMI	328
1-§. Huquqiy tartibga solish tushunchasi	328
2-§. Huquqiy tartibga solish mexanizmi va uning unsurlari	333
3-§. Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish	337
4-§. Huquqiy tartibga solishning ijtimoiv va ruhiv mexanizmi	342
XIX bob. QONUNIVLIK VA HUQUOIY TARTIBOT	345
1-§. Qonunivlik va huquqiy tartibot tushunchasi	345
2-§. Qonunivlikni muhofaza qilish va ta'minlash	350

XX bob. HOZIRGI ZAMON ASOSIY HUQUQIY TIZIMLARI	355
1-§. Jahon vujudik xaritasi.....	355
2-§. Yuridik tipologiya va tasniflash	357
3-§. Roman-german huquq oilasi	361
4-§. Angliya-Amerika huquqiy tizimlari (umumiy huquq oilasi)	364
5-§. Lotin Amerikasi huquqiy tizimlari	368
6-§. Skandinaviya mamlakatlari huquqiy tizimlari.....	371
7-§. Musulmon mamlakatlari huquqiy tizimlari (islom huquqi).....	372
8-§. Hindiston huquqiy tizimi (hindu huquqi).....	377
9-§. Afrika mamlakatlari huquqiy tizimlari	380
XXI bob. JAMIYAT, DAVLAT, HUQUQ: ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	385
1-§. Huquqiy davlatni shakllantirish - hozirgi zamon taraqqiyotining ob'yektiv tendensiyasi	385
2-§. Huquqiy davlatning tarixiy-nazariy ildizlari.....	400
3-§. Huquqiy davlatni shakllantirish	409
4-§. Xalq hokimiyati rejimini ta'minlashda qonunning roli	413
5-§. Fuqarolik jamiyati tushunchasi va uni shakllantirish yo'llari	416
6-§. Davlat, huquq, shaxs.....	430
7-§. O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning konstitutsiyaviy asosi.....	444
8-§. Huquqiy davlat va hokimiyatlar bo'linishi tamoyili	463
9-§. Qadriyatlar tizimida inson huquqlari va erkinliklari	464
10-§. Davlat va fuqaroning o'zaro mas'uliyati	467
11-§. Fuqarolik jamiyati va uning tuzilishi	467

DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI

Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik
mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan
talabalari uchun

Muxarrir: S.Salimova.

Texnik muxarrir: A.A.Boynamatov.

Musaxxix: N.Mirzajonova.

Kompyuterda saxifalovchi: N.Nishonova.

Bosishga ruxsat etildi: 15.06.2005.

Xajmi: 29,7 b.t. Adadi: 1000. Buyurtma: № 502

TDYU kichik bosmaxonasida bosildi.

Toshkent shaxar, Sayilgox 35.

DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI